

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMBEK SHAMSUTDINOV, **SHODI KARIMOV**,  
O'KTAMJON UBAYDULLAYEV

# VATAN TARIXI

(XVI–XX asr boshlari)

## IKKINCHI KITOB

TO'LDIRILGAN, QAYTA ISHLANGAN IKKINCHI NASHRI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi tomonidan universitetlar,  
pedagogika institutlari tarix fakulteti talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya qilingan

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT – 2010

*Mas'ul muharrir:*

tarix fanlari doktori **O'. Mavlonov**, professor **Q. Usmonov**

*Taqrizchilar:*

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi,  
tarix fanlari doktori, professor **I. Alimov**,  
tarix fanlari doktori **H. Sodiqov**, O'zbekistonda  
xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, tarix  
fanlari nomzodi, dotsent **P. Isroilov**,  
tarix fanlari nomzodlari **M. Sodiqov**,  
**M. Jo'rayev**, **A. Yaxshiyev**.

Mazkur kitob 1997-yilda nashr etilgan «Vatan tarixi» (Birinchi kitob) o'quv qo'llanmasining davomi bo'lib, unda O'zbekiston tarixshunosligi taraqqiyotining hozirgi bosqichdagi yutuqlariga hamda milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan holda Vatanimiz tarixining Shayboniylar davlatining tashkil topishidan to XX asr boshlarigacha bo'lib o'tgan muhim voqealari yoritilgan. Kitobda Shayboniylar, Ashtarxoniyalar, o'zbek xonliklari, Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o'lkadagi mustamlaka hukmronligi, mustamlakachilikka qarshi kurash, demokratik va milliy-ozodlik, jadidchilik harakatlari turli manbalar asosida aks ettirilgan.

Kitobdan universitetlar, pedagogika institutlari tarix fakultetlari talabalari, shuningdek, Vatanimiz tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

**Shamsutdinov R.** va boshq.

Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari); K.2.: /Mualliflar: R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev; Mas'ul muharrirlar: O'. Mavlonov, Q.Usmonov. – Taqrizchilar I. Alimov va boshq. — T.: «Sharq», 2010, 368 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti.

**BBK 63.3(50<sup>o</sup>)ya 721**

**ISBN 978-9943-00-583-9**

Предлагаемая вниманию читателей книга является прямым продолжением учебного пособия «Ватан тарихи» (Отечественная история. Книга первая), изданного в 1997 году, в котором на основе достижений современной историографии Узбекистана, идей национальной независимости и разнообразных документальных источников освещается история Отечества со времен государства Шейбанидов, Аштарханидов, узбекских ханств, завоевания Туркестана царской Россией и ее колониального господства. Показана национально-освободительная борьба народов края, направленная против колониальной политики царизма, а также демократические, национально-освободительные и джадидские движения.

Книга предназначена студентам исторических факультетов университетов и педагогических институтов, а также всем тем, кто интересуется отечественной историей.

This book is direct continuation of the educational manual “Vatan tarixi” (the history of fatherland the first book), published in 1997, in which on the basis of the achievement of modern historiography and ideas of national independence described the history fatherland beginning from the times of the states of Shaybanids, Ashtarhanids, Uzbek khans, occupation of Central Asia by the tsarist Russia and it’s colonial domination, democratic, national-liberation and jadid movements are described on the basis of the achievements of modern historiography and the ideas of national Independence.

This book is intended to the students of historical faculties of universities and pedagogical institutes, and also who is interested in the history of fatherland.

## Muqaddima

*Aziz va muhtaram ilm tolibi!*

Jonajon O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishganligi tufayli jamiyatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, ma’naviy turmushimizda ham chuqur sifat o‘zgarishlari, tiklanish va yangilanish jarayonlari jadal sur’atlarda sodir bo‘lmoqda. Mazkur jarayon xalq ta’limi tizimini ham qamrab oldi va bu tizimni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish mustaqil O‘zbekistonning davlat siyosati maqomini kasb etdi.

Ushbu tarixiy yutug‘imizning ma’naviy negizini mustahkamlash o‘zbek xalqi tanlab olgan o‘ziga xos yo‘lni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri ekanligi shakshubhasiz. Bu muhim tarixiy vazifani – mustaqillikning ma’naviy asoslarini qaror toptirish va yanada mustahkamlashda sizyoshlarni ma’naviy kamolotga yetkazish, milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash, hozirgi zamon ilmiy bilimlari bilan qurollantirish favqulodda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois davlatimiz Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning bu haqda tinmay g‘amxo‘rlik qilayotganligi bejiz emas, albatta. **«...Noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkilotmog‘i kerak. Shunga ko‘ra Vatan tarixi va madaniyati, jug‘rofiyasi va iqtisodiyotini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog‘chalardan tortib oliy o‘quv yurtlarigacha bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o‘qitishga muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog‘i lozim»<sup>1</sup>.**

Biroq mustaqilligimizning dastlabki paytlarida bu muhim ta’lim-tarbiyaviy vazifani keng ko‘lamda samarali hal qilish uchun

<sup>1</sup> *Каримов И.* Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир. 3-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996. 38-бет.

zarur bo'lgan shart-sharoitlarimiz birmuncha cheklangan edi. Nafaqat O'zbekistonning boy tarixini yangicha idrok etish, balki yangi milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va uni fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida qaror toptirish ishiga xizmat qilishga dav'at etilgan Vatan tariximizning o'zi jiddiy yangilanishi lozim edi. Mustaqil O'zbekistonning ilmiy-nazariy jihatdan puxta asoslangan yangi tarixiga talab ortib bordi va bu talab paysalga solinmay qondirilishi zarur edi. Yana bir yetilgan ehtiyojning tez orada hal etilishi taqozo etildi. Tarix fanimiz yangilanishi va rivojining mustahkam tayanchi sifatida uning yagona konsepsiyasi yaratilishi kerak edi. Bu dolzarb muammoning yechilishi zarurligi Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 1998-yilning iyunida bir guruh tarixchi olimlar, ijodiy xodimlar va jurnalistlar bilan bo'lgan suhbatida uqtirilgan edi. Suhbatda yurtboshimiz bu masalaga e'tiborni jalb etib bunday degan edi: **«Nazarimda o'zbek xalqining tarixiy o'tmishini, o'zligini, ma'naviyati haqida gapirayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayyan masalalarda aniq yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tilda aytganda yaxlit konsepsiya yo'q. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur».**<sup>1</sup>

Mazkur suhbatda yurtboshimiz boy, betakror tariximizning uzoq va yaqin davrlari, bosqichlari, dolzarb muammolari haqida muhim metodologik ahamiyatga molik g'oyalarni ilgari surdi va ta'riflab berdiki, ularning barchasi Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan risolasida o'z ifodasini topdi. Bu asarda tarixshunosligimizning ahvoli tahlil etilgan, uning rivojlanish istiqbollari belgilab berilgan, yoshlarni Vatan tarixini chuqur bilish bilan qurollantirishning dolzarb vazifalari, yangicha yondashuv va metodologik tamoyillar munosib o'rin olgan. Hozirgi kunda Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari tadqiqotchilar uchun ham, tarix fanidan ta'lim berayotganlar uchun metodologik asos sifatida samarali xizmat qilmoqda.

Islom Karimov sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston Respubli-

<sup>1</sup> *Каримов И.* Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курмоқдамиз. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1999. 134-бет.

kasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O‘zbekistonning yangi tarixi markazi»ning tashkil topishi, Fanlar akademiyasi tarix institutiga yangi maqom berilishi, 1996-yil 16-dekabrda Prezidentimiz imzolagan «O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish to‘g‘risida»gi farmoni va unga asosan 3 jildlik O‘zbekistonning yangi tarixining yaratilishi ham O‘zbekiston tarixini tadqiq etish va o‘qitish ishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tarix ta’limi haqida, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning sifatini oshirish to‘g‘risida so‘z ketganda bu sohaga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan yana bir omilni ham qayd etib o‘tish joizdir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix instituti huzurida Yahyo Gulomov nomidagi «O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixini o‘rganish» Respublika ilmiy seminari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Bugungi kunda bu muhim hujjat o‘zbek xalqi va uning milliy davlatchiligining haqqoniy tarixini yaratish, xalqimizda, ayniqsa, yosh avlod ongida tarixiy xotira va tafakkurni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Jamiyatimiz ma’naviyatini yuksaltirishga ustuvor yo‘nalish berilayotganligining asl boisi ham shundaki, har tomonlama tarbiya ko‘rgan, ma’rifatli, ma’naviyati yuksak milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalarini o‘z ongida qaror toptirgan komil insonlarni voyaga yetkazib borish ko‘p jihatdan ma’naviyat sohasidagi sa’y-harakatlar tizimida yoshlarga, talabalarga tarix ta’limini berish, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish, bu fandan ta’lim berish sifatini davr talablari darajasiga ko‘tarish alohida o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida bu borada qator muhim tadbirlar amalga oshirildiki, ular o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi.

Istiqlolning dastlabki yillarida e’lon qilingan ilmiy tadqiqotlardan akademik A.Asqarovning bosh muharrirligida rus tilida nashr etilgan «Istoriya Uzbekistana. Tom III (XVI – pervogo polovina XIX veka).» Izdatelstvo «Fan» Tashkent, 1993) kitobi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda so‘nggi o‘rta asrlardagi yozma manbalar va arxiv to‘plamlaridan olingan aniq materiallarni hamda eng yangi adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida O‘zbekistonning XVI–XIX asr birinchi yarmidagi tarixi xalqlarning hayoti, turmushi, siyosiy voqealar, iqtisodiyot va madaniyat masalalari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bevosita g'amxo'rligi va e'tibori samarasi o'laroq O'zbekiston tarixini fan sifatida rivojlantirish va uni o'qitishni zamon talablari asosida tashkil etish sohasida e'tiborga loyiq bir qator tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. 1996-yilda «O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi» yaratildi va tarix ta'limi jarayonida qo'llanila boshlandi. Mazkur konsepsiya O'zbekiston tarixini fan sifatida o'qitishni yanada yaxshilashda muhim bosqich bo'ldi.

Ana shu konsepsiya asosida Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, umumta'lim va boshqa turdagi maktablar, litseylar, kollejlilar va gimnaziyalar uchun O'zbekistonning yangi tarixidan o'quv dasturlari tayyorlanib sinovdan o'tkazildi. Davlat Konsepsiyasi va o'quv dasturlarining yaratilishi, ayniqsa, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish borasida erishilgan yutuqlar o'z navbatida O'zbekiston tarixi bo'yicha darslik va bir qator o'quv qo'llanmalarining yaratilishi uchun zarur imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Bu imkoniyatlar tarixshunos olimlar, yetakchi pedagoglar tomonidan «O'zbekiston tarixi» (maktab darsliklari) va «Vatan tarixi» (Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanma) kabilarning yaratilishiga olib keldi. Darslik va qo'llanmalarining yaratilishi O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishni yangi saviyaga ko'tarishga katta rag'bat bo'ldi.

Keyingi yillar mobaynida Vatanimiz tarixini o'rganishga nisbatan tobora o'sib borayotgan qiziqish va intilishni hisobga olib keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallab O'zbekiston tarixidan eng zarur bilim va ma'lumotlar beruvchi bir qator ommabop qo'llanma va kitoblar yaratildiki, bular jumlasiga «O'zbekiston tarixi». O'quv qo'llanma. (Toshkent, «Universitet», 1997) «O'zbekiston tarixi. Qisqacha ma'lumotnoma» (Toshkent. 2000) va «O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar to'plami». (Toshkent. 2000), «O'zbekiston tarixi». 1-qism (Toshkent. 2002), «O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalari uchun darslik» (Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005) kabilarni ko'rish mumkin. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, tarixchi olimlar tariximizning hali yaxshi tadqiq etilmagan

sahifalarini yangicha yondashuvlar asosida yoritgan tadqiqotlar yaratib, yangi tariximizni yozishga, O'zbekiston tarixi fanini oliy o'quv yurtlarida, ayniqsa, ularning tarix fakultetlarida o'qitishni takomillashtirish ishiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Bu o'rinda mualliflar jamoalari tomonidan yaratilgan O'zbekistonning yangi tarixining uchta kitobini,<sup>1</sup> «O'zbek davlatchiligi tarixi», «Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti», «O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi», «Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash» kabi kitoblarni ko'rsatib o'tish zarur.

Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va ularning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan katta nufuzini ko'rsatuvchi yangi adabiyotlardan Haydar Bobobekovning 1996-yil «Fan» nashriyotida nashr etilgan «Qo'qon tarixi» kitobini ko'rsatish mumkin. Bu boradagi eng so'nggi adabiyotlardan mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan «O'zbek davlatchiligi tarixi»<sup>2</sup> hamda «История Какандского ханство»<sup>3</sup> kitoblari ham muhim ahamiyatga molikdir.

O'zbek xonliklari tarixining yangicha talqinlari O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham berilgan bo'lib, undagi maqolalar ham ilmiy, ham ommabop xarakterga egadir. Buxoro xonligi, Buxoro amirligi tarixi taniqli tarixshunos olim Hamid Ziyoyev<sup>4</sup> tomonidan, Xiva xonligi tarixi tarix fanlari nomzodi dotsent Ne'mat Polvonov<sup>5</sup> tomonidan, Qo'qon xonligi tarixi esa tarix

<sup>1</sup> Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Тошкент: «Шарк», 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон мустабид советлар хукмронлиги даврида. «Шарк» нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти. Тошкент, 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Ўзбекистон мустакиллик йилларида. «Шарк» нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти. Тошкент, 2000.

<sup>2</sup> Бобоев Х., Хидиров З., Шодиев Ж., Аҳмедова М. Ўзбек давлатчилиги тарихи II китоб. «Фан ва технология ташкилоти» нашриёти. Т., 2009

<sup>3</sup> Эгамбердиев А., Амирсаидов А. История Кокандского ханства. Библиографический указатель с иллюстрациями, XVIII век. – 1876 г. Т., 2007.

<sup>4</sup> Qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат нашриёти. — Т.: 2001. 2-жилд. 302–306-бетлар.

<sup>5</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси... 9-жилд. — Т.: 2005, 417–419-бетлар.



fanlari doktori, professor Haydarbek Bobobekov<sup>1</sup> tomonidan yozilgan. Ushbu maqolalar tarix fanining eng so‘nggi yutuqlari, yangiliklari yangicha konsepsiya ruhida yozilgan.

Vatan tarixini chuqur bilish va o‘rganishga azmu qaror etgan Siz talabalarning nazaridan bu yangi tarixiy tadqiqotlar chetda qolmas. Zero, ular boy o‘tmishimiz, jo‘shqin silsilalari tizimidan iborat tariximizning haqqoniy ilmiy manzarasini beruvchi bilim manbalaridir.

Shu narsa ayonki, xalq ta‘limi tizimimiz, shu jumladan, tarix fanidan ta‘lim berish yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqdaki, bu hol O‘zbekiston tarixidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni vaqti-vaqti bilan yangilab, boyitib va takomillashtirib turishni zarur qilib qo‘yadi. Darhaqiqat tarix ta‘limi samaradorligini oshirish manfaatlari, talabalarni tarix ilmi bilan tarbiyalash, ular ongida milliy istiqloq mafkurasi va uning eng muhim tamoyilini shakllantirish zaruriyati ana shu ishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Chindan ham O‘zbekiston tarixi fani yangilanish, o‘sish, rivojlanish jarayonini boshdan kechirayotgan ekan, bu fandan o‘qilayotgan ma‘ruzalar, yaratilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari vaqti-soati bilan yangilanib turishi, yangiliklar va tarixshunosligimiz erishayotgan keyingi yutuqlarni o‘zlarida aks ettirib borishlari lozim. Mazkur qo‘llanmani tuzuvchilar uni yaratishga jazm etar ekanlar, ana shu holni nazarda tutganlar. Kitob Vatanimiz tarixining favqulodda katta, mohiyatan g‘oyat muhim va boy sahifasini yoritishga bag‘ishlanadiki, bu davr qiyofasini ifoda etuvshi mavjud adabiyotlarning barchasi ham tarix fanimizning keyingi yutuqlarini aks ettirib ulgurganicha yo‘q. Modomiki shunday ekan, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratib, bu yutuqlarni aks ettirib, talabalarga yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu tahlitdagi qo‘llanmalar nashr etilishini zoriqib kutayotgan, tarixiy bilimlarga chanqoq talabalar e‘tiboriga havola etilayotgan ushbu kitob yaqin yillarga qadar kommunistik g‘oya va mafkura singdirib yaratilgan tarixiy adabiyotlarga xos soxta-

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси... 11-жилд. — Т.: 2005, 209–212-бетлар.

lashtirish va buzishlardan tamomila xolis bo'lishga, Vatan tarix-shunosligimizning yangi metodologiyasi va shu asosda erishilgan yangi yutuqlari zahirida dunyoga keldi. Uni yaratishda tarixiy hujjatlar, voqealarni umumiy va ortiqcha sharhlovchi, tafsiliy izohlovchi quruq so'zlar bilan ko'mib yubormaslikka harakat qilindi.

Mumkin qadar manbalar ma'lumotnomalaridan yiroqlashmaslikka va imkon boricha tarixiy haqiqatni borligicha aniq-ravshan va xolisona yoritishga intildik. Shuni ham qayd etib o'tish joizki, qo'llanma mualliflari bundan avvallari dunyo ko'rgan tarixiy adabiyotlarda bizning tadqiqot obyektimiz bo'lgan mavzularni yoritishda kamroq foydalanilgan yoki foydalanilmagan qo'lyozmalar, arxiv hujjatlari va ayniqsa milliy muarrixlarimiz hamda rus matbuoti ma'lumotnomalaridan foydalandilar.

Kitobda Vatanimiz tarixining XVI asrdan, ya'ni Shayboniyar sulolasi davridan to 1917-yilgacha bo'lgan davrning muhim sahifalari yoritiladi. Shubhasiz, bir kitob doirasida qo'yilgan qator jiddiy vazifalarni biror nuqson va kamchiliklarsiz, talab darajasida yoritib berish mushkul bir yumush bo'lishiga qaramasdan ularni baholi qudrat amalga oshirishga harakat qilinadi.

**I B O B****XVI ASR VA XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA  
OʻRTA OSIYO XALQLARI****1. SHAYBONIYLAR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI**

Buyuk Amir Temur tomonidan Oltin Oʻrdaga berilgan kuchli zarba bir vaqtlar qudratli boʻlgan davlatning zaiflashuvi va parchalanib ketishiga sabab boʻlgan asosiy omillardan biridir. Uning oʻrniga Volganing oʻrta va quyi oqimida Qozon va Ashtarxon hamda Turkiya hukmronligi ostidagi Qrim yarim orolida Qrim xonliklari vujudga keldi. Oʻz navbatida Amir Temur vafotidan soʻng uning avlodlari oʻrtasida oʻzaro urushlar Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning parchalanib ketishiga sabab boʻldi va shimoldan kelgan koʻchmanchi qabilalarning bu yerlarni osonlikcha egallab olishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Maʼlumki, Sirdaryoning yuqori oqimi va Tiyanshan togʻ tizmalarining Shimoliy yon bagʻirlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar Dashti Qipchoq nomi bilan atalgan. Bu Dashti Qipchoq atamasini XI asrda Nosir Xisrav qoʻllagan. Dashti Qipchoq XI–XV asrlarga oid arab va fors manbalarida tilga olinadi. Dashti Qipchoq aholisi sharq manbalarida – qipchoqlar, rus solnomalarida polovetslar, Vizantiya xronikalarida kumanlar, venger manbalarida kunlar deb atalgan. Dashti Qipchoq XIII asr boshlarida Chingizxon qoʻshinlari tomonidan bosib olingach, tarixda Joʻji ulusi nomi bilan atalgan Oltin Oʻrda davlati barpo etiladi. XIV asr boshlarida Joʻji ulusi, yaʼni Oltin Oʻrda ikkiga boʻlinib ketadi. XIV asrning 60-yillaridan Dashti Qipchoqning sharqiy qismi «Oʻzbeklar mamlakati», aholisi esa «oʻzbeklar» deb atala boshlangan<sup>1</sup>.

XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqda koʻchmanchi

<sup>1</sup> *Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. — Т.: «Университет», 2007, 266-бет.*

*Аҳмедов Б. Ўзбек усули. — Т., 1992.*

qabilalar o'rtasida olib borilgan o'zaro janglarda Abulxayrxon (1412–1468) boshchiligidagi Shayboniylar nomi ostida urug' tarix maydoniga chiqadi. Abulxayrxon 1428-yilda xon etib saylanadi va qirq yil (1428–1468) hukmronlik qildi. U Sirdaryoning quyi oqimida Sig'noq, Oqqo'rgon, Arko'k, O'zgan kabi shaharlarni egallab oldi va bu hududlardan doimo Movarounnahrqa tahdid solib turdi. Abulxayrxon vafot etgach (1468-y.) o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Haydarxon davrida Iboqxon, Jonibek, Gerayxon, mang'it amirlaridan Yomqurchi va Muso Mirzolar Oltin O'rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib Haydarxonga qarshi kurash olib borib, g'alabaga erishganlar, Haydarxon esa qatl etilgan. Shunda shoh Budoqning o'g'illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o'z qurollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo shahzoda Muhammad Shayboniy o'z ukasi bilan qamal qilingan Ashtarxondan omon-esson chiqib Dashti Qipchoqqa yetib kelgan. U XV asrning 80-yillarida bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq yerlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytadan tiklash uchun kurash olib boradi. Bu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad berganlar. Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o'z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukmdorlari va noiblari –Turkiston va O'troni idora qilgan noib Muhammad Mazid Tarxon, Samarqand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yaxshi kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko'rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo'lganida Shayboniyxon ma'rifatdan saboq olgan, ilm va she'riyatni sevib o'rgangan.

Sig'noq shahri (Qizil O'rdaga boradigan yo'ldagi Tuman-Ariq degan sobiq pochta bekatiga 10 km yetmasdan, Sig'noq shahrining xarobalari hozir ham mavjud) Shayboniyxonga jangsiz taslim bo'lgan. Mang'it hokimi Muso-Mirzoning yordami evaziga Shayboniy qozoqlar xoni Burunduqxonni (1481–1511) tor-mor qiladi. Ammo keyin o'zi qattiq zarbaga uchrab, Mang'ishloq yarim oroliga qochadi.

Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo'g'ullarning tinim-

siz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib Shayboniyxonga yordam soʻrab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrda ikki bosqichda yaʼni 1488–1499-yillarda birinchi marta, 1499–1507-yillarda ikkinchi marta yurishlar qiladi va birin-ketin Oʻror, Yassi (Turkiston), Buxoro, Samarqand hamda Fargʻona hududlarini egallab oladi.

## **2. SHAYBONIYXON VA BOBUR MIRZONING OʻZARO MUNOSABATLARI**

Temuriylar sulolasining nomini jahonga taratgan vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U 1483-yilda Andijonda tugʻilgan. Bobur Mirzoning otasi – Umarshayx Mirzo (1451–1494) Fargʻona viloyati hokimi, onasi Qutlugʻ Nigorxonim Moʻgʻiliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

1469-yilda Sulton Abusayid vafotidan soʻng temuriylar saltanati yana ikki qismga boʻlinib ketganligi tarixdan maʼlum. Movarounnahrda Sulton Abusayid avlodlari navbat bilan hukmronlik qildi. Dastlab uning oʻgʻli Sulton Ahmad Mirzo (1469–1494), soʻngra Sulton Mahmud Mirzo (1494–1498) va nihoyat Mahmudning oʻgʻli Sulton Ali Mirzo (1498–1500) mustaqil hukmronlik qiladilar. Fargʻonada Umarshayx hokimlik qilar edi. Bu hukmdorlar orasida ayniqsa Sulton Ahmad uquvsiz, sustkash boʻlgan. Uning davrida siyosiy tarqoqlik va toj-u taxt uchun kurash avjiga mingan. 1494-yilda Sulton Ahmad Mirzo Moʻgʻiliston xoni Sulton Mahmud oʻzaro ittifoq boʻlib, lashkarlarini Fargʻonaga yuborgan bir paytda Umarshayx fojiali halok boʻladi.

Bu davrda Bobur Mirzo endigina 12 yoshga toʻlgan edi. U valiahd sifatida taxtga oʻtiradi (1494-yil iyun). Yosh va tajribasiz Bobur Mirzo yuqori tabaqa vakillari oʻrtasidagi siyosiy tarqoqlik kurashiga aralashishga majbur boʻladi. U ulugʻ sohibqiron bobosi davlatini birlashtirishni oʻzining ezgu niyati deb bilar edi. Ana shu ezgu maqsad bilan harakat qilgan Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qoʻshinlari 1495–1496-yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497-yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va yetti



**Zahiriddin Muhammad  
Bobur**

Samarqanddan chiqib Andijon sari o'tlanadi. Samarqand yosh shahzoda xotirasida juda chuqur iz qoldiradi. Bu Bobur Mirzoning Movarounnahr poytaxtiga birinchi bor qadam qo'yishi edi.

1498-yilda Buxoroda turgan temuriylardan bo'lmish Sulton Ali Samarqandga kirib keladi. Uning ixtiyorida qurolli kuch yo'q bo'lib u amirlar qo'lida shunchaki bir qo'g'irchoq edi, xolos. Mamlakatdagi bunday bosh-boshdoqlik, boshqaruv tizimining tez-tez bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tib turishi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli Movarounnahr tuprog'idan temuriylarni surib chiqarishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan boshqa bir turkiy qabila – Dashti Qipchoqdagi chorvador o'zbek nomi bilan ataluvchi qavm va qabilalarning Muhammad Shayboniyxon boshchiligidan bu hududlarni egallab olishlariga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxon 1500-yilda jangsiz Samarqandni egalladi. U shaharni talaydi, temuriy shahzodalarni qilichdan o'tkazadi. Aholiga katta va og'ir soliqlar solinadi. Bu hol Samarqand shahri aholisining norozilik qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonga

oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, Boysung'ur Qunduzga qochadi. Zahiriddin Bobur bobosi Amir Temurning rasmiy poytaxti Samarqandda bor yo'g'i yuz kungina hukmronlik qiladi, xolos. U tez orada Andijonga qaytishga majbur bo'ladi. Buni muarrixlar har xil sabablar bilan sharhlaydilar. Birinchi sababi, Samarqand uzoq vaqt qamal qilinganligi oqibatida shaharda oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. Ikkinchi sababi esa, Bobur Mirzoning yo'qligidan foydalangan mahalliy hukmdorlar Andijonda qo'zg'olon ko'taradilar va shaharni qo'lga oladilar. Bobur Mirzo Andijondagi o'zboshimcha beklarni tanobini tortib qo'yish maqsadida

Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon bu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib oʻzi Koʻlimalikda dam olayotgan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi.

Bobur Mirzo hukmdor etib koʻtariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, Gʻuzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Samarqandda sodir boʻlgan voqealardan xabar topgan Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qoʻshin toʻplab yana Samarqand sari yurdi. Bu davrda Samarqandda ogʻir vaziyat vujudga kelgan edi. Qurgʻoqchilik tufayli shahar oziq-ovqat va yem-xashak tanqisligiga uchradi. Natijada Bobur Mirzo lashkarlarining bir qismini tarqatib yuborishga majbur boʻladi. U oz sonli qoʻshin bilan qolgan edi. Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh, Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan jangga kiradi. Zarafshon qirgʻogʻida boʻlgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq vaqt qamal qiladi. Shaharda misli koʻrilmagan ogʻir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalangʻoch qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab Toshkent tomon otlandi. U togʻasi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam soʻrab boradi. Biroq Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qoʻshinlarini yengadi. Bobur Mirzo Moʻgʻilistonga qochishdan boshqa chora topa olmadi. Bu davrda Andijon ham Shayboniyklar tomonidan egallangan edi. Muhammad Shayboniyxon 1505-yilga kelib butun Movarounnahrni egallab boʻlib, Xurosonni qoʻlga kiritish maqsadida tayyorgarlik koʻrayotgan edi. Bobur Mirzo 1504–1507-yillar oraligʻida Moʻgʻiliston va Movarounnahr yerlarida quvgʻinda yuradi va nihoyat oz sonli lashkar bilan Hisor togʻlaridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda ogʻir kunlarni oʻtkazdi. Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523–1603) oʻzining «Humoyunnoma» asarida bunday deb yozgan edi: «Toʻliq 11 yil davomida Movarounnahr oʻlkasida, chigʻatoy, temuriy va oʻzbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar



qiladilarki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam o'jiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari bo'lib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida cho'riq, qo'llarida tayoq bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo'l oldilar»<sup>1</sup>.

Bobur Mirzo Afg'onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Qobuldan so'ng G'azna egallandi. Qobul Bobur Mirzo davlatining poytaxti edi. U 1508-yilda rasmiy suratda o'zini Afg'onistonning podshosi deb e'lon qiladi. Hatto Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro Bobur Mirzo bilan birgalikda Muhammad Shayboniyxonga qarshi jangga o'tlanishga o'zaro kelishib olgan edi. Faqat Husayn Boyqaro Mirzoning 1506-yildagi kutilmagan bevaqt o'limi bu rejaning amalga oshuviga imkon bermadi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr so'ng Xurosonni egallab, bu hududlarni temuriylardan tortib oldi.

### 3. SHAYBONIYXON VA SHOH ISMOIL

Shayboniyxonning janub tomon ilgarilab borayotganligini Eron shohi Ismoil ziyraklik bilan kuzatib turar va u Shayboniyxonning bu harakatini to'xtatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Shoh Ismoil bilan Shayboniyxonning to'qnashuvi aniq bo'lib qoldi. Eron hukmdori Ismoil Ardabel shahridagi safaviylar xonadonidan edi. U Ozarboyjondagi turk qabilalari ko'magidan foydalanib uncha katta bo'lmagan, biroq kuchli va tartib-intizomli qo'shin tuza oldi.

1510-yilda Eronga yurish qilib, Mashhar va Eronning shimolidagi boshqa shaharlarni egallagan edi. Eron shohi asosiy kuchlari bilan Shayboniyxonga qarshi chiqqach, u Mashhaddan Seraxs orqali Marvga ketgan edi. Bundan xabar topgan shoh Ismoilning 70 ming kishilik qo'shini Marv qo'rg'onini qurshovga oldi. Biroq Shayboniyxon tomonidan qattiq mudofaa qilingan shaharni qo'lga ola olmagan Ismoil hiyla ishlatdi va qal'ada hi-moyalananayotgan Shayboniyga: «Agar mard bo'lsang tashqariga chiqib, men bilan maydonda olishasan», deydi. Erkaklik va

<sup>1</sup> Гулбаданбегим. «Хумоюннома». Т., 1959. 24–25-бетлар.



mardlik gʻururi tutgan Shayboniyxon oz sonli qoʻshin bilan Ismoilni orqasidan boradi. Eronlik safaviylar Marv yaqinidagi Murgʻob daryosi qirgʻogʻida, Tahrirobod deb atalgan joyda daryo ustidagi koʻpriklarni buzib, Shayboniylarni tuzoqqa tushiradilar. Koʻp oʻzbek sarkardalari qirib tashlanadi. Magʻlubiyatga uchrab yaralangan Shayboniyxon yaqin bir qishloqqa chekinadi. Eronliklar Shayboniyxonni qoʻlga olib 1510-yil 12-dekabrda uning boshini tanasidan judo etib<sup>1</sup>, nayza uchiga ilib qoʻyadilar. Zaki Validiy Toʻgʻonning yozishicha, shoh Ismoilning buyrugʻi bilan Shayboniyxonning bosh suyagidan sharob qadahi yasaladi va u oltin bilan bezatilib, Misr sultoni Falajga sovgʻa sifatida yuboriladi. Chunki Falaj ham Shayboniyxon singari sunniy mazhabida edi va uni juda sevardi.<sup>2</sup> Arab tarixchisi Ibn Ayos «Badoiy oʻz-zuhur» nomli asarida keltirishicha Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan qadah ustiga shoh Ismoil quyidagi satrlarni yozdirgan ekan;

*Alsayf val-xanjar rayxonano,  
Tuf a'lo almarjis val-as.  
Mudominoman dam a'donno,  
Vahasno jumjumatu'al-ras!*

Arabcha bu satrlarning maʼnosini quyidagicha sharhlash mumkin:

*Qilich va xanjar bizning hidimizdir,  
«Tuf» boʻlsin nargiz va sumbulimizga.  
Dushmanning qoni ichkiligimizdir,  
Aylansin bosh suyak qadahimizga!*

Shayboniyxonning bosh suyagidan yasalgan tilla qadahning Misrga yetib kelishi sunniy mazhabidagi aholi oʻrtasida katta norozilik uygʻotdi. Misr sultoni Qansu Gavri oʻsha bosh suyakni

<sup>1</sup> Uning boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufaga dafn qilingan. Baland Sufa Registon maydonida Tillaqori va Sherdor madrasalari oʻrtasidagi burchakda joylashgan boʻlib bu yerga keyinchalik boshqa Shayboniylar ham dafn etilgan. Qarang: Shayboniylar daxmasi. Ўзбекистон миллий энциклопедияси... 9-жилд. 678–679-бетлар.

<sup>2</sup> Аҳмад З. В. Бугунги турк эли (Туркистон ва яқин тарихи). Истанбул, 1981, 2-нашири, 55–56-бетлар.

katta hurmat bilan ko‘mdiradi. Yana Ibn Ayosning aytishicha, 200 dan ortiq misrlik shoir shoh Ismoilning yuqorida keltirilgan she‘riy to‘rtligiga qarshi javob she‘riy to‘rtliklar yozdilar. Masalan, shayx Nosuriddin Tahhan qalamiga mansub she‘riy javob to‘rtlikning o‘zbekcha tarjimai quyidagichadir:

*Gar hidlab yursang hushbo‘y narsalarni  
Ko‘paytirarsan mudhish qo‘rquvlarni.  
Jangda dushmani o‘ldirish sharafdir,  
Faqat it yalaydi bosh suyaklarni!*

Shayboniy taqdiridan voqif bo‘lgan Bobur Mirzo qalbida Shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni qaytadan egallash umidi paydo bo‘ladi. Ana shu niyatida u Shoh Ismoil elchisini Qobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Ismoil elchilari Bobur Mirzoga sovg‘a tariqasida shialar odatiga ko‘ra o‘ralgan salla qalpoqni tortiq qiladilar. Bu albatta diplomatiya o‘yini edi. Atrofdagilarning nigohi Bobur Mirzoga qadalgan; nahotki Bobur Mirzo o‘zi sunniy bo‘laturib shialar qalpog‘ini kiysa... Shu payt elchilar shoh Ismoil Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo‘shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur Mirzo Shoh Ismoil taklifini qabul qiladi va diplomatik mahoratini ishga solib: «Inshoolloh Samarqandni egallasak bu qalpoqni kiyamiz», deb og‘ir vaziyatdan chiqib ketadi. Chunki agar shu paytda u qalpoqni kiyganida barcha sunniylar Bobur Mirzodan yuz o‘girar edilar. Shoh Ismoil o‘zaro kelishuvga asosan Samarqand taxti uchun kurashda Bobur Mirzoga har tomonlama yordam berdi. U Bobur Mirzoni qurollantirdi, unga sipohlar berib jangga otlantirdi. Bobur Mirzo 1512-yilda Shoh Ismoil yordamida Samarqandni qo‘lga kiritdi. Ammo bu safar Samarqand aholisi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. Xalq uni bu gal shiddatli hukmdor avlodi, qo‘rqmas sipoh, xalqparvar shoir va mutafakkir, avvalgi Bobur Mirzo deb emas, balki shoh Ismoilning qo‘g‘irchoq gumashtasi, Samarqand sunniy aholisining nazarida mansab, hokimiyat uchun har narsaga tayyor, o‘z elidan, dinidan qaytgan shialar xizmatkori sifatida qabul qiladi. Bunga Bobur Mirzoning yo‘l qo‘ygan xatolari va noto‘g‘ri xatti-harakatlari asosiy sabab bo‘ldi. U Samarqandni egallagach, shoh Ismoilni oliy hokim

deb eʼlon qiladi. Shiya imomlari nomi bilan tangalar zarb qila boshladi, Movarounnahrni Eron manfaatlariga boʻysundiradi.

Albatta, bu hol sunniy mazhabidagi Movarounnahr aholisining gʻazabini qoʻzgʻadi. Bu orada Bobur Erondan kelgan qoʻshinlarga javob berib ularning boshliqlariga katta-katta sovgʻa-salomlar ulashadi. Shu tufayli yuzaga kelgan qulay fursatdan foydalangan va xalq ommasining kayfiyatini toʻgʻri hisobga olgan Shayboniylar urugʻidan boʻlgan Shayboniyzodalar Ubaydulla Sulton boshchiligida birlashib 1512-yil iyun–noyabr oylarida katta qoʻshin bilan Movarounnahrda bostirib kirdilar. Bobur Mirzo 50 ming kishilik qoʻshini bilan qarshi chiqadi, ammo Samarqand yaqinidagi Saripulda yengilib Hisorga qochdi. Shayboniy avlodlari Samarqandni uzil-kesil egalladilar. Shoh Ismoil Boburga yordam berish maqsadida oʻzining eng tajribali va nomdor sarkardalaridan boʻlgan amir Ahmad (laqabi «Najmisoniy» («Ikkinchi yulduz»)) boshchiligida qoʻshin yuboradi. Eron qoʻshini oʻz yoʻlida Xuroson amirlarining madad beruvchilarini oʻziga qoʻshib olib, Termiz yonida Jayhundan kechib oʻtdi va Bobur Mirzo bilan qoʻshildi. Birlashgan Eron va Bobur qoʻshinlari Qarshi shahrini oʻrab oldi va Amir Ahmad shahar aholisini butunlay qirib tashlashga buyruq berdi. Qarshi shahrida 15 ming aholi qirib tashlandi. Qariyalaru bolalarni ham ayamadilar. Bu paytda Ubaydulla, Muhammad Temur sulton va boshqa oʻzbek sultonlari fursat poylab Buxoro yaqinida raqiblarini kutib turar edilar. Amir Ahmad Buxoro tomon yuradi va Gʻijduvoni qamal qila boshlaydi. Kutilmaganda u oʻzbek sultonlarini hujumiga duch keldi va tez orada yakson qilindi. Bu jangda amir Ahmadning oʻzi oʻldiriladi. Eron qoʻshinidan ozgina qismi qochib ulgurdi. Shundan soʻng Bobur Mirzo bilan Shoh Ismoil oʻrtasidagi ittifoq barham topdi. Bobur Mirzo endi Movarounnahrda butunlay umidini uzib Qobulga qaytdi. U 21 yil mobaynida, yaʼni 1526-yilga qadar Qobulni boshqargan. Soʻngra Bobur Mirzo Qobulni ikkinchi oʻgʻli Kamron Mirzoga qoldirib oʻzi Hindiston sari yurish boshlaydi va buyuk boburiylar sulolasi saltanatiga asos soladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur oʻzbek va hind «xalqlari tarixida buyuk lashkarboshi va davlat arbobi, ulugʻ shoir,

mutafakkir olim va tarixchi sifatida munosib o‘rin olgan. Hind xalqining buyuk farzandi Javoharlal Neru «Hindistonning kashf etilishi», «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Bobur Mirzo va uning nabirasi Akbarga yuksak baho bergan. U shunday deb yozadi: «Bobur – dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni



**Zahiriddin Muhammad Bobur**

1483—1530

Farg‘ona. 1494—1504

Kobul ulusi. 1504—1526

Hindiston. 1526—1530



**Nasiriddin Humoyun**

1508—1556

Hindiston. 1530—1556



**Jaloliddin Muhammad Akbar**

1542—1605

Hindiston. 1556—1605



**Niriddin Muhammad Jahongir**

1569—1627

Hindiston. 1605—1627



**Shahobiddin Muhammad  
Shohjahon**  
1592–1666  
Hindiston. 1627–1666



**Muhiyiddin Avrangzeb**  
(Olamgir)  
1618–1707  
Hindiston. 1651–1707



**Bahodirshon II**  
1776–1862  
Hindiston. 1837–1858

sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi».<sup>1</sup>

Boburning Hindistonni qo'lga kiritishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ladi, san'at hayotida, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohalarida ulkan o'zgarishlar yuz beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan saltanatni uning avlodlari Hindistonni inglizlar bosib olgunga qadar, 1858-yilgacha, jami bo'lib 332 yil boshqardilar.

Hindiston boburiylardan bo'lgan Humoyun, Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon davrlarida ayniqsa gullab-yashnagan, hududlari kengayib rivojlangan. Xususan, Akbarshoh va uning nabirasi Shoh Jahon hind xalqining qalbidan juda katta joy olgan edilar.

<sup>1</sup> Неру Д. Открытие Индии. М., Политиздат, 1989, стр. 272–273.

Akbarshoh o'zining betakror, xalqsevar davlat arbobi sifatida hind xalqini ayniqsa Rajpudlar qavmini hurmatlab ularning diniy va milliy e'tiqodlarini, urf-odatlarini avaylab-asrab, e'zozlab saltanatni mohirona boshqarganligi uchun bu saltanat sohibi Jaloliddin chuqur ehtirom bilan unga ulug', ya'ni Akbar taxallusini berganlar. Shundan Boburning nabirasi Jaloliddin Akbarshoh nomi bilan jahon tarixidan munosib o'rin olgan.

Javoharlal Neru Akbarshohni yuksak baholaydi: «Uning (Boburning) nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va xo'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan. Mard, jasur, iste'dodli lashkarboshi, rahmdil, shafqatli, idealist va xayolparast, shu bilan birga harakatchan, o'z ishini davom ettiruvchilarning sadoqatiga sazovor bo'lish uchun intilgan odam bo'lgan. Sarkarda sifatida butun Hindistonning keng hududini o'ziga bo'ysundirgan. Lekin, u yutuqlaridan ham mustahkamroq g'alabani qo'lga kiritishni, ya'ni odamlarning fikri va qalbini zabt etishni o'ylar edi. Akbar saroyida bo'lgan portugaliyalik iyezuitlarning aytishlariga qaraganda uning qarashlari jozibali bo'lib, «ko'zlari quyosh nuriga to'la dengizday chaq nab turar edi».<sup>1</sup> Hindistonda Akbarshohga atab 70 seriyali film tayyorlangan.

Shoh Jahonni hindlar hurmatlab «Hazrati Shohjahon», «Bahodir Shohjahon», «Shohjahonobod» nomlari bilan ataganlar. Hindistonlik olimlar boburiy shahzodalarni Amir Temur sulolasidan bo'lgan «Barlos turklari», «Chig'atoy gurgonilari» yoki «Mo'g'ul xoqonlari» deb ataydilar.

Xullas, temuriylar sulolasining buyuk vakillari hisoblanmish boburiylar tarixi hind xalqlari tarixida o'zining munosib o'rniga ega. G'arbdagi boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o'zining 1986-yilda Dehlida ingliz tilida chop etilgan «Tovus toj yoki mo'g'ullar saltanati qismati» kitobida boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik faoliyatiga yuksak baho beradi: «Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisoli bir tovus bo'lsa, o'sha ko'p ming yillik tarixdagi boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojisidir».<sup>2</sup>

<sup>1</sup> *Неру Д.* Открытие Индии. Стр. 272–273.

<sup>2</sup> *Шамсутдинов Р., Абдуллаев Ф., Абдуллаев М.* Буюк Бобурийлар салтанати. Андижон, «Мерос», 1995, 9-бет.

#### 4. BUXORO XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Shayboniyxon vafotidan soʻng uning avlod-ajdodlari oʻrtasida toj-u taxt, hokimiyat, mol-dunyo va davlat talashib oʻzaro qonli urushlar avj oldi. 1510–1530-yillarda Shayboniyxonning amakisi Koʻchkinchixon hokimlik qiladi. Unga oʻgʻli Abdusaid (1529–1533) va jiyani Ubaydullaxon (1533–1539) merosxoʻr boʻldi. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan (1539–1540) soʻng Movarounnahrda qoʻshhokimiyatchilik vujudga keldi. Bunga sabab, Buxoroda Ubaydullaxon oʻgʻli Abdulazizxon (1540–1550), Samarqandda esa Koʻchkinchixon oʻgʻli Abdullatifxon (1540–1551) taxt boshqarganlar. Hokimiyat talashib kurash misli koʻrilmagan choʻqqiga koʻtarildi. Shayboniyxon avlodlarining har birida 10–12 tadan oʻgʻil farzand boʻlib, ularning har biri taxt uchun vorislik qilishga daʼvogar edi. Shu bois Movarounnahr hududi bir necha boʻlaklarga boʻlinib ketdi. Karmana va Miyonqalʼada Iskandar Bahodir,<sup>1</sup> Balxda Pirmuhammad,<sup>2</sup> Qarshida Sulton Qilich Qora, Hisorda Shayboniyxonning nabirasi sulton Burhon hokimlik qiladi. 1556-yilda Abdullatifxon vafot etgach Samarqand taxtini Baroqxon<sup>3</sup> qoʻlga kiritib, Navroʻz Ahmadxon nomi bilan besh yil hukmronlik qiladi.

1550-yilda Sulton Abdulazizxon vafot etgach, oʻnlab sultonlar, beklar va amirlar Buxoro taxti uchun kurashni avjiga mindirdilar. Dastlab Buxoro Shayboniyxonning nabirasi Sulton Muhammadyorga tegdi, lekin u bir yil oʻtmasdan Pirmuhammad tomonidan quvildi. Pirmuhammadga qarshi Baroqxon va Abdullatifxonga sulton Said, sulton Muhammadyor va Burhon sulton qoʻshiladi. Ular birgalikda Miyonqalʼa, Karmana va Qarshiga yurish boshlaydilar.

Vahimaga tushgan bu shaharlarning hokimlari qochib ketadilar. Faqat Miyonqalʼa hokimi Iskandarning 18 yoshli oʻgʻli Abdullagina qalʼada mustahkamlanib sultonlarning birlashgan kuchlariga qarshi yolgʻiz oʻzi kurashga otlanadi. 12 kun

<sup>1</sup> *Iskandar B.* – Abdullaxonning oʻgʻli.

<sup>2</sup> *Pirmuhammad* – Jonibek sultonning oʻgʻli, Abdullaxonning amakisi, oʻsha vaqtda Balx hokimi edi.

<sup>3</sup> *Baroqxon* – Abulxayrxonning nevarasi, Suyunch xojaning oʻrtancha oʻgʻli, Toshkent hokimi.



davom etgan jangdan soʻng sulh bitimi imzolandi. Bitimga koʻra Abdulla Balxga joʻnab ketishga majbur boʻladi. 1556-yilda Baroqxon vafot etgach uning farzandlari oʻrtasida boshlangan taxt vorisligi uchun kurashga aralashib undan ustalik bilan foydalangan Abdulla navbatdagi gʻalabaga erishadi. U quvgʻinlik yillarini bekorga oʻtkazmadi. Eng obroʻ-eʻtiborli oʻnta oʻzbek qabilasi – qushchi, oʻtarchi, kenagas, yuz, jaloyir, major, qipchoq, mingʻ, bahrin qabilalari, shuningdek joʻybor shayxlari hamda musulmon ruhoniylarining boshqa eʻtiborli va qudratli vakillarining himoyasi va qoʻllab-quvvatlashiga sazovor boʻladi. Abdulla Ilonoʻtdi yaqinidagi jangda Baroqxonning oʻgʻli Bobosulton va uning ittifoqchisi Toshkent hokimi Darveshxonning birlashgan kuchlarini tor-mor keltiradi. Abdulla uchun Buxoroga yoʻl ochiq edi. U Qarshi, Chorjoʻyni egallab, sulton Burhonni magʻlubiyatga uchratib Buxoroga tantanavor kirib boradi. Buxoroni zabt etadi. Buxoro Abdullaxon zamonida siyosiy hokimiyat markaziga aylanadi. Markazi Buxoro boʻlgan davlat Buxoro xonligi deb atala boshlanadi.

Abdullaxon Shayboniylar urf-odatlariga katta hurmat bilan qaraydi va yoshi ulugʻ boʻlgan oʻz amakisini soʻng otasini xon deb eʻlon qiladi. Amalda Abdullaning oʻzi ularning nomidan hokimiyatni idora etardi. Otasi Iskandarxon 1561-yili xon deb eʻlon qilinadi. U 1582-yil vafotiga qadar xonlik taxtida oʻtiradi. Otasi vafotidan soʻng 1583-yil Abdullaxon II oʻzini rasman xon deb eʻlon qiladi. Abdullaxon (1557–1598) hukmron boʻlgan davrda Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatga asos soldi. Uning butun hukmronlik yillari urush va jang-u jadallar bilan oʻtdi. 1557-yilda Shahrisabzni, 1569-yilda Samarqandni egalladi. 1558–1572-yillarda oʻrtada tanaffuslar bilan Badaxshon uchun jang qiladi, Balx va Hisorni qoʻlga kiritdi. 1582-yilda Toshkent, Sayram, Turkiston, Fargʻona, 1583-yilda Xuroson, 1595-yilda esa Xorazm taslim etiladi.

Abdullaxon II Amir Temurdan soʻng Movarounnahrda nisbatan qatʻiy siyosat yurgiza olgan yagona va soʻnggi davlat arbobi edi. U Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadida Qozogʻistonning hozirgi Qaragʻanda viloyati gʻarbidagi, Sariqsuv daryosining Shimolida joylashgan Ulugʻtoqqa yetib borgach, togʻ





tepasidagi bir minorada bitilgan quyidagi soʻzlarga koʻzi tushadi: «Tarix yetti yuz toʻqson uchinda qoʻy yili, yozning ora oyi, Turonning sultoni Temurbek ikki yuz ming cherik bila Toʻxtamishxon yurtiga intiqom uchun yurdi. Bu yerga yetib, belgi boʻlsun deb bu minorani qurdirdi. Tangri nusrat bergay inshootlooh. Tangri el kishiga rahmat qilgʻay. Bizni duo bilan yod qilgʻay».

Mazkur bitiklar 1391-yili Amir Temur Toʻxtamishxonga qarshi lashkar tortgan kezi shu togʻ ustiga chiqib, soʻng bu yerda bir minora qurdirib xarsang toshga oʻydirib yozdirgan xotira soʻzlari edi. Abdullaxon II buyuk sohibqiron haqiga duolar oʻqittirib, oʻzi ham qarshi tomonda bir minora qurishga buyruq berdi va unga «Kimki bu manzilga qadam qoʻysa, xayrli duo ila bizni yod aylasin» soʻzlarini oʻydiriradi.<sup>1</sup> Amir Temur Turkiston shahrida Xoʻja Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidini qurdirgani maʼlum. Tugallanmay qolgan bu ishni oxiriga yetkazish Abdullaxon II ga nasib etadi.

Abdullaxon II XVI asrning 80-yillarida Xurosonda, uning markazlari Hirot, Mashhadda, 90-yillarda Seyiston, Garmsir va to Xilmand daryosigacha boʻlgan hududlarda oʻz saltanatini oʻrnatdi, Qandahorni ham egallaydi. Uning davrida hozirgi Qaragʻandadan (Ulugʻtogʻdan) Xilmand daryosigacha, Sibir xonligidan Mashhadgacha boʻlgan hududlar yana bir bor Oliy hokimiyati Buxoro qoʻl ostida birlashdi. Bunday katta saltanatga Amir Temurdan soʻng Abdullaxon II asos soladi. Rossiyaliklar uning davlatiga nisbatan «Buyuk Buxoriya» degan iborani qoʻllashgan edilar.

Ana shu davrdagi Abdullaxon II ning markazlashgan davlat tuzish borasidagi faoliyati Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida oʻzining mukammal ifodasini topgan.

Abdullaxon zamonida Buxoro xonligida dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlanadi, madaniy hayot ancha yuksaladi. Juda koʻp sugʻorish inshootlari: Abdullaxon bandi, Tuyatortar kanali, Okchopsoy toʻgʻoni va suv ombori, Vahshdan chiqarilgan koʻplab ariqlarning qurilishi dehqonchilikni rivojlantiradi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligida bugʻdoyning 10 xil turi,

<sup>1</sup> *Азамат* 3. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т, «Шарқ», 2000, 240–241-бетлар.

suli, qoʻnoq, joʻxori, mosh, noʻhat, makkajoʻxori, loviya, sholi, paxta, kunjut, beda, arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan, bogʻdorchilik, chorvachilik va ipakchilik rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Margʻilon, Xoʻjand, Andijon, Toshkent, Jizzax, Oʻratepa, Shahrisabz va boshqa yirik shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy qilgan. Samarqand qozi kalonining hujjatlaridan maʼlum boʻlishicha, XVI asrda Samarqandda hunarning 61 turi mavjud boʻlgan. Movarounnahrlik hunarmandlar zoʻr sanʼat bilan turli-tuman metall buyumlar, ip va ipak matolar, aʼlo navli qogʻozlar ishlab chiqarganlar. Buxoro shahri bu vaqtda ancha kengaytirilgan, devor va harbiy istehkomlar qaytadan qurilgan. Shaharda madrasalar, xonaqoh va karvonsaroylar, yangi rastalar barpo qilingan. Shahar oʻrtasidagi tim, koʻchalar chorrahasi ustiga gumbaz-toqlar, hammomlar, karvon yoʻllarida sardobalar, karvonsaroylar, koʻpriklar qurilgan.<sup>1</sup>

Abdullaxon davrida Buxoro xonligining Hindiston, Xitoy, Turkiya, Rossiya<sup>2</sup> bilan savdo va diplomatik munosabatlari rivojlangan. 1572–1578-yillari Hindistonda Buxoro xonining elchilari, Buxoroda esa Hindiston podshohi Akbarning elchilari boʻlgan.

Abdullaxon II elchilari 1583-yili Moskvadan oʻq-dori, ov qushlari, mato olib kelganlar. Bunday elchilik 1589, 1595-yillarda ham takrorlangan.

Abdullaxon II ning mamlakat ichki siyosatidagi, davlat boshqaruv tizimini mustahkamlash, ayniqsa, pul islohoti oʻtkazish yoʻlidagi faoliyati natijalari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Uning davrida Buxoro yaqinida Sumitan (Joʻybor) mavzesida Joʻybor xojalaridan Abu Bakr Saʼd mozori atrofiga madrasa, masjid, xonaqoh va chorbogʻ, Buxoroda madrasa, hammom, Govkashon, Fathulla qushbegi, Mirakan, Xoja Muhammad Porso, Yangi Chorsu (1569–1570), tim (Abdullaxon timi), Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga koʻprik (1582) qurilgan. Bu kabi inshootlar Toshkent, Samarqand, Balh va boshqa shaharlarda ham qurilgan. Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, masjidi taʼmirlangan.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. — Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2001, I–IV жилд.

<sup>2</sup> Москва князлиги.

Abdullaxon II ning nufuzli amiri Qulbobo Ko'kaldosh sharafiga Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi qurilgan. Uning davrida shaharsozlik, ilm-fan taraqqiy etadi. Buxoro madaniyat, ilm-fan markaziga aylanadi. Buxoroda mashhur Abdullaxon kutubxonasi tashkil bo'ladi. Unda mashhur hattotlar Mir Ali Hiraviy, Ahmad Husayniylar va boshqalar kitob ko'chirish bilan mashg'ul bo'lishgan. Sayid Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari Abdullaxon II ga bag'ishlangan.

Bu davrda shoir, adib va ilohiyotchi olimlardan Mushfiqiy, Nizom Muammoiy, Muhammad Darvish oxund, Qozi Poyonda Zominiy, Mulla Amir, Muhammad Alti Zohid, tabiblardan mavlono Abdulhakim va boshqalar yashab ijod etgan. Abdullaxon II ning o'zi ham iste'dodli shoir bo'lib «Xon» taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'r yozgan.

Harbiy san'at taraqqiy etgan. Qo'shin tarkibini nayza, qilich, manjaniq, shotular bilan qurollangan otliq va piyoda qismlar tashkil qilganlar. XVI asr ikkinchi yarmidan qo'shin Turkiyadan keltirilgan pilta miltiq va zambaraklar bilan qurollana boshlagan.<sup>1</sup>

Abdullaxon II markazlashgan davlatni tuzishda isyonkor zodagonlarni qattiqqo'llik va shafqatsizlik bilan jazoladi, sultonlar, beklar, amirlar va o'zining bir qator qarindoshurug'larining boshlarini tanlaridan judo qildirdi. Ammo u har qancha qattiqqo'l bo'lmasin siyosiy tarqoqlik tartibotlariga qarshi kurashda o'jizlik qiladi va bu tartibotlarning navbatdagi qurboni bo'ladi. Rivoyatlarga qaraganda Abdullaxon II o'g'li Abdulmo'min tomonidan 1598-yili zaharlab o'ldirilgan. Bu ishda harbiy zodagonlar boshliqlaridan biri Muhammad Boqibiy tashkilotchilik qilgan. Hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan otasi qo'lidan olgan oqpadar Abdulmo'min yarim yil o'tmasdanoq o'zi ham boshqa bir dushman zodagonlar guruhi qo'lida (1599) halok bo'ldi. Taxtni so'nggi Shayboniy hukmdor Pirmuhammadxon egallaydi. Ammo 1601-yili Samarqand hokimi Boqi Muhammad bilan kurashda u yengiladi va taxtdan ag'dariladi. Shu bilan Shayboniylar hukmronligi tugaydi. Ana shu Boqi Muhammad boshqa bir sulola — Ashtarxoniylarga mansub edi. 1601-yildan

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд, 32–34-бетлар.

vatanimiz siyosiy hayotida yangi sulola — Ashtarxoniylar hukmronlik qila boshlaydi. Shu tariqa qariyb yuz yil davom etgan Shayboniylar sulolasi oʻzaro qirgʻinbarot urushlar va oʻzaro nizolar oqibatida qirilib tamom boʻladi va taxt vorisligiga daʼvogar qolmaydi.

## 5. ASHTARXONIYLAR (JONIYLAR) SULOLASI

Ashtarxoniylar, Joniylar – 1601–1756-yillarda Buxoro xonligini boshqargan sulola. Joʻjixon naslidan boʻlgan ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi asli Astraxan (Hojitarxon) yerlarida yashab hukmronlik qilganlar. Astraxanni Ivan Grozniy 1556-yili bosib olgach ashtarxoniylar Yormuhammad boshchiligida Buxoroga Iskandar Sulton saroyiga kelib oʻrnashadilar. Yormuhammadning oʻgʻli Jonibek Sultonga Iskandarning qizi, Abdullaxon II singlisi Zuhrabegim nikohlab beriladi. Undan Din Muhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammadlar dunyoga keladi. Shu zayilda Shayboniylarga qarindoshlik rishtalari bogʻlanadi. Natijada 1601-yili Shayboniylarning soʻnggi vakili Pirmuhammad vafot etgach Shayboniylardan taxt vorisi chiqmaganda Buxoroda yashab turgan Jonibek sultonni xon qilib koʻtarishga qaror qiladilar. Lekin Jonibek sulton bu taklifdan bosh tortadi. Taxtga Jonibekning katta oʻgʻli Din Muhammadni koʻtaradilar. Ammo u Buxoroga kelayotganda Obivarda jangda halok boʻladi. Shunda uning ukasi Boqi Muhammadxon, voris deb eʼlon qilinadi. Qabul qilingan anʼanaga koʻra Vali Muhammad Balxga noib etib yuborildi. Ana shu tariqa 1601-yildan boshlab Buxoro xonligida hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qoʻliga oʻtadi. Bu yana Jonibek sulolasi «Joniylar» sulolasi deb ham yuritiladi.

Ashtarxoniylar sulolasi 1756-yilgacha hukmronlik davrini oʻtadi. Sulola sakkizta xondan iborat boʻlgan: 1. Boqi Muhammad (1601–1605), 2. Uning ukasi Vali Muhammadxon (1605–1611), 3. Imomqulixon (1611–1642), 4. Uning ukasi Nodir Muhammadxon (1642–1645), 5. Uning oʻgʻli Abdulazizxon (1645–1681), 6. Uning ukasi Subxonqulixon (1681–1702), 7. Uning oʻgʻli Ubaydullaxon (1702–1711), 8. Uning ukasi Abulfayzxon (1711–1747). Ulardan faqat uchtasi umrini taxtda tugatdi, xolos. Uchtasi (Vali Muhammad, Ubaydulla, Abulfayzxonlar)

saroy to'ntarishlari oqibatida fojiali o'ldirilganlar. Ikkitasi esa taxtdan ag'darib tashlangandan so'ng o'z hayotini quvg'unlikda o'tkazgan. Bularning hammasiga asosiy sabab, shuki, ashtarxon o'zbek sulolalari davrida hokimiyat, toj-taxt uchun kurash hatto ota-bola va aka-ukalar, qarindosh-urug'lar o'rtasida misli ko'rilmagan darajada kuchaygan edi.

Buxoro xonligida tinchlik osoyishtalik bo'lmaydi. Amirlar va beklar o'zboshimchaligi avjiga minadi, markaziy hokimiyatdagi mansabdorlar o'rtasidagi o'zaro fitna, nizolar, ur-yiqitlar mam-lakat tinka madorini quritadi.

1605-yilda Boqi Muhammad vafotidan so'ng Buxoro xonligi taxtiga uning ukasi, Balx hokimi **Vali Muhammad** o'tiradi (1605–1611). Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Vali Muhammadga qarshi Buxoroda fitna uyushtirildi. Bu fitnadan xabar topgan Vali Muhammad o'zining ikkita o'g'li bilan Eronga–Shoh Abbos huzuriga qochib ketadi. Fitnachilar Buxoro taxtini **Imomqulixon** (1611–1642) ga topshirmoqchi bo'ldilar. Eron shohi Abbosxon Buxoro ustidan o'z hukmronligini o'rnatish uchun Vali Muhammadni qo'llab-quvvatladi va unga katta qo'shin bilan yordam berdi. Bu hol buxoroliklarni katta tashvishga soladi. Lekin o'zaro jangda o'zbeklar Eron qo'sinlarini tor-mor keltiradilar va Vali Muhammadni asir olib o'ldirdilar. Eron qo'sinlariga qarshi kurashda Imomqulixonga qozoqlar yordam berdi.

Ashtarxoniy o'zbek sulolalari orasida so'zsiz nisbatan nu-fuzli va obro'lisi **Imomqulixon** bo'ldi. Uning davrida Buxoro xonligi kuchli davlatga aylandi. 1613-yilda Imomqulixon Toshkentni qozoq xonligidan qaytarib oldi va bu yerga o'zining o'g'li Iskandarni noib etib tayinladi. Lekin Iskandar toskentliklarga jabr-zulm o'tkazadi, soliqlarni ko'paytiradi, zulmni kuchaytiradi. G'azablangan Toshkent aholisi qo'zg'olon ko'tardi, sahzoda Iskandarni o'ldiradi. Imomqulixon bu voqeadan xabar topib Toshkent shahrini bir oy qamal qiladi. Toshkentliklar shaharni qahramonlarcha himoya qilsalarda, Imomqulixon katta kuch bilan qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladi. U shahid ketgan o'g'li uchun toshkentliklardan qattiq o'ch oladi. Buxoro xoni otinning uzangisigacha qon chiqmaguncha aholini qirishni davom ettiraman, deb qasam ichadi. Toshkent aholisini qirg'in qilishdan horib charchagan Imomqulixon qo'shini boshliqlari-

ning oʻzlari ham, hech bir gunohsiz odamlarni bunday qirgʻin qilishni toʻxtatishni xondan iltimos qiladilar. Ammo xon ichgan qasamimni buza olmayman, deb javob beradi. Shundan soʻng Toshkentdan qonunshunoslar oʻlganlarning qonlari oqizgan chuqurlikdagi hovuzchalarga suvlarni toʻldirib bu hovuzdan Imomqulixonga otda kechib oʻtishni taklif qiladilar. Bu bilan xon ichgan qasamni ado etdi va aholini qirgʻin qilishni toʻxtatish toʻgʻrisida buyruq berdi.

Imomqulixon oʻz davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida koʻchmanchi qoraqalpoqlar, qolmiqlar va oyrotlarga qarshi ham muvaffaqiyatli janglar olib borgan. Qoratov yonidagi jangda Imomqulixon qoraqalpoqlarga hal qiluvchi zarbani bergan. Albatta bunday muvaffaqiyatli urushlar Imomqulixonning obroʻ-eʻtiborini oshiradi. Biroq mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikni va xonlikning ich-ichidan yemirilib borishini u toʻxtatib qola olmadi. Uning davrida yirik zodagonlar viloyatlarda oʻzlarini xondan mustaqil hisoblar va qoʻshni viloyatlarga urush ham eʻlon qilar edilar. Ana shunday bahodir hukmdorlardan biri boʻlgan Yalangtoʻsh bir necha yillar davomida Samarqandni boshqardi. Uning mingdan ortiq quli boʻlgan, juda katta boyliklar egasi edi. Yalangtoʻsh bahodir davrida ikki mahobatli bino – Sherdor va Tillakori madrasalari bunyod etilgan. Registon maydoni ham hozirgi qiyofasiga uning davrida kelgan edi. Badahshon hukmdori Mahmudbiy Qatagʻon ham kuchli taʻsirga ega boʻlgan zodagonlardan hisoblangan. Bu jarayon xususan Imomqulixon vafotidan soʻng kuchli tus oldi. Imomqulixon hajga ketadi.

Imomqulixonidan keyin uning ukasi **Nodir Muhammad (1642–1645)** Buxoro taxtiga oʻtirdi. U haddan tashqari dimogʻdor va tamagir xon boʻlgan. Nodir Muhammad Movarounnahr hududlarini oʻzining 12 oʻgʻli oʻrtasida taqsimlab berdi. Bu bilan u mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning yanada halokatli tus olishiga sababchi boʻldi. Nodir Muhammad davrida xalqqa nisbatan jabr-zulm mislsiz darajada kuchaydi. Bu hol xalqning noroziligiga sabab boʻldi. Bundan foydalangan qozoqlar Nodir Muhammad xonligining uchinchi yilida Movarounnahrda hujum qilib Xoʻjandgacha yetib keldilar. Nodir Muhammad Xoʻjanddan qozoqlarni haydab chiqarish maqsadida u yerga ukasi Abdulaziz boshchiligida katta qoʻshin yuboradi. Xoʻjandga



qo'shin tortib ketayotganda Abdulaziz o'z otasiga qarshi fitna uyushtirdi—**Abdulaziz Buxoro xoni** deb e'lon qilindi. Abdulaziz saltanatni otasi Nodir Muhammaddan tortib olgan. Bu mudhish voqeadan xabar topgan Nodir Muhammad shoshilinch ravishda Balxga jo'nab ketdi. Abdulaziz hech qanday to'siqlarsiz va qarshiliklarsiz Buxoroga kirib keldi. Zodagonlar Abdulazizning xonligini batamom qonunlashtirdilar. Nodir o'z ukasidan xonlikni qaytarib olish uchun Hind shahzodasi boburiy Shoh Jahon (1623–1659)ga yordam so'rab murojaat qiladi. Shoh Jahon Buxoro yerlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib olish niyati bilan o'zining ikkita to'ng'ich o'g'li Murodbahsh, Avrangzeb boshchiligida u yerga kuchli qo'shin yubordi. Nodir Muhammad Hind qo'shinlari Buxoro xonligi hududiga bosqinchilik maqsadlari bilan ketayotganligini tasodifan bilib qolgach g'arb tomonga qochadi. Hind qo'shinlari uning orqasidan quvib borib uni tor-mor qilganlar. Nodir Muhammad Eronda – Shoh Abbos II huzurida o'ziga panoj topgan.

Hindiston shahzodalari Balxni, undagi xon xazinalarini bosib oldilar. Ular o'zlarini istilochilardek tutdilar, ikki yil mobaynida xalqni talab Balxda xo'jayinchilik qiladilar. Balx aholisi butun oilalari bilan zulm-kulfat, talovlardan qochib Movarounnahrğa keta boshladilar. Abdulaziz hindlarga qarshi kurashga chiqdi. Shoh Jahon o'z qo'shinlarini chaqirib olishga majbur bo'ladi. Xarobazorga aylantirilgan Balxni Erondan qaytib kelgan Nodir Muhammad o'z qo'liga oldi.

Nodirxonning yana Balx taxtiga o'tirishi uning o'g'illarini tahlika ostiga solib qo'ydi va ular birlashishga majbur bo'ldilar. Abdulaziz xon otasi zamonida dushmanlik munosabatida bo'lgan ukasi Subxonqulini Balxga noib etib tayinladi. Balxning yuqori martabali kishilari Subxonquliga shahar darvozalarini ochib berdilar (1651). Nodir Muhammad esa noiloj haj qilish bahonasida Makkaga jo'nadi va yo'lda vafot etdi. Oradan uzoq vaqt o'tmasdan aka-uka o'rtasida yana dushmanlik boshlandi. Abdulazizxon Balxni ukasidan tortib olish maqsadida u yerga katta qo'shin yubordi. Shahar qamal qilindi. Qirq kun qamal davomida shahar xarobaga aylantirildi. Oqibatda aka-uka yarash bitimi tuzdi. Abdulazizxon o'z ukasi Subxonqulini o'zining vorisi, hamda Balxning noibi deb tan olib orqaga qaytgan.



1655-yilda Movarounnahrda xivaliklar hujum uyushtirdilar va mamlakatni xarob qiladilar. Ular Qorakoʻlni egallab Karmanagacha boradilar. Juda koʻp asirlar va qoʻlga tushgan boyliklarni olib oʻz yurtlariga qaytadilar. Bu hujumlarni Xiva xoni Abulgʻozi Bahodirxon Xiva xonligini doimiy tahlikaga tutib turgan va muttasil uning tinchligini buzib kelgan xonlardan oʻch olish maqsadida uyushtirgan edi. 1657-yilda ana shunday hujumlarning birida Abulgʻozixonning oʻzi katta xavf ostida qoldi. Karmanadan katta oʻlja bilan kelayotganda Buxoro xoni Abdulazizxon Abulgʻozixonga kutilmagan hujum qiladi. Faqat Abulgʻozixonning oʻgʻli Anushaxonning oʻz vaqtida yetib kelganligi otasini asirlikdan saqlab qoladi. Lekin bu magʻlubiyatga qaramasdan xivaliklar tinim bermasdan Buxoroga qarshi hujumni davom ettiraveradilar. 1658-yilda Vardanzi xarob qilindi. 1662-yilda Abulgʻozixon qoʻshinlari Buxorogacha yetib keldilar. Xivaliklar Buxoroning Nomozgoh darvozasi oldiga kelib yetganlarida Abdulazizxon bilan Abulgʻozixon oʻrtasida sulh bitimi imzolanadi.

Abulgʻozi Bahodirxon vafoti (1563) dan soʻng uning oʻgʻli Anusha ham Buxoro hududlariga qarshi yurishni davom ettiradi. Ana shunday hujumlardan birida Anusha Buxorodagi Joʻyborgacha (Joʻybor xoʻjalari yashaydigan joy) yetib borgan va u yerni talagan, bu paytda Abdulaziz Karmanada boʻlgan va tezda Buxoroga yordam berish uchun bu yerga yetib kelgan. U Buxoro xalqining shahar himoyasiga safarbar eta oldi va xivaliklar chekinishga majbur boʻldilar. Xivaliklar bilan olib borilgan uzoq muddatli urushlar Movarounnahrning umumiy iqtisodiy inqiroziga sabab boʻldi va Ashtarxoniylar davlati ichidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi. Salomatligi ogʻirlashgan va keksayib qolgan Abdulaziz mamlakat mudofaasini taʼminlay olmadi. U hokimiyatdan ukasi Subxonqulixon foydasiga voz kechib Makkai Madinaga ketishni ixtiyor qiladi va oʻsha yerda bu dunyoni tark etdi.

Subxonqulixon davri (1681–1702)da Buxoro bilan Xiva oʻrtasidagi urush yangi kuch bilan davom ettirildi. Ana shunday urushlarning birida Xiva xoni Anushaxon Karmana hamda Vardanzi atroflarini egallab, Samarqandni ham qoʻlga oldi. Samarqand zodagonlari Anushaxon nomini xutbaga qoʻshib no-

moz o'qish va uning nomi bilan pul zarb qilishga rozi bo'ldilar. Bu ishlardan norozi bo'lib g'azablangan Buxoro zodagonlarining ko'pchiligi o'z qabilalari turgan joylarga ketdilar. Subxonqulixon qatag'on qabilasidan bo'lgan Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida xivaliklarni Samarqanddan quvib chiqardi va shahar aholisidan qattiq o'ch oldi. Anushaxon Samarqandga bostirib kirishga yo'l qo'ygan va uni o'zining xoni qilib ko'targan samarqandliklarni qirib tashlashga buyruq berdi. So'ng bu buyruq aholi boshiga g'oyatda og'ir va katta tovon solig'i bilan almashtirdi hamda nihoyatda shafqatsizlik bilan bu tovon undirildi.

Subxonqulixon davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun Balxda hokimiyat talashib tinimsiz kurash olib borayotgan o'z o'g'illariga ham qarshi keskin choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Balx noibi Subxonqulixonning o'g'li Siddiq Muhammad o'z otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarmoqchi emish, degan gap tarqaladi. Bunga javoban 1681-yilda Subxonqulixon Balxga qo'shin tortdi. Nobakor o'g'il Siddiq Muhammad otasi yuborgan qo'shinni miltiq va kamonlardan o'q uzib qarshi oldi. Lekin gunohini kechirish to'g'risida otasidan xat olgach shahardan chiqib otasining huzuriga bordi. Ota-bola ko'rishgach birlashib Balxga bordilar. Shahar ichiga kirganlaridan so'ng Subxonqulixon o'g'li Siddiq Muhammadni zanjirband qilib qamab qo'yishga buyruq berdi, isyon ko'tarishda unga yordam bergan shaxslar so'roq qilinib qiynab o'ldirildi. Siddiq Muhammad ham qamoqda halok bo'ldi.

Xiva xoni Anushaxon Subxonqulixonning Buxoroda yo'qligidan foydalanib, yana Buxoroga bostirib keladi va uni vayron qiladi. U juda katta o'ljalar bilan Xivaga qaytadi. Ana shu voqeadan sal o'tmasdan Xivada Anushaxonga qarshi fitna uyushtiriladi. Uning yaqin odamlari 1686-yilda Anushaxonning ko'zini o'yib ko'r qiladilar. Bu dahshatli voqeada Buxoroning ham qo'li bo'lsa ajab emas, deb taxmin qiladilar. Anushaxon o'rniga Xiva taxtiga uning o'g'li Ernak xon bo'ldi. Bu davrda Subxonqulixon Xivadan biror-bir xavf yo'qligiga ishonch hosil qiladi va Boloi Murg'ob (Hozirgi Kushkaning shimoli sharqida) qal'asini egalladi. Lekin bundan foydalangan Ereng Subxonqulixonning yerlariga bostirib kirdi va Buxoroni qamal qila boshladi. O'zining

barcha qoʻshinlarini Xurosonga safarbar qilgan Subxonqulixon Badahshon hokimi Mahmudbiyga yordam soʻrab murojaat qiladi. Otaliq Mahmudbiy xivaliklarni chekinishga majbur etdi. Xivaga kelgandan soʻng Ernak oʻldirildi. Subxonqulixonning uning nomi xutbaga qoʻshib oʻqitilayotganligi va uning nomi bilan pul zarb qilinayotganligi toʻgʻrisida xabar yuboriladi. Xivaliklarning iltimoslariga binoan Xorazmni idora qilish uchun Subxonqulixon oʻz noibini yuboradi. Ana shu tariqa Xorazm yana Buxoro tarkibiga qoʻshib olinadi.

Buxoro xoni Subxonqulixonning qilgan xizmatlari uchun otaliq Mahmudbiy Badahshon va Balxning noibi etib tayinlanadi. Subxonqulixon hukmronlik qilgan soʻnggi yillar mamlakat uchun umumiy ogʻir vayronalıklar va tartibsizliklar keltirdi. Urugʻlar, qabilalar oʻrtasida tinimsiz urushlar, tartibsizliklar avj oldi. Ashtarxoniylik hukmronligi Buxorodan nariga oʻtmaydi. Ana shunday ur-yiqit, beboshlik va tartibsizliklar avjiga chiqqan bir davrda 1702-yilda Subxonqulixon vafot etdi. Buxoro taxtiga Subxonqulixonning oʻgʻli **Ubaydullaxon (1702–1711)** oʻtiradi. Bu davrda toj-u taxt uchun kurash oʻzining eng yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Bu davrda Balx, Termiz, Shahrisabz hokimlari mustaqil boʻlib olishga harakat qiladi. Ubaydullaxon ularga qarshi harbiy yurishlar qilishga majbur boʻladi. Samarqand va Hisorda bosh koʻtargan qabilalarga qarshi qoʻshin yuboradi. Oʻzaro betoʻxtov urushlar, harbiy yurishlardan keyin xazina boʻshab iqtisodiy ahvol ogʻirlashadi. 1708-yillarda oʻtkazilgan pul islohoti natijasida pul qiymati toʻrt marotaba tushib ketadi (mis chaqalar 36 gr dan 9 gr ga tushiriladi). Islohotdan zarar koʻrgan aholi gʻalayon koʻtaradi, biroq qoʻzgʻolon shafqatsizlarcha bostiriladi. Mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy ahvolning yomonlashishi ichki ziddiyatlarni kuchaytirib yuboradi. 1711-yil 16-martda uyushtirilgan saroy fitnasi oqibatida Ubaydullaxon ham oʻldiriladi. Bu fitnani 40 kishidan iborat saroy guruhi amalga oshiradi. Ubaydullaxon bor-yoʻgʻi 30-yil yashab, 9-yil hukmronlik qiladi. U oʻz hukmdorligini tugʻishgan ogʻasi Abdullanning boshini tanasidan judo qilishdan boshlagan edi. Negaki Ubaydullaxon ogʻasining taxtga daʼvogar boʻlib chiqishidan qoʻrqardi.

Taxtga Ubaydullaxonning ukasi **Abulfayzxon (1711–1747)** oʻtiradi. Ashtarxoniylik sulolasidan boʻlgan soʻnggi xon

Abulfayzxon tez orada amirlar va zodagonlar qoʻlida qoʻgʻirchoq boʻlib qoladi.

Hokimiyatdagi muhim lavozimlar nufuzli amirlar qoʻliga oʻtib qoladi. Markaziy hokimiyat zaiflashgach, 1711-yilda Balh, 1723-yilda Samarqand viloyati Buxoro xonligidan ajralib chiqadi. 1720-yilda Toshkent viloyatini qalmoqlar bosib oladi. Bu ahvolni kuzatib borgan Xiva xoni Shergʻozixon ham Buxoro xonligiga daʼvogar boʻladi, ammo uning harakatlari samarasiz yakunlanadi. 1723-yilda qalmoqlar qozoq dashtlariga bostirib kirib qozoqlarni Movarounnahrqa qochishga majbur qilgan. Qozoqlar chorva mollari bilan Zarafshon vodiysiga kirib bogʻ va ekinzorlarni payhon qilganlar. Buxoro xonligida iqtisodiy va siyosiy tanglik kuchaygandan kuchayadi, oxir oqibatda xonlik tanazzulga yuz tutadi. Movarounnahr parchalanib uchta xonlikka—Buxoro, Qoʻqon va Xiva xonliklariga boʻlinib ketadi

Xullas, 1601–1756-yillar davomida Ashtarxoniylar sulolasi davrida hukm surgan siyosiy, ijtimoiy tarqoqlik xonlar, sultonlar, shahzodalar oʻrtasida avjiga chiqqan oʻzaro toju taxt uchun kurashlar, talonchilik urushlari oʻsha davr avlod-ajdodlarimizning dunyo taraqqiyoti sivilizatsiyasidan birmuncha orqada qolib ketishiga bosh sabab boʻldi.

## **6. SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR DAVLATIDA SIYOSIY TUZUM, IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLAR**

Shayboniylar hukmronligi yillarida eng oliy davlat idorasi dargoh hisoblangan. Uning tepasida oliy hukmdor—xon turgan. Oliy hukmronlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulugʻ namoyondaga oʻtgan. Keyinchalik bu anʼana sulola ichidan oilaviy taxt vorisligiga oʻtgan. Abdullaxon II davriga kelib, masalan, hokimiyat Iskandarxondan oʻgʻli Abdullaxonga, Abdullaxondan esa oʻgʻli Abdulmoʻminga oʻtgan. Ammo shayboniylar sulolasidagi davomiylik soʻnggi paytgacha qadar ana shu tartibda shakllana olmagan. Abdullaxon II davrida Balx viloyati hokimligini valiahdga topshirish anʼanasi shakllanib borgan. Biroq Shayboniylar faoliyatiga chek qoʻyilishi bilan bu anʼana rivojlanmay qolgan. Bu anʼana ashtarxoniylar davrida yana tiklangan.

Dargohdagi xondan keyingi davlat mansabi sardor, boshliq, yetakchi deb hisoblangan va u xonning eng ishonchli va yaqin kishilaridan biri boʻlgan. Qabul marosimlarida u xonning chap tomonidan joy olgan va davlatning ichki va tashqi siyosati, harbiy masalalarda xonning birinchi maslahatchisi deb qaralib, xon farmon va yorliqlarida uning nomi birinchi boʻlib qayd etilgan. Masalan: 1570-yili Buxoroda hokimiyatni tiklash jarayonida, buxoroliklar bilan muzokaraga xon oʻz sardorini yuborgan. Bundan tashqari harbiy yurishni uyushtirish, dushman harbiy qudratini oʻrganish, elchilik vazifalarini bajarish vazifalarini ham sardor olib borgan.

Davlat tasarrufiga tegishli mansablardan yana biri—otaliqdir. U otasining oʻrnini bosmoq mazmunini anglatadi. Ushbu xizmat hokimiyatning joylardagi viloyat—mulklardagi siyosatini belgilashda katta ahamiyatga ega boʻlgan. Zero, oliy hukmdor mamlakat qismlarini viloyatlarni sulola namoyondalari—shahzodalariga taqsimlab bergan. Balogʻat yoshiga yetmagan shahzodalar, to ulgʻayib mustaqil faoliyat koʻrsatgunlariga qadar, otaliqlar hokimiyatni boshqarganlar. Ular butun bir viloyat taqdirini hal etib kelganlar.

Xonning chiqargan hukmini yorliq va boshqa rasmiy hujjatlarini oʻz egalariga yetkazishga parvonachi javobgar boʻlgan.

Dargohga tushgan arzlarni qabul qilib, javobni berish, mamlakatdagi tartiblarga amal qilinishini nazorat qilish dodxoh zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish tadbirlarini bajargan. Koʻkaldosh, yaʼni koʻngildosh mansabi dargohdagi muhim lavozimlardan biri hisoblangan. Bu lavozimga xon va sulolaning eng yaqin kishilaridan qoʻyilgan. Oddiy qilib aytganda, mamlakatda xon olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga kishilarning munosabatlari kabi ishlarni nazorat qilib borish koʻkaldoshning vazifasi boʻlgan. Masalan: Abdullaxon II va Abdulmoʻmin oʻrtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishda Qulbobo koʻkaldosh asosiy oʻrin tutgan. U xonga Abdulmoʻmin harakatlari va maqsadlarini oldindan bilib, toʻgʻri maʼlumot bergan. Shuning uchun

Abdulmo‘min taxtga chiqqandan so‘ng‘ Qulbobo ko‘kaldoshdan qutulish uchun uni qatl ettirgan.

Xon bilan shahzodalar o‘rtasidagi aloqalarni, sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlarni yo‘lga qo‘yishni xon yasovuli olib borgan. U shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, arzlari, iltimoslarini yetkazish kabi ishlarni bajargan.

Dargohdagi tartib-intizom, keldi-ketdi, xavfsizlik ishlari eshik boshi zimmasida bo‘lgan chap eshik og‘osi, o‘ng eshik og‘osi. Ular urush paytlarida xonning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarganlar.

Umuman olganda, o‘sha zamonlarga xos ravishda davlat xizmatchilari urush paytlarida o‘zlarining vazifalariga qo‘shimcha qilib, harbiy faoliyat bilan ham shug‘ullanganlar.

Dargoh bilan bog‘liq boshqa bir qancha xizmatlar ham bo‘lgan. Bulardan asosiysi shayxulislom lavozimi bo‘lib, uning davlat jamiyat va mafkuraviy hayotdagi o‘rni yuksak darajada bo‘lgan. Masalan, Abdullaxon II ni taxt uchun kurashda qo‘llab-quvvatlagan Xoja Islom bo‘lganligini eslashning o‘zi kifoyadir.

Din peshvolari nafaqat ijtimoiy hayotda, balki iqtisodiy munosabatlarda ham o‘z mavqeyilarini yo‘qotmaganlar. Shuning uchun ham vaqf mulklari bilan shug‘ullanuvi maxsus xizmatlar joriy etilgan bo‘lib, ularni mamlakat miqyosida bosh sadr, joylarda esa sadrlar boshqarganlar.

XVI asrning oxiri XVIII asrning birinchi yarmida Shayboniyalar va Ashtarxoniylar xususiy mulkchilikka asoslangan yer egaligi munosabatlari bosqichida edilar. Ayrim qabilalar tepasida voris zodagonlar–Chingizxon xonadonidan bo‘lgan sultonlar turardi. O‘z navbatida qabilalar, urug‘lar va avlodlarga bo‘lingan edi. Ular sultonlar bilan birga qabilalarning yetakchisi beklar va biylar tomonidan boshqariladi. Ulardan eng qudratlilari xon etib saylanardi. Xonning o‘z lashkari bo‘lib qabilalarning yigitlari bilan birga uning qurolli kuchlarini tashkil etgan.

Shayboniylar O‘rta Osiyo hududlarini egallagach g‘olib ko‘chmanchilarning asosiy ommasi Toshkent yaqinida, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo vohalarida joylashdilar. Ko‘chmanchilarning anchagina qismi Amudaryoning chap qirg‘og‘iga, hozirgi Afg‘onistonning shimoliy hududlariga ko‘chadilar. Yer-suvlar qaytadan taqsim qilinadi.

Shayboniylar davlati dastlab mulklarga taqsimlangan. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx, Hisor va boshqalar ana shunday mulklar hisoblangan. Mahalliy va koʻchmanchi zodagonlar bu mulk egalariга xizmat qilganlar. Yengilgan zodagonlarning yer-mulklari va boyliklarini musodara qilingan, qarshilik koʻrsatganlar shafqatsiz suratda jazoga mahkum etilgan. Jumladan, Xoʻja Ahrorning Shayboniylar bosqiniga qarshilik koʻrsatishni uyushtirishga uringan oʻgʻli, yolgʻiz merosxoʻri Muhammad Yaxyo qatl etiladi. Uning butun mol-mulki va dunyosi musodara qilindi va shayboniylarning koʻpdan koʻp qarindosh—urugʻlariga, katta yer egalariга, shayboniylarga yaqin va ularni qoʻllab-quvvatlaydigan ruhoniylar vakillariga taqsimlab beriladi.

Bunday tadbirlar natijasida hukmdor va boy amaldorlarning yangi tarkibi vujudga keldi. Bu yirik zamindor xoʻjayinlar orasida ruhoniylarning vakillari boʻlmish Joʻybor shayxlari oʻzlarining qudrati va nufuzi bilan ajralib turar edilar. Ularning boyliklari shu qadar koʻp boʻlganki, uni faqat Xoʻja Ahror boyliklari bilangina qiyoslash mumkin boʻlgan. Ammo mazkur shayxlar oʻzlarining siyosiy taʼsir doirasi va nufuzi jihatdan Xoʻja Ahrordan ham ustun boʻlganlar. Tarixchi Xofiz Tanishning yozishicha Joʻybor shayxlaridan biri Xoʻja Saʼd Buxoro xoni Abdullaxonning murabbiysi va maslahatchisi sifatida siyosiy voqealarda katta nufuzga ega boʻlganki, u barcha siyosiy voqealarda shaxsan ishtirok etgan. Xoʻja Islom Abdullaxonning hokimiyat tepasiga kelishiga yordam bergan, shu bois xon uning ijobatisiz birorta ham muhim ishni boshlamagan.

Bu hol shuni koʻrsatadiki, musulmon dini mafkurasi yer egaligi tizimi hukmronligiga batamom singib ketdi. Xullas, oʻzbek qabilalari hukmronligi davrida ham ijtimoiy tuzumda oʻzgarish boʻlgani yoʻq, temuriylar davrida qanday boʻlsa, shundayligicha qoldi. Yaʼni, mulkka egalik qilishning mazmuni oʻzgarmadi, faqat u bir qoʻldan ikkinchi qoʻlga oʻtdi, xolos, yer mulki avvalgi asrlardagidek davlat mulki, xususiy mulk va vaqf mulkligicha qola berdi. Yer mulklarining koʻpchiligi davlatga qarashli yerlar edi. Dehqonlar davlat yerlaridan foydalanganliklari uchun olingan hosilning maʼlum bir qismini xiroj (yer rentasi) tarzida toʻlardilar. Davlat yerlarining katta bir qismi oʻzbek



qabilalariga «yurtlar», harbiy va fuqaro shaxslarga «suyurgʻol» yoki «tanho» sifatida inʼom qilib taqsimlab berilgan. Yer inʼom qilish natijasida davlat tomonidan bevosita nazorat qilinadigan dehqon aholisining qoʻlidagi yer maydoni shu qadar kamayib ketdiki, natijada gʻaznaga tushadigan xiroj va boshqa soliqlar tushumi tobora kamayib ketadi.

Shimoliy hududlardan Oʻrta Osiyo yerlariga kelib oʻrnashgan etnik jihatdan turk-moʻgʻul qabilalarining avlodi boʻlgan Dashti Qipchoq oʻzbek qabilalari taraqqiyotda bu mintaqadagi mahalliy xalqlardan nisbatan ancha orqada boʻlganlar. Ular azaldan bu yerda yashab kelayotgan turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlar bilan yaqinlashib, oʻtroq yashash tarziga oʻta boshlaganlar, dehqonchilik qilganlar, polizchilik, bogʻdorchilik bilan shugʻullanganlar, kosibchilik va hunarmandchilik madaniyatini egallaganlar. Dashti Qipchoq kelgan xalq mahalliy aholidan oʻtroq madaniy hayot kechirish sirlarini oʻrganganlar va ana shu jarayonda birlashib, qoʻshilib-qorishib ketganlar. Bu shundan dalolat beradiki, Dashti Qipchoq choʻllaridan koʻchib kelganlar asrlar davomida Oʻrta Osiyoda qadim-qadimdan yashab kelgan turkiy tilda soʻzlashuvchi xalq tarkibiga kiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muxbiri-ning bergan savollariga javoblarida istiqlolimizga tashqaridan, ichkaridan mafkuraviy tahdid solayotgan vositalardan biri tariximizni soxtalashtirish, buzish ekaniga alohida eʼtibor berdi. Hozirgi kundagi mafkuraviy tahdidlardan biri – **«bu oʻzbek millatining tarixini soxtalashtirish, turli xil gʻayriilmiy talqinlar, siyosiy shiorlar bilan bizni tariximizdan, sharaflı oʻtmishimizdan judo qilishga urinish tarzida namoyon boʻlmoqda. Xorijdagi baʼzibir siyosiy arboblار va olimlarning daʼvolariga koʻra, alohida oʻzbek degan millat yoʻq emish, balki umumiy turkiy xalq bor emish. Shuning uchun oʻzbek, qozoq, qirgiz, turkman, tatar, boshqird, uygʻur va hokazo tushunchalarga barham berish kerak emish»**.<sup>1</sup>

Bunday qarashlarga Islom Karimov ilgari ham javob berib, har bir xalq kabi, oʻzbek xalqining ham tarixi betakrorligini koʻp marta taʼkidlagan. Muxbirning savoliga javob berarkan, yoʻlboshchimiz shunday deydi: **«Biz jahon maydonida kuni kecha**

<sup>1</sup> Каримов И. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курмоқдамиз. 7-жилд. Т., «Ўзбекистон», 1999. 301-бет.



**paydo boʻlgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz koʻhna Xorazm zaminida «Avesto» paydo boʻlgan zamonlardan buyon oʻz hayoti, oʻz madaniyati, oʻz tarixi bilan yashab keladi. Oʻzbek millati Oʻzbekxon nomidan tarqagan emas, balki Oʻzbekxon oʻzbek millati nomini oʻziga nom qilib olgan boʻlsa, ajab emas».<sup>1</sup>**

Ayni vaqtda yoʻlboshchimiz oʻzbeklarning qadim tarixiy ildizlari turkiy xalqlar bilan bir ekani, bu birlik til, din, urf-odat, qadriyatlari va madaniyatida namoyon boʻlganini eʼtirof etib, turkiy xalqlar bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish tarafdorimiz, deb taʼkidlaydi. «**Lekin, – deb aytdi I.Karimov, – biz oʻzimizni hamisha mustaqil millat – oʻzbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz. Bunga tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor. Butun dunyo jamiyati bizning buyuk tariximiz va madaniyatimizni eʼtirof etib, bugungi kunda bizni shu nom bilan taniydi va hurmat qiladi**».<sup>2</sup>

XVII asr oxiri va XVIII asrda koʻchmanchi oʻzbek qabilalarining ommaviy ravishda oʻtroqlashish jarayoni sodir boʻlgan deyish mumkin. Buni shu davrlarga kelib hozirgi Oʻzbekistonning butun hududida oʻzbek qabilalarining nomi bilan yuritilgan koʻpdan koʻp qishloqlar maydonga kelganligi (Qoʻngʻirot,<sup>3</sup> Mangʻit, Mesit, Qatagʻon, Nayman,<sup>4</sup> Qiyot va boshqalar)dan bilsa ham boʻladi.

Shayboniylar hokimiyatni mustahkamlab olgach, mamlatning ichki hayotini tartibga solishga harakat qiladilar. Soliqlar va zulm, zoʻrlikning ogʻirligidan xoʻjaliklar yer-suvlarini tashlab ketadilar. Shayboniylar davlatida soliqlar, oʻlponlar va majburiyatlarning murakkab bir tizimi tarkib topgan. Asosiy soliq «xiroj» boʻlib, u sugʻoriladigan yerlardan olinadigan daromadning 30–40 foizini tashkil qilardi. Davlat devoni qoʻshin va xon xonadoni sarflari va ularni saqlash uchun «ixrojat» nomi bilan soliq olinardi. Bogʻlar, polizlar, bedazolarga ham soliq solinar edi.

Soliq va oʻlponlardan tashqari dehqonlar majburiy ishlab berish majburiyatlarini ham bajarishlari kerak boʻlardir. Eng ogʻir

<sup>1</sup> Oʻsha joyda.

<sup>2</sup> Oʻsha joyda.

<sup>3</sup> Asaka tumanida shu nomdagi qishloq bor.

<sup>4</sup> Andijon tumanida shu nomdagi qishloq bor.

yuk «yasoq» edi. U kanallar, qal'a zovurlar qazishni, yo'llar qurishni, o'tin, somon, xashak yig'ishni va boshqalarni ko'zda tutardi. Jumladan, Vaxsh daryosidan kanal qazish uchun Hisor, Qabodiyon va boshqa joylarning hokimlari 10 ming nafardan mardikor berishlari talab etilgan. Bu ishlar 6 yil davom etib, viloyatlar har yili ma'lum miqdorda mardikorlikka odam berib turganlar. Dehqonlar bulardan tashqari yana juda ko'plab ishlab berish majburiyatlarini ham bajarar edilar.

Mamlakatda tez-tez bo'lib turadigan urushlar xalq ommasining ahvolini yana ham og'irlashtirardi. Urush bahonasi bilan qonuniy va noqonuniy, doimiy va muvaqqat soliqlar soni ko'payaverardi. Bunday og'ir qismatdan qutulishning birdan bir yo'li deb dehqonlar o'z yashash joylari, makonlaridan ommaviy qochishni tushunar edilar.

Qishloq xo'jaligida dehqonlar mehnati bilan birga qullar mehnatidan ham foydalanilgan. Bu hol ham Shayboniylar va Ashtarxoniylar davriga xos jarayondir. Qullar qismati g'oyatda og'ir va ayanchli edi. Mehnatkash xalq zo'rlik siyosatiga qarshi ommaviy chiqishlar, g'alayon va qo'zg'olonlar bilan javob berardilar. XVI asr boshlarida Samarqand, Buxoro, Qorako'l va boshqa joylarda aholining qo'zg'olonlar qilganligi yozma manbalarda ko'rsatilgan.

Saltanatning shu hududlarida XVI asr boshlariga kelganda shaharlar hayoti deyarli izdan chiqqan edi, desa bo'ladi. Ipak yo'lining inqirozga uchraganligi O'rta Osiyoning nafaqat savdo aloqalari va munosabatlariga, balki o'lkaning butun maishiy ijtimoiy, iqtisodiy-madaniy va istiqboldagi siyosiy taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shahar aholisi batamom qashshoqlarcha turmush kechirishga mahkum etilgan edi.

XVI asrning dastlabki o'n yilliklaridan e'tiboran shaharlarining izdan chiqqan xo'jalik hayoti sekin-astalik bilan tiklana boshladi. 1512-yilda o'lkaga tashrif buyurgan Xuroson shoiri va adabiyotshunosi Vosifiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Shayboniylar zamonida Buxoro, Samarqand va Toshkent serhosil vohalar hisoblanib, hunarmandchilik savdo va madaniyat yuksalgan.

Abdullaxon davrida Buxoroda «Chorsu» bozori qurilgan. Bozor ko'chalarining bir-biri bilan kesishib o'tgan joyida

gumbazli binolar boʻlgan. Bu binolarda telpakfurushlar (toqitelfakfurushon), zargarlar (toqi-zargaron), sarrof-sudxoʻrlar (toqi-sarrofon) va boshqalar joylashganlar. 1587-yilda Abdullaxon musofirxona barpo ettirgan. Juda koʻp karvonsaroylar barpo etilgan. Xoʻja Saʼdga qarashli Gavkushon karvon saroyi (1570) va Lisak masjidiga yaqin joydagi saroy (1560) shular jumlasidandir. Bu meʼmorchilik obidalari hozirqacha saqlanib qolgan va xorijlik sayyohlarning eʼtiborini tortmoqda.

Shayboniylar davrida ishlab chiqariladigan hunarmandchilik va kosibchilik mahsulotlariga, qogʻoz, shoy, qurol-aslahalarga hatto chet mamlakatlarda ham talab va ehtiyoj katta edi. «Mir Ibrohimiy», «Sultoniy» kabi aʼlo sifat Samarqand qogʻozlarining dovrugʻi uzoq-uzoqlarga ketgandi. Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlarida temir bilan bir qatorda rudadan choʻyan quyish rivojlandi. Sovun ishlab chiqarish, misgarlik tosh va yogʻoch oʻymakorligi, toʻqimachilik rivoj topdi. Xullas bu davrda hunarmandchilikning turli shakllari mavjud edi. Bu hol mamlakatda nafaqat ichki savdoning balki xorijiy mamlakatlar bilan ham savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga sabab boʻldi. Buxoro va Xivaning elchilari, Oʻrta Osiyo savdogarlarini qoʻshni mamlakatlar: Hindiston, Eron, Moʻgʻuliston, Qozoqlar, Sibir dashtlari, noʻgʻaylar yurtlariga, hatto Moskvagacha boshlab borganlar. Bunga javoban Buxoro xonligiga ham turli xorijiy mamlakatlardan elchilar kelganlar. Bu davrda Xitoy bilan oʻzaro bordi-keldi aloqalari keng yoʻlga qoʻyilgan. Xitoydan koʻproq ipak gazlamalari, chinni idishlar, dori-darmonlar, choy keltirilgan.

Shayboniylar sulolasining soʻnggi yillarida xususiy yer egaligining rivojlanishi va juda koʻp yerlarning oʻzbek zodagonlari qoʻlida toʻplanishi bu zodagonlar ahamiyatini shu qadar oshirdiki, xon hokimiyati XVII asr boshlaridan eʼtiboran oʻzining avvalgi katta salmogʻini yoʻqota bordi. Ayniqsa, Abdullaxon vafotidan soʻng mamlakatda shunday bir ayanchli ahvol yuzaga keldiki, amirlar, sultonlar, shahzoda, boy va otaliqlar amalda Buxoro xonligini chok-chokidan parchalab, oʻnlab, yuzlab boʻlaklarga boʻlib oldilar. Ularning har biri Markaziy hokimiyatdan deyarli butunlay mustaqil edilar.

1601-yildan boshlab hokimiyat tepasiga Ashtarxoniylar keldilar. Yangi sulolaga Shayboniylardan ogʻir meros nasib eta-

di. Amir Temur vafotidan keyin 200-yil o'tib, Movarounnahr hududi siyosiy tarqoqlik o'zaro qirg'inbarot urushlar natijasida xalq xo'jaligi va ishlab chiqarish butunlay izdan chiqib inqiroz sari yo'l tutgan edi. Ashtarxoniylar siyosiy tarqoqlikni va o'zaro qirg'inbarot urushlarni to'xtata olmaydilar. XVII asr boshlariga kelib o'zbek urug' va qabilalari soni 92 ta edi. Ularning har biri o'ziga xon, o'ziga bek – davlat ichida davlat edi, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qiladi. Mang'itlar–Buxoroda, qo'ng'irotlar–Xorazmda, minglar–Farg'onada, kenagaslar–Shahrisabzda, Afg'onistonning shimoli, Amudaryoning ikkala sohilida – qatag'onlar hukmronlik mavqeyini egallaydilar. Xonlarga qaysi qabila urug'ning ta'siri kuchli bo'lsa, yuqori mansab va lavozimlarni o'sha qabilaga ulashar edi. Mang'itlar vakillari eng yuqori amaldor lavozimi bo'lgan otaliq lavozimini, do'rmonlar parvonachi va Qarshi hokimi lavozimini, qatag'onlar Buxoro oliy yasovuli lavozimini egalladilar. Ana shu tariqa xalq va davlat boyligini talon-taroj qiluvchi mamlakatni xarob qiluvchi ulkan boshqaruv apparati va amaldorlarning katta bir guruhi tarkib topdi. Bularni faqat boylik va shaxsiy manfaat qiziqtirardi. Mamlakat, millat va xalq taqdiri, istiqboli ular uchun begona edi.

Ashtarxoniylar davrida soliqlarning qirqdan ortiq turi joriy qilingan. Bu hol ommaning qashshoqlanishiga olib keldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida pul tizimi inqirozga uchradi va xalqni talash avjiga mindi. Bitta kumush tangadan to'rtta tanga zarb ettirila boshlangan, bunday tangalarning qudrati to'rt barovar pasayib ketgan. Soliqlar amalda to'rt barobar oshirilgan. Bularning oqibatida mamlakat xalq xo'jaligi batamom inqirozga yuz tutdi, ochlik-yalang'ochlik oddiy bir narsa bo'lib qoldi: «Oddiy xalq va kambag'allar, deyiladi «Ubaydullanoma»da–mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar».<sup>1</sup> Chorasiz qolgan xalq ommasi Ubaydullaxon zulmiga qarshi Buxoroda, Kesh, Urgut va Termizda qo'zg'olonlar ko'tardilar. Bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Ashtarxoniylar xalq ommasi ustidan o'z hukmronliklarini o'tkazishda ruhoiylarning qo'llab-quvvatlashi va madadiga tayanganlar. Hukm-

<sup>1</sup> *Мирмухаммад Амин Бухорий. Убайдуллонома, пер. с персид. с прим. А. Семенова. Т., «Фан», 1957, 158-бет.*

dor zodagonlar bilan diniy mahkamalar oʻrtasida toʻla hamkorlik vujudga kelgan. Har bir hukmdor taxtga oʻtirishdan oldin muqaddas joylarga, avliyo-anbiyolar qabrlariga borib qurbonliklar, nazr-niyozlar qilib, kechalari bilan uxlamasdan qurʼon oyatlaridan oʻqitib chiqqanlar va ularning arvoqlaridan hukmronlikka fatvolar soʻraganlar.

Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davriga kelib, Buxoro Oʻrta Osiyoda islom dinining tayanch markazi sifatida mavqeyini saqlab qolgan. Bu yerga islom dinining bilimdonlari, mullalar, shayxlar, mudarrislar har tarafdin kelar edilar. «Ubaydullanoma»da bu haqda quyidagilarni oʻqiyimiz. «Goʻzal Buxoro shahrida va uning atroflarida ilohiyotchilar, olimlar, taqvodor va avliyo kishilar shu qadar koʻp ediki, ularning sanogʻiga yetib boʻlmasdi».<sup>1</sup> Ular soʻfiylik taʼlimotini bilishda va karomatda goʻyo oʻz ilohiy qudratlarini namoyish qilar edilar. Bu davrda Xoʻja Ahror–naqshbandiylar gʻoyasining tarafdori soʻfi Dehqonga teng keladigan va u bilan bahslashadigan ulamo yoʻq edi. Manbalarda koʻrsatilishicha, uning yer-mulklari va boyliklari juda koʻp va cheksiz boʻlgan.

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida Joʻybor shayxlarining oʻrni va nufuzi juda katta boʻlgan.<sup>2</sup> Aslzodalik va tariqatdagi yuqori mavqeyilariga koʻra, Joʻybor xojalari oʻzlarini ota tomonidan Muhammad paygʻambar S.A.V. avlodlari, ona tomonidan esa Chingizxon va Joʻji avlodlari deb bilganlar.

Ashtarxoniylar davlatining eng oʻjiz va kuchsiz tomoni shunda ediki, ularda muntazam qoʻshin boʻlmagan. Xon qoʻshini asosan qabilalar lashkarlaridan tashkil topardi. Ular oddiy qurollar: qilich, nayza, kamon hamda uchli nayzalar bilan qurollangan edilar. Oʻt oʻchuvchi qurollar kamdan-kam boʻlgan. Qoʻshinda xizmat qiluvchi sipohlarga maosh berilmasdi, ularga bosib olingan yurtlar aholisini talash huquqi berilardi. Albatta oddiy va qadimiy qurollarga tayanuvchi, tartib intizomi boʻlmagan qoʻshin bilan uzoqqa borib boʻlmasdi.

<sup>1</sup> Oʻsha joyda.

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Boʻriboy Ahmedov. Buxoro xonligining XV–XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida Joʻybor hojilarining tutgan oʻrni haqida, – Tarixdan saboqlar. T., 1994, 24–37-betlar.

## 7. SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA ADABIYOT

Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolalari hukmronligi davrida Movarounnahrda fan va madaniyat rivoj topdi. Shayboniixon hayotligi chog'ida yozilgan turli manbalarda, shu qatorda Muhammad Solihning chig'atoy-turkiy tilidagi «Shayboniynoma», Fazullox bin Ro'zbxonning forscha «Mehmonnomayi Buxoro», Binoiyning forscha «Shayboniynoma», Sayid Hasan Xojaning forscha «Muzakkiri ahbob» asarlarida Shayboniixon davrida fan va madaniyat rivojlanganligi, Shayboniixon esa fan va madaniyatga homiylik qilgani, o'zi ham o'qimishli, o'tkir, badiiy va ijodiy did egasi bo'lganligi ko'rsatiladi. Shayboniylarning deyarli barchasi o'qimishli shaxslar bo'lgan. Shayboniixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Juvonmard Sulton kabilar turkiy va forsiy she'r bitganlar. Shayboniixon Buxoro va Samarqandni temuriylardan so'ng fan, madaniyat va san'at markazlari sifatida rivojlantirdi. Hirot va boshqa joylardagi olimlar, san'atkorlar, adib-shoirilar Buxoro, Samarqandga olib keltirildilar. Shayboniixon asosan urushlar bilan o'tgan 59 yillik umri davomida yuqori saviyali badiiy asarlar yozib, meros qilib qoldirgan. Ammo uning ijod durdonalari o'z ona zamin Turkiston tuprog'idan uzoq-uzoq yurtlarga sochilib ketgan. Shayboniixon tomonidan 1508-yilda chig'atoy turkiy tilida yozilgan. «Baxr ul-xudo» («Haqiqiy yo'lning dengizi») diniy qasidasining yagona qo'lyozma nusxasi Londondagi «British Muzeyi» kutubxonasida saqlanadi.

Shayboniixonning yagona she'rlar to'plami bo'lgan «Devon»i esa Turkiyaning Istanbul shahridagi To'pqopi Saroyi kutubxonasida saqlanadi. Bu asar haqidagi birinchi ma'lumotni tarixchi olim Zaki Validiy To'g'on 1927-yilda «Yangi Turkiston» jurnalining 1-sonida bosilgan «Shayboniixonning she'rlari»<sup>1</sup> maqolasida bergan. Muallifning bergan ma'lumotlariga qaraganda Shayboniixon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek. Sheboniy, Shohibek nomlari (taxallus)da ijod qilgan devoni 191 varaqdan iborat.

<sup>1</sup> Янги Туркистон. Истанбул, 1927, 1-сон, 21–25-бетлар.

Shayboniyxon Sakkokiy, Atoiy, Navoiy anʼanasidagi klassik chigʻatoy-turkiy sheʼriyatini davom ettirdi. Uning ijodiyotiga xos boʻlgan xususiyat shundaki, Shayboniyxon oʻz asarlarida ona di-yori Turkistonga mehr-muhabbatni joʻshib kuyladi. Turkistonning Buxoro, Samarqand, Urganch, Yassi (Turkiston) kabi shaharlari nomlarini oʻz sheʼrlarida biror kimsa Shayboniyxonchalik koʻp ishlatgan emas. Buni biz shoirning quyidagi satrlarida yaqqol koʻramiz:

*Jannati maʼvo degan bogʻi Samarqand emish,  
Kavsari aʼlo degan obi Samarqand emish.  
Har nechakim oʻtsalar Xuld<sup>1</sup>1 togʻi toshini,  
Oʻxshar anga dunyoda togʻi Samarqand emish.  
Jilvai huru qusur har nechakim qilsalar,  
Nargisi mastonalari bori Samarqand emish.  
Bilki ato qiladi Haq har yonda Joʻybor,  
Toʻrt origʻi har taraf ori Samarqand emish.  
Har taraf bargzor bogʻlari erdi behisht.  
Necha desam vasfini koni Samarqand emish,  
Suyidur obi hayot, yeli turur jonfizo.  
Nuch dori izlasang qori Samarqand emish,  
Oʻla yozib Balxda bad yilidan istab.  
Tegma Shayboniyga sen, shohi Samarqand emish.*

Shayboniyxon Samarqandni oʻz asarlarida jannat makon deb kuylasa, Buxoroni Kaʼba saviyasida ulugʻlab:

*Bir xayolim bor koʻngulkim pir vafiy aylayin,  
Ul Buxoro shahrida Kaʼba tavofin aylayin.*

Shayboniyxon boshqa yurtlar, shaharlarda yurgan kezlarda ham Samarqand, Buxoro, Turkistonni sogʻinadi. Karmon, Shodmon, Qoqlik Dargʻon kabi qadimiy ariqlarning zilol suvlarini qoʻmsaydi. U Movarounnahrdek goʻzal yurtni bizga Xudoning oʻzi qimmatbaho sovgʻa sifatida hadʼya qilgan deb aytgan.

Shayboniyxonning fanga, maʼrifat va madaniyatga boʻlgan ijobiy qarashlari albatta uning vorislariga ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Shu boisdan ham Shayboniyxlardan boʻlgan Ubaydul-laxon, Abdulatif, Abdulaziz va Abdullaxonlar ilm-maʼrifat va

<sup>1</sup> Xuld – sakkiz jannatdan birining nomi.



madaniyatga xayrixoh hukmdorlar sifatida oʻtganlar. Ubaydullaxon – Shayboniyxonning jiyani, Buxoro hokimi Mahmud Sultonning oʻgʻlidir. U 1533–1539-yillarda Buxoro hukmdori boʻlgan. Ubaydullaxon jasur va dovyurak lashkarboshi, qattiqqoʻl hukmdor va ijodkor adabiyotshunos edi. U Shayboniyxondan soʻng kuchli va tartibli davlatga asos soldi, olti marta Xurosonga lashkar tortib bordi, Eron qoʻshinlariga bir necha bor qaqshatqich zarbalar berdi. Xorazmni oʻziga boʻysundiradi.

Ubaydullaxon ibn Mahmud Sulton «Ubaydi», «Ubaydullo», «Qul Ubaydiy» taxalluslarida sheʼrlar ijod qilgan. U fors, arab tillarini yaxshi bilgan, bu tillarda ham sheʼrlar yozgan. Ubaydullaxon «Gʻayratnoma», «Shafqatnoma», «Kitob us-salot» kabi masnaviy yoʻlida pandnoma-risolalar bitgan. U oʻz asarlarida Yassaviy dunyoqarashi gʻoyalarini asosiy yoʻnalish qilib olgan. Ubaydiyning oʻzbek, fors va arab tilidagi sheʼrlaridan iborat uch devoni bir muqova ishiga joylashtirilgan. Bu uch tildagi devonning yagona qoʻlyozma nusxasi 1583-yilda Mir Husayn al Husayniy tomonidan koʻchirilgan boʻlib, kitob «Kulliyot» deb atalgan. Bu qimmatli qoʻlyozma asar Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar fondida saqlanadi.

Shoirning boy adabiy merosi hali maxsus oʻrganilmagan. Ubaydiy oʻzining oʻzbek tilidagi gʻazal va ruboiylari, qitʼa va tuyuqlari bilan hech shubhasiz, sheʼriyat taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan. U oʻzining gʻazaliyotida anʼanaviy mavzular–ishq-muhabbat, vafodorlik va doʻstlik ayol goʻzalligi va ochiq sadoqati kabilarni tarannum etadi. Shoir sheʼrlaridagi ifodaning oʻziga xosligi yuksak axloqiy fazilat va goʻzal nafis dunyoviylikning oʻzaro uygʻunligidir. Oʻzbek sheʼriyatida ishqiy sheʼrlar koʻp boʻlsada Ubaydiy satrlari ularning birortasiga oʻxshamaydi.

Shoir Ubaydiy ijodi hali ochilmagan qoʻriq. Bu boy xazinani chuqur va atroflicha oʻrganib, uni xalqimizning maʼnaviy boyligiga olib kirish mamlakatimiz adabiyotchilarining vatanparvarlik burchidir.

Shayboniyalar sulolasi hukmdorlari orasida Abdullaxon alohida ajralib turadi. U kuchli va markazlashgan feodal davlat barpo etdi, fan va madaniyatning rivojlanishiga homiylik qiladi. Buxoro poeziyasi antologiyasining muallifi Hasan Hirosiyning bergan maʼlumotlariga qaraganda XVI asrning ikkinchi yarmida Buxo-

ro xonligida fan va adabiyot bilan 250 dan ortiq namoyondalar shug'ullangan.

Ashtarxoniylerden bo'lgan Subxonqulixon saroyida 1692-yilda Muhammad Bodi as-Samarqandiy tomonidan Buxoro poeziyasining antologiyasi tuzilgan. Bu antologiyada o'sha davr adabiy arboblardan 150 tasi to'g'risida tarjimai hol ma'lumotlari berilgan. Subxonqulixonning o'zi ham ilm-ma'rifatli hukmdor edi. U ko'proq tibbiyotga qiziqardi. Subxonqulixon Buxoroda maxsus shifoxona (dori-sh-shifo) qurdirdi. Unda bemorlar davolanar va tibbiyot fani o'rganilar edi. Subxonqulixon yaxshigina shoir ham bo'lgan. «Nishoniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Subxonqulixon kattagina shaxsiy kutubxonaga ega bo'lgan va unda juda ko'plab noyob kitoblar saqlangan. O'zbekiston Respublikasi FANing Sharqshunoslik institutida uning kutubxonasida mavjud bo'lgan noyob kitoblardan ba'zi birlari va Subxonqulixonning shaxsan o'z qalamiga mansub manba'lar, yoki uning haqida yozilgan asarlar saqlanadi.

Ma'rifatparvar xonlar saroyida to'plangan olimlar, shoir va yozuvchilar ilm-fanning turli yo'nalishlari bo'yicha ijod qiladilar va yozgan asarlari bilan jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shdilar.

XV asr oxiri va XVIII asrlar davomida tarix ilmi bobida juda katta monumental asarlar yaratiladi. Muhammad Haydar yoki Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy», Ma'sud ibn Usmon Ko'histoniyning «Tarixi Abulxayrxoniy», Muhammad Solihning «Tavorihi guzida Nusratnoma», Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma», Fazlullox ibn Ro'zbexonning «Mehmonnamayi Buxoro», Hofiz Tanish Buxoriyning «Sharofnomayi Shohiy» yoki «Abdullanoma», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» asari va boshqalar shular jumlasidandir.

Aniq va tabiiy fanlar taraqqiyoti ruhoniylar va din peshvolari tomonidan ma'lum darajada cheklab qo'yilgan edi va bu fanlar bo'yicha qilingan ilmiy kashfiyotlar xudoga, olloh irodasiga shak keltiradi deb hisoblangan. Mana shunday bir sharoitda Mutribiy dunyo xaritasini chizgan. Bu xarita Amin Ahmad Roziyning 1693-yilda tuzgan «Xaft iqlim» («Yetti iqlim») deb

nomlangan Jugʻrofiy-biologiyaga oid lugʻatiga ilova qilingan. 1541-yilda Muhammad Husayn ibn al Mironi as-Samarqandiy tibbiyot va farmakologiyaga oid ilmiy asar yozib, unda dorivor oʻsimliklari, dori tayyorlash va uni saqlash sirlarini batafsil koʻrsatib bergan. U koʻz tabibi shoh Ali ibn Sulaymon Navroʻz Ahmadxon huzurida ishlagan. «Tabiblik dasturulamali» risolasini yozgan.

Bu davrda musiqa ilmi, hattotlik miniatyura sanʼati sohasida ham bir qator yangiliklar yaratildi. Jumladan XVI asrda Buxoroda yashab oʻtgan Najmiddin Kavkabiy (1531-yilda vafot etgan) musiqa ilmiga oid «Risolai musiki» bir asar yozadi. Musiqa haqidagi «Zamzama-yi vaxdad» nomli asar Boqiyayi Namniy qalamiga mansub edi. U har xil janrdagi 12 maqom tizimining mashhur bilimdoni boʻlgan.

Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Mahmud ibn Isʼhoq ash Chiqobiy va boshqalar husnixat bobida tengsiz va mohir boʻlganlar. 1586–1587-yillarda Darvish Muhammad ibn Doʻstmuhammad Buxoriy «Xattolik sanʼati» nazariyasiga oid asar yozgan.

Shu davrda «Fathnoma», «Tarixi Abulxayrxoniy», «Shayboniynoma» va Alisher Navoiyning asarlariga yuqori badiiy did va boʻyoqlarda miniatyuralar va suratlar solingan. Rassomchilik sohasida Jaloliddin Yusuf, saroy rassomi Keldi Muhammad va boshqalar barakali ijod qilganlar.

Shayboniylar va Ashtarxoniyalar davlatlari turkiy va fors-tojik xalqlarining qurama ittifoqidan tashkil topgan edi. Shu boisdan turmushda ham, adabiyotda ham oʻzbek va tojik tillari keng qoʻllanib kelingan. Bu hududlarda yashovchi xalqlar ikki tilda bemalol oʻzaro muloqotda boʻlganlar, quda-andachilik qilganlar. Anʼanaga koʻra esa fanda, adabiyotda va maktabda tojik va arab tillarining nufuzi saqlanar, idora ishlarida tojik tilini qoʻllanish davom etardi. Temuriylar davridan eʼtiboran tojik tili bilan bir qatorda oʻz asarlarini turk-oʻzbek tilida yozadigan olimlar, shoir va yozuvchilar koʻpayaverdi.

XV asrning oxiri XVIII asrlarda Movarounnahr oʻzining badiiy ijod bobidagi tarixiy anʼanalarini davom ettirdi. Bu davrda badiiy ijodning turli janr va yoʻnalishlarida ijod qilgan koʻplab shoir va yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular oʻz ijod

durdonalari bilan jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qoʻshdilar.

**Binoiy**, (asli ismi **Kamoliddin Ali ibn Muhammad Sabz**) (1453–**Hirot, 1512–Qarshi**) Xurosonlik mashhur shoir, musiqashunos va tarixchidir. Uning hayoti temuriylar toj-u taxt uchun hayotmamonot kurashi olib borgan gʻoyatda ogʻir va murakkab bir davrda kechadi. Shu bois u nihoyatda qarama-qarshi hayot yoʻlini bosib oʻtadi. 1458-yilning kuzida Abu Said Hirot yonida Jahonshohni tor-mor keltirib ikki oʻrtada bitim tuzilgach Xuroson Abu Said ixtiyorida qoladi, Gʻarbiy Eronda esa Jahonshoh hukmdor boʻladi. Jahonshoh Hirotidan juda koʻp ulamo, Shuaro va hunarmandlarni, shular qatorida 6 yashar Kamoliddinning otasini ham binokor usta boʻlganligidan oʻzi bilan birga olib ketadi. Kamoliddin Eronda uch yil yashab yana Hirotga qaytib kelgan. Taxminan 1487-yilgacha u Hirotida adabiyot, sheʼriyat ilmi, musiqa va tarix fanlarini chuqur oʻrganib, zamonasining yetuk shoiri va olimi boʻlib yetishadi. 1487-yilda Kamoliddin Tabrizga kelib, Iroqi Ajam va Ozarbayjon hokimi Sulton Yaʼqub (1479–1490) saroyida 1491-yilgacha xizmat qiladi. Shu yili u yana Hirotga qaytgan, biroq tezda Samarqandga ketadi (1495). Alisher Navoiy Binoiyga, uning ijodi va qobiliyatiga katta baho bergan. Lekin uning bir joyda qoʻnim turaolmasligi, mijozidagi baʼzi bir salbiy xudbinlik va mutakabbirlik xususiyatlarini Navoiy eʼtibordan chetda qoldirmaydi<sup>1</sup>.

Bu davrda Movarounnahrda siyosiy vaziyat gʻoyat murakkab boʻlib, ichki oʻzaro nizo va fitnalar oqibatida mirzolar oʻrtasida toʻqnashuvlar toʻxtovsiz boʻlib turardi. 1496-yilda Binoiy Xoja Muhammad Yahyo topshirigʻiga binoan shoir va tarixchi olim Muhammad Solih bilan birga Bobur Mirzo huzuriga boradi va u bilan Sulton Ali Mirzo oʻrtasida Boysunqor Mirzoga qarshi ittifoq tuzishda alohida xizmat koʻrsatadi. Binoiy Samarqand Bobur qoʻlida boʻlgan vaqtda (1497, noyabr – 1498, mart) Bobur, keyinchalik esa Sulton Ali Mirzo huzurida xizmatda boʻladi. Samarqand va Movarounnahr uzil-kesil Muhammad Shayboniyxon qoʻliga oʻtgach esa, 1500–1510-yillar davomida uning xizmatida boʻladi. Hirot va Xuroson Ismoil Safaviy qoʻshinlari

<sup>1</sup> *Qarang*: Алишер Навоий. Мажолис ун нафоис. Т., «Фан», 1966. 193-бет.

tomonidan egallangach, Binoiy yana Movarounnahrğa qaytadi. U 1512- yilda Eron safaviylarining Qarshi shahrida o'tkazgan ommaviy qirg'ini paytida o'ldiriladi.

Binoiyning «Shayboniynoma» asari XVI asrning boshlarida yozilgan va XV asrning o'rtalaridan to 1506-yilgacha bo'lgan Movarounnahr va Dashti Qipchoqdagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'z ichiga oladi. Bu asarda Eron podshosi Ismoil Safaviyning (1502–1524) harbiy yurishlari, XVI asr boshlarida Shayboniylar davlati bilan Eron o'rtasidagi siyosiy munosabatlar yoritilgan.

Binoiy 4282 misradan iborat shye'riy devon qoldiradi. 1498-yilda Samarqandda bitilgan va temuriylardan Sulton Ali Mirzoga bag'ishlangan 876 baytlik «Majmu' al-g'aroyib» qasidasi va Iroqda istiqomat qilgan yillari yozilgan «Behruz va Bahrom» masnaviysi ham Binoiy ijodida alohida o'rin tutadi. U «Behruz va Bahrom»da zamonasining mudhish va ayanchli tomonlarini keskin tanqid qiladi, bir qator axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarni ilgari suradi. Binoiyning «Futuxoti xoniy», «Hikoyati safari Binoiy» va uchta she'rlar devoni katta ilmiy ahamiyatga ega.

**Muhammad Solih (1455, Xorazm–1535 Buxoro)**, o'zbek shoiri, tarixchi, davlat arbobidir. Uning otasi Nur Saidbek Xorazmda hokim bo'lgan. Bobosi Amir Shoh Malik Xorazmda Temur saltanatining tayanchlaridan bo'lib, Mirzo Ulug'bekka vosiy edi. Boshlang'ich ma'lumotni Xorazmda olgan Muhammad Solih Hirotda Jomiy qo'lida tahsil ko'rdi. U dastlab 1490-yilgacha Xurosonda Husayn Boyqaro, keyinchalik Buxoro va Samarqandda temuriylar, 1499-yildan e'tiboran esa Shayboniixon saroyida xizmatda bo'lgan. Shayboniixon unga «amir ul-umaró», «malik ush-shuaro» unvonlarini berdi. Shayboniixonning harbiy yurishlarida birga bo'ldi. Shayboniixon 1500-yilda Buxoroni egallaganda hokimlikka Muhammad Solihni qo'yadi. U ayni zamonda Chorjo'y va Niso viloyatlarining hokimi bo'lgan. Muhammad Solih 1507–1510-yillarda Hirotda yashadi, olimlar, ijodkor, shoir-yozuvchilar va san'atkorlar bilan bevosita muloqotda bo'ldi. Muhammad Solihning devoni bizgacha yetib kelmagan, ammo uning Solih taxallusi bilan yozgan g'azallari, she'rlari, bayoz va tazkiralari uchrab turadi. Uning ijodiga Navoiy, Bobur, Nisoriy kabi shoir va adabiyotshunoslar ijobiy baho berganlar.

Muhammad Solihning «Shayboniynoma» asari oʻzbek tilida nazm bilan yozilgan doston boʻlib, oʻzining badiiy saviyasining yuksakligi va tilining sodda–xalqchilligi bilan ahamiyatlidir. Dostonning asl nusxasi topilgan emas. Ammo shoirning hayotlik chogʻida 1510-yilda Qosim tomonidan koʻchirilgan nusxasi Venada saqlanadi.

### **Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485, Hirot–1551–1556–Toshkent)**

1512-yilgacha Hirotida yashagan, soʻng Oʻrta Osiyoga qochib kelgan va 30-yillarga qadar Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa yerlardagi Shayboniy hukmdorlarining saroylarida saroy shoiri sifatida ijod qilgan. U «Badoeʼul-vaqoye» («Nodir voqealar») nomli qiziqarli esdaliklar muallifidir. Vosifiyning esdaliklari kichik-kichik qiziq hikoya va latifalar toʻplamidan iborat. Kitobda Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi 1532 yilgacha boʻlgan davrdagi ilmiy, adabiy, tarixiy va madaniy hayot aks ettirilgan. Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, shuningdek, Qosim Ali Qonuniy, Chaqar, Chanchiy, Ustod Hasan Udiy Hofiz Basir, Ustod Shayxi Noyi kabi musiqashunoslar, ayrim davlat arboblari haqida muhim maʼlumotlar keltirilgan. Kitob Oʻrta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyati haqida muhim manba hisoblanadi. Undan V.V.Bartold, Yakubovskiy, Bertels, Ayniy va boshqa ilmiy tadqiqotchilar oʻz davrida foydalanganlar.

Uning asarlari orasida oʻz davrining tarixiy shaxslari qatorida Alisher Navoiyning hayotidan baʼzi lavhalar ham keltirilgan. Saroy shoiri sifatida Vosifiy hukmdorlar, amaldor toʻralar va savdogarlarga atab madhiyalar, qasidalar yozgan, ularning buyurtmalari asosida sheʼrlar ijod qilgan, farmonlar va yorliqlarning matnlarini tuzgan, maktublar, qurilayotgan masjidlar va maqbaralar uchun yozuvlar, qabr toshlari ustiga yoziladigan yodgorlik xatlari, turli-tuman asarlarga soʻzboshlar tuzish va boshqa shuning singari ishlar bilan shugʻullangan.

**Mushfiqiy (1525–1588).** Abdullaxon saroyida xizmat qilgan shoir. U Buxoroda kambagʻal oilada tavallud topgan. 1564-yilga qadar Buxoroda yashagan. 1568–1572-yillarda Samarqand hokimi Sulton Said saroyida, 1572–1573-yillarda Hindistonda Akbarshoh saroyida kitobdorlik qilgan. 1678-yildan Abdullaxon saroyida ishlay boshlagan. Abdullaxon unga «Malik ush-

shuaro» unvonini bergan. Mushfiqiy boy ijodiy qalb egasi. Shoirning satira, gʻazal va qasidalari «Devoni mutoibot», «Devoni gʻazaliyot», «Devoni qasoid», «101 tugun» («Sadu yak buvad») kabilarda toʻplangan.

Shoir Mushfiqiy oʻz asarlarida goʻzallik va muhabbat haqida «Eram bogʻi», shuningdek «Soqiynoma» va «Jahonnoma» kabi poetik asarlarini yaratgan. Bu satirik sheʼrlarida yuqori tabaqa vakillarining xudbinlik, riyokorlik xasisliklarini ayovsiz fosh qiladi, ijtimoiy tengsizlikni qoralaydi («Zulmdan shikoyat» va boshqalarda). Mushfiqiy asarlari xalq orasida katta eʼtibor topdi va keng tarqaldi, uning oʻzi ham Mulla Mushfiqiy nomi bilan tojik xalq latifalari qahramoniga aylangan.

**Sayido Nasafiy (1637–1710)** «Ubaydullanoma» muallifining iborasi bilan aytganda «Buxoro shoirlari taxtida sulton» deb nom chiqargan shoir va yozuvchidir. U tojik adabiyoti va tojik adabiy tilining rivojlanishida oʻziga xos oʻrni boʻlgan mutafakkirdir.

Sayido Qarshi (Nasaf) shahrida tavallud topgan va shu yerda boshlangʻich taʼlim olib, Buxoro madrasalarida oʻqishni davom ettirgan. U hunarmand-toʻquvchi boʻlgan, ogʻir iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida, «Ubaydullanoma»da taʼkidlanganidek «amirlar uyini va xon saroylarini ziyorat qilishga intilmagan, oʻziga nasib qilgan bir burda nonga qanoat qilib» yashagan. Shunga qaramasdan u badiiy ijod uchun vaqt va imkoniyat topa olgan. Oʻzi yashagan ogʻir va qiyin bir sharoitda mehnatkash xalq bilan birga boʻldi, uning dardiga hamdardlik qiladi, xalqning jabr-jafolariga sherik boʻldi. Oʻz ijodida demokratik xalqparvarlik maʼrifatparvarlik gʻoyalari ilgari surdi. Sayido oʻzaro siyosiy qirgʻinbarot urushlarni qattiq qoraladi, mamlakatni xarobaga aylantirganlarni ayovsiz tanqid qiladi.

Sayido Nasafiy juda koʻplab lirik sheʼrlar va gʻazallar ham yozgan. Ularda shoir soʻfizm, naqshbandiylik gʻoyalari va dunyoqarashini ilgari suradi. Sayido bu xususdagi qasida va masnaviylari, ashtarxoniy xonlar yurishlarining sheʼrda ifodalangan tarixiy asarlari, muxammaslari, masallarida mamlakat va xalq hayoti haqida gʻoyat qimmatli fikr va xulosalar beradi.

**Turdi-Farogʻiy** (XVII asrning birinchi yarmi – taxminan 1701-yil) XVII asr oʻzbek adabiyotidagi ilgʻor oqimning yorqin vakili,



xalq manfaatlarini ifodachisi adabiy taxallusi Farogʻiy (erkin tabiatli kishi). U Buxoro, Xoʻjand va Jizzaxda yashab ijod qiladi. Turdining hayoti va ijodiy yoʻli haqida maʼlumotlar nihoyatda kam. Asli oʻzbeklarning yuz qabilasidan boʻlib, boshqa qabila boshliqlari qatori Turdi ham oʻz qabilasi nomidan otaliq lavozimida bir muncha vaqt Subxonqulixon saroyida xizmat qiladi. U Subxonqulixon hukmronligi davri (1691–1701) dagi adolatsizliklar, xalqqa oʻtkazilgan jabr-zulmlarni oʻz koʻzi bilan koʻradi. Xon saroyidagi yuqori mansab egalari bilan laganbardorliklari, poraxoʻrlilik axloqiy buzuvchiliklarning guvohi boʻladi. Xalqning esa zulm, eksplutatsiya va soliqlar dastidan qaddi bukildi, hatto «barot» soligʻining yetti-yilligi bir yilda undirib olinar edi. Mehnatkash omma 1681–1686-yillar mobaynida Subxonqulixon siyosatiga qarshi bir necha bor qoʻzgʻolon koʻtaradi. Shoir Turdi ham qoʻzgʻolonchilarga qoʻshiladi. Buxoroda koʻtarilgan bu qoʻzgʻolonga yuz qabilasidan Fozilbiy, qatagʻon qabilasidan Temurbiy, yobu qabilasidan Tamgʻabiylar boshchilik qiladilar. Ikki oʻrtada shiddatli jang boʻladi. Qoʻzgʻolonchilar Fathobod, Xazora qalʼasi, soʻng Karmanaga chekinadilar. Temurbiy Subxonqulixonga sotilib qoʻzgʻolonga xiyonat qiladi. Fozilbiy va Tamgʻabiylar shoir Turdi bilan birga Oʻrtatepa va Xoʻjand hokimi Rahimbiyga yordam soʻrab boradilar. Turdi Rahimbiyga bagʻishlab sheʼr yozadi va uni Subxonqulixonni agʻdarib tashlashga chaqiradi. Lekin Rahimbiy xonga qarshi kurashga jurʼat eta olmaydi.

Qoʻzgʻolonchilar Samarqand yaqinida Konigil degan joyda xon qoʻshinlaridan yengiladilar. Turdi Rahimbiy va uning oʻgʻli Oqboʻtabiydan yordam olish ilinjida Xoʻjandda qoladi. Rahimbiyga atab madhiyalar yozadi. Ammo bu harakatlardan natija chiqmagach Turdi Jizzaxda oʻrnashadi va taxminan 1701-yilda shu yerda vafot etadi. Turdi vafotining soʻnggi kunlarida yozgan sheʼrlarida oʻz qaygʻu alamlarini zorlanib ifodalaydi:

*Kuyar til shammayi gar holatimdan aylasam tahrir<sup>1</sup>,  
Giribon chok oʻlur, etsa qalam dardi dilim tahrir.*

Shoir bevafo zamonasidan shikoyat qiladi:

<sup>1</sup> Tahrir – bayon qilish.

*Charxi dun<sup>1</sup> qiladi manga jabru jafolar behisob,  
Gardishi davron berur har lahza yuz ming pechu tob.<sup>2</sup>*

Hajvchi, tanqidchi, demokratik gʻoyalar kuychisi Turdidan bir devon–sheʼrlar toʻplami bizgacha yetib kelgan. Unda 432 misradan iborat 17 ta sheʼr bor, ulardan 2 tasi tojik tilidadir. Bu asarlar oddiy, sodda va ravon tilda yozilgan. Shoir Turdidan uning yuz, ming urugʻ qabila boshliqlari boʻlgan oq suyak qarindosh-urugʻ aqrabolari yuz oʻgiradilar, ammo xalq uni hurmat qilar edi. Bu shoirning qalbini koʻtaradi.

Shoir xalq ommasining davr nohaqliklariga, xonning adolatsiz siyosatiga qarshi noroziligini, alamli fikr va hayajonli kechinmalarini sanʼatkorona dadillik bilan qalamga oladi.

Turdi xonni insof, diyonatga chaqirdi, uning atrofini oʻrab olgan xushomatgoʻy, laganbardor, nomunosib odamlardan ogoh boʻlishga daʼvat etdi. U xalqni talagan, mamlakatni xonavayron qilgan, adolatsiz va zolim xon haqida gʻazablanib yozadi va uni agʻdarib tashlashga chaqiradi. Turdi yurt va mamlakatni xonavayron qilgan siyosiy tarqoqlik qirgʻinbarot urushlarni laʼnatlaydi, urugʻ va qabilalarni birlashishga, hamkorlikka, urugʻ oqsoqollarini, beklarni «bir yaqodin bosh chiqarish» ga chorlaydi. Bu jihatdan shoirning «Tor koʻngilluk beklar» sheʼri ibratlidir:

*Tor koʻngilluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,  
Toʻqson ikki bori oʻzbek yurtidur, tenglik qiling.  
Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son boʻlib, bir jon oyinlik qiling.  
Bir yaqodin bosh chiqarib, barcha bir toʻngʻa kirib,  
Bir oʻngurliq bir tirizlik bir yaqo, yenglik qiling.*

Albatta Turdi oʻz zamondoshlariga nisbatan bir qadam olgʻa ketdi. Ammo jamiyat va hayotdagi barcha yaramas nuqson va illatlarni shoir «yomon», «adolatsiz» podshoning ongidan izladi. Bu uning nuqsoni emas, balki shoir Turdi yashagan va ijod qilgan davrning fojiasi edi.

<sup>1</sup> Charxi dun – tuban falak.

<sup>2</sup> Pechu tob – toʻlgʻanish.

**Bedil** (taxallusi; asli ismi **Mirzo Abdulqodir, 1644–1721**)<sup>1</sup>. Sharq xalqlarining buyuk shoiri, faylasufi, mutafakkiri va oʻz davrining «Mirzo Malik ush-shuarosi»dir. U harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Ota-bobosi shahrisabzlik oʻzbek barlos urugʻlaridan boʻlgan. Bir yoshda otadan yetim qolgan, onasi qoʻlida tarbiyalanadi. Besh yarim yoshida maktabga boradi. Yoshlikdan qobiliyat egasi boʻlgan Bedil arab, fors, urdu tili va adabiyotini oʻrganadi, turli fanlarga qiziqadi. Qoʻqonlik tarixchi Hakimxon Hoji Muhammadning «Muntaxab ut-tavorix» kitobida yozilishicha Bedilning madrasadan koʻngli soviydi, shu bois u uyda oʻz bilimini oshiradi. Bu ishda unga amakisi Mirza Qalandar va togʻasi Mirza Zariflar yaqindan yordam beradilar. Bedil soʻfizm falsafasini, hind va urdu tillarini, yunon (ayniqsa Arastu) falsafasini chuqur va atroflicha oʻrganadi, keng mushohada etadi. Oʻn yoshdan badiiy ijod bilan shugʻullana boshlaydi. Otasining oʻlimiga bagʻishlab marsiya va ruboiylar toʻqiydi. Bedil gʻoyatda murakkab sotsial-iqtisodiy tarixiy jarayonda yashadi va ijod qiladi. Undan boy ilmiy-falsafiy va badiiy meros qolgan. 130 mingdan ortiq sheʼriy satr, 50 bosma taboq nasriy asarlari mavjud. U 1721-yilda Dehlida 77 yoshida vafot etdi. Bedil asarlarining asosiy qismi uning kulliyotiga kirgan. Bu toʻplam 1882-yilda Bombayda 16 kitobdan iborat bosmadan chiqdi. Bedil kitoblarining litografiya bosmasidan tashqari Oʻrta Osiyo davlatlari shahar va qishloqlarida, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Fargʻona, Xiva, Xoʻjand, Dushanbe, Oʻsh shaharlarida qoʻlyozma nusxalari ham uchraydi. «Tilismi Hayrat» (1669) – 7500 misradan iborat. Masnaviy tarzida yozilgan bu asarda insonning jismoniy vujudi va ruhiyati haqida soʻz boradi. Bedil inson ruhini ilohiy olamdan kelgan podshohga oʻxshatib, uning jismoniy vujudini tuproq, shamol, olov va suvdan tarkib topgan mamlakat qiyofasida tasvirlaydi.

«Muhiti aʼzam» (1681) 9 ming misradan iborat masnaviy asarida Bedil tasavvuf ahli hayotiga oid hikoyalarni, shuningdek may, jom, nay, tanbur va boshqa musiqa asboblarning

<sup>1</sup> Мўминов И. Мирзо Бедил. Т., 1974; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2001, 1-жилд, 676–677-бетлар.

ta'rifi tavsifiga bag'ishlangan fikr-mulohazalar, go'zal istiora va tashbehtar vositasida ifodalaydi.

Bedilning g'azallari, ruboiylari, qasidalari, qit'a va tarixiy qit'alar hamda tarkibband va tarjibandlarni qo'shib hisoblaganda 75 ming lirik va chuqur falsafiy misralarni tashkil etadi.

Bedil «Chor unsur» («To'rt unsur») kitobini 1703-yilda yozgan. Bu kitob nasrda yozilgan. Unda shoir o'zining bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik chog'lari haqida biografik ma'lumot beradi. Asarning so'nggi ikki bobida to'rt unsur – havo, suv, yer va olov to'g'risida so'z boradi.

«Irfon» («Bilim», 1721) asari doston va hikoyalardan tarkib topgan. 10 ming satrdan tarkib topgan bu kitobda adabiyot, tabiat, falsafa, masalalari haqida fikr yuritiladi. Undagi mashhur dostonlardan biri «Komde va Mudan» bo'lib, bu dostonida Bedil raqqosa qiz Komde bilan iste'dodli cholg'uchi Mudanning sevgisini tasvirlaydi. Zolim podsho Komde va Mudanning boshiga ko'p kulfat va fojialar soladi. Uzoq judolik va alam-iztirobdan keyin Komde bilan Mudan murod-maqсадlariga yetadilar. Bedil bir o'rinda:

*Himmat kamarini bog'lagan hamon,  
Chumoli yengadi sherni begumon,*

degandek, Komde bilan Mudan o'zini sher bilgan shiddatli shohni yengadilar. Sof sevgi, muhabbat zulmdan ustun chiqadi. Dostonning bosh qahramoni Mudan mag'rur ovoz bilan:

*Ulug'erur garchi shohlar dargohi  
Undan yuksak gadolarning qulohi, degan edi.*

Mirzo Bedilning mashhur asarlaridan yana biri «Nukot» dir. Unda ulug' mutaffakir yaxshi fazilatli kishilarni ezozlaydi, badfe'l, yomon kishilarni satira o'ti bilan tanqid qiladi. Muallif odamlarni ezgulikka, ahillikka, birlikka, hamjihatlilikka va hamdardlilikka chorlaydi. U insonning kamoloti uchun kurashadi. Inson qaysi irq, qaysi din va qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qat'i nazar, insondir. Bas, shunday ekan, farq-tafovutlariga qaramay odamlar insoniy burch va xislatlari bilan birlashmoqlari lozim.

Mehnat kasb-kor, insoniy burch va xislatning asoslaridan biridir. Bedil ishyoqmas, tekinxo'r kishilarni qattiq qoralaydi, ulardan nafratlanadi. U o'z asarlarida inson shaxsini ulug'laydi, inson erkini hamma narsadan ustun qo'ydi, aqidaparastlik, jaholat va zulmatga qarshi kurashadi. Bedilning asarlari boy falsafiy g'oya va mazmunlar bilan sug'orilgan. Shul bois uni «Abulma'oniyy» – «Ma'nolar otasi» deb ataganlar.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oya va qarashlar bilan sug'orilgan falsafiy asarlari avlodlar qalbidan mustahkam o'rin oladi va bu asarlar bugungi kunda ham inson uchun, insoning baxtli istiqboli uchun kurashda xizmat qilmoqda.

**Mulla Sayid.** XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida faqatgina poetik iste'dodi va qobiliyati bilangina emas, balki o'zining yuksak ma'naviy, axloqiy va insoniy fazilatlari bilan ham nom qozongan juda ko'p ulug' zot shoirlar va yozuvchilar yashagan. Ana shunday ulug' zotlar orasida «Buxoro shoirlari taxtidagi bek» degan ulug' nom egasi Mulla Sayiddir. Uning badiiy ijoddagi taxallusi Muhammadiydir. Mulla Sayid Buxoro xalqining cheksiz hurmati va mehr-muhabbatiga faqatgina shoir bo'lganligi, go'zal va sermazmun she'rlar yozganligi uchun erishgani yo'q. Balki eng avvalo bunday mehr-muhabbatga o'zining mustaqil va mag'rur fe'li, kamsuxan va kamtarona xarakteri va odobi tufayli erishdi. U saroy shoiri bo'lmadi, tamagirlik qilmadi, mansab, molidunyoga qiziqib o'z insoniy qaddini bukmadi, oyoqosti bo'lmadi, xon qo'lidan sadaqa kutmadi va umrining oxirigacha g'oz turib yashadi. «Ubaydullanoma» muallifining yozishicha Mulla Sayid shoir Nodir devonbegi masjidining bolaxonasidagi bir kichik hujrada yashab «amirlar xonadoni va xon saroyiga tashrifni xayoliga keltirmadi, o'z nasibasiga tushgan bir burda nonga qanoat qildi».

O'zining o'tkir aqli va so'zamolligi, keng qamrovli bilimi hamda nozik did tabiati tufayli «tug'ma Aflotun» nomini olgan samarqandlik mulla Fitrat she'rlari ham bebaho injuga nisbat berilgan. **Mulla Fitrat** ham mulla Sayid singari, o'zining insoniy qadr-qimmatini har qanday boyligu, arkonu davlatdan ustun qo'ygan, boylar, amaldorlar va xonlardan iltifot kutmagan.

**Xalq og'zaki ijodi.** Shayboniylar va Ashtarxoniylar zamonida xalq og'zaki ijodi ham keng rivoj topadi. IX–X asrlarda yaratil-

gan «Alpomish» dostonining ogʻzaki epik anʼanalari bu davrda keng tarqaladi. «Alpomish» – vatanparvarlik, qahramonlik, sevgi va doʻstlik, rostgoʻylik va toʻgʻrilik haqidagi dostonidir. Undagi demokratik gʻoyalar va oliyjanob insoniy fazilat – ideallar Alpomish, Barchin, Qorajon va boshqa ijobiy qahramonlarning murakkab sarguzashtlari orqali ochila boradi.

Xalqqa, elga, yurtga, qabila-uruqqa nisbatan samimiy va cheksiz muhabbat, dushmanga nisbatan mislsiz gʻazab va nafrat, mardlik va fidokorlik, oila baxti, samimiy sevgi, doʻstlik va sadoqat, insof va adolat, osoyishtalik va farovonlik uchun kurash «Alpomish» dostonining yetakchi gʻoyasidir. Bu gʻoyaviy motivlar dostonning bosh qahramonlari Alpomish, Barchin va Qorajonlarning ijobiy sarguzashtlari va faoliyatlari orqali talqin etiladi. Haqiqiy insoniylikka qarama-qarshi oʻlaroq munofiqlik, adolatsizlik, insofsizlik, qabihlik, shaxsiyatparastlik, ochkoʻzlik, ichi qoralik kabi barcha yomon illat va xislatlar dostonidagi salbiy obrazlar: Boyboʻri, Koʻkaldosh, Suxayil kampir, Toychaxon va boshqalar timsolida ochib beriladi. Xullas, «Alpomish» dostoni xalqimizning oʻtmish tarixi, uning ezgu orzu-niyatlarini oʻrganishda gʻoyatda qimmatli manbadir. Unda ilgari surilgan vatanparvarlik, qahramonlik, doʻstlik va birodarlik kabi gʻoyalar milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash uchun kurash ketayotgan bugungi kunda yanada qimmatli va ahamiyatlidir. Oʻzbekiston Prezidentining maxsus farmoni asosida «Alpomish» dostonining ming yillik tantanalarining nafaqat mamlakatimizda hatto koʻplab xorijiy mamlakatlarda ham keng nishonlanishi har birimizning qalblarimizda otashin gʻurur va faxr tuygʻularini kamol toptiradi.

**Meʼmorchilik.** Shayboniylar va Ashtarxoniylar meʼmorchilik ishlarida ham oʻzlaridan qator yodgorliklar qoldirganlar. Bu ishda nafaqat sulola namoyandalari, balki oʻsha davrning koʻzga koʻringan yirik zodagonlari, hukmdorlari ham chetda qolmaganlar. Masalan, Samarqanddagi Muhammad Shayboniy qurdirgan Xoniya; Abu Sayid nomi bilan bogʻliq madrasalar; Registondagi Yalangtoʻsh bahodir qurdirgan Tillakori va Sherdor madrasalari, Buxoro shahar devorining taʼmirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon (Abdullaxonning onasiga

atalgan) Fatxulla qushbegi, Muhammadxoja, Porso, Jo'ybor, Maroqand, Qulbobo, Ko'kaldosh madrasalari, Madrasi Kalon, xoja Zayniddin, Baland, Abdullaxon, Chor Bakr, Ko'kaldosh masjidlari, zargarlar, sarroflar, telpakfuruslar timplari, Abdullaxon timi, Toshkentda Ko'kaldosh madrasasi, Qaffoli Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Turkistonda (Yassi) Muhammad Shayboniyxon masjidi, Balxda qal'a devorining ta'miri (uzunligi 14 km), Abdullaxon, Qulbobo ko'kaldosh madrasalari, Ko'kaldosh masjidi, bir qator masjidlar, chorbog'lar, hammomlar, bozorlar, turli shaharlarda qurilgan ko'plab karvonsaroylar va boshqa qator qurilish, ta'mirlash ishlari shular jumlasidandir.

## 8. JAHON SIVILIZATSIYASIDA BOBURIYLAR MEROSI

Ma'naviy madaniyatimizning ulug' vakillari orasida Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar o'ziga xos munosib o'ringa ega. Bobur Mirzo va boburiylar Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Kashmir va Bangladesh tarixida alohida iz qoldirdilar. Bu avvalo boburiylar qoldirgan buyuk merosdir. Bu meros eng avvalo moddiy madaniyat boyliklari bo'lsa, ikkinchisi ma'naviy madaniyat durdonalaridir.

Boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur yaratuvchilik homiysi, fan va madaniyatning jonkuyar himoyachisi bo'lgan. Uning shiori insoniyatga yaxshilik qilish va ezgulikdan iborat bo'lgan. Buni biz Boburning quyidagi satrlari orqali ham yaqqol his etamiz:

*Bori elga yaxshilik qilgilki, mundin yaxshi yo'q,  
Kim, degaylar daxr aro qoldi falondin yaxshilik.*

Bobur Mirzo Hindistonda juda qisqa muddatda u begona yurtning shart-sharoitini o'rganish, o'zining yangi saltanatini mustahkamlash kabi ishlarga katta kuch-matonat va vaqt sarf qilgan. Bobur bu ishlar bilan har qancha band bo'lmasin yaratuvchilik va qurilish ishlariga ham vaqt va imkoniyat topa olgan. «Boburnoma»da uning o'zi bu haqida shunday hikoya qiladi: «... Nechunkim «Zafarnoma»da Temurbekning «masjidi sangin» imoratini qilurda Mullo Choraf mundoq mubolag'a bila



bitibdurkim, Ozarbayjon va Fors va Hindiston va yana o'zga mamolik sangtaroshlardin har kunda ikki yuz kishi masjidida ish qilurlar edi. Bir Agrada ushbu Agraning sangtaroshlaridin mening imoratlarimda har kunda olti yuz sakson kishi ish qilurlar edi. Yana Agrada va Sekriyda va Baynoda va Do'lpurda va Gavaliyada va Qo'yilda ming to'rt yuz to'qson bir sangtarosh har kunda mening imoratimda ish qilurlar edi...»<sup>1</sup>.

Bobur imoratlar qurdirishdan tashqari karvon yo'llarini tiklash, hovuz, quduq va ariqlar qazdirish ishlari bilan shug'ullangan, hammomlar qurdirgan. Hindistonda suv tegirmonini birinchi bo'lib qurdirgan ham Boburdir.


Bobur vafotidan so'ng avlodlari navbati bilan 1858-yilga qadar Hindistonni idora qilganlar. Ana shu yillar davrida Hindistonning turli shaharlarida barpo etilgan buyuk qurilish obidalari boburiylarning jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi hisoblanadi. Dehliidagi Humoyun maqbarasi, Qizil qal'a ansambli, Jome masjid, Agradagi qal'a, Tojmahal, Fathpur Sekriy shahri, Sekandaradagi Akbarshoh maqbarasi, Lohurdagi qal'a va boshqalar ana shular jumlasidandir. Oradan shuncha zamonlar o'tgan bo'lsada bu obidalar o'z mahobati-yu tarovatini yo'qotmagan holda hali-hanuz kishilarni maftun etib o'ziga lol qoldirib kelmoqda.

Boburiy shahzodalarning Hindistonda turli davrlarda qurdirgan arxitektura yodgorliklarining naqadar go'zalligi va mahobatiga birgina Toj Mahal maqbarasi yorqin misol bo'la oladi. Bu maqbarani Shoh Jahon (1627–1658) o'zining sevikli xotini Arjumand Bonu Begim (Mumtoz Mahal) xotirasi evaziga qurdirgan. Arjumand Bonu boburiylar saroyining bosh vaziri Asaf Xonning qizi, Nur Jahon (Jahongirshohning xotini)ning jiyani bo'lgan. Go'zallik va husn-latofatda, oqillik va fahm-u farosatda, tadbirkorlik va mehri-muhabbatda u shu qadar tengsiz ekanki, qaynotasi Jahongirshoh erkalab «Mumtoz mahal» ya'ni «Saroyning sarasi» deyar ekan. O'sha davrdagi saroy shoirlarining ta'rif va tafsificha uning «oy desa og'zi, kun desa ko'zi bor ekan», «husni jamolidan oy uyalib kun qizarar ekan», «jamolidan nur shunchalar taralar ekanki, u bilan to'qnashishdan

<sup>1</sup> Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, «Шарк» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2002. 209-бет.

qoʻrqib yulduzlar koʻzdan gʻoyib boʻlar ekan». Ana shunday goʻzal parivash bilan Shoh Jahon 18 yil baxtiyor hayot kechirgan. Rivoyat qilishlaricha Mumtoz Mahal xonim vafoti oldidan Shoh Jahondan uch narsani iltijo qiladi: bolalarga birday munosabatda boʻlish, uylanmaslik va nihoyat unga atab dunyoda tengi yoʻq maqbara qurdirish. Shoh Jahon goʻzal va sevikli malikasining vasiyatiga sodiq qoladi, farzandlariga mehrlil va yaxshi ota boʻladi va umrining oxirigacha uylanmaydi. Arjumand Bonu Begimni dastlab Burxonpurda, yarim yildan soʻng Agra yaqinida Jamna daryosi sohilidagi Akbarobodda va nihoyat uchinchi marta Toj Mahal maqbarasida dafn qiladilar. Shoh Jahonga xotining oʻlimi shu qadar taʼsir qiladiki, u 8 kecha-kunduz oʻz xonasiga kirib hech narsa yemasdan-ichmasdan motam tutadi, koʻngliga hech narsa sigʻmaydi. Butun saltanat bir necha yilgacha aza tutadi, koʻngilochar oʻyin-kulgilar, ayshu ishratlar unitiladi.

Nihoyat Shoh Jahon sevikli rafiqasining soʻnggi iltijosini bajarishga kirishadi. Turli oʻlkalardan qurilish va meʼmorchilik sanʼatining eng nomi chiqqan yulduzlari—ustalarini toʻplaydi, maqbaraning bir necha loyiha nusxalari ishlanadi va tanlanadi oradan. Bir yil oʻtgach Mumtoz Mahal vafotining bir yilligi munosabati bilan maqbaraga birinchi tosh qoʻyiladi. Deh-lidagi Humoyun maqbarasi unga andoza boʻladi, uslub jihatdan



oʻxshashdir. Farqi shundaki, Humoyun maqbarasi bogʻning oʻrtasida qurilgan boʻlsa, Toj Mahal maqbarasi bogʻning toʻgʻrisida joylashgan. Bu ulkan va goʻzallikda tengi yoʻq arxitektura ansamblining qurilishi 1632-yilda boshlanib 1653-yilda tugallangan. Inson aqli-zakovati va mohir qoʻli bilan yaratilgan ushbu sanʼat moʻjizasi qurilishida har kuni 20 ming odam ishlagan ekan. Olim Ansoriddin Ibrohimov<sup>1</sup> bergan maʼlumotlariga qaraganda, Toj Mahal shu darajada katta hajmdagi beqiyos qurilish boʻlgan ekanki, 22 yil davomida unga sarf qilingan xarajatlarning hisobini chiqara olmaganlar va shu boisdan bu haqda turli maʼlumotlar tilga olinadi. Bu ulkan qurilishga sarf qilingan xarajatlar bir yerda 6 million rupiya deyilsa, boshqa joyda 60 million rupiya deb qayd etiladi. Yana boshqa manbalarda 5 million, baʼzilarida esa hatto tiyin-tiyingacha koʻrsatilib, 31 million 748 ming 28 rupiya, yoki 3 million 174 ming 802 funt sterling, deb koʻrsatiladi.

Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha Toj Mahal maqbarasi qurilish ashyolari turli mamlakatlardan: sargʻish marmar Oʻrta Hindistondan, oq marmar Rajastxanning Markana degan joyidan, billur Xitoydan, yoqut-laʼl Badahshondan, lojuvard Shri-Lankadan, yashil toshlar Panjobdan, aqiq Erondan, marjon va durlar Hind ummonidan va hokazolardan keltirilgan.

Moʻjizalar moʻjizasi boʻlgan Toj Mahaldek sanʼat durdonasini yaratgan loyihachi meʼmorlardan 40 ga yaqin ustaning nomlari yozma manbalarda tilga olinadi, hatto ularning oylik maoshlari ham keltiriladi. Jumladan, loyihachi meʼmor Muhammad Iso Afandi-turkiyalik, maoshi 1000 rupiya, Sattorxon-xattot, turkiyalik maoshi 1000 rupiya va boshqalar. Bir kecha–kunduzda bir necha xil rangda toblanib turuvchi Toj Mahalni hindlar haqli suratda yetti moʻjizaning biri, deb magʻrurlanadilar. Oʻz vaqtida hatto Shoh Jahonning oʻzi ham Toj Mahal goʻzalligiga tan berib: «Yer yuzidagi odam bolasi buni bunyod etishga qodir emas, buning shakli-shamoyili osmondan tushirilgandir,<sup>2</sup> deydi. Ingliz arbobi Edvard Lir esa ahli dunyo odamlarini ikkiga boʻladi: «birinchi Toj Mahalni qurganlar, ikkinchisi qurmaganlar».<sup>3</sup>

<sup>1</sup> *Ансори́ддин Иброҳи́мов*. Бобурийлар мероси, 60-бет.

<sup>2</sup> Oʻsha manba, 61-бет.

<sup>3</sup> Oʻsha manba, 61-бет.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, boburiylar sulolasi tomonidan dastlab Afg'onistonda, so'ngra Hindiston, Pokiston va Kashmirda barpo etilgan muhtasham va ko'rkam bog'larning ko'plari hozirgacha ham o'zining go'zalligi bilan insonlarni maftun etib kelmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur 1504-yilda Qobulni egallagach to 1509-yilga qadar bu yerda o'nta bog' tashkil qilgan: shahararo bog', Chorbog', Bog'i Jilovxona, O'ra bog', Suvrat bog', Bog'i Mohtob, Bog'i Ohuxona, Odinapur qal'asi yonidagi Bog'i Vafo va yana uchta bog' ana shular jumlasidandir. Bobur Mirzo Hindistonda bir necha bog'lar bunyod etdi. Bular: Agradagi Orom bog'i, Behisht, Sekridagi Bog'i Fath, Dibalpurdagi Nilufar bog'i, Bog'i Nazargohlardir. Go'zallik va gullar shaydosi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zi barpo etgan bog'larni dunyodagi bor bo'lgan ko'chat-mevalar va gullar bilan bezaydi. «Boburnoma»da faqat Dashti shayx qirlari etagida o'sadigan lolaning 33 xili nomma-nom tilga olinadi. Rivoyat qilishlaricha Hindistonga atirgulni ham birinchi bor Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo keltirgan ekan.

Go'zal bog'lar barpo etishdek ajoyib an'anani Bobur Mirzoning avlodlari ham davom ettirganlar. Boburiylar sulolasining eng buyuk vakili bo'lmish Akbarshoh davri (1556–1605) da yaratilgan bog'lar haqida Akbarshohning davlat maslahatchisi alloma Abulfazlning «Otini Akbariy» asarida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan Agradan 23 mil masofada Akbarshoh Fatxpur Sekrida yangi poytaxt barpo etib uning chor atrofini go'zal bog'larga burkaydi. Kashmirda Srinagardagi Dal ko'li bo'yida «Nasim bog'i»ni qurdirgan. Akbar barpo etgan bog'lar orasida Agradagi Sekandarada Akbar maqbarasi atrofidagi eng go'zali va mahovatlisidir. Bobur Mirzoning nevarasi Jahongir Mirzo (1605–1627) Hindiston tarixida tasviriy san'at va bog' yaratishning buyuk homiysi sifatida tilga olinadi. G'arbiy Pokistondagi, Hasan Abdul yaqinidagi Vah degan joyda, Agrada qaynotasi Etimodud davlaga atab va Lohurda esa Dilku-sho deb ataluvchi u yaratgan bog'lar biri-biridan go'zal va lozardir. Hindistonliklar Jahongir Mirzoni eng ulug' bog' yaratuvchi deb ataganlar. U yaratgan barcha bog'lar orasida Kashmirdagi Shalimar bog'i go'zal maskanlarning tengsizi bo'lgan. Hindlar bu bog'ni haqli suratda «Sevgi maskani» deb ataydilar. Jahon-

gir barpo qilgan bog'lardan yana biri Nishot bog', ya'ni jannat bog'idir. Bu bog'ni Johongirshohning go'zal xotini Nur Jahonning akasi Asafxon bunyod ettirgan.

Anantnag tog'i yaqinida joylashgan Achhabal, Rovalpindidagi Hasan Abdal buloqlar yaqinidagi Vah bog'i va yana boshqa bir qancha bog'lar ham Jahongir nomi bilan bog'langan. Jahongir shoh vafot etganda (1627) Nur Jahon Lohurda erining vasiyati va hurmati evaziga Shohdara bog'ini barpo ettirib u yerda maqbara qurdiradi. Maqbara nihoyatda go'zal va betakroridir. Oq marmardan to'rtta minorasi uzoqdan odamlarning diqqatini o'ziga tortadi. Bog'dan to'rtta yo'l maqbara sari boradi. Bu yo'llarning uchtasi marmardan ishlangan panjaralar bilan to'sib qo'yilgan. Marmar qabr toshlar rangli bir tusda bezatilgan va uning bosh tomonida fors tilida quyidagi so'zlar bitilgan: «Ushbu yer A'lo Hazratlari Nuriddin Jahongirshoh Podshohning nur to'la qabrlari, so'nggi manzilgohidir».

Bunday go'zal bog'lar Shoh Jahon (Toj Mahal haqida yuqorida hikoya qilindi) davrida ham barpo etilgan. Ayniqsa, 1634-yilda Xon Alimardon boshchiligida qurilgan Lohurdagi Shalimar bog'i Shoh Jahonning eng nodir ijodiy mahsuli hisoblanadi. Bu bog'ni o'z vaqtida jannatning pog'onalari misolida ta'rifudoston qilganlar. Bog'dagi ariq va hovuzni bezab turgan 450 ta favvara bog'ning husniga husn qo'shib turibdi. Mulla Abdulhamid Lohuriy «Podshohnoma» asarida guvohlik berishicha bog'ning ochilishi munosabati bilan bu yerda hozir bo'lgan ma'rifatli va dono shaxslar bunday go'zal va hashamatli mo'jizani ilgari Rum, Iroq va Movarounnahrda ham hech qachon ko'rmaganliklarini hayratlanib ta'kidlaganlar. Boburiylar faqat Lohurda 36 ta bog' yaratganlar. Boburiylardan qolgan ulkan darvozalar, ajoyib masjid va madrasalar shu kunga qadar o'z ko'rki, jamoli bilan har qanday kimsani ham maftun qiladi.

Bobur Mirzo va boburiylar sulolasidan faxrlansak arzigulik ma'naviy meros na'munalari ham qolgan. Zahiriddin Muhammad Boburning barcha yozgan asarlari bizgacha yetib kelmagan. Unga to'liq bo'lmagan she'riy devoni, Islom dini asoslarini bayon etuvchi «Mubayin» nomli she'riy risolasi, «Vilodiya» deb atalgan tasavvufga oid bir kitobchanning nazm bilan tarjimai, Bobur ixtiro etgan va «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur bo'lgan

alfavit jadvali va albatta, uning shoh asari «Boburnoma» ulug' shoir qoldirgan ma'naviy meros bo'lib avlod-ajdodlarimizning ma'naviy kamolotiga xizmat qilmoqda. Asarning asli nomi «Boburiya» bo'lgan. Uni «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Voqetoti Boburiy» deb ham atadilar. Asar keyinchalik «Boburnoma» nomi bilan shuhrat qozondi.

«Boburnoma» Zahiriddin Muhammad Boburning tarjimai holini aks ettiruvchi asar desak yanglishmagan bo'lamiz. Unda salkam 36 yillik voqealar bayoni berilgan, lekin shundan yarmi–18 yillik voqealar turli sabablarga ko'ra «Boburnoma»dan o'rin olmagan. Ana shu uzilib qolgan Boburga aloqador voqealarni ingliz tarjimonlari quyidagi yozma manbalar asosida shartli ravishda tiklab chiqqanlar: «Tarixi salotini Afg'ona», «Tarixi Rashidiy», «Humoyunnoma», «Akbarнома», «Taboqoti Akbariy», «Tarixi Farishta», «Labbu Tavorix», «Tarixi Olamaroiy», «Tarixi Badayuniy», «Tarixi Sind» va boshqalar.<sup>1</sup>

«Boburnoma»ni qomusiy bir asar sifatida ta'riflansa ham hech mubolag'a bo'lmaydi. Zero unda tarix ilmi, jug'rofiyaga oid voqealar, tabiat sarchashmalari, aholining etnik tarkibi, badiiy shoirona lavhalarda o'z aks-sadosini topgan. Turkiy tilda Boburning o'z qo'li bilan yozilgan bu kitobning dastlabki satrlari ulug' shoirning nasl-nasabi temuriylardan ekanligiga guvohlik beradi.

«Boburnoma»ni o'qigan har bir kishi asar muallifi nihoyatda sog'lom va chiniqqan bir yigit bo'lganligiga ishonch hosil qiladi. Chunki 17 yoshli Bobur qish kunida Bekobod yaqinidagi Xachtiyak degan qishloqda tunaydi (bu qishloq hozir ham bor). Sirdaryo yuzi o'shanda sovuqdan muzlagan edi. Bobur ertalab uyg'onganidan zarurat sezib, muzni teshib g'usul qilgan ekan.

Yigirma uch yoshga kirgan Bobur kech kuzda Hirotda Qobulga qaytayotganda Afg'onistonning eng baland qorli dovonlaridan biri bo'lgan Qo'tali Zarringa qalin qor yog'ib yo'l bekilib qoladi. Qor uzangidan baland bo'ladi. Otlar yurolmay qolgandan keyin qor tepib, yo'l ochishga kirishadilar. Lekin baland tog' ustida havo siyrak, buning ustiga qor bo'ralab yog'ib ko'z ochirmaydi. Tik yo'l yuqori qarab ketgan, baquvvat yigitlar ham qor tepa-tepa holdan toyadilar. «Endi shu dovonda qor tagida

<sup>1</sup> O'sha manba, 6-bet.

o'ligimiz qoladi» degan vahima boshlanadi. Shunda Boburning o'zi oldinga o'tib, qor tepib, yo'l ochishga kirishadi. Odamlarni Qutay degan shamolpana joyga boshlab chiqishga muvaffaq bo'ladi. Bu voqeada biz Boburning ham jismoniy, ham ma'naviy kuch-qudratini yaqqol ko'ramiz. Shunday og'ir vaziyatda u o'z shoirlik iste'dodidan madad oladi. Go'zal bir g'azalga matla', ya'ni kalit bo'lgan quyidagi ikki satrni Qo'tali Zarrinda qor ostida tunaganda topadi. Mana o'sha mashhur matla':

*Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu!  
Xasta ko'nglim tortmagan dardu balosi qoldimu.*

«Men umrim bo'yi yo'limda uchragan barcha daryolardan suzib o'tdim», – deb yozadi o'z kitobida Bobur. Demak, u Sirdaryo, Amudaryo, Qobilu Sind, Jamna va Ganga daryolarining hammasidan qulochkashlab suzib o'tgan. Bu faktlarga hech qanday shubhalanmasa ham bo'ladi. Chunki hind olimi V.Dattning yozishicha, Bobur Hindistonda yashagan davrida, ya'ni 44–45 yasharlik paytlarida Agra qo'rg'onining keng devori ustida ikki soqchi yigitni ikki qo'ltig'iga ko'tarib chopib o'tganini ko'pchilik ko'rgan ekan.<sup>1</sup> «Boburnoma»da nafaqat Farg'ona va Movarounnahr, shu bilan birga Afg'oniston, Hindiston va Pokiston xalqlarining tarixi, etnografik xususiyatlari, tarkibi, mamlakatlarning jug'rofiy tuzilishi, ma'muriy bo'linishi, tabiati, iqlimi, tog'lari, suvlari, dashtlari, o'simliklar dunyosi va boshqalar haqida mohirona bir tarzda bayon etilgan.

«Boburnoma»ning ahamiyati to'g'risida turli davrda allomalar turlicha fikr bildirganlar. Biroq «Boburnoma»ni inglizchaga o'g'irgan F.Telbotning quyidagi so'zlari g'oyat diqqatga sazovordir: «Hozirgi Hindistonni o'rganmoqchi bo'lgan odam ishni, eng yaxshisi Bobur xotiralarini mutolaa qilishdan boshlagani ma'qul.»<sup>2</sup>

Angliyaning o'zida «Boburnoma»ning 9 marta chop etilgani bu asarga ingliz jamoatchiligi nechog'lik katta e'tibor berayotganligini ko'rsatadi. 1990-yilda «Boburnoma»ning 460-yilligi dunyo

<sup>1</sup> Пиримқул Қодиров. Рухнинг жасорати. «Халқ сўзи», 1991 йил. 1 феврал.

<sup>2</sup> Ансориiddин Иброҳимов. Бобурийлар мероси, 5-бет.



uzra keng nishonlandi. Bu hol ulug' Vatandoshimiz, temuriylar sulolasining atoqli vakili Zahiriddin Muhammad Boburning jahon miqiyosida o'z o'rni va bahosi borligiga yana bir dalildir.

Zahiriddin Muhammad Bobur go'zal lirik g'azallar, falsafiy ruboiylar muallifidir. U o'z she'rlari, g'azallari va ruboiylarida hayotni, vatanni ulug'laydi, sof sevgi, vafoni kuylaydi, ilmni qadrlaydi, odamlarni axloq-odobga chorlaydi. Shoir:

*Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangani ilm tolibi, ilm kerak,  
Men tolibi ilm tolibi ilm yo'q,  
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.*

ruboiysida ilm-ma'rifatni qadrlagan kishi uni havas, ishtiyoq bilan albatta egallay olishini ifodalaydi. Yoshlarni ilm ahlidin o'rganishga da'vat etadi.

*Har kimki vafo qilsa, vafo topg'usidir,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topg'usidir.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topg'usidir.*

Bu ruboiyda shoir odamlarni hayotda yaxshilik qilishga da'vat etadi, yaxshilik qilgan kishi yaxshilik, yomonlik qilgan kishi yomonlik ko'rishini aytib ogohlantiradi. «Qilmish-qidirmish» deganlaridek har bir yaxshilik va yomonlikning ibtidosi insonning xulqi, odobi ekanligiga ishora etib, Bobur odamlarga yaxshilik qilishni nasihat qiladi. U o'zining:

*Hulqingni rost etgil har sorigaki borsang  
Axsanta' der bori el gar yaxshi ot chiqarsang,  
Bori elga yaxshilik qilgilki mundin yaxshi yo'q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.*

degan ruboiysida kishilarni yaxshi xulqli, axloq-odobli bo'lishga chaqiradi.

Xullas, Bobur va Boburiylar-xalqimizning ulug' va buyuk farzandlari milliy iftixorimiz va g'ururimizdir. Ular o'zlarining

<sup>1</sup> Axsanta – juda oz.

serqirra faoliyatlari va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar.

### Nazorat savollari

1. Shayboniylar davlatini tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
2. Shayboniyxon va Bobur Mirzo munosabatlaridagi ziddiyatlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Bobur Mirzoning Movarounnahri tark etishi sabablarini ko'rsating.
4. Bobur Mirzo va Shoh Ismoil munosabatlaridagi ziddiyatlarni ayting?
5. Bobur Mirzoning Hindistonga yurishlarining kelib chiqish sabablarini ayting?
6. Bobur va boburiylar davrida Hindistondagi madaniy hayotni gullab-yashnashi va uning jahonshumul tarixiy ahamiyati.
7. Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahrdagi ijtimoiy hayot.
8. Shayboniylar hukmronligining tanazzulga uchrashining sabablarini ayting?
9. Abdullaxon II hukmronligi yillarida madaniy hayot.
10. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
11. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatida siyosiy tuzum, maishiy iqtisodiy munosabatlardagi o'zaro ziddiyatlarning sabablarini ko'rsating.
12. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?
13. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida adabiy jarayon.
14. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida me'morchilik obidalaridan qaysilarini bilasiz?
15. «Boburnoma» va «Humoyunnoma» O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim manba ekanligi.
16. Boburiy hukmdorlarning bunyodkorlik ishlari haqida nimalarni bilasiz?

## II B O B

### O'ZBEK XONLIKLARI

#### 1. XONLIKLARNING TASHKIL TOPISHIDAGI TARIXIY SHAROIT

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uchta yangi davlat tashkil topdi. Bu davlatlar etnik negizda vujudga keldilar. O'zbek urug' va qabilalari o'rtasida katta mavqeyiga va kuchga ega bo'lgan qo'ng'irotlar Xivada, mang'itlar Buxoroda va ming urug'i Qo'qon xonligida o'z hokimiyatini o'rnatdi. Bu o'zbek davlat birlashmalari bir-birlariga qarshi mol-dunyo, yer va davlat talashib tinimsiz va muttasil kurash olib bordilar, bir-birlarining tinka-madorini quritdilar va ming-minglab aholi qirilib ketdi. Shu boisdan bu davlatlar faoliyat yuritgan butun Turkiston o'lkasi hududida ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi jahon xalqlari taraqqiyoti va sivilizatsiyasidan nisbatan orqada qoldi.

Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari turli urug', qabila va xalqlarning qurama ittifoqini tashkil etar edilar, ular o'rtasida siyosiy birlik shakllanmagandi. Natijada bu davlatlar hududlarida yashagan xalqlar o'rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona Vatan his-tuyg'usi taraqqiy etmadi, bu davlat birlashmalari bunday oliyjanob his-tuyg'ularning rivojlanishi va kamol topishiga aksincha to'sqinlik qiladilar. Bu XVI–XIX asrlarda Movarounnahr hududida iqtisodiy va siyosiy hayot turg'unligining eng asosiy sabablaridan biridir.

Ikkinchi yana bir asosiy sabab bu qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik qilishdan iborat ishlab chiqarish munosabatlarining saqlab qolinganligidir. Yer barcha boyliklarning manbaidir. Unga bo'lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Yevropa va dunyodagi boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg'arish

jarayonining qudratli vositasi bo'ldi. Osiyoda, jumladan, Turkiston hududidagi davlat birlashmalarida esa mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o'zgarmadi, yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishsiz qolaverdi. Yerning asosiy egasi ilgorigidek oliy hukmdorligicha qoldi. U yerni foydalanish uchun mahalliy yer egalari va masjidlarga ulashardi.

Yer o'zining asosiy xo'jayini, egasiga – qishloq mehnatchilariga berilmadi. Yerga xususiy egalikning yo'qligi, dehqonchilikdagi qo'shimcha qiymat va jamg'arma shakllari hisoblangan absolyut va differentsial renta bo'lmasligi uchun sharoit yaratgan edi. Bu hol zadagonlarni esa o'z navbatida yerdan foydalanish, dehqonchilikni yaxshilash, yer hosildorligini oshirish maqsadida mablag' sarflashdan manfaatdor bo'lmasligiga asosiy sabab bo'ldi. Natijada ishlab chiqarish kuchlari rivojlanmadi yoki kam rivojlandi.

Barcha yerlar sharoitga ko'ra davlatga, xon, amirga qarashli bo'lib, foydalanish uchun turli shartlar asosida aholining turli qatlamlariga berilar edi. Tarixan qaror topgan tartibga ko'ra yer uchta qatlamlar o'rtasida taqsimlangan:

1) Davlat yerlari (amlok); 2) egalik yerlari (mulk) va 3) vaqf yerlari, ya'ni masjid, madrasalarga, ruhoniyatga qarashli yerlar. Davlat yerlari hech qachon sotilmasdi, ayribosh ham qilinmasdi. Ulardan umumiy tarzda o'lpon (xiroj) to'langan. Xususiy yer mulklari har xil bo'lgan: mulki hur, mulki ushriy va mulki xiroj. Bu yerlardan olinadigan soliqlar har xil bo'lib, soliqlarning miqdori ba'zi hollarda olinadigan daromadning yarmisigacha borardi.

O'rta Osiyo hududida lalmi va sug'orma yerlar 2 million gektarni tashkil qilgan va jon boshiga yarim gektardan to'g'ri kelgan. Albatta imoratlar egallagan joylar, texnika ekinlari (paxta, tut daraxtlari va boshqa) egallagan maydonlar ham shu hisobga kirardi. Bundan tashqari ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining pastligi, dehqonchilik madaniyatining rivojlanmaganligi va aholining yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi hisobga olinsa, mavjud bo'lgan sug'oriladigan yer miqdori aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lmaganligi aniq-ravshan ma'lum bo'ladi.

Biz bu o'rinda to'ralar, boylar va amaldorlarning oddiy mehnatkash xalqqa nisbatan zo'ravonliklari, adolatsizliklari haqida gapirib o'tirmaymiz. Shu bois o'lkada yashovchi xalq albatta og'ir va nochor hayot kechirishga mahkum edi.

O'rta Osiyo xalqlari qadim-qadimdan dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar va bu borada ibrat olsa arzigulik tajribaga ham ega bo'lganlar. Buni yevropalik va rus olimlari yuqori baholaganlar. Jumladan, A.Middendorf: «O'rta Osiyoning mehnatsevar ahli, biz uchun ishga mislsiz talabchanlik, muhabbat, toliqmay unnash va harakat qilish matonati, katta jonli zakovat namunasi xizmatini o'taydi», deb yozadi.

Ota-ona, avlod-ajdodlarimiz o'zlarining mehnatsevarligi, matonati va fidoyiligi tufayli g'oyatda og'ir sharoitlarda, ming yillar davomida ham deyarlik o'zgarmagan oddiy mehnat qurollari (omoch-bo'yinturuq, ketmon, belkurak, o'roq va h.k.) bilan astoydil mehnat qiladilar. Hamma ish deyarlik qo'lda bajarilib, mehnatkash xalqning gardaniga og'ir yuk bo'lib tushardi.

Xususan, sug'orish ishlarida xalqimizning boy o'tmish tarixiy tajribalari asqotdi. Suv olg'ich to'g'onlar va katta kanallar qurishda qulay joylarni tanlashda bu ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi. Sug'orish dehqonchiligida chig'iriqlar ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular daryolar, kanallar va quduqlarda o'rnatilardi. Chig'iriqlarni tortishda ishchi hayvonlar: tuya, ot, ho'kiz, eshaklardan keng foydalanganlar. Ba'zan bu ishni odamlar ham bajargan.

XVI–XIX asrlarda juda katta ulkan kanallar va ariqlar qurish, ularni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bu ulkan kanal va ariqlar o'nlab, yuzlab kilometr uzunliklarga cho'zilardi. Jumladan, Chirchiq daryosining suvi 45 ta kanalni suv bilan ta'minlar edi. Shundan eng uzuni Zog'ariq 70 km, Bo'zsuv 60 km ga cho'zilgandi. Farg'ona vodiysidagi katta ariqlar ikki yuz kilometr, Samarqand viloyatidagi barcha ariqlar to'rt yuz kilometrdan uzun masofaga borardi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng ko'lamda sug'orish ishlari olib boriladi. XVIII asr va XIX asr boshlarida bu yerda ulkan kanallar barpo etildi. Bular: Shahrixonsoy, Andijonsoy va Yangiariq (har qaysisining uzunligi 100 km dan) kanallari

qurildi. Bunday ulkan suv inshootlari Toshkent viloyatida (1822–1842-yillarda Xonariq), Buxoro amirligida (Zarafshon sugʻorish tarmogʻi XVIII asr oxirida), Xiva xonligida (XIX asrda Porsuʻ Xoʻjayli va Koʻhna Urganchni sugʻorish uchun Lavzon koʻlidan chiqarilgan ariq) ham qurildi. Albatta bunday ulkan va ulugʻvor qurilish inshootlari oʻz davrida har qanday kishini hayratga solishi turgan gap. Rus geografi knyaz V.Masalskiy bunday kanallardan hayratlanib: «Obi-hayotni koʻpgina oʻnlab chaqirimlarga eltayotgan bu qudratli oqimlarni koʻrganda, texnik bilimlari juda nochor boʻlaturib, Turkiston quyoshining jazirama nurlari ostida benihoya mehnat evaziga butun mamlakatni sugʻorish shoxobchalari bilan toʻldirgan xalqqa beixtiyor mehning uygʻonadi, kishida»,<sup>1</sup> deydi

Kanallar va sugʻorish shoxobchalarini tozalashda butun xalq qatnashgan. Bu ishlarda har bir dehqon xonadoni yiliga 90–100 kundan ishlab berar edi. Bundan tashqari fuqarolar ot-aravalarda dambalar qurilishi ishiga shoh-shabba, qamish va toshlar ham yetkazib berishi kerak boʻlgan. Bu ishlarning hammasi fuqaro tomonidan tekinga, haq olmasdan hashar yoʻli bilan bajarilgan. Ular hatto kundalik ovqatlarini ham oʻzlari bilan birga olib kelganlar. Masalan, 1828-yilda Polvonyob katta kanalining bosh qismini qurish uchun Xiva xoni Olloqulixon «yemishi va ketmoni» bilan birga 40 ming kishini ishlatgan. Choʻponota yaqinidagi Zarafshon suv taqsimlagish qurilishida yiliga 5 mingga yaqin fuqaro mehnat qilgan.

Bu oʻlkaning geografik joylashgan oʻrni bilan bogʻliq boʻlib, Usmonli turklarning Oʻrta yer dengiz portlarini yopib qoʻyganligi (XV asrdan) va «Buyuk ipak yoʻli»ning barham topganligi tufayli sodir boʻldi. Oʻrta Osiyo hududi aholisi oʻz ishlab chiqarish qobigʻiga oʻzi oʻralib qoldi, jahon fani va texnologiyasi yutuqlaridan bahramand boʻla olmadi. Mahalliy aholi tor va oddiy kustarchilikdan iborat hunarmandchilik va kosibchilik bilan oʻzining talab-ehtiyojlarini qondirishdan nariga oʻta olmadi: boʻyoqchilik, toʻqimachilik koʻnchilik, sham, sovun, yogʻ tayyorlash, tegirmonchilik kabi sohalargina birmuncha rivoj topdi. Hunarmandlar ozgina, arzimagan daromaddan ham

<sup>1</sup> *Масальский В.* Россия. Полное географическое описание нашего отечества. СПб., 1913, 423 стр.

qanoat hosil qilar edilar. Ularda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yollanma ishchilar ham, qo'shimcha qiymat ham yo'q edi.

XVIII–XIX asrlarda Turkiston hududida jun, paxta va ipakdan to'qilgan matolar keng ishlab chiqariladi. Ayni zamonda mis o'ymakorligi bilan bog'liq hunarmandchilik, kulol va sopol buyumlar, musiqa asboblari, bolalar o'yinchoqlari, bezaklar va shuning singari buyumlar ishlab chiqarishga ham katta e'tibor beriladi.

Xullas, XIX asr boshlariga kelib O'rta Osiyo xalqlari o'z boshlaridan juda katta ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy og'ir damlarni kechirayotgan edilar. Bu davrda har qanday jamiyat borlig'i va taraqqiyotini belgilab beruvchi davlatchilik asoslari nihoyatda zaif holatni kechirayotgandi. Natijada millat va davlat qaramlik ahvoliga tushib qolayotgan edi. XVIII asrga kelib o'zbek davlatchiligida bo'linish, tarqoqlik holati yuzaga kelayotgandi. Millat va jamiyat boshqaruviga da'vogar hokimiyat uch yerda – Buxoro, Xiva, Qo'qonda alohida-alohida mujassamlashgandi. Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatda uch hokimiyatchilik g'olib kelgan edi. Davlatchilikdagi bunday bo'linish, uch hokimiyatchilikning yuzaga kelishi oxir-oqibatda davlatning kuchsizlanishi va yemirilishiga, boshqa omillar bilan qo'shib chor Rossiya-si bosqiniga dosh bera olmay qaramlikka yuz tuban bo'lishiga olib keladi.<sup>1</sup> Bunday og'ir vaziyatdan faqat yuksak darajadagi onglilik va o'lka xalqlarining yagona va mustahkam birligi orqali chiqish mumkin edi. Afsuski bunday birlik va ahillik o'lkada yo'q edi. Bunday beboshlik xonlar, amirlar va beklar o'rtasidagi o'zaro dushmanlik va urushdan shimolda Pyotr I boshchiligidagi yovuz niyatli qo'shnilar foydalanib qolish uchun qulay fursatni poylab turgan edilar.

<sup>1</sup> *Qarang:* Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., «Шарк», 2001, 278–279-бетлар.



## 2. BUXORO AMIRLIGI – MANG‘ITLAR SULOLASI

Buxoro xonligi taxtiga o‘tirgan Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayxon bo‘ldi. Manbalarning bergan ma‘lumotlariga qaraganda u irodasiz va uquvsiz xon bo‘lgan. Bundan foydalangan mang‘it qabilasidan chiqqan Muhammad Hakimbiy Buxoroda otaliq mansabini qo‘lga kiritadi, barcha otaliqlarning boshlig‘i va hukmron hokimi bo‘lib oladi. Muhammad Hakimbiy yurgizgan siyosatdan o‘zbek ayonlari norozi bo‘ldilar, xonning obro‘-e‘tibori tushib ketadi. Natijada, Abulfayxondan norozi bo‘lgan o‘zbek amirlari uni o‘ldirish payiga tushdilar va Xiva xoni Sherg‘ozixonni Buxoro taxtiga qo‘ymoqchi bo‘ldilar. Biroq fitna fosh bo‘lib uning tashkilotchilari qatl qilinadilar. Sherg‘ozixon bu bilan ham tinchimadi. Uning qutqusi bilan Shahrizabz hokimi Ibrohimbiy Muhammad Hakimbiydan hokimiyatni tortib olish maqsadida 1722-yilda o‘z kuyovi (ba‘zi rivoyatlarga qaraganda Sherg‘ozining amakivachchasi) xivalik Shahzoda Rajabni Samarqandda xon qilib ko‘targan. Ibrohimbiy esa uning huzurida «amirlar amiri» (amirulumaro) bo‘lib olgan.

Rajabxonni juda ko‘p amirlar qo‘llab-quvvatlagan va unga kelib qo‘shilganlar. Ularning himoyasi va fatvosi bilan Rajabxon hatto qo‘shin to‘plab Buxoroga yurish boshlagan. Yo‘l-yo‘lakay unga yangi kuchlar kelib qo‘shilgan. Ikki o‘rtada qattiq jang bo‘lgan (Karmanaga yaqin joyda). Muhammad Hakimbiy qo‘shinlari yengilgan, chunki uni o‘zbeklardan hech kim himoya qilmagan. Ammo shunga qaramasdan Rajabxon Buxoroni ololmagan. U yordam so‘rab ko‘chmanchi qozoqlarga murojaat qiladi va ko‘chmanchi qozoqlarga istilo qilingan joylardan katta o‘ljalar olib borishni va‘da etadi. Iqtisodiy ahvoldan nochor bo‘lib cho‘lda qayerga borishni bilmay daydib yurgan qozoqlar bu taklifni jon-jon deb qabul qiladilar va butun o‘tovlari va chorva mollari bilan Samarqand viloyatiga ko‘chib keladilar. Ular bu yerdan butun Miyonqol bo‘ylab Buxoro tumanlarigacha bo‘lgan joylarni egalladilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, hatto Rajabxonning o‘zi ham nima qilarini bilmay qoladi. Muhammad Hakimbiy bilan Abulfayz esa yashirinib oldilar. Qozoqlar hech qanday qarshilikka uchramasdan yetti yil mobaynida Zarafshon vohasini talab xarobazorga aylantirdilar. Mahalliy aholi

bu yerdan tinchroq hududlarga ko'chib keta boshladi, ularning ancha qismi qozoqlarga asir bo'lib tushadi. Xondan xalqning noroziligi kuchayib ketadi. Abulfayz o'z yaqinlarining maslahati bilan Muhammad Hakimbiyni Buxorodan chetlatadi. Otaliq Qarshiga ketadi. Ammo hokimiyatdan chetlatilgan bir hokim o'rniga bir nechasi paydo bo'ladi. Yeb to'ymas, ochko'z va tamagir mansabdorlar bozor va rastalar, savdo shoxobchalarining hammasini o'z qo'llariga markazlashtirib oladilar. Abulfayzxonni esa xalq hayoti qiziqtirmasdi. U kayfi safo, axloqiy buzuvchi ishlariga g'arq bo'lgandi. Bunday ahvolda viloyat va tumanlar hokimlari o'zlarini mutlaqo nazoratsiz va mustaqil sezardilar. Rossiya elchisi Benevenining ta'kidlashicha, Abulfayzxon qullardan ya'ni qalmiqlar bilan ruslardan tuzilgan gvardiyasining sodiqligiga orqa qilardi, xolos. Buxoroda ana shu og'ir ahvolni yaxshi bilgan Eron hukmdori Nodirshoh (1736–1747) Abulfayzxon qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi.

Turkmanlarning afshar qabilasidan bo'lgan Nodirshoh asli Mashhaddan, po'stinching o'g'li bo'lgan. U yoshlik chog'ida Abivard (hozirgi Turkmanistonning janubida) afsharlarning boshlig'iga tutingan o'g'il bo'lgan va uning qiziga uylangandi. Nodirshoh Ashtarxoniylar, xivaliklar va turkmanlarga qarshi kurashganda asosan afsharlar va qurdlarga tayanadi. Nodir Eron Shohi Taxmasp II (1722–1731) Xurosonga kelganda batamom o'zini uning ixtiyoriga topshiradi. Keyingi besh yil davomida Taxmasp II qo'shinlari Nodir boshchiligida Eronning Sharqi va janubidagi yerlarni batamom egalladi. Shoh Taxmasp II vafotidan so'ng taxtga o'tirgan (1731–1736) Abbos III ni ag'darib, Nodirshoh 1736-yilda Eron taxtini egalladi. Shundan keyin u Turkiya sultoni ustidan g'alaba qozonib g'arbiy chegaralarini mustahkamlab oladi. 1736–1739-yillarda Afg'oniston, Hindistonga muvaffaqiyatli yurishlar qilib 12 mingdan ortiq qo'shin bilan Nodirshohning o'g'li Rizoqulixon Qarshi shahriga boshlaydi. Muhammad Hakimbiy shahar mudofaasini tashkil qiladi. Atrof tumanlarni egallab olgan Rizoquliga Hisor noibi Boboxon o'zining uch ming kishilik qo'shini bilan Rizoquli tomoniga o'tib ketadi. Bu hol Eron qo'shinlarini yanada kuchaytiradi. Og'ir qamal holatida qolgan Muhammad Hakimbiy Abulfayzxonga yordam so'rab odam yuboradi. Abulfayz kattagina qo'shinga

bosh bo'lib, Qarshi qamalidan chiqqan Muhammad Hakimbiy qo'shinlariga kelib qo'shib Rizoquliga qarshi jang qiladi. Bu urushda eronliklarning askarlari raqiblariga qaraganda to'rt marta kam bo'lsalar-da g'alabaga erishadilar. Bunga Eron armiyasining o'tsochar quroli va artileriyasining sifat jihatdan ustunligi asosiy sabab bo'ladi. Buxoro qo'shinlari tartibsiz qocha boshlaydilar. Abulfayz bilan Muhammad Hakimbiy Qarshi shahri ichiga yashirinib kirib boshpana topdilar. Rizoquli Qarshini uzoq qamal qilishni boshlaydi. Ammo shu paytda buxoroliklarga yordam berish uchun uning ittifoqchisi Xiva xoni Elbarsxon katta qo'shin tortib kelayotganligi ma'lum bo'ladi. Rizoquli otasiga yordam berish uchun shoshilinch suratda Abulfayzxon bilan sulh tuzib Amudaryoning narigi sohili tomon yo'l oladi. Elbarsxon esa o'z ittifoqchisining eronlilar bilan sulh bitimi tuzganligini eshitib Xivaga qaytib ketadi. Abulfayz Muhammad Hakimbiyni Qarshi shahrida qoldirib o'zi Buxoro sari yo'lga tushadi.

1740-yilda Nodirshoh yana Movarounnahrda qo'shin tortadi. Balxga yurib, Amudaryoning ponton ko'prigidan o'tib Buxoro qirg'oqlariga yaqin keladi. Bu xabarni eshitgan Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy, ehtimol otasining roziligi va maslahati bilan, Balxda turgan Nodirshoh huzuriga jo'naydi.

Nodirshoh Muhammad Rahimni ochiq chehra bilan kutib oladi va o'z qarorgohida qoldiradi. Abulfayz esa Eron askarlarining Buxoroga yaqinlashib qolganliklaridan vahimaga tushib shoshilinch suratda Qarshidan Muhammad Hakimbiyni chaqirib oladi va Nodirshoh huzuriga jo'natadi. U o'z nomidan elchi qilib jo'natgan Muhammad Hakimbiyga nima qilib bo'lsada shohni qahridan qaytarish va davlatni xarob qilishga yo'l qo'ymaslik chorasini ko'rishni topshiradi. Otaliq juda katta va qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan Eron shohi huzuriga yetib boradi va Buxorodagi tang va og'ir ichki vaziyatni ochiq-oydin Nodirshohga aytib beradi. Muhammad Hakimbiy shohdan juda katta ishonch va yorliqlar olib Buxoroga jo'naydi. U endi Abulfayzxonning elchisi sifatida emas, balki Nodirshohning vakili sifatida keladi. Muhammad Hakimbiy xon huzuriga borishdan qo'rqib saroyga emas, balki Mirarab madrasasiga borib joylashadi va madrasa atrofini qurollangan soqchilar bilan mustahkamlaydi. U max-

sus farmonlar chiqarib jarchilar orqali o'qib eshittiradi. Bu farmonlarda shoh armiyasining yetib kelayotganligi munosabati bilan kimda-kim shaxsiy va mulkiy xavfsizlikka taalluqli biror-bir masalani hal qilmoqchi bo'lsa, to'g'ridan to'g'ri otaliqqa murojaat qilsin va u orqali har qanday muammoga javob olsin, deyilgan edi. Bu Muhammad Hakimbiyning xalq o'rtasidagi obro'sini oshirdi va xaloyiq Mirarab madrasasi tomon yopirilib kela boshlaydi. Ammo saroy a'yonlari va zodagonlar otaliqning bu qilgan ishlarini sotqinlik deb baholaydilar va g'azablanadilar. Otaliqni Abulfayzxon huzuriga chaqirib keyin umumiy kuch bilan xalqni qo'zg'atib eroniylarga qarshi kurashga otlantirishga harakat qilib ko'radilar. Ammo otaliq bu ishga ko'nmaydi va xonning huzuriga bormaydi. Shundan so'ng Abulfayzxon Mirarab madrasasi tomon borishga majbur bo'ladi. Uning yaqinlari Muhammad Hakimbiy xon huzuriga salom bergani chiqqanda uni otib o'ldirishni o'ylashadi. Biroq otaliq bu maxfiy fitnadan xabar topganday o'z navkarlariga mulozim va navkarlari bilan Mirarab madrasasiga yaqinlashib kelayotgan xonga qarshi o't ochishga buyruq beradi. Abulfayz sarosimaga tushib qoldi va Nodirshohga taslim bo'lishdan boshqa chora topa olmaydi. U o'z saroy ahllari bilan Nodirshoh huzuriga borish uchun Tolli Poch darvozasidan yo'lga chiqadi. Abulfayz orqasidan Nomozgoh darvozasidan otaliq ham yo'lga ravona bo'ldi. Aholining turli tabaqalariga mansub vakillar otaliqni kuzatib boradilar. Otaliq yo'lning yarmida xonga yetib oladi va unga qo'shiladi. Ular birlashib Nodirshoh huzuriga boradilar. Ikki o'rtadagi uchrashuv Buxoroga yaqin Zarafshon daryosi bo'yidagi Chor Bakr degan joyda bo'ladi. Nodirshoh Buxoro xoni Abulfayzxonga katta hurmat va iltifot bilan muomala qiladi, uning xonlikning huquqini tan oladi. Xon bu yerda o'n ikki kun bo'lgach Buxoroga qaytib ketadi. Asli turkmanlardan chiqqan Nodirshoh Ashtarxoniylar bilan quda-andachilik rishtalarini o'rnatdi. Abulfayzning bir qizini shohning o'zi, ikkinchi qizini esa Nodirshohning jiyani xotinlikka oladi. Ammo Eron shohi Buxoroda o'zining birdan bir ishonchli vakili deb Muhammad Hakimbiyni tanlaydi va faqat u orqali Buxoro bilan aloqa bog'ladi. Nodirshoh Eron armiyasini to'ldirish uchun Buxoro qo'shinlaridan o'n ming otliq askar ajratib olishga

farmon beradi va bu otryadga boshchilik qilishni otaliqning o'g'li Muhammad Rahimbiyga topshiradi. Nodirshohning to'la ishonchini qozongan Muhammad Hakimbiy Buxoroning haqiqiy hukmdori edi, Abulfayzxon esa endi unga batamom qaram bo'lib qolgandi. Buxoroni egallab olgan Nodirshoh endi Xorazmga qo'shin tortib boradi va uni ham o'ziga batamom tobe etadi.

Ashtarxoniylardan bo'lgan so'nggi xon Abulfayzning o'zbeklar davlatining azaliy dushmani Eron shohlari homiyligi va hukmronligini tan olishi amalda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligini tugaganligini bildirar edi. XVII asr boshlarida tashkil topgan Ashtarxoniylar sulolasi ikkinchi o'ringa tushib o'z o'rnini yangi hokimlar, birinchi o'ringa ko'tarilgan o'zbeklar urug'i – mang'itlarga bo'shatib beradi. Butun hokimiyat Eron shohi tomonidan tayinlanadigan va keyingi yillarda forscha ulug' amir (amiri kabir) degan unvonni olgan Muhammad Hakimbiy otaliq qo'liga o'tib ketadi. Otaliq 1743-yilda vafot etgach o'zbek amirlari davlatning turli yerlarida isyonlar ko'taradilar. Ana shunday isyonlardan biriga Ibodulla xitoy (xitoy-qipchoqlaridan chiqqan) boshchilik qiladi va Buxoro devorlari atroflarigacha bostirib keladi. Har yilgi odatga ko'ra Buxoro xalqi 1745-yilning aprel oyi oxirlarida Bahovuddin Naqshband mozori atrofida an'anaviy «Qizil gul» bayramiga chiqqan edi. Ana shu fursatdan foydalangan Ibodulla xitoy Buxoroga bostirib kiradi va juda ko'p o'ljalar bilan birga qo'shinlarning ham kattagina qismini asir qilib olib ketadi. Bu voqeadan xabar topgan Nodirshoh sinalgan askarlardan otryad tuzib, uni Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiyga topshiradi. U ana shu qo'shin bilan Buxoroga jo'naydi. Marvda unga Nodirshohning o'g'li Rizaquli ham o'g'li o'z askarlari va artilleriyasi bilan birga qo'shiladi. Chorjo'yga yetganda turkmanlar otryadi ham qo'shiladi. Katta kuch bilan Muhammad Rahimbiy Buxoroga kirib keladi, unga «amirlar amiri» unvoni (amirulumaro) berildi. U otasiga qarashli Buxoroga yaqin G'ozibod qishlog'ini o'ziga makon qiladi. Davlatning barcha yuqori mansablariga o'z qarindoshlari va tarafdorlarini tayinladi. Xonlikning markazida o'z mavqeyini mustahkamlab olgan Muhammad Rahimbiy Eron qo'shinlari yordamida ko'tarilgan xalq qo'zg'olonini bostirishga muvaffaq bo'ladi. Qattiq janglardan so'ng Ibodulla xitoy Miyonqal'adan

qochib Toshkentga boradi va shu yerda qo'lg'a olib o'ldiriladi. So'ng Shahrisabzda ko'tarilgan qo'zg'olon ham bostiriladi.

Muhammad Rahimbiyning ta'sir doirasi kengayib va kuchayib bordi. U kuchli qo'shin tuzdi va bu qo'shin tepasiga o'ziga sodiq kishilarni qo'yadi. 1747-yil 14-iyunda Nodirshoh suiqasd oqibatida o'ldiriladi. U tuzgan davlat bo'linib tarqab ketadi. O'zaro taxt uchun kurash boshlandi. Bu kurashdan Muhammad Rahimbiy ham chetda turmadi. U 1747-yilda Abulfayzxonni Mir Arab madrasasi hujralaridan birida o'ldirtiradi. Shundan keyin Muhammad Rahimbiy xonning birin-ketin ikki o'g'li Abdulmo'min va Abdullani qatl etib 1756-yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tiradi. Muhammad Rahim Buxoro taxtiga xon sifatida o'z da'vogarligini qonunlashtirish maqsadida Abulfayzxonning qiziga uylandi hamda xon deb e'lon qilingan huquqni oladi. Lekin **Muhammad Rahim (1756–1758)** ham, undan keyingi vorislar ham xon unvonini olmay, otaliq unvoni bilan davlatni boshqardilar. Ana shu tariqa Muhammad Rahimxon Buxoro davlatida yangi amirlar sulolasi – mang'itlar urug'i sulolasi davrini boshlab beradi.

Cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan Muhammad Rahimbiy akademik V.V.Bartoldning fikrlariga qaraganda, markazlashgan davlat barpo etish siyosatini olib borgan. Uning bu siyosatini islom dini arboblari, zodagon va savdogarlar qo'llab-quvvatlaganlar. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun Muhammad Rahimbiy itoat etmagan beklar ustiga bir necha bor qo'shinlar tortib borgan va ularni qattiq jazolagan. Toshkent, Xo'jand, Turkiston, Urgut, Shahrisabz, Ko'lob, Hisor va boshqa yerlarni Buxoroga qo'shib olib, o'z hududlarini kengaytiradi. Hisorga esa yuz, kenagas va saroy qabilalarini ko'chiradi.

Muhammad Rahimbiy vafotidan so'ng uning taxt vorisligiga o'g'li bo'lmaganligidan qizining o'g'li, nabirasi Fozil to'ra taxtga o'tiradi. U yosh bo'lganligi tufayli hokimiyatni amalda Muhammad Rahimbiyning amakisi **Doniyolbiy otaliq (1758–1785)** boshqarib boradi. Muhammad Rahimning vafot etganligi yangi kuch bilan amir va beklarning beboshligi va tarqoqligiga sabab bo'ladi. Ayrim o'zbek qabilalari hokimiyatdagi tashkiliy qiyinchiliklardan foydalanib davlat to'ntarishi yasashga va mang'itlarni hokimiyatdan chetlashtirishga harakat qiladilar.

Ammo Doniyolbiy vaziyatning murakkabligini darhol tushunadi va keskin choralar ko'rib isyonchilarga o'z vaqtida qaqshatqish zarbalar beradi. Bu ishda unga markazlashgan davlatning foydasi va afzalliklarini ko'rgan va tushungan zodagonlar, savdogarlar, hunarmandlar va aslzodalar zulmidan ko'proq azob chekib qiynalgan kambag'allar yaqindan yordam berdilar. Juda ko'plab yirik zodagonlar qatag'on qilindilar, ularning mulklari talanadi. Yuzlar qo'zg'oloni bostiriladi, G'uzor va Shahrisabzda zodagonlarning Qarshida Norbo'tabiy isyonlari tor-mor keltiriladi. Keyin viloyat hokimlari bilan Fozil to'rani taxtdan chetlatish haqida kelishiladi. Fozil to'ra ota-onasi bilan Qarshiga jo'natiladi, taxtga nomigagina joniy shahzodalardan Abulg'oz (1758–1785) o'tkaziladi. Lekin otaliq va haqiqiy hokim Doniyolbiyning o'zi bo'lib qoladi.

Doniyolbiydan so'ng uning o'g'li **Shohmurod (1785–1800)** davrida zodagonlar o'zboshimchaligi va tarqoqligiga qarshi kurash davom ettiriladi. Aqlli va farosatli hukmdor bo'lgan Shohmurod davrida davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi. U Muhammad Rahimbiyning beva xotiniga uylanib o'zini xon deb e'lon ham qildiradi. Ayni zamonda Samarqand hokimligini ham o'zida saqlab qoladi. Shohmurod o'z hukmronligini 1785-yilda Buxoro shahrida ko'tarilgan katta qo'zg'olonni bostirishdan boshlaydi. Bu qo'zg'olon harakat doirasining kengligi haqida shundan ham bilish mumkinki, uni bostirish chog'ida mingdan ortiq qo'zg'olonchilar nobud bo'lgan edilar. Shohmurod otasi davrida davlat idorasi tepasida turgan yuqori lavozimlardagi Buxoro amaldorlarini xalqqa zulm o'tkazganliklari va soliqlarni haddan oshirganliklari uchun o'z qo'llari bilan qatl ettiradi, viloyat hokimlari, amaldorlarni va qozilarni mansablaridan tushirib o'rniga o'z maslakdoshlarini tayinlaydi. «Fath nomai sultoni» asarining muallifi Muhammad Ali Buxoriyning bergan ma'lumotiga ko'ra Shohmurod Buxoro aholisini soliqlardan ozod qilib tarxon yorliqlari bergan. U 1786-yilda Karmana, Shahrisabz, Ho'jand, Mari zodagonlari ustiga yurish qilib ularni o'ziga tobe etadi, qattiqqo'l davlat siyosati yurgizadi. U Afg'oniston hukmdori Temur Shohga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib boradi, o'zbeklar va tojiklar yashaydigan janubiy Turkistonni o'z qo'lida saqlab turadi.



Shohmurod hukmronligi davrida to'rtta: 1) moliyaviy, 2) ma'muriy, 3) qozi hakamlar va 4) harbiy ishlar sohasida islohotlarni amalga oshirdi. Moliyaviy ishlarda ma'lum darajada tartib o'rnatdi va davlat hokimiyatini mustahkamladi. U tom ma'nodagi qimmatga ega bo'lgan kumush tangalar zarbetadi. Ayni zamonda har bir shaxsning kumush tangalarini o'zi mustaqil zarb qilishiga ham sharoit yaratildi. Davlat fuqarolarning tangalarini zarb qilishga yordam berardi. Fuqarolar esa o'z navbatida foiz hisobida bu ish uchun davlat xazinasiga foydasiga haq to'lashlari kerak edi. Sof kumush tanganing joriy qilinishi va uni erkin zarb etilishi savdo va rivojlanayotgan iqtisodiy ehtiyojlarga to'la javob berar va pul muomalasining barqarorlashuviga imkoniyat yaratardi.

Shohmurod shariatga to'g'ri kelmaydigan: yorg'u, boj, tusal, yasoq, oliq-soliq kabi soliqlarni, bepul ishlab berish tartib-qoidalarini bekor qiladi.

Ma'muriy sohadagi islohotni Shohmurod otasi Doniyol-biy va hatto Muhammad Rahimbij davrida Buxoroda eng oliy martabali lavozimda ishlagan davlat Qushbegi va Nizomiddin qozi kalonni o'z qo'li bilan qatl etishdan boshladi.

U qozilik ishlarini ancha demokratiyalastirdi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Shohmurod davrida agar qonunga xilof ish qilingan bo'lsa, xo'jayin ustidan qoziga arz qilish, hatto qul ham murojaat qilishi mumkin bo'lgan ekan. Ko'p hollarda qozilik jarayonida amirning o'zi ham ishtirok etib borgan. Albatta bu ishlarining o'z davrida Shohmurod tomonidan amalga oshirilganligi o'ziga xos katta jasorat edi.

Shohmurodning o'zi uchun kundalik xarajati bir tangadan oshmagan, yeb ichishi va kiyinishi oddiy bo'lgan, biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormagan, hech kimdan sovg'a olmagan, o'z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo'l qo'ymagan. Oddiy xalqning Shohmurodga munosabati qanchalik bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladiki, uni «begunoh amir», deb ataganlar. U bir tomondan, xalqqa, ikkinchi tomondan, lashkarga suyanib mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlashga katta e'tibor bergan. Ayni vaqtda Buxoro tasarrufidan chiqqan Xurosonni qaytarish uchun harbiy harakatlar olib borgan. Ammo bunga erisha olmagan.

Buxoro amirligi XX asrga qadam qo‘ygan davrda amirlik hududida jami bo‘lib 2 million aholi yashagan. Amirlik tepasida turgan mang‘itlar sulolasiga tegishli bo‘lgan qabila 100 ming kishidan iborat edi. Shundan Buxoro va uning atroflarida 44 ming, Qarshi va uning atroflarida 31 ming, Xivada 10 ming mang‘it yashagan, qolganlari turli joylarga tarqalib ketgan.

Mang‘itlar o‘zbek qabilalari orasida eng nufuzli va obro‘li qabilalardan biri bo‘lgan. Umuman, o‘zbek qabilalarining umumiy soni to‘g‘risida fikrlar bir xil emas. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida («Go‘ro‘g‘li» dostoni) va ayrim manbalarda bu raqam 92 ta deb berilgan. Rus olimi N.Xanikov esa «Buxoro xonligining tavsifi» («Opisanie Buxarskogo Xanstva», 1843) asarida o‘zbek qabilalari sonini 97 ta deb ko‘rsatadi va mang‘itlarni birinchi o‘ringa qo‘yib, uch guruhga bo‘ladi. To‘q mang‘it, oq mang‘it va qora mang‘it.

Mang‘itlar qabilasi o‘z vaqtida Chingizxonning ham nigohida katta e‘tiborda bo‘lganlar. Qabila vakillari u boshqargan davlat tizimlarida qatnashganlar. Chingizxon qo‘shinlarida katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lganlar. Hatto Chingiziylar davrida Oltin O‘rda xoni bo‘lgan Edigey o‘zbek ham mang‘itlar urug‘ining farzandi edi.

Shohmuroddan so‘ng sulola taqdiri uning o‘g‘li **Amir Haydar (1800–1826)**ga o‘tdi. Uning hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi. Har doim bo‘lgani singari Shohmurod vafot etgach yana mahalliy o‘zbek va amirlar o‘zboshimchalik bilan O‘rta hokimiyatga qarshi bosh ko‘tarib chiqadilar. Birinchi bo‘lib, 1800-yilda Marv turkmanlari o‘lpon yig‘ish siyosatidan norozi bo‘lib qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Haydar qattiqqo‘llik bilan bu qo‘zg‘olonni bostiradi.

Marvliklar 1804-yilda yana bosh ko‘tardilar. Bu safar qo‘zg‘olonga amirning ukasi Din Nosirbek boshchilik qiladi. Amir Haydar Marv vohasini suv bilan ta‘minlovchi Sul-tonobod to‘g‘onini buzdiradi. Natijada bir necha vaqt suvsiz qoldirilgan Marv aholisi jangni to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Qo‘zg‘olonchilarning bir qismi shaharni tark etdi, yana bir qismi esa amir qo‘liga tushib, Zarafshon vohasiga ko‘chirildi. Din Nosirbek Amir Haydarning oilasi va ming kishini olib Eron Mashhadiga qochib ketadi. 1825-yilda Marv xivaliklar tomonidan egallanadi. Sul-tonobod suv omborini tiklash borasidagi harakat va urinishlar zoye ketadi.

Ayniqsa 1821–1825-yillarda Amir Haydarning Miyonqal'a vodiysida yashaydigan xitoy-qipchoqlarga va ularga qo'shilgan qoraqalpoqlarga qarshi olib borgan urushlari g'oyatda dahshatli va shiddatli bo'ldi. Qo'zg'olonning asosiy sababi soliq siyosatining og'ir oqibatlar edi. Tez orada qo'zg'olonchilar Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Chelak shaharlarini egalladilar. Shaharlarning kambag'al fuqarolari qo'zg'olonchilar tarafdori bo'ldilar va adolat talab qiladilar. Boy va amaldorlar esa Amir Haydarni qo'llab-quvvatlaydilar. Erk va ozodlikni talab qilgan qo'zg'olonchilarni Shahrisabz o'zbek qabilalari kenagaslari ham qo'llab-quvvatlaydilar. Qo'zg'olon to'rt yil davom etdi va 1825-yilda bostiriladi. Qo'zg'olonchilardan qattiq va qonli o'ch olinadi. Amirlik hududidagi ichki qo'zg'olon va to'palonlarga qo'shni xorijiy mamlakatlarning qilgan hujumlari qo'shib yanada dahshatli tus oladi. 1800-yilda O'ratepa masalasida Qo'qon xoni Olimxon bilan janjal kelib chiqadi. Qo'qon askarlari Jizzax, Zomin va boshqa amirlik hududlariga bostirib kirib aholini taladilar. 1804-yilda esa g'arbda Xiva xoni **Eltuzarxon (1804–1806)** Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kiradi. Katta qiyinchiliklar bilan bu hujum qaytariladi.

1815-yil bahorida Qo'qon xoni Umarxon Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Turkistonga qo'shin jo'natdi va kechasi kutilmagan va qo'qqisdan qilingan hujum natijasida shahar egallanadi. Qo'qon xonligi tomonidan Turkiston shahrining egallanishi ikki qo'shni xonlik o'rtasidagi dushmanlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Xullas, Amir Haydar o'z hukmronlik davrini to'xtovsiz harbiy yurishlar va jangu jadallarda o'tkazadi.

Amir Haydar vafot etgach taxtga uning o'g'li Husayn o'tiradi. Lekin u ikki oy o'tar-o'tmas vafot etdi. Keyin ma'lum bo'lishicha Husayin zaharlab o'ldirilgan ekan. Husayndan so'ng Buxoroning zodagon va ayonlari uning boshqa bir og'asi Umarni amirlikka ko'taradilar. Yangi amirni naymanlar qo'llab-quvvatladilar. Ammo Haydarning yana bir o'g'li Nasrullo bu ishga rozi bo'lmadi va xitoy-qipchoqlarini o'z tomoniga tortib Buxoroni qamal qiladi va hokimyatni qo'lga kiritadi. U naymanlar urug' aslzodalarining hammasini qatl ettiradi, bir qismini shahardagi baland minoralardan tashlattiradi, ularning uy-joylarini va oilalarini talash va haqoratlashni qo'shinlariga

topshiradi. Nasrullo dastlab Umarga rahm qilib uni omon qoldirdi. Ularga Qo‘qon xoni boshpana beradi. Lekin o‘z va‘dasiga vafo qilmagan Nasrullo jigarining orqasidan odam yubortirib o‘ldirtiradi. O‘sha paytda Umar 21 yoshga endigina to‘lgandi. O‘taketgan shuhratparast va ichi qora Nasrullo hamma narsadan shubhalanar va hech kimga ishonmasdi. U endi hali hayot bo‘lgan uchta ukasidan xavotirlanar va shubhalanardi. Shu bois Nasrullo ulardan qutulish uchun har uchalasini ham qopga solib Amudaryoga cho‘ktirib yuboradi. Nasrullo qonxo‘rligi bilan nom chiqargan edi. Shu sababdan unga «qassobning botiri» deb laqab qo‘yishgan.

**Amir Nasrullo** o‘z hukmronligi davri (1826–1860) da qonxo‘r jallod sifatida xalqning qonini zulukdek so‘radi. U amirlikka qarashli barcha viloyat va tumanlarni Buxoro atrofida mustahkam birlashtirish uchun shafqatsiz qonli urush olib boradi. Amirlikning barcha mulklari orasida yarim mustaqillikka ega bo‘lgan eng kuchli beklik – Shahrisabz bekligi edi. Shahrisabz kenagaslari mang‘it amirlarining o‘zaro og‘a-inilar kurashib bir-birlarini o‘ldirish bilan band bo‘lganliklaridan foydalanib, o‘zlarini Buxorodan mustaqil deb e‘lon qiladilar. Darg‘azab bo‘lgan Nasrullo «o‘zboshimcha» kenagaslarning adabini berib qo‘yish maqsadida Shahrisabz ustiga 30 yil mobaynida 32 marta yurish qiladi. Faqat 1856-yilga kelgandagina kenagaslar qarshiligini yengib Shahrisabz va Kitobni o‘ziga bo‘ysundira oladi.

Nasrullo askarlari Shahrisabz va Kitob aholisini talab ko‘p noma‘qulchilik ishlarini amalga oshiradilar. Amirning o‘zi esa Shahrisabz begining malikasi – Kenagasoyimni zo‘rlik bilan Buxoroga olib kelib o‘ziga xotinlikka oladi. Xonliklarni birlashtirish uchun kelgan ingliz emissarlari Konolli va Stoddartlarni amir Nasrullo so‘ydirtiradi.

Nasrullo bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlar yuqorida ta‘kidlaganimizdek tobora o‘tkirlashib bordi. U Qo‘qon xonligini bosib olish niyati bilan nafas olardi. Nasrulloning 1840-yilda Qo‘qonga qilgan birinchi yurishi natija bermadi. Qo‘qon xonligidagi ichki o‘zaro nizo-janjallardan foydalangan amir 1842-yilda ikkinchi marta bu yerga lashkar tortib keladi. U ishni dastlab Shahrisabzda turgan Nodirabegimning kichik o‘g‘li Sulton Mahmudxonni o‘zi bilan birga olib kelib O‘ratepaga ho-

kim qilib tayinlashdan boshladi. O'sha davrda O'ratepa Buxoro amirligi ixtiyorida edi. Mamlakat hayoti uchun yaqinlashib kelayotgan xavfni sezgan Nodirabegim darhol o'g'illari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun amaliy chora-tadbirlar ko'radi. U Xo'jand shahriga borib ikki o'g'lini murosayi madoraga keltiradi. 1841-yil noyabr oyida Muhammad Alixon taxtdan voz kechib Sulton Mahmudni o'z o'rniga o'tqazadi. Ammo bu ko'rilgan chora-tadbirlar amir Nasrulloni 1842-yilda Qo'qonga ikkinchi marta lashkar tortib borishiga to'sqinlik qila olmaydi. Nasrullo xon o'rdasiga kirib aka-uka Muhammad Ali va Sulton Mahmudxonni so'ydiradi. Amir Nasrulloning qonxo'r jallod sifatida nom qozonishining eng yuksak cho'qqisi shu bo'ldiki, u o'limi oldidan o'z xotinini – Kenagasoyimni o'ldiradi, og'asi va uning barcha bolalarini ham qatl etadi. Xullas, amir Nasrullo o'zidan so'ng xalqning qonxo'r jallodi sifatida tarixda dahshatli iz qoldiradi.

Buxoro amirligi taxti Nasrullodan so'ng uning o'g'li **Amir Muzaffarxon (1860–1885)** ga o'tadi. U ham o'z avlod-ajdodlari izidan borib amirlik hududlarini kengaytirish maqsadida qonli urushlar olib boradi. Butun Farg'ona vodiysini zabt etib Qashqar hududlarigacha yetadi. 1865-yilda Muzaffarxon ikkinchi marta Qo'qonni o'ziga tobe etib Xudoyorxonni Qo'qon taxtiga tiklaydi. Muzaffarxonning amirlik davri Buxoro tarixining eng og'ir va dahshatli qora davrlariga to'g'ri keladi.

Amir Muzaffarxon otasi davrida mansabda bo'lgan amaldorlarni bo'shatadi, mol-mulklarini musodara qiladi, Karmanaga surgun qilingan kishilar yana poytaxtga keltirilib, ularga mansablar beradi. U shu yo'l bilan o'z mavqeyini mustahkamlamoqchi bo'lgan. Bu esa aslida kishi bilmas davlat va sulola qudratiga berilgan zarba edi. Ahmad Donishning fikricha, Karmanadan qaytarib yuqori davlat vazifalariga tayinlangan mansabdorlar o'z faoliyatlarida «xalqning qonini so'rganlar». Amir Muzaffar Hisor va Qo'qonga harbiy yurishlar (1863–1865) olib boradi. Uning davrida lashkar ham zaiflashadi, otasi davrida harbiy yurishlarda chiniqqan sarkardalar qatl qilinadi. Ular o'rniga «tagi past kishilar va g'ulomlar» tayinlanadi. «Rusiya o'lkaga bostirib kirganda esa, – deb yozadi Ahmad Donish, – tagi past, nodon va g'ayratsiz sarkardalar juftakni rostlab qoladilar, to shu vaqtgacha ulardan ozor chekib kelgan askarlar g'ulomlarga



**Buxoro amiri. Olimxon (birinchi qator o'rtada) o'z saroy amaldorlari bilan.**

xizmat qilishni orilib ketdilar. Natijada, barcha viloyatlar Rusiya qo'liga tushdi.»<sup>1</sup>

O'ziga qaraganda bir necha barobar kuchli bosqinchi chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi teng bo'lmagan janglar olib borgan va yengilgan Amir Muzaffarxon 1868-yilda sharmandali sulh bitimini imzolashga majbur bo'ladi. Bu bitimga asosan Buxoro amirligi o'z mustaqilligini yo'qotadi va Rossiyaning vassaliga aylanadi.

Amir Muzaffarxondan o'g'li **Amir Abdulahad (1885–1910)** ga yarim mustamlaka va batamom Rossiyaga qaram bo'lgan Buxoro taxti meros bo'lib o'tadi. U biror ishni mustaqil hal qila olmas edi. Amir Abdulahadga qarshi bir qator hududlarda norozilik harakatlari bo'ladi. Jumladan, 1909-yil hijriy yangi yil sayli vaqtida Shahrizabz va Qarshida xalq amirlikka qarshi bosh ko'taradi. Xalqning bu chiqishlari shafqatsizlik bilan bostiriladi. Biroq shuni aytish kerakki 1886–1887-yillarga oid hujjatlarning guvohlik berishicha amir Abdulahadxon qul va cho'rilarga rasman ozodlik berish to'g'risida farmon chiqargan. U 1910-yilda vafot etgach, taxt voris o'g'li **Olimxon (1910–1920)**ga nasib etadi.

Olimxon 1881-yilda tavallud topgan. 1893–1896-yillarda Sankt-Peterburgda o'qigan. 1898-yilda Qarshi viloyatiga hokimlikka yuboriladi. O'n ikki yil hokimligi davrida Olimxon bir qator qurilishlar qiladi. Jumladan, Qarshi shahrida Qashqadaryo ustida uzunligi 122 m, eni 8,2 m daryo tubidan balandligi 5,35 m bo'lgan ustunlari g'isht va tosh ohakdan ko'prik qurdiradi. Ko'prik ustida

<sup>1</sup> *Азамат Зиев. Ўзбек давлатчилиги тарихи... 283–284-бетлар.*

to'rtta ravoq (qorovulxona) bunyod etadi. Olimxonning o'zi «Buxoro xalqining hasrati tarixi» kitobida bu haqda shunday hiko-ya qiladi: «Mazkur viloyatga yaqin joyda Qashqa degan sho'x daryo oqardi. Undan kambag'al beva-bechoralarning kechib o'tishida rohati buzilib, doimo g'am-tashvishda edilar. Aholining osoyishtaligini ko'zlab mazkur daryoga toshu temirdan bir ko'prik qurdirdim, ko'prikni esa o'z nomim bilan atadim. Shoyad faqiru fuqarolar suv kechish tashvishidan qutulib, tinch-uosuda yashasalar, deb o'yladim. Shu bilan yana boshqa bir qancha madrasa va ibodatxonalar qurib, bu borada anchagina yumushlarni yuzaga keltirdim»<sup>1</sup>. Qarshi qo'rg'onining yonidagi bog'da katta ko'l, madrasa va ibodatxonalar shu davrda qurilgan edi.

Amir Olimxon o'z hukmronligi davrida xalq manfaati nuqtayi nazaridan bir qator foydali ishlarni ham amalga oshirgan. Uning o'zi bu haqda quyidagicha yozadi: «Taxtga o'tirganimdan so'ng bu banda dargohi oliyda mamlakatimning bir yillik xiroj to'lashdan ozod qilish farmoyishini berdim...

Buxoroyi Sharif arkining yaqinida, Baloyi hovuz deyilgan joyda o'z nomimga bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor-ul-ulum – Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim: har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nazir tayin etdim; ularning yemak-ichmak maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkazdirardim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi...»<sup>2</sup>.

Albatta amir Olimxonning o'z o'tmish tarixi to'g'risida bildirgan bu fikr-mulohazalari uning hukmronligi yillarida xalqqa o'tkazgan zulmkorlik siyosatini, davlatni boshqarish va idora etishda yo'l qo'ygan juda ko'plab qo'pol xato va kamchiliklarini aslo oqlay olmaydi. Olimxon amirligi davrida mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy turmush yanada og'irlashadi. Xalq

<sup>1</sup> *Amir Olimxon*. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т.: Фан, 1991. 7-бет.

<sup>2</sup> *Amir Olimxon*. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи, 8-бет.



ommasining yashash, turmush tarzi yomonlashadi, zulmkorlik ekspluatatsiya kuchayadi. Xalq gardaniga tushadigan soliqlar miqdori oshdi. 1913-yildagi ma'lumotlarga qaraganda amirning yillik daromadi oltin hisobida 30 millionga teng bo'lgan. Ana shu boylikning kattagina qismi shaxsan, amirning ayshu ishrati va be'mani noaxloqiy tadbirlariga sarflangan. Amir Olimxon o'z davlati hududida xalqning umumiy manfaatlariga javob bera oladigan siyosat yurgizmadi. Ilg'or fikrli jadidlar harakatining faollari bilan umumiy til topib amirlikda tinchlik, osoyishtalik, hamfikrlilik va birlikni shakllantira olmadi, aksincha, ularni quvg'in qiladi, qattiq jazoladi va bu bilan xalq ommasi ko'pchiligining nafrat va nadomatiga uchradi. Oqibatda bunday siyosatdan birinchi navbatda amir Olimxonning o'zi pand yedi va zarar ko'rdi. Amirdan g'oyat zada bo'lgan jadidlarning katta bir qismi esa bolshovoylarning yolg'on va'dalari, tashviqot-targ'ibotlariga ko'r-ko'rona ishonib, ular tomoniga o'tib ketadilar. Oqibat natijada Buxoro amirligi hududida yashagan xalqlar uzoq yillar mobaynida qizil saltanat bo'yinturug'ini o'z bo'ynida ko'tarib yurishga majbur bo'ladi.

### 3. XIVA XONLIGI

1505-yilda Xorazmni Shayboniyxon bosib oldi. Eron shohi Ismoil Safaviy Shayboniyxonni mag'lub etgach Xorazm Eron davlatiga qaram bo'lib qoladi. Biroq qizilbosh eroniylar hukmronligi uzoq davom etmadi. Bir yil o'tar-o'tmas 1511-yilda Xorazm o'zbek xonlari hukmronligida o'z mustaqilligini tiklab oladi. Xorazm aholisi orasida eroniylarga qarshi qo'zg'alon uyushtiriladi. Ular dashtiqipchoqlik Berka Sultonning o'g'li Elbarsni chaqiradilar. Dashtiqipchoqlik Elbarsxon 1511-yilda taxtga ko'tariladi. Shundan so'ng Eron askarlari Xiva, Xazorasp va Qiyotni tashlab chiqib ketdilar. Ana shu tariqa 1512-yilda Elbarsxon boshchiligida Xiva xonligiga<sup>1</sup> asos solinadi. Elbarsxon tufayli Dashti Qipchoqdan juda ko'plab ko'chmanchi o'zbek qabilalarining kela boshlashi va 1524-yilda Shoh Ismoilning vafot etishi O'zbek sultonlarining Urganchda mustahkamlanib

<sup>1</sup> Xiva xonligi deb 1602-yilda poytaxt uzil-kesil Xivaga ko'chgandan keyin atalgan.

olishlariga imkoniyat yaratib beradi. Ular hatto shimoliy Xurosonning anchagina qismini (hozirgi Turkmanistonning Janubiy qismi), Saraxs tumani va uning shimoliy qismi bilan birga, Balxon va Mang'ishloqdagi turkmanlarni ham bo'ysundirib oldilar.

Elbarsxon 1518-yilda vafot etgandan so'ng xonlar tez-tez almashib turadigan bo'lib qoladi. Xiva xonlari o'z qo'l ostilari-dagi xalqlarni itoatda saqlash uchun qabilalar o'rtasida nizolarni kuchaytirdilar, ular o'rtasida urushlar keltirib chiqaradilar. Bu xalqni xonavayron qiladi.

Elbarsxonning beshinchi vorisi bo'lgan Avaneshton davrida Shayboniylardan bo'lgan Ubaydullaxon Xivani bosib olishga urinib ko'radi (1538). Hatto Avaneshtonni o'ldirib Xorazm taxtiga o'z o'g'li Abdulazizni tayinladi ham. O'zbek oilalari Xorazmdan Buxoro xonligini hududiga ko'chiriladi. Biroq o'ldirilgan Avaneshtonning Shayboniylardan qutulib qolgan urug'doshlari Din Muhammad avlodiga mansub Durun huzuriga qochib boradilar. Durun turkmanning adak (adakli) qabilasi yordamida Xorazmga bostirib kiradi va Xivani egallab Shayboniylar hokimini o'ldiradi. Abdulaziz zo'rg'a qochib qolishga ulgurdi. Din Muhammad Xorazmga Ubaydullaxon yuborgan qo'shinlarni tor-mor keltiradi.

1575-yilda Shayboniylardan bo'lgan Abdullaxon Xorazmga yana qo'shin tortib boradi. Bu davrda Xorazm xoni **Xoji Muhammad (1560–1602)** Xurosonga qarshi qo'shin tortib ketgan edi.

Xoji Muhamadxonning yo'lda kelayotganidan xabar topgan Abdullaxon uning ukalari bilan sulh bitimi tuzadi va Buxoroga qaytib ketadi. 1593-yilda Abdullaxon II Xorazmni nihoyat bosib oladi. Xorazm xoni o'z o'g'illari bilan Eron shohi Abbas panohiga qochib borishga majbur bo'ladi. 1595-yilda Xiva sultonlari turkmanlar yordamida Xivani qaytarib oladilar. Lekin shu yili Abdullaxon II Xorazm ustiga yana qo'shin tortib keladi. Xazoraspmni egallab, qo'zg'olonchilarni qatl ettiradi. Xoji Muhamadxon yana Eronga yo'l oldi. Mamlakatda toju-taxt uchun boshlanib ketgan urush, janjal va nizolar oqibatida Shayboniylar urug'i batamom qirilib bitadi va inqirozga yuz tutadi. Bu qulay vaziyatdan foydalangan Xorazm yana o'z mustaqilligini qaytadan tikladi va Xoji Muhamadxon o'z taxtini egalladi. Ana shu tariqa

o‘zbek sulolasining Elbarsxon asos solgan Xorazm davlati taxti hukmronligiga mustahkam zamin yaratiladi.

**Arab Muhammadxon davri (1602–1621)**da xonlikning markazi Urganchdan Xivaga ko‘chirildi. Buning asosiy sababi Amudaryoning qurib borishi natijasi edi. Ana shu davrdan boshlab xonlik Xiva xonligi nomi bilan yuritiladigan bo‘ladi. Bu davrda xonlikdagi umumiy aholi soni 800 ming kishiga borardi. Shundan 67 % o‘troq o‘zbeklar, 26% turkmanlar va qolganlari qozoqlar va qoraqalpoqlar bo‘lgan. Aholisining asosiy ko‘pchiligini tashkil etgan o‘zbeklar qabila-qabila, urug‘-urug‘ bo‘lib vohaning shimoliy qismida, asosan, Amudaryo tarmoq yoygan yerlarda joylashgan edilar. Bu o‘zbek aholisi jami 20 ta qabiladan iborat bo‘lib, ular orasida mang‘itlar, nayman, qipchoq, qiyotlar, qo‘ng‘irotlar kuchli va ustun mavqeyiga ega bo‘lganlar.

Hozirgi xorazmliklarning rivojlanishi va shakllanishida tarixan ildizi va tomiri bir bo‘lgan hamda voha hududida va uning chekkalarida ilgari yashab kelgan qardosh turkmanlarning ta’siri va o‘rni katta bo‘lgan. Qadimgi o‘g‘uzlarning avlodlari bo‘lgan turkmanlar mahalliy xalqlar va Dashti qipchoqdan ko‘chib kelgan turkiy xalqlar bilan qorishib, qo‘shilib ketganlar. Xorazm shevasining turkman tiliga yaqinligi ham albatta ana shundadir.

Bir vaqtlar Xorazmshohlar hukmronligi davrida saltanat darajasiga ko‘tarilgan va «... O‘tuz darvozasi bor...» bo‘lgan<sup>1</sup> Xorazm XVII asrga kelib o‘zaro qirg‘inbarot urushlar oqibatida taraqqiyotda orqada qoladi. XVII asr boshlarida Amudaryo o‘zanining o‘zgarganligi ham voha taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Urganch shahrini xonlikning janubiyroq hududiga ko‘chirishga to‘g‘ri keladi. Biroq yangi Urganch ham Ko‘hna Urganchning nafaqat nomini, balki ayni zamonda tarixiy an‘analarini va savdo markazi sifatidagi o‘rnini ham o‘zida saqlab qoladi. Amudaryo o‘zanining siljishi Xorazmdagi boshqa qadimiy va tarixiy: Xazorasp, Kot, Xonqa, Shohobod kabi shaharlarning ham siljishiga sabab bo‘ladi, ammo ularning barchasining eski nomlari saqlanib qoladi.

<sup>1</sup> Мулло Олим Махмуд Ҳожи. Тарихи Туркистон. Қарши, «Насаф», 1992. 125-бет.

Hoji Muhammadxon vafotidan so'ng 19 yil taxtda o'tirgan Arab Muhammadxon davrida xonlikdagi toju taxt uchun o'zaro urushlar ayniqsa keskin tus oladi. 1616-yilda Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash Sulton bilan Elbars Sulton, nayman va uyg'ur qabilalarining boshliqlariga tayanib (onalari Nayman urug'iga mansub edi), o'z otasiga qarshi isyon ko'taradi. Arab Muhammadxonning yetti o'g'li bo'lgan: ular Asfandiyorxon Sulton, Habash Sulton, Elbars Sulton, Abulg'ozixon, Sharif Muhammad Sulton, Xorazmshoh Sulton, Avg'on sultonlardir. Arab Muhammadxon andisha yuzasidan yon bosib, isyonkor o'g'illariga Vazir shahrini (Ustyurtda, Ko'hna Urganchdan 60 chaqirim yiroqda; XV asr o'rtalarida o'zbek xonlaridan Mustafaxon qurdirgan) ham qo'shib berdi. O'rtada besh yil o'tar-o'tmas oralari buzilib, ota-bolalar o'rtasida urush boshlanib ketdi. 1621-yilda Toshli yormish qudug'i yonida ikki orada bir tarafda Arab Muhammadxon, to'ng'ich o'g'li Asfandiyor Sulton va Abulg'oziy sulton, ikkinchi tomonda esa Habash Sulton bilan Elbars Sulton orasida qattiq jang bo'ladi. Oqibatda ota tomon yengiladi. Nobakor farzandlar buyrug'i bilan asir olingan xonning ko'zlariga mil tortiladi va Xivaga olib keltirilib qamab qo'yiladi. Ko'p o'tmay Arab Muhammadxon shu yerda qatl etiladi. Oqpadar farzandlar otaga qo'shib Xorazmshoh inisi va akasi Asfandiyorxonning ikki o'g'lini ham o'ldiradilar.

Abulg'ozixon qochib avval Kotga, Qo'ng'irotgga, so'ngra Buxoroga, Imomqulixon (1611–1642) huzuriga boradi. Xonning boshqa o'g'illari: Asfandiyorxon Sulton va Sharif Muhammadxon Sulton Xazoraspgga boradilar va u yerda yashirindilar. Shaharni qirq kun qamal qilgan Habash va Elbars og'asi Asfandiyorxon Sulton va inisi Sharif Muhammad Sulton bilan yarashadilar, hamda Asfandiyorxon Sultonni Makka ziyoratiga ketishga ijozat beradilar, Sharif Muhammad Sultonga Katni in'om qiladilar.

Biroq Asfandiyorxon Sulton Makkaga bormaydi. U to'g'ri Shoh Abbas I (1587–1629) huzuriga yo'l oladi va uning yordami bilan 1623-yilda Xiva taxtini egallaydi. Bu voqeadan xabar topgan Abulg'ozixon Xorazmgga qaytadi. Og'asi Asfandiyorxon Sulton unga Urganchni beradi. Lekin oradan to'rt yil o'tib akasi bilan oralari buzilib 1627-yilda Ablug'ozixon Turkistonga Eshimxon (1629-yilda vafot etgan) qarorgohiga qochib boradi. Ko'p o'tmay

Toshkent hokimi Tursunxon uni o'z huzuriga olib ketadi. Tursunxon vafotidan so'ng 1690-yilda Abulg'ozixon Buxoroga Imomqulixon huzuriga borishdan boshqa chora topa olmaydi. Buxoroda uzoq qolishning iloji bo'lmaydi. Chunki xondan norozi bo'lgan turkmanlarning chaqirig'i bilan yana Xorazmga qaytib boradi. Asfandiyorxon (u o'sha paytda Xazoraspda turardi) unga Xivani topshirishga majbur bo'ladi. Ammo olti oydan so'ng payt poylab Asfandiyorxon Abulg'ozini Eron tasarrufiga tushib qolgan Niso bilan Dorunga (Ashxobod bilan Qizil Arvot o'rtasida joylashgan manzilgoh) hujum qilganlikda ayblab hibsga oladi va Eronga shoh Safi' I (1629–1642) huzuriga omonat tarzida jo'natib yuboradi.

Abulg'oz bu yerda qariyb 10 yil (1630–1639) maxsus nazoratchilar qo'li ostida Isfaxonga yaqin joylashgan Taborak qal'asida tutqunlikda tirikchilik o'tkazadi. 1639-yilda bu yerdan qochib, ikki yil deganda – 1642-yilda Orol o'zbeklari huzuriga keladi. Orollik o'zbeklar 1643-yilda uni xonlikka ko'taradilar. Oradan bir yil o'tgach, u ko'pchilik raqiblarini yengib Xiva taxtini egallaydi. U jami bo'lib yigirma yil xonlikni boshqaradi (1643–1664). Ammo u xon sifatida boshqalar singari huzur-halovat ko'rgan emas. Ko'proq umri jang-u jadallar va urushlarda o'tdi. U 1646–1653-yillarda Tajan, Bomibaurma (Qizil Arvotning sharqiy-Janubiy tarafidagi manzilgohlar), Atrok va Jurjon turkmanlari bilan urushlar olib boradi. 1655–1662-yillari o'lkaga vaqti-vaqti bilan hujum qilib turgan yoyiqlik (Ural) rus kazaklari, qalmoqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurashadi. 1663–1664-yillarda bir necha marta Buxoro ustiga yurishlar uyushtiradi.

1664-yilda Abulg'oz Bahodirxon og'ir dardga chalinib kasal bo'lib qolgach, toju taxtni o'g'li **Anushaxon (1664–1687)** ga topshiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Xorazmning bu ma'rifatparvar hukmdori 1664-yil aprel oyida vafot etadi. Xiva bilan Buxoro o'rtasida urush mojarolari Anushaxon davrida ham davom etadi. Xiva qo'shinlari Buxorogacha yetib boradilar, hatto Jo'yborni talon-taroj qiladilar. Xivaliklarning Buxoroga eng katta hujumlari 1685-yilda bo'ladi. Ular Samarqandni egalladilar. Samarqandliklar Anushaxonni o'z xonlari deb e'lon qiladilar. Ammo Buxoro qo'shinlari G'ijduvon yonida xivaliklarni tor-mor keltirishga muvaffaq bo'ladilar. Bu g'alabadan so'ng

Anushaxonda Samarqandni tashlab chiqishdan boshqa iloji qolmaydi.

Xivaliklarning Buxoroga to'xtovsiz qilib turgan yurishlari Buxoro xoni va uning hukumatini Xiva xonligiga nisbatan makr va hiylalar yo'lini ishlatib kurashishga majbur etadi. Buxoro xoni Subxonqulixon Xivada maxsus guruh tashkil qiladi va guruh orqali Anushaxonning o'g'li Irnoqni qo'lga oladi. Irnoq o'z otasining (1687) ko'zini ko'r qiladi, lekin o'zi ham uzoq yashamadi. Chunki xivaliklarning Buxoroga uyushtirgan navbatdagi hujumlaridan keyin zaharlab o'ldiriladi. Bu dalil Buxoro manbalarida beriladi. Lekin tarixchi Munisning ma'lumotlariga ko'ra bu soxta Irnoq bo'lgan, haqiqiy Irnoq esa ancha ilgari Orolida to'plangan ko'chmanchi o'zbeklar bilan bo'lgan jangda o'ldirilgan. Xivada tashkil etilgan Subxonqulixon guruhi shu darajada puxta ish olib bordiki, 1688-yilda Xivadan Buxoroga maxsus vakil yuborilib Subxonqulixon Xivani Buxoro fuqaroligiga olish iltimos qilinadi. Subxonqulixon Xiva taxtini boshqarishni Shohniyozga topshiradi va uni «eshik og'a» unvoni bilan taqdirladi. U keyinchalik Xiva xoni unvoniga ega bo'ladi.

Xonlikni boshqarish va idora qilishni uddasidan chiqishga ko'zi yetmagan va o'z o'qizligini sezgan Shohniyoz Subxonqulixonga xiyonat qiladi va shimoldagi rus podshosining soyasida o'z hokimiyatini saqlab qolmoqchi bo'ladi. U 1700-yilda Subxonqulixon yashirincha Pyotr I ga elchi yuborib Xivani Rossiya fuqaroligiga qabul qilishni so'raydi. Bu hol aslida turkiy millatlarning milliy manfaatlariga dastlabki va hech kechirib bo'lmaydigan xiyonat bo'lib, rus mustamlakachilarining o'lkamiz hududlarini bosib olishi va asoratga solishi uchun yo'l ochib berishdan iborat edi.

Xullas bu davrda Xiva xonligi ziddiyat, qarama-qarshiliklar va g'ulg'ulalarning Markaziy tuguniga aylangan edi. Shimolda Rossiya, Janubda Eron va Janubiy Sharqda Xivaga yon qo'shni bo'lgan Buxoro chigal tugunni o'z foydasiga hal qilishga intilar edi. Bu hol ayniqsa **Sherg'ozixon davrida (1714–1728)** g'oyatda kuchayadi. Birinchi bo'lib Xivaga o'zining bosqinchilik hamlasini Rus podshosi Pyotr I boshlab beradi. U 1714–1717-yillarda Knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga 6655 kishilik qo'shin jo'natadi. Sherg'ozixon Shohniyozxonga qaraganda





## XIX asr oʻrtalarida Xiva xonligi

kuchayadi. Ana shunday ogʻir va murakkab bir sharoitda Xiva va Buxoro xonliklari oʻzaro til topib xorijiy mamlakatlarning xavfli hujumiga qarshi yagona jabha tashkil qilish oʻrniga birbirlariga qarshi raqobatni avjiga mindiradilar. Jumladan, Buxoro xoni Abulfayzxon Shergʻozixonga qarshi orolliklarni qayradi. Orolliklar Buxoroda yashovchi shahzoda Temur Sultonni oʻzlariga xon qilib koʻtaradilar. Xivada oʻzaro urush-janjallar va nizolar avjiga minadi. Bu hol Shergʻozixon vafotiga qadar ham tinmaydi. Temur Sulton esa butun xonlikni oʻziga boʻysundira olmaydi. Shergʻozixon soʻng xonlikka qozoq-chingiziylar avlodidan **Elbarsxonni (1728–1739)** taklif qiladilar. Ana shu davrdan boshlab qozoq-chingiziy xonlarni dashtdan muayyan muddatga olib kelib qoʻyish, keyin zarurat qolmagach, uni boʻshatib, boshqasini olib kelish odat tusiga kirib qoladi. Bu tarixga «xonlar oʻyini» nomi bilan kiradi. Lekin ahvol ijobiylikka tomon oʻzgarmadi. Elbarsxon vaziyatni yanada chigallashtiradi. Nodir shohning Eronda yoʻqligidan foydalanib (Nodirshoh Afgʻoniston va Hindistonga qoʻshin tortib ketgan edi) Elbarsxonning Buxoro tomonida turib Nodirshoh qoʻshinlariga qarshi urushga kirishi, Eronga qaramlikdan bosh tortishi Xivani ogʻir ahvolga solib qoʻydi. Nodirshoh Buxoroni tobe etgach 1740-yilda Xiva xonli-

millatparvarlik, vatanparvarlik his-tuygʻusi oʻlmagan xon boʻlib chiqadi va u ayyorlik ishlatib bosqinchi rus askarlarini boʻlib-boʻlib batamom qirib tashlaydi. Shergʻozixon Shohniyozxon tufayli Xiva bilan Buxoro oʻrtasidagi keskinlashgan vaziyatni yumshatish maqsadida bosqinchi rus zobiti knyaz Bekovish-Cherkasskiyning boshini shamshir bilan olib Buxoro xonligiga yuboradi. Ammo bundan hech qanday foyda chiqmaydi. Bu voqeadan soʻng Rossiyaning Xiva xonligiga qarshi urush boshlash xavfi



gini ham batamom o'ziga tobe etdi. U Xivada «Xonlar o'yini»ni bartaraf qilishga har qancha urinmasin, bu ishning uddasidan chiqa olmadi. Xonlikda vaziyat shunday bebosh bir tus olgan ediki, go'yo amalda Xiva yo'q qilingandek bir manzara kasb etgandi. Bu manzara 1770-yilgacha hokimiyat tepasiga qo'ng'irotlar urug'ining yo'l boshchisi Amin kelgunga qadar davom etdi. U xonlikda turkmanlarning qarshiligini yengib, qattiqqo'l siyosat orqali mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatdi.

Qo'ng'irotlilar sulolasi rasmiy ravishda 1804-yildan e'tiboran boshlangan. Shu yili Muhammad Aminning nabirasi inoq Eltuzar xon unvonini qabul qiladi. Yangi xon 1806-yilda Buxoroga qarshi olib borilgan urushda halok bo'ladi. Uning o'rniga ukasi va vorisi **Muhammad Rahim (1806–1825)** xonlikning unvoniga egalik qiladi. Muhammad Rahimxon 1811-yilda orolliklarni o'ziga taslim qiladi. 1822-yilda esa Marv va undagi turkmanlar ustidan hukmronlik o'rnatadi. Xiva xonligi ayniqsa Muhammad Rahimning o'g'li **Oллоqulixon (1825–1846)** davrida o'z hududlarini ancha kengaytiradi. Xonlikning hududlari Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha cho'zilib ketgandi.

**1846–1855-yillarda xonlik qilgan Muhammad Amin** (Mada-min) va Abdullaxon (1855–1864) o'z xonlikning faoliyatlarini turkmanlarga qarshi to'xtovsiz kurashlarda o'tkazadilar va shu urushlarda halokatga uchraydilar. **Sayid Muhammad Rahimxon (Feruz) davri (1864–1910)** da Xiva xonligi Rossiya bosqinchi to'dalariga qarshi kurash olib borolmaydi va g'oyatda kuchli dushman bilan Gandimiyon – sharmandali sulh bitimiga imzo chekishga majbur bo'ladi. Xiva o'z mustaqilligini yo'qotadi va Rossiyaga qaram bir mamlakatga aylanadi. Ayniqsa Xivaning so'nggi ikki xoni **Isfandiyorxon (1910–1918)** va **Sayid Abdullaxon (1918–1920)** davrida xalq ommasini g'oyatda og'ir qismatli va nihoyatda bir-biriga qarama-qarshi onlarni o'z boshidan kechirmoqda edi. Eng muhimi ana shu ziddiyatli bu davr va zamon fojiasini tushunib yeta oladigan va unga monand yo'l tanlaydigan siyosiy va g'oyaviy yetuk xalq hali shakllanmagan edi. Bu esa o'lkaning tarixiy fojiasi edi. Bundan suronli va bo'ronli milliy-ozodlik kurashi yillarida qizil saltanat ilhomchilari – bolsheviklar foydalanib qoladilar.

#### 4. QO‘QON XONLIGI

Minglar urug‘idan bo‘lgan yirik zodagon Shohruhbiy Chodak xo‘jalari yordamida Farg‘ona vodiysida Buxoro amirligidan mustaqil bo‘lgan mavqeyini egallab, 1709-yilda Qo‘qon xonligiga asos soladi. Ayrim adabiyotlarda Qo‘qon xonligining hukmdorlari mahalliy yuqori tabaqa vakillari, ruhoniylar va mashhur Xo‘ja Ahror Valiy avlodlaridan bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Tarixchi Haydarbek Bobobekovning ta’kidlashicha barcha musulmon tarixchilari va ayrim rus mualliflari Qo‘qon xonlari sulolasini **Oltin Beshik** bilan, u orqali Bobur bilan bog‘laydilar.<sup>1</sup> Qo‘qon xonlarining nasabnomalarini Oltin Beshik rivoyati bilan bog‘liqligi Niyozmuhammadning «Tarixi Shohruhiya», Mirzo Olim Mushrifning «Ansabu savalotin va tavorixul havoqin», Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidai Toshkand», Fozilbek Otabek o‘g‘lining «Mukammali tarixi Farg‘ona», V.Nalivkinning XIX asr 80-yillari o‘rtalarida Qozonda chop etilgan «Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi» («Kratkaya istoriya Kokandskogo xanstva), Ibratning «Farg‘ona tarixi», Mulla Shamsiddin Shavqiyning «Shohnoma» dostonida, Muhammad Aminbek Xudoyorxon o‘g‘lining «Turkiston viloyatining gazetini»ning 1894-yil sonlarida o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilingan «Farg‘ona viloyati xonlarining xususidagi voqealar» nomli asarlarida, adabiyotshunos, professor Sharif Yusupovning maqolalarida<sup>2</sup> va boshqa ko‘plab manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Amir Temur va uning o‘g‘li Mironshohdan boshlangan sulola, Qo‘qon xoni Xudoyorxongacha davom etib kelgan. Sh. Yusupov shunday xulosa qiladi: «Qo‘qon xonligining so‘nggi hukmdori Sayid Muhammad Xudoyorxon sohibqiron Amir Temurning yigirma uchinchi avlodi, xonning ikkinchi o‘g‘li Sayid Muhammad Aminbek yigirma to‘rtinchi hamda Muhammad

<sup>1</sup> *Бобобеков Хайдарбек. Қўқон тарихи. Тошкент, «Фан», 1996. 20–21-бетлар.*

<sup>2</sup> *Шариф Юсупов. Буни умр дерлар... «Жамият ва бошқарув». 2002 йил, 1-сон. 18–25-бетлар.*

Aminbekning o'g'li Sayid Islombek sohibqironning yigirma beshinchi avlodi bo'lib chiqadi».<sup>1</sup>

Temurshunos, Boburshunos fransuz olimi O'zbekistonning xalqlar do'stligi ordeni bilan taqdirlangan professor Lyus'en Keren o'zining «Shahzoda Islombek» maqolasida Qo'qon xonlari temuriy Mironshohga borib taqaladi, degan g'oyani ilgari surgan. Bu ishni o'zbek olimi Sh. Yusupov davom ettirib Islombekning hayoti, taqdiri haqida tadqiqot ishi olib bormoqda. Xonlikda tojiklar va qirg'izlar ham katta mavqeyiga ega edilar. Xon qo'shinlarida ular katta kuch bo'lganlar. 92 o'zbek



**Said Islombek**

qabilalaridan biri deb o'zlarini hisoblovchi qipchoqlarning o'rnini ham Qo'qon<sup>2</sup> xonligida ancha katta bo'lgan. Ular xonlikning Shahrixon, Baliqchi hududlari, Qoradaryo bilan Norin daryosi oralig'idagi yerlarda yashaganlar. Qirg'izlar esa asosan Farg'ona atrofidagi tog'larda va Ketmontepa, Oloy singari tog' havzalarida ko'chib yurib chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Xiva xonligi va Buxoro amirligidagi singari Qo'qon xonligida ham davlatni boshqarishda ruhoniylarning o'rnini va ta'siri katta bo'lgan. Jumladan, ruhoniy Hazrati Sohib, naqshbandiylar jamoasining xalifasi sifatida 1844–1869-yillar mobaynida amalda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ayrim masalalarni hal qilishda asosiy rol o'ynagan. Hatto Xudoyorxonning o'zi ham u vafot etgach dafn marosimida oldingi safda borgan. Xo'ja Kalon 1852–1863-yillarda Andijonda hokim lavozimini ado etadi. Odatda

<sup>1</sup> O'sha manba, 20-bet.

<sup>2</sup> «Ho'qond» shahrining kelib chiqishi. «Ho'r-qand»so'zlaridan tuzilgan bo'lib, uning qurilishi 1709 -yilgi voqeaga bag'ishlangan. Vaholanki, «Ho'qond» shahri X asrda shu nom bilan mashhur bo'lgan. Ma'nosi esa «yaxshi», «latif» so'zlariga to'g'ri keladi. *Хайдарбек Бобобеков. Қўқон тарихи. Тошкент, «Фан», 1996. 268-бет.*

xonlikda adolat yuritish ishlarida ruhoniylar vakillari qozilar bo'lib xizmat qilardilar.

Qo'qon xonligida yuqori hukmron tabaqaning ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo'lishligi turli guruhlar o'rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat talash kurashining asosiy sababidir. Xonlikda hukmronlik qilgan xonlardan ko'pi saroy to'ntarilishi oqibatida o'ldirilganlar, o'nlab shahzodalar, amaldor va sarkardalar saroy to'ntarishining qurboni bo'lib qatil etilganlar. Bunday qarama-qarshi turishliklar va o'zaro kurashlar Qo'qon xonligini oxir-oqibatda inqirozga uchrab, chor Rossiyasi mustamlakasiga aylanishiga sabab bo'lgan bosh omillardandir.

Qo'qon xonligi Shohruhbiyning o'g'li **Muhammad Abdu Rahimbiy** hukmronligi (1721–1733) davrida o'z hududlarini kengaytira bordi. U Xo'jand, Andijon, Samarqand, Jizzax va boshqa yerlarni egallab oldi. Shohruhbiyning ikkinchi o'g'li **Abdulkarimbiy** (1733–1750) davrida tarixchi Abdulkarim Buxoriyning yozganiga ko'ra xonlikning hududidagi Qo'qon, Andijon, Namangan va Marg'ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etadi. U Markaziy davlatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlar o'zboshimchaligiga chek qo'yishga qaratilgan siyosat olib boradi. Shundan keyin to 1770-yilga qadar navbat bilan Abdurahmon, Erdonaxon, Bobobek, va Sulaymonbek Qo'qon xonligi taxtini boshqaradilar. Faqat **Norbo'tabiy** (1762–1798) yurgizgan qattiqqo'l siyosat tufayli ma'lum darajada bek va biylarning o'zboshimchaligiga chek qo'yiladi. Chust, Namangan va Xo'jand beklari qarshiligi qattiqqo'llik bilan bostiriladi. Norbo'tabek davrida ko'pgina tarixchilar o'zlarining qo'lyozma asarlarida xalq farovon yashaganligi, narxnavo arzon bo'lganligini ta'kidlaydilar. Biroq Norbo'tabiy vafot etgach zodagonlarning hokimiyat va davlat talash kurashlari yangi kuch bilan avj oladi. Qo'qon taxtini egallagan uning o'g'li **Olimxon** (1798–1810) o'zboshimcha beklarga nisbatan qattiqqo'l siyosat yurgizish va ularning qarshiligini kuch bilan bostirishga majbur bo'ladi. Olimxon Qo'qon xonlari orasida birinchi bo'lib, xonlikning unvonini qabul qiladi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ladi. U harbiy islohotlar o'tkazdi va o'z davlatining qudratini oshiradi.



### Qo'qon xonligi

**Qo'qon va Toshkent munosabatlari.** Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan. XVIII asrning uchinchi choragida Toshkentda mustaqil davlat yuzaga kelib, u bilan Qo'qon o'rtasida to'qnashuvlar yuz beradi. Shu munosabat bilan Toshkentning ahvoriga to'xtalish zaruriyati tug'iladi. XVIII asrning 80-yillarida bu shaharda hokimiyat uchun kurashlarning fojiali oqibatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Qonli urushlardan va notinchlikdan nihoyatda toliqqan xalq kuchli hokimiyatga juda muhtoj bo'lib qolgan edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt dahaga: Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzorga bo'lingan bo'lib, har bir dahi o'zicha mustaqil davlat edi. 1784-yilda shahar aholisining yordamiga tayanib Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga oladi va Toshkentni mustaqil davlat deb e'lon qiladi. Yunusxo'ja hokimiyatni qo'lga olgach shahar mudofaa istehkomlarini mustahkamlash masalasiga asosiy diqqat-e'tiborni qaratadi. 1800-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Toshkent yirik shahar bo'lgan, devor quyi qismining qalinligi 1,8 metr, ustki qismi 0,9 metr atrofida bo'lib, aylanma uzunligi 18 chaqirimdan ortiq, shahar devorining balandligi esa, 7,9 metrga teng bo'lgan. Shaharning 12 ta darvozasi bo'lgan. Ularning 12 ta oltin kaliti bo'lib, hozir

milliy bankda saqlanmoqda. Shaharda o'sha paytda 10 mingta xonadon, 80 ming aholi yashagan.

Yunusxo'ja tarixiy yozma manbalarga qaraganda 6 ming kishilik qo'shin tuzgan. Uning askarlari asosan pilta miltiq, qilich, nayza, qalqon va to'plar bilan qurollangan edilar. Qo'shin tarkibi asosan turli shaharlardan kelgan musofirlar va asirlardan iborat bo'lib, «qoraqazon» deb atalgan.

Yunusxo'ja davlatni boshqarishni ham tartibga soladi. U yakkahokim tarzida ish yuritadi. Rus tog' muhandislari (aslida Rossiyaning O'rta Osiyodagi ayg'oqchilari) A.S.Beznosikov va T.S.Burnashevlarning qaydnomalarida quyidagilarni o'qiyimiz: «Toshkent hukmdori (Yunusxo'ja) o'z fuqarolari ustidan cheksiz hokimiyatga ega. Ammo u o'z atrofidagi eng yaxshi amaldorlar bilan maslahatlashgan holda hokimiyatni boshqaradi. Bu kengashda Yunusxo'jaga eng sodiq va ishonchli xo'jalar qatnashadi. Shaharni Bosh xo'ja mansabidagi amaldorlar boshqarib, u tartib-intizom va obodonchilikka doir masalalar bilan shug'ullanadi. Bosh xo'ja aybdorlarni jazolash huquqiga ega. Ammo kimki uning hukmidan norozi bo'lsa, bevosita Yunusxo'jaga murojaat qila oladi. Bosh xo'ja aholiga Yunusxo'janing ko'rsatmasi asosida soliqlar soladi. U hukmdor yo'qligida viloyatni boshqarish huquqiga egadir». Hukumat amaldorlariga maosh berilmagan. Bosh xo'ja Yunusxo'jadan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Ular faoliyati Yunusxo'ja nazorati ostida bo'lgan. Toshkent hokimligining tartibiga ko'ra har bir jondan bir oyda daromadiga qarab 5 tangadan 10 tangagacha, yerdan olinadigan hosilning 40 dan bir qismi undirib olingan. Qoraqazonlar har qanday soliqlardan ozod qilinganlar.

Yunusxo'ja hukmronligi davrida Toshkentda hayot ilgarrigiga qaraganda nisbatan yaxshilangan, dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq izga tushgan. Bu davrga kelib Toshkent Qo'qon, Buxoro, Xo'jand, Chimkent, Turkiston, Samarqand, Andijon va boshqa Turonzamin shaharlari, Hindiston, Xitoy, Qashqar, Tibet, Rossiya va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlar bilan tijorat-savdo aloqalari o'rnatgan.

Yunusxo'ja Toshkent davlati hududlarini ancha kengaytiradi. U 1794-yilda Chimkent va Sayramni 1799-yilda esa Turkistonni bosib oladi. 1800-yilda Yunusxo'ja Chirchiq daryosining chap



qirg'og'ini va Qurama mavzeyini egallaydi. Ayni paytda Parkent, Namdanog', Adanaq To'ytepa, Qoraucha, Ohangaron daryosi qirg'og'idagi Matin va Qahronqal'a, Chordara, Niyozbek Durmancha va Turbat kabi hududlar ham Toshkent hokimligi tarkibida bo'lgan.

90-yillarning o'rtalariga kelib toshkentliklarning savdo-hunarmandchilik faoliyati yuksalib, ular Petropavlovsk, Ust-Kamenogorsk va Sibirning boshqa yerlarida yetakchilik mavqeyiga erishadilar. Ish shu darajaga borib yetadiki, Sibir va Rossiyaning boshqa chekka o'lkalarida rus savdogarlarining o'rni bilinmay qoladi. Ular savdo karvonlarining qaroqchilar tomonidan yo'llarda talanishini hisobga olib, Turkiston va Qashqarga juda kamdan-kam kelganlar. Shu boisdan rus hukumati bu yurtlarda savdoni olib borishda, asosan toshkentlik tijoratchilardan vositachi sifatida foydalanganlar, ularga imtiyozlar berib Sibirda doimiy yashashlari uchun sharoitlar yaratib berganlar. Natijada Sibirda toshkentliklarning qator mahallalari vujudga kelgan.

Yunusxo'ja Rossiyada tog' sanoati yaxshi rivojlanganligini yaxshi bilardi. Shu bois u Rossiya yordamida Toshkentda tabiiy boyliklardan foydalanishga qattiq kirishdi. Yunusxo'janing bundan ko'zlagan bosh maqsadi qo'shinni zamonaviy qurol bilan qurollantirish va davlat xazinasini mustahkamlashdan iborat edi. Toshkent hokimining 1794-yilda savdo karvoni orqali Sibir yo'nalishi mahalliy hokimiyatiga maxsus xat bilan murojaat qilib, o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish va tog' konlari bo'yicha mutaxassislarini Toshkentga yuborishni so'ragan.

Omskka yetib kelgan toshkentlik vakillar rus ma'muriyatiga Yunusxo'janing og'zaki so'rovini ham yetkazadilar. Unda Toshkent atrofida oltin koni topilgani va tog' koni bo'yicha yaxshi mutaxassis yuborish bayon etilgandi. Rus hukumati Yunusxo'janing xatiga javob yozishni Sibir yo'nalishi boshlig'i general-mayor Shtardmandga topshiradi. U esa o'z navbatida Toshkentga A.S.Beznosikov va tog' koni bo'yicha muhandis T.S.Burnashev boshchiligida elchilarni yuborishga qaror qiladi. Elchilar Omskdan Troitsk qal'asiga keladilar. Bu yerda ularga 80 tuyadan iborat tatar savdogarlarining karvoni qo'shiladi. Karvon 1795-yilning 25-yanvarida Buxoroga yetib keladi. Chunki karvonga Toshkentga Buxoro orqali borish buyurilgan



edi. Rus elchilari bilan dastlabki suhbatni Buxoro amirining ko'rsatmasiga asosan to'pchiboshi va yasovullar olib boradilar. Rus elchilari general-gubernator Shtardmand tomonidan Buxoro amiri Shohmurodxonga, Toshkent hokimi Yunusxo'jaga, Xo'jand begi Xudoyorbekka va Turkiston shahri atrofidagi qozoq sultoni Bo'kayga xat bilan murojaat qilinganini aytadilar. Bu xabardan so'ng rus elchilariga nisbatan amir saroyida munosabat og'ir kechdi. Chunki amirlikning hukmron doiralari Sibir yo'nalishi boshlig'i Shtardmand nomidan Buxoro amirligiga yuborilgan xatni mensimaslik ma'nosida qabul qilinadi. Odatda rus elchilari rus imperatori nomidan maxsus yorliq bilan kelar edilar. Rus elchilarini Buxoro amiri qabul qilmaydi, ularni qushbegi qabul qiladi. Rus elchilariga Toshkentga borishga ruxsat etilmaydi, sabab tariqasida olis yo'lda rus elchilarining hayoti xavf ostida qolishi mumkinligi qayd etiladi. Rus elchilarining kelganligi haqidagi xabarni savdogarlar orqali eshitgan Yunusxo'ja maxsus odamdan xat jo'natib rus savdo karvonini o'tkazib yuborishni so'raydi. Ammo elchilarga ruxsat berilmaydi, ular Orenburg orqali qaytib ketadilar.

Sibir general-gubernatori Shtardmand 1796-yilda ikkinchi marta Toshkentga rus elchilari D.Telyatnikov va A.S.Beznosikovni jo'natadi. Ular O'rta Juz qozoq yerlari bo'ylab 27-avgustda Toshkentga yetib keladilar. Elchilar Toshkentda yaxshi kutib olinadilar. Biroq ular 1797-yilning 1-iyunida Yunusxo'janing Mullajon Oxun va mingboshi Ashirmat Botir singari elchilari bilan birga o'z vatanlariga qaytadilar. Rus elchilari Toshkent atrofidagi tog'larda oltin topa olmaganlari, lekin temir jinslari borligini, texnikaning yo'qligi tufayli ularni ishga solinmaganligini qayd etadilar.

Toshkentlik elchilar Omskka kelgach, Shtardmandga Petrogradga borish, shaxsan rus imperatori bilan uchrashajaklarini ma'lum qiladilar. Shtardmand rus hukumatidan bunga ruxsat olgach Yunusxo'ja elchilari Omsk Yekaterinburg, Perm, Qozon, Moskva orqali Peterburgga borishadi va Toshkent hokimining nomasini imperatorga taqdim etadilar. Maktubda Yunusxo'ja rus elchilari Toshkentda o'z vazifalarini bajargani va o'zining javob elchilarini yuborganligini ma'lum qiladi. Yunusxo'ja rus imperatoridan tog' konlari bo'yisha bilimdon

mutaxassislar yuborishni iltimos qiladi. Toshkentlik elchilar Yunusxo'ja topshirig'iga binoan rus hukumati vakillari bilan savdo-sotiq masalalari va siyosiy sohaga oid ba'zi bir muammolar to'g'risida ham muzokaralar olib borganlar.

Tarixiy yozma manbalarning xabar berishicha Yunusxo'janing iltimosiga muvofiq Rossiya hukumati M.Pospyelov va T.Burnashev singari tog' konlari injenerlarini Toshkentga yuborgan va ular bu yerda bir qator qidiruv ishlarini olib borganlar, ammo oltin yoki boshqa qimmatbaho jinslar topa olmaganlar.

Toshkent hokimi Yunusxo'ja nima sababdan ushbu masalada Rossiya hukumatiga yordam so'rab murojaat qiladi?, degan qonuniy savol tug'iladi. Tog' konlarini ishga solish harakati Yunusxo'ja boshliq mustaqil Toshkent davlatining Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligining' ya'ni ikki o't orasiga tushib qolganligi bilan izohlanadi. Toshkent masalasida Qo'qon va Buxoro o'zaro raqobatlashayotgan edi. Buni yaxshi tushungan Yunusxo'ja o'z qo'shinini qurol-yarog' bilan ta'minlash va mustahkamlashni asosiy vazifa deb biladi. Buning uchun metallga bo'lgan ehtiyojni sezgan Toshkent hokimi o'z tog'-kon sanoatini yo'lga qo'yishni rejalagan edi. Ammo bu reja amalga oshmadi. Masalaning salbiy tomoni shundaki, Toshkent hokimi janubdagi o'ziga yon qo'shni va qardosh davlatlar Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi xavfidan shubhalandi-yu, shimoldagi yanada dahshatliroq ajdar komiga yem bo'lish havfiga yetarli darajada baho bera olmadi. Natijada elchi-muhandis qiyofasida Toshkentga tashrif buyurgan ayg'oqchilar Toshkent va uning atrof-joylari to'g'risida g'oyatda zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritdilar. Bu ma'lumotlar o'lkamiz taqdiri uchun g'oyatda achinarli oqibatlar keltirgani ma'lum.

Yunusxo'janing tashqi siyosatida Qo'qon xonligi alohida o'rin egallaydi. XVIII asrning 80-yillarida Qo'qon xoni Norbo'tabiy o'z davlati hududlarini kengaytira borib, Xo'jand, O'ratepa va Jizzaxni o'ziga qaratish uchun urush harakatlarini olib boradi. Albatta Toshkent Qo'qonga qarshi kuchlar tomonida bo'ladi. Natijada 1794-yilda Qo'qon xoni Norbo'tabiy Toshkentni bosib olish niyatida urush harakatlarini boshlab yuboradi. Biroq Chirchiq daryosi bo'yidagi jangda Yunusxo'ja qo'shinlari unga qaqshatqich zarba beradilar. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi

yerlar Toshkentga qo‘shib olinadi. 1799-yilda Qo‘qon qo‘shinlari Toshkentga yana hujum uyushtiradi va Chirchiq daryosidan o‘tadi. Qorasuv arig‘i bo‘yida har ikkala tomon o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi. Bu jangda Yunusxo‘ja yana o‘zraqibini mag‘lubiyatga uchratadi va Qo‘qon lashkarboshisi Xonxo‘jani, 70 nafar nufuzli harbiylar va askarlarni asir qilib oladi.

Yunusxo‘ja Qo‘qon xonligi ustidan ikki marta g‘alaba qozonganligiga mahliyo bo‘lib, endi uning o‘zi harbiy tashabbus ko‘rsatib Qo‘qonga qarshi yurish qilishga zo‘r tayyorgarlikni boshlab yuboradi.

Bu paytda Qo‘qon taxtiga Norbo‘tabiyning o‘g‘li Olimxon kelgan edi. U O‘ratepa, Jizzax va Xo‘jandni Buxoro amirligidan tortib olib xonlikning hududlarini ancha kengaytirgan edi. Shu boisdan mahalliy ulamolar Yunusxo‘jaga Qo‘qonga qarshi harakat qilmaslikni maslahat berdilar. Ammo Yunusxo‘jaga bu maslahat kor qilmaydi. U 1800-yilda 7–8 ming kishilik qo‘shin bilan yo‘lga chiqadi va Qo‘qonga yaqin bo‘lgan «Pungon» degan joyga keladi. Bundan xabar topgan Qo‘qon xoni Olimxon Yunusxo‘jaga nopisandlik bildirib «o‘zidan past kishi bilan teng kelish»ni orib unga qarshi («G‘urum») «Haramsaroy» mavzeyining hokimi So‘fi Alixo‘ja Mirasad boshchiligida qo‘shin jo‘natadi. Bu jangda Yunusxo‘ja askarlari talofotga uchrab yengiladi. Qo‘qonliklar Yunusxo‘ja kuchlarini quvlab Toshkent davlat hududiga qarashli «Kryauchi» qal‘asini egallaydilar. Shundan so‘ng Qurama mavzeyi Qo‘qon xonligi qo‘li ostiga o‘tadi.

Yunusxo‘ja biroz vaqt o‘tgach dardga chalinib vafot etadi. Uning o‘rniga Sultonxo‘ja taxtga o‘tiradi. Yunusxo‘ja vafotidan xabar topgan Olimxon ukasi Umarxon boshchiligida Toshkentga qo‘shin jo‘natadi. Toshkent va uning atrofidagi yerlar 1805-yilda Qo‘qon xonligi tomonidan bosib olinadi. 1809-yilga qadar Chimkent, Sayram, Turkiston hududlari ham harbiy kuch vositasi bilan Qo‘qon xonligiga qo‘shib olinadi. Olimxonning markazlashgan davlatni barpo etish yo‘lidagi qattiqqo‘l siyosati ba‘zi bir bek va biylarning noroziliklariga sabab bo‘ladi. Ular xonga qarshi fitna uyushtiradilar. Olimxon o‘ldi deb mish-mish tarqatishdi va ukasi Umarxonni Qo‘qon xoni deb e‘lon qilishadi. Olimxon bundan xabar topib Qo‘qonga shoshiladi. Ammo yo‘lda otib o‘ldiriladi.

Toshkentning qo'lg'a kiritilishi Qo'qon xonligining kuch-qudratini va salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Chunki u mintaqaning eng yirik shahari edi. Undan boshlab taxt egalari odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ladi. Ayrim mahalliy manbalarga ko'ra, Olimxon nihoyatda qattiqqo'l va shafqatsiz kishi hisoblangan. «Bu Olimxonning laqabi, – deyiladi manbada, – Zolimxon edi. U o'z amakisi Hojibekni qatl qilib ko'p zulmlar chiqargan ediki, buni g'azabindan va zulmindan Zolimxon ismi mashhur edi..».<sup>1</sup>

**Umarxon xonlik qilgan davr (1810–1822)** da Qo'qon xonligi hududlari yanada kengaytiriladi. Turkiston shahri va qozoq dashtlarining kattagina qismini egallab oldi. Toshkent, Buxoro va Xivadan Orenburgga boradigan karvon yo'llari tutashgan joyda Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda), Cho'loq va So'zak qal'alari quriladi. Umarxon 1817-yilda O'ratepani egallaydi. 1818-yili u «Amir al-muslimin» unvonini oladi.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida bir qator ijobiy va foydali ishlar amalga oshiriladi. Davlat ishlari tartibga solinadi. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo bir qadar rivojlanadi. Umarxon fan, maorif va madaniyatga katta e'tibor beradi. Uning o'zi shoirlik qobiliyatiga ega edi. Shul bois xonlikning saroyida ijod ahlining yetuk namoyondalari makon topgan edilar. Xalq maorifi ham ancha taraqqiy etadi. Bir qancha madrasa va maktablar, shu jumladan, qiz bolalar uchun alohida maktablar ochiladi.

Bunday oliyjanob ishlarni amalga oshirishda Umarxonning umr yo'ldoshi, o'z davrining oqila va dono mutafakkiri, ijodkor shoira Komila – Mohlaroyimning ta'siri va xizmati beqiyos kattadir. U o'zbek adabiyotida Nodira taxallusi bilan nom chiqargan.

Umuman, Umarxon hukmdorligi vaqti qo'qonliklarning eng kuchaygan davri bo'ldi. Bunday hol uning o'g'li Madalixon davrida ham ko'zga tashlanadi.

**Qo'qon–Buxoro munosabatlari.** Umarxon vafot etgach, taxtga uning 12 yashar o'g'li **Muhammad Alixon (Madali) (1822–1842)** o'tiradi. Muhammad Alixon davrida dahshatli bosqinchilik

<sup>1</sup> *Ибрат.* «Фарфона тарихи». Мерос. Т., «Камалак», 1991 йил, 287-бет.

urushlari davom etadi. 1834-yilda Qo‘qon askarlari Qorategin, Ko‘lob va Darvozni egallaydilar. 1826–1829-yillarda Qashg‘arga qarshi bir necha bor yurishlar uyushtiriladi. Qo‘qon – Buxoro munosabatlari keskinlashib, dushmanlik kuchayadi. Xonlikning dushmanlari, ya‘ni ayrim mahalliy bek va ruhoniylar oshkora bosh ko‘tarib chiqishga botina olmay, yordam so‘rab Buxoro amiri Nasrulloxonga murojaat etadilar. Ular Muhammad Alixonni o‘z o‘gay onasiga uylangan, kofir deb e‘lon qiladilar. 1840-yilda Qo‘qon bilan Buxoro o‘rtasidagi urush Muhammad Alixonning mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Qo‘qon xoni o‘zini Buxoro amiriga tobe deb tan olishga, Xo‘jand shahrini Buxoroga topshirishga majbur bo‘ladi. U ukasi Sul-ton Mahmud foydasiga 1842-yili taxtdan voz kechadi. 1842-yil amir Nasrulloxon yana Qo‘qon ustiga lashkar tortib keladi. U shaharni egallab yondiradi, xalqni talaydi. Atoqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o‘zining «Mehrobdan chayon» romanida Nasrulloning islom shariatini himoya qilish bahonasida Qo‘qon xonligiga vahshiylarcha yurish qilib, shahar va qishloqlarni yondirib, xonavayron qilgani va ming-minglab begunoh oddiy odamlarning qonlarini to‘kkanligini juda ko‘plab dalillar asosida va badiiy bo‘yoqlarda yoritadi. (Nasrullo xon o‘rdasiga kirib, aka-uka Muhammad Ali va Sul-ton Mahmudxonni so‘ydiradi. Har ikkala tomondan ko‘plab odam qiriladi. Shular qatorida Muhammad Alining onasi, mashhur o‘zbek shoirasi Mohlaroyim (Nodirabegim), uning eng yaqinlari Xushxolbibi, Norbibi va boshqalar ham o‘ldiriladi. Nasrulloxon Qo‘qon xonligini Buxoro amirligiga qo‘shib olinganligini e‘lon qiladi. Qo‘qonga Ibrohim dodxohni noiblikka va boshqa shaharlarga o‘ziga sodiq beklarni tayinlab Nasrulloxon Buxoroga qaytib ketadi. Ammo oradan uch oy o‘tgach 1842-yilning yozida Qo‘qonda Ibrohim dodxohga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tariladi va Nasrulloxon hokimiyati ag‘darib tashlanadi. Qo‘zg‘olonda asosiy rol o‘ynagan qipchoqlar Qo‘qon xonligida yetakchi mavqeyiga chiqib oladilar. Norbo‘tabiyning ukasi **Sherali (1842–1844)** xon qilib ko‘tariladi, Ibrohim Dodhoh Xo‘jandga qochib ketadi. Xonlikning taxtiga Sherali o‘tirgan bo‘lsa-da, lekin amalda barcha davlat ishlarini Mingboshi etib tayinlangan qipchoq qabilalarining boshlig‘i Musulmonqul olib borardi. Qo‘shin ham uning ixtiyorida edi. Chunki qo‘shin garnizoni asosan qipchoqlardan tuzilgandi. Eng

mas'uliyatli lavozimlarga qipchoq beklari tayinlangan edilar. Amir Nasrulloxon o'z mavqeyini tiklash maqsadida 1842-yilda Qo'qonga yana qo'shin tortib keladi va shaharni 40 kun qamal qiladi. Biroq Xiva xoni Olloqulixon Buxoroga hujum qilganligi to'g'risida xabar yetib kelgach, Nasrulloxon qaytib ketishga majbur bo'ladi. Xo'jand va Toshkent yana Qo'qon xonligiga o'tadi. Qo'qon xonligi o'zining Umarxon davridagi chegaralarini tiklashga muvaffaq bo'ladi.

Sheralixon davrida xalqni ezish kuchayadi, buning ustiga qipchoqlar muhim lavozimlarni egallab olib o'zbek, qirg'iz, tojiklar ustidan o'z hukmronligini o'tkazmoqchi bo'ladilar. Shu sabab xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilik kuchaya boradi. Buni Sheralixon ham tushunadi va Musulmonquldan qutulish yo'lini izlay boshlaydi. Bundan xabardor bo'lgan Musulmonqul nayrang ishlatishni rejalashtiradi. U qipchoq boshliqlarini maxfiy yig'inga chaqirib, Sheralixon o'rniga yangi xon qo'yishni taklif etadi. Shu bilan bir qatorda qipchoqlarga va shaxsan Musulmonqulga qarshi bo'lganlarni ham yo'q qilishni rejalashtirishadi. Buni amalga oshirish uchun juda qulay vaziyat mavjud edi.

Soliqlar haddan tashqari oshib ketishidan norozi bo'lgan o'shliklar qo'zg'olon ko'taradilar. Bu vaziyatdan foydalanmoqchi bo'lgan Musulmonqul Qo'qondagi mavjud qo'shin bilan O'shga borib qo'zg'olonni bostirmoqchi bo'ladi. Uning yo'qlik vaqtida Isfara hokimi Samarqandga borib marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li Murodxonni Qo'qonga olib kelib taxtga o'tkazishlari lozim edi. Yangi xon taxtga o'tirgandan so'ng qipchoqlarga qarshi bo'lganlar shubhasiz Murodxonni qo'llab-quvvatlashlari lozim edi. Musulmonqul esa qo'shinlar bilan kelib Qo'qonni «ozod» qilib, «fitnachi»larni jazolashi lozim edi.

Rejaga muvofiq Musulmonqul Qo'qon qo'shinlari bilan qo'zg'olonni bostirgani O'shga ketadi. Isfara hokimi Sotiboldibek esa Samarqandga jo'naydi. Ammo, Musulmonqulning rejasini bilmagan Shahrixon hokimi o'zining qo'shinlari bilan O'shga borib qo'zg'olonni bostiradi. Musulmonqul, bu xabarni olgach, orqaga qaytmaydi va O'shga kelib yana ko'plab odamlarni qiradi. Shu payt Murodxon Qo'qonga keladi. Sheralixon vaziyatni tushunib Murodxonni o'zi taxtga o'tkazdiradi va uni ko'pchilik oldida tabriklaydi. Ko'plab zodagonlar yangi xonni tabriklash

uchun salomga keladi. Murodxonning buyrug'i bilan kechasi Sheralixon o'ldiriladi. So'ngra Musulmonqul o'z lavozimida qolganligi haqida farmon chiqarilib O'shga yuboriladi. Musulmonqul «mamnunlik» bilan farmonni qabul qiladi va Qo'qon tomonga qarab salom beradi. Qo'shinlari bilan Namanganga kelib o'zining 12 yashar qizini Sheralixonning o'g'li Xudoyorga nikoh qilib beradi. So'ngra Qo'qonga kelib Murodxonni va unga salom bergani kelganlarni fitnachilar sifatida qatl etadi. Shunday qilib Musulmonqul Sheralixonidan va o'zining raqiblarning ko'pchiligidan qutuladi. Yosh Xudoyorni Qo'qon xoni deb e'lon qiladi. Xon yosh bo'lganligi tufayli xonlikni boshqarishni Musulmonqul o'z qo'liga oladi. Xonlikda qipchoqlar hukmronlik davri boshlanadi.

Qipchoqlarga, ayniqsa, Musulmonqulga nisbatan norozilik kuchaya boradi. Vaziyatni yumshatish uchun qipchoqlarning boshliqlari Musulmonqulni mingboshilik lavozimidan bo'shatadilar.

Shu davrda Rossiya qo'shinlari Qo'qon xonligining shimolida joylashgan Oqmachit qal'asini bosib olgan edilar. Musulmonqul rus qo'mondonining rasmiy vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Musulmonqulning raqiblari bundan xabardor bo'lib, u fitna uyushtirishga tayyorgarlik ko'rishda gumonsiralib, ulg'ayib qolgan Xudoyorxon bilan kelishilgan holda 1853-yili qipchoqlar qirg'inini uyushtirishadi. Natijada 20 ming qipchoq qirib yuboriladi, Musulmonqul dorga osiladi.

Ana shu davrdan e'tiboran Xudoyorxon o'zi mustaqil davlatni boshqara boshladi. Uning davrida zulm-zo'ra vonlik kuchayadi. Xudoyorxon Qo'qon taxtiga oraliq tanaffus bilan uch marta o'tiradi. Birinchi marta 1845-yildan 1858-yilgacha bo'lib, 1853-yilgacha taxtni asosan Musulmonqul boshqaradi, Xudoyorxon esa uning qo'lida qo'g'irchoq edi. Biroq Xudoyorxon ham Qo'qon taxtida uzoq qola olmadi. Xalq ommasining noroziligidan foydalangan Xudoyorxonning akasi Mallaxon ukasiga qarshi isyon ko'taradi va 1858-yilda Qo'qon taxtni egallaydi. Xudoyorxon Buxoroga qochib ketadi. Mallaxonni qipchoqlar, qirg'izlar qo'llab-quvvatladilar va yana hokimiyat tepasiga keladilar. **Mallaxon** o'z hukmronligi davrida (1858–1862) Qorateginni o'ziga tobe qilib oladi. Bu davrda Buxoro amiri Qo'qon xonligi-



ning Xo'jandgacha bo'lgan hududlarini egallab olgan edi. Endi u Qo'qondagi ichki o'zaro nizolardan foydalanib Qorateginni qo'lga kiritish maqsadida bu yerga Xudoyorxon boshchiligida qo'shin yuboradi. Mallaxon vaziyatning og'ir ekanligini tushunib Marg'ilon hokimi Qanoatshoh rahbarligida Qorateginga qo'shin jo'natadi. Qorategin hokimi Muzaffarxon (tojik) va Xudoyorxon tor-mor qilinadi.

1860-yilda Mallaxon chor askarlariga qarshi himoyalaniq maqsadida Toshkentga keladi. Bu yerdan u Rustambek va Nurmuhammad boshchiligida qo'shin tuzib ruslarga qarshi yuboradi. Ular ruslarning kichik bir otryadi bilan jang qilib, bir necha asirlarni olib orqaga qaytadilar. Shundan so'ng rus qo'shinlari To'qmoq va Pishpakka hujum qiladilar, bu joylarni vayron qilib xalqni talaydilar. Mallaxon yana qo'shin to'plab himoya choralarni ko'rishga majbur bo'ladi. Bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Mulla Niyoz Muhammadning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Andijon hokimi Olimbek dodxoh va yo'lda unga qo'shilgan Toshkent hokimi Qanoatshoh rahbarligida 19 ming kishilik Qo'qon qo'shinlari yo'lga chiqdilar. Ular Olmaota, To'qmoq va Ashtakni egallab ilgari intilayotgan rus qo'shinlarining harakatini to'xtatishlari kerak edi. Qo'qon qo'shinlari rus askarlarini o'rab oldilar. Shu paytda qo'shinga qo'mondonlik masalasida Qanoatshoh bilan Olimbek o'rtasida kelishmovchilik chiqadi. Olimbek sotqinlarcha orqaga chekinaadi. Qozoqlar ham jang maydonini tashlab chiqdilar. Jang davom etadi. Qanoatshoh Pishpek qal'asini egallaydi. U Olmaota, Ashtak hududlarida yashovchi aholining bir qismini Pishpek, Marka, Avliyoota tumanlariga ko'chiradi va qolgan kuchlarni orqaga qaytaradi. O'zi esa Pishpekni himoya qilish maqsadida bu yerda qoladi.<sup>1</sup> Mulla Niyoz Muhammadning hikoya qilishicha Qanoatshoh ruslarga qarshi kurash choralarni kuchaytirish o'rniga qozoqlarni talash bilan ovora bo'ladi. Qozoqlarning qabila boshliqlaridan biri Tursunboy sovg'a-salomlar bilan Qanoatshoh oldiga kelib: biz, musulmonlar sizning zulmingiz va siquvingiz tufayli kofir-ruslarga qo'shildik degan.

<sup>1</sup> *Набиев Р.Н.* «Из истории Кокандского ханства». Т., «Фан», 1973. 58 стр.

Mallaxon ham Qo‘qon taxtida uzoq qola olmadi. U 1862-yilda uyushtirilgan saroy to‘ntarishi oqibatida hokimiyatdan mahrum bo‘ladi va boshi tanasidan judo qilinadi. Taxtga Sarimsoqbekning o‘g‘li, Sheralixonning nabirasi **Shohmurod o‘tiradi**. Bu hodisa Qo‘qon xonligida va uning tashqarisida ziddiyatli vaziyatning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Toshkent hokimi Qanoatshoh Mallaxonning qotili hisoblab Shohmurodga qarshi chiqadi va Xudoyorxonni taxtga taklif qiladi. Qo‘qon xonligining dushmanlaridan biri, Sangzor qal‘asini egallab turgan sobiq O‘ratepa hokimi Abdulg‘afforbek Buxoro amirligi nomidan Yom, Zomin, O‘ratepani egallaydi. Bu voqealardan ustalik bilan foydalangan Xudoyorxon tez orada amir Muzaffar yordamida deyarlik jangsiz dastlab Xo‘jandni, so‘ngra Qo‘qonni egallaydi va 1862–1863-yillarda xonlik qiladi. Ammo Farg‘ona vodiysining sharqiy hududlarida o‘zining to‘la hukmronligini o‘rnata olmaydi. Mullo Alimqul boshchiligida qipchoqlar 1863-yilda Xudoyorxon va amir Muzaffar qo‘shinlarini Qo‘qonni qoldirib Buxoroga ketishga majbur qiladilar. 1863-yil iyuldan 1865-yil iyulgacha taxt vorisligini Mallaxonning o‘g‘li Sulton Saidxon suradi. Bu davrda hokimiyatni amalda Mulla Alimqul boshqaradi. Buning natijasida Qo‘qon xonligida qipchoqlarning ta‘sir kuchi tag‘in ham ortadi. Yuqori martabali lavozimlardan o‘zbeklar chetlashtirilib, ularning o‘rniga qipchoq va qirg‘izlar qo‘yiladi.

1865-yilda Toshkent uchun Rossiya qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Mulla Alimqul qahramonlarcha halok bo‘ladi. Sarkardasiz qolgan Qo‘qon qo‘shini chekinishga majbur bo‘ladi, bir qismi esa Toshkent shahriga kirib berkinadi. Rus qo‘shinlari qattiq janglardan so‘ng Toshkentni bosib olishga erishadi. Amir Muzaffar yordamida Xudoyorxon uchinchi marta hokimiyat tepasiga keladi va u 1865–1875-yillarda, to ruslar Qo‘qon xonligini batamom bosib olgunga qadar hukmronlik qiladi.

Shunday qilib «**Tarixi jahonnomai**» muallifining yozganlariga ko‘ra, Qo‘qon xonligida so‘nggi 27 yil mobaynida bo‘lgan voqealar amirlar, xonlar, sultonlar, beklar va hokimlar o‘rtasidagi o‘zaro mantiqsiz urushlar va kurashlar xalqni xonavayron qiladi, xonlikning inqiroz va uzlat uzra yuz tutishiga sabab bo‘ldi. Bundan dushmanlar, Rossiya bosqinchilari foydalandilar va Qo‘qon xon-

ligini o'z mustamlakalariga aylantirib, xalq ommasi boshi uzra istibdod va zulmni kuchaytiradilar.

Atoqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining «O'tkan kunlar» romanida Qo'qon xonligining so'nggi yillaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarini badiiy ravishda quyidagicha tasvirlaydi:» – Maqsadlari juda ochiq!» – deydi hoji. Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga minmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi... Ittifoqni nima ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyati yo'lida, bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahaamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo'lsak yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni rus qo'lga qoldirgan bo'larmiz».<sup>1</sup>

## 5. XVI ASR – XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR <sup>2</sup>

«Qoraqalpog'iston ASSR tarixi ocherklari» («Ocherki Istorii Karakalpakskoy ASSR», Izd-vo «Nauka» Uzbekskoy SSR, Toshkent, 1964) kitobida berilgan ma'lumotlarga qaraganda qoraqalpoqlarning alohida bir xalq bo'lganligi haqidagi yozma manbalar XVI asrning oxirlariga to'g'ri keladi (125-bet). 1598-yilda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan Sig'noq shahridagi Ziyovuddin maqbarasiga berilgan darxon yorlig'ida qoraqalpoqlar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar bitilgan. Unda yozilishisha qoraqalpoqlar Sirdaryo yaqinida Sig'noq shahri va uning atrofidagi hududlarda yashaganlar, yarim o'troq holda hayot kechirib kelganlar. Bu manbada qoraqalpoqlar qozoqlar bilan birga «aymoqlar»ga kiritiladi.

Qoraqalpoqlar tarixi bo'yicha ilmiy ish olib borgan ko'pgina olimlarning fikrlariga ko'ra qoraqalpoqlarning avlod-ajdodlari Orol dengizi atroflarida yashaganlar va ular shu yerda xalq

<sup>1</sup> *Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар. Т., 1974. 301-бет.*

<sup>2</sup> Mazkur masala bo'yicha ko'pdan-ko'p ma'lumotlar «История Узбекистана». Том III. (XVI – первая половина XIX века. Т., «Фан», 1993, стр. 291–316) nomli kitobida berilgan.

sifatida shakllanganlar. Ular Oʻrta Osiyoning turkiy tilda soʻzlashuvchi xalqlarining tarkibiy qismiga kiradilar. Grek-yunon mualliflarining maʼlumotlariga koʻra qoraqalpoqlarning eng qadimgi avlod-ajdodlari massagetlar hamda pecheneglardan oldin oʻtgan appasioqlar boʻlgan deb taxmin qilinadi va ular botqoqlik yerlarda va orollarda yashaganlar. Keyinchalik ular ogʻuzlar va pecheneglar bilan yaqin aloqada boʻlganlar.

P.P.Ivanovning tarixchi Abulgʻozi Bayhaqiy bergan maʼlumotlarni tahlil qilib chiqargan xulosalariga koʻra «qalpoq» degan etnik tushuncha XI asrdayoq Xorazmga chegaradosh tumanlarda boʻlgan.

Pecheneglar qabilalari X–XI asrlarda boʻlinib ketadi: bir qismi (turkiy guruh) Orol boʻyida qoldi, bir qismi esa gʻarbgga Janubiy Rus yerlari tomon surilib borad. Ular Dnepr daryosining irmogʻi – Ros daryosi boʻylarida joylashadilar.

Rus yilnomalarida «Chornoʻy klobuki» («qora kuloq», «qora qalpoq») nomi bilan ataluvchi bu xalqning ruscha etnik maʼnosi «qora qalpoq» soʻziga toʻgʻri keladi. XIX asrning birinchi yarmidagi mashhur sharqshunos olim Dosson «Moʻgʻullar tarixi» kitobida bunday yozadi: «Ular (moʻgʻullar) ruslar va qoraqalpoqlar mamlakatini bosib oldilar». Ularga janubiy rus chegara hududlarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Bu etnik guruh Kiyev Rusiyasining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan.

Orolboʻyi atroflarida qolgan pecheneglarni XII asrda Irtish daryosi atroflaridan kelgan qipchoq qabilalari zabt etganlar. Ana shu tariqa ular qipchoqlar tarkibiga kirib aralash-quralash boʻlib ketganlar, ularning tillarini qabul qilganlar. Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish etnegenizi XV asrda noʻgʻoylar ittifoqi tarkibida tugallangan. Ularning bir qismi noʻgʻaylar bilan birga yoyiq (Oʻrol) va Volga daryolari havzasida yashab kun kechirganlar. Buni tarixiy manbalar, xalq ogʻzaki ijodi durdonalari va qoraqalpoqlar madaniyatidagi baʼzi bir elementlar isbotlaydi. Hatto qoraqalpoq tilining noʻgʻaylar va qozoqlar tiliga yaqinligi ham fikrimizga yorqin dalil-asos boʻla oladi.

Biz yuqoriroqda qoraqalpoqlarning yarim koʻchmanchi hayot kechirganliklarini taʼkidlagan edik. Ular ana shu turmush

tarzidan kelib chiqqan holda chorvachilik, dehqonchilik va baliq ovlash bilan ham mashg'ul bo'lganlar. XVI asrda va XVII asrning boshlarida qoraqalpoqlar Buxoro xonligi tarkibiga kirgan Sirdaryoning quyi oqimlarini, taxminan, Turkiston bilan hozirgi Marka qishlog'i va Qoratov o'rtalaridagi yerlarni egallab olganlar. Shu bois ular xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshlaganlar. Jumladan, yozma manbalarda qayd etilishicha 1611-yilda Buxoro xoni Imomqulixon o'z askarlari bilan Sirdaryo, Turkiston shahri va Qoratov tog'lari etaklarigacha kirib borgan va Buxoroga qarshi bosh ko'targan qozoqlar, qoraqalpoqlar va qalmiqlarni bostirgan, ko'p mol va o'ljalar hamda asirlar olib qaytgan.

Qoraqalpoqlar XVI–XVII asrlarda Xorazm xonligi bilan ham o'zaro aloqada bo'lganlar, savdo-sotiq qilganlar. Tarixchi Abulg'ozzi Bahodirxonning ma'lumotlariga ko'ra Xorazm taxti uchun kurashda akasi Asfandiyor (1627–1643)dan yengilgan Habash Sulton Sirdaryo bo'ylari – qoraqalpoqlar huzuriga borgan. Qoraqalpoqlar bilan mang'it o'zbeklari yaqin qo'shni va aloqada bo'lganlar. Mang'itlar Habash Sultonni Xiva xoniga ushlab berganlar va u qatl etilgan.

XVII asrning oxiri va XVIII asr boshlarida Sirdaryo bo'ylarida yashagan qoraqalpoqlar qozoq xonlariga bo'ysunganlar. Bu davrda qoraqalpoqlar boshqa hududlarda ham yashaganligi manbalardan ma'lum. Jumladan, XVII asrning 70-yillarida qoraqalpoqlar boshqirdlar qo'zg'olonida qatnashganlar va ular bilan yaqin do'stlik aloqasida bo'lganlar. Ayni zamonda boshqirdlar ham qoraqalpoqlar yerlariga ko'chib kelib birga yashaganlar. Qoraqalpoqlar ko'p hollarda qozoqlar, boshqirdlar bilan birgalikda Sibir yerlariga hujumlar uyushtirib borganlar.

Qoraqalpoqlar XVIII asrda Rossiya bilan ma'lum darajada aloqada bo'lganlar. 1720-yillarda Jungarlar bosqini xavfi bilan qozoqlarning Kichik juz xoni Abulxayr Rossiyaga fuqarolik so'rab murojaat qiladi. 1731-yilda qozoqlarning Kichik juz hududlari Rossiya tomonidan egallangandan so'ng Kichik juzga qaram bo'lgan quyi qoraqalpoqlar ham chor ma'murlari hukmronligiga o'tib ketadi. Bu voqea 1743-yilda rus podshosi Yelizaveta Petrovna hukmronligi davrida bo'ladi.

Rossiya hukmronligini qabul qilgan qoraqalpoqlar soliqlarni endi Abulxayrxonga to'lamaydigan bo'ldilar. Natijada o'rtada dushmanlik kuchaydi. Abulxayr kutilmaganda qoraqalpoqlar yashaydigan qishloq va ovullarga hujum qilib ularning chor-va mollari va boyligini olib keta boshladi. Qoraqalpoqlar Janubiy g'arb tomonga – Xiva xonligi chegaralari tomon boshpana izlashga majbur bo'ldilar. 1750-yillarda Sirdaryo havzalari atrofida hammasi bo'lib 6 mingga yaqin oila qolgan edi. Qoraqalpoqlarning yangi o'rnashgan makoni Yangidaryo havzasi deb atalib XVIII asr va XIX asrning boshlarida bu hudud qoraqalpoqlar mulki hisoblangan.

Qoraqalpoqlar yangi o'zlashtirilgan joyda tez ko'nikib-o'troqlashib oldilar. Dehqonchilik madaniyatini yo'lga qo'ydilar, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini olib bordilar, qo'rg'on va qal'alar qurirdilar.

Qoraqalpoqlar bilan Xiva xonligi o'rtasida ham doimiy suratda ziddiyat kuchayib bordi, bir necha marta qo'shinlar to'qnashuvi yuz berdi. Faqat 1811-yilda Xiva xonligi Muhammad Rahimxon davrida qoraqalpoqlar ustidan uzil-kesil o'z hukmronligini o'rnatadi.

Xiva xonligi hukmronligi davrida ham mehnatsevar qoraqalpoq xalqi xo'jalik va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanadi, doimiy suratda boylar, zodagonlarning qattiq zulmi va ekspluatatsiyasi ostida yashadi. Zulm va adolatsizlikka qarshi kurashdi.

Aholining asosiy ishlab chiqarish tarmog'i dehqonchilik bo'lsa-da chorvachilik sohasi ham aholi ehtiyoji uchun g'oyatda zarur soha bo'lgan.

Qoraqalpoqlarning xo'jalik hayotida baliq ovlash katta o'rin tutgan. Chunki ko'plab baliq iste'mol qilish qoraqalpoqlarda qadim-qadimdan muhim rusum hisoblangan.

Hunarmandchilik kam taraqqiy etgan. Hatto XIX asrning ikkinchi yarmida ham bu yerda faqat oila ehtiyoji uchun zarur bo'lgan buyumlar ishlab chiqarilgan, xolos. Arzimagan ba'zi bir tovarlarga bozorga olib chiqilgan. Hunarmandchilik buyumlaridan alacha, gilam, arava, qayiq, paxta ipidan ashyolar va boshqalar ishlab chiqarilgan.

Qoraqalpoqlar diyorining markazi Chimboy XIX asr o'rtalarida katta savdo va madaniyat markaziga aylangan edi. Shahar jug'rofiy jihatdan juda qulay joyda joylashgan bo'lib, u quruqlik yo'llari va Amudaryo orqali Xiva xonligi, Rossiya mulklari bilan aloqa bog'lashga imkon berar edi.

Qoraqalpoqlarda patriarxal-urug'chilik qoldiqlari kuchli edi. Bu ijtimoiy-xo'jalik, davlat ishlarida o'z ta'sir kuchini ko'rsatadi. Ijtimoiy hayotda tengsizlik kuchaydi, o'zaro ziddiyatlar va kurashlar avj oladi. Masalan, 1871–1872-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, 15 ming tanobga qadar yerga egalik qilgan mulkdorlar bilan bir qatorda, 1–2 tanobdan oshmagan yerli oddiy oilalar ham bor edi. Bunday adolatsiz holni chorva xo'jaliklarida ham ko'rish mumkin edi. Umuman chorva moliga ega bo'lmagan oilalar bilan bir qatorda ba'zi boylar 1000 boshgacha shohli qoramollar va 1500 ga qadar qo'ylarga egalik qilganlar. Boy xo'jayinlar va hokimlar Xiva xonlarining katta ishonchiga ega bo'lib, oddiy xalq oldida ularning aytgani aytgan, degani degan edi.

Qoraqalpoqlar jamoasida ruhoniylar katta hurmat va alohida o'ringa ega bo'lgan. Ular qozi-sudyalar sifatida katta mansablarni egallab olgan edilar. Ruhoniylar asosan katta yer va mulk egalaridan iborat bo'lardi. Ularning asosiy vazifasi Islom dini g'oyalari asosida xonlikning hokimiyatini mustahkamlashga xizmat qilishdan iborat edi.

Qoraqalpoq xalqi Xiva xonligi xazinasiga to'lanadigan zakot solig'idan tashqari yana juda ko'plab to'lovlar berishga majbur edi. Undan tashqari aholi ariqlarni, kanallarni tozalash va boshqa irrigatsiya qurilishiga tekin ishlab berishga safarbar qilinardi.

Majburiy harbiy xizmat ham Qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi oldidagi asosiy va bosh burchlaridan biri bo'lgan. Mabodo urush bo'lib qolgundek bo'lsa, qoraqalpoqlar 1000 tadan 2000 kishiga qadar navkarlar berishlari lozim edi. Bu askarlarni boqish va ta'minlash xalqning gardaniga tushgan og'ir yuk edi. XIX asrning o'rtalarida bu xarajat taxminan 100–140 ming tilla tangaga teng bo'lgan.

Og'ir, dahshatli zulm va ekspluatatsiya qoraqalpoq xalqining Xiva xonlariga qarshi bir necha bor qo'zg'olonlar ko'tarishlariga sabab bo'ldi. Ana shunday qo'zg'olonlardan biri 1827–1828-yilda



Oq Yoqish tumani atrofida ko'tarildi. Qo'zg'olonga Oydo'stbiy boshchilik qiladi. Xiva xoni Olloqulixon qo'zg'olonni bostirish uchun jazo otryadini yuboradi. Oydo'stbiy sotqinlik qilib qo'zg'olon ko'targan xalqni mol-mulki, bola-chaqa, oilasi bilan Qo'qon xonligiga olib ketmoqchi va u yerda obro' topmoqchi bo'ldi. Ammo xalq unga ergashmadi. Olloqulixon yuborgan qo'shin Oydo'stbiyga Chirchiq rovot degan joyda quvib yetdi va unga ergashgan kuchlarni shafqatsizlarcha bostiradi. Oydo'stning o'zi esa Xivaga keltirilib qatl etiladi. Qoraqalpoq xalqining bunga qaraganda ham kuchli qo'zg'oloni XIX asrning o'rtalarida Xiva xoni Muhammad Amin davri (1845–1855)da bo'ladi. Xonlikning qo'shni davlatlar bilan to'xtovsiz davom etgan urushlari xalq ommasini xonavayron qiladi va tinka-madorini quritadi. Bunga javoban dastlab turkmanlar, so'ngra qoraqalpoqlar, o'zbeklar va qozoqlar bosh ko'taradilar. Qo'zg'olon butun Xiva xonligiga tarqaladi. Bu ommaviy qo'zg'olonning boshida qoraqalpoq biylaridan Alago'z laqabli Yornazar degan shaxs turardi. U tabiatan o'ylovsiz va haddan tashqari ichi qora shaxs bo'lib Xiva xonligiga qarshi bo'lgan biylarni o'z tomoniga og'dirib uyushtira oladi. Qo'zg'olonchilar Xiva xonligidan ajralib qozoqlar bilan qo'shilishga qaror qiladilar. Ammo xonga sodiq bo'lgan qoraqalpoqlarning oqsoqollari boshchiligidagi kuchlar Yornazarga qarshi kurashga o'tlanadilar. Ularga yasovulboshi Muhammad Niyoz boshchiligidagi o'zbek qo'shinlari ham kelib qo'shildilar. Yornazar Qozoqdaryo yonida o'zi qurgan qal'ada qarshilik ko'rsatishni davom ettiradi. Muhammad Niyoz qal'ani qamal qiladi. Qo'zg'olonchilarning o'zlari Muhammad Niyoz bilan til biriktirib Yornazarni otib o'ldiradilar. Qo'zg'olon qattiq-qo'llik bilan bostiriladi. Qo'zg'olonchilarning bir qismi Buxoro yerlari tomon, yana bir qismi esa Sirdaryo yo'nalishi bo'ylab ruslar himoyasiga o'zlarini uradilar.

1858–1859-yillarda ham Qo'ng'irotda katta qo'zg'olon ko'tariladi. Bu qo'zg'olon ham Xiva xonligi tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Xullas xonlar, amir-u sultonlar va biylarning nodonlarcha va siyosiy ko'rlarcha davlat va xalqni boshqarishlari el va yurt boshiga bitmas-tuganmas vayronalik va kulfatlar keltiradi. Xalq hukmdorlarga qarshi, zulm va zo'ravonlikka qarshi o'tlanadi.

Hokimlar va to'ralarning o'z xalqiga nisbatan tutgan siyosati va qarama-qarshi turishi mamlakatni inqirozga olib keladi. Bundan Vatan dushmanlari ham foydalandilar.

## **6. XONLIKLARNING DAVRIDA TA'LIM, FAN VA MADANIYAT**

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari va Buxoro amirligining xalq ta'limi, fan va madaniyati haqida gap borganda shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma sohalarida va birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g'oyasi markaziy o'rinni egallar edi. O'z boshlang'ich nuqtasini X–XII asrlardan e'tiboran olgan so'fiylik tariqati naqshbandiylik g'oyasi bilan uyg'unligi negizida XV asrga kelib eng yuksak cho'qqiga ko'tariladi, u to XX asrdagi siyosiy to'lqin va larzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy rol o'ynaydi. XVI asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Jo'ybor shayxlar nomi bilan tarixga kirgan din pesholari yuqori mavqeyiga ega bo'ladilar. Bu davrning nomdor Jo'ybor shayxlaridan Xo'ja Muhammad Islom (1493-yil atroflari-1563), Hoji Jaloliddin Kosoniy (1549-yilda vafot etgan), u tarixda Mahdumi A'zam nomi bilan mashhur edi; Xo'ja Sa'ad (1531–32–1589); Xo'ja Tojiddin Hasan (1547–1646); Xo'ja Abdurahim (1575–1628–29) va boshqalar bo'lib naqshbandiylik tariqatining atoqli namoyandalari bo'lganlar. Davlatni boshqarish ishlarida ruhoniylar faol qatnashganlar, hukmdorlar din arboblari katta mansablar va huquqlar berganlar. Buxoro hukmdorlari hatto o'zlarini «Musulmon amirlari» deb e'lon qilganlar. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik barcha ishlar, o'zga mamlakatlarga qarshi olib borilgan urushlar ruhoniylarning maslahati va fatvosi bilan e'lon qilingan. Ayni zamonda din ham xonlarni qo'llab-quvvatlagan, Olloh va Qur'on nomidan ularga katta va cheklanmagan huquqlar bergan. Masalan, Amir Nasrullo (1826–1860) ning Qo'qon xonligini 1842-yili bosib olishi bunga dalil bo'la oladi. Yoki amir Shohmurod Olloh irodasini bajo keltirishni qizg'in namoyish qilgani va davlatda Islomning ravnaq topishiga g'amxo'rlik ko'rsatgani uchun «begunoh amir» nomini olgan. Darvoqe Shohmurod naqshbandiylar darvesh jamoasining a'zosi

va o'sha davrda shu jamoaning boshlig'i bo'lgan shayx Safarning muridi bo'lgan.

Ruhoniylarning ta'siri va rahnamoligida o'z davrining mulkdorlari va xudojo'y kishilari mablag'lari hisobiga qabristonlar obod qilinadi, u yerlarga boradigan yo'llar, ko'priklar ta'mirlanadi va qabristonlarga yaqin joylarda masjidlar va madrasalar quriladi. Naqshbandiylar ta'limotining asoschisi Bahovuddin Naqshbandning Buxorodan 12 kilometr masofasi narida joylashgan qabri to'xtab to'ntarishiga qadar ham musulmon dunyosi xalqlari o'rtasida mashhur qadamjoy bo'lgan. Bu yerda har chorshanba kuni Buxoro shahridan va boshqa uzoq-uzoq yurtlardan musulmonlar bozorga va an'anaga aylanib qolgan «gul bayrami»ga to'planganlar. Qur'oni Karimdan tilovatlar qilib nomozlar o'qiganlar.

Amirlar bu qadamjoni haftada bir marta albatta ziyorat qilishni odat tusiga kiritganlar, hojilar, jamoa arboblari sovg'a-salomlar va tangalar hadya qilganlar.

O'rta Osiyodagi har uchala xonlikda ham ruhoniylar qozikalon sifatida barcha sud ishlarini o'z qo'llari ostida markazlashtirib olganlar. Qozikalonlarni amir va xonlar tayinlab edilar. Ma'rifat, fan va maorifda ham Islom mafkurasi asosiy va yetakchi yo'nalish bo'lib xizmat qilgan.

XVI–XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy o'xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o'xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o'xshashdirlar. **Birinchi**dan, O'rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng yetakchi o'rinlarda turgan bo'lsa, XVI–XVII asrlardan e'tiboran bu hududda tushkunlik boshlanadi. **Ikkinchi**dan, har uchala davlat birliklari o'zlari alohida mustaqil faoliyat ko'rsatsalarda davlat idora ishlari o'zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo'qonda fors-o'zbek, Xivada o'zbek tili rasman davlat tili bo'lib hisoblanardi. Turmushda, adabiy ijodda o'zbek va fors tillari keng qo'llanilar edi. **Uchinchi**dan, an'anaga ko'ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro'si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar,

maktablar va qoriqxonalar mavjud edi. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o'rtasida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o'qitish uchun maxsus maktab bor edi. Masalan, «Ansob as-solatin va tavorixi al-havoqin» nomli asarda yozilishcha, «Musulmonqul mingboshining buyrug'i bilan yosh Xudoyorxon va qipchoqlar bolalarini o'qitish uchun o'rdada maktab qurilib, unga maktabdor etib Mullo Sodiq tayinlangan»<sup>1</sup>.

Lekin bu maktab hozir Qo'qonda mavjud bo'lgan Xudoyorxon o'rdasida emas, balki 1845-yilda bo'lgan xon o'rdasida joylashgan edi. Keyinchalik bu o'rda buzilib ketgan.

Odatda, maktablarda asosan o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitilar edi. Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'r-u g'azallar yodlar edilar. Maktablar qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshod Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: «Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste'dodli shoiralari edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga o'rtacha 20 tadan 30 tagacha o'quvchilarim bo'lib, sakkiz yuz to'qson ta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she'riyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli va dono odamlari edi».<sup>2</sup>

Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko'proq bo'lgan. Bu esa qo'qonliklarning aksariyat ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganligidan dalolat beradi.

O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. Ularning odatida masjidlar birinchi o'rinda turardi, chunki deyarli barcha masjidlarda maktablar ochilgan.

1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi

<sup>1</sup> «Ansob as-salotin va tavorixi al-havoqin», 78-бет.

<sup>2</sup> *Мухторов А. Дильшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX–начале XX вв.*, 301 стр.

xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikkita bosh mudarris boshqargan: Eshon Mavloniy va Mahzumi Buxoriy. Bular hurmatli insonlar bo'lib, katta ilmga ega edilar.

Madrasalar Qo'qon xonligining boshqa shaharlarida ham bor edi, ammo ular Qo'qondagidek salobatli va katta emasdi. O'qishni bitirganlarning ayrimlari bilimni takomillashtirish va oshirish uchun Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o'qishardi.

Har bir maktabdor domlanning ham o'zicha o'qitish usullari bo'lgan. Ularning ba'zilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi.

Demak, dastlabki boshlang'ich ta'limdan so'ng Qur'on xatm qilinib, «Chor kitob», keyin esa «So'fi Olloyor» ibtido qilingan. So'ngra «Kalila va Dimna», «Qobusnoma» singari donishmandlik ruhidagi kitoblar o'qitilgan. O'quvchilarga «Odobnoma» dasturlari asosida dars berilgan. Xalq og'zida yurgan axloqiy, falsafiy ruhdagi maqollar, masallar, majmualar, rivoyatlar, hikoyatlardan esa tarbiya vositasi sifatida foydalanilgan.

Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) bosqichlarda olib borilib, unda uchta til (arab, fors va turkiy) mukammal o'rgatilgan. Madrasalarda Qur'on ilmi (o'qish usullari, qiroat, tavsif), fiqh (shariat qonunlari), xandasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Talabalar arab va fors tillari orqali Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr», Hofiz Sheroziy devoni, Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, Mir Alisher Navoiyning «Chor devon»i, Fuzuliy g'azaliyoti hamda sharqda milliy ta'lim sohasida darslik va qo'llanma sifatida foydalanib kelinayotgan «Maslak ul-muttaqin», «Avvali ilm», «Mu'zi Vazanjoniy», «Avomil», «Harakat», «Qofiya», «Sharqi muloyi Jomiy», «Risolai Shamsiya» kabi risolalar bilan tanishish imkoniga ham ega bo'lganlar. Bu esa madrasalarda ta'lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rin

olganligini, dunyoni, tafakkurni shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Madrasalarda bilim olish mumkinligi, bu yerda ham diniy, ham dunyoviy fanlar bo'yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo'lganligi uchun ham Turkistonda turli mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib o'qiganlar<sup>1</sup>.

Qo'qon xonlari davrida turli mansablarda xizmat qilgan Muhiddinxo'ja 1861-yili Qo'qondagi madrasalardan birida o'qigan. Keyinchalik u N.Likoshinga so'zlab berganligiga qaraganda, mudarrislar talabalarning madrasadan tashqariga chiqib maishat qilganlarini yoqtirmagan. Talabalar vaqtlarini ertalabdan kechgacha domlalarining tushuntirishlarini eshitib, kitob o'qish va hattotlik mashqlari bilan o'tkazardilar.

Payshanba kunlari domlalar uylariga ketganlar, talabalar esa bo'sh vaqtlarini o'yinlar bilan band etganlar. Juma kunlari o'qish bo'lmagan. Talabalar ba'zan bozorga borib maddohlarning hikoya va diniy rivoyatlarini eshitar edilar. Talabalarning ko'pchiligi esa Qo'qon xoni boradigan va olimlar yig'iladigan Jome' masjidiga borishni orzu qilganlar. Bu yerda juma namozidan keyin olimlar bilan birgalikda Qur'on va shariat haqida munozaralar o'tkazilgan. Bunda ko'plab mashhur din arboblari, olimlar, yosh mutaxassislar ham madaniyat taraqqiyotida biroz tushkunlik yuz bergan bo'lsada, ajdodlarimiz: falsafa, tabiiy fanlar, tibbiyotshunoslik, jo'g'rofiya, tarix, badiiy ijod va adabiyotning barcha sohalarida qalam tebratdilar.

Xiva xonligida XVII asrda ro'y bergan madaniy hayotdagi tushkunlik Buxoro xonligidagiga qaraganda kuchliroq bo'lgan. Bu shunda yaqqol ko'rinadiki, Xorazmda Abulg'oz Bahodirxon xon bo'lgan davr (1644–1663)da Xorazm tarixini yozib qoldirish masalasi ko'tarilganda, bu ishni eplay oladigan bir kimsa topilmagan. Bu haqda Abulg'oz Bahodirxonning o'zi quyidagicha hikoya qiladi: «Ammo bizning ota va aqolarimizning beparvoyiligi va Xorazm xalqining beuquvligi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarni bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduk.

<sup>1</sup> Юлдошев Ж., Хасанов С. Жаҳид тарбияшунослиги асослари. Т., 1994. 5–6-бетлар.

Hech munosib kishi topmaduk. Zarur bo'ldi. Ul sababdin o'zimiz aytduk. Turkning masali turur: «O'qsuz o'z kindigini o'zi kesar», degan»<sup>1</sup>.

XVII asrda yashab ijod qilgan Abulg'ozii Bahodirxon oliy nasab, toj-taxt sohibi, o'z sulolasining shon-u shuhrati uchun kurash olib borgan, ayni choqda parchalanib ketayotgan Xiva xonligini kuchli markazlashgan davlatga aylantirish uchun ham qurol bilan, ham qalam bilan kurash olib borib, nisbiy osoyishtalik o'rnatishga erisha olgan hukmdor ham edi. U qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan yuqori ko'tarishga intildi. Hukmdor sifatida bekliliklar o'rtasidagi ziddiyatlar, o'zaro qirg'in urushlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar ko'rgan bo'lsa, ijodkor sifatida «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» va «Manofe'-ul-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozadi. Abulg'ozii Bahodirxonning birinchi yodgorliklar asari «Shajarayi tarokima» yarim afsonaviy xususiyatga ega bo'lsada, u mahalliy xalqlarning kelib chiqishi va ularning qadimiy tarixiga oid ma'lumotlar beradi.

Abulg'ozii Bahodirxonning ikkinchi qimmatli asari «Shajarai turk» bo'lib, uni oxiriga qadar yozib tugata olmadi. Bu asarni Abulg'ozii vafotidan so'ng o'g'li Anushaxonning topshirig'iga ko'ra urganchlik mulla va Abulg'ozining qarindoshi Mahmud Ibn Muhammad Urganjiy yozib poyoniga yetkazadi. Bu taxminan 21 sahifani tashkil etgan qo'shimcha edi, xolos.

«Shajarai turk» asari qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat bo'lib, Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo'g'ulxongacha kechgan hodisalar va, shunidek Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikrini o'z ichiga oladi.

Abulg'ozining «Shajarai turk» asari o'sha davrning eng noyob asarlar jumlasidandir. Shu bois mojar (Venger) sharqshunosi G.Vamberi: «Jahon uning «Shajarai turk» nomli tarixiy asari uchun undan minnatdordir<sup>2</sup> degan bo'lsa, taniqli adabiyotshunos Olim Sharofiddinov: «Abulg'ozii Bahodirxon bin-

<sup>1</sup> Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. Тошкент, «Ўзгўр» (Ўзгўр), 1992. 2-бет.

<sup>2</sup> Вамбери Г. «История Бухары или Мавераннахра». М., 1964, стр. 115.



ni Arabmuhammad o'zbek xonlari ishida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug'<sup>1</sup> deb yuksak baho bergan. Abulg'ozii Bahodirxonning «Shajarai turk» va boshqa asarlari nafaqat Sharq tarixchilari, balki butun dunyo ilmiy jamoatchiligining ham diqqat e'tiborini o'ziga tortgan, juda ko'plab jahon xalqlarining tillariga tarjima qilingan. Jumladan «Shajarai turk» asari rus tilida 1825, 1854 va 1871-yilda Qozon shahrida, «Shajarai tarokima» asari esa 1898 va 1906-yilda bir necha marotaba nashr etilgan. 1871–1874-yillar orasida P.N. De-mezon «Shajarai turk»ni fransuz tiliga ag'daradi. Bu asar Angliya va Amerika xalqlari orasida ham keng tarqalgan.

Abulg'ozii Bahodirxon o'zining «Shajarai turk» asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos soladi. Xorazm xalqining buyuk farzandi Abulg'ozii boshlagan g'oyatda ulug' va mo'tabar ishni undan keyingi avlodlar, Munis Xorazmiy va Muhammad Rizo Ogahiyalar davom ettiradi.

**Munis Xorazmiy Shermuhammad Avazboy o'g'li (1778-Xiva – 1829)** – o'zbek shoiri, tarixchi, tarjimon, xattot, ma'rifatparvar inson. Boshlang'ich ta'limni Kotda olgan, Xiva madrasalarida o'qigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Xiva xoni Avaz Inoq saroyida farmonnavis kotib lavozimida ishlagan. 1804-yilda Munis o'zining «Devoni Munis»ini yaratadi. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon unga Xiva xonlari tarixini yozishni topshiradi. O'sha yili xon fojiali halok bo'ladi. Ammo Munis kitob yozishni davom ettiradi. 1819-yilda u Mirxondning «Ravsat us-safo» («Soflik bog'i») kitobini tarjima qilishni boshlaydi. Bu kitobning faqat birinchi jildini yozib tamomlashga ulguradi, xolos. Xiva tarixini yozib tugata olmay vafot etadi. Uning «Firdavs ul-iqbol» asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi va jiyani Ogahiy oxiriga yetkazadi. Munis Xorazmiyning «Ornalar» («Orna» – anhor, kanal demakdir) asarida sug'orish inshootlari va yer-suv munosabatlariga doir masalalar aks etgan. Bu risola XVII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi dehqonchilik ijtimoiy munosabatlarni o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir. Munis Xorazmiyning asosiy adabiy merosi 1815–1820-yillarda tuzilgan «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do'sti») devoni g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa

<sup>1</sup> Шарофиддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Тошкент, II жилд, 1945, 531-бет.

janrlardan iborat boʻlib, 80 000 dan ziyod misrani oʻz ichiga oladi. U bir necha marta nashr qilingan. Munis Xorazmiy sheʼriyatida xalqchillik, taraqqiyparvarlik gʻoyalari keng oʻrin olgan. U «Soʻz» va «Shuaro» kabi sheʼrlarida ilm-fan, sanʼat, adabiyotni targʻib qiladi, olimlar va sanʼatkorlarni yuksak qadrlaydi, ularni xoʻrlagan reaksiyon guruh va toʻralarni qoralaydi.

Munis Xorazmiyning 1804-yilda bosilgan «Savodi taʼlim» sheʼriy risolasida savod chiqarishni yengillatish va husnixat sanʼatini rivojlantirish muammolari koʻtariladi.

**Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874)** yetuk shoir, bilimdon tarixchi va mohir tarjimon sifatida fan va tarixda nom qoldiradi. Uning sheʼriy asarlari «Taʼviz ul-oshiq» («Oshiqlar tumori») devonida toʻplangan. Devon Xivada bir necha marta (1905, 1909) tosh bosma (litografiya) usulida nashr qilinadi. Hajmi 18 ming misradan ortiq boʻlgan bu devonda sheʼriy (nazm) janrining deyarlik hamma turi oʻz ifodasini topgan. Ogahiyning sheʼrlarida xalqparvarlik, maʼrifatparvarlik buyuk va olijanob insoniy fazilatlar ulugʻlanadi, xon va toʻralarning adolatsizligi va xalqqa oʻtkazgan jabr-zulmlari, chala mulla ruhoniylarning makr hiylalari ayovsiz tanqid qilinadi. Shu maʼnoda shoirning «Qish» radifli gʻazali diqqatga molikdir. Bunda qish fasli tasviri orqali kambagʻal, bechora, kulbasiz va yupun oddiy mehnatkash xalqning ahvoliga achinadi, beva-bechoralarga nisbatan himmatsiz, eʼtiborsiz va shafqatsiz boʻlgan boylar va davlatmandlardan nafratlanadi.

*Ne bilursan kechalar faqr ahlidin, ne oʻtkanin,  
Bistari zarrin<sup>1</sup> uza, ey kim qilursan xob<sup>2</sup> qish.  
Ey gʻani<sup>3</sup> boqʻil yalanglar holigʻa, shukr uchun,  
Kim kiyarsan tax-batax qoqim<sup>4</sup> ila sinjob qish.*

Ogahiy tarixchi olim sifatida ham oʻzidan keyin katta meros qoldirgan. «Taʼviz ul-oshiqin» devoni debochasining oxirida u quyidagi tarixiy kitoblarni yozganligini aytadi: «Riyoz ul davla» (1844), «Zubdat ut tavorix» (1846), «Jomeʼ ul-vaqeoṭi Sulṭoniy»

<sup>1</sup> Bistari zarrinzar – bilan toʻqilgan toʻshak.

<sup>2</sup> Xob – uyqu, uxlamoq.

<sup>3</sup> Gʻani – boy, davlatmand.

<sup>4</sup> Qoqim – olmaxonga oʻxshagan hayvon terisidan tikilgan poʻstin.

(1857), «Gulshan davlat» (1865), «Iqboli Feruziy» (1872). Bu asarlarida Olloqulixon (1825–1842) dan to Muhammad Rahim II (1865–1872) gacha bo'lgan tarixiy jarayon o'z aksini topgan.

Ogahiy mashhur tarjimon ham bo'lgan. U 16 asarni fors-tojik va bir asarni Usmonli turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, madaniyatimiz boyligiga ulkan hissa qo'shadi. Nizomiyning «Haft paykar» («Yetti go'zal») dostoni, shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» kitoblari, Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostoni, Xiloliyning «Shoh va gado» dostoni ana shular jumlasidandir.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga barakali ulush qo'shgan vatanparvar ulug' bir zot sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan siymodir.

**Komil Xorazmiy (1825–1899)** Xorazm farzandi, ma'rifatparvar shoir, ajoyib san'atkor, musiqashunos, mohir hattot, tarjimon va davlat arbobidir. Asli xivalik bo'lgan Komil kuchli qobiliyatga ega edi, u arab, fors-tojik tillarini puxta bilgan. Hattotlik va musiqa san'atini yaxshi egallagan Komil Xorazmiyni Xiva xonligi saroyiga ishga taklif etganlar. Dastlab u Sayid Muhammadxon, so'ngra uning o'g'li Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida avvaliga hattot, so'ngra mirzaboshilik vazifalarini bajaradi. Hattotlik san'atini yoshlarga o'rgatgan Komil Xorazmiy 50 dan ortiq shogirdlarga ustozlik qilgan. Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrkon devon, Muhammad Sharif Tarro devon (atoqli bastakor va musiqachi – Matyusuf Xarrotovning otasi), Muhammad Rasul va boshqalar ana shular jumlasidandir. Rossiya Xorazmi zabt etgach Komil Xorazmiy Feruzshoh saroyida devonbegi lavozimiga tayinlanadi.

Komil Xorazmiy bosmaxona tashkil etishning asoschilaridan biridir. Uning sa'y-harakati va tashkilotchiligida 1870-yilda Muhammad Rahimxonning g'amxo'rligida Xivada bosmaxona tashkil etilgan. Bu bosmaxonada Navoiyning «Xamsa»si birinchi marta nashr qilingan edi.

Komil Xorazmiy badiiy ijod bobida ham katta qobiliyat egasi bo'lgan. Uning g'azallari, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida va boshqa janrlarda bitgan asarlari 3680 baytdan iborat bo'lib, maxsus devon shaklida tuzilgan edi. Lekin bu devondan shoirning «Baxri tavil» asari o'rin olmay qolgan.

Komil Xorazmiy musiqa ilmining katta bilimdoni va bastakor sifatida Xorazm maqomlariga notalar bitib qog'ozga tushirgan, sozanda va ijrochi ham edi. U kuy bastalagan Xorazmning «Rost» maqomi, «Murabai Komil», «Peshravi Feruz» va boshqa kuylar hamon musiqa shinavandalarining qalblarini to'liqlantiradi.

Komil Xorazmiy mohir tarjimon sifatida ham nom qozongan. U Husayn Voiz Koshifiyning «Latoif uz-zaroif» asarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Komil Xorazmiy insonlar hayotida o'zga xalqlarning tili va madaniyatini o'rganish katta ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etgan. Uning tashkilotchiligida 1884-yilda Xorazmda birinchi rus-tuzem maktabi tashkil etilgan.

Komil Xorazmiy ijodiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning asarlarida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik ta'lim va tarbiyaning boshqa bir qator g'oya va masalalari bosh mavzu bo'lganligini ko'ramiz. Jumladan, shoir o'zining «Kamol» g'azalida ilm-ma'rifatni ulug'lab, ilmi, ma'rifatli va hunarli kishi hamisha el hurmati va ardog'ida bo'lishligini yozadi:

*Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,  
Husulu ilmu hunar keldi bezavol, kamol.  
Kamol bergusidir so'zga shuhratu ta'sir,  
Bu qushga qilgali parvoz parrubol kamol.*

Komil Xorazmiy odamlar orasiga yaxshilik urug'larini sochadi, mansabga, boylikka berilib kekkaymaslikka chaqiradi, ularni insof-imonli va diyonatli bo'lishga da'vat etadi. U o'zining «Ey ko'ngil» g'azalida dunyo adolatsizligi, nohaqligi va teskari ishlaridan faryod chekadi. Agar dunyo pastkash bo'lmasa, nega nokasu nodonni ulug'lab, shod etib, dononi xor-zoru xafa qiladi, deb xulosa chiqaradi shoir:

*Bo'lmasa gardunu sufla do'sti gardun ey ko'ngil,  
Nega dunni shod etar, dononi mahzun, ey ko'ngul.*

Ilm-ma'rifat kuychisi bo'lgan Komil o'z zamonasida ilm qadriga yetmagan falakni la'natlaydi, u ilm olamida Aflotun

bo'lsada qadrlanmagan ilm-ma'rifat kishisiga alam bilan achinadi:

*Chun falak nodon navozu, xasm donodur, ne sud,  
Donish iqlimida bo'lsang gar Falotun, ey ko'ngul.*

Xullas, Komil Xorazmiy ijodida bosh mavzu inson va insoniylik, uning qadr-qimmatidir. Shoirning hayot va ijod yo'li yosh avlod kamolotida o'rnak va namunadir.

**Mahtumquli Firog'iy (1733–1793)** Xiva xonligi hududida yashab ijod qilgan qardosh turkman xalqining ulug' shoiri va mutafakkiridir. U Turkmanistonning Hojigavshon degan joyida tug'ilgan. Otasi Davlatmamed Ozodiy o'z davrining mashhur shoirlaridan bo'lgan. Otasi ta'sirida ijodiy ong shuuri erta yaproq yozgan Mahtumquli dastlab ovul maktabida, keyinchalik esa Xiva, Buxoro, Andijon madrasalarida ta'lim oladi. Turli fanlar bilan bir qatorda zargarlik hunarini ham puxta egallaydi. Mahtumquli Ozorbayjon, Eron, Afg'oniston, Hindiston kabi mamlakatlarni kezib chiqadi. O'rta Osiyo, Eron, Ozor o'lkalari folklorini, adabiyotini zo'r ishtiyoq bilan o'rganadi. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Firdavsiylar yaratgan badiiy so'z durdonalaridan bahramand bo'lgan Mahtumquli kelajak avlodlarga katta adabiy-badiiy meros qoldiradi. Mahtumqulining ijodiy merosi 20 ming misrani tashkil etadi. U sof muhabbatni, mardligu matonatni, ezgulikni, adolat, insof-u diyonatni, imon-u e'tiqodni kuylagan xalqparvar shoirdir.

Shoir o'sha davr o'zaro qirg'inbarot urushlardan faryod qiladi. U xalqlarni birlik, birodarlik, tinchlik, osoyishtalikka, insof-u diyonatga chorlaydi. Buni Mahtumqulining «Tursa kerakdir» she'ridan quyida keltirilgan bir necha satrlarda ochiq-oydin ko'ramiz:

*Qardoshlar, kun-kundan battar bo'lmoqda,  
Yil-yildan balolar kelsa kerakdir.  
Sharob ichgan, zino qilgan jahonda,  
Shunday mashhur bo'lib tursa kerakdir.  
Musulmon qardoshlar, do'nmang bu yo'ldan,  
Kecharsiz sirotidan-ul nozik qildan,*

*Dajjol kelar derlar bir necha yildan,  
Olamga bir g'avg'o solsa kerakdir.*

Mahtumquli xalq ruhiyati yo'g'rilgan shunday go'zal ohanglar yaratadiki, bu she'riy ohanglar umumturkiy adabiyotning betakror namunasi sifatida e'zozlanmoqda. «U nimadir», «Boshladi», «Go'zalsan», «Turkmaning», «Ko'zim tushdi», «Elingni», «Ayrilma» kabi yuzlab she'rlar shular jumlasidandir. Xullas, Mahtumquli o'zining o'tkir satirik nafasi, xalqchil asarlari, qimmatli nasihatnomalari bilan yillar osha xalqning sevimli shoiri bo'lib kelmoqda.

XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi hududida ham fan, adabiyot va madaniyatga munosib hissa qo'shgan allomalar o'tgan.

**Abdurahmon Tole'** XVIII asrda yashagan buxorolik munajjim va tarixchi olimdir. U Abulfayzxon davri (1711–1747)da yashab ko'pgina tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va «Tarixi Abulfayzxon» asarini yozgan. Bu asar XVIII asrning birinchi yarmidagi O'rta Osiyoning siyosiy ahvoliga oid qimmatli manba bo'lib, Ashtarxoniylar davlatining o'zaro urushlar kuchayib ketgan va Eron shohi Nodirshohning bosqinchilik yurishi natijasida inqirozga yuz tutgan davri haqida hikoya qiladi. Asarda bundan tashqari Rajabxon boshchiligida mustaqil Samarqand bekligining tashkil topishi, Zarafshon vohasi va Shahrisabz vodiysida bo'lib o'tgan g'alayon hamda qo'zg'olonlar va ularning sabablari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor.

**Muhammad Ya'qub Kenja ibn Ali Mirzo Buxoriy** (taxminan 1771–1831) o'z davrining yirik tarixchi olimlaridan bo'lgan. U mang'itlar sulolasining ikkinchi hukmdori Doniyolbiy otaliq (1758–1785)ning o'g'lidir. Muhammad Ya'qub «Gulshan ul-Muluk» («Podsholar gulshani») asarini yozgan. Asarning birinchi qismida Buxoroning qadimiy tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon qilingan. Ikkinchi qismida esa, O'rta Osiyoning XVIII asr va XIX asr boshlaridagi davri tarixi o'z aksini topgan. Shu asrning oxirlarida Muhammad Sharif tomonidan tuzilgan va tarixiy voqealar solnomalarini o'zida aks ettiruvchi «Tadj-at-tavorix» asari qimmatli dalillarga boy kitobdir.

Kitobda voqealar rivoji Shayboniylardan boshlanib, XVIII asrning so'nggi davrlari bilan yakunlanadi. XIX asrning birinchi yarmida yozilgan Muhammad Ya'qub Kenja ibn Ali Mirzo Buxoriyning «Fathnomai sultoni» tarixiy asarida soliqlar islohotlari, Xitoy-qipchoqlarning qo'zg'olonlari va 1826-yildagi siyosiy voqealar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

«Muntaxab ut-tavorix» («Yilnomalar to'plami») 1843-yilda tarixchi olim **Muhammad Hakimxon to'ra Ma'sumxon To'ra o'g'li** tomonidan yozilgan tarixiy asardir. Unda payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar, qadimiy Eron, Arab halifaligi, somoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, mo'g'ullar, temuriylar va boburiylar davri tarixidan qisqacha ma'lumotlar berilgan. Ayni zamonda ushbu kitobda Buxoro va Qo'qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab XIX asrning 42-yillarigacha bo'lgan davr tarixi o'z ifodasini topgan. Ma'sumxon To'ra o'g'li asarda o'zining Rusiyaga, arab mamlakatlari va Eronga qilgan sayohatlaridan olgan taassurotlarini ham hikoya qiladi. «Muntahab ut-tavorix» asari XIX asrda O'rta Osiyodagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniyatini o'rganishda g'oyatda muhim manbadir. Asarning o'zbek tiliga tarjima qilingan nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (Inv. 594).

Bu davrda badiiy ijod bobida ham ilg'or va yirik mutafakkirlar qalam tebratganlar. Jumladan, o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan Mutribiy «Tazkirot ash-shuaro» kitobida badiiy ijod bilan shug'ullangan 320 dan ortiq shoir va yozuvchilarning nomlarini tilga oladi. Afsuski ularning bosib o'tgan ijodiy yo'llari to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega emasmiz.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda yashab ijod etgan qalam sohiblaridan biri **Voladir**. U taxminan 1786–1793-yillarda Buxoro amirligiga qarashli Yangiqo'rg'on hududida tavallud topgan. Vola ko'zi tug'ma ojiz bo'lsada, favqulodda kuchli aql, xotira, qobiliyat va yoqimli ovoz egasi bo'lgan.

Shoir amirlikni larzaga solgan qipchoqlar qo'zg'oloni (1821–1826) ga xayrixohlik bilan qaragan, xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni u bilan birga kechirib, jabrdiydalar huquqlarini himoya qilgan va ilg'or qarashlari uchun hokimlar tomonidan iskanjaga olingan.



Vola o'zbek va fors-tojik tilida ikki devon tuzgan bo'lsada u hozirgacha topilgan emas. U she'r va g'azallarida ulug' insoniy fazilatlar, haqiqiy va sof sevgi va muhabbatni kuylaydi. Buni biz Navoiy, Mahzun va Hofiz g'azallariga yozgan muxammaslarida yanada yorqinroq ko'ramiz.

Shoir Vola 1872–1873-yillarda qashshoqlik va muhtojlikda vafot etgan.

XIX asrdagi o'zbek va tojik adabiyoti tarixida salmoqli o'ringa ega bo'lgan, ammo ijodi yetarli darajada o'rganilmagan shoir va tabib **Hoziqdir**. O'zbekiston Sharqshunoslik institutida Muhammad Husayn Bulg'oriy tomonidan tuzilgan «Marsad ut-tasonif» nomli («To'plamlarni o'rganish joyi») antalogiyada O'rta Osiyo va Eron shoirlaridan katta bir guruhining, shu jumladan shoir Hoziqning ham o'zbek va tojik tillarida yozilgan 354 misra she'ri bor. Bundan tashqari Hoziqning bir necha g'azal va qasidaları 1820–1821-yillarda namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo'qonda tuzilgan «Majmuat ush-shuaro» («Shoirlar anjumani») qo'lyozma asarda ham uchraydi. Uning o'zbek va tojik tillarida yozgan she'rlaridan tuzilgan to'plam Rossiya FAning S.Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining bo'limida № 470 S sonli hujjatda saqlanadi.

Hoziqning asli ismi Junaydullo bo'lib, Hirotda tug'ilgan, tug'ilgan va vafot qilgan yillari noma'lum, vafotini 1843-yil deb taxmin qilinadi. Shoir 1799–1800-yillarda Hirotdan Buxoroga kelgan. Buxoroda uzoq yashash imkoniyati bo'lmaganligidan 1820-yilda Qo'qonga, u yerdan Xivaga, so'ng yana Qo'qon-Buxoro va umrining so'nggi yillarini Shahrisabzda o'tkazgan. Albatta bunday sarson va sargardon bo'lib yurishlar orzu-havas tufayli emas, balki hayot ehtiyojlari va nochorlikdan edi. Hoziq amir Nasrullo odamlari tomonidan Shahrisabzda qatl etilgan.

Shoirning chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan otashin she'rlari, yurak torlariga larza soluvchi nozik va ohangdor g'azallari uzoq yillardan beri sevib o'qiladi va yoqimli ohanglarda kuylanadi. Ularda mehnatkash xalq qismatiga achinish, ayrim zolim boylar va qonxo'r to'ralarga nafrat jo'shib kuylanadi. Zodagonlar va saroy ahli oltin va zarlar ishida ko'milib yotgan bir paytda asosiy boyligni yaratuvchi mehnatkash xalq: dehqonlar, hunarmand va kosiblar, olim va shoirlar ochlik va qashshoqlikda

yashayotgan davrning jirkanch tomonlarini fosh qilgan shoir ol-  
tinning hayotda naqadar katta kuchga ega ekanligini zo‘r badiiy  
mahorat va o‘tkir kinoyalar bilan tasvirlaydi.

*Metavon bo zar xudoro ham zi hud hushnud soxt,  
Zar Xudoro chun hush oyad bas shi harfi digar ast.  
Gar nadorand ahli dunyo chashm bar zar az chi ro‘  
E‘tibori Hoziq az eshik og‘osi kamtarast.*

### M a z m u n i :

*Oltin orqali xudoni o‘zingdan ham xursand qilishing mumkin,  
Oltin xudoga ham yoqqandan keyin boshqa gapning nima hojati bor.  
Agar dunyo ahli oltin orqali qaramaganida ne sababli,  
Hoziqning e‘tibori eshik og‘asinikidan ham past bo‘lur edi.*

Hoziqning tojik tilida yozgan yirik epik asari «Yusuf –  
Zulayho» dostonining yettita qo‘lyozma nusxasi bizgacha ye-  
tib kelgan. Bu doston 1905-yilda Toshkent shahrida litografiya  
usulida bosilib chiqqan. Hoziqning tibbiyotga oid yozgan qo‘l-  
yozma asarlari ham mavjud.

Bu davrda tarixiy-badiiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish  
masalasida ham ba‘zi bir amaliy ishlar qilingan. XIX asrning 30-  
yillarida Shahrizabz bekligida shoir Xiromiy hind, fors adabiyotida  
mashhur bo‘lgan «Chor darvish» va «To‘tinoma» hikoyalarni  
o‘zbek tiliga o‘girdi.

#### **Boborahim Mashrab.**

O‘zbek milliy madaniyati markazlaridan yana biri bu Qo‘qon  
shahri edi. Bu yerda XVIII–XIX asrning birinchi yarmida ilm-  
ma‘rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ mutafakkir  
va shoirlar yetishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo‘qon xoni  
Umarxon (1810–1822) va uning umr yo‘ldoshi shoira Nodiraning  
sa‘y-harakati tufayli Qo‘qon shahri ilm-ma‘rifat markaziga  
aylandi, bu yerda Qo‘qon adabiy muhiti paydo bo‘ladi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida  
yashab ijod etgan iste‘dodli va isyonkor shoir **Boborahim  
Mashrab** (1640–1711)dir. U Namanganda tug‘ilgan. Yetti  
yoshidan mashhur shayx Mullo Bozor Oxund qo‘lida ta‘lim olib

xat-savodini chiqargan. 15 yoshlaridan Qashqarda mashhur shayx Ofoqxoja qoʻlida yetti yil tasavvuf ilmini egallaydi. Soʻng kanizaklardan birini sevib qolgani uchun Ofoqxoja dargohidan quviladi. Yorkentga, u yerdan Xoʻtanga, soʻng Gʻuljaga borgan. Mashrab Gʻuljadan Qashqarga qaytadi. Soʻng Ofoqxoja topshirigʻi bilan Toshkentga va yana Ofoqxoja huzuriga, undan keyin oʻz ona yurti Namanganga keladi. Xullas 18 yil davomida yuqorida nomlari tilga olingan yurtlarni kezgan Boborahim Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan (shahar), Isfaxon, Hirot, Mashhad, Makka, Madina, Halab, Sheroz, Shom, Rum, soʻng Buxoro, Toshkent, Shohimardon, Afgʻonistondagi Shibirgʻon, Andxoʻy kabi joylarda ham boʻladi. Buni Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968-raqamli qoʻlyozma asoslab beradi. Unda Mashrabning «Kimyo» asaridan 16 kimyo (bob) va «Mabdai nur» kitobidan ikkinchi daftari, soʻng shoirning 71 gʻazali, 7 muxammasi va bitta musaddasi berilgan.

Shoir Mashrab ijodini oʻrganishda yuqorida qayd etilgan 9968-raqamli qoʻlyozmadan tashqari Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan boshqa bir qator manbaʼlar, jumladan, «Tazkirai fahmiy», «Muntahab at-tavorix» (Muhammad Hakimxon toʻra asari) va Mashrab zamondoshi, u bilan birga boʻlgan Isʻhoq Bogʻistoniyning «Tazkirai qalandoron»<sup>1</sup> asari gʻoyatda qimmatlidir.

Mashrab sheʼrlarida oʻzi yashagan davr hukmronlarining mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini, boylar, amaldor toʻralar va chalasavod mullalarning riyokorliklari, munofiqliklari, oʻzboshimchaliklari, xullas oʻrta asr zulmining barcha illatlari fosh etiladi. Xalqning ogʻir qismatli ahvoliga achinadi. Shoir «Devon»iga kirgan quyidagi satrlar bunga yorqin misoldir.

*Dili tigʻi sitamdin, pora boʻlgʻon xalqni koʻrdim,  
Tani dardu alamdan yora boʻlgʻon xalqni koʻrdim,  
Koʻzi vaqti sahal sayyora boʻlgʻon xalqni koʻrdim,  
Muhabbat dashtida ovora boʻlgʻon xalqni koʻrdim,  
Junun tugʻyon etibdur har birisi bexabar tanho.*

<sup>1</sup> «Шарк юлдузи», 1990 йил, 8-сон, 152-бет.

Yoki:

*Qaddi mehnat tog'idin xam bo'lgan ey bechoralar,  
Bag'ri vaxshat tig'idin yuz pora ham yuz yoralar  
Ko'rmagan umri ishinda bir dami bir yaxshi kun,  
Tiyra g'amdin dilda dog', ham ko'zlari giryonalar.*

Is'hoq Bog'istoniyning «Tazkirai qalandaron» asarida berilgan shoir Mashrabning zamondoshi So'fi Olloyor bilan bo'lib o'tgan qisqa suhbat g'oyatda diqqatga loyiqdir.

Salom-alik adosidin so'ng So'fi Olloyor shoh Mashrabg'a yuzlanib demishlarki: «Yo Mashrabi devona, shoirlik shuhratingiz olamni tutibdur. Sizni birla muloqot orzusida erdim, ersa Tangri taolo bu orzumni yetkardi. Xush kelibsiz, safo kelibsiz!» Andin so'ng shoh va eshoni So'fi oralarinda ajib suhbat bo'lib o'tmish. Gap orasida shoh Mashrab deydilarki: «Yo So'fim, Siz butun umringiz mobaniyda pulisirotg'a xushomad qilmishsiz. Huzuriy degoni esa do'zaxga xushomad etmish. Do'zax va pulisirot dahshatlaridin, do'zax azoblaridin avom xalq ruhini larzag'a solmishsizlar. Yo So'fim, insof birla tafakkur qilinsa, do'zax va pulisirot shu yorug' dunyoning o'zida mavjud ermasmu? Farzandi odam umrining ibtidosidin to intihosig'a qadar bosib o'tmish yo'lning o'zi qil ustida turmoqlik; gardun va zolimlar aning boshiga yog'dirmish azob-u uqubatlar, sonsiz falokatlar do'zax azobidan kammu? Yo So'fim, oyoqlaringiz ostig'a bir nazar tashlang, pulisirot va do'zax anda mavjuddir».

Eshoni So'fi va ahli do'zax ulamo shoh Mashrab javoblaridin tag'yir tortib, istig'for kelturmishlar. Eshoni So'fi shoh Mashrabg'a yuzlanib deydilarki: «Yo Mashrabi majzub, gunohga botmang. Ollo Taolo Behisht va do'zaxni Solih va kofir bandalari uchun yaratmish. G'ofil bandalarni bu haqiqatidan ogoh qilmoq siz va biz uchun ham farz, ham qarzdur». Anda shoh Mashrab deydilarki: «Yo So'fim, agar haqiqat qiling'usi bo'lsa, do'zah aro barcha gunohkorlar to'lub-toshub, anda oyoq bosarg'a joy qolmas, azob maloikalari ersa o'z yumushlarining uddasidin chiqa olmag'aylar. Behisht ersa bo'sh qolur. Keling, to tanda jon mavjud erkan, shu yorug' dunyo tashvishlari borasinda jismijo' qilmog'imiz ma'qulroqdur...»

Boborahim Mashrab 1711-yilda dinga shak keltirganlikda ayblanib, Balx hokimi Mahmudxon tomonidan osib o'ldirilgan.

**Shoir Mahmur (XVIII asr oxiri – 1844).** U o'z davrining yirik satirik shoiri edi. Ziyoli oilasidan bo'lgan Mahmurning otasi Mulla Shermuhammad madrasada mudarrislik qilgan, Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, ijodiy ish bilan ham shug'ullangan. Mahmurning asli ismi Mahmuddir. Mahmur shoirlik taxallusidir. U otasi dars beradigan Mir madrasasida tahsil ko'rdi. O'z zamonasining yetuk namoyandasi bo'lib yetishdi. Mahmud otasi Akmalni o'rab olgan muhit ta'sirida juda yoshlikdan badiiy ijodga beriladi. Undagi qobiliyatni sezgan saroy ahllari Mahmurni saroy shoiriga aylantirishga harakat qiladilar. Mahmur saroyda askar bo'lib xizmat qilish bilan birga ijodiy faoliyatni ham davom ettiradi. Saroy shoirlari uni masxaralab, ustidan kular edilar.

Shoir Mahmur amaldorlar va saroy shoirlari bilan kelisholmasdan saroyni tark etadi. U umrining oxiriga qadar qashshoqlik va muhtojlikda Hapalak qishlog'ida yashadi, ijod etdi va shu yerda 1844-yilda xor-zorlikda vafot etadi. Mahmur yuqorida ta'kidlaganimiz singari satirik hajviy she'rlar ijod etgan. Ayniqsa, «Hapalak» she'ri shoir ijodining yuksak pog'onasi bo'lib, unga katta obro' va e'tibor keltiradi. Bu she'rdan shoir Qo'qon xoni Umarxonga murojaat qilib xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini yengillatish, ularni ezib qo'ygan soliq va har xil to'lovlardan ozod qilishni iltimos qiladi. «Hapalak» o'zida bir qishloq manzarasini aks ettirsada, haqiqatda butun Qo'qon xonligidagi aksariyat xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini, kambag'al dehqonlar xonadonining vayrona bo'lish manzarasini badiiy bo'yoqlarda ifodalagan.

Mahmur «Hapalak»dan tashqari yana juda ko'plab hajviy she'rlar ijod qilgan: «Itboqar Qozi», «Hoji Niyoz», «Karimqul Mehtar», «Amakim» («Abdulkarim Fazliy Namangoniy to'g'risida hajv»), «Hakim Turobiy» va boshqalar shular jumlasidandir. «Amakim» she'rida shoir xushomadgo'y saroy shoiri Maddoh Fazliyni fosh etsa, «Qozi Muhammad Rajab to'g'risida hajv»da «adolat posbonlari» bo'lgan qozilarning tovlamachiligi, yulg'ishligi, ikki yuzlamaligi va ayyorligini ochib tashlaydi, tanqid

qiladi. Shoir qozi Muhammad Rajabning boshiga o'ralgan katta beo'xshov sallasini masxaralab kulib:

*Buzib jumla darvozani sallasini,  
Eshiklarni vayron qilur kallasini.*

Mahmur amaldor to'ralar va zodagonlarning noinsoniy, jirkanch qiyofalarini va ularning yaramas kirdikorlarini ochishda badiiy usullardan, xalq hajviyasi va badiiy til vositalaridan foydalanadi. Jumladan, «Hakim Turobiy»da nodon, bilimsiz va tamagir tabiblarni fosh etar ekan, badiiy bo'yoqlar vositasi bilan Hakim Turobiyning razil aft-angorini qish fasli chillasiga o'xshatib:

*«Erur rangi qish chillasidan sovuq»*

deydi.

Xullas, shoir Mahmud satira janrlaridan ustalik bilan foydalanish asosida o'zi yashagan davrdagi hayot nuqsonlarini, kamchilik va adolatsizliklarni keskin tanqid qiladi va keyingi avlod yozuvchi-shoirlari ijodiga barakali ta'sir ko'rsatadi.

**Gulxaniy.** Asli ismi Muhammad Sharif bo'lgan Gulxaniy XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli va xalqchil yozuvchidir. U taxminan 1770-yillarda Darvozda (hozirgi Tojikistonning Tavildara va Qal'ai xum tumanlari) kambag'al oilada tavallud topgan. Gulxaniy boshlang'ish ta'limini qishloqda oladi. Unda she'riy ijodga havas juda erta uyg'onadi. U ko'plab yozma badiiy asarlarni mutolaa qiladi, xalq og'zaki ijodini o'rganadi. Gulxaniy og'ir iqtisodiy qiyinchilik sharoitida yashaydi. Muhtojlik uni Farg'ona vodiysiga olib keladi. Namanganda mardikorilik qiladi va shu yo'l bilan o'qishni davom ettiradi. Bu yerdan xonlik Markazi Qo'qonga o'tadi va shu joyda qo'nim topadi. Moddiy qiyinchilik shoirni Qo'qonda ham tark etmaydi. U hatto hammomda o't yoquvchi – go'lax bo'lib ishlaydi. «Gulxaniy» taxallusini shoir ushbu kasbi tufayli tanlagan bo'lsa ham ajab ermas. Biroq «Majmuai shuaro» tazkirasida yozilishicha shoir otashqalb, yuragida o'ti bor bo'lgani uchun «Gulxaniy» taxallusini qo'llagan. Gulxaniy Qo'qon xoni Olimxon saroyida bo'lsada, og'ir iqtisodiy sharoitda edi. Umarxon hukmronligi

davrida ham shoirning hayotida o'zgarish bo'lmaydi. Shu tariqa u XIX asrning birinchi yarmida qashshoqlik va muhtojlikda bu bevafo dunyoni tark etadi.

Gulxaniy o'z asarlarida zamona illatlarini, hukmron doiralarning xalqqa o'tkazgan zulmi va og'ir turmush sharoitini badiiy mahorat bilan ochib beradi. Buni shoir o'zining turmush qiyinchiliklari va azoblari timsolida ko'rsatadi. U «Bideh» («Bergil») deb nomlangan tojik tilidagi she'rida o'zining navkar sifatida xizmat qilgan vaqtda kamsitilgan va xo'rlanganini quyidagicha ifodalaydi:

«Hazratim, ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga», deb boshlaydi va «Navkaring ochlikdan o'lsa, nega xayfing kelmagay?!» deb xonga murojaat qiladi.

Gulxaniy saroy muhitidan norozilik kayfiyatini va bu muhit shoirga begona ekanligini mohirona tarannum etadi:

*Hunar har chand metarovoad az har angushtam,  
Ey baxti noraso kore sadorad bar zor angushtam.*

### M a' n o s i:

*Har bir barmog'im uchidan hunar jilolanib tursa ham,  
Lekin men shunday baxtsizmanki, barmoqlarim zar (oltin)dan juda uzoq turadi.*

Gulxaniyga katta hurmat va obro' keltirgan asar so'zsiz «Zarbulmasal»dir. Xalq og'zaki ijodi durdonolarini chuqur o'rganish va mutolaa qilish asosida yuksak mahorat va badiiy uslubda yozilgan ushbu asardagi har bir masal o'zi mustaqil bir asardir, desak mubolag'a bo'lmaydi. «Zarbumasal»dagi «Maymun bilan Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan chayon» masallarida «qissadan hissa» deganlaridek axloqiy-ta'limiy fikr va ma'nolar ibratomuz tarzda yoritilgan. Yozuvchi asardagi Yapaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Sho'ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir-birlari bilan quda-anda bo'lish jarayonida aytgan gap-so'zlari, masal-maqollari va hikoyalari orqali hayotiy muammo va jumboqlarni



yechib beradi hamda, o'zi yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum manzarasini yorqin badiiy ifoda etadi.

Xullas, Gulxaniy xalqchil, demokratik masalchi-yozuvchi sifatida mehnatkash xalqning qalbidan chuqur joy olgan siymodir.

**Jahon otin Uvaysiy (1778–1845).** XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmidagi Qo'qon madaniy va adabiy muhitni Jahon otin Uvaysiy va Mohlar oyim – Nodiralalar ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahon otin Marg'ilon shahri-ning Childuxtaron mahallasida tavallud topgan. Uning oilasi o'z davrning ilg'or va ma'rifatli oilalaridan bo'lgan. Otasi o'zbek va tojik tillarida she'rlar ijod qilgan. Onasi Chinnibibi maktabdor edi. Akasi Oxunjon Hofiz ham o'z davrining taniqli madaniyat va san'at xodimlaridan hisoblangan. Jahon otin Uvaysiy oilada tahsil olib savod chiqargan. Uning umr yo'ldoshi marg'ilonlik kosib Hojixon juda erta olamdan o'tadi. Beva qolgan Uvaysiy qizi Quyosh va o'g'li Muhammadxonlarni o'zi tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Oiladagi muhit tarbiyasi ta'sirida she'riyatga havas Uvaysiyda juda yoshlikdan shakllanadi. U keyinchalik Alishyer Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Jomiy ijodlari bilan yaqindan tanishadi va ularni qunt bilan o'rganadi.

Umarxon Marg'ilonga hokim bo'lgan (1806–1807-yillar) kezlarda Uvaysiy el o'rtasida nomdor shoira sifatida tanilgan edi. Undagi nodir qobiliyati Nodirani o'ziga rom etadi. Uvaysiyning Marg'ilonda yaxshi tanigan va bilgan Nodira Umarxon Qo'qonda xon bo'lgach maxsus yorliq bilan uni xonlikning poytaxtiga olib keltiradi. Uvaysiy Umarxon saroyida juda ko'plab yosh ijodkorlarga ustozlik va murabbiylik qiladi. Jahon otin Uvaysiy bilan Nodira o'rtasida mustahkam ijodiy hamkorlik qaror topadi. Mirza Karim o'zining «Mohlaroyim» romanida bu do'stona hamkorlikni quyidagicha ifodalaydi: «Jahon otin beklik dar-gohiga keldi-yu, Mohlaroyim bilan biri ko'z bilan qosh bo'lib qoldi»<sup>1</sup>.

Uvaysiy barakali ijod sohibasidir. Ma'lumotlarga qaraganda undan to'rtta lirik devon meros bo'lib qolgan. Shuningdek shoira

<sup>1</sup> «Шарк юлдузи», 1992 йил, 11-сон, 29-бет.

uchta doston ham bitgan. Biroq bu ijod durdonalari bizgacha to‘liq yetib kelmagan yoki haligacha topilgan emas. O‘zbekiston FAning Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №1837 raqami bilan Uvaysiyning mukammal qo‘lyozma devoni saqlanadi. Shoiraning «Karbolonoma» yoki «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husayn haqida doston» va to‘la bo‘lmagan «Voqetoti Muhammad Alixon» kabi dostonlari ham ana shu devonga qo‘shib ko‘chirilgan. Devon tarkibida 269 g‘azal, 29 muxammas, 55 musaddas va bir murabba jamlangan. Shoiraning hamma asarlari o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, unda Navoiyning 9 g‘azaliga, Fuzuliyning 3 g‘azaliga, Amiriyning 5 g‘azaliga muxammaslar mavjud.

Uvaysiy ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. U xalqqa yaqin turgan ijodkor sifatida umrining oxirigacha yashaydi. Shu bois Uvaysiy asarlarida el-yurt dardi, qismati va hasratlari bosh mavzu bo‘ladi. Buni quyidagi satrlarda ham yaqqol ko‘ramiz:

*Dunyoni bukun davrila davroni g‘animat,  
Kelturdi xaloyiqmiki mehmoni g‘animat.  
To bulbuli mastona suxanrezini bul dam,  
Anvoyi jahon bog‘u gulistoni g‘animat.  
Umringni bahorida muhabbatni sug‘orgil,  
Kuz mardumining giryai boroni g‘animat.  
Ochg‘il ko‘zing, e dil, ko‘raqol vaqti tamosho,  
Ayyomi jahonning mohi toboni g‘animat.*

**Zinnat** shoir (a), davlat arbobi, dodhoh. V.P.Nalivkin va M.S.Nalivkinalar «Ocherki bita jenshin osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergani» nomli kitobida «Qo‘qonda ikkita shoira yashagan, birining taxallusi Zinnat, ikkinchisi esa Mahzuna taxallusli. Ishontirishib aytishmoqdalarki, ulardan biri ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib xon saroyiga kelar ekan va uning dodhoh unvoni ham bo‘lgan. Ikkalasing ham g‘azallari Umarxonniki singari «Majmuat ush-shuaro» nomli she’rlar to‘plamiga kiritilgan»<sup>1</sup> deb yozganlar.

<sup>1</sup> *Наливкинлар*. O‘sha asar.A.Madaminovning tadqiqoti bo‘yicha mazkur tazkirada «Zinnat» taxallusli erkak haqida 16 misradan iborat masnaviy, shoirning bitta tojikcha, bitta o‘zbekcha qasidasi va bitta o‘zbekcha g‘azali berilgan.

Qo'qon xonligi tarixida hozircha ma'lum bo'lgan ayol dodhohlardan faqat Qurbonjon dodhohni (1811–1907) bilamiz. Ammo Umarxon davrida tuzilgan «Majmuat ush-shuaro» nomli to'plamga uning g'azali kiritilganligini e'tiborga olsak u mahalda Qurbonjon yosh qizcha bo'lgan edi. Zinnat kim bo'lishidan qat'i nazar, uning yozgan she'r va g'azallari mazmundor va yetuk bo'lgan. Ushbu satrlar mualliflaridan birining shaxsiy kutubxonasida bir qo'lyozma bayoz kitob bor. Unga Zinnatning «Baxru odobki...» so'zlari bilan boshlangan she'ri kiritilgan. Bunda u insonni ulug'laydi, odob haqida falsafiy fikr yuritadi, hayotda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar haqida gapirib, ularning biror kun bartaraf bo'lishiga umid qiladi, xalqni esa quyoshga o'xshatadi.

Albatta, bitta she'r bilan bir shoiraga to'la baho berish qiyin. Biz adabiyotshunoslarimiz kelajakda Zinnatning kimligini, uning yangi asarlarini topib, unga munosib baho beradilar deb umid qilamiz.

**Mohzoda Begim (XIX asr)** – o'zbek shoirasi. Uning yashagan davri va tarjimai holiga oid ma'lumotlar kam saqlangan. Mohzoda Begimning «Jahona xitob» deb ataluvchi she'ri qo'qonlik ma'rifatparvar shoir Ibrohim Davron (1874–1922) bostirib chiqargan «Ash'ori nisvon» («Ayollarning she'rlari», O'zR FA Sharqshunoslik instituti, inv. №16704) kitobiga kiritilgan. Shoira bu she'rida o'z davridagi xotin-qizlarning ayanchli qismati, ularning huquqsizligi va mudhish hayotini tasvirlab, o'zi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

**Mahzuna.** Mehribon mulla Boshmon qizi (XIX asr) – o'zbek shoirasi. Uning hayoti va faoliyati haqida to'la ma'lumot yo'q. Fazliyning «Majmuat ush-shuaro» asarida Mahzuna haqida bunday deyilgan: «U aqlu idrokda Zebunisodek yagona bo'lib, Qo'qonning mashhur shoiralaridandur. Bir oy yuzlining taxallusi Mahzuna bo'lib... Men notavon turli o'y-fikrlar bilan unga qanday g'azallar yubormayin, ul pari chehra menga har baytimga gavhardek pok javoblar qaytarar edi». Mahzunaning devoni haqida ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, hali bu devon topilmagan. Uning Fazliy bilan mushoirasi shoira qobiliyatini namoyish etib turadi, mazmunan dunyoviy g'azallarga hamohang... Erlar bilan

ayollar o'rtasidagi har qanday munosabatlar ta'qiqlangan bir davrda shoiraning Fazliy bilan mushoira qilganligi uning ijodiy jasoratidir.

Mahzunaning ayrim g'azallari qo'lyozma bayozlarda uchraydi.

**Mushtariy. Saodat (1810, vafoti noma'lum)** – o'zbek shoirasi, Xudoyorxon saroyida kotiblik, munshiylik qilgan. She'rlarida kishilarni yaxshilik, kamtarlik, poklik va adolatga chaqiradi. Johil va tuban kishilardan nafratlanadi. Uning ijodida dostonchilik va qissanavislik yetakchi o'rinda turadi. Shoiraning xalq og'zaki dostoni og'zaki adabiyotdagi «Orzigul» dostoniga mazmunan yaqin. O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida (inv. № 9922) Mushtariyning «Jamilai Dilorom» dostoni va xalq qo'shiqlari usulida yozilgan g'azallari mavjud.

**Nodira. Mohlaroyim (1792, Andijon – 1842, Qo'qon)** – o'zbek shoirasi, ma'rifatparvari, «Komila» va «Maknuna» taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy ming qabilasidan, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi.

Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va 1808-yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi. Shoira Uvaysiy bilan tanishib, uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallima sifatida saroyga taklif qiladi.

1892-yilda Umarxon vafot etib, uning 14 yoshli o'g'li Muhammad Alixon (Ma'dalixon) taxtga o'tiradi. Nodira bor imkoniyatdan foydalangan holda madaniyat va san'atni rivojlantirishga intiladi. Uning zamondoshi, saroy shoiri Hojar shunday deydi: «Umarxon vafotidan so'ng bu iffat sadafining injusi Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtirib keldi».

Nodira bir necha kitoblarni ko'chirtiradi va shoirlarni yangi-yangi devonlar, asarlar, dostonlar yozishga tashviq qiladi. Devonlarning chiroyli yozilishi, muqovasining bezatilishini shoiraning shaxsan o'zi ko'zdan kechirib turadi. U yaxshi kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni «Zarrin qalam»lik mansabiga ko'taradi.

Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvon-

saroylar qurilishiga e'tibor beradi. Katta go'ristondagi «Madrasai Chalpak», Taqachilik rastasidagi «Mohlaroyim madrasasi», «Dahmai shohon»ni ham Nodira qurdirgan.

Amir Nasrullo 1842-yilda Qo'qonga bostirib kirib, uni talon-taroj qiladi. Sulton Mahmudxonni, uning akasi sobiq xon Muhammad Alini, Nodirani va bir necha zodagonlarni fojiali ravishda o'ldiradi.

Nodiraning adabiy merosi g'oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtayi nazaridan mumtoz she'riyatining go'zal namunalaridandir.

Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi. U muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. Shoira go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohu-fig'onlarini kuylaydi.

Nodira mumtoz poeziyaning mavjud barcha janrlarida qalam tebratadi. Uning o'zbekcha va tojikcha g'azallari 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajm va aruzning turli vaznlarida yaratilgan. Shoira g'azallarining asosiy qismi 7–9 baytlidir. U mumtoz adabiyot an'alarini samimiyat va ixlos bilan davom ettiradi. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallariga muxammaslar bog'laydi. O'z g'azallarida ko'proq «muqarrar» (so'zning takrorlanib kelishi) va «qo'sh muqarrar» usullarini qo'llaydi.

Shoiraning asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tashxis, intiq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo'llanilgan. Uning lirik g'azallari chuqur mazmundorligi, insoniylik mavzulari bilan o'sha zamondagi ilg'or g'oyalarni tarannum etadi.

Nodira tojik tilida ham go'zal, ta'sirchan she'rlar yozadi. Ular ham mazmun, ham badiiy mahorat jihatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana ham keng va to'laroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

## 7. ME'MORCHILIK VA SAN'AT

O'rta Osiyodagi xonliklarda XVIII–XIX asrlarda xo'jalik tushkunlikka yuz tutib borayotgan va aholi turmushi tobora tubanlashayotgan bo'lsada, me'morchilik va san'at taraqqiyotida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu davrda qurilgan ulkan va go'zal me'morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi. Buxoroda yaxlit yodgorlik tariqasida rejalaniy amalga

oshirilgan ajoyib me'morchilik ansambli – Registonning kun botishi tomonida 1712-yilda qurilgan Bolohovuz masjidi o'sha davrning eng yirik inshooti bo'lgan. Hukmdorning saroylari, masjidlari va tanga chiqarish muassasalari makoni bo'lgan Ark qurilish majmui ham XVIII–XIX asrlarda barpo etiladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi yarmida me'morchilik sohasida xorazmlik ustalar yetakchilik qiladilar. O'sha davr yodgorliklari orasida ajoyib saroy majmualari Xazoraspdagi Rahmonqul inoq saroyi, Ko'rinishxona, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu binolar sirti naqshli sopol plita (koshin) lar bilan bezatilgan. Bu sopollardan to'q ko'k rang ustiga yashil va oq gullarning bir-biriga chirmashtirilgan rasmlari chiroyli qilib berilgan. Xonlikning poytaxti Xiva ayniqsa XVIII–XIX asrlarda gullab-yashnaydi. Shahar ikki qismdan – Ichan (ichkari) qal'a va Dishan (tashqari) qal'adan iborat. Shahar markazida joylashgan Juma masjidi (XVIII asr) – O'rta Osiyoning eng go'zal inshootlaridan hisoblanadi.

Sherg'ozixon (1718–1720), Qutlug' Murod Inoq madrasalari, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Olloqulixon, Muhammad Aminxonning katta madrasalari (XIX asr) va Tosh hovli saroyi (1830–1838-yillar) o'ziga xos nafis va go'zaldir. Bu qurilish obidalari O'rta Osiyo me'morchiligining ajoyib yodgorliklaridir.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida ham xalq me'morchiligi rivojlanadi. Xonlikning markazi Qo'qon shahrida, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanilib, shiftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o'yib solish odat bo'ladi.

O'sha davrda har uchala xonlikda ham yuqoridagidek inshoot qurilishi va hunarmandchilik san'atining turli yo'nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog'och va misga o'yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni, yarog'-aslahalar yasash va har xil uy-ro'zg'or buyumlari, matolar to'qish keng tarqaladi.

Qo'qon shahri o'ziga xos yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Bu borada Qo'qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me'morchilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva, Buxorodan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Bu borada xususan Xudoyorxon

o'rdasi, Norbo'tabiy madrasasi, Madrasai Kamol qozi kabi boshqa o'nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir.

Ko'plab tarixiy me'moriy yodgorliklar urush, ob-havo va yer qimirlashlari – zilzilalar tufayli buzilib vayronaga aylanadi, yoki yo'q bo'lib ketadi. Jumladan, 1815-yilda Qo'qon shahrida yuz bergan zilzila oqibatida juda ko'plab odamlar uylar tagida qolib, halok bo'ldilar. Ayrim joylarda yerlar yorilib ketadi. Bir necha kishilar unga tushib halok bo'ladi. Yerdan tutun chiqib suv favvora bo'lib otilgan. Yer olti oy davomida silkinib turgan<sup>1</sup>.

Teatr san'atida masxarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik kabi tomosha ko'rinishlari keng tarqalgandi. Masalan Buxoro amirligining turli shaharlarida XVIII–XIX asrlarda Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergach Masxara kabi artistlar «Rais», «Sudxo'ring o'limi», «Ko'histonlik domla», «Murabboshi» singari asarlarni<sup>2</sup> sahnalarda mohirlik bilan ijro etganlar.

XIX asrda qo'g'irchoq teatrlarining Shosolih, G'ofur, Halfarang (Qo'qon), Orifjon Qo'g'irchoqboz, Azim burun, Doniyor (Toshkent), Shomuhitdin Shoazimov, Tursunboy Abduljabbarov (Marg'ilon), Siddiq Kalon, Jo'ra Qayroq, Hamro Qo'g'irchoqboz (Samarqand), Zarif Misgar, Sharif Sayyoh, Qori Hoji (Buxoro), Qilich (Shahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo'lgan.

Xonliklar hududida raqs san'atining Farg'ona, Buxoro, Xorazm va Tog'li usullari mavjud bo'lib, o'z navbatida ularning har biri o'ziga xos janr xususiyati va turlariga ega edi. Masalan: Farg'ona o'yin san'ati: «Katta o'yin», «Kema o'yin», «Xonaki o'yin», «Yalla», Xorazm o'yin san'ati: «Maqom o'yin», «Xonaki o'yin», «Lazgi», «Yalla», «Zangbozi»larni o'z ichiga olgan va hokazo. «Tog' o'yin» ko'proq O'zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo'lib, «Besh qarsak», «Uch qarsak», «Dastbozi» kabi usullardan iborat edi.

Xulosa shuki, XVI–XIX asrlarda Vatanimiz hududidagi xalqlar hududiy tarqoqlik xo'jalik va iqtisodiy tushkunlik holatida bo'lsalarda fan, madaniyat taraqqiyotida bir qator ijobiy yutuqlar va salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Bu bilan ular jahon

<sup>1</sup> ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, кўлёзма, инв. №954, 314-варақ.

<sup>2</sup> История Узбекистана. Т. III, Т., «Фан», 1993, 412 стр.



madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qoʻshdilar. Ammo XVII–XIX asrlarda Oʻrta Osiyo va undagi davlatlar jahon sivilizatsiyasi jarayonidan tobora chetda qolaverdi, ilgʻor davlatlardan orqada qoldi. Yurtboshimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: «Nega jahonga Ahmad Fargʻoniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII–XIX asrlarga kelib to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega soʻnggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay chor Rossiyasining oʻlkamizni nisbatan oson zabt etishida mana shu qoloqlikning ham oʻrni boʻlmaganmikin»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, XVII–XIX asrlar jahon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri boʻlib kirganligi maʼlum. Xususan, Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada oʻsdi, zavod-fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi, temiryoʻllar qurildi, dengiz yoʻllari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi koʻtarildi. Oʻrta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayonlardan chetda qoldi, qoloqlikka yuz tutdi<sup>2</sup>.

Bu qoloqlikning ildizi, sabablari bor edi.

**Birinchidan**, asrlar davomida bir butun boʻlib kelgan mamlakatning, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalqning uchga boʻlinib ketishi, xonliklar oʻrtasidagi toʻxtovsiz urushlar, har bir xonlik ichidagi boshboshdoqlik va hokimiyat uchun oʻzaro tinimsiz davom etgan ichki nizo va urushlar butun mamlakatni vayron qiladi. Bu jarayon guruhbozlikni keltirib chiqaradi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir xalq boʻlib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit beradi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi.

<sup>1</sup> *Каримов И.А.* Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарк», 1998 йил, 9-бет.

<sup>2</sup> *Усмонов Қ., Содиқов М., Обломуродов Н.* Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, Т., 2002 йил, 221-бет.

**Ikkinchidan,** O'rta Osiyo davlatlarining asrlar davomida o'zgarib kelayotgan davlat boshqaruv usuli, tizimi, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g'ov bo'lib keladi.

**Uchinchidan,** O'zbek xonliklari o'rtasida ichki iqtisodiy va savdo birligi shakllanmadi. Natijada bu davlatlar hududlarida yashagan xalqlar o'rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona vatan his-tuyg'usi shakllanmadi. Aksincha, bunday olijanob his-tuyg'ularning rivojlanishi va kamol topishiga to'sqinlik qilindi. Bu XVII–XX asrlarda O'rta Osiyoda iqtisodiy va siyosiy hayot turg'unligining eng asosiy sabablaridan biri edi.

**To'rtinchidan,** qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik qilishdan iborat ishlab chiqarish munosabatlari saqlanib qolganligidir. Yer barcha boyliklarning manbaidir. Unga bo'lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Yevropa va dunyodagi boshqa mamlakatlarda mavjud yerga egalik qilishning xususiy mulk shakli qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg'arish jarayonining qudratli vositasi bo'ldi. Osiyoda, jumladan, O'rta Osiyo xonliklarida esa mulk shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar mobaynida o'zgarmadi, yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarishsiz qolaverdi. Yerning asosiy egasi ilgari egidek oliy hukmdorligicha qoldi. Xonliklarda oliy hukmdor yerning birdan bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga dehqonlarga ijara tarzida xatlab birlashtirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olinadigan hosilning egasi edi xolos. Shu bois, dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmadi. Hukmdor yerni foydalanish uchun mahalliy yer egalari va masjidlariga ulashardi.

**Beshinchidan,** xonliklarda sanoat rivojiga e'tibor kuchaymadi. Oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi boyliklarga serob konlar bo'lsada, ularni qazib olish, tog'-kon ishlarini rivojlantirish, kemasozlikni yo'lga qo'yish masalalari hal qilinmadi.

**Oltinchidan,** tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin xarajatlarini zo'rg'a qoplab, kapitalga aylanmadi. Pul, oltin, kumush xon va amaldorlarning xazina to'plash manbai bo'lib qolgan edi.

**Yettinchidan,** xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan

ajralib qolgani ustiga bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmadi.

**Sakkizinchidan**, XIX asr ikkinchi yarmida Vatan istiqboli uchun qayg'uradigan, odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo'l boshchi-sardor bo'lmadi. Buxoro amirligida ham, Qo'qon va Xiva xonliklarida ham shunday arbob tarix sahnasiga chiqmadi. Bosqinchilarga ko'ksini qalqon qilib ko'hna Turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umummilliy makon, uy deb bilgan yurtboshi topilmadi<sup>1</sup>.

Xullas, O'rta Osiyodagi yuqorida tavsifilangan omillar, bu yerdagi iqtisodiy va harbiy tang holat o'ziga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'z mustamlakasiga aylantirish siyosatini avj oldirayotgan chor Rossiyasi saltanatiga juda ham qo'l keldi. Mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy qoloqlik, parokandalik, o'zaro nizo va urushlar pirovard natijada O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishiga olib keldi.

### Nazorat savollari

1. Ashtarxoniyalar davlatining parchalanib ketishi sabablarini ko'rsating?
2. Xonliklarni tashkil topishdagi tarixiy sharoit.
3. Buxoro amirligi va Xiva xonligi munosabatlaridagi ziddiyatlarni sabablari nimada?
4. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi o'zaro nizolarni sabablari nimada?
5. Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi sabablarini ayting?
6. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot.
7. Qo'qon xonligida madaniy hayotni gullab-yashnashi.
8. Xonliklar davrida me'morchilik va san'atni rivojlanishi.
9. Xonliklar davrida ta'lim va madaniyatni ahvoli.
10. Qoraqalpoqlarning etnik kelib chiqishi haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
11. VI asr – XIX asrning 1-yarmida qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotiga doir qanday manbalarni bilasiz?
12. Xiva xonligi va Qoraqalpoq o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq munosabatlarining asl mohiyatini ayting.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Х. Содиқов, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов, Қ. Усмонов. Т., «Шарк», 2000, 52–53-бетлар.

### III B O B

## TURKISTONNING CHOR ROSSIIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

### 1. TURKISTONNI ZABT ETISHNING BOSHLANISHI

Rossiya hukmron doiralarning Turkiston yerlariga g'arazli maqsadlarda ko'z olaytirishlari hali o'lkada shayboniylar hukmronligi davom etayotgan davrlardan boshlangan. Kavkaz, Volgabo'yi, Sibir va O'rta Osiyo ustidan hukmronlik qilish rus podsholarining azaliy va asriy orzusi bo'lgan. «Grozno'y» laqabi bilan mashhur bo'lgan Ivan IV ning Moskva uchinchi Rim, to'rtinchi Rimning esa bo'lishi mumkin emas, degan so'zlarida ana shu maqsad ro'y-rost aks etgandi. Shu orzuni amalga oshirishni Ivan «Grozno'y»ning o'zi boshlab beradi, 1553-yili Qozon va 1556-yilda Ashtarxon xonliklarini bosib oladi. Moskva davlati 1581-yilda Sibirdagi musulmon podsholigiga hujum qilib, uni zabt etadi. Rus davlati O'rta Osiyo mintaqasiga ko'z olaytirib, bu yerdagi mavjud xonliklar haqida keng ko'lamda josuslik ma'lumotlarini to'play boshlaydi. Bu holat «Moskva savdo kompaniyasi» deb atalgan tashkilotning vakili Antoni Jenkinson boshchiligidagi elchilarning faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ingliz savdogarlari Antoni Jenkinson Richard va Robert Jonsonlar 1558–1559-yillarda, Moskva savdo elchisi Ivan Danilovich Xoxlov 1621-yilda Xiva, Buxoro va Samarqandga asosan o'lkani o'rganish va josuslik ma'lumotlarini to'plash maqsadida kelgan edilar.

Lekin Turkistonni Rossiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri amaliy ochiq harakat Pyotr I davridan boshlanadi. U o'zining Sharqqa nisbatan tajovuzkorlik siyosatini, O'rta Osiyo va Hindiston yerlariga suqlanib qarayotganligini yashirib ham o'tirmaydi. «Sharq bilan aloqada Qozog'iston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun millionlab mablag' sarflasa ham Qozog'istonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa u yerda Rossiya ta'sirini o'rnatish zarurdir»<sup>1</sup>, deydi Pyotr I.

<sup>1</sup> В. П. Велжевский, Л. И. Нерлюев. «Оренбургский край». Қозон, 1897, 1-жилд 136-бет.

Harbiy tarixchi K.Abaza «Zavoevaniye Turkestana» (SPb, 1902) asarida yozishicha, Pyotr I Hindiston boyliklariga suqulib qarayotgan edi. U faqat qulay vaziyatni kutardi. Bunday vaziyatni 1714-yilda turkman zodagonlarining vakili Xo‘ja Nafas Peterburgga borib Amudaryoda oltinli qumlarning ko‘pligi to‘g‘risida bergan ma‘lumoti tezlashtiradi. Oltin va boylik vasvasasi bilan Pyotr I tajovuzkorlik siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘rta Osiyoga 1717-yilda biz yuqorida tilga olgan knyaz Bekovich-Cherkasskiyni<sup>1</sup> katta qo‘shin bilan yuboradi. Ammo Xiva xoni Sherg‘ozixon tomonidan bu qo‘shin batamom qirib tashlanadi. Rossiya bilan Xiva xonligi o‘rtasida dushmanlik vaziyati kuchaydi. Pyotr I O‘rta Osiyo yerlariga bo‘lgan o‘z tajovuzkorligidan voz kechmadi. U Buxoroga josuslik maqsadlarida elchi qilib italiyalik Florio Benevenini jo‘natadi. Bu safar ham muvaffaqiyatsiz chiqadi va Benevenining o‘zi zo‘rg‘a jon saqlab qoladi va faqat Pyotr I o‘limidan so‘ng 1725-yilda Rossiyaga qaytadi. Florio Beneveni hali Buxoroda bo‘lgan chog‘idayoq josuslik ishlari bilan shug‘ullanadi va rus podshosiga yozgan xatlarining chetlarida shifrovka bilan maxfiy xabarlarini yuboradi. Ana shu xildagi xatlardan birida bunday xabar beriladi: «Amudaryo Samarqand tog‘laridan boshlanadi va ayniqsa, oltinga boy qumlari Badahshondan Gioqcha daryosiga oqib keladi. Yerli xalq tog‘lardagi yirik oltinlarni qazib oladi. Shuningdek ular loyqa soy suvlariga qo‘y terisini yoyib qo‘yib, so‘ngra oftobda quritadilar, sof oltin zarralarini terib oladilar. Bu tog‘larda oltin va kumush izlash man etilgan, ularni maxsus sarbozlar qo‘riqlaydi.

Buxoro yerlarida mis, achchiqtosh, ruh va temir ham topiladi. Xivaning Shayxjayli tog‘larida kumush ma‘danlar mavjud. Mazkur kondan xabar topgan Xiva xoni Arokkon qo‘rqib ketib bir konchini tiriklayin ko‘mdirib yuborgan. Chunki xazina daragi qo‘shni xonliklarga yetib borsa yana g‘animlik boshlanishi mumkin, edi».

Xususan, rus elchisi o‘z shohiga shunday maslahat beradi: «Agar Siz o‘z xazinangizni yana boyitish niyatini hosil qilsangiz bu joylarga tadorlik ko‘ring.

<sup>1</sup> Cho‘qintirish marosimida Aleksandr Bekovich – Cherkasskiy nomini olgan.

Chor atrofdan ko'p xavf tug'ilmasligi ayon. Chunki, Xiva, Buxoro o'zbeklari, shuningdek Paytxon (atxoy)lar ham birlari bilan urushib turadilar. Faqat hindlar tinch, ammo ularning ham knyazlari o'zaro urishishadi. Toshkentliklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar hech qachon Sizga xalaqit bermaydilar».<sup>1</sup>

«Aytishlaricha, – deb yozadi A.S.Pushkin, – Pyotr I o'limi oldidan ikki narsani amalga oshira olmagan uchun armon bilan ketayotganini aytgan; Prut yonidagi jangda Turkiyadan yengilganini va Bekovichning o'limi uchun Xivadan o'ch ololmagan uchun qattiq afsus chekkan.»<sup>2</sup>

O'rta Osiyoni bosib olish maqsadida Pyotr I zamonidayoq Qozog'istonning zabt etilgan hududlarida harbiy qal'alar va istehkomlar qurila boshlangan edi. 1717-yilda Omsk, 1718-yilda Semipalatinsk, 1720-yilda Ust-Kamenogorsk, 1742-yilda Orenburg qal'alari quriladi. Faqat XVIII asrning o'zida Chor ma'murlari yovuz niyat bilan hozirgi Qozog'iston hududlarida 46 ta katta va 96 ta kichik harbiy qal'a va istehkomlar qurganlar. XVIII asrning boshlarida har uchala Juzning qozoqlari qalmaq (jungar)larning doimiy bosqini ostida og'ir ahvolga tushib qoladi. 1723-yilda ro'y bergan og'ir ocharchilik qozoqlarning o'z mustaqilliklarini saqlab qolishlarini xavf ostiga solib qo'yadi. Oqibatda katta Juz jungarlarga siyosiy qaram bo'lib qoladi. O'rta Juz Buxoroga ko'chib borib Buxoro xonligiga, Kichik Juzning bir qismi esa Xiva xonligiga tobe bo'ladi. Bunday og'ir vaziyat Katta va Kichik Juzning xoni Abulxayrxonni o'z hokimiyatini saqlab qolish va qalmaq xataridan saqlanish ilinjida chor hokimiyati bilan yaqinlashuvga majbur etadi. Ana shu tariqa 1731-yilda Kichik Juz, 1731–1740-yillarda esa Katta Juz qozoqlarining aksariyati rus davlatining tobeligiga o'tadi.<sup>3</sup>

Bu Pyotr I orzu-armonlarining ro'yobga chiqishining boshlanishi edi. Qozoqlarning rus fuqaroligini qabul qilishlari chor mustamlakachi ma'murlarining Turkiston yerlarini egalash borasidagi bosqinchilik harakatlariga qulay shart-sharoitlar yaratadi. Biroq Yevropadagi davlatlar o'rtasidagi vaziyatning

<sup>1</sup> «Фан ва турмуш», 1992 йил, 3–4-сонлари, 27-бет.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> «Шарк юлдузи» 1990 йил, 8-сон, 184-бет.

tobora taranglashib va chigallashib borishi, rus-turk urushi (1806–1812), rus-shved urushi (1808–1809), rus-fors urushi (1805–1813) va nihoyat Napoleonga qarshi 1805–1812-yillardagi to‘qnashuv va urush, qolaversa, chor samoderjaviyasiga qarshi dekabristlar nomini olgan dvoryanlar qo‘zg‘oloni va uni bostirish chor hukumatining Turkistonga nisbatan bosqinchilik siyosatini ma’lum muddatga ortga cho‘zilishiga sababchi bo‘ladi. Biroq 1830-yillardan ma’lum darajada Yevropadagi janjalli voqealardan qo‘li bo‘shagan chor hukumati yana o‘zining ayg‘oqchilik va yovuzlik niyatlarini O‘rta Osiyo hududlariga qaratadi. 1839–1840-yillarda podsho Nikolay I ning homiyliги va fatvosi bilan Orenburg harbiy gubernatori V.A.Perovskiy katta qo‘shin bilan Xivani bosib olish niyatida yo‘lga chiqadi. Maqtanchoq va bosar-tusarini bilmaydigan Perovskiy qo‘shini tarkibida 2 ta zambarak, 40 arava, 5325 askar, 10 ming tuya bor edi. Ammo og‘ir obi-havo sharoiti, yoqilg‘ining yo‘qligi, oziq-ovqat tanqisligi, kiyim-kechaklarning yaroqsizligi natijasida Perovskiy qo‘shinlari yo‘l-yo‘lakay katta talofatlar berib Xivaga yurishni to‘xtatib orqaga qaytadi.

Chor hukumati XIX asrning o‘rtalaridan boshlab o‘zbek xonliklarining yerlarini bosib olishga astoydil kirishadi. Buning sabablari avvalo shundaki;

**Birinchidan**, o‘zbek xonliklari o‘zaro mol-dunyo, davlat va yer talashib bir-birlarining tinka-madorlarini shu darajada quritgan edilarki, ular tashqi dushmanga qarshi birlashib kurashish u yoqda tursin, hatto o‘zlarini biror bir darajada himoya qilishga ham qodir emas edilar. Bu hol chor ma’murlariga juda qo‘l kelar edi.

**Ikkinchidan**, chor Rossiyasining harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli shuni talab qilar ediki, rivojlanayotgan rus kapitalistlari uchun yangi-yangi bozorlar, foyda manbalari kerak edi. Rossiya sanoat korxonalariga esa tabiiy yer osti boyliklari, xom ashyo bazalari; paxta, ipak, qorako‘l teri va boshqalar zarur edi. 1861–1862-yillardagi fuqarolar urushi tufayli Amerikadan keladigan paxtaning kamayib ketishi o‘zbek paxtasiga bo‘lgan talabni haddan tashqari oshirib yubordi.

**Uchinchidan**, O‘rta Osiyo masalasida ingliz-rus munosabatlarining keskinlashib borishi Rossiya bosqinining tezlashishiga sabab bo‘ldi. Rossiya hukmronlik doiralari XIX



asrning boshidanoq ingliz josuslarining o'zbek xonliklaridagi xatti-harakatlarini ziyraklik va shubha bilan kuzatib bordilar. Darhaqiqat, Hindistonni Angliyaning mustamlakasiga aylantirgan Ost-Hindiston kompaniyasi oltinga boy, hamda iqtisodiy va strategik ahamiyati katta bo'lgan Turkiston o'lkasidagi voqealarni anchadan beri diqqat bilan kuzatib borar va bu o'lkani o'z tasarrufiga olish uchun qulay paytni poylardi. Buni Ost-Hindiston kompaniyasining O'rta Osiyoga bir necha marta o'z razvedkachilarini yuborganliklaridan bilsa bo'ladi. Jumladan, 1824-yilda mazkur kompaniya ayg'oqchisi Murkfort Buxoroda bo'ladi biroq u qaytish chog'ida yo'lda halok bo'ladi. 1831-yilda Buxoroga A.Byorns tashrif buyurdi. 1843-yilda 33 yashar kapitan Ebbot Xivaga yuborildi. O'sha yili Volf Buxoroga kelgan edi. U 1838-yildan buyon Buxoro amiri Nasrulloxon zindonida saqlanayotgan polkovnik Stoddart bilan mayor Konollini (bular 1842-yili qatl etilgan) qutqarish niyatida edi.

Ost-Hindiston kompaniyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligiga Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishni taklif qiladi va birlashib Rossiya tajovuziga qarshi kurashishni tavsiya etadi. Lekin bu takliflar amalga oshmaydi. Inglizlarning O'rta Osiyoni bosib olishdan iborat rejasining amalga oshuviga Hindiston bilan o'zbek xonliklari o'rtasida joylashgan Afg'oniston to'siq bo'ladi. Hatto 1838–1842-yillarda va 1878–1880-yillarda inglizlar bilan Afg'oniston o'rtasida ikki marta urush ham kelib chiqadi. Ammo inglizlar afg'on xalqining qarshiligini bostira olmaydilar. O'z milliy mustaqilligi uchun kurashga otlangan xalqni yengib bo'lmasligini o'sha davr ingliz-afg'on urushlari ochiq-oydin ko'rsatadi. Albatta, Rossiya hukumati inglizlarning ishtahasi karnay bo'lib O'rta Osiyoga intilayotganligiga befarq qaray olmasdi va bu hududlarni tezroq egallash ishtiyoqida yonardi. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi podsho Aleksandr II hukmronligi davrida nihoyatda tezlashdi. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi to'rt bosqichga bo'linadi. **Birinchi bosqich** 1847-yildan boshlanib 1865-yilga qadar davom etadi. Bu bosqichda Qo'qon xonligiga qarashli hududlar bosib olinadi. **Ikkinchi bosqich** 1865-yildan boshlanib 1868-yilga qadar davom etadi. Bu davrda Toshkent va Buxoro amirligi hududlari bosib olinadi. **Uchinchi bosqich** 1873–1879-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Xiva va Qo'qon xonligi hududlari

chor qo‘shinlari tomonidan zabt etiladi. **To‘rtinchi bosqich** 1880–1885-yillar bu davrda hozirgi Turkmaniston yerlari bosib olinadi. Rossiya davlatining Turkiston yerlarini bosib olishga intilishining yangi to‘lqini 1847-yilda boshlandi. Shu yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi – Raim egallanib, Orol harbiy qal‘asi barpo qilinadi. Orenburgda «Nikolay» va «Konstantin» degan kemalar qurilib, ular bo‘lak-bo‘lak holga keltirilib Orol dengiziga tushiriladi. Oq masjid (Qizil O‘rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, To‘qmoq va boshqa shaharlarda Qo‘qon xonligining harbiy istehkomlari mavjud edi. 1852-yilda chor qo‘shinlari Oq masjidda hujum qiladilar, lekin uni qo‘lga kirita olmaydilar. 1853-yilda general Perovskiy boshchiligida ikki ming askardan ortiq qo‘shin Oq masjidda ikkinchi marta hujum uyushtiradi. 22 kunlik qurshov va jangdan so‘ng chor askarlari istehkomni egallaganlar. Qal‘a himoyachilaridan 74 kishi tirik qolgan xolos. Chor qo‘shinlaridan bor yo‘g‘i 25 kishi halok bo‘lgan va 46 kishi yarador qilingan. Istehkomga «Perovskiy forti» nomi berilgan. Oq masjiddagi mag‘lubiyat Qo‘qon xonligini qattiq tashvishlantirdi. Tezlik bilan Toshkentda kuch to‘planib hokim Sabdalxo‘ja boshchiligida 8 ming askarlik qo‘shin va ko‘ngillilar Oq masjidni qaytarib olish uchun yo‘lga chiqadi. Lekin ikki o‘rtadagi jangda ular yengiladilar. Vatan himoyachilaridan 192 kishi halok bo‘ladi. Qo‘qon xonligi qo‘shinlari yaradorlarni 92 tuyaga ortib orqaga chekinishga majbur bo‘ladilar.

1853-yilning dekabr oyida Yoqubbek boshchiligidagi 13 ming kishilik qo‘shin Oq masjidda kelib yana dushman bilan to‘qnashdi. Yurt himoyachilaridan bu jangda mingga yaqin kishi o‘ldirildi va yarador qilindi. Bosqinchilar faqat 55 askarlarini yo‘qotdilar. Bunday ketma-ket mag‘buliyatlar Vatan himoyachilari ruhini tushirmadi. Ular 1855-yilda yana 1500 kishilik qo‘shin bilan Oq masjidda otlandilar. Ammo chor qo‘shinlariga yangi kuchlar kelib qo‘shilganini eshitib, orqaga qaytdilar.

1854-yilda Olmaota o‘rnida Verniy harbiy qal‘asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o‘rin tutgan istehkomlardan bo‘ldi.

1855–1857-yillardagi Qrim urushi munosabati bilan chor ma’murlari O‘rta Osiyoni zabt etish bo‘yicha katta miqiyosdagi

harbiy harakatlarni olib borolmaydilar. Qrim urushidagi mag'lubiyat O'rta Osiyoning Rossiya uchun siyosiy va strategik jihatdan qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Rossiya O'rta Osiyo uchun olib boriladigan raqobatli kurashda Buyuk Britaniya qirolligini nafaqat siyosiy-iqtisodiy va strategik jihatdan balki harbiy jihatdan ham mag'lubiyatga uchratish va Qrim urushidagi mag'lubiyat tufayli xalqaro maydonda bo'shashib qolgan obro'sini tiklashi ham mumkin edi. Chunki hind xalqining butun mamlakatni qoplab olgan va inglizlar tomonidan zo'rlik bilan bostirilgan 1857-yilgi qo'zg'oloni Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mavqeyi uncha mustahkam emasligini ko'rsatdi. Shu boisdan Rossiya hukmron doiralari o'rtasida O'rta Osiyo muammosini tezroq hal qilishga chorlovchi xat, da'vat va takliflar 1860-yillarda tez-tez ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. Jumladan, Orenburg general-gubernatori Katenin tashqi ishlar vaziriga yozgan xatida «O'rta Osiyo mulkiga hukmronligimizni o'rnatishimiz uchun albatta Turkiston va Toshkentni egallashimiz shart» deb ko'rsatdi. Uning fikricha, Toshkentni qo'lga kiritish Buxoro mulklariga qurolli kuchlar bilan borish uchun albatta zarurdir.

1862-yilda «Russkiy vestnik» oynomasi sahifalarida ham Turkiston yerlarini bosib olishga da'vat etuvchi bir qator shovinistik g'oyadagi maqolalar bosilib chiqarildi. «Golos» deb ataluvchi liberal oynoma esa Hindistonni mustamlakaga aylantirgan inglizlardan namuna olishga da'vat qiladi, «Kaspiyni rus dengiziga aylantirish, O'rta Osiyoning ko'chmanchi elatlarini o'troq yashashga o'rgatish, bu saxroyilar bilan pachakilashib o'tirmay, ularni hattoki terror qilishga chaqirdi. Harbiy vazir D.A.Milyutin harbiy yurishlarning doimiy tarafdori edi. Shu bois u 1864-yil oktabrida tashqi ishlar vazirligi tomonidan podshoh uchun tayyorlangan agressiv xarakterdagi ma'ruza matnini batamom ma'qulladi. Bu matnda Rossiyaning Sharqqa intilishi oqlanadi, «Yarim yovvoyilar» qabilalari bilan to'qnashib qolgan damlarda o'ta tinchliksevar siyosatni saqlab qolishning imkoni yo'qligi xususida, Qo'qon xonligining tabiiy boyliklari bo'lmish paxta, ipak, qimmatbaho ma'danlar to'g'risida gap boradi. Xullas, oltmishinchi yillar boshlarida Turkistonni bosib olish bo'yicha



**Polkovnik M.G. Chernyayev**

g'oyaviy tayyorgarlik ko'riladi. Endigi asosiy vazifa bu g'oyani amalga oshirishdan iborat edi.

1860-yilda polkovnik Simmerman qo'shini Qo'qon xonligining 5 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpak qal'alarini egalladi. Iliorti vodiysi Alatov okrugi deb o'zgartirildi. Xuddi shu yili 21-oktabrda polkovnik Kolpakovskiy otryadi Qora Kostek daryosi yon bag'ridagi Uzun yog'och soyidagi jangda Qo'qon xonligining 20 ming qo'shinini batamom qirib tashladi.

1861–1863-yillarda chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga bir necha zarbalar berdi. Bu davrda Qo'qon xonligiga qarashli Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka va ikkinchi marta Pishpek egallanadi.

1863-yil yozida polkovnik Chernyayev Orenburg general-gubernatori Bezakning roziligi bilan Sirdaryo yoqasidagi So'zoq qal'asini qo'lga kiritdi va uni tevarak-atrofdagi aholisi bilan birga «Rossiyaning mulki» deb e'lon qiladi.

1864-yil boshida Verniy (Olmaota) istehkomidan chiqqan 2500 kishilik Chernyayev boshchiligidagi chor qo'shinlari 4-iyunda Avliyootani egallaydi. Shahar ostonasidagi jangda vatanparvar kuchlarning 1500 kishilik qo'shinlari va xalq qasoskorlari mag'lubiyatga uchradilar. Himoyachilardan 307 kishi o'ldiriladi va 390 vatanparvar yarador bo'ladi. Chernyayev bilan izma-iz Perovskiy otryadidan chiqqan polkovnik Vervovkin guruhi esa Turkiston qal'asiga yurish qiladi va uni 12 kunda bosib oldi.

1864-yil 16-iyulga qadar chor armiyasi qo'shinlari ikki yo'nalish bo'yicha mustaqil harakatlarni davom ettiradi. Sibir-Yorkend tomonidan 8-G'arbiy Sibir, 21-Sibir kazak armiyasi batareyasi, Orenburg – Xiva yo'nalishi bo'yicha esa 4-Orenburg liniya bataloni, 1864-yildan boshlab 2-Orenburg liniya batalonining 1-vzvodi; 1865-yildan 6- va 9-Orenburg liniyalari bataloni, 4-G'arbiy Sibir bataloni janub tomondan o'z haraka-

tini davom ettirib, shahar va qishloqlarni birin-ketin egallab bo'radi.

Avliyoota va Turkistonning dushman tomonidan zabt etilishi butun Qo'qon xonligini oyoqqa turg'azdi. Toshkent shahri chorizm bosqinchilariga qarshi kurashning markaziga aylandi. Bu yerga Marg'ilondan, Yusufbek, Xo'janddan Mirza Ahmad Qushbegi qo'mondonligida qo'shinlar, Andijon, Namangan, O'sh va boshqa joylardan harbiy qismlar keltiriladi. To'plangan qo'shin va xalq qasoskorlariga Qo'qon xonligining lashkarboshisi mulla Alimqul boshchilik qiladi<sup>1</sup>. Vatanparvar kuchlar to'plangach duo fotiha olib Chimkent tomon ravona bo'ladilar.

Chimkentda bir kecha-kunduz qattiq jang bo'ladi. Muhammad Solih o'zining «Tarixi jadidi Toshkand» asrida yozishicha: «So'ngra to'rt tomondan askarlar otdan tushdi va karnay sadolari ostida rus askarlariga qarshi hujumga o'tiladi. Himoyachilar 2–3 ming qadam yugurgach, dushmanning to'p va miltiqlaridan yomg'irdek yog'ilgan o'qlar ostida qoldilar». Oqibatda 12 ming kishi halok bo'ladi va yaralanadi. Ammo general Chernyayev boshchiligida chor qo'shinlari urushni davom ettira olmay Turkistonga qaytishga majbur bo'ladi. Jinay degan joyda bo'lgan jangda ham vatanparvarlarning qo'li baland keladi. Vatan himoyachilari Iqon qal'asi uchun bo'lgan jangda ham g'alabaga erishadilar. Alimqul boshchiligida yurt himoyachilari urushni davom ettirish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarxonning Qo'qonga hujum qilganligi to'g'risida xabar oladi. Natijada lashkarboshi Alimqul qo'shinning katta bir qismini Chimkentda qoldirib o'zi Qo'qonga qaytishga majbur bo'ladi. Albatta bu hol dushmanga qo'l keladi va Chernyayev 1864-yil 21-sentabrda Chimkentni jang bilan egallaydi. Shahar mudofaachilaridan ko'p kishi qirib tashlanadi.

Shu paytga qadar ikki yo'nalishda mustaqil harakat qilib kelgan chor armiyasining ikki qo'shini Chimkent shahrida tutashadi. Istilo qilingan yerlar hisobiga 1865-yilda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil etiladi; uning tepasiga general Chernyayev qo'yiladi.

<sup>1</sup> *Qarang:* Амир лашкар Алимкул тарихи. Алимкул жангномаси. Нашрга тайёрлади: Р.Т.Шамсутдинов. П.Равшанов. Т.,1998: Хабибулло, Рустамбек Шамсутдинов. «Ёлкин». Тарихий роман. Т., «Шарк», 2001.

## 2. TOSHKENTNING MUDOFAA QILINISHI

General Chernyayev o'zining butun vujudi va nigohini Toshkent shahrini egallashga qaratadi<sup>1</sup>. Holbuki podsho Aleksandr II bu shaharni olishni man qiluvchi qat'iy buyruq bergan edi. Chernyayev 1864-yil 27-sentabrda yo'lga chiqadi. Bu davrda Toshkent mudofaasi umumxalq harakatiga aylangandi. Shahar mudofaasi uchun Toshkent garnizonida 30 ming himoyachi, 48 mis va 15 ta cho'yan to'p bor edi. Toshkent shahar aholisi ona yurtni himoya qilish uchun bir tanu bir jon bo'lib battol dushman bilan tengsiz jangda olishadi.

Tarixchi Muhammad Solihning «Tarixi jadidi Toshkand» asarida yozishicha Toshkent shahar aholisi battol dushmanga qarshi qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatgan. U shunday hikoya qiladi: «Shahar g'ariblari, fuqarolari va qariyalari ibodatu namozdan ko'ra qo'llaridan kelguncha yordam berish afzalroq, savob deb, askarlarga suv, oziq-ovqat tashib turdilar. O'sha zamonda Toshkent qalin va baland devor bilan o'ralgan bo'lib, 12 ta darvozasi bor edi. Devor ustidan ikki otliq kishi bemaol yurishi mumkin edi. Chor qo'shinlari shahar yaqinidan turib to'plardan o'qqa tutadilar. O'z navbatida javob o'qlari ham otiladi. Bosqinchilarning bir guruhi shahar devori atrofida qazilgan zovurga tushib oladi. Himoyachilarning uyushgan hujumiga chor askarlari dosh bera olmaydi. Dushman 72 kishini yo'qotadi va bu holni ko'rgan general Chernyayev Chimkentga qaytishga majbur bo'ladi. 1865-yilning 28-aprelida Chernyayev Chirchiq yonidagi Niyozbek qal'asini jang bilan ishg'ol etadi. Toshkentlik bir xoinning maslahatiga ko'ra Chernyayev Kaykovus arig'i to'g'onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada toshkentliklar suvsiz qolib, og'ir ahvolga tushadilar. Shunga qaramay, aholi mudofaani mustahkamlashga kuch-g'ayratini ayamaydi. Ko'p o'tmay Qo'qondan lashkarboshi Alimqul qo'shini bilan madad bergani keladi. Bu toshkentliklar ruhini ko'tarib yuboradi. Ular qo'qonliklarni zo'r xursandchilik bilan qarshi oladilar. Muhammad Solih ma'lumotiga ko'ra, «Toshkent amaldorlari, sardorlari, ulamo, shayxlar, g'ariblar,

<sup>1</sup> *Mazkur mavzuni yanada bilish uchun qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. 69–91-betlar.*

gadolar, erkak-ayollar aralash ularning istiqboliga chiqib, shod-xurram kutib oladilar». Dushman bilan jang Solor arigʻi (hozirgi «Turkiston» saroyi yonidagi arigʻ) atrofida davom ettiriladi. Xullas shahar himoyachilari dushmanni chekinishga majbur qiladilar. Bu gʻalaba shahar ahli tomonidan shod-u xurramlik bilan karnaysurnay sadolari ostida qarshi olinadi. Shahar xalqi Muhammad Solihning yozishicha: «Yetti yoshdan yetmish yoshgacha erkak-xotin, yoshu qari xizmat kamarini bellariga bogʻlab pishgan taomlarni boshlariga koʻtarib, qatiq, sut, sharbat, issiq nonlar, shirin mevalarni savatlarga solib, askarlar turgan joylarga olib kelib iltijo, tavallo va dildorlik qilib, koʻzlaridan hasrat yoshlari oqib, koʻz yoshlari suvi bilan askarlarning yuzlaridan chang-gʻuborni yuvib, artib, koʻzguday tozalab, ovqatlarni yeb bitirishlarini iltijo qiladilar». Gʻalabadan ruhlangan Alimqul boshchiligidagi vatan himoyachilari Shoʻrtepada joylashgan dushman kuchlariga qarshi hujum uyushtiradilar. Jangda lashkarboshi Alimqul qattiq jarohatlandi va koʻp oʻtmay halok boʻladi. Bu hol albatta jangchilarimizning ruhiy holatiga salbiy taʼsir qiladi. Buning ustiga qirq ikki kun davomida suvsizlik va tashnalikda tish-tirnogʻigacha qurollangan dushmanga qarshi olib borilgan mudofaa jangi Toshkent shahri aholisining tinkamadorini quritadi. Ustiga ustak Chernyayev shaharga hujumni janubdan – Temur darvozasi yoqdan boshlab Buxoro va Xorazmdan keladigan yordam yoʻlini kesib tashladi. Shaharga chetdan yordam umuman boʻlmadi. Alimqul vafotidan soʻng Chernyayev Toshkent shahrining jangsiz taslim boʻlishini kutadi. Ammo shahar aholisi kurashni davom ettiradi. Toshkent shahriga Buxoro amirligidan yordam kuchlari kelayotganligini eshitgan Chernyayev 9-mayda hal qiluvchi hujumga oʻtadi va faqat 14-iyundagina qattiq janglardan soʻng shaharga yorib kiradi. Nihoyat, 1865-yil 17-iyunda qarshilik koʻrsatishning foydasizligini hisobga olgach shahar himoyachilari shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlaydi. Chunki Chernyayev Shayxontohur, Beshyogʻoch va boshqa aholi gavjum yashaydigan joylarga toʻplarni oʻrnatib, agar darhol sulh tuzilmasa shaharni toʻplardan oʻq uzib kultepaga aylantiraman, deb dagʻdagʻa qiladi. Chernyayev shaharning Hakim Xoʻja qozikalon, Abulqosim eshon, domullo Solihbek oxun singari nufuzli kishilari bilan sulh muzokaralarini boshlaydi.



Sulh ahdnomasiga ko'ra, shahar xalqining o'z dinida qolishi, barcha ishlar «shariat» asosida olib borilishi, hovli, bog' va maydonlar avvalgidek o'z egalari qo'lida qolishligi ko'rsatiladi. Ahdnomaga shaharning har to'rt; Shayxontohur, Beshyog'och, Sebzor va Ko'kcha mavzalarining muhrlari bosiladi.

Toshkent shahrining Chernyayev tomonidan bosib olinishi Peterburgda zo'r mamnuniyat bilan kutib olingan bo'lsada, hukumatning ayrim odamlari bundan norozi bo'lib, tahlikaga tushgan edilar. Chunki Toshkentning bosib olinishi munosabati bilan xalqaro matbuotda katta shov-shuvlar ko'tarilmoqda edi. Chernyayev bu holni oldini olish uchun va o'zining bosqinchilikdan iborat vahshiyona harakatlarini oqlash maqsadida ayyorlik yo'liga o'tib maxsus xat tayyorlattiradi. Toshkent shahri aholisi nomidan tayyorlatilgan bu xatda go'yo shahar general Chernyayevga «o'z ixtiyori» bilan taslim bo'lganligiga asosiy urg'u berilgan edi: «Necha zamonlar va yillardan beri Turkistonda Farg'ona xonlari hukmronlik qilib fuqarolarga ko'p jabr-zulm o'tkazgan. Ular zakot xirojlarini shariat qoidalari asosida olmasdan ortiqcha olganlar va hech qashon marhamat qilmaganlar, qadimgi urf-odat taomildan voz kechib, ko'p yillar mansab uchun katta kishilarni o'ldirib, fitna va ig'vogarlar so'ziga amal qilganlar. O'rtada nohaq qonlar to'kilib, ular shariatga va ulamolar so'zlariga amal qilishdan bosh tortadilar. Farg'ona va Turkiston zaminida ko'p vaqtlar va ko'pincha qipchoq, qozoq va qirg'iz avboshlari va beboshlari hukmronlik qilib keldilar. Shuning uchun fuqaro va mamlakat tinchligi uchun ixtiyorimiz va rag'batimiz bilan rus askarlarini olib kelib ularga shaharni topshirdik».

Bu xat mazmuni o'qib eshittirilgach, hamma hayron bo'lib turgan bir paytda Solihbek oxun so'z olib bunday degan: «Bizlar voqea va hodisalarni bekitmasdan ma'lum qilamizki, Toshkentdan Oq masjidgacha va bu yerdan G'uljagacha bo'lgan shahar va qal'alar – Toshkentga qarar edi. Bu joylarni rus askarlari urush va talash bilan qo'llariga kirgizdilar. Urush to'satdan muhlatsiz va so'zsiz olib boriladi. Toshkent shahri zulxijja oyning yarmidan boshlab, safar oyining o'n ikkinchisigacha, ya'ni qirq ikki kun davomida suvsiz, ovqatsiz qoldiriladi. Mulla Alimqul lashkarboshi shahid bo'lgandan keyin sardorsiz qoladi. Buxoro, Xorazm va farg'onaliklar yordam bermaydilar. Toshkent fuqarosi vatanlari

va din uchun qattiq turib, urush-talashni davom ettirib, seshanba kuni yarim kecha o'tgandan keyin saharga yaqin rus askarlari xiyobon darvozasi va qal'aning devori ustidan kiradi. Shundan keyin yana kirishib payshanba kunigacha ikki kecha-kunduz urushib turadilar. Bu o'rtada ko'p imoratlar, do'konlar va uy-joylarga o't tushib, och-tashna, suvsiz, yakkama-yakka urush bo'lib, oxirida yarash sulhi tuzildi».

Solihbek oxun domlaning bu haq va adolatli so'zlaridan general Chernyayev g'azabga keladi. U kimda-kim ushbu so'zlarga qo'shilsa, bir tomon o'tsin deb buyruq beradi. Shaharning nufuzli kattalaridan yetti kishi: Halimboy, Berdiboy, Azimboy, Fozilboyvachcha, mulla Muzaffarxo'ja va mulla Fayzullalar Solihbek oxun domla qatoridan joy oladilar. Ular shu zahotiy oq hibsga olinib qamoqqa solindilar va keyinchalik Sibirga surgun qilinadilar. Bundan qo'rqib qolgan shaharning boshqa nufuzli a'yonlari Chernyayev ahdnomasiga sotqinlarcha imzo chekishdan boshqa ilojni topa olmadilar. Chernyayev qalbaki ahdnomani Abusaid va Xodixo'ja ismli savdogarlar qo'liga tutqazib Peterburgga eltib oq podsho hazratlariga topshirishni buyuradi. Rossiya hukumati o'zining Turkistondagi bosqinchilik urushlarini oqlash va xaspo'shlash uchun qalbaki hujjatni ko'paytirib o'z elchilari orqali dunyo mamlakatlariga tarqatdi va xalqaro matbuotda ko'tarilgan shov-shuylarni shu yo'l bilan oldini olmoqchi bo'ladi. Jumladan, Turkiyadagi rus elchixonasi qalbaki ahdnomani Istanbuldagi ko'chalarga, bozorlarga, do'konlarga, umuman aholi gavjum to'planadigan joylarga yopishtirib chiqqan.

### **3. BUXORO AMIRLIGIGA QARSHI OLIB BORILGAN JANGLAR<sup>1</sup>**

1866-yil yanvar oyining oxirida Chernyayev Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 8–9 ming kishilik shahar himoyachilarining ko'rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo'ladi. 1866-yil mart oyida Chernyayev Peterburgga chaqirib olindi, uning o'rniga general Romanovski yuboriladi. Toshkentga

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. 92–138-бетлар.

yordam uchun yuborilgan Buxoro amirining 100 ming kishilik qo'shini bilan general Romanovskiyy qo'mondonligidagi chor Rossiyasi qo'shinlari o'rtasida 8-mayda Erjarda bo'lgan jangda rus qo'shinlari g'alaba qozonadi. 24-mayda rus askarlari Xo'jandda ham g'alabaga erishadilar. Avgust oyida Romanovskiyy Toshkent, Xo'jand va Chirchiqorti o'lkasini Rossiyaga qo'shib olish to'g'risida ko'rsatma beradi. Buxoro amiri bilan muzokarlarda kelisha olmagach, Romanovskiyy 2-oktabrda Buxoro amirligiga qarashli O'ratepa qal'asini, 18-oktabrda esa Jizzaxni bosib oladi. Jizzax uchun jang g'oyatda dahshatli bo'lgan. Tarixchi olim Hamid Ziyoyevning yozishicha bu jang davomida «...to'kilgan odam qoni bamisoli ariq suviga o'xshab oqqan». Romanovskiyy 1866-yil 19-oktabrda Harbiy vazirga yozgan telegrammasida Buxoro amirining Sirdaryo vodiysidagi so'nggi tayanchi, besh kunlik qamaldan so'ng 18-oktabr soat 12 da zarb bilan egallandi. Himoyachilardan oz qismi qutulib qoladi, xolos. Ko'plari halok bo'ladi yoki asir olinadi. «26 bayroq, 53 qurol va juda ko'p boyliklar qo'lga tushiriladi. Bizning yo'qotishimiz, xudoning irodasi bilan 100 kishidan kamroq bo'ldi, shu jumladan to'rt ofitser yaralandi». General Romanovskiyy Jizzax uchun bo'lgan jangda kamida 6 ming kishi o'ldirilganligi va 2 ming kishining asir olinganligini yozgan edi. Qizig'i shundaki, Buxoro amiri rus qo'shinlariga qarshi birgalikda jang qilishni Qo'qon xoni Xudoyorxonga taklif qilganda u turli vaj-karsonlarni bahona qilib bu ishga bosh qo'shmaydi. Amirlik qo'shinlari Xo'jand va Jizzaxda yengilgach, Xudoyorxon rus bosqinchi generali Romanovskiyyga tabrik telegrammasi yuboradi. Bu telegrammada biz quyidagi sharmandali jummalarni o'qiyimiz: «Oq podsho bilan do'stlikni saqlab, turli bahonalar bilan Qo'qondan chiqmadim va o'z chegaralarimni saqlash uchun 35 ming qo'shinni to'plab Shaytonmuzgarda turdim. Shundan so'ng Xo'jandda turgan amir o'z qo'shini va boshlig'ini olib shaharni mutlaqo bo'sh qoldirganligini eshitdim; bu haqdagi xabarni bilib o'z qo'shinim va artilleriyam bilan orqaga qaytdim va agar men Oq podsho bilan do'stlikni istamaganimda men qo'shinim bilan Shaytonmuzgardan qaytmasdanoq, Xo'jandga kirar edim va buning oqibatida Buxoro amiri bilan kuchli raqib bo'lur edim. Alloh yordamida Siz Xo'jandni zabt etdingiz, buni eshitib, ilgari

do'stlikni mustahkamlash uchun Sizni g'alaba bilan tabriklayman».

1867-yil 14-iyundachor hukumati bosib olgan joylarda favqulodda Turkiston general-gubernatorligi tuziladi. Injener-general K.P.Kaufman bosh qilib tayinlangan bu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan edi. K.P.Kaufman podsho Aleksandr II dan katta vakolatlar bitilgan «Oltin yorliq» oladi. U mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish va boshqa huquqlarga ega edi. Shu bois Turkiston xalqi K.P.Kaufmanni «Yarim podsho» deb atagan.



**K.P. Kaufman**

Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman o'zi hukmronlik qilayotgan hududlarda rus davlati mavqeyini mustahkamlash va Turkiston o'lkasidagi qonli fojialarni niqoblash maqsadida bir guruh mahalliy sotqin tabaqa vakillarini O'rta hukumat bilan kelishgan holda Peterburgga yuborishga qaror qiladi. Bu vakillar asosan rus davlatiga sodiq, rus qo'shinlariga har tomonlama yordam bergan kishilardan tashkil topgan edi. Vakillar ro'yxatiga Shayx-ul-Islom Nosir mulla Isoq (Turkiston shahridan), Qozi Mirza Talashpan (Chimkentdan), oqsoqol Amin Suni Shayxov (Iqon qishlog'idan), Duglat qabilasining biyi mayor Xudoybergan (Avliyootadan), qora qirg'iz qabilasining biyi Baytiq Kanap (Avliyootadan), Saidazimboy Muhammadboyev (Toshkentdan), Eshonxon Imomxonov (Toshkentdan), qozikalon Yusufxo'ja Abdullaxo'jayev (Xo'janddan), oqsoqol Abdug'affor Sarimsoqov (Jizzaxdan) va boshqalar kiritilgan edilar. 1867-yil mart oyida Peterburgga yetib kelgan Turkiston vakillarini eng oliy darajada izzat-ikrom bilan kutib olinadi. Ular tuzilgan rejaga asosan hukumat nozirliklarida, saltanat saroyida, Ermitajda, xalq kutubxonasida, muzeylarda, fanlar akademiyasida, zoologiya bog'ida, Petropavlovsk qal'asida, fabrika va zavodlarda, savdo birjasi, magazinlarda, teatr va sirkda, kasalxonalarda, saltanat



**Said Muzaffarxon**

bog'ida (Sarskoye selo) va boshqa diqqatga sazovor joylarda bo'ladilar. Bunday «mehmondo'stlik»ning bosh maqsadi Rossiya davlatining qudratini namoyish qilishdan iborat edi. Turkiston vakillarini hatto podsho Aleksandr II ning o'zi qabul qiladi. Ular «oliy hazratga» go'yo Turkiston aholisining rus davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, mangu sodiqligini izhor etuvchi maktubni topshirganlar. Bu maktubga Toshkent, Turkiston, Xo'jand, Chimkent va boshqa joylarning kattalaridan 59 kishi imzo chekishga majbur bo'lgan edilar.

Ana shu tariqa chor ma'murlari Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi aholi go'yo o'z ixtiyori va istagi bilan rus davlati fuqaroligiga «o'tgan»ligini jahonga namoyish qilishga uringan edi. Turkistonda esa qonli va qirg'inbarot urushni davom ettiradi. Jumladan 1867-yil 7-iyunda rus askarlari Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'onda 25 ming kishilik Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillarini tor-mor keltiradi.

1868-yil 1-mayda Samarqand ostonasidagi Cho'ponota tepaligidagi shiddatli va beayov jang bo'ladi. 2-mayda Samarqand shahri taslim bo'lishdan o'zga chorani topmaydi. Buxoro amiri Muzaffarxon bu xabarni eshitgach, shu darajada dahshatga tushdiki, jahl ustida bu «shum xabar»ni keltirgan xabarchini osib o'ldirishga farmon beradi. Amirning chorasiz va ilojsiz vasvasasi asta-sekin yig'iga aylanadi. U «xudo meni Samarqanddan mahrum qilgandan ko'ra jonimni olgani yaxshi edi», deb oh-fig'on chekadi. Chunki Sohibqiron Amir Temur barpo qilgan poytaxtini g'ayridinlar bosib olishi juda katta yo'qotish ediki, bu voqea butun islom dunyosida kuchli aks-sado berdi. Amir Muzaffarning xalqi o'rtasida obro'si tushib ketadi. Xalq g'azabga keladi. Ayniqsa, amirning chor hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni juda keskinlashtiradi. Xalq amirdan urushni davom ettirishni talab

qilib qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olon markazi Cho'li Malik edi. Qo'zg'olonchilar so'yil, nayza va shuning singari oddiy narsalar bilan qurollangan edilar. Amir Muzaffar qo'zg'olonni butun Zarafshon vodiysiga tarqalib ketishidan qo'rqib uni tezda bostirdida, darhol beklar bilan kengash o'tkazadi. Unda sulh tuzish yoki urushni davom ettirish masalasi muhokama qilinadi. Kengashda birinchi bo'lib so'z olgan lashkarboshi Usmonbek bunday deydi: «Xonlikning xalqi urushni davom ettirishni talab etayotgan bir paytda kofirlarga kontributsiya (tovon) to'lagandan ko'ra bir tomchi qoni qolguncha kurashish afzalroqdir». Bu fikrni kengash qatnashchilari yakdillik bilan qo'llab-quvvatladilar. Muzaffar barcha kuchlarini jamlab, Samarqandni qaytarib olishga kirishadi<sup>1</sup>. 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to'pli Buxoro qo'shini Zirabuloq tepaligiga kelib o'rtnashadi. Qo'shinni ruhlantirish va g'alabaga chorlash niyatida amir Muzaffar ularga quyidagicha murojaat qiladi: «Sodiq musulmon fuqarolari! Sizlarning zahmatlaringiz uchun rahmat, sizlarni ishontiramizki, g'alaba biz tomonda bo'lg'ay. Samarqand va Kattaqo'rg'onning qo'ldan ketishi biz uchun unchalik katta yo'qotish emas. Biz temuriylar avlodimiz, biz o'z yerimizni qanday qilib qaytarib olishni ko'rsatib qo'yamiz. Musulmonlar! Men dinimiz va Vatanimiz uchun musulmon ahlining qahramonona jang qilishini kofirlar ko'z o'ngida namoyon etishingizga umid qilaman. Xalq bizdan g'alaba kutayapti, u jangdan so'ng sizlarni qarshi olganida din va Vatan himoyasi uchun kurashgan va yerimizni kofirlardan tozalaganlar, deb aytsin. Zirabuloq jang maydonida halok bo'lganlar sharafiga shonli yodgorlik o'rnatiladi., Musulmonlar! Turkiston general-gubernatori talab qilayotgan 125 ming tilla (500 ming so'm) sovg'a sifatida sizlarga beriladi. Ishonchim komilki, sizlar mening umidlarimni ro'yobga chiqarib, samarqandliklar to'nidagi qora dog'ni yuvasizlar. Musulmonlar, Sizlarga zafar yor bo'lsin!». Ushbu murojaat to'plar ovozi ostida o'qib eshittiriladi. 1868-yil 2-iyun general K.P.Kaufman qo'mondonligidagi qo'shin va himoyachilar o'rtasida jang boshlanadi. Buxorolik mudofaachilar «Olinglar, olinglar, axir!...» deyishganicha dushmanga qarshi hu-

<sup>1</sup> Samarqand uchun janglar, Samarqand fojiasi haqida batafsilroq ma'lumot olish uchun qarang: «Ўзбекистоннинг янги тарихи». Биринчи китоб... 103–24-бетлар



jum qiladilar. Ammo ko‘p talofat ko‘rib mag‘lubiyatga uchraydilar. Bu xabar xalq g‘azabini battar kuchaytiradi. Amir qo‘rqib Qizilqum tarafga qochib ketadi. Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo‘zg‘oloni boshlanadi. Yurt himoyasiga shahar atrofidagi qishloq va ovullardan minglab kishilar kelib qo‘shiladi. Naymanlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlar, qirq juzlar va boshqa qabilalar Jo‘rabek va Bobobek boshchiligida Shahrisabzdan kelayotgan 20 ming kishilik qo‘shin qasoskorlarga qo‘shilib, Samarqanddagi qo‘zg‘olonchilar safini to‘ldiradi. Natijada Samarqand chorizmga qarshi umumxalq kurashining o‘chog‘iga aylanadi. Bir necha ming kishilik qo‘zg‘olonchilar shahar qal‘asida o‘rnashgan chor qo‘shinini qurshab olib jangga kirishadi. Ammo Shahrisabz beklari chor qo‘shinlariga yordamchi kuchlar kelayotganidan xabar topib, Samarqandni tashlab chiqadi.

K.P.Kaufman Zirabuloq yaqinida Buxoro amirligi qo‘shinlarini tor-mor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytadi. 8-iyunda u Samarqandni to‘plardan yoppasiga o‘qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq beradi. 9-iyunda Samarqandda fojiali qirg‘in boshlanadi. Qirg‘in uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday so‘roqsiz, tergovsiz otib tashlanadi.

Samarqanddagi qo‘zg‘olon yakunlariga ko‘ra uning boshliqlaridan 19 kishi o‘limga va 19 kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilinadi. Buning ustiga, qo‘zg‘olonchilarning aksariyati esa jangu jadalning o‘zidayoq qirilib ketadi. Chor qo‘shinlaridan 275 kishi o‘ldirildi va yarador bo‘ladi. Boshqa joylarda bosqinchilar bunchalik ko‘p talofat ko‘rmagan edi. Shuning uchun general K.P.Kaufman «Samarqand qal‘asidagi talofatni juda katta yo‘qotish», deb baholaydi. Bu vaqtda amir Muzaffarning obro‘ va mavqeyi tobora tushib, taxtda zo‘rg‘a ilinib turardi. Amir Karmanaga kelib, o‘z amaldorlari ishtirokidagi kengashda chor hukumati bilan sulh tuzishdan bo‘lak chora qolmaganini ma‘lum qilib: «Endilikda barcha qo‘shin va qurol-aslahalarni, to‘plarni oq podshohga topshirib, menga Makkaga hajga borishga ruxsat berilishini undan so‘rayman. Sezib turibmanki, mening o‘limim yaqin, taqdirim va hayotim xalqning qo‘lida» deb aytishni o‘ziga ep ko‘rgandi.

1868-yilning 23-iyunida amir Muzaffarning elchilari Sa-



marqandga K.P.Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradi. Sulhga ko'ra Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib, Rusiya tarkibiga kiritiladi. Amir tovon sifatida 500 ming so'm tilla pul to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka rozilik beradi. Shuningdek Rusiya savdogarlariga xonlikning tasarrufida bimalol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etiladi. Ular to'laydigan boj miqdori buxoroliklar to'laydigandan oshmasligi kerak edi. Xullas, shartnoma tuzilganidan so'ng Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, Rusiya davlatiga tobeligini tan oldi. Bu esa vatanparvar, hur fikrli odamlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ladi. Hatto amirning o'g'li Abdumalik Katta to'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, Muzaffarxon va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettiradi. Ular amirning taxtdan mahrum etilganini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'playdi. Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobek Katta to'rani xon deb e'lon qiladilar. Natijada amir Muzaffarxonning ahvoli nihoyatda og'irlashadi. Ota-bola qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari yengiladi.

1868-yilning kuzida Buxoro amiri Muzaffar o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun general-gubernator nomiga maktub yo'llaydi. Kaufman bu maktubdan shuni angladiki, amirning o'g'li Abdumalik otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Qarshi atrofida katta kuch to'plagan. Kitob begi Jo'rabek Shahrisabz hokimi Bobobek va Sulton Sodiq Kenisarov otryadlari shahzoda armiyasi tayanchlari ekan.

O'shanda Samarqand okrugi boshlig'i, general-mayor Abramov bu uch otryad boshliqlaridan eng xavflisi Sodiq Kenisarov ekanini aytgan.

Chor qo'shinlariga qarshi ilgarilari ham bir necha bor qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatib jang qilgan Sulton Sodiq Kenisarov 1868-yilda Buxoro amiri qo'shini safida Kaufmanga qarshi kurashadi. Zirabuloqdagi jangda amir qo'shinlari bilan qochganida, Sodiq o'z yigitlari bilan jang maydonida qoladi. Keyin u Kaufman bilan sulh tuzgan amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga qo'shib, Kitob begi Jo'rabek va Shahrisabz begi Bobobek sarbozlari safidan joy oladi.



**Kitob hokimi Jo'rabek.**



**Shahrizabz hokimi Bobobek**

Kaufman bunday xavfli dushmanlarga qarshi tajribali general Abramovni yuboradi. Qo'zg'olonchilar Qarshi ostonasida rus qo'shinidan yengilib, turli tomonlarga tarqab ketadi. Jo'rabek va Bobobek Shahrizabz va Kitobga qochadi.

1870-yil 14-avgustda Kitob shahri qo'lga olingach, Jo'rabek va Bobobek Qashqar tomon yo'l oladilar. Ular Mahram ostonalaridagi Qo'qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va Xudoyorxon amri bilan Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o'z xizmatiga olib rus qo'shini zobitlari unvonini beradi.

Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o'tib ketadi. Buxoro amiri Kaufman bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko'ra Samarqand hamda Kattaqo'rg'ondan ajrabgina qolmay, o'zining siyosiy mustaqilligidan ham mahrum bo'ladi. Buxoro amiri rus saltanatining vassaliga aylanib, mamlakat Rossiya saltanati qaramligidagi yurtga – yarim mustamlaka ahvoriga tushib qoladi.

#### 4. XIVA XONLIGINING ZABT ETILISHI

Rossiyaning hukmron doiralari Turkiston general-gubernatorligini o'zining O'rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilo tig'ini Xiva xonligini to'la bo'ysundirishga qaratdilar. Ular Pyotr I vasiyatini sira unutmagan edilar. 1717-yilgi Bekovich-Cherkasskiy qo'shinining xalokati va 1839-yilda Perovski yurishining barbod bo'lganligi rus generallarining xotirasidan chiqmagan edi. Pyotr I ning bosqinchilik rejasini to'la amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini poyoniga yetkazishgach, istilochilar Xiva xonligiga ko'z tika boshlaydilar.

Fon Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy tarafdin ham yakkalab qo'yish choralari ko'radi. U Buxoro amiri va Qo'qon xoniga tahdidli maktublar yo'llab, ularni Xivaga yordam bermaslikka chaqiradi. Masalan, uning 1873-yil 4-martda Qo'qon xoni Xudoyorxoniga yo'llagan xatida shunday deyilgan edi: «O'zimga ishonib topshirilgan qo'shinlar bilan Jizzax ustidan, Buxoroning shimoliy hududlari orqali o'taman. Sizning dono harakatlaringizdan o'rnak olmay, Rusiya bilan do'stona munosabatlar o'rnatilishiga qarshi turgan Xiva xonini jazolash uchun yo'lga tushmoqdaman».

Buxoro amiri Muzaffarning Kaufmanga yozgan javob xatida ruslarga sodiqlik ruhi o'rmalab turadi: «Elchingiz, statmaslahatchi Struve Rusiyaning Xiva bilan aloqasini batafsil gapirdi. Men bunday do'stlikni ifodalovchi xabarning ma'lum qilinishidan nihoyatda xursand bo'ldim. Albatta, o'rtamizdagi do'stona munosabatlar sizning do'stingiz – bizning do'stimiz va sizning dushmaningiz – bizning dushmanimiz bo'lishini taqozo qiladi. Men yaxshi tushunamanki, agar Xiva Rusiya bilan to'g'ri munosabatda bo'lmasa, u vaqtda unga qarshi qurol ishlatishga to'g'ri keladi. Bunday hol yuz bersa, men imkonim boricha o'z yordamimni amalda ko'rsatishga tayyorman.

Sizning elchingiz bizga shuni tushuntirdiki, Oq podshoning yerlaridan Xivaga uch tarafdin yo'l boradi: ulardan biri Kaspiy dengizidan, ikkinchisi – Kozilidan, uchinchisi Oq podshoning ixtiyoridagi bizning yerimiz Amudaryodan o'tadi. Sizga batafsil javobni statmaslahatchi Struve orqali yuborayotirman.

Sodiq do'st va qo'shni sifatida sizdan iltimos qilamanki, menga o'z fikringiz va harbiy yurish vaqtini oldinroq ma'lum qilingki, fuqarolarimizni xotirjam qilish va sizga ishonchli kishilarimni yuborish imkoni tug'ilsin».

Shunga qaramay, harbiy ta'lim olgan, bosh shtab akademiyasini bitirib, boy nazariy va jangovar malaka hosil qilgan rus generallari va zobitlari ixtiyorida eng zamonaviy to'p, raketa otuvchi moslamalar, pulemyotlar bo'lsa ham, ular erksevar va ikki bor rus qo'shinlarini mag'lub qilgan Xivadan baribir hayiqishgan.

Chor hukumati Knyaz Bekovish-Cherkasskiy alamini olish va podsho Pyotr I armonlarini ro'yobga chiqarish maqsadi bilan Xiva xonligiga qarshi urushga alohida tayyorgarlik ko'radi.

Chor hukumati Xivaga qarshi yurish uchun turli xildagi ig'vogarlik va bahonalarni izlaydi. 1870-yil 18-yanvarda general Kaufman Xiva xoniga bunday xat yozadi: «Men sizga uch marta xat yozib birortasiga ham javob olmadim. Buning ustiga mening so'nggi elchilarimni ham ushlab qolgansiz. Bunday harakatlarga ortiqcha chidab bo'lmaydi. Ikkitadan bittasiga – yoki aytganlarimga ko'nasiz – do'st bo'lib qolamiz yoki aytganlarimizga ko'nmasangiz – dushman bo'lib qolamiz».

1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi pobsho noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko'ra Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibli ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa g'arbdan va shimoliy g'arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi. Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi. **Sayid Muhammad Rahimxon II (1864–1910)** 1872-yilda Hindiston vitse qiroli huzuriga elchi jo'natib ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o'g'li Kalkutta shahrida Lord Norsbruk bilan muzokaralar olib boradi. Ammo Angliya Xivaga yordam ko'rsata olmaydi, u Rusiya bilan aloqani buzishni xohlamasdi.

Xiva endi o'z kuchi va imkoniyatiga qarab ish ko'rishi lozim edi. Xonlikning qo'shinida hammasi bo'lib 27 eski zambarak,

2 ming otliq askar, 4 ming navkardan iborat qo'shin, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi.

Xiva xoni masalani tinch yo'l bilan hal qilishga urinishlari behuda ketgach, harbiy kengash chaqirib, mudofaa rejalarini tuzadi va dushman istilochilarga qarshi o'zining lashkarboshilarini safarbar qiladi.

Matmurod devonbegi, Mahmud Yasovul boshi, Yoqubbek qalmoq, Eltuzar inoq va Bobomextar rahbarligidagi o'zbek va turkman (yovmut) yigitlari rus qo'shinlari hujumini qaytarish uchun ikki guruhga bo'linib yo'lga to'shadilar.

Xivaga yurish 1873-yil may oyida boshlanadi. Muhammad Yusufbek Bayoniy «Shajarayi Xorazmshohiy» asarida bunday yozadi:

«...Rusiya davlati mundin burun besh martaba Xorazm yo'lida tashnalikdan qirilib, ba'zilar Xorazmga borib urushib qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg'onlari yo'q erdi. Bas, imperator a'zam bu bobda tamom arkoni davlati bilan maslahat etib, ul tarafga bormoqqa qaysi yo'l yaxshiroq ekanini ham bilmay, lojaram (chorasiz – mualliflar) Xorazm ustiga to'rt tarafdan askar yubormoqni iltimos etadilar (lozim ko'rmoq – mualliflar)».

General Kaufman Turkiston lashkari bilan, ikkinchisi Kavkaz qo'shinlari, uchinchisi general Verevkin boshliq Orenburg lashkari va to'rtinchisi Lomakin rahbarligidagi jami 12 ming kishidan iborat yaxshi qurollangan qo'shin Xorazm ustiga yuradi. Kaufmanga umumiy qo'mondonlik topshiriladi. Rus qo'shini Turkiston qo'shinlariga (22 rota, 1800 kazak va 18 to'p) general Kaufman, Orenburg otryadiga polkovnik Lomakin (12 rota, 800 kazak, 8 to'p) qo'mondondan bo'lib, Orol flotiliyasi ham ular ixtiyoriga berilgan edi. Imperator Aleksandr II Xiva yurishiga katta e'tibor beradi. Xatto, aytish joizki, imperator oilasining a'zolari – buyuk knyazlar Xiva sari yurishda bevosita qatnashadilar. Nikolay Konstantin, Yevgeniy Romanovlar va Gersog Leytenbergskiy kabi oliy zotlarning harbiy qismlarga qo'mondon qilib tayinlangani ham Rusiyaning Xiva istilosiga katta e'tibor berganini ko'rsatadi.

Amudaryodan o'tib, Muhammad Rahimxon II (Feruz) boshliq xonlikning shahar va qishloqlarini birin-ketin egallay boshlaydi. Turkiston xalqlarining qonxo'r jallodi chor genera-



**M.D. Skobelev**


man nihoyatda katta talofat ko‘radi» – deb yozilgan rus qarorgohi hujjatlarida.

«Xotunlar ham chap qo‘lida bolasi va o‘ng qo‘lida tig‘ bilan Rusiya otliqlariga hamla qilur edilar. Bir miqdor urush bo‘lgandan so‘ng Rusiya askari g‘olib kelib, ularning ham hammalarini tig‘u tufong bila qirib tamom etdilar. Ba‘zi zahmdorlar o‘luklarning oralarida o‘zlarini o‘lukdek etib yotmish erdilar. Rusiya askari olarni ko‘rib, miltiq o‘qi bilan olarni urub qatletdilar. Ul holda to‘rt kazak otli bir yavmutning izidan yetib, o‘rtag‘a olib har tarafdin tig‘ urmoq boshladilar. U yavmutning qo‘lida hech yarog‘ yo‘q erdi. Onga ko‘p zahm urdilar. Qo‘llaridan va tamomi badanidan qon oqib borur erdi. Yavmut ko‘rdi, bular oni o‘lturmoqchidurlar, g‘ayratga kirib bir hamla qilib, ul kazaklarning biridan qilichini qontirib, qo‘lidan olib, ul qilich bila hamul to‘rt kazak otliqni qatl etdi. Chun zahmlaridan qon ko‘p oqib erdi, behol bo‘lub yiqilib qoldi. Ul holda ikki kazak otli bu ahvolda ko‘rub kelib, otib va tig‘ bilan shahid etdilar».<sup>1</sup>

1873-yil 29-may oyida chor qo‘shinlari Xiva ostonalariga yetib keladi. Rossiya qo‘shini hujumini qaytarishga uringan Muhammad Rahimxon II qo‘shinlari yengiladi. Muhammad Rahimxon II bosqinchilarga asir tushishni sharmandali bir hol deb bilib, o‘ziga sodiq bir to‘p yigitlari bilan yovmut turkmanlari

<sup>1</sup> *Муҳаммад Юсуф Баёнийнинг «Шажараи Хоразмшоҳий» асаридан.*





### Chor Rossiyasi qo‘shinlari Xivada

yashaydigan tomon Badirkentga – Ismomut ota qabristoniga chekinadi. Muhammad Yusufbek Bayoniyning ma’lumotiga ko‘ra bu davrda xonning inilari Amir va Otaxon to‘ra Muhammad Rahimxon II yonida turib umumiy dushmanga qarshi xalqni birlashtirib jang qilish o‘rniga taxt talashmoq bilan ovora edilar. Xonning qochganligidan foydalanib inilari Amir va Otaxon to‘ra sotqin mahramlar bilan til biriktirib Kaufman huzuriga non-tuz ko‘tarib boradilar. Rus generali mag‘lublarni juda iliq qabul qiladi-yu, biroq ularni Xiva xoni qiyofasida ko‘rmaydi. General Kaufman xonning o‘zini kelishini talab qiladi. Xonga yozgan maktubida u: «Agar uch kun muddatda o‘zing kelib, biz bilan sulh olib bormasang, o‘rningga inilaringdan birini xon qilib ko‘tarib qaytib ketaman» deydi.

Muhammad Rahimxon general Kaufmanga chopar yo‘llab, taslim bo‘lganini bildirgach, harbiy harakatlar to‘xtatiladi. Ammo olchoq va johil polkovnik Skobelev va graf Shuvalov boshchiligida mingga yaqin rus qo‘shini Shohobod darvozasini portlatib, yo‘lda duch kelgan odamni qirib, xon o‘rdasiga bostirib boradilar. Ularning asli maqsad muddaosi ko‘proq o‘lja-boyliklarni qo‘lga



olish, oliy martaba va nishonga ega bo'lish edi. Lekin general Kaufman bu «zafarli hujum»ni o'zboshimchalik sifatida qoralaydi va ayniqsa, o'zini qo'yarga joy topolmay yurgan Skobelevni jiddiy ogohlantiradi. Ayyor general vaziyatdan silliq chiqish maqsadida hali rus qo'shini qadami yetmagan noma'lum sahro yo'llarini xaritaga chizib keladi. General Kaufmanga bu harakat yoqqan bo'lsada, tullakilik qilib yosh zobitni taltaytirib yubormaslik uchun quriqqina qilib: «Siz ko'z o'ngimda avvalgi xatoingizni to'g'riladingiz, lekin hali hurmatimni qozonganingiz yo'q», – deydi.

**Gandimiyon sulhi.** 1873-yil 12-avgustda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan general Kaufman o'rtasida Gandimiyonda sharmandali o'zaro sulh bitimi imzolanadi. 18 moddadan iborat bu bitim imzolanishi tufayli Xiva xonligi o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotadi: «Men kim, Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy Bahodirxon o'zimni ulug' rus saltanatining quli deb tan olaman», – deyilgan edi o'sha bitimda.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan Xiva xoni o'rtasida muzokaralar boshlanadi. General Xivani idora qilishga oid yangi nizomni xon diqqatiga havola etadi. Rus davlatchiligi rusumlarini joriy etishga qaratilgan bu hujjatga binoan xonlikda boshqaruv tizimi bo'lgan devon tuzish lozim edi. Devon a'zoliciga Xiva xoni tomonidan ruslarga xayrixoh amaldorlardan Matniyoz devonbegi, Eltuzar inoq va mehtar Abdullabiy, ruslar tarafidan esa bosh shtab podpolkovnigi Pojarov, artilleriya polkovnigi Ivanov, podpolkovnik Xoroshikin va savdogar Oltinboyev tayinlanishi lozim edi. Ruslarga qarshi janglarda shijoati va vatanparvarligi bilan tanilgan Muhammad Murodbegi va Rahmatulla Yasovul boshilar esa Xivadan surgun qilinishi lozimligi ko'zda tutilgan edi. General Fon Kaufman muzokaralar bilan bir vaqtda, erksevar turkmanlarni jazolash uchun general Golavachyov qo'mondonligidagi katta kuchni safarbar qiladi. Piyodalar, otliqlar, to'p va raketalar bilan qurollangan Golavachyov jazo korpusining «Bekovich xuni uchun» deya qilgan vahshiyliklari rus harbiy idoralari hujjatlari va mahalliy muarrihlar bitiklarida saqlanib qolgan»<sup>1</sup>. Sulh bitimida Amudaryo va Orol dengizi

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 143-бет.

suvliklarida rus kemalari boj to‘lamasdan bemalol va emin-erkin yurishi, Buxoro va Xiva kemalariga esa bunday huquqlar rus hukmdorlari ruxsati bilan berilishi qonunlashtirildi. Yana xonlikning hududida ular bir necha o‘rinda bandargoh port ko‘rish huquqini oldilar. Rus savdogarlari xonlikning hududida hech qanday boj to‘lamasdan erkin harakat qilish, savdo-sotiq ishlarini olib borish huquqiga ega bo‘ldilar, ular boj to‘lovlarisiz Xiva xonligi hududi orqali boshqa davlatlarga ham o‘tish huquqiga ega bo‘ladilar. Bitimga ko‘ra rus fuqarolarining arznomalarini paysalga solmasdan xonlikning o‘zi hal qiladi deb ko‘rsatiladi, xivaliklarning arzlari esa mahalliy rus boshliqlari tekshiradi, deyiladi. Ayni vaqtda xonlikning 20 yil davomida Rossiyaga 2.200 ming so‘m tillo hajmida urush tovonini to‘lashi shart qilib qo‘yiladi. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga, xonlikning taxtiga yaqin joyda Petro-Aleksandrovskiy qo‘rg‘oni (hozirgi To‘rtko‘l) quriladi.

Shunday qilib O‘rta Osiyodagi Buxoro amirligi va Xiva xonligi o‘z mustaqilliklarini qo‘ldan boy berib, o‘zi mustaqil harakat qila olmaydigan, chor Rusiyasi tarkibidagi qaram bir davlatga aylanadi.

## 5. QO‘QON XONLIGIGA QARSHI YURISHLAR VA UNING TUGATILISHI<sup>1</sup>

Bu davrda xonlik o‘z boshidan og‘ir vaziyatni kechirayotgan edi. Bu davlatga shimoldan Rossiya, janubdan Xitoyning hujumi xavf tug‘dirayotgan edi. 1865-yili Sharqiy Turkistonda xitoyliklarga qarshi yangi milliy isyon boshlangan edi. Qo‘qon xonligida bu isyonga xayrixohlik bildiriladi. Yoqubbek boshchiligida harbiy qo‘shin Sharqiy Turkistonliklarga yordamga keladi va xitoyliklar bu mintaqadan quvib chiqariladi. Mustaqil Sharqiy Turkiston davlati vujudga keldi. Bu davlat Qo‘qon xonligi va Turkiya davlatlari bilan yaqin aloqa o‘rnatishga harakat qiladi. Ammo Yoqubbek tashkil etgan mustaqil Sharqiy Turkiston

<sup>1</sup> Mazkur mavzu batafsilroq quyidagi asarlarda aks ettirilgan: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 146–178-бетлар: Х. Бобобеков. Пўлатхон кўзғолони. Т., 1996.



**Xudoyorxon surgundan  
gochish arafasida «Orenburg  
shahri» 1877-yil**

beriladi. Xudoyorxonning bu siyosati aholining g‘azabini toshirib yuboradi. Buning ustiga xonning zulmi tobora kuchayib boradi. Natijada 1872-yili xalq qo‘zg‘oloni ko‘tariladi. 1876-yilgacha davom etgan bu qo‘zg‘olonga marg‘ilonlik Is‘hoq Mulla Hasan o‘g‘li boshchilik qiladi. 1872-yilda bir guruh norozi zodagonlar Xudoyorxonning qarindoshlaridan bo‘lgan Po‘latbekni taxtga ko‘tarmoqchi bo‘ladilar. U taxtdan voz kechgach, fitnachilar roziligi bilan, Po‘latbek ismini olgan Is‘hoq mulla g‘azovotning boshida turadi. 1873-yilda unga Abdurahmon oftobachi (Qo‘qonning sobiq hukmdori Musulmonqulning o‘g‘li), bundan tashqari Xudoyorxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Nasriddin (Andijon hokimi) va akasi Murodbek (Marg‘ilon hokimi) kelib qo‘shiladilar. Qo‘zg‘olonni bostirishga ojizligini payqagan Xudoyorxon «pushti panoh imperatur hazrati oliylari»ning qudratiga suyanadi va fon Kaufmanga «do‘stona» murojaat qilib, iloji boricha tezlik bilan Qo‘qonga o‘rus qo‘shini va zambaraklarini yuborishni so‘raydi.

davlati Xitoy tomonidan 1875-yili bosib olinadi.<sup>1</sup>

Ayni shu vaqtda chor istilochilari Qo‘qon xonligini tugatishga kirishadilar. Ular Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa joylarni bosib olib Qo‘qon xonligiga qattiq zarba bergan edilar. Qo‘qon xoni Xudoyorxon qo‘rqoq va tadbirsiz bo‘lganligi uchun vatan himoyasi yo‘lida biron arzigulik ish qilmaydi. Aksincha, chor hukumati panohida o‘z taxtida o‘tirishni o‘ylardi, xolos. U 1868-yili chorizm bilan sulh tuzadi va amalda Rossiyaga qaram bo‘lib qoladi, uning itoatkorligini taqdirlagan chor hukumati Xudoyorxonni Rossiya davlati ordeni bilan mukofotlaydi va unga «Aslzoda» degan faxriy unvon

<sup>1</sup> Юсуф Алттекин. Шаркий Туркистон даъвоси. Истанбул, 1973, 126–127-бетлар.

Yurtni sotganligi uchun Xudoyorxon va yaqinlariga qarshi g'azovat e'lon qilinadi. Xudoyorxon 1875-yil 2-iyul kuni o'z oilasi bilan Toshkentga, rus elchixonasi panohiga qochib boradi. Tarixchi olim X. Bobobekovning yozishicha 1875-yil yozida, Qo'qon xoni Xudoyorxon 70 kishilik ahli ayoli, 500 ga yaqin hamrohlari, 40 arava xazina bilan Toshkentga Turkiston general gubernatori fon Kaufman huzuriga panoh tortib kelgan. Kaufman 40 arava xalq boyligini olib Xudoyorxonning o'zini Orenburgga surgun qilgan. Keyinchalik xon Orenburg tutqinligidan qochgan<sup>1</sup>.

Toshkentdan chiqqan rus qo'shinlari bilan qo'qonliklar o'rtasidagi birinchi jang (kichik janglarni hisobga olmaganda) Mahram qal'asida bo'ladi. Bu qal'ada 60 ming atrofida sarboz bor edi (ba'zi manbalarda 30 ming va 50 ming raqami qayd etiladi). Qal'a zambarak o'qlari ostida 10 daqiqada vayron bo'ladi. Jang qanday o'tgani va qancha odam nobud bo'lgani haqida yaxshisi hujjatlar tili bilan gapirgan ma'qul.

«Mahram atrofida dushman (o'zbeklar – mualliflar) qancha talofot ko'rganini aniq raqamlarda ifodalash qiyin. To'siqlar orqasida va Mahram qal'asi ichida 100 dan ortiq murda topilib, dafn etildi. Mahram orqasidagi maydonda kazaklarning qilichi bilan chopilgan 1000 dan ortiq murdani otryaddagi yigitlar yig'ishtirib olishib, ko'mishdi; general fon Kaufmanning qo'riqchi bo'linmasi daryo yoqalab qochayotganlarni quvib, 100 kishini qilichdan o'tkazdi. Tog'dan tushib kelib otryadlarimizga qo'shilgan chavandozlar ham ko'p qurbon berishdi. Ulardan qanchasi o'lib, qanchasi yarador bo'lgani noma'lum. Juda ko'p qo'qonliklar Sirdaryoga cho'kib ketdi. Ochig'ini aytganda, shafqatsiz qirg'in ro'y berdi, Chegaramizni buzishga jur'at etib, yerlarimizga bostirib kirishgani va bizga tobe odamlarning osoyishtaligini buzgani uchun munosib intiqom olindi»<sup>2</sup>.

«Rayimxo'janing hikoya qilishicha, Mahramni olish chog'ida general Kaufman o'zini juda xotirjam tutgan. Rus qarorgohi yaqiniga o'qlar uchib kelib, to'p o'qlari yorilib, bir askar va bir yigit yarador bo'lgan. Shundan keyingina Kaufman general Golovachovga qal'ani to'pga tutishni buyurgan. Ikki zambarak

<sup>1</sup> X. Bobobekov. Kўkon хазинаси қаерда? «Халқ сўзи», 1991 йил, 20 феврал.

<sup>2</sup> Серебренников А. Военные действия кокандцев (на основе официальных данных). «Военный сборник», 1876, № 2, стр. 194–195.

qulay marrani egallab, yaqin masofadan qal'ani yakson qilishga kirishadi. O'n minutdan keyin qal'a vayron bo'lgan va rus askarlari hujumga o'tadi. Yerlilarning juda ko'pi o'ldirildi, qo'rquvdan o'zini daryoga tashlab g'arq bo'lganlarning son-sanog'i yo'q edi. Hujum tamom bo'lib hammayoq tinchigandan keyin nihoyatda dimog'i chog' Kaufman Rayimxo'janing oldiga kelib: «Rus askarlari qanday urushar ekan» – deb so'radi. Yaxshi urushdilar, a'lo hazratlari», – deb javob berdi Rayimxo'ja. General Kaufman bunga javoban: «Xudo xohlasa, butun Farg'onani mana shunday jangovar harakatlar bilan bo'ysundiramiz va qo'shib olamiz», deb aytdi<sup>1</sup>.

Skobelevning ma'lumotnomasiga ko'ra, jang maydonidan 2000 salla yig'ib olingan. Vereshchagin buni ikkiga bo'ladi, ammo «jang chakki bo'lmadi» deb qo'shib qo'ydi».<sup>2</sup>

«Biz 39 zambarak (daryoga tushib ketgan to'p bu hisobga kirmaydi) 1500 miltiq, behisob nayza, qilich, cho'qmor, 50 dan ortiq tug', bayroq, nishonlarni o'lja qilib oldik. Qal'ada o'q-dori, snaryadlar va qo'rg'oshin hamda 1910 pud un, 837 pud guruch, 320 pud jo'xori saqlanayotgan katta omborxonalar topildi, 224 ta ot qo'lga olindi.

Ko'rgan talofotlarimiz: 6 kishi o'ldirildi (1 qarorgoh zobiti, 4 oddiy askar va bir yigit), 8 kishi yarador (bir qarorgoh zobiti va 7 quyi amaldagilar) bo'ldi. Dushman talofotini 1200 kishi deyish mumkin. 149 zambarak o'qi, 29 raketa va 9.387 patron ishlatildi.

Jangdan keyin Kaufman Toshkent orqali Oliy hazrat janobi oliylari nomiga g'alaba, qo'lga tushgan o'ljalalar va qurbonlar soni ma'lum qilingan telegramma yubordi: «...dushman to'la mag'lub etildi: uning xonlikning aholisiga ta'siri nihoyatda katta bo'ldi, ammo Mahram jangining oqibatlarini haqida oldindan bir narsa deyish qiyin. Xo'janddan kutilayotgan qo'shimcha ulov kelishi bilan Qo'qon sari harakatni davom ettiraman. Sizga tobe ulug' imperator qo'shinlari o'z shuhratiga munosib mardona jang qiladi. Vazifa a'lo darajada bajarildi»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Константин Петрович фон Кауфман–ускоритель Туркестанского края. Личные воспоминания Н. Р. Остроумова (1877–1881гг.). Т., 1899, стр.211.

<sup>2</sup> М.Д. Скобелев. СПб., 1984, стр.17.

<sup>3</sup> И.А. Терентьев. «История завоеваний Азии» Т. 2, СПб, 1906.

A.I.Terentyev yana quyidagi ma'lumotini beradi: Aderkas (chor zobiti) Qashqar qishlog'ida dushmanning ot-aravalari bilan kelayotgan to'dalariga duch kelib qoldi. Ko'cha butunlay chang-to'zon bilan qoplangandi. Kazaklar chang to'dasiga qarata miltiqlardan o'q uzib, so'ng hujumga o'tishdi. Oqibatda to'rt bayroq, 25 miltiq, behisob qilich va nayza, bir qancha ot va yuk ortilgan 10 arava o'lja olindi. Biz talofat ko'rmadik. 40 ga yaqin dushman o'ldirildi». «Dushman (Namangandagi jang tafsiloti) Skobelevning hisobiga ko'ra (musulmonlar uchun qog'oz ham xayf) 3800 kishini yo'qotdi. Uch kun ichida bizning talofatimiz: quyi amaldagilardan olti kishi o'ldi, 29 kishi yarador bo'ldi, 3 zobit yaralandi»<sup>1</sup>.

Xullas, 29 avgustda general K.P.Kaufman boshliq rus qo'shini Qo'qon shahriga g'olib sifatida kirib keldi. Qo'qon a'yonlari Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligida undan kechirim so'raydilar. 1875-yil 22-sentabrda Nasriddinbek bilan Kaufman o'rtasida olib borilgan muzokaralardan so'ng tengsiz va sharmandali bitim imzolanadi.

Bu bitimga ko'ra Qo'qon xoni o'zini Rossiya saltanatining quli deb tan oladi, qo'shni xonliklar bilan hech qanday aloqalar va munosabatlar qilmaslikka va'da beradi. Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi barcha yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadigan bo'ladi. Qo'qon xonligiga qarshi olib borilgan urushda rus armiyasi ko'rgan olti yuz ming so'm hajmdagi zararni to'lash Qo'qon xonligi yelkasiga yuklatiladi. Ayni chog'da shartnomada 1876-yil 1-noyabrdan boshlab Qo'qon xonligi Rossiya xazinasiga har yili



**Nasriddinbek surgunda.  
Vladimir shahri 1877-yil**

<sup>1</sup> O'sha joyda.

500 ming soʻmdan toʻlab borishi shart qilib qoʻyiladi. Bu summa besh yil davomida foiz haqini toʻlash hisobidan kuchga kiradigan boʻladi.

Qoʻzgʻolonning asosiy aybdori Abdurahmon Oftobachini qoʻllab-quvvatlaganliklari uchun margʻilonliklarga 125 ming tillo hajmida tovon toʻlash majburiyati belgilandi. Xalqning ogʻir ahvolda yashayotganligini eʼtiborga olib 60 ming tilloni 1875-yil 21-oktabrgacha qolgan 65 minggini esa 1876-yil 21-oktabrgacha toʻlashga ruxsat beriladi. Agar Margʻilon guberniyasi aholisi ushbu tovonni belgilangan muddatda toʻlamasa bu oltinlar Qoʻqon xonligi xazinasidan toʻlattirib olinadi, deb qayd qilindi, bitimda.

Shunday qilib, Qoʻqon zodagonlari mamlakatning erkini berib, faqat oʻz jonlarini saqlab qoldilar, xolos.

Qoʻqon xoni Xudoyorxonning qochishi, Nasriddinbek bilan Kaufman oʻrtasidagi tengsiz va sharmandali bitim xalq ommasining yangidan katta kuch bilan qoʻzgʻolon koʻtarishiga sababchi boʻladi. Bu galgi qoʻzgʻolon markazi Andijon edi. Qoʻzgʻolonchilar Poʻlatxon nomi bilan yurgan Isʼhoq mullani Boʻtaqara qishlogʻida xon deb eʼlon qiladilar. Poʻlatxonga qarshi joʻnatilgan Kaufman otryadi Andijon ostonasida magʻlubiyatga uchraydi. 1875-yil 7-oktabrda qoʻzgʻolonchilar xon qoʻshinini tor-mor keltirib Qoʻqonni egallaydilar. Nasriddinxon Xoʻjandga, ruslar panohiga qochadi. 11-noyabrda Skobelev qoʻmondonligidagi rus askarlari qoʻzgʻolonchilarni Baliqchi yaqinida zarbaga uchratdilar. Terentev bu haqda shunday xabar beradi:

«...Baliqchi shahriga yorib kirib, dushman lageri va kuchini egalladilar. Tong otgandan keyin artilleriya kechuvdan oʻtib, shaharga oʻq ota boshladi, shu zahoti Skobelev 2-yondosh batalonga qarashli 2-rota va ellikta kazak otliq oʻqchilari bilan hujumga oʻtadi, dushmanning chekinishiga yoʻl qoʻymaslik uchun butun otliq askarlarni zambaraklar bilan shaharning orqa tomoniga yuboradi. Jangga kirgan boʻlinmalar uchta istehkomni majaqlagandan keyin bozorni ishgʻol qiladilar va shu yerda tor koʻchadan kelayotgan qipchoqlarning katta otliq olomoniga duch kelib qoldilar... Dahshatli ur-yiqit ichida merganlarimiz doʻldek yogʻdirayotgan oʻqqa uchgan qipchoqlar bor-yoʻgʻi 20 qadam narida toʻda-toʻda boʻlib yiqilar, koʻcha yuzi ularning oʻligiga toʻlib ketgan edi. Bu dahshatli jahannamdan bir amallab



qutulib chiqqanlar narigi yonboshda poylab turgan kazaklarning changaliga tushar edi. Ularni ikki chaqirim joygacha quvib borib, hech qanday rahm-shafqat qilmay qilichdan o'tkazishdi. Biz tomondan bir quyi amaldagi kishi o'lib, 8 ta yarador (shundan uchtasi og'ir), uch kishi kantuziya olgan edi. Skobelev dushmanning talofatini 2000 kishi deb hisoblaydi».

Skobelev yo'l-yo'lakay barcha qishloqlarga shafqatsizlaracha o't qo'yib yakson qilib olg'a siljib bordi. Ayniqsa, u Andijon shahrining kulini ko'kka sovurdi. Uni yovuzlarcha to'pga tutib, bombardimon qildirdi. Terentyev bunday yozadi;

«Skobelev yo'lda kelar ekan, sanasini ko'rsatmay, Kolpakovskiyga telegramma jo'natdi, u 7-fevralda egasiga kelib tegdi. Unda Andijonda hamma narsa joyida ekanligi, aniq ma'lumotlarga qaraganda, shahar to'pga tutilgan paytda xarobalar orasida 20000 kishi halok bo'lganligi aytilgan edi».

1907-yilda Toshkentda chop etilgan «M.D.Skobelev xotirasi»da quyidagilarni o'qiymiz: «Andijonliklar qattiq qarshilik ko'rsatdilar: ular har bir to'siqdan foydalanar edilar, tomlar ustidan turib o'q otishar, ko'chalar, hovlilar, uylar, masjidlar ichida yuzma-yuz olishardilar. Ularning qarshilik ko'rsatishlari oldinda hujum qilib borayotganlarni g'azablantirar, tobora junbushga keltirardi. Bozor maydonida Skobelev kolonnasi yirik xarilardan qilingan to'siqqa duch kelib qoldi. Zambaraklarimiz oldinga o'tkazildi va bir necha o'q uzilgandan keyin dushman tumtaraqay bo'lib ketdi. Turkistonliklar beshta istehkomdan tashqari, mustahkam qo'rg'onchaga aylangan, uylarni ham jang bilan qo'lga kiritdilar. Nihoyat, har uchala kolonna o'rdaga yetib keldi va saroyni isyonchilardan tozaladi. Qisqa muddatli hordiqdan so'ng manzilgohga qaytildi, darvoqe, yo'l yoqasidagi imoratlarning hammasiga o't qo'yib borildi. Old qismlar qayerda ketayotganini yong'inga qarab bilib olish mumkin edi. Otishmalar hali tinmagan, andijonliklarning harbiy uroni-«Ur!», «Ur!» sadolari eshitilib turardi. Andijonni butunlay vayron qilish uchun general Troitskiy Skobelevga oltita zambarak berib, shaharni to'pga tutishga, bozor va yong'in bo'layotgan tomonlarni nishonga olishga buyruq berdi»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 170-бет.



### Qo'zg'olonchilarni jazolash

1876-yil 9-yanvarda Skobelev vayrona va kultepaga aylangan Andijonga kirib boradi. Po'latxon qolgan-qutgan kuchlari bilan Uchqo'rg'onga chekinishga ulgurgandi. 1876-yil 28-yanvarga o'tar kechasi Skobelev tomonidan yuborilgan jazo otryadi Uchqo'rg'onni egallaydi, barcha himoyachilar o'ldiriladi. Po'latxon bu yerdan qochib ulgurdi, biroq tez orada Marg'ilonda qo'lga olindi. Po'latxon qo'zg'olonini tor-mor keltirishda qirg'iz Shabdon Jontoyev rus zobitlariga o'z yigitlari bilan yordam beradi.

Rus qo'shinlarining Qo'qon xonligiga qarshi olib borgan urush harakatlarida Xudoyorxon tomonidan general fon Kaufmanga asir sifatida ushlab berilgan Kitob va Shahrizabz beklari Jo'rabek va Bobobek faol qatnashdilar va Xudoyorxon-dan «o'ch» oladilar.

K.P.Kaufman Qo'qonda ko'tarilgan xalq harakatini bos-tirish bahonasida Qo'qon xonligini mustaqil davlat sifatida tugatadi. 1876-yilning 19-fevralida Qo'qon xonligi bekor qilin-di va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil qilinadi. Turkiston xalqlarining jallodi, Farg'ona vodiysida vahshiylarcha faoliyat ko'rsatgan jazo ekspeditsiyasining boshlig'i general Skobelev Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi. Xulosa

shuki, o'zbek xalqi mustaqillik uchun kurashining Po'latxon rahbarligidagi qo'zg'oloni mag'lubiyati bilan uchala o'zbek xonligi ham rus podsholigiga to'la qaram bo'lib qoladi. Ammo bu Farg'ona vodiysida chor Rossiyasi bosqinchilariga qarshi kurash barham topadi, degan ma'noni anglatmaydi. Erk ozodlik va mustaqillik kurashida boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan o'zbeklar, qirg'izlar va tojiklar bosqini va kelgindi battol dushmanga qarshi kurashni davom ettirdilar, vatan tuyg'usi, nomus va or tuyg'usi ularga hech orom bermaydi. Chor Rossiyasi bosqiniga qarshi kurash markazi

endi Oloy tog'lari hududlariga ko'chadi. Bu yerda To'maris ulug' an'alarining davomchisi jasur turk malikasi qirg'iz ayoli Qurbonjon dodxoh o'z o'g'illari bilan son va qurollanish bo'yicha tengsiz chor askarlariga qarshi kurashda afsonaviy qahramonliklar ko'rsatadi. Qurbonjon dodxoh ayol holiga qaramasdan Turkiston xalqlarining jallodi maqtanchoq va alchoq chor generali Skobelevni u bilan sulh muzokaralari boshlashga majbur qiladi.

Chunki Skobelev nopisandlik bilan tinchlik bitimini tuzish uchun Qurbonjon dodxoh huzuriga mayor Ionovni yuborgan edi. Mag'rur qirg'iz vatanparvar ayoli Ionovni qabul qilmadi va mavqeyi o'zi bilan teng bo'lgan qo'mondon bilan muzokara boshlashga rozi ekanligini ma'lum qiladi. Natijada general Skobelevning o'zi Qurbonjon dodxoh bilan sulh muzokaralari olib borishga majbur bo'ladi va uning talablarini inobatga olishdan boshqa chora topa olmaydi. Bu qonxo'r ustidan Qurbonjon dodxohning qo'lga kiritgan katta ma'naviy g'alabasi edi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman faqat 1877-yil yanvarida-gina Sank-Peterburgga axborot yuborib, Farg'ona vodiysida tinchlik o'rnatilganligidan oq podsho hazratlarini voqif etib, ko'nglini tinchlantirgan edi.

Ammo bu tinchlik nisbiy xarakterda edi, xolos. Amalda esa vatanparvarlik dushmanga qarshi kurashni davom ettirib,



**Qurbonjon dodxoh**

chekinib bordilar. Bu holni biz qirg'iz va o'zbek urug'lariga mansub turli qabilalarning 1877-yil davomida ham Xudoyqul, Abdullabek Umarbek Sulaymon udaychi, Taniqul, Valixon to'ra, Abdukarimbek va boshqalar bosh bo'lgan guruhlarining chor Rossiyasi qo'shinlariga qarshi kurashni davom ettirganliklarida yaqqol ko'ramiz.

## 6. TURKISTONNI BOSIB OLISHNING TUGALLANISHI

Turkiston general-gubernatorligi tuzib bo'lingach, Rossiya hukumati o'zining asosiy diqqat-e'tiborini Turkmaniston hududlarini istilo qilishga qaratadi. Ana shu maqsadni ko'zda tutib 1869-yilda Krasnovodsk qal'asi qurilgan edi. Shu davrdan boshlab turkman yerlarini bosib olish uchun faol harakatlar boshlanib ketadi. 1877-yilda Axaltaka vohasidagi birinchi yirik manzilgoh – Qizil Arvat egallanadi. Shundan so'ng general Lazarev qo'mondonligidagi rus qo'shinlari Ko'ktepa (hozirgi Ashxobod)-ga hujum qiladilar va 200 askarni qurbon berib chekinishga majbur bo'ldilar. Ko'ktepa faqat 1881-yilga kelib turkistonliklarni qirishda «shuhrat» topgan Skobelev tomonidan bo'ysundiriladi. Taniqli rus olimi akademik V.V.Bartold «Ko'ktepa» («Geok-tepe») maqolasida tarixiy voqeani qanday sodir bo'lgan bo'lsa xuddi shunday bo'yamasdan to'g'ri yozgandi: «Rus qo'shini 8000 kishidan iborat bo'lib, 70 dan ortiq zambarakka ega edi. Yigirma kunlik qamaldan so'ng 1881-yilning 12 (24) yanvarida Ko'ktepa qal'asi shturm bilan ishg'ol qilindi, so'ng talon-toroj qilish uchun askarlar ixtiyoriga to'rt kungacha tashlab qo'yildi. Qal'ani qamal qilish va zabt etish chog'ida 6000–8000 kishi halok bo'ldi. O'rta Osiyodagi boshqa janglarga qiyoslasak ruslar katta qurbonlar evaziga g'alaba qozonganini ko'ramiz, ular o'lgan va yaradorlarni birga hisoblaganda 1000 dan ortiq odamini yo'qotdi. Bundan tashqari Ko'ktepa jangida Turkistonda birinchi marta ruslarning bayrog'i va zambaragi o'lja olingandi»<sup>1</sup>.

Axaltakada bo'lgan urushning bevosita qatnashchisi rus zobiti K.Geans Ko'ktepadagi dahshatli manzaralarni yanada oydinroq ko'z o'ngimizda gavdalantiradi: «Qirg'in boshlandi... Charchash nimaligini bilmaydigan dragunlar birinchi uzun hov-

<sup>1</sup> Бартольд В.В. «Геок-тепе». Соч. Т.3. М; 1965, стр. 399.

lini turkmanlar qoniga g'arq qiladilar. Olishuv uzoq cho'zilmadi, dushman jasurona kurashsa-da, oxiri bardosh bera olmadi, qarama-qarshi tomonga, baland devor yoqalab ichki qal'aga qarab chekindi, ammo fursat boy berilgandi. Otryadimizda mardligi bilan nom chiqargan knyaz Golitsinning kazaklari va poruchik Naxichevanskiyning I-eskadroni dragunlari jarlikdan chiqib, ularning yo'lini to'sdilar. Chorasiz ahvolda qolganlarini sezgan taka-turkmanlar qo'llaridagi yatog'onlarini o'ynatib... raqibga tashlandilar. Ammo devor orqasidan deyarli yonmayon turib otilayotgan miltiq o'qiga uchib, ketma-ket qulay boshladilar. Qal'a bilan paxsa devor orasi murdaga to'lib ketdi»<sup>1</sup>. Rad etib bo'lmaydigan dalil va hujjatlar general Skobelevning qardosh turkman og'alarimizning jallodi ekanligi va qonxo'r zobit bo'lganligini yana bir marta isbotlaydi. Vahshiy zobitning yaqin xeshlaridan bo'lgan Adam Juletta Lamber quyidagicha hikoya qiladi: «Janob Marvin bilan suhbat chog'ida general Skobelev O'rta Osiyoni bo'ysundirish haqida o'z qarashlarini ochiqdan-ochiq quyidagicha ifodaladi:

– Gap shunday, janob Marvin, faqat bularni gazetangizda bosib chiqara ko'rmang. Jahon ligasi nazarida g'irt yovvoyiga aylanib qolishni istamayman. Mening aqidam shunday: Osiyoda osoyishtalik o'rnatish masalasi to'g'ridan to'g'ri odamlarning qancha ko'p qirilishiga bog'liq. Zarba qanchalik kuchli bo'lsa, dushman shunchalik tez bo'ysunadi. Biz Ko'ktepada 20000 turkmanni o'ldirdik. Tirik qolganlar bu saboqni bir umr unutmaydigan bo'ldi. Umid qilamanki, bu aqidalaringizni bosib chiqarishimga ruxsat berasiz. Rasmiy axborotingizda siz hujum va ta'qib paytida har ikki jinsga mansub 8000 dushman o'ldirildi, deb yozgansiz. Shu to'g'rimi?

– To'ppa-to'g'ri. Ularni sanashganda roppa-rosa 8000 odam chiqdi.

– Bu ma'lumotlar Angliyada juda ko'p shov-shuvga sabab bo'ldi, sababi, sizning askarlaringiz erkaklar bilan bir qatorda ayollarni ham o'ldirishgan ekan.

Bu xususda shuni aytish lozimki, Skobelev men bilan suhbat chog'ida «Ko'plab ayollar o'ldirildi, askarlar duch kelgan odamni

<sup>1</sup> «Военный сборник», журнал, 1882 г., № 6, стр. 27.

qilich bilan chopib tashlayverishdi», deb tan olgan edi. Skobelev o'z diviziyasiga ayollar va bolalarga tegilmasin deb buyurgan edi, uning oldida ularni o'ldirishmadi. Ammo boshqa diviziyadagilar hech kimga shafqat qilishmadi; askarlar xuddi mashinadek ishlab xaloyiqni rosa qilich bilan burdalashdi. Kapitan Maslov buni ochiqchasiga e'tirof etadi. U «Axaltakaning bo'ysundirilishi» nomli asarida hujum bo'ladigan kuni — erta tongda hech kimni asir olmaslik haqida buyruq bo'lgan edi deb, guvohlik berganlar orasida ko'plab ayollar bor edi. Yolg'on gapirish tabiatimga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun axborotimda har ikki jinsga mansub deb ochiq yozganman»<sup>1</sup>.

Kapitan A. Maslov rus askarlarining yovuzliklarini «detallashtirib» ko'rsatadi. Ular qarshilik ko'rsatayotgan yoki jonini asrash uchun qochib ketayotganlarning qovurg'asiga, qorniga nayza sanchishar, tikkasiga otishar, yo boshiga qo'ndog' bilan tushirishar ekan. Hatto ko'pchiligining qo'ndog'i yorilib ketgan ekan...

Skobelev dahshatli qirg'in bo'lishini oldindan yaxshi bilgan va bunga puxta tayyorgarlik ko'rgandi. Yurishga otlar ekan, u bosh qo'mondonlik oldiga: «Bironta jurnalist safarda qatnashmasligi shart», — degan talabni qat'iy qo'yadi va bunga to'la erishadi.

Ortiqboy Abdullayev Ko'ktepa qirg'in manzarasi dahshatlarini yanada yorqinroq chizish maqsadida rus zobitlari asarlaridagi ba'zi bir manzaralarni beradi. A.N.Kuropatkin yozadi: «Qal'a ichiga qarash dahshatli edi. Behisob o'liklar bir necha kundan beri uyilib yotardi. Ba'zi kulbalar murdaga to'lib ketgandi».

Turkman xalqini «yer yuzidagi qora dog'» deb hisoblagan kalondimog' zobit N.I.Grodekov qo'shimcha qiladi: «Dushman qamal paytida miltiq va zambarak o'qlaridan qay darajada dahshatli talofot ko'rganini qal'ani egallaganimizdan keyin bildik. Qal'a ichidagi ba'zi uylarda hatto o'n beshtagacha o'lik bor edi...»

Jangarafasida Skobelev: «To'kilgan har tomchi rus qoni uchun dushman qonini daryodek oqizaman», — deb maqtangan ekan. U Ko'ktepada o'z vaqtida jon berayotgan mullaning «8000 begu-

<sup>1</sup> *Адам Жулетта Ламбер.* Генерал Скобелев. СПб, 1886, стр.16–17.



noh odamni o'ldirganing uchun vijdon azobida qolmaysanmi?! — deb bergan savoliga yuzsizlik bilan: «Yo'q! 80000 bo'lmaganiga achinaman!» — deb javob bergan edi.

1884-yilda rus qo'shinlari Marv vohasi ustidan hukmronlikni o'rnatdilar va shu bilan amalda Turkiston hududining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi asosan yakunlandi. Biroq to 1895-yilga qadar ham Turkistonning janubiy hududlarida bosqinchilik urushlari olib boriladi, bir necha bor Afg'oniston qo'shinlari bilan chegara mojarolari kelib chiqadi. Faqat 1895-yili tuzilgan bitimdan so'ng bu muammolarga chek qo'yiladi. Tojiklar yashaydigan hududlarning Panj daryosining o'ng qirg'og'igacha bo'lgan qismi, Turkmanistonning Kushka daryosigacha Pende vohasidagi Kushka, Murg'ob va Tajanning quyi oqimidagi yerlar Rossiya ixtiyoriga o'tadi.

Shunday qilib, chor Rossiyasi davlatining Turkiston hududida olib borgan 1864–1895-yillardagi bosqinchilik qonli va dahshatli qirg'inbarot urushlari natijasida Vatanimiz xalqlari o'z gardanlariga og'ir va sharmandali mustamlakachilik bo'yinturug'ini ilishga majbur bo'ladilar. Bu bosqinchilikdan iborat urushlar oqibatida chor Rossiyasi 1533255 kvadrat kilometrdan iborat yoki Frantsiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya hududlarini birga qo'shib hisoblaganda teng keladigan yerlarni egallab oladi.

O'rta Osiyo va Qozog'istonni bosib olishda, o'lkani vayron qilishda alohida xizmat ko'rsatganliklari uchun Oq podsho Aleksandr II tomonidan 150 dan ortiq rus generallari, zobitlari yuksak darajadagi nishonlar, oltin qurollar, Georgiy ordenlari, Qizil Xoch krestlari va boshqa qimmatbaho sovg'alar bilan mukofatlanadilar. Bu bosqinchi «qahramonlar»dan 50 kishi «Georgiy Kresti kavaleri» nishoni bilan taqdirlangan<sup>1</sup>. «Toshkentni olgani uchun», «Samarqandni olgani uchun», «Qo'qonni olgani uchun», «Andijonni olgani uchun» kabi nishonli medallar ham zarb qilinib, bosqinchilar taqdirlanganliklari xalq xotirasida hamon saqlanmoqda.

Tub yerli aholi vakillaridan ham ba'zi millat sotqinlari «alohida xizmatlari» uchun podsho hazratlari tomonidan taqdirlangan. Rossiya qo'shinlariga Qozog'iston, Turkistonga kelish yo'llarini

<sup>1</sup> «Туркестон» газетаси, 1996 йил, 20 апрель.



ko'rsatib, bu bosqinni amalga oshirilishiga xizmat qilganlardan Boytursun O'razaliyev «o'z mehnati» evaziga Georgiy Xochining barcha darajalariga ega bo'ldi va u keksayganda podsho hukumati tomonidan shaxsiy nafaqa bilan ta'minlangan. Shahar oqsoqoli Orzuqulbek ham chor ma'murlari tomonidan siylangan.

Ana shu tariqa Turkiston o'lkasida chorizmning mustamlakachilik zulmi davri boshlandi. Biroq, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, nasl-nasabi yo'q bo'lib ketishi muqarrar bo'lgan bir sharoitda ham baribir, qator yo'qotishlar bilan bo'lsa ham o'zbek millatimiz o'zligini saqlab qola oldi. Mustamlakachilarning og'ir zulmi sharoitida ham xalqimiz o'zligini, milliy qadriyatlarini, ma'naviyatini, madaniyati, urf-odatlarini va turmush tarzini saqlab qola oldi. Mustabid tuzum sharoitida ham o'lka xalqlarining erkinlikka, taraqqiyotga va istiqbolga bo'lgan azaliy intiqiligi va intilishi so'nmadi. Xalqimizning qalbiga teran o'rnashgan istiqbol va ozodlik tuyg'usi tobora qudratli kuchga aylana bordi.

### Nazorat savollari

1. Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishining asosiy sabablarini ayting.
2. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus munosabatlari qanday bo'lgan?
3. Chor hukumati tomonidan Toshkentni bosib olinishi haqida muarrix Muhammad Solih qanday ma'lumotlar bergan?
4. Buxoro amirligining ruslarga qarshi olib borgan janglari haqida nimalarni bilasiz?
5. Buxoro amirligida Jo'rabek va Bobobeklarning ruslarga qarshi olib borgan janglari haqida gapirib bering.
6. Nima uchun rus hukumati Xiva xonligini «bo'ysunmagan O'rta Osiyo jazoiri» deb ta'riflagan?
7. Qo'qon xonligida Po'latbek boshchiligidagi qo'zg'olon sabablari va uni tarixiy ahamiyati nimada?
8. Qo'qon xonligi va chor Rossiyasi o'rtasida tuzilgan shartnomada nimalar belgilangan edi?
9. Turkiston general gubernatorligi tashkil etilishi va uning faoliyati nima maqsadga qaratilgan edi?
10. Rus hukumatining Turkmaniston hududlarida olib borgan istilochilik harakatlarining oqibati qanday bo'lgan?

## IV B O B

### TURKISTONDA CHORIZMNING MUSTAMLAKA HUKMRONLIGI

#### O'LKADA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Rossiya saltanati jahonning qudratli davlatlari Angliya, Fransiya, Germaniya imperiyalari qatori ulkan mustamlaka davlat edi. Rossiya o'z mustamlakalari hududi jihatidan Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniyani orqada qoldirib ketgandi. Angliya mustamlakalari 13 million kvadrat kilometr, Fransiyani 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilsa, Rossiyaning birgina Sibir mustamlakasi hududi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilardi. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya imperiyalari maydoniga teng bo'lgan.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va amaliyoti uning bu o'lkada o'z davlatchiligini joriy etish orqali olib borildi. Butun bir boshliq mustaqil Qo'qon xonligi davlati yo'q qilinib bir viloyatga aylantirildi, Turkistonda milliy davlatchilikka barham berildi. Chor Rossiyasi o'zining boshqaruv tizimini joriy etdi. Ammo imperiyaning bu o'lkada o'rnatgan ma'muriyati uning tasarruvidagi boshqa o'lkalar boshqaruvidan o'zining keskin harbiy-mirshablik ruhi bilan ajralib turgan. Mustamlakachi hukumat Turkistonni boshqaruviga oid ko'plab qonunlar loyihalarini (1865, 1867, 1873, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916) ishlab chiqdi va ularni tasdiqladi, hayotga tatbiq etdi. Bu qonunning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklar kiritgan o'zgartirishlarda Turkistonni boshqaruvidagi harbiy-mirshablik ruhi aniq o'z ifodasini topgan.

Rus zodagonlaridan A.B.Vrevskiy «Turkiston xalqlari o'zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga o'rgangan» deb, o'lkada qattiqqo'l mustabid idora zarurligiga ishora qilgan edi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 191-бет.

Turkistonda imperiyachilik boshqaruvining mustamlakachilik xarakteri birinchi general-gubernator Rossiya imperatorining general-ad'yutanti Konstantin fon Kaufman tomonidan ifodalangan. U 1868-yil 22-yanvarda Toshkent shahar aholisi bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqida ruslarni O'rta Osiyo xalqlarining katta og'asi deb atagan, Turkistonda rus hokimiyatining mustahkam va doimiy o'rtnashganligini alohida uqtirib o'tgan edi. Fon Kaufman asli ruslashgan xorijlik nemis dvoryanlariga mansub edi, podshohlik ishonchini qozongan, sinalgan, barcha lavozimlarda podsho siyosatini ko'ngildagidek amalga oshirganlardan biri edi. Unga kuchli va qudratli hokimiyat podsho Aleksandr II tomonidan oltin yorliq tarzida in'om etilgan edi.

Kaufman 1868–1876-yillarda o'lkadagi harbiy yurishlarga bosh-qosh bo'ldi va bu yurishlar uning nomini Turkiston o'lkasining omadli zobiti va istilochisi sifatida mashhur qiladi.

Kaufmanning hukmronligi davrida Turkiston general-gubernatorlik boshqaruvi uning shaxsiy istibdodi asosida amalga oshirilgan. Maxfiy maslahatchi F.Girs qayd etganidek «general-gubernatorning hokimiyati, qonun bo'yicha ish ko'rilishini taqozo etgan bo'lsa-da, amalda o'zi xohlagancha amalga oshirildi. General-gubernator o'lkadagi hokimiyatning yagona boshqaruvchisiga aylangan edi. Hokimiyatni bunday tartibda markazlashtirish oqibatida ishlar qonun asosida emas, aksincha, general-gubernatorning ko'rsatmasi asosida amalga oshirila boshladi<sup>1</sup>.

1865-yilda Toshkent shahri qo'lga olinganidan keyin, mustamlaka sharoitidan kelib chiqqan holda, Sirdaryo hududi hamda 1864- va 1865-yillarda yangidan qo'lga olingan yerlar hisobiga Orenburg general-gubernatoriga bo'ysundirilgan Turkiston viloyati tashkil etilgan edi.

1867-yil 14-iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va saltanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risida farmon e'lon qiladi.

Viloyatlarning harbiy gubernatorlari va uyezd boshliqlari ham o'z ixtiyorlaridagi harbiy qismlarning qo'mondonlari bo'lishgan. Shu tariqa, «harbiy xalq boshqaruvi»dagi harbiy hokimiyat chor

<sup>1</sup> O'sha asar ..191-6er.

zobitlari va generallari qoʻlida jamlangan edi. «Xalq boshqaruvi» – volost boshqaruvlari, yuzboshi-oqsoqollar, «xalq sudyalari» – qozilar aholi tomonidan «saylangan».

General-gubernatorlik Oʻrta oʻlka boshqaruvida Turkistonda mutlaq hokim boʻlgan. Markaziy oʻlka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi.

Markaziy oʻlka boshqaruvida Turkistonda general-gubernatorligi mutlaq hokim boʻlgan. Markaziy oʻlka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi.

Turkiston general-gubernatori oʻz qoʻlida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. Bir vaqtning oʻzida u podsho noibi, harbiy okrug qoʻshinlari qoʻmondoni, Yettisuv kazak qoʻshinlari qoʻmondoni, bosh mirshab, bosh prokuror vazifalarini ham oʻtagan. Unga Buxoro amiri va Xiva xoni ham boʻysungan.

Bosh boshqarmaning ijroiya organi boʻlgan general-gubernator mahkamasi dastlab toʻrt boʻlimdan iborat edi. Birinchi boʻlim maʼmuriy va nazorat ishlarini boshqargan. Ikkinchisi bosh boshqarmaning moliyaviy-xoʻjalik ishlariga qaragan. Uchinchi boʻlim soliqlar, shaharlar mablagʻlari hamda boshqaruvga doir nizomlar loyihalarini tayyorlash bilan shugʻullangan.

Toʻrtinchi boʻlim esa maxsus boʻlim hisoblanib, uning faoliyat doirasi gʻoyat keng va serqirra boʻlgan. 1886-yilgacha mustaqil ish koʻrgan bu boʻlim harbiy va adliya vazirlari koʻrsatmalaridan mustasno ravishda sud qarorlarini ham qayta koʻrish huquqiga ega boʻlgan<sup>1</sup>.

Turkiston oʻlkasi markaziy bosh boshqarmasi tarkibida general-gubernatorga boʻysunmaydigan markaz vakillari – adliya, moliya va davlat mulklari vazirliklari ham boʻlgan.

Turkiston general-gubernatorligi 90-yillarga kelib besh viloyatga (Sirdaryo, Fargʻona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti) boʻlingan.

Turkistonda amalga oshirgan hukmronlik boshqaruv tizimi quyida ilova qilinayotgan maxsus jadvalda oʻz ifodasini topgan<sup>2</sup>.


<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 143-бет.

<sup>2</sup> Mazkur jadval «Oʻzbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» kitobidan olingan.


Chor Rossiyasining Turkistondagi asosiy tayanch ma'muriy va majbur qiluvchi tashkiloti – bu politsiya idorasi edi. U juda katta vakolatlarga ega bo'lgan. Politsiya ma'muriyati mustamlakachilik qonun-qoidalariga amal etishni nazorat qilar, mahalliy xalqning istalgan shubhali shaxsni istalgan paytda hibsga olar edi. Amaliy hayotda esa politsiyaning o'zi inson huquqlarini qo'pol ravishda buzardi.

Politsiya tuzumiga suyangan podsho hukumati Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'inidan oliy bo'g'inigacha o'z qo'lida tutgan. General-gubernatorning o'zi bosh mirshab vazifasini o'tagan. Hokimi mutlaq general-gubernator o'lkadagi istagan odamini, xoh o'zbek, xoh rus bo'lishidan qat'i nazar, impyeriya-


### I. Markaziy boshqaruv



## II. Viloyat boshqaruvi




## III. Tuman boshqaruvi




## IV. Shahar boshqaruvi

### a) Tuman shaharlari idorasi




### b) Toshkent shahri idorasi






## V. Qishloq boshqaruvi




## VI. Shariat qozisi («xalq sudi»)




## VII. Mirshablik boshqaruvi

### a) Mustabid idora usulining mirshablik amaliyoti




### b) Rus imperiyasi Ichki ishlar vazirligi departamenti organi – Turkiston rayon muhofaza bo'limi (maxfiy siyosiy politsiya – oxranka) – TRMB


#### 1. Shaxsiy tarkib



## 2. Turkiston o'lkasi TRMB ga bo'ysunuvchi politsiya – jandarm boshqarmasi bo'limi



## VIII. Aleksandr II tomonidan 1864-yilda sud nizomlarining joriy etilishidan so'nggi umumsaltanat sudi (XX asr boshlari)



ning chekkalariga 5 yil muddatga surgun qilishi huquqi qonunan mustahkamlangan edi. U harbiy bo'lmagan fuqarolar ustidan harbiy sudlar hukmini tasdiqlashdek ichki ishlar vaziri vakolatlarini ham o'z qo'lida jamlagan. Viloyatlarning harbiy gubernatorlari, tumanboshilar, qasaba pristavlari ham politsiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lganlar. Bundan tashqari, o'lkada ichki ishlar vazirligining idoralari, uning vakillari ham shunga muvofiq ush ko'rishgan.

Turkiston shaharlarida politmeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari ham tumanboshilar huquqlari bilan tenglashtiriladi.

Toshkentda yangi va eski shahar politmeysterlari ish olib borgan. Ularga politsiya pristavlari bo'ysungan. Mahalliy ma'muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi mirshablik zobitlari vakolatlariga ega bo'lib, ularga yollangan mirshablar xizmat qilgan<sup>1</sup>.

Mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bo'g'ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, sudlar va xalq sudlaridan tashkil topgan. Ularning birinchisi sof mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi. Sudlar hududiy bo'linishga ko'ra, tuman sudlari, xalq palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, dunyoviy masalalar bo'yicha ish yurituvchi sudlar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan.

1886-yildagi «Nizom»ga ko'ra mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etiladi.

Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan «jinoyat»lar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag'darish maqsadida harakat qilgan siyosiy «jinoyat»chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi.

Rus imperiyasi Davlat Kengashi tomonidan sud islohoti tizimlari 1893-yil 2-iyunda tasdiqlandi. Toshkent shahrida sud

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 207-бет.

palatasi, Sirdaryo, Samarqand, Fargʻona, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlarida bittadan okrug sudlari taʼsis qilinadi.

1899-yil 14-mayda Toshkent sud palatasining tantanali ochilish marosimi boʻladi. U oʻlkaning barcha sud organlari faoliyatini boshqarar va nazorat qilari edi.

Chor hukumatining siyosiy tushga ega boʻlmagan barcha fuqarolik ishlari shariat va biy sudlariga topshirilgan edi. Mustamlakachilar shariat qonun-qoidalaridan istibdod negiziga qurilgan oʻz tuzumlarini oʻlkada barqaror qilishda unumli foydalanganlar. Shu maqsadda uni uch xil qilib tuzishgan. Sirdaryo, Samarqand, Fargʻona va Yettisuv viloyatlarining oʻtroq aholisi uchun qozilar sudi, shu viloyatlarning koʻchmanchi aholisi uchun biy sudlari hamda Kaspiyorti viloyati uchun maxsus xalq sudlari faoliyat koʻrsatgan<sup>1</sup>.

Avval Toshkentda, soʻngra boshqa shaharlarda shahar dumalari tashkil etiladi. 1877-yilda maxsus Muvaqqat komissiya tuzilib, saylovlar, saylovchilar mulkdorlik darajasiga qarab uch toifaga ajratiladi. Bunda shahar ziyolilari, ishchilar va hunarmandlar yetarli miqdorda mulki boʻlmaganligi uchun saylov huquqidan mahrum etiladi.

2400 saylovchi ishtirokida oʻtgan yigʻinda shahar dumasini va boshqarmasi saylanadi. Ruslar uchun noiblarning uchdan ikki qismi miqdorida oʻrin ajratiladi.

Shahar boshqaruvi faoliyatini nazorat qiluvchi viloyat idorasi tuziladi. Uning raisi Sirdaryo harbiy gubernatori edi. 1888-yilda rus imperatori Toshkentni boshqarish ishini maʼqullagani holda uni nazorat qilishni general-gubernatorga topshiradi.

Ichki ishlar vaziri huquqi harbiy okrug qoʻmondoni zimmasiga yuklanadi. Duma oqsoqoli harbiy vazir tomonidan tayinlanadi.

Toshkent shahar dumasining oqsoqoli vazifasini 1877-yildan 1907-yilgacha shahar boshligʻi — hokim toʻraning oʻzi boshqargani ham mustamlaka maʼmuriyatining qiyofasini koʻrsatib turibdi. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori 1885-yil 15-sentabrda podshoga yoʻllagan maktubida yana ham kengroq huquq berilishini soʻrab yozadi: «Shaharning maʼmuriy-politsiya

<sup>1</sup> Бобобеков Х, Каримов Ш, Содиқов М, Усмонов Қ, Холбоев С, Шамсутдинов Р. Ўзбекистон тарихи. Қискача маълумотнома. Т., «Шарқ», 2000. 182–184-бетлар.

hokimiyatiga... to'la itoatkorligini hisobga olib, anashu itoatkorlik qonunlashtirib qo'yilsa, ya'ni shahar oqsoqoli lavozimi shahar boshlig'i lavozimi bilan qo'shib yuborilsa...» Amalda shunday bo'lganini ziyrak zamondoshlardan biri bunday e'tirof etgan: «Saylanadigan shahar oqsoqoli mahalliy aholi ko'z o'ngida doimo boy, savdogar qiyofasida gavdalansa, shahar boshlig'i esa hokim to'radir»<sup>1</sup>.

Rusiya imperiyasida amalda bo'lgan shaharga oid ikkita nizom (1870, 1892-yilgi) Turkistonda faqat Toshkent va Yettisuvdagi Verniy (hozirgi Almati) shaharlarida qo'llanilib, boshqa shaharlarda joriy etilmadi. Rus ma'muriyati Toshkent tajribasi «bu chorani Turkiston o'lkasidagi boshqa shaharlarga qo'llashning foydasi haqida fikr yuritishga erta» degan taqsiromuz xulosaga kelgan edi. Shahar ma'muriy-politsiya tartib qoidalari asosida boshqarildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1870-yilda Toshkentda 80 mingga yaqin aholi yashagan. Ulardan 7 mingga yaqin kishi dehqon, 6 ming kishi hunarmand, 4 ming kishi savdogar, 4 ming kishi mardikor bo'lgan.

XIX asr oxirlarida Toshkentda 20 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta karvonsaroy, 11 mingta loy suvoqli paxsa uylar bo'lib, shahar aholisining soni tobora oshib borgan.

Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy markazi bo'lgan Toshkent shahri o'lka madaniy hayotining asosiy o'chog'i hisoblangan.

Chor mustamlakachilari qishloqlarni boshqarishda 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligining viloyatlarni boshqarish haqidagi «Vaqtli Nizom loyihasi» deb atalgan hujjatlar majmuasiga amal qiladilar. Unga ko'ra ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar), o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqollar) boshqaruv tizimi joriy etiladi.

Volost asosini ming xonadondan ikki ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa yuz o'tovdan ikki yuz o'tovga qadar aholi tashkil etgan. Chorizm bu o'zgarishlar bilan ko'chmanchi aholining urug'chilik asosidagi tarixiy bo'linishini bekor qiladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 207-бет.

1886-yilda kuchga kirgan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» bo'yicha o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvi ikki bosqichga aylantirilib, oqsoqollar volostlarga birlashtiriladi. Ovul jamoalari va oqsoqollar vakillari yig'ini barcha saylovchilar yig'ilishi bilan almashtiriladi.

Shaharlar o'zlarining tutgan mavqeiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy markazlar vazifasini bajarar edi. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Ashxobod (hozirgi Ashgobod) o'lkaning yirik shaharlari edi. Bundan tashqari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan Chimkent, Jizzax, Qarshi, Termiz va Kattag'o'rg'on kabi shaharlarda iqtisodiy hayot rivojlana boradi.

Bosqinchilarning O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishlari natijasida yangi shaharlar ham paydo bo'ladi. Jumladan, Kazalinsk, Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l), Skobelev (Farg'ona), Chernyayevka (Avliyoota) kabi shaharlar shu tariqa vujudga keladi. Bosib olingan shaharlarda ruslar uchun maxsus ajratilgan manzilgohlar paydo bo'ladi. Shaharlar ikki qismga bo'linib, biri eski shahar (mahalliy aholi yashaydigan qism) va ikkinchisi yangi shahar (ruslar yashaydigan qism) deb ataladigan bo'ldi. Masalan, Toshkentning rus qismini tashkil qilish uchun maxsus qo'mita tuziladi. Rejaga kirgan joylardan mahalliy aholiga mansub yuzlab oilalar zo'ravonlik bilan ko'chiriladi. Ularga yangi hovli, yer olish uchun yordam berilmaydi. Hovlilar buzib tashlanib, Yevropa va rus muhitidagi toifalar bo'yicha zobit va amaldorlar uchun uylar, oromgohlar, keng ko'chalar quriladi. Eski shaharning ya'ni o'zbeklar yashaydigan qism aholisining mustamlakachilar yashaydigan shahar qismiga o'tishi qat'iy qat'iy taqiqlanadi. Toshkentning yangi shaharini bunyod etish uchun katta mablag' talab qilinardi. Bu mablag'lar ko'proq eski shahar aholisi daromadi hisobidan qoplanardi.

Toshkent, Xo'jand, Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Petrovsk, Kazalinsk kabi shaharlarda savdo-sotiq, sanoat va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi rus fuqarolariga juda ko'p imtiyozlar beriladi. Ayni choqda musulmonlarning ulardan har tomonlama kuchayib ketmasligi choralari ko'rib boriladi.

Chor mustamlakachilari yer egaligi va suvdan foydalanish masalalarini hal etishga dastlabki davrda to'g'ridan to'g'ri yor-



damlashmadilar. Chorizm istilo qilgan vaqtda o'lkadagi yersuv davlat mulki, vaqf va xususiy mulkdan iborat bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik yuritishning asosiy tarmoqlari hisoblangan. Sun'iy sug'oriladigan yerlar dehqonchilik rivojlanishida asosiy negiz edi. Shuning uchun dehqonchilikni rivojlantirishda irrigatsiyaning ahamiyati juda katta bo'lgan. Irrigatsiya rivojlanishida miroblar alohida o'rin tutganlar.

1873-yilda general fon Kaufman rus podshosiga Turkistonda yerga egalik tuzilishini o'zgartirish loyihasini taqdim etadi. Loyihaga ko'ra amlok yerlar uni ishlatib turgan odamlar tasarrufiga o'tishi lozim edi. Bu qoidani vaqf yerlariga ham joriy qilish to'g'risidagi loyiha taklifi esa rad etiladi.

Ammo fon Kaufman o'z so'zida qat'iy turib oladi. U mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, yer masalasiga doir bir qancha tadbirlarni amalga oshiradi. Jumladan, yer haqiqatda kimning qo'lida ekanligini e'tiborga olish to'g'risida farmoyish beradi. Shunga muvofiq juda ko'p yerlar davlat hisobiga o'tkaziladi. Ayni chog'da mulkiy yerlarga va hatto vaqf yerlariga ham soliq joriy etiladi. 1886-yilda Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizomga muvofiq yer munosabatlariga doir bir qancha tadbirlar amalga oshiriladi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad mahalliy boy-zodagonlarni zaiflashtirish va mustamlakachilar hokimiyatini kuchaytirish edi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko'zlangan bosh maqsad va asosiy yo'nalishlarini Davlat mulklari va zirotchilik vaziri A.V.Krivoshein shunday ifodalagan: «Bu O'rta Osiyo masalasida uch lavha mavjud. Agar birinчисiga yarqirab turgan yozuv «Paxta» bo'lsa, ikkinчисida «Sug'orish» va nihoyat, uchinчисida soyalanib turgan bo'lsa ham aslida hammasidan muhimi «ruslarni keltirib o'rnashtirish» yozuvi turibdi».

Chor ma'murlari Turkiston o'lkasida olib borgan mustamlakachilik siyosatlarida o'z oldilariga bosh maqsad qilib ruslashtirish siyosatini qo'ydilar. Bu boradagi eng muhim va boshlang'ich qadam Rossiya hududlaridagi xalqlarni Turkiston yerlariga ko'chirishdan iborat bo'ladi. Chorizmning ko'chirish siyosatining mohiyati shundan iborat ediki ko'chirma xo'jaliklar uchun yer fondi mahalliy xalqning yerga bo'lgan huquqlarini o'taketgan

darajada buzish yo'li bilan tuzilgan Rossiyadan dehqonlarni u yerga ko'chirish esa, chekka o'lkalarni ruslashtirish maqsadini ko'zlab millatchilik tamoyili asosida amalga oshirilgan.

1869-yildayoq Yettisuvdagi dehqonlar manzilgohlari to'g'ri-sidagi qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu qoidalar ruslarning turkistonlilar yurtiga ko'plab ko'chib kelishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berardi. 1868–1882-yillarda Yettisuvda har birida 250 aholi bo'lgan 29 rus qishlog'i tuziladi. Shu davrda Sirdaryo viloyatida bunday qishloqlar 19 ta bo'lib 1300 aholini o'z qamroviga olardi. Xususan 1891-yildagi Rusiyada ro'y bergan ochlikdan so'ng O'rta Osiyoga bamisoli vabodek yopirilib kelayotgan rus oilalari oqimi kuchaydi. 1906-yilda o'lkaning besh viloyatida 451 ming tanob yerga ega bo'lgan 136 rus posyolkalari paydo bo'ladi. Har bir xo'jalikning tomorqasi 34,5 tanobdan iborat edi. Turkistondagi eng yaxshi yerlarga egalik qilgan bunday rus xonadonlari 1916-yilga kelganda 2.659 ming desyatina yerni o'ziniki qilib olgan 336 ming oiladan iborat edi. Bu o'lka umumiy aholisining 4,5 foizini tashkil etardi. Bundan tashqari 14 million desyatina yer bevosita davlat xazinasini ixtiyoriga olinadi. 190 ming desyatina yerni esa rus plantatorlari va pomeshchiklari o'zlariniki qilib oldilar. Eng katta yer egasi bo'lgan podsho Nikolay II ning birgina Murg'ob vohasidagi yerlari 104 desyatina teng edi.

1886-yilda chor hukumati yer islohoti o'tkazadi. Mustamlakachilik xarakteridagi bu yer islohoti natijasida barcha serunum va sug'oriladigan yerlar boylar va zamindorlar qo'liga o'tib ketadi, kambag'al dehqon xo'jaliklari yanada qashshoqlashdi va xonavayron bo'ladi. 1889–1893-yillarda bunday xonavayron bo'lgan dehqonlar o'z bisotlaridagi 15.588 desyatina yerni sotib yuboradilar.

AQSHdan paxta olishdan deyarli mahrum bo'lgan Rusiya hukumati bu qimmatli xomashyoga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojini asoratga solingan Turkiston hisobidan qondirishga asosiy diqqat-e'tiborini qaratadi. 1869-yili «Rus sanoati va savdosi o'sishiga yordam berish jamiyati» kengashida I.N.Rayevskiy «Rossiya va unga qo'shni sharq mamlakatlarida paxtachilikni rivojlantirish» mavzuida ma'ruza qiladi. Ma'ruzachi Rossiyaga O'rta Osiyo va boshqa paxtakor joylardan xom ashyo keltirishi har jihatdan foydali va qulayligini isbotlab beradi. Uning

ta'kidlashicha, Rossiyaga jami 3 088 285 pud (42 710 136 so'mlik) paxta keltirilgan bo'lib, shundan 639192 pud (5972491 so'mlik) paxta sharq o'lkalaridan olib kelingan ekan. Bu Rossiyaga keltirilgan paxtaning 21 foizini tashkil etgan.<sup>1</sup> Albatta ko'p miqdordagi paxtani xarid qilish uchun millionlab so'm mablag' sarflangan. Rossiyada savdo floti bo'lmaganidan paxta Yevropa mamlakatlari floti va temiryo'llarida olib kelingan, natijada ulovidan tushovi qimmatga tushgan.

O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirish Rossiya uchun katta foyda ekanini I.N.Rayevskiy alohida uqtirib o'tadi. U mahalliy g'o'za navlarining nuqsonlarini gapirib, uni Amerika navlari bilan almashtirishni tavsiya qiladi.

1871-yili I.V.Rayevskiyning shaxsan o'zi Toshkentga kelib Amerika paxtasini iqlimlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshiradi. Samarqandda Amerika paxtasi navini ekadi.

Toshkentda Amerika paxtasini 1875-yili birinchi bo'lib ekan kishi Mulla Yo'lchi To'ychiboyevdir. Xorijiy paxta navi urug'i Buxoro xonligida, shuningdek, 1878-yilda Andijon, Namangan, Qo'qon va Marg'ilonda ham qadalgan.

XIX asrning 80-yillariga kelib, Amerika paxtasi urug'lari orasida «Upland» navi mahalliy sharoitda sifatli va ko'p hosilli bo'lib chiqdi. To'qimachilik sanoati talablariga har jihatdan mos tushadi. Vaqt o'tishi bilan dehqonlar Amerika paxtasi navi ekilgan maydonlarni oshira borganlar. 1884-yili xorijiy navlar 300 desyatina yerga ekilgan bo'lsa, 1890-yilga kelib 58859 desyatini tashkil etgan.

Amerika va «malla g'o'za» navidan olingan tola 1890-yilda 2 million pudga, 1896-yilda 2 665 337 pudga yetadi. Tolaning asosiy qismi Amerika paxtasidan olingan. Paxta, asosan Farg'ona vodiysida yetishtirilgan. Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida ham bu qimmatbaho xom ashyo navlari ekilgan. 1900-yilga kelib paxta ekilgan maydon 257 501 gektarni tashkil qilgan.

Turkiston o'lkasida Amerika paxtasining muvaffaqiyatli iqlimlashtirib borilishi va sanoat talablariga mos tushish rus sanoati korxonalarini egalarini, savdo ahlini, harbiy xizmatchilarni, qo'yingki, puli bor barcha korchalonlarni hayajonlantirib va

<sup>1</sup> Зуёев Х. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгуси. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т., 2000, 140–141-бетлар.

shoshirib yuboradi. Ular o'lkaga kelib, bevosita paxtachilik bilan shug'ullanishga va paxta zavodlari ochishga kirishadilar. Ular shu tariqa mo'may daromad ketidan quvib, boyligiga boylik qo'shishga mukkasidan tushadilar. Puldor odamlardan Turkiston ma'muriyati nomiga paxta maydonlarini kengaytirish, paxta zavodlarini ochishga ruxsat so'rab yozilgan arizalar birin-ketin tusha boshlaydi. Rossiyada «Paxta vasvasasi» avjga minadi. Natijada, o'lkada rus paxta maydonlari va paxtachilikka bog'liq zavodlar miqdori ortib boradi.

XIX asr oxirida, Toshkent shahri atrofida ruslarga qarashli paxtazorlar 4000 desyatina yerni egallab, bu umumiy maydonning 20 foizini tashkil etardi. Masalan, savdogar Belyakov 620, Yaraslavdagi katta to'qimachilik korxonasi 400, tijoratchi Tarsin 200 desyatina yerda dehqonchilik qilgan. Farg'ona vodiysida rus paxta maydonlari 500 desyatina yerni tashkil etgan. 1890-yilda Samarqand viloyatining Xo'jand uyezdida Kudrin firmasi va boshqa kishiga tegishli 300 desyatina yerda Amerika paxtasi yetishtirilgan. Hatto o'lkani bosib olishda jonbozlik ko'rsatgan general-mayor Abramovning Samarqandda shaxsiy paxta maydoni bor edi.

Paxta maydonlarida mardikor va chorikorlar ishlatilgan. Qarabsizki, o'lkani bosib olgan ruslar endi yerli xalqni xo'jayin sifatida o'z yerida ekspluatatsiya qila boshlagan.

Paxtachilik rivoji chor hokimiyati xazinasini boyita bordi. Hatto adolatsizlik haqida o'lkada rus tilida chiqadigan «Okraina» ro'znomasining 1896-yilgi sonlaridan birida shunday yozilgan edi: «Rus sanoati ehtiyojini qondirish maqsadida paxtachilik rivojlanishidan sanoat egalaridan o'zga hech kim foyda ko'rmadi. Paxta arzon bahoda olinib, Rossiyaga yuborildi. Shu paxtadan ishlangan tayyor mahsulotlarni u yoqdan o'lkaga keltirib sotishadi va katta foyda ko'rishadi. Mavjud paxta maydonlarini qisqartirib me'yorida ekish haqida jo'shib gapiriladi-yu, lekin uni ekishaveradi».

XIX asr oxirida boshlangan paxta yakkahokimligi keyingi yillarda tobora mustahkamlana bordi.«Turkestanskiy xlopok» kitobining muallifi I.Slutskiy paxtachilikning umumrossiya hayotidagi ahamiyatini quyidagicha izohlagan edi: «Paxta butun Turkiston o'lkasi hayotining asosiy tarmog'idir. Farg'ona,

Sirdaryo, Samarqand va Kaspiyorti viloyatlari, Buxoro va Xiva xonliklarida yashovchi tub aholi va ruslar turmushi ko'p jihatdan hiyla foydali ekin – paxtaga bog'liqdir. Markaziy Rossiyada istiqomat qiladigan yuz minglab kishilar, fabrika-zavod egalari, temiryo'l ishchilarining hayoti Turkiston paxtasiga chambarchas aloqadordir. Turkiston o'lkasi va Rossiyaning Markaziy qismida savdo-sotiq rivojlanib, bundan chor hukumati ancha manfaat ko'rmoqda. Agar chor harbiylari Turkiston o'lkasini bosib olib, chinakam javohirotni qo'lga kiritgan bo'lsa, haqli ravishda aytish mumkinki, bu javohirning biri paxta edi va u Turkiston o'lkasini Rossiyaga butkul bog'lab qo'ydi. Shuningdek O'rta Osiyo temiryo'lining Andijonga yetkazilishi, Toshkent — Orenburg temiryo'li qurilishiga ham shu bebaho boylik sabab bo'lgan».

Chor hukumati yerning izdan chiqishiga qaramay, paxtachilikni kuchaytirishni o'z vakillaridan talab qilaverdi. Bu xususda Rossiya dehqonchilik noziri Krivoshein shunday degan edi: «Turkistonning har bir pud g'allasi Rossiyaga, rus va Sibir g'allasiga raqobatdir, ortiqcha har bir pud Turkiston paxtasi esa Amerika paxtasiga raqobatdir. Shuning uchun o'lkaga qimmatga tushsa ham g'alla keltirib berish lozimdir». Paxta yakkahokimligini o'rnatish haqidagi bunday g'oyani Turkiston general-gubernatori qo'llab-quvvatlab, bu tadbir hukumatga yiliga 70 million oltin rublni tejashga imkoniyat yaratishini uqtiradi. Uning fikriga ko'ra «ko'p millionli vatan paxta tolasini qayta ishlash sanoatini xonavayron bo'lishdan saqlovchi kafolat rolini o'ynashi mana shu Turkistonning Rossiyaga ko'rsatadigan buyuk iqtisodiy xizmatidir».

Bundan chiqqan ma'no shuki, agar Turkiston diyoriga g'alla ko'p ekilsa, Rossiyadan keltirilayotgan g'allaga nisbatan talab kamayib, ziyon ko'riladi. Demak qancha ko'p paxta ekilsa, Rossiya g'allasiga ehtiyoj shuncha oshib boraveradi. O'z navbatida bu Rossiyaning ulovidan tushovi qimmatga tushayotgan Amerika paxtasiga bog'liq muammolarni ham bartaraf etardi. Nozirning fikricha, paxtachilik rivojlanaversa, ikki tarafga foydadir. Turkiston aholisining ahvoli nima kechsa kechsinu, lekin Rossiya manfaatlari to'la saqlansin — bu chor ma'murlari yuritgan yakka-yu yagona siyosatdir. Chor Rossiyasi Turkiston xalqlariga

taraqqiyot, baxt-saodat va istiqbol olib keladi, deb o'zimizni o'zimiz nodonlarcha aldamaylik.

Mabodo Rossiya hukumati Turkiston o'lkasida sanoat korxonalarini qurgan bo'lsa, u hech qachon og'ir industriya tarmoqlarini yaratishga intilgan emas. U asosan o'z manfaati nuqtayi-nazarini o'ylab xom ashyo mahsulotlariga birinchi ishlov beradigan yengil sanoat korxonalarini qurishga e'tiborni qaratgan. Paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, vino, pivo zavodlari, pilla quritish korxonasi, tegirmon, bosmaxona va hokazolar ana shunday korxonalaridir. Agar 1880-yilgacha bunday korxonalar 21 ta bo'lsa, 1900-yilda ularning soni 195 taga yetadi. O'lkada qurilgan birinchi temiryo'l ham chor Rossiyasining bosqinchilik manfaatlarini ko'zlagan. 1880-yilda boshlangan chor ma'murlari uchun g'oyatda og'ir bo'lgan Axaltaka urushi Rossiyani Kaspiyorti temiryo'lini qurishga majbur etadi. Mixaylovskiy bo'g'ozidan to Qizil Arvotgacha bo'lgan temiryo'l qurilishining birinchi navbati 1881-yil 1-sentabrgacha qurib bitkazildi va 20-sentabrdan doimiy ravishda poyezdlar qatnovi boshlanadi. Keyinchalik temiryo'l qurilishi davom ettirilib, Ashxobodga, so'ng Samarqandga keltiriladi. 1888-yil 15-mayda birinchi poyezd Samarqandga keladi. 1889-yilda temiryo'l aloqalari Mari – Kushka orqali Toshkent va Andijon bilan bog'lanadi. 1890-yilda Rossiya hukumati yuqori mansabdorlari o'rtasidagi uzoq fikr almashuvlardan so'ng yangi – Orenburg – Toshkent temiryo'l qurilishi boshlab yuboriladi va 1905-yil 1-iyulda bu yo'ldan birinchi poyezd o'tadi. Chunki Kaspiyorti temiryo'li orqali Turkiston bilan aloqa o'rnatish masofaning uzoqligi tufayli Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qimmatga tushayotgan edi. Endi yangi temiryo'li qurilishi munosabati bilan Toshkentdan Orenburggacha bo'lgan masofa ilgarigiga qaraganda ancha qisqa muddatda — ikki kecha-kunduzda, Moskvagacha esa to'rt kecha-kunduzda bosib o'tiladigan bo'ladi. Har ikkala temiryo'l ham Turkiston xalqlarining manfaatlarini ko'zlab, yoki Turkistonni jahon mamlakatlari bilan bog'lash maqsadida qurilgan emas. Agar Rossiya bosqinchilari qalbida bunday olijanob niyat bo'lganda bunday temiryo'llarni u avvalo turkiy xalqlar etnik madaniy, diniy, hududiy tomondan yaqin bo'lgan va Turkiston bilan chegaradosh Afg'oniston, Pokiston, Eron, Turkiya kabi davlatlar

tomon ham qurgan boʻlur edi. Yoʻq, Rossiya maʼmuriyati bu temiryoʻllarni birinchi navbatda va asosan Turkiston oʻlkasidagi xalq boyliklarini tezroq, koʻproq va moʻlroq tashib ketish maqsadi bilan quradi. Bu borada raqamlar tiliga quloq soladigan boʻlsak masala yanada oydinlashadi. 1888-yilda Turkistondan Oʻrta Osiyo temiryoʻli orqali 873093 pud paxta joʻnatilgan boʻlsa, 1890-yilda 2673267 pud va 1893-yilda esa 3 588 025 pud paxta Rossiyaga yuborilgan. Yoki 1888–1893-yillarda, yaʼni olti yilda Turkiston oʻlkasidan 14 257 515 pud qimmatbaho paxta xom ashyosi Rossiyaga tashib ketilgan. Bu jarayon yil sayin oshib boravergan. Faqat 1900-yilning oʻzida Oʻrta Osiyo temiryoʻli orqali Rossiyaga tashib olib ketilgan boyliklar hajmi 5 million pudni tashkil etadi. Shundan 60 foizi paxta boʻlib qolganlari quruq meva, ipak tolasi, paxta yogʻi, jun, teri va boshqa mahsulotlar edi. 1895-yilning oʻzida birgina Fargʻonadan Rossiyaga 3399371 pud paxta, 452 ming 740 soʻmlik teri, 192 ming soʻmlik pilla tashib ketiladi. Temiryoʻl qurilishi bilan bu sohaning ishchilari ham oʻsib bordi. 1890-yilda temiryoʻllarda 2778 ishchi ishlagan boʻlsa, 1894-yilda – 3222 va 1898-yilda 5044 ishchi ishlagan. Shundan mahalliy millat vakillari 1890-yilda 728 kishini, 1894-yilda 863 va 1898-yilda esa 948 kishini tashkil etgan.

Ulugʻ shoir Abdulhamid Choʻlponning:

*Kulgan boshqalardir,*

*Yigʻlagan mendir.*

*Oʻynagan boshqalardir,*

*Ingragan mendir.*

*Erk ertaklarini eshitgan boshqa,*

*Qullik qoʻshigʻini tinglagan mendir.*

*Erkin boshqalardir, qamalgan mendir*

*Hayvon qatorida sanalgan mendir,*

degan misralarida XIX asrda rus istilosi va uning natijasida butun gʻarib Turkiston mustamlaka kishanlari halqasida ingragani oʻz aks-sadosini topgan. Shu bois Turkiston xalqlari erk va ozodlik uchun chor Rossiyasi bosqinchilariga qarshi mustamlakachilikning dastlabki kunidan boshlab kurashga otlanadilar.



## 2. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI KURASH

Chor Rusiyasining Turkiston xalqlariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda mahalliy aholining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy haq-huquqlarini himoya qilish uchun muqaddas jangga otlantiradi. Chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka qilingan xalqlar dastlabki kunlardan boshlab o'z milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun kurashib keldilar. E'tibor qiling:

- ...1. 1856-yilda Sirdaryoda Jonho'ja Nurmuhammad qo'zg'oloni.
2. 1868-yilda Samarqand mudofaasi va Buxoro amirligi Buxoro shahri, Shahrisabz bekligidagi harakatlar.
3. 1870-yilda Mang'ishloq qirg'izlarining isyonlari.
4. 1871-yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar.
5. 1871-yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni.
6. 1872-yildagi Chirchiqdagi isyonlar.
7. 1872–1876-yildagi Po'latxon boshchiligida Qo'qondagi qo'zg'olon.
8. 1885-yildagi Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon.
9. 1892-yildagi Toshkent qo'zg'oloni.
10. 1898-yilda Andijondagi Dukchi Eshon qo'zg'oloni.
11. 1899-yilda Sirdaryo viloyatidagi harakatlar.
12. 1916-yil Jizzax qo'zg'oloni va boshqalar.

Chor Rusiyasi hukumatining o'tkazgan siyosatiga qarshi milliy ozodlik kurashlari juda ko'p bo'lgan. Biz yuqorida ularning ba'zilarinigina sanab o'tdik. 1887–1897-yillar mobaynida Farg'ona, Samarqand va Sirdaryoda, mustamlakachilar idoralariga qarshi 668 marta hujum bo'lgan. 1897–1917-yillar orasida Turkistonda Rusiya bosqinchilariga qarshi 4922 marta isyon bo'lgan<sup>1</sup>. Ana shu qo'zg'olonlar va milliy ozodlik kurashlaridan ba'zilarini eslash joizdir.

<sup>1</sup> *Миср ўғли Қодир*. Москва зулми, II жилд, Истанбул, 1972, 537-бет.

### 3. DARVISHXON BOSHCHILIGIDAGI QO‘ZG‘OLON

1885-yilda Farg‘ona vodiysida mustamlakachi hukumatga qarshi umumxalq qo‘zg‘oloniga tayyorgarlik ko‘rildi.

Vodiyning bir qator joylarida qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yashirin yig‘ilishlarda ko‘rilayotganidan mustamlakachi ma‘murlar xabar topgan edilar. Shunday yig‘ilishlardan biri 1885-yil 16-avgustida Asaka qishlog‘ida Mullaxo‘ja Nazirmirza uyida bo‘lib o‘tadi. Vodiyning turli joylaridan kelgan 20 dan ortiq nufuzli kishilar qatnashgan bu yig‘ilishda yurtni chet el bosqinchilaridan ozod qilish, o‘lkada milliy davlatni tiklash uchun mustamlakachilarga qarshi birlashib kurash olib borish vazifasi ilgari suriladi. Yig‘ilishda qo‘zg‘olon rejasi, uni o‘tkazish vaqti, qo‘zg‘olonga rahbarlik qiladigan shaxs kabi masalalar hal etiladi. Qo‘zg‘olonga rahbarlik qilishga Darvishxon Eshon To‘ra ko‘rsatiladi. Bunga sabab bu vaqtda aholining norozilik harakatida faol ishtirok etib el-yurtga ancha tanilib qolgan edi. U Andijon uyezdi Qo‘rg‘ontepa volostiga qarashli Chekto‘ra qishlog‘i fuqarosi, qo‘zg‘olonga rahbarlik qilgan paytda 45 yoshda bo‘lib, Andijon va Qo‘qon uyezdlarida ancha katta yer mulkka ega bo‘lgan. Ammo shunga qaramasdan Darvishxon o‘z manfaatidan xalq, vatan manfaatlarini ustun qo‘yib, milliy ozodlik harakatiga boshchilik qiladi. U qisqa vaqt ichida O‘sh, Andijon uyezdlari volost va qishloqlarida ko‘plab aholini qo‘zg‘olonga jalb eta oladi.

Darvishxon boshliq qo‘zg‘olonchilar yangi Marg‘ilon shahrini Andijon va Qo‘qon bilan bog‘lovchi aloqa simlarini uzib tashlaydi. Bu hodisa to‘g‘risida keyinchalik mustamlakachi hukumat vakillaridan biri «bu hodisa qo‘zg‘olon bo‘lishi muqarrar ekanligini ko‘rsatgan edi» deb xotirlagan.<sup>1</sup> Darvishxon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilar ko‘lami tobora kengayib boradi. Asaka, Qo‘rg‘ontepa, Shahrixon, Oltinko‘l, Jalolquduq, O‘sh uyezdining Novqat, Tutlik qishloqlari, Oqbo‘yra volosti, Marg‘ilon kabi joylar ham qo‘zg‘olon girdobiga tortilgandi.

Qo‘zg‘olon shunchalik keskin tus oldiki, uni bostirish uchun mustamlakachi hukumat viloyatni turli joylariga, jumladan

<sup>1</sup> *Тиллабоев С.* Мустамлакачиларга қарши Дарвишхон бошчилигидаги қўзғолон. «Ўзбекистон тарихи», Т.: 2002, 1-сон. 12–13-бетлар.

Andijon, O'sh va Marg'ilon uyezdlariga harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo'ladi. Vodiy bo'ylab borgan sayin avj olayotgan Darvishxon rahbarligidagi qo'zg'olonni bostirish va uning rahbarlarini qo'lga olish vazifasi Andijon uyezdi boshlig'i kapitan Bryanovga topshirilgandi. Uning ixtiyoriga O'sh uyezdi-ning boshlig'i podpolkovnik Deybner, uning yordamchisi kapitan Glishanovskiylar boshchiligidagi harbiy kuchlar yuboriladi.

Qo'zg'olonchilar bilan Bryanov boshchiligidagi harbiy kuchlar birinchi bor 17-avgust kuni kechqurun to'qnashadi. Kutilmaganda qilingan hujumdan Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar har tomonga chekinishga majbur bo'ladilar. Shundan so'ng Darvishxon Namangan tog'lari tomonida o'z atrofiga 800 ga yaqin odam to'plashga erishadi.

Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon to'g'risida Turkiston general-gubernatori O.Rozenbax Rossiya harbiy vaziri P.S. Vannovskiye ga yozgan xatida «qo'zg'olon viloyatning turli joylarida bir vaqtda boshlanishi va qo'zg'olonchilarning o'g'rilik va talonchilik qilmasdan, barcha aholini bu harakatga chaqirilishi, bu harakatning to'liq ma'noda amaldagi hukumatga qarshi qaratilganligini ko'rsatadi... ular yomon qurollangan, oz sonli bo'lishlariga qaramasdan jiddiy tartibsizliklarni keltirib chiqarishlari..., ayniqsa soliqlar to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi».<sup>1</sup>

Chorizm ma'murlari kuch bilan qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdilar. Qo'zg'olonchilardan shunchalik darajada ko'p qamoqqa olindiki, hatto ularni qamash uchun joy masalasi muammo bo'lib qolgandi, qo'zg'olon rahbari Darvishxon 1886-yil 22-fevralda Samarqand viloyatining Sutxona qishlog'i yaqinida qo'lga olinadi, lekin u Jizzax yaqinida qochib qutulib ketadi. Darvishxon akasi Iskandarning bergan ma'lumotiga ko'ra 1889-yili Afg'onistonda vafot etgan. Uning boshchiligidagi qo'zg'olon garchand bostirilsada, biroq u bundan keyingi milliy ozodlik harakatlariga zamin hozirladi.

<sup>1</sup> *Тиллабоев С. Кўрсатилган адабиёт, 22-бет.*

#### 4. TOSHKENT QO'ZG'OLONI

1892-yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda ham rus mustamlakachilarini talvasaga solgan va tarixga «Vabo isyoni» yoki «Toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon boshlanadi<sup>1</sup>. Rasmiy doiralar bu qo'zg'olon vaboga qarshi rus amaldorlari qo'llagan tadbirlardan norozilik tufayli kelib chiqqan, deb nomlashgan. Shuning uchun ham uni «Vabo isyoni» deb nomlashgan. Shunchaki qaraganda chindan ham shunday bo'lgan.

1892-yilda Turkistonda vabo tarqalgani xususida xabar paydo bo'ladi. May oyida Jizzaxda vabo bilan og'rikan kishilar topiladi. Vaboning Sirdaryo viloyatiga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun Chinoz qishlog'ida Sirdaryodan o'tadigan kechuv oldida chor hukumati tomonidan kuzatish manzilgohi ochiladi.

1892-yil 7-iyunda Toshkent hokimi uzoq o'ylab o'tirmay qator farmoyishlar chiqardi. Shahardagi 12 mozor yopiladi. Uning o'rniga to'rtta maxsus vabo qabristonlari ochilishi ma'lum qilindi. Mustamlakachi ma'murlar marhumlarni eski qabristonlarga dafn etishni taqiqlab qo'ydi. Vabodan o'layotganlar ko'payib borsa ham yangi qabristonlardan atigi bittasi ochildi. Marhumlarni yashirincha eski mozorlarga ko'mish boshlandi. Bundan xabar topgan politsiya pristavi «gunohkor» mahrumlar qarindoshlarini hibsga olib, ularni to'g'ri bozor orqali haydab ketishadi. Pristav yo'l-yo'lakay ularga dag'dag'a qilib ko'milgan jasadlarni go'rdan qazib olinishini aytadi. Rus ma'murlarining musulmonchilik odatlarini oyoq osti qilishi va sharoitni poymol etishdan xalq g'azabga keladi. Olomonning g'azabi anchadan beri xalqqa zulm o'tkazib, ruslarning nog'orasiga o'ynayotgan bosh oqsoqol Muhammad Yoqub Karimberdi o'g'liga qarshi qaratiladi. Qo'zg'olonchilar shahar idorasi tomon yo'l oladilar. Yo'l-yo'lakay qo'zg'olonchilar soni ko'paya boradi. Katta oqsoqol Matyoqub sha'niga tahdid qiluvchi gaplar tobora kuchayib boradi. Oqsoqolning uyiga yaqin qolganda Abulqosim Eshon va bozor oqsoqoli

<sup>1</sup> Bu voqea tavsiloti Hamid Ziyoyevning «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmroligiga qarshi kurash» nomli kitobi hamda «O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» nomli kitobida keltirilgan.

Ziyo Muhammad boshchiligida Shayxontohur dahasidan kelayotgan 500 kishilik to‘da asosiy olomonga qo‘shildi. Odamlar oqsoqol shahar boshlig‘ining idorasida ekanligini eshitib, shu idora tomon yurish boshlaydilar. Xalqning bostirib kelayotganligidan xabar topgan shahar boshlig‘i Putinsev Matyoqub bilan xalq oldiga peshvoz chiqadilar. Ular O‘rda bozori yaqinidagi Voronsov xiyobonida uchrashadilar. Matyoqub qamchisini o‘ynatib, xalqni so‘kaverdi, olomon esa uni toshbo‘ron qila boshlaydi. Bunday xatti-harakatdan kapalagi uchgan oqsoqol Sayfilla mirshab bilan shahar boshlig‘ining idorasiga otda qochib yashirindi.

Putinsev odamlarni tarqatmoqchi bo‘ladi. Lekin olomon oqsoqolni topib berishni talab qiladi. Bu talab rad etiladi. Xaloyiq Putinsevari ham toshbo‘ron qiladi va urib yiqitadi, kaltaklashadi. Qo‘zg‘olonchilar binoning ichiga bostirib kiradilar. Qo‘zg‘olonchilarning Putinsevdan Matyoqubni ushlab berish, xalqni qiynab kelayotgan chora-tadbirlarni bekor qilish haqidagi talablari qondirilmagach, shahar boshlig‘ining idorasini ostin-ustun qilib tashlaydilar.

Qurolsiz xalq askarlar yaqinlashib kelayotganligini eshitib, tarqala boshlaydi. Harbiy gubernator Grodekov unchalik katta bo‘lmagan otryad bilan voqea ro‘y bergan joyga yetib kelganidan «tartibsizlik» ishtirokchilaridan hech kim qolmagan edi. Qo‘zg‘olonchilar Matyoqubni uyiga bostirib borib, bu uyni ham ostin-ustun qilib tashladilar. Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, shu joyning o‘zida o‘nga yaqin kishi o‘ldirilgan. Ammo qancha kishining o‘lganligi haqida ma‘lumot yo‘q. Chunki xaloyiq o‘ldirilgan va yarador qilinganlarni o‘zlari bilan birga olib ketib yashirgan.

Qo‘zg‘olonchilarning yuzga yaqini oq podsho sarbozlari tomonidan Anhor tomonga qisib boriladi va suvga cho‘ktiriladi. Qochganlar ayovsiz qiriladi. Bu yerda shahid ketganlarning soni haqida ma‘lumot yo‘q. Tarixga «Toshotar voqeasi» deb kirgan bu qo‘zg‘olon oqibatida g‘alayon qatnashchilari bo‘lmish 60 kishidan 8 kishi o‘lim jazosiga, 3 kishi qamoqqa hukm qilinadi. Qo‘zg‘olon sodir bo‘lgan bu joy Toshkentda «Jangob» nomi bilan mashhur.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov 1892-yil 1-iyulda general-gubernatorga yo‘llagan raportida qo‘zg‘olonning tasodifiy bo‘lganini ta‘kidlab, uning asosiy tashkilotchilarini

topgani va hibsga olganini bayon etgan: «...shaharning osiyoliklar yashaydigan qismi oqsoqoli In'omxo'ja Umarxo'jayevni 24-iyun voqealariga olib kelgan harakatning asosiy rahbari va haqiqiy sababchisi deb hisoblash kerak. U shaxsan o'zi va eng yaqin xodimlari orqali nodon xalq ommasi orasida tashviqot olib borgan, ma'muriyatimizning vaboga qarshi farmonlari va xatti-harakatlari xususida tashvish tug'diradigan xabarlar hamda mish-mishlar tarqatgan. Mazkur yerlik kishining eng yaqin sheriklari unga qarindosh bo'lgan yuzboshi Ahmadxo'ja va qudasi Usmonxo'jadan tashqari Shayxontohur dahasining qozisi Sharifxo'ja so'ngra Beshyog'och dahasining yerlik fuqarolari Badalmuhammad Xolmuhammedov va Boqijon Dadajonboyev bo'lgan. Menga ma'lum bo'lishicha, bu kishilar avvallari ham shaxsan o'zlari va ko'p sonli tarafdorlari orqali olomonga boshchilik qilganlar, olomni hukumatning tadbirlariga qarshi qo'zg'atganlar. Bu barcha shaxslarning xalq orasidagi zararli tashviqiy ta'sirini hisobga olib, 24-iyun voqealari sodir bo'lgan kunning o'zidayoq barchasini qamoqqa olishga farmoyish berdim».

Turkiston harbiy okrugi sudi yuzboshi lavozimida halol xizmat qilib yurt ahlining mustamlaka istibdodiga qarshi ko'targan qo'zg'oloniga bosh bo'lgan Ahmadxo'ja Abdurashidxo'jayevni 1892-yil 10-dekabrda majlisida osib o'ldirishga hukm qiladi. Ammo jamoatchilik fikrini hisobga olib bu hukm 15 yil surgun bilan almashtiriladi. Sobiq yuzboshi bu muddatni o'tash davomida salomatligini butkul yo'qotib 1907-yili Toshkentga qaytgach, ko'p o'tmay vafot etadi.

N.P.Ostroumov bu qo'zg'olonning asosiy sababi to'g'risida 1892-yil 29-iyunda bir do'stiga yozgan xatida bunday degandi: «Ko'p jihatdan ayb o'zimizda, albatta, ularning fe'l-atvorlarini va qonun-qoidalarini o'rganganimiz yo'q va hali ham o'rganmayapmiz. Bunda ayb faqat vaboning o'zida emas, sabr kosasini to'ldirib-toshirib yuborgan so'nggi tomchidir. Norozilik allaqachondan beri kuchayib, yig'ilib kelmoqda edi, keyin esa boshqa noroziliklar qo'shilishi bilan birdaniga qo'zg'olon boshlanib ketadi».

## 5. 1898-YILGI ANDIJON QO‘ZG‘OLONI

Mustamlakachi chor ma‘murlarini dahshat va vahimaga solgan xalq qo‘zg‘olonlaridan biri 1898-yilda Andijonda bo‘ladi. Bu qo‘zg‘olonga Andijondagi poytug‘lik Eshon Sultonxon To‘raning muridi, «Dukchi Eshon» nomi bilan mashhur bo‘lgan 42 yasharlik Muhammad Ali Xalfa Madali Eshon boshchilik qiladi. Muhammad Ali Xalfa Sobir o‘g‘li Dukchi Eshon 1856-yilda Farg‘ona shahridan 25 chaqirim janubiy-g‘arbdagi Chimyon qishlog‘ida tug‘ilgan<sup>1</sup>. Uning avlodlari asli qashqarlik bo‘lishgan. Muhammadali juda aqlli va odobli bola bo‘lgan. Oilasining nochor hayoti tufayli maktabda o‘qiy olmagan. Lekin mustaqil o‘qib savodxon bo‘lgan. Otasi yonida yurib beshik, yik tayyorlash, keyinchalik esa paxsa urish kasblarini egallagan. Shu bois uni «usta» ham deyishgan. Oilasi bilan 10 yoshida Mingtepadagi Tojik qishloqqa ko‘chib ketgan. Muhammadali shu atrof yaqinda nom chiqargan va hatto Qo‘qon xonligida ham hurmati bo‘lgan mashhur Sultonxon to‘ra xizmatiga kiradi va o‘zining mehnatsevarligi, aqli, odobi va taqvodorligi bilan Eshonning o‘g‘illari qatoridan joy oladi. Sultonxon to‘raning Qoradaryoning o‘ng sohilida – Poytug‘da ham yerlari bo‘lgan. U shu yerga ko‘chib borib 3–4-yil yashaganda Muhammadalini ham o‘zi bilan bu yerga olib keldi. 1882-yilda Sultonxon to‘ra vafot etadi. Vafoti oldidan u o‘z shogirdi Muhammadaliga «eshonlik» to‘g‘risida xati irshodni (yo‘llanma xatni) yozib imzo qo‘yib muhrlab bergan edi. 1886-yilda 30 yoshida Muhammadali Makkai Mukarramaga borib kelgach, o‘zini Eshon deb e‘lon qiladi. Uning o‘zi iqror bo‘lib aytgan so‘zlariga qaraganda Madinai-Munavvarada Muhammad payg‘ambar qabrini ziyorat qilib qaytgach, pirini tushida ko‘radi. U Muhammadaliga yurtingga borgach, o‘n yil eshonlik qilgin,

---

<sup>1</sup> 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonining kengroq tafsiloti Fozilbek Otabek o‘g‘li qalamiga mansub «Dukchi Eshon voqeasi» (Samarqand, 1927-yil) asarida ancha xolisona, to‘g‘ri bayon qilingan. Fozilbek Otabek o‘g‘li 1886-yili Andijonning «Devonaboy» dahasida tug‘ilgan, ruscha, musulmoncha ma‘lumotga ega bo‘lgan, jurnalist sifatida yaxshi tanilgan, jadidchilik, istiqloqlilik yo‘lida faol kurashgan, 1938 yili qatag‘on qilingan. «O‘zbekistonning yangi tarixi». Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Hamid Ziyoyevning «O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi». «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. 184–249-betlarda ham yoritilgan.



och-yalang'ochlarga ovqat, boshpana bergin, keyin esa kofirlarga qarshi g'azovat e'lon qilgin, deydi.

O'zini Eshon deb e'lon qilgan Muhammadali Xalfa har kuni katta qozonda ovqat pishirib och-yalang'och, yetim-yesirlarni boqa boshlaydi. U dastlab bu ishni qarz olib amalga oshiradi. So'ng Eshonning obro'-e'tibori shu darajada ko'tarilib ketadiki, u qarzlarni ham uzdi va har kuni doshqozonda ovqat tayyorlab 150–200, ba'zan esa 400–500 kishini ovqatlantira boshlaydi. Muhammadali xalfa Eshon bo'lish bilan birga tabiblikdan xabari bor edi. Eshonning xalq orasida obro'-e'tibori juda tez o'sib boradi. Uning muridlari faqat Farg'ona vodiysidagina emas, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa olis-olis joylarda ham bo'lgan.

Chor Rossiyasining xalqqa qarshi mustamlakachilik, zo'rlik va adolatsiz siyosati Muhammadali xalfaning xalq kurashiga rahbarlik qilishining bosh sababidir. Qo'zg'olon boshlanishidan bir yil oldin Eshon turk sultoniga maktub yozadi. Maktubda Eshon ruslar Qo'qon xonligini bosib olganlaridan keyin musulmonlar o'rtasida axloqan buzilish kuchayganligini, shariat qoidalaridan chekinish ro'y berib, buzuqlik, ichkilikbozlik, nashaxo'rlik avjiga chiqqanligini yozgan. Bundan tashqari Eshon ruslar kambag'allar uchun zakot yig'ishni, hajga borishni taqiqlaganliklarini, eski vaqflarni man qilib, yangilarni joriy etmayotganliklarini ta'kidlar ekan, turk sultonidan xalqning shariat qonun-qoidalari bo'yisha turmush kechirishi uchun sharoit yaratishni oq podshodan talab qilishni so'raydi. «Rus hukumatining shariatni nazar-pisand qilmaganligini Allohning qahrini keltirmasmikin, deb qo'rqaman», deydi Eshon ushbu maktubi so'nggida.

Qo'zg'olon boshlanishidan bir necha kun avval Eshon huzuriga ba'zi bir mahalliy mansabdor shaxslar kelib, Eshon tayyorlagan murojaatnoma yoki qasamyodga o'z muhrlarini boshladi. Bu murojaatnomada shunday deyilgan edi:

«Alloh yo'q joydan o'n sakkiz ming olamni yaratib, insonga mukammal bir qiyofa baxsh etib, uni barcha jonzotlarning sohibi, Odam atoni esa xalif qilib ko'tardi. Butun olamni Alloh payg'ambarimiz uchun yaratib, uni eng yaqin kishisiga aylantiradi va ul hazratni taxtga o'tqazdi-da, shunday murojaat qiladi: «Ey

paygʻambar! Gʻayriddinlar va imon-eʻtiqodidan qaytganlar bilan jang boʻlgʻusidir». Bunda oʻziga sodiq qolgan va eng yaqin boʻlganlarga jannat vaʻda qiladi. Choryorlar xalqqa pandu nasihat qilib deydilarki, «Kimki gʻazovat yoʻlida oʻz mulki va hayotini Alloh va paygʻambar uchun qurbon qilsa, bundaylar biz singari boʻlgʻusidir». Ular nomunosib bandalarni tiyish uchun kitob bitdilar va bizga esdalik sifatida qoldiradilar. Shunday ekan, oʻzimizni Allohning qullari va paygʻambarning ummatlari hisoblaydigan bizlar albatta gʻazovot eʻlon qilishimiz joizdir. Birinchidan, Alloh va paygʻambar yoʻlida bu muqaddas urushda biz gʻolib chiqishimiz, ikkinchidan hayotimizni qurbon qilishimiz lozim.

Biz quyidagi oʻz muhrimizni bosganlar, oldimizga kalomullohni qoʻyib, Alloh va paygʻambarga qasamyod qilib, xalifamiz bilan shartnoma tuzdik. Shundan keyin, agar oʻzimizga bino qoʻyganimizdan shaytonning vasvasasiga uchib yoki shirin jonimizni saqlashni oʻylab, qoʻrqib, vaʻdamizdan qaytib, uni bajarmasak doʻzaxga tushaylik, ikki dunyoda yuzimiz qora boʻlsin, qiyomat kuni sharmanda-yu sharmisor boʻlaylik.

Bu soʻzlarning tasdigʻi uchun muhrimizni qoʻydik.

Mazkur qasamyodga mahalliy amaldorlar va obroʻ-eʻtiborli kishilardan oʻn ikki kishi muhrini bosgan.

14-may kechqurun Muhammadali xalifa uyida kengash boʻlib, unda Fargʻona viloyatining turli boʻlimlaridan kelgan kishilar qatnashadi. Kengash Eshon maʼlum qilgan rejaga binoan vodiydagi uch shahar – Andijon, Margʻilon va Oʻshdagi harbiy lagerga bir kunda hujum qilinishi kerak edi. Bu hujum muvaffaqiyatli tugasa, Qoʻqonni ham olib, vodiyda xonlikning tuzumi tiklanardi. Soʻngra mustamlakachilar Samarqand, Toshkent va Chimkentdan ham haydab chiqarilardi.

16-may kuni kechqurun yana Eshon xonadonida kengash boʻlib, unda mingga yaqin odam qatnashadi. Shu kengashda Eshonning oʻn toʻrt yoshli jiyani Abdulaziz (Musulmonqul) xon qilib koʻtarilajagi, qoʻzgʻolon qachon boshlanishi aytiladi.

17-may kuni shom namozida Tojik qishlogʻidagi masjidga juda koʻp odam toʻplanadi. Namoz paytida Eshon xalqqa murojaat qiladi: «Ey muhtaram musulmonlar!» Ey birodarlar! Hammangizga

ma'lumdirki, yurtimiz musulmon yurti, el musulmon, xalq musulmon, xon musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nofiz edi. Hukumatni Alloh taolo o'zi biladur, kofirlarni musallat qiladi, yurtimizga rus keldi. Xudoyorxon o'rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernayuf o'ltirdi. Farg'ona xonligi yerida Moskva xonligi – oq podsho hukmron bo'ldi.

Rus vatanimizga istilo etdi. So'ngra tilimizga istilo qiladi. Sekin-asta dinimizga istilo qilmoqqa boshladi, bilasizlarki, musulmonlarning axloqi buzildi. Rusning kelg'oniga o'ttiz yil to'lmay, musulmonlar riboga odatlandi, halol-haromni farq qilmas bo'ldi. Qozilarimiz bo'yniga but taqadig'on bo'ldi. Xulosa (shulki), shariatimiz xor, musulmonchilik g'arib bo'ldi. Hurriyatimiz g'oib bo'ldi, istiqlolimiz mahv bo'ldi, o'zimiz o'tmas, so'zimiz kesmas bo'ldik. Ey voh...

Ey musulmonlar, bunga sabab o'zimiz bo'ldik. Bu asorat va mahkumiyatga kimsa rozi emas, ins ham, jins ham rozi emas. Ey birodarlar, tek turavyersak bu kofir yana battar qiladur. Voy bizning holimizga.

Tarixda o'tgan muazzam bir saltanat qo'rg'on qahramon pahlavonlar avlodimiz – bu zillatga hech qanday ziruh chidamas. Qani bizdagi shijoat, qani ajdodlarimizdagi bisolat, sizlarga nima bo'ldi?

...400 olimimiz bordir, hammasi musulmon, hammasi turk hammasining ismi Muhammad. Hammasi xanafiy mazhabdir. Bu ismda, bir mazhabda, bir qabristonda bu qadar olimlari to'plangan Turkistonni dini taqdimda, din odamlarini yetishtirishda na darajada xizmatlari sabqat etganligi o'quvchilar diqqatiga arz o'rindur. Jahon tarixida, yer yuzida, ko'k yuzida bu misli ko'rilmog'ondir. Turkistonliklar har qancha iftixor etsa arziydur, bajodur, ey birodarlar, bizlar shundoq ajdodning nabiralarimiz. O'luk uyqusida uxlaysizmi?!» – deb hazrat Eshonning so'zi bu joyga kelg'onda zori boshlandi. Hozir turg'onlar ho'ng-ho'ng yig'lash bilan Eshonning amriga oshoda ekanliklarini bildirdilar, alarning hayajonlarini bosish uchun hazrat Eshon so'zida davom etdi:

– Ey musulmonlar, ey xudoning bandalari, ey payg'ambar ummati! Chin mo'min bo'lsangizlar, sizlarga jihod lozimdur, ji-

hod. E'tiqod, Alloh yo'lida jihod qilamiz, o'lsak-shahid, o'ldirsak-g'oz bo'lamiz. Jihod qilmaguncha yelkamizga mingan bu ro'dapo o'rusdan qutilish yo'q.

Ey mo'minlar, ko'zingizni oching! G'aflatdan bedor bo'ling! Kofirlardan huquqimizni olaylik.

Ey birodarlar, hurriyatimizni olaylik, o'z vatanimiz, o'z yurtimizda o'zimiz hukumat quraylik. Buning uchun bizdan g'ayrat istaydur, himmat istaydur, jihod istaydur, fiysabilliloh jihod vaqti keldi!

Keyin yaqin qishloqlarga chopar yo'llaydi, hazrat Eshon amirlari bilan jihod fiysabilliloh e'lon qilinadi. Choparlar kimki musulmon bo'lsa, bu oqshomdan qolmay jihodga hozir bo'lsin, deb nido qilishadi».

Xufton namoziga odamlar qurollanib kelishadi. Ammo ularning kamdan kami qilich va miltiq bilan qurollangan, asosiy qismi so'yil, cho'qmor, ketmonsop, panshaxa ko'tarib olishgan edi. Namoz paytida ular qurollarini masjid devoriga suyab qo'yishadi.

Namoz o'qib bo'lingach, hamma baravar «Jihod! Jihod! Jihod!» – deya hayqira boshladi. Qisqa vaqtda bu ovoz butun qishloqni tutib ketadi.

Bir mahal Eshon hovlisining darvozasi ochilib, undan oq otni yetaklab chiqishadi. Muhammadali xalifa: «Bismillohir rahmonir rahim, baniyati jihod!» deb otga minadi. Shundan keyin qo'zg'olonchilar yo'lga tushadilar.

To'plangan odam olti yuz nafarcha edi. Lekin ularning hammasi ham otliq emasdi. Shu boisdan otliqlar piyodalarni mingashtirib olishadi. Qolganlar piyoda yoki aravada yo'lga tushishadi. Yo'lma-yo'l qo'zg'olonchilar safi ortib boradi. Olomon ikki bayroq ostiga uyushgandi, birinchi bayroqqa Mulla Ziyovuddin Maxsum boshchilik qilayotgan edi. Ko'k to'n kiyib, oq salla o'ragan otliq Eshon eng oldinda devona bolalar davrasida borardi. Dukchi Eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Andijon shahrida joylashgan harbiy garnizonga hujum qilib, 23 rus askarini o'ldirdilar, 24 tasini yarador qiladilar, 30 tacha miltiqni o'lja oladilar. «Eshon to'poloni» tez orada deyarlik butun Farg'ona vodiysiga yoyiladi. Quva, Asaka, Shahrixon, Aravon,

O'sh, Marg'ilon, Namangan, Sirdaryo va boshqa joylarda xalq harakatga keladi. Publitsist jurnalist Alinazar Egamnazarovning «Siz bilgan Dukchi Eshon<sup>1</sup> maqolasida bunday hikoya qilinadi: «Qo'zg'olonni faqat Andijon, Marg'ilon va O'sh uyezdlari xalqi emas, Namangan uyezd, Yettisuv viloyati xalqi ham qo'llab-quvvatladi. Avliyootadagi harakatga Shodibek xalifa ismli Eshon boshchilik qiladi. U to'plangan yuzdan ortiq odam dovonlar qordan biroz tozalangach, Andijonga tomon harakat qiladi. Namangan va Andijondan ularga tomon yurgan harbiylar oradan besh kun o'tgach, Shodibek xalfani 23 nafar sherigi bilan ushladi.

Namanganda uyezd boshlig'ining o'rinbosari Bushen boshliq harbiylar yashirin ravishda tog' so'qmoqlarini kezib, bir necha ovulni tintuv qilishdi va 29 nafar qo'zg'olonchini, shular qatori to'rt boshliqni ham uchlashdi. Ularning yonidan g'azovot boshlash to'g'risidagi Murojaatnoma va Muhammadali xalfaning xati, shuningdek musulmon davlati tuzilajagi, uning poytaxti etib Namangan shahri tanlanganligi haqidagi murojaatnoma ham chiqdi.

Shu kunlarda Prejivalsk va Pishpek uyezdlarida, Sirdaryo viloyatining Xovos temiryo'l bekatida ham mirshablar bilan mahalliy aholi o'rtasida qurolli to'qnashuvlar bo'ldi.

Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostiriladi va qo'zg'olon bahonasida yerli xalq yoppasiga qirg'in qilinadi.

Baron Vrevskiy Sankt-Peterburgga jo'nab ketganligi munosabati bilan Turkiston o'lkasi Bosh harbiy gubernatori vazifasini vaqtincha bajarib turuvchi general-leytenant Korolkovning Rossiya harbiy vazirligining Bosh shtabiga yuborgan telegrammasida bunday deyiladi:

«Farg'ona harbiy gubernatori shuni ma'lum qiladiki, kecha kechqurun Marg'ilon uyezdida Eshon Muhammadali xalifa g'azovot e'lon qiladi va ming kishidan iborat sheriklari bilan Andijonga yo'l oldi. Qo'zg'olonchilar telegraf simni uzib, bugun saharda 20-batalon lageriga hujum qilishdi. Bu hujum chog'ida askarlardan 21 nafari o'ldirildi va 10 nafari yarador qilindi. Qo'zg'olonchilar guruhi to'qnashuv joyida o'lgan 11 nafar va

<sup>1</sup> «Шарк юлдузи», 1993, № 10–12.

yarador bo'lgan 8 nafar odamlarini qoldirib chekinishdi. Farg'ona harbiy gubernatori Marg'ilondan Andijonga temiryo'l orqali 20-batalon rotasini va ovchilar komandasini yubordi, o'zi esa 13 kazak bilan tuproq yo'ldan jo'nab ketdi. Ayrim xabarlariga qaraganda, biz tomonimizdan qurbonlar yanada ko'proq va Andijondagi rus aholisi bu yerda ilgari hech bo'lmagan hodisa sababli sarosimaga tushib qolgan. Men qo'shinlarda, shaharlarda ehtiyot choralari ko'rish va tartibsizliklar paytida Farg'ona viloyatining barcha qo'shinlarini harbiy gubernatorga bo'ysundirish, shuningdek Orenburg polkini o'tloqdan qaytarish haqida ko'rsatma berdim. General-leytenant Korolkov».

Harbiy vazir general-leytenant Kuropatkin bu telegrammani darhol oq podsho hazratlariga olib kirgan va qo'zg'olonni bostirish yuzasidan belgilangan tadbirlarni bayon qilgan. Podsho bu tadbirlarni ma'qullagan va shu asosda Korolkovga darhol ko'rsatmalar asosida Turkistonning yangi tayinlangan harbiy qo'shinlari qo'mondoni Duxovskiye'ga telegramma jo'natiladi. Unda quyidagilarni o'qiyviz:

*«Harbiy vazirlik Bosh shtabi Osiyo qismi*

*1898-yil 21-may, 25724-son*

Turkiston Bosh gubernatori va Turkiston harbiy okruqi qo'shinlari qo'mondoniga general-leytenant Korolkov 18-mayda yuborgan, «Siz janobi oliylariga ma'lum bo'lgan oshig'ich telegramma asosida podsho hazratlariga berilgan axborotdan so'ng oliy hazratlari 21-mayda general-leytenant Korolkov ko'rsatmalarini ma'qullab, Siz janobi oliylariga quyidagilarni buyurishimni amr qiladilar:

- 1) Siz janobi oliylari hoziroq xizmat joyiga jo'nab keting.
- 2) General-leytenant Korolkov Farg'onaga jo'nab ketsin va rus qo'shinlariga hujum qilishga yo'l qo'ygan shaxslarni tergov qilsin, mahalliy aholi va amaldorlar qay darajada aybdorligini, qo'shinlar o'zlarini qanday tutganliklarini aniqlasin.
- 3) Farg'ona harbiy gubernatori general-leytenant Povalov Shvitskiy va Andijon uyezdi boshlig'i egallab turgan vazifalaridan chetlatilsinlar.

4) 1-Turkiston muntazam brigadasi boshlig'i, general-mayor Ionov Farg'onaga yuborilsin va uning zimmasiga viloyatda joylashgan qo'shinlarga vaqtinchalik qo'mondonlik qilish vazifasi

yuklatilsin; shuningdek bizning lagerimizga hujum qilishga aybdor bo'lganlarni ushlashga va mabodo yangi guruhlar paydo bo'lgudek bo'lsa, ularga qarshi kurashga jalb etiladigan harbiy qismlarni ham boshqarsin.

5) General Ionov ixtiyoriga Samarqanddan Farg'onaga 2-Ural kazak polkining ikki sotnyasi shu polk komandiri polkovnik Jigalik rahbarligida jo'natilsin.

6) Pomir posti tarkibi mustahkamlansin.

7) Tog'larda va viloyatlarda g'alayonlar bo'lgudek bo'lsa, tadbirlar belgilansin.

8) Tegishli rahbar shaxslarga ko'rsatib o'tilsinki, qo'sinlarimizga hujum qilishda aybdor bo'lganlar namunali tarzda safqatsizlik bilan jazolansinlar, bunda Turkiston okrugi qo'sinlarining vaqtinchalik qo'mondonligiga dala sudi hukmlarini tasdiqlash huquqi berilsin.

9) Farg'ona harbiy gubernatori lavozimini vaqtinchalik bajarish uchun 2-Kaspiyorti o'qchi brigadasi boshlig'i general-mayor Chaykovskiy yangi Marg'ilonga yuborilsin. Samarqand shahri uyezdi boshlig'i polkovnik Chernyayevskiy va Toshkent shahar uyezdi boshlig'i podpolkovnik Krilov unga yordamchi etib tayinlansinlar.

10) Generallar Ionov va Chaykovskiyga 600 so'mdan, polkovnik Chernyayevskiy va podpolkovnik Krilovga 300 so'mdan, Farg'onaga jo'natilayotgan ikki sotnya ofitserlari va polk komandirlariga yarim yillik maoshi hajmida yo'l puli berilsin.

Oliy hazratlarining yuqorida bayon qilingan amrlarini Siz janobi oliylariga ijro uchun ma'lum qilarkanman, Sizga yana shuni yetkazish sharafiga muyassarmanki, yuqorida tayinlangan shaxslarga va Ural polkining ikki sotnyasiga darhol jo'nab ketish haqida ko'rsatma berildi Harbiy vazirlik boshqaruvchisi general-leytenant Kuropatkin».

Podsho Nikolay II qo'zg'olonchilarni «namuna» bo'ladigan darajada qattiq jazolash uchun ko'rsatma berdi. Ana shu ko'rsatma asosida qo'zg'olonchilar ustidan olib borilgan sud jarayoni 3 oy davom etadi. Dastlab 447 kishi sud qilinadi va 800 ga yaqin kishi guvohlikka chaqiriladi. General-mayor Terentev raisligida o'tgan harbiy sud materiallari «Andijanskoe delo» 20 jildni tashkil qilgan. Ushbu sud ishi bo'yicha 380 kishi-



ning ustidan sud hukmi chiqirilgan. Sud hukmida quyidagilarni o'qiydiz: «.. kuchli muhofaza to'g'risidagi qonunning 17, 18 va 31-moddalari asosida harbiy vaqt qonunlarini joriy etgan holda, jinoyatchilarni jazolash va axloqini tuzatish to'g'risidagi qonunlar to'plamining 249-moddasiga binoan harbiy sudga berilgan mingtepalik Eshon Muhammadali xalfa Muhammad Sobir o'g'li, 45 yoshda, Kulla bo'lisining sobiq boshlig'i G'oyibnazar Ortiqxo'ja o'g'li (Ortiq so'fi o'g'li deyish ham mumkin), 45 yoshda, turklar: Subxonqul Arabboyev 52 yoshda va Bo'taboy G'aynobo'yev 36 yoshda, sartlar: Rustambek Sotiboldibek o'g'li 33 yoshda va Mirzahamdani Usmonboyev 44 yoshda, ishini ko'rdi. Sud ishni qarab chiqib, sudlanganlarni quyidagi ishlarda aybdor deb topdi: 1) Muhammadali Eshon shunda ayblandiki, u o'lkada rus hokimiyatini ag'darib tashlashni o'ylab o'lkadagi ko'pgina shaharlar va bo'lislar aholisini qurolli qo'zg'olon ko'tarishga ko'ndirgan g'azovot (muqaddas urush) e'lon qilgan va o'zining bir guruh jinoyatchi sheriklari bilan ularga boshchilik qilib shu yil 18-mayga o'tar kechasi qo'lda qurol bilan Andijon shahridagi lagerda turgan 20-Turkiston asosiy-muntazam batalonning 4 va 5-rotalariga hujum qilgan; 2) G'oyibnazar shunda ayblanadiki, u Muhammadali Eshon bilan o'lkadagi rus hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish va g'azovot e'lon qilish haqida til biriktirib, Kulla bo'limi boshlig'i lavozimida ishlayotganligidan foydalanib, do'q-po'pisa bilan boshqa mahalliy kishilarni bu ishda ishtirok etishga ko'ndirib, rejaning muvaffaqiyat qozonishiga ko'maklashgan, Andijon garnizoni lageriga hujum chog'ida jinoyatchilar guruhining bir qismiga boshchilik qilgan, guruh Kulla qishlog'idan jo'nashidan avval o'z uyida tunagan meshchan Safron Bishkovni o'ldirib, kallasini kesgan; 3) Subxonqul Arabboyev shunda ayblandiki, u o'lkada rus hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish va g'azovot e'lon qilish to'g'risida Muhammadali Eshon bilan til biriktirib, Andijon garnizoni lageriga hujumda ishtirok etgan, bunda guruhning bir qismiga boshchilik qilgan; 4) Rustambek Sotiboldibek o'g'li shunda ayblandiki, u Muhammadali Eshonning fitnasida ishtirok etib, ko'mak berishni oldindan va'da qilgan va o'z do'konining Andijon garnizoni lageri yaqinida ekanidan foydalanib, lagerda to'satdan hujum qilingan paytda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan

ma'lumotlarni yetkazib bergan, bu hujumda shaxsan ishtirok etgan va boshqalarga boshchilik qilgan; 5) Mirzahamdami Usmonboyev shunda ayblanadiki, u Muhammadali Eshon bilan til biriktirib, Andijon lageriga hujumda shaxsan ishtirok etgan; 6) Bo'taboy G'aynaboyev shunda ayblanadiki, u o'sha Eshon bilan til biriktirib, Andijon garnizoni lageriga hujum qilishda shaxsan ishtirok etgan.

Sud aybdor deb tan olingan sudlanuvchilar jinoiy xatti-harakatining xususiyatini aniqlashga va qonun bo'yicha jazo belgilashga kirishib, sudlangan olti jinoyatchining barchasi jinoiy xatti-harakati jinoyatchilarni jazolash va axloqini tuzatish Qonunlar to'plamining 244-moddasida ko'zda tutilgan Oliy hokimiyatga qarshi til biriktirib, qo'zg'olon qilishdan iboratdir va shu bois, barcha mol-mulkidan mahrum etilib, o'lim jazosi beriladi. Sudlanganlar kuchli muhofaza to'g'risidagi Qonunning 17-moddasi asosida, harbiy vaqt qonunlarini joriy etgan holda (jinoyatning oldini olish va tugatish to'g'risidagi Ustavning I modda, I kodeksiga ilova) sudga berilganliklari uchun Harbiy qonunlar to'plamining 1869-yildagi 2-nashrining XXII kitob 10-moddasiga binoan sud jami sudlanganlarga o'lim jazosi berib, ularning barchasiga bu jazoning osib o'ldiriladigan turini belgilaydi. Barcha bayon qilinganlar asosida sud qaror qiladi: sudlangan Eshon Muhammadali, G'oyibnazar Ortiq xo'ja o'g'li (Ortiq so'fi o'g'li deyish ham mumkin), Subxonqul Arabboyev, Rustambek Sotiboldibek o'g'li, Bo'taboy G'aynaboyev va Mirzahamdami Usmonboyev Oliy hokimiyatga qarshi qo'zg'olon ko'targanliklari uchun barcha mol-mulklaridan mahrum etilib, oltovi ham osib o'ldirilsinlar.

Ish bo'yicha ashyoviy dalillar: 1) g'azavotning qon sachragan yashil bayrog'i; 2) tayoqdagi qizil nishon; 3) sudlangan va ularning barcha sheriklaridan tortib olingan qurollar musodara qilinsin; qolgan ashyoviy dalillar quyidagilar: muqaddas urush haqidagi shartnoma, qurollar va boshqalar tergov tugagunga qadar ishda qoldirilsin.

Harbiy sud Ustavining 1128–1155-moddalariga binoan, sud xarajatlari barcha sudlanganlardan teng miqdorda undirilsin, mabodo ularning bunga qurbi kelmagan sharoitda xazina



### Andijon qo'zg'oloni va uning qatnashchilari haqida rasmiy axborot

hisobidan to'lsin. 20-Turkiston asosiy-muntazam batalonining 22 nafar o'ldirilgan harbiylari oilalari zarari, boquvchisidan ayrilgan har bir oilaga yiliga 200 so'm hajmida, yillik daromaddan 4 foizini kapitalga aylantirib, bir paytda har bir oilaga 5000 so'mdan Harbiy qonunlar to'plamining 1868-yildagi 2-nashrining

XXII kitob, 62-modda, I-bandiga asosan sud qilinganlar va ularning merosxoʻridan undirilsin<sup>1</sup>.

Turkiston Bosh harbiy gubernatori Duxovskiy qoʻzgʻolonning asosiy aybdorlari osib oʻldirilgach, shahar qalʼasi ichiga koʻmilsin va ustiga hojatxona qurilsin, deb buyruq bergan. Oxirgi paytda bu qaror oʻzgargan. Dorlar qurilgan maydon ancha notekis edi. Qoʻzgʻolonchilar shu yerga koʻmilib, ustidan soʻndirilmagan ohak, keyin tuproq tortilgan. Soʻng qatl etilganlar qayerga koʻmilganligi bilinmasligi uchun butun maydon tekislab yuborilgan.

General Duxovskiy Andijonga kelganida uni vokzal maydonida 10 ming kishiga yaqin aholi yer uzra bosh egib kutib olishga majbur boʻlgan. Shunda general uyezd boshligʻidan, nega bu odamlar yuzini yerga qaratib, egilib turibdi, deganida uyezd boshligʻi unga: «Oliy hazratlari, bu avom xalq Rossiya hukumati oldida yuzi qora, gunohlariga iqror boʻlib, qoʻl qovushtirib, bosh egib turibdi», deb javob qilgan. Non-tuz bilan turgan bir guruh yahudiy va armanilar bilan salomlashib, general Duxovskiy izvoshga oʻtirib qarorgohga qarab yoʻl oladi. Bunday xoʻrlanish aholining qalbi va ongida kuchli jarohat boʻlib saqlanib qolgan edi. Hatto, 1925-yil Oʻzbekiston SSR Sovetlarining 1-qurultoyida 1898-yilgi oʻsha mudhish xoʻrlanishni esga olgan edi:

«...Fargʻona yaqin kunlarda ham nihoyatda ogʻir kunlarni boshidan kechirdi. 1898-yilda jafokash Fargʻona xalqi uch kun mobaynida boshini yer qadar egib tiz choʻkib turishga mahkum etildi, sababi, bu yerga oq podshoning amaldorlaridan biri general kelgan edi»<sup>2</sup>.

Sud hukmi bilan 362 kishi otib oʻldirilgan, 341 kishi turli muddat bilan qamalgan. 16 kishi oilasi bilan uzoq va dahshatli Sibirga surgun qilingan. Qoʻzgʻolon markazi Mingtepa, Tojik, Qashqar qishloqlari uch kun davomida tinimsiz toʻpga tutilib kultepaga aylantirilgan. Sudsiz, soʻroqsiz oʻzboshimchalik bilan yondirilgan qishloqlar, qirib yuborilgan gunohsiz fuqarolar bu hisobga kirmaydi.

<sup>1</sup> *Эгамназаров Алиазар*. Сиз билган Дукчи Эшон. Хужжатли кисса. «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг Бош тахририяти. Тошкент, 1994.75–76-бетлар.

<sup>2</sup> *Шамсутдинов Рустам*. «Дукчи Эшон вокеасидан сўнг». Т., «Шарқ юлдузи», 1991, 6-сон.200-бет.

«Hozir Marhamatda yashayotgan keksalarning hikoya qilishlaricha, deb yozadi Alinazar Egamnazarov o'zining yuqorida tilga olingan maqolasida, – ertasi Andijonga qo'shimcha harbiy kuchlar kelgach, ishga kirishib, O'qchi qishlog'igacha borib, yo'lda uchragan erkakni otishgan. O'qchida bir ayolning voyaga yetgan to'rt o'g'li bo'larkan. Chor askarlari shu to'rt aka-ukaning hammasini otib tashlashgan. Ona sho'rlik bu fojiani ko'tara olmay jinni bo'lib qolgan»<sup>1</sup>.

Chor ma'murlari qo'zg'olonni bostirishda va isyonchilarni ushlashda xizmat qilgan harbiylar, millat va yurtni malaylarga sotgan mahalliy millat vakillarini taqdirlashni ham unutmadilar. Qo'zg'olon bo'lishi haqida O'sh uyezdi boshlig'ini o'z vaqtida ogohlantirgan Qorabek Hasanov Oltin medal va yiliga 300 so'mdan bir umrlik nafaqa bilan taqdirlanadi. Muhammadali Xalfani ushlashda jonbozlik ko'rsatgan Izboskan noibi, shtab-kapitan Og'abekov 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni bilan, uning yigitlari Yoqub Ibrohim o'g'li, Musa Masodiy o'g'li «Jasurligi uchun» yozuvi bo'lgan, ko'krakda Georgiy lentasi qadab taqib yuriladigan kumush medal va yuz so'mdan pul bilan podporuchik Karcheladze 4-daraja Muqaddas Vladimir ordeni va qilich bilan mukofotlandilar. Andijon harbiy garnizoni boshlig'i Mixaylov podpolkovnik edi, polkovnik bo'ldi. Oddiy askarlaridan ham o'n kishi taqdirlanadi.

Ayniqsa, Dukchi Eshonni ushlab berganlarga katta muruvvat ko'rsatiladi. Muhammadali xalifa hozirgi Jalolobod viloyati Bozorqo'rg'on tumani hududida joylashgan Arslonbob yo'lida Chorbog' qishlog'ida Qodirqo'l mingboshi va qo'rboshi Matyoqub tomonidan hiyla nayrang bilan ushlab beriladi.

O'shanda Dukchi Eshon bu millat xoinlariga qarata «Ik-koving o'lar vaqtda jinni bo'lib o'lgin. Bizni rusga tutib bergan qo'llaring bilan o'zingni tishlab o'lgin» debgan edi. Matyoqub besh oy o'tmasdanoq vafot etgan.

1889-yil 12-iyunda Harbiy gubernator, general-mayor Siklovskiyning raportida shunday deyilgan: «Andijon uyezdining Qo'qon qishlog'ida yashovchi, o'tgan yili ming tepalik Eshonni

<sup>1</sup> *Эгамназаров Алиназар. Сиз билган Дукчи Эшон. Хужжатли кисса. «Шарк» нашриёт-матбаа концернининг Бош тахририяти. Тошкент, 1994. 11-бет.*

qo'lg'a tushirganligi uchun mazkur uyezdning Mayg'ir bo'limi boshqaruvchisi lavozimiga tayinlangan Matyoqub Madrahimov besh oy xizmat qilgandan keyin, 1898-yil 14-noyabrda qazo qiladi. Uning xotini va ikki bolasining yashash uchun hech narsasi qolmadi. Shuning uchun uning xizmatlarini, oilasining o'ta qashshoqlanib qolganligini inobatga olib, siz janobi oliylariga iltimos qilamanki, o'z tasarrufingizdagi mablag' hisobidan bu bevaga pul nafaqasi tayinlash mumkin, deb hisoblay olasizmi? Yana shuni qo'shimcha qilib aytamanki, men Madrahimovaga favqulodda hollar uchun mablag'idan 25 so'm berdim».

Andijon uyezdi boshlig'i ma'lumotiga qaraganda, Matyoqub Madrahimovning bevasi moddiy jihatdan to'la ta'minlangan bo'lib, unga eridan 10 desyatina yer, uy jihozlari, 500 pudga yaqin guruch meros qoldirgani, marhumning ikki bolasi bo'lib, ulardan biri Qo'qon qishloq bo'limi boshqarmasida xizmat qilayotgani, Madrahimovanning moddiy muhtojligidan emas, balki marhum erining xizmatlari uchun unga 10 so'm miqdorida nafaqa to'lash zarurligi aytilgan. Andijon uyezdi, Farg'ona viloyati, Turkiston o'lkasi mustamlakachi ma'murlari, amaldorlari, hatto Rossiya saltanati harbiy vaziri shaxsan imperatorning o'zi Matyoqub Madrahimov oilasiga 5 yil muddat bilan har yilda 50 so'mdan nafaqa tayinladi. Bu bilan mustamlakachilar «Farg'ona aholisining ko'z oldida rus ma'muriyati o'ziga sodiq odamlarning xizmatini munosib taqdirlab borishlarini» isbotlamoqchi bo'ladi<sup>1</sup>.

Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirilgach, o'lkaga Rusiyadan ko'plab rus oilalarini ko'chirish siyosati yanada kuchayadi. Turkiston general-gubernatori Duxovskiy podsho Nikolay II ga yo'llagan xatida: «Qo'zg'olonchilar bizning uyquda yotgan 22 soldatimizni o'ldirganliklari uchun buning xuniga isyonchilardan 22000 kishiga o'lim jazosi berilib, 300 kishi qatorgaga hukm etiladi. Qo'zg'olonchilar rahbari yashagan joy tep-tekis qilinib, u yerga 200 oilali rus qishlog'i qurildi», degan edi. Xuddi shuningdek Andijon shahri atrofidagi Xakand, Xartum qishloqlaridan ham yerli aholi ko'chirilib, ularning yerlari rus oilalariga beriladi. Bu yerlar faqat 1925–26-yillardagina o'z egalariga qaytarib beriladi.

<sup>1</sup> Шамсутдинов Рустам. «Дукчи Эшон вокеасидан сўнг». – «Шарк юлдузи», 1991, 1-сон.

Xullas, ota-bobo avlod-ajdodlarimiz chor Rusiyasi mustamlakachilik zulmi sharoitida ham erksevar xalqimizning tarixiy an'alarini muqaddas saqlab davom ettirdilar va kelgindi bosqinchiga qarshi qonuniy va adolatli kurash olib borganlar.

### **Nazorat savollari**

1. Chor Rossiyasi bosib olingan yerlarini qanday yo'l bilan boshqargan?
2. Mustamlaka ma'muriyatida sud tizimi va uning faoliyati nima maqsadga qaratilgan edi?
3. Ruslarning Turkistonda agrar siyosat yuritishidan asosiy maqsadlari nima edi?
4. Rus zulmiga qarshi xalq Ozodlik harakatlari haqida gapirib bering?
5. Toshkentdagi «Vabo isyoni»ni keltirib chiqargan asosiy sabablar haqida nimalar bilasiz?
6. 1898-yilgi Andijon qo'zgononining borishi va uning oqibatlari qanday bo'lgan?



**V B O B****MUSTAMLAKA TURKISTONDA MADANIY HAYOT****1. MAORIF**

Chor Rossiyasi bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu bois chorizm o'lkada ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlab, bu soha bo'yicha o'z dasturini ishlab chiqadi. O'sha pixini yorgan siyosatchi K.P.Kaufman bu sohada ayniqsa jon kuydirib faoliyat ko'rsatadi.

1880-yilda Imperiya Davlat Kengashida Turkistondagi mahalliy aholi bolalarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rilganda Turkiston aholisining «savdo-sotiq, dehqonchilikda suyagi qotganligi va yuvosh tabiati» ta'kidlanib, ularning «imperiyadagi boshqa musulmonlardan keskin ajralib turishlari» qayd qilinadi.

Davlat Kengashining bu qarori Kaufman tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Kaufman «ruslar va tuzemetslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash» masalasini ko'taradi. U musulmon va rus maktablarining ajralib turishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisoblaydi. Uning bu g'oyasini keyingi general-gubernatorlar davom ettiradilar. 1884-yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochiladi, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketadi<sup>1</sup>.

Chor Rossiyasi ma'murlarining Turkiston o'lkasida yerli xalq vakillarini qorong'ilik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб.253-бет.

Sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura ta'siri ostida manqurtlik va qullarcha tobelik dunyoqarashida shakllangan mahalliy olimlar o'z asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni ko'pirtirib maqtadilar. Chor Rossiyasi bosqiniga qadar o'lkadagi bu sohadagi ahvolni kamsitib yerga urdilar. Ular 1897-yil o'lkada savodli o'zbeklar – 1,6 foizni, qozoqlar – 1 foizni, turkmanlar – 0,7, qirg'izlar – 0,6 foizni tashkil etgan, aholining savodxonligi shundan keyingi yillarda ham oshmagan, O'zbekistonda har 100 kishining 98 tasi savodsiz edi, deb keldilar. «O'rta Osiyo xalqlari inqilobgacha deyarli yoppasiga savodsiz edi. 1897-yili o'zbeklarning atigi 1,9 foizi o'qish va imzo chekishni bilardi. 1897-yilgi Butunrossiya aholi ro'yxatiga ko'ra savodlilar o'lkada 1,8 foizni tashkil etgan, ya'ni inqilobgacha Turkiston deyarli yoppa savodsiz o'lka edi». «O'zbek xalqi deyarli yalpi savodsiz edi. Savodlilar 1,5–2 protsentdan oshmasdi» kabi fikrlarni yozdilar, targ'ib qiladilar.

Hatto ayrim olimlar vatanga, o'z xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchi Rossiya hukmdorlari tomoniga o'tgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda o'z uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb osmonga ko'tarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar – tarjimonlar tayyorlashga mo'ljallab tashkil etilgan edi.

Ammo sovet davrida bu kabi da'volarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham e'lon qilinadi. Tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim o'zining «Uydirma va haqiqat» maqolasida o'zimizdan chiqqan «olimlar»ga qonuniy savol bilan murojaat qiladi:

Xo'sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining faxr-u iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go'ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko'plab osori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yo'l bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulug'bek Forobiy, Jomiy va boshqa ko'plab shoir-u fozillari bilan olamga dong taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma'rifatparvarlari bo'lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

P.G.Kim bu kabi mantiqsiz va kurakda turmaydigan

da'volarni inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan o'z maqolasida fosh etdi. U bunday yozadi: «Endi manbalarda keltirilgan faktlarga asoslanib, 1897-yili Rossiya, Belorussiya va Turkistonda aholining, maktablarning, ulardagi o'quvchilarning sonlarini kuzatsak bu o'lkalardagi savodxonlikning darajasi oydinlashadi.

Rossiyada aholining umumiy soni – 126.388.800, maktablar soni – 33,401, o'quvchi soni – 2.318.100, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar – 1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi – 21 foiz; Belorussiyada aholining umumiy soni – 6.492.857, maktablar soni – 2.263, o'quvchilar soni – 125.418, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar – 1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi – 24.7 foiz; Turkistonda aholining umumiy soni – 3.792.774, maktablar soni – 6.027, o'quvchilar soni – 64015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar – 1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi – 19,55 foiz bo'lgan<sup>1</sup>.

Axir mustamlaka Turkistonidagi juda ko'p eski maktablarda oliy ta'lim beradigan o'quv yurtlarida ajdodlarimiz farzandlari ta'lim olganliklari, madrasalarda mudarrislar, mahallalarda savodxon ayollar otinoyilik qilib, shariat (fikh) qonunchiligidan ta'lim-tarbiya berganlari, o'sha o'quv muassasalarida ko'plab yurtdoshlarimiz o'qib, zamonasining savodli kishilari bo'lib yetishganini unutmash kerak. XX asr boshlarida butun o'lka bo'yicha jadid maktablarining necha tarmog'i yuzaga kelganini ham e'tibordan chiqarish kerak.

Ehtimol shu boisdan mashhur rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.D.Middendorf, sayyoh olim A.L.Fedchenko, sharqshunoslardan V.P.Nalivkin, A.L.Kun va boshqalar o'lkadagi maorif taraqqiyotiga yuqori baho berganlar, xalqimizning madaniyatiga hayron qolganlar va uni olqishlaganlar. Tarixchi olim Haydarbek Bobobekov «O'tmishda o'zbeklar savodsizliklari» maqolasida bu haqda quyidagi dalillarni keltiradi: «A.Middendorfning 1882-yilda chop etilgan «Ocherki Ferganskoy dolini» kitobida shunday satrlarni o'qiydiz: «Farg'ona viloyatida qadimdan o'troq holda yashashni sev-

<sup>1</sup> Ким П.Г. Уйдирма ва хақиқат. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1989, 20 октябр.

gan mehnatkash qabilalar istiqomat qilishadi... Albatta, o'ziga xos betakror sharoiti bo'lgan Farg'ona yuksak madaniyatli mamlakatlar cho'qqisiga ko'tarildi». A.Middendorfning so'ziga qaraganda XIX asrda yevropaliklar yer xo'jaligi ravnaqiga harakat qilib maqsadlariga erisholmayotgan bir paytda Farg'ona vodiysida bu muammo ancha burun hal bo'lgan, u joylarda dalalar sug'orilar, yaylovlar esa o'g'itlantirilarkan».

Olim o'z fikrini davom ettirib yozadi: «Farg'onada qilingan ishlarga havas qildik, bu yerdagi zaminga nisbatan yuksak madaniyat boshqa yerlarga qaraganda ko'proq saqlanib qolganligini ko'rdik. Bir qancha yerlarni ko'zdan kechirib shu xulosaga keldikki, Farg'onada yer xo'jaligini ehtiyotkorona va mohirona olib borishar ekan. Bu esa hayratda qoldiradigan haqiqiy madaniy mehnat eng katta zanjirining bir qismi ekaniga ishonch hosil qildik».

«Golos» gazetasi 1874-yil 29-avgust sonida suv xo'jaligi masalasi haqida bunday yozadi: «...amalda ko'pincha tuzemetslardan (ya'ni mahalliy aholidan – mualliflar) ko'p narsani o'rganishga to'g'ri kelmoqda. Shunday qilib, irrigatsiya haqida bizda (ya'ni Rossiya – mualliflar) oxirgi vaqtgacha o'ylanmagan edi. Osiyoda esa bu soha yuksak darajada rivojlangan va, albatta, dalalarni sun'iy sug'orish bo'yicha biz O'rta Osiyoliklarga hech narsa o'rgata olmaymiz. Bizda Janubiy Rossiyada irrigatsiya borasida tortishuvlar davom etayotgan bir davrda osiyoliklar tog'larda korizlar orqali kanallar qurishmoqda. Uning tubidan o'nlab sajen yuqori suvlarni chiqarishmoqda, bir qoyadan ikkinchi qoyaga arg'amchi tortib tarnov yordamida suv olishmoqda, bular esa bizdagi donishmandlarning tushiga ham kirmagan».

Rus olimlari, sayyohlari, savdogarlari Qo'qon xonligidagina emas, balki o'lkaning boshqa joylarida ham sun'iy sug'orish usulini o'z ko'zlari bilan ko'rib yuksak baho berdilar. Masalan, N. Ulyanov yozgan edi: «Bu mahalliy Leonardo da Vinchilar ijodida bir bosh emas, balki bir necha avlodlarning tajribali aqlini ko'rdim».

Turkiston xalqlari madaniyati haqida Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskiyning podshoga sadoqatini izhor etib yozgan dokladida (1899-yil) qiziqarli fikrlar bor. Jumladan,

u shunday yozadi: «Uzoq vaqtlar mobaynida Buxoro butun musulmonlar (sunnilar) olamida musulmon huquqshunosligi va ilmining mo‘tabar markazi sifatida tan olib kelingan, boz ustiga bu obro‘-e‘tiborni hanuz yo‘qotmay kelayotir. Bir vaqtlar O‘rta osiyolik ruhoniylar, qonunshunos arab tili bilimdonlari faoliyatining ahamiyati naqadar ulug‘ bo‘lganini bugungi kunda butun dunyodagi musulmon-sunnilar qo‘llayotgan mashhur va mo‘tabar shariat majmualarining ayrimlari O‘rta Osiyoda bitilganini eslashning o‘zigina kifoya. «Hidaya-i-Sharif» Marg‘ilonda, «Aqoid» Buxoroda, «Hikmat-ul-Ayn» Samarqandda yaratildi. Musulmon olamiga shariatning so‘nggi talqinini O‘rta Osiyo taqdim etdi. Bulardan tashqari, bu o‘lka olamga Navoiy, So‘fi Olloyor, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi shoir-so‘fiylarni berdi».

Xullas, Turkistonda Rossiya bosqiniga qadar aholining savodxonlik va madaniyati darajasi yuqorida ta’kidlagani singari qoloq bo‘lmagan. To‘g‘ri, hozirgi davrga nisbatan oladigan bo‘lsak savodsizlar Turkiston o‘lkasida XIX asrda ko‘p bo‘lgan. Ammo o‘tgan o‘sha XIX asrda qaysi mamlakatda ahvol bundan ko‘ra yaxshiroq edi? Shuning uchun xalqimizning o‘tmish tarixini nodonlarcha qora bo‘yoqlarda yoritishga istiqloq tufayli barham berilmoqda<sup>1</sup>.

## 2. ADABIY-MA’RIFIY JARAYON. TARIX VA BADIYIJOD

Chor Rossiyasi Turkiston o‘lkasini o‘z mustamlakasiga aylantirgan XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lkaning ijtimoiy-madaniy hayotida albatta ba’zi bir ijobiy o‘zgarish va yangiliklar ham bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar va yangiliklar mustamlakachilar tomonidan yerli xalqlarning talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida ro‘yobga chiqarilgani yo‘q. Balki, birinchi navbatda va asosan bosqinchilarning talablari va manfaatlari nuqtayi nazaridan amalga oshirildi. Ana shunday yangilik va o‘zgarishlardan

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар Ҳ.Содиқов, Р.Шамсутдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов, “Шарқ”. Т., 2000.253–277-бетлар. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Русия босқини даврида. Андижон, 1995. 90—159-бетлар.

biri o'lkada aholiga xizmat qiluvchi madaniy-ma'rifiy muassasalarning paydo bo'lishidir. 1870-yilda Toshkentda kutubxona tashkil qilinadi. Kutubxona uchun Peterburg va Moskvadan 1867-yilda yuborilgan dastlabki kitoblar zo'r qiyinchiliklar bilan 1868-yilda Toshkentga yetib kelgan edi. Bu kitoblar asosan O'rta Osiyoni va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarni o'rganishga va boshqa masalalarga aloqador adabiyotlar edi. Kutubxona fondi mutlaqo rus tilida bo'lib, uning o'quvchilari ham asosan rus ofitserlari, amaldorlari, va ularning oilalaridan iborat edi. Dastlabki kitobxonlar to'g'risidagi ma'lumot 1870-yil may oyidan 1871-yil sentabrgacha bo'lgan davrga aloqadordir. Hammasi bo'lib 75 kitobxon bo'lgan, shundan 45 nafari ofitser, 19 nafari amaldor, 4 nafari savdogar, 2 kishi ruhoni, bir kishi mahalliy maktab talabasi edi<sup>1</sup>.

Shunday bo'lsada, kutubxona har holda ma'rifiy ish bilan shug'ullandi va o'lkada XIX asr rus adabiyotining demokratik g'oyalarini tarqatish vazifasini o'tadi. Biroq 70–80-yillarda Rossiyada madaniyat va xalq maorifi 60-yillarda qo'lga kiritgan demokratik huquqlarni yo'q qilishga intilgan reaksiyaning hujumi boshlanib ketdi. Bu hujumdan kutubxona ham chetda qolmadi. 1882-yil dekabrda Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyayevning buyrug'i bilan alohida ishlar bo'yicha amaldor, «Peterburg xarobalari» asarining muallifi, reaksiya yozuvchi V.V.Krestovskiy kutubxonani taftish qiladi. U o'zining Chernyayevga yozgan raportida: «Rus mualliflaridan Saltikov, Dobrolyubov, Pisarev, Nekrasov va Shiller (A.Mixaylov) asarlariga talab eng ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi», deb yozadi. Ushbu raportga asosan general Chernyayev 1883-yil 1-yanvardan e'tiboran kutubxona faoliyatini to'xtatish to'g'risida buyruq berdi. Jamoatchilikning talabi bilan 1889-yilda kutubxona yana o'z ish faoliyatini boshlaydi.

O'rta Osiyoni o'rganish bilan shug'ullangan taniqli rus olimlari — arxeolog V.L.Vyatkin, akademik V.V.Bartold va boshqalar kutubxonaga faol yordam berib turishgan, natijada kutubxona qimmatli asarlar va materiallar bilan to'lib borgan.

«Umuman O'rta Osiyoga, ayniqsa, Turkiston o'lkasiga

<sup>1</sup> *Дмитровский Н.А.* Двадцатипятилетие Туркестанской публичной библиотеки «Туркестанские ведомости», 1895, № 15,18,28,33,37.

oid asarlar va maqolalarning Turkiston to‘plami kutubxona fondlarida to‘plangan manbalarning ajoyib majmuasi bo‘ldi. Bu to‘plam 594 tomdan iborat bo‘lib, inqilobgacha bo‘lgan Turkiston haqidagi kitoblardan, ro‘znoma va oynomalardan olingan maqolalardan tashkil topgan. To‘plamning 416 tomi mashhur rus bibliografi V.I.Mejov tomonidan tayyorlangan. Bu tomlarga 1867–1887-yillarga oid materiallar kiritilgan. So‘ngra to‘plam ustida olib borilayotgan ish to‘xtab qolgan va 1907-yildan 1917-yilgacha bo‘lgan davrda har xil bibliograflar to‘plamning 175 tomini tuzganlar»<sup>1</sup>.

XIX asrning 80–90-yillarida Toshkent va boshqa yirik shaharlarda turli ilmiy jamiyatlar (arxeologiya, jug‘rofiya, etnografiya kabilar) tashkil etilgan. 1896-yilda Samarqandda «Tarixiy muzey» ish boshladi. Bir qator ilmiy ekspeditsiyalar uyushirildi. Bu borada rus olimlari I.V.Mushketov, N.A.Seversov, A.P.Fedchenko, P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, N.M.Prjevalskiy va boshqalar samarali ishlar olib bordilar. Turkiston xalqlari tarixini o‘rganish va yoritish xalqimizning o‘tmish madaniyatini ilmiy tadqiqot qilishda sharqshunos olimlar V.V.Radlov, V.V.Bartold, Ye. E.Bertels va boshqalarning xizmatlari oz emas. Shu davr mobaynida bir qator ijodkor rus adiblari asarlarining mahalliy xalqlar tillariga o‘girilishi ham ijobiy faoliyatlardan hisoblanadi.

1868-yilda Toshkentda birinchi bosmaxonaning tashkil etilishi bilan Turkistonda kitob bosish, matbaachilik yo‘lga qo‘yildi. 1870-yilda bir qator kattaroq boshqa bosmaxona tashkil etilgandan keyin, «Turkestanskiye vedomosti» gazetasi chiqarila boshlandi. Shu yildan e‘tiboran bu gazetaning o‘zbek va qozoq tillarida (arab alfavitida) ilovalari chiqa boshladi. Ana shu tariqa Turkistonda vaqtli matbuot tarixi o‘z ilk qadamini tashladi. Xuddi shu 1870-yilning oxirlarida Xorazmda ham toshbosma paydo bo‘ldi. 1880-yilda Navoiyning «Xamsa»si («Hayratul abror»ning birinchi kitobi), «Devoni Munis» va «Devoni Raji» asarlari bosilib chiqdi. 1883-yilda «Toshkentda toshbosmada birinchi marta So‘fi Olloyorning «Kitobi sabotul ojizin»i bosilib chiqdi. Shu davrdan boshlab o‘zbek va tojik tillaridagi kitoblar asosan toshbosmada

<sup>1</sup> Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи.Т., «Ўкитувчи», 1992.



chiqadigan bo'ldi. Turkiston xalqlari hayotida toshbosma katta rol o'ynadi. «Turkestarskiye vedomosti» gazetasining o'zbekcha va qozoqcha ilovalari 1883-yilda «Turkiston viloyatining gazetisi» nomi ostida mustaqil chiqarila boshladi. 1898-yilda Toshkentda «Russkiy Turkistan», 1904-yildan boshlab Samarqandda «Samarqand» gazetalarini chiqarish yo'lga qo'yildi.

1905-yildagi inqilobiy to'lqinlarning ta'sirida «Russkiy Turkistan» va «Samarqand» gazetalarining rahbarligi bolshheviklar qo'lga o'tib ketdi. Podsho hukumati bu gazetalar faoliyatini taqiqlab qo'ygach ular o'z nomlarini o'zgartirib: «Turkiston», «Vperyod» («Russkiy Turkistan»), «Zaravshan», «Novoy Samarqand», «Russkiy Samarqand» («Samarqand») nomlari ostida chiqarila boshlaydi. 1906-yilga kelib bu gazetalarni chop etish umuman taqiqlab qo'yiladi.

XX asrning boshlariga kelib mahalliy milliy matbuotni yo'lga qo'yish borasidagi say-harakatlar ijobiy yakunlanadi. 1906-yilda Toshkentda birinchi marta o'zbek tilida «Taraqqliy» gazetasi chiqariladi. Bu o'zbek milliy matbuotining ilk debochasi sifatida tarixga kiradi. Shundan so'ng birin-ketin, yangi-yangi matbuot organlari vujudga kela boshlaydi. Toshkentda «Sadoi Turkiston» gazetasi jadidlar tomonidan chiqara boshlaydi.

Rus demokratlari va jadidlar 1916-yil 1-iyuldan Andijonda «Turkestarskiy goslos» gazetasini chiqara boshlaydilar. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida mustamlaka Turkistonda har qanday og'ir muhit sharoitida bo'lsada ijtimoiy fan sohasida va badiiy ijodda qalam tebratgan, o'z xalqining dard-u hasrati bilan kuyib yongan va uning kelajak istiqboliga so'zsiz ishongan dono mutafakkir va yozuvchi shoirlar bo'ladi. Bu davrda tarix, badiiy ijod bobida asarlar yozgan adiblarning aksariyati mahalliy boylar, amaldor to'ralarning o'tkazgan zulmkorlik siyosatlaridan to'yib ado bo'lgan va Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgan chor ma'murlaridan umid va najot kutgan xalq ommasining intilishlari, ezgu niyatlarini tarannum etdi. Ammo ular intilgan narsa quruq, amalga oshmaydigan orzu sarob edi. Shunday bo'ldi ham, xalq orasidan yetishib chiqqan ijodkor farzandlar tez orada buni tushinib yeta boshlaydilar, hayot maktabi tobora ularning ko'zini ochib boradi.

**Ahmad Donish Mahdum ibn Nosir (taxallusi Kalla) (1827–**

**1897).** Ahmad Donish taxallusi bilan elga tanilgan Ahmad Mahdum o‘z davrining yirik ma‘rifatparvar olimi va filosofi, yozuvchisi va astronomi, tarixchisi va arxitektori, musavviri va musiqa navisi edi<sup>1</sup>. Donish qiziqishlari dunyosining naqadar serqirraligini uning yozgan asarlaridayoq ko‘rsatib turibdi. Ma‘rifatparvar mutafakkirning bizgacha yetib kelgan asarlari jumlasiga «Nomusal-a‘zam» («Ulug‘ qonun»), «Muntahab-al-ahkom» («Tanlangan qarorlar»), «Navodir-ul-vaqoe’» («Noyob voqealar») va «Risolai muxtasare az ta‘rixi salatanati xonadoni amironi Mang‘it» («Mang‘it amirlari xonadoni saltanatining qisqacha tarixi»)lar kiradi.

Buxoro amiri elchisining kotibi sifatida uch marta Rossiyada bo‘lgan Donish taraqqiyotda har tomonlama Rossiyaga nisbatan orqada bo‘lgan amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni tanqid qiladi, rus madaniyatini omma o‘rtasida tinmay targ‘ib qiladi va undan o‘rganishga chaqiradi. Uning asarlarida oddiy mehnatkash xalqqa nisbatan muhabbat va zolimlarga nisbatan esa nafrat hissi O‘rta o‘rinni egallaydi: Donish xalqni ma‘rifatli qilish, uning madaniyatini oshirish yo‘li bilan «adolatli» monarx hokimiyati rahbarligida mavjud tuzumda hukmron bo‘lgan nohaqlik va adolatsizlikni yo‘qotib baxtli hayot qurish mumkin, deb hisoblardi. Biroq bu borada bu amalga oshmaydigan xomhayollarga ham berilgan edi. Shunga qaramasdan o‘z davriga nisbatan ma‘rifat va madaniyatni yashash tarzining va istiqbolning dasturiga aylantirgan Donish qarashlari ijobiy ahamiyatga ega edi.

**Muqimiy. (1850–1903).** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida vujudga kelgan demokratik adabiyotning yirik vakillaridan biri Muqimiydir. Kambag‘al hunarmand oilasida dunyoga kelgan Muhammad Amin Xo‘ja (Muqimiy – uning taxallusi) chinakam xalq shoiri bo‘lgan. Asosan she‘riy asarlari bilan dong taratgan shoir ijodini janr xususiyatlariga qarab to‘rt guruhga bo‘lish mumkin.

1. Lirik: g‘azallar, muxammaslar, murabba’, masnaviy, ruboiy, tuyuq va fardlar.

2. Hajviy: satira va yumor.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси... 1- жилд. 536-бет.

3. Sayohatnomalar.

4. Maktubot: she'riy va prozaik maktulardir.

Xalq manfaatlarini o'z ijodida ifodalagan va baralla kuylagan Muqimiy xonlarning cheklanmagan va adolatsiz hukmronligi ostida og'ir va qimmatli hayot kechirayotgan mehnatkash ommaning hayotidan fig'on chekadi va o'z asarlarida undan nafratlanadi. U «Tanobchilar» satirik she'rida tanobchilar (yer o'lchovchilar)ning jabr-sitamlaridan adoyi tamom bo'lgan, soliqlarni to'lolmay xarob bo'lgan dehqonlar hayotini o'zida aks ettiradi. Shoir yer o'lchash bahonasida poraxo'rlikni, zulmni avj oldirgan tanobchilardan yuragi zada dehqon tilidan zorlanadi:

*Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar.  
Adl qulog'ila eshit holimi,  
Zulm qilur, balki, menga xolimi.  
O'n ikki oyda keladur bir tanob,  
O'zgalarga roghatu menga azob.*

Muqimiy «Tanobchilar» she'rida chor ma'murlarining o'lka mehnatkashlariga o'tkazgan mustamlakachilik siyosatining barcha jirkanch qiyofalarini ustalik bilan ochib tashlaydi. Biz «podsholik mahkamasi»ning ma'murlari bo'lgan Sulton Alixo'ja va Hakimjonlarning orqa suyanchig'i bo'lmish chor Rossiyasi butun siyosati va dahshati bilan qilich yalang'ochlab turganligi uchun xalqqa istagancha zo'ravonlik va zulm qilishlarini «Tanobchilar»da ko'rib unga guvoh bo'lamiz. Muqimiy tanobchilarning xatti-harakatini bayon qilgach, ular xarakterini ochishga o'tadi. Sulton Alixo'ja bilan Hakimjon, barcha chor amaldorlari singari, qahri qattiq, rahmsiz bo'lib, qamchisidan qon tomib turadi. Ular birgalashib tanoblashga chiqadilar va ittifoq bo'lib ish ko'radilar:

*Sulton Alixo'ja, Hakimjon ikov,  
Biri xotun, birisi bo'ldi kuyov.  
Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,  
Go'yo xayol aylaki, qilmay nifoq,  
Osh yesalar o'rtada sarson ilik.  
Xo'ja chiroq yog'i, Hakimjon pilik.*

Tanobchi amaldorlarning xarakteri qishloqqa chiqib dehqonlar bilan qilgan qo‘pol, dag‘al muomalalarida yanada to‘laroq ochiladi, ularning jirkanch basharalari butun to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Maqtanchoqlik, takabburlikda, shuningdek, tovlamachilik va talonchilikda tanobchilar bir-biridan qolishmaydi. Sulton Alixo‘ja qishloq aholisini yig‘ib, ularga shunday do‘q uradi:

*Manki tanobinga chiqibman kelib,  
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.  
O‘t quyubon kuyduradurg‘on o‘zim,  
Hokimingu o‘lduradurg‘on o‘zim.  
Xoh tanobingni duchandon qilay,  
Xoh karam birla boshingni silay.*

Tanobchi Hakimjon ham o‘z manfaatini ko‘zlab, o‘z navbatida, xalqqa qarab zo‘ravonlik bilan surbetlarcha shunday deydi:

*« . . Yaxshilig‘ingni fuqaro bilmagay,  
Holi bular ko‘zga bizi ilmagay.  
Ikki tanobini qilay o‘n tanob,  
Yurtingizni kuydurib aylay xarob.  
Xoh o‘ling, xoh qoling, bachchag‘ar».*  
*Debki, uzanguga ayog‘ni tirar.*

Muqimiy o‘zi yashagan davrdagi hayot muammolarini va nuqsonlarini, din niqobi ostida xalqqa jabr-zulm qilayotgan ularning nonini yarimtalayotgan ba‘zi bir chala mulla, ruhoniylar va boylarni «Moskovchi boy ta‘rifida», «Avliyo», «Bachchag‘ar» va boshqa asarlarida satira o‘ti ostiga oladi, ularni masxaralaydi.

Muqimiyning mashhur asarlaridan biri «Sayohatnoma»dir. Bu asar o‘z ishiga asosan uch sayohatnomani oladi: «Qo‘qondan Shohimardonga», «Qo‘qondan Farg‘onaga» va «Qo‘qondan Isfaraga», 1953-yilda topilgan yana bir yangi parcha «Isfara sayohatidan» deb yuritiladi. «Sayohatnoma»larda Muqimiy o‘zining sayohatlar chog‘ida olgan taassurotlarini qalamga oladi va xalq ommasining haqqoniy hayotini aks ettiradi. Shoir mustamlakachilik zulmi siyosati va mahalliy boylar, amaldorlarning

oʻtkazgan jabr-sitamalaridan ado boʻlgan xalq timsolidan faryod chekadi:

*Bunda bordim Beshariq,  
Odamlarin rangi sariq  
Yemishlari emish tariq.*

Muqimiy jafokash va mehnatkash xalqqa boʻlgan hurmati va muhabbatini quyidagi satrlarda ifodalaydi:

*Qir pastida shoʻrtang ariq,  
Bir toʻp yigit oʻrgay tarigʻ.  
Toʻnsiz, yalangʻoch, hay darigʻ,  
Bechora, och dehqon ekan.*

Shoir Muqimiy «Sayohatnoma»da bechora och va yalangʻoch dehqonlarni zolimlarcha ekspluatatsiya qiluvchi «yurt kattalari»dan nafratlanadi, ochkoʻz va qizgʻanchiq mingboshilar, boʻlis boshliqlari, qozi va ellikboshilarni masxaralaydi, ularning ustidan kuladi va satira oʻtiga oladi:

*Ming boshisi soʻfinamo,  
Tasbehu boʻynida rido,  
Choʻqib qochar zogʻi alo,  
Bir dogʻuli ayyor ekan.  
Xayru saho vajhida kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar,  
Kelsa gadoy nogoh agar,  
Bir non chiqish dushvor ekan.*

1907-yilda N.Ostroumov «Turkiston viloyatining gazetisi»da chop etilgan Muqimiyning asarlarini toʻplab kitobcha holiga keltiradi va Toshkentda nashr ettiradi. Ushbu kitobda N.Ostroumov yozgan «shoir Muqimiy» sarlavhasi ostida tarjimayi holda Mavlaviy Yoʻldoshning Muqimiy vafotiga yozgan marsiyatarixi ham bosilgan edi. Shu narsani alohida taʼkidlash kerakki, N.Ostroumov Muqimiy va Furqat asarlarini yigʻib toʻplovchi sifatida ijobiy baholansada, u hukmdor mustamlakachi mamlakatning bir vakili sifatida shoir Muqimiyga toʻgʻri xoliso-

na baho bermaydi, uni kamsitadi, asarlarida ilgʻa surilgan ilgʻor gʻoyalarni koʻrmaydi yoki koʻrishni istamaydi. U shoirni qandaydir ojiz va darveshnamo shaxs sifatida, dunyodan, real borliq muammolaridan, hayot zavqu tashvishlaridan chetda turgan loqayd ijodkor sifatida talqin etadi. Albatta bu boshdan oyoq gʻayri-ilmiy va oʻta subyektiv qarashdagi xulosalardan iborat edi.

Xullas maʼrifatparvar, elparvar va demokrat shoir Muqimiy oʻzining keng qamrovli, chuqur, gʻoyaviy, yuksak badiiy asarlari bilan xalqning hurmat-eʼtiboriga sazovor boʻlgan oʻzbek xalqining ajoyib farzandidir.

**Furqat (1858–1909).** Oʻzining xalqchil va demokratik ruhda yozilgan asarlari bilan xalq ommasi oʻrtasida katta obroʻ va eʼtibor topgan shoirlardan biri Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat. U shoirlar maskani Qoʻqonda tugʻilgan. Ammo umrining talaygina qismini oʻz ona diyoriga sigʻmagan Furqat mustamlakachi toʻralar, mahalliy betamiz va farosatsiz zolim boyvachchalardan qochib xorijiy mamlakatlarda xor-u zorlikda oʻtkazadi.

Furqat ham dastlabki davrlarda Turkistonni bosib olgan chor maʼmurlariga umid nigohini tikadi, hatto rus ilm fani, texnikasi va madaniyatini madh etuvschi asarlar yozib, oʻz xalqini unga daʼvat etadi. Uning «Gimnaziya», «Ilm xosiyati», «Vistavka xususida», «Suvorov», «Nagʻma bazmi xususida» kabi yozgan asarlari bu fikrimizning isbotidir. Ammo hayot jumboqlari va haqiqati borgan sayin Furqatning koʻzini ocha boradi, uning ongi, dunyoqarashi tadrijiy bir tarzda oʻsib boradi. Bu oʻrinda shoirning «Furqatnoma» asari fikrimizga yorqin dalildir.

«Turkiston viloyatining gazetida»da «Hoʻqandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti, oʻzi yozgʻoni» sarlavhasi ostida chop etilgan bu asar gazetaning 1891-yilgi oʻn ikkita sonida alohida maqolalar tarzida berilgan. «Furqatnoma»ning bosh mavzusi — maʼrifatparvarlikdir. Unda Furqatning Yangi Margʻilonga (hozirgi Fargʻona shahri), Xoʻjandga, Toshkentga, Samarqandga qilgan safarlari xotiralar tarzida hikoya qilinsa-da, har bir voqea, jarayon tasviri, har bir tafsilot bosh mavzu bilan chambarchas bogʻliqdir. Xarakteri asarda yorqin namoyon boʻlgan maʼrifatparvar ijodkor zamonasining ilgʻor, yuksak

ongli kishisidir. Uning o'z xalqiga mehr-muhabbati g'oyat kuchli, shu boisdan mustamlakachilarga-chorizm vakillariga qattiq nafrat bilan qaraydi. Asta-sekin asar qahramoni o'z qarashlarini, munosabatlarini o'zgartira boshlaydi. Mavjud shart-sharoitlar, voqelik unga saboq beradi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalarning yetakchiligi «Furqatnoma» –dagi madaniy-ma'rifiy muhit tasvirida g'oyat kuchli seziladi. Furqat, avvalo o'zbek madaniyatining ildizlari, sarchashmalari haqida batafsil so'z yuritgan. Buning tagida g'oyat ulkan va keng ma'no yotibdi. Shoir o'zining qanday ta'lim-tarbiya olganligini, qanday kitoblar mutolaa qilganligini bayon etar ekan, iste'dodli, bilimdon kishilarni yetishtirishga qodir shart-sharoitlar chorizm istilosidan oldin ham mavjudligini mahorat bilan ko'rsatib o'tadi. O'z xalqi mustamlakachilar o'ylaganidek «johil, qoloq» emasligi, yuksak madaniyat-ma'rifatga egaligini muallif o'ziga xos yo'sinda ifoda etgan. Bu vatanparvar, xalqparvar ijodkor»ning o'z milliy g'ururini, eliga mehr-muhabbatini namoyon qilishi edi, istilochilarning kamsitishlariga, zo'raonliklariga qarshi pinhoniy noroziligi, yashirin isyoni edi.

Furqat asrlardan beri shakllangan milliy ta'lim tizimi bu sohada darslik qo'llanma sifatida foydalaniladigan asarlar haqida ma'lumotlar beradi. U o'qigan kitoblar ro'yxatiga nazar tashlasak ajdodlarimizning «atigi ikki foizi savodli» bo'lgani haqidagi gaplar naqadar puchligini anglaymiz. Dastlabki boshlang'ich ta'limdan keyin «Qur'oni Karimni xatm qilib, «Chor kitob» ibtido qildim» (Furqat. T A 2-tom, 1958, 134-bet) deb yozadi shoir. Shundan so'ng u quyidagi asarlarni mutolaa qilish, o'rganish orqali o'z bilimlarini boyitib boradi. 1. Fariduddin Attor. «Mantiqut tayr», 2. Hofiz Sheroziy devoni. 3. Mirzo Abdulqodir Bedil devoni, 4. Mir Alisher Navoiy «Chor devon», 5. Fuzuliy g'azaliyoti, 6. «Maslaqul muttaqin», 7. «Avvali ilm» risolasi, 8. «Mu'zi Vazanjoniy» risolasi, 9. «Avomil», «Harakot» risolalari, 10. «Qofiya» kitobi, 11. «Sharhi mulloyi Jomiy», 12. «Risolai Shamsiya».

Ushbu ro'yxat ta'lim jarayonida badiiy adabiyotning mumtoz namunalari keng o'rin olganligini, dunyoni anglash tafakkurini shakllantirish borasida badiiy asarlarga alohida ahamiyat berilganini ko'rsatadi. Sharq adabiyotining Navoiy, Attor, Hofiz, Be-



dil, Fuzuliy kabi ulkan namoyandalari ijodi, ularning go'zal va serma'no asarlari yosh avlodning ulg'ayishi yo'lida dasturulamal vazifasini munosib bajargan.

Furqat ijodining mavzusi keng qamrovli va serqirradir. Uning shu kungacha yetib kelgan she'riy asarlari sakkiz ming misradan ortiqdir. Bundan tashqari Furqatning proza va publitsistikaga oid asarlari ham bor. Shoir faol ilmiy ishlar ham olib borgan, tarix, etnografiya va she'riyat nazariyasiga oid asarlar yozgan.

Furqat insoniy oliyjanob fazilatlarini ulug'lar ekan, birinchi o'ringa ozodlik g'oyasini qo'yadi. Bu hol tushunarlidir, albatta. Chunki buni Furqat yashagan davr va zamon talab qilardi. Shoirning lirik qahramoni har qanday qullikning murosasiz dushmani, ozodlik, erkinli, hurlikning otashin jarchisidir:

*Do'stlar, ayshu tarab, fasli bahor istar ko'ngul,  
Har kuni sahroda sayri lolazor istar ko'ngil.  
Aylamak har sori ohular shikor istar ko'ngul,  
Kabi raftarin ko'rarga qo'hsor istar ko'ngul,  
Dog'i xursand etgusi har ne ki bor istar ko'ngul.*

Ozodlik, erkinlik va hurlik g'oyalari turlicha rang-bo'yoqlarda «Fasli navbahor o'ldi», «Fasli guldur», «Bahor ayyomida», «Ul qaro ko'z» singari she'rlarida yanada sayqal topadi.

Furqatning «Sayding qo'yaber sayyod» she'rida gunohsiz mahbuslarni changaliga olgan shafqatsiz zolimlarga qarshi oshkora nafrat sadolari har qanday qalbi tosh o'quvchining ham yurak bag'rini tilka-pora qiladi:

*Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,  
Ol domini bo'ynidan, bechora ekan mendek,  
O'z yorini topmasdan, ovora ekan mendek,  
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.  
Bechorani zulm aylab, qo'l-bo'ynini bog'labsan.  
Har sori chekib-sudrat, o'ldirgalik chog'labsan.  
Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'labsan,  
Sot menga agar qasding olg'usi so'rog'labsan!  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.*

Furqat o'zining «Muhammasi Muhammad Xudoyorxon tilidan» asarida Xudoyorxonni el-yurt g'amini o'ylamagan, faqat shaxsiy manfaat va dabdabani ko'zlagan hukmdor sifatida o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandiradi. Bu asari N.Ostroumov «Oxborot» jurnalining 1893-yilgi 8-sonida birinchi marta chop ettirgan.

Shunday qilib Furqat chorizm mustamlakachiligi zulmi sharoitida yurt, Vatan va el baxti bilan kuyub yongan ma'rifatparvar demokratik shoir sifatida o'zbek adabiyotida o'zining munosib o'rniga ega.

**Zavqiy (1853–1921).** Zavqiy o'zbek demokratik va xalqchil adabiyotining Muqimiy va Furqat ijod etgan an'analarini davom ettiradi. U o'z asarlarida xalqning ayanchli hayoti va qismatiga sherik bo'lish va achinish, kelajak istiqbolga umid nigohi bilan boqish, ozodlik va erkka intilish g'oyalari ilgari suradi. Zavqiy ijod etgan asarlar yo'nalishini quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin: **1.Lirik she'rlar. 2.Hajviyalar. 3.Sayohatnomalar. 4.Dostonlar.**

Shoir o'zining «Aylab keling», «Kelmasa kelmasun, netay», «Ofarin», «Yuzingni ko'rsatib avval», «G'orat etding», «Uch xoroboti», «Ajab ermas», «Farg'ona», «Raxsan Ergash», «Voqelai qozi saylov», «Obid mingboshi haqida hajv», «Talading baring», «Ahli rasta hajvi», «Ajab zamona», «Zamona kimniki?» kabi lirik she'rlari, muhammaslari va hajviy satirik asarlarida ulug' insoniy fazilat, haqiqiy chin sevgiga sadoqat va chirkin tuzum sharoitidagi nuqsonlarga munosabatni tarannum etadi.

Xususan, Zavqiyning hayotiy voqealarga nisbatan o'ta sezgirligi, voqea va hodisalarning ichki mazmunini chuqur anglab yetishga mohirligi va undan aniq va to'g'ri xulosalar chiqara olish san'ati shoirning «Ajab ermas» muhammasida yorqin ko'zga tashlanadi.

1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonini ziyraklik bilan kuzatgan shoir Zavqiy: «Muqarradur zamona inqilob o'lsa ajab ermas» degan qat'iy xulosa chiqaradi.

Zavqiy satirik shoir sifatida adolatsiz zamondan faryod chekadi, undagi illatlar, chirkin nuqsonlar jabr sitamlarni o'tkir qalam tig'ila hajv qiladi. U o'z asarlarida «Zamona zo'rniki» degan xalq naqlidan kelib chiqib shunday deydi:

*Ahli dil bo'lsa zamonning boyi bo'l, bazzozi bo'l,  
Aqhadin langar cho'p ushlab, rastaning darbozi bo'l.*

«Zamona kimniki?» she'rida shoir Zavqiy qo'yilgan aniq savolga mantiqiy va to'g'ri javob beradi: «davr-davron hamma joyda hokimu mirzoniki, «silliq salloniki», «surati zeboniki». Mehnatkash xalq esa och-yalang'och, xonavayron hokimlar zulmi ostida bag'ri qon ekanligini afsus nadomatlar ila tasvirlaydi.

*Shahru qishloq demangizkim, fisq ila to'ldi jahon,  
Ahli dunyo qoshida yolg'onchilardur nuqtadon.  
Yo'q rivoj kasb-u hunarga, sovrilibdur xonumon.  
Xoh kosib, xoh dehqon qayga borsa bag'ri qon,  
Holi har yerda suhan sharmanda-yu rasvoniki.*

Xulosa shuki ma'rifatparvar demokrat shoir Zavqiy mehnatkash xalq g'ami-dardi bilan yongan va xalqning baxtli istiqboliga o'zini baxshida etgan ajoyib bir insondir.

**Muhyi Ho'qandiy (1835–1911).** O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan iste'dodli shoirlardan Hoji Muhiddin Ho'qandiydir. «Muhiy» taxallusi bilan elga tanilgan shoir 1835-yilda Hirotda tug'ilgan. U dastlab Qandahorda va so'ng Buxoroda o'qigan. Otasi vafotidan so'ng, 70-ytlarning o'rtalarida Andijonga kelgan, keyin Qo'qon xoni Nasriddinbek huzurida xizmatda bo'ladi.

Muhyi mashhur o'zbek shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Zavqiy bilan zamondosh va bir adabiy muhitning vakillari edilar. Muhyi o'zbek va fors-tojik tillarida baravar ijod qilgan bo'lib, uning forsiy va turkiy devonlari bir kitobda 1330-yil xijriy (melodiy 1911-yil) Toshkentda bosilgan. Muhyi 1911-yili Andijonda vafot etgan.

Muhyining hayoti haqida A.P.Qayumovning «Qo'qon tarixi va adabiyoti», «Qo'qon adabiy muhiti» asarlaridagina ma'lumotlar mavjud. Muhyi she'riyatini o'rganishga akademik G'afur G'ulom bir necha maqola bag'ishlagan.

Lekin Muhyi ijodini o'rganishda yaqin o'tmishda biryoqlamaliklarga yo'l qo'yildi. Adabiyot tarixini o'rganishga sinfiylik prinsipini zo'rma-zo'raki yopishtirib, Muhyi «boylarning,

savdogarlarning, mulkdorlarning shoiri» deb eʼlon qilinadi. Doim kamsitiladi, yaxshi oʻrganilmaydi. Vaholanki, Muhyi ham boylarcha hayot kechirmagan. U bir umr Miyon Qayyum hazrat xonaqohida musofirlikda yashab, hatto bir boshini ikkita qila olmay oʻtib ketgan, butun ongli hayotini ijod va adabiyotga bagʻishlagan.

Muhyi asarlarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, u shubhasiz, Gʻ.Gʻulom aytganidek «taqdir qiladigan darajada talantli shoir» boʻlgan, ishqiy va ijtimoiy mavzularda goʻzal asarlar yozgan. Hajviy sheʼrlari esa Muqimiy hajviyotlaridan qolishmaydigan asarlar boʻlgan.

Bu fikrning toʻgʻriligiga Muhyining mashhur firibgar Viktor haqidagi «Bektur» radifi bilan yozgan, Muqimiyning shu radifdagi hajviy sheʼrlariga toʻla hamohang boʻlgan va quyidagi band bilan boshlangan hajviya-muxammasini oʻqib, toʻla ishonsa boʻladi:

*Roʻsiyahlar ichinda bir nobakor Bektur,  
Bir guli dev siyrati qadi manor Bektur.  
Shakli misoli pista, ogʻzi chu gʻor Bektur,  
Fargʻona ichra tokim tutti qaror Bektur.  
Topti rivoj behad ham eʼtibor Bektur.*

**Bayoniy (1840–1923). Muhammad Yusuf Bobojonbek oʻgʻli** (adabiy taxallusi Bayoniy) oʻzbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, shoir va tarixchi olim, tarjimon va hattot, tibbiyot ilmining bilimdon kishilaridan biri sifatida tanilgan. Qomusiy isteʼdod egasi boʻlgan Bayoniy arab, fors, usmonli turk, ozarbayjon va boshqa tillarni bilar edi. Uning lirik sheʼrlar devonlari, tarjima asarlari bilan bir qatorda tarixga oid asarlari ham gʻoyatda qimmatlidir. Bu asarlarda Xorazm, Buxoro, Qoʻqon xonliklari va Oʻrta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati va xorijiy davlatlar bilan munosabatlari toʻgʻrisida ishonarli va muhim fikrlar bayon etilgan.

Bayoniyning tarixiy asarlarini oʻrganish esa bugungi oʻquvchining ongini faktik materiallar, tarixiy voqealar, adabiyot, madaniyat ahlining hayoti va ijodi bilan tanishtirishda ham katta ahamiyatga egadir. Bayoniy, Mavlono Darvesh Ahmad

tomonidan 1092 (1681)-yilda arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid» «Sahoiful ahbor», Ali Muhammad al Xiraviy (taxallusi Binoiy)ning «Shayboniynoma», Abu Ja'far Jarir at Taboriyning arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid «Tarixa Taboriy» va boshqa asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu tarjima asarlari bilan birga Bayoniy «Shajarai Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» kabi monumental asarlar ham ijod etadi. Bayoniy bu asarlarini yozish bilan Abulg'ozzi Bahodirxon, Munis va Ogahiy an'analarini davom ettiradi. U o'zining «Shajarai Xorazmshohiy» nomli tarixiy asarida Xorazmda XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab 1913-yilgacha bo'lgan voqealarni bayon qilib beradi. Bayoniyning ikkinchi asari «Xorazm tarixi»dir. Bu asarning ayrim boblari ma'no jihatidan «Shajarai Xorazmshohiy» asariga o'xshab ketsa-da, uning yozilish uslubi, voqealarning yangi talqini bilan tubdan farq qiladi. Bayoniy o'zining «Shajarai Xorazmshohiy» tarixiy asarida Xorazmdagi tarixiy, adabiy-madaniy hayot haqida ishonchli ma'lumot beradi. Bayoniyning ushbu asari Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan Xorazm tarixining davomi va xulosasini tashkil etadi.

Bayoniy ushbu asarida Xiva xonlarining tarixini ruslar tomonidan Xorazmning bosib olinganidan toki 1914-yildagi birinchi jahon urushining boshlanishiga qadar bo'lgan voqealarni atroflicha yoritgan.

**Feruz (1844–1910)** Sayid Muhammad Rahimxon Soniy – Xiva xoni Xorazm xalqining adolatparvar va ma'rifatparvar shoiri va farzandidir.

O'zbek adabiyoti, san'ati va tarixida muhim o'rin tutgan sermahsul ijodkor va madaniyat homiysidir. O'z saroyida u qirqqa yaqin shoir, sozanda, tarixchi, hattot va tarjimonlarni to'plagan<sup>1</sup>. Hasan Murod Qori Muhammadamin o'g'li Laffasiy esa «Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimayi hollari» tazkirasida Feruz saroyida 54 ta shoir faoliyat ko'rsatganini yozadi<sup>2</sup>. Feruz o'zidan so'ng «Devoni Feruz», «G'azaliyoti Feruz» majmuasini qoldirgan. Shuningdek shoirning she'rlari Ah-

<sup>1</sup> Раҳим Давлатёр, Матрасул, Шихназар, Феруз-шоҳ шoir кiсмати 1991, 6-бет.

<sup>2</sup> «Ёш Ленинчи», 1991 йил 23 август.

madjon Tabibiy, Muhammad Yusuf Xarratov–Chokar, Komiljon Ismoilov–Devoniy, Bobojon Tarroh Azizov–Xodim va boshqa xodimlar tomonidan ko‘chirilgan bayozlarda va toshbosma manbalarda uchraydi. Shoir Feruz o‘zining yozgan g‘azallarida Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil kabi so‘z san‘atining ulug‘ namoyandalari an‘analarini davom ettirib, ishq-muhabbat mavzusini bosh mezon sifatida qabul qiladi. U ishq-muhabbatni madh etish orqali ijtimoiy hayot voqealariga o‘z munosabatini, dunyoqarashlarini bildiradi, bular: sevgidan zavqlanish, oliyjanob insoniy g‘urur, jo‘shqinlik, ruhiy g‘alayon, e‘tiqod, imon, kamtarlik, ilm, kamolotga intilish, odamlarga yaxshilik qilishdir.

Shoir lirik g‘azallarining bosh qahramoni Feruzning o‘zidir. Bu qahramon o‘zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirgan, jamiyat va xalqni o‘ylovchi sxaxsdir. Bosh qahramonning fojiasi shundaki, oliyjanob shoir bilan qo‘pol va noinsoniy odatlar, tushunchalar, aqidalar o‘zaro konfliktlarga kiradilar.

*Ey falak netdim seni, dushmanlig‘ izhor aylading,  
Notavon ko‘nglim tuganmas g‘amga duchor aylading,*

deb xonish qiladi shoir.

Xullas Feruz o‘zining hayotbaxsh she‘rlarida oliyjanob insoniy his-tuyg‘ularni kechinmalarni mahorat bilan qalamga olgan. O‘z uyida oddiy eski kiyimda o‘tiradigan Feruz hayotdagi eng ulug‘ va mo‘‘tabar insonlardan bo‘lgan. Manbalarning guvohlik berishicha uning oilasidan chiqqan yigirmadan ortiq kishi turli mansab va vazifalarni egallagandan tashqari badiiy ijod bilan ham shug‘ullanganlar. Bu ijodkorlar so‘z san‘atining rango-rang turlarida qalam tebratib, qator tarixiy asarlar yaratdilar, hat-totlik va tarjimonlik bilan shug‘ullandilar, badiiy nasr va nazm mulkini boyitdilar. Komyob, Oqil, Sodiq, Murodiy kabi yetuk qalam sohiblari ana shular jumlasidandir. Xivalik adabiyot bilimdoni Muhammadali Laffasiy qiziq bir dalil to‘g‘risida fikr yuritadi: «Feruzning nabira, avlodlari she‘rga havaskor bo‘lib, alar ham Feruzga qo‘shimcha har xil g‘azal, muxammaslarni yo-zib turadilar». Xodim, Chokar, Nodimlar bilan birgalikda Feruz saroyi devonida ishlagan Komil Devoniy Feruzning ustozlari

Munis, Kiromiy, Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Ravnaq, Fuzuliy, Bedil, Fazliy, Lutfiy, Ogahiylar ijodidan bahramand bo'lganligi, o'ziga hamnafas zamondosh shoirlar ijodining muhim qirralaridan bahramand bo'lganligini bir she'rida quyidagicha tasvirlaydi:

Feruzning avlod-ajdodlaridan yigirmadan ziyodi ijodkorlar bo'lganligini yuqorida ta'kidladik. Shu munosabat bilan qiziq bir tarixiy voqeani qayd etmoqchimiz. Shoh Feruzning inisi Murodiy (asli ismi To'ramurod to'ra 1854-yilda tug'ilgan) ruslar Xivani qamal qilganda Otajon To'ra va Amir to'ralarga qo'shilib mamlakatga o'zlari xon bo'lib, davlatni idora etish niyati bilan Kaufman huzuriga borgan va rus generali bu taklifni qabul qilmagan. Qilgan ishidan tazarru yeb pushaymon bo'lgan Murodiy akasi Feruzdan kechirim so'rab «Devoni Murodiy»da quyidagi satrlarni bitadi:

*Qulliqingni qilmadim nodonlik aylab oshkor,  
Kibra targ'ib aylagan shayton ekandur, bilmadim.  
Vasli Jomiydin Murodiydek bo'lib sarxush mudom,  
Mehnatu xijron bilan bejon ekandur, bilmadim.  
Vuslati vasling bila jandonu shod erdim, vale  
Furqat ichra tushkan el nolon ekandur, bilmadim.*

Feruz Xiva xonligida fan va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor bergan bo'lsada, bu yaqin-yaqinga qadar etirof etilmas edi. Jumladan, V. Mirzayevning «Avaz O'tar kitobida «XIX asrning o'rtalariga kelib, Xorazm madaniy hayotida alohida taraqqiyot yuz berdi. Ilgari vayron bo'lib ketgan binolar qaytadan tiklandi. Yangidan sug'orish inshootlari, karvonsaroylar va 60 ga yaqin masjid, madrasalar barpo etiladi. Xiva xonligi hududida 1847-yili Xiva shahrida birinchi marta litografiya tashkil etildi. Unda 1880-yilda bosilgan birinchi kitob Alisher Navoiyning «Xamsa»si edi»<sup>1</sup> deyiladi.

«Xorazmda bayozchilikning keng taraqqiy etishi natijasida «Bayozi musaddasot», «Bayozi majmuai ash'or», «Bayozi muxammasot» va «Bayozi ash'or» kabi bayozning yangi turlari vujudga keladi. Ular ichida xorazmlik shoirlar tomonidan tuzilgan qo'lyozma bayozlar o'zining kompozitsiyasi, she'rlarining

<sup>1</sup> В. Мирзаяев. «Аваз Ўтар». Т., «Фан», 1961 йил.



g'oyaviy mazmuni, kitobat uslubi hamda savodli yozilgan go'zal xati bilan alohida ajralib turadi. Bu ishlarga bevosita Muhammad Rahimxon homiylik qiladi. Bayozchilik maktabi ustida tadqiqot ishlari olib borgan M.Hamidova Feruz faoliyatining bir qator qirralarini ochib berishga harakat qilgan.

Feruz rahbarligi ostida Tabibiyning «Majmuat-ut shuaro», Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» tazkiralari yaratildiki, natijada biz juda ko'plab ijodkorlar nomlari bilan tanishish baxtiga ega bo'ldik.

Muhammad Rahimxon saxovatli, fuqaroparvar inson edi. Bu fikrimizni quyidagi dalillar bilan isbotlashimiz mumkin. Saroy shoirlari orasida Doiy o'zining dovyurakligi, betgachoparligi bilan ajralib turgan. U hech tap tortmasdan kishining aybini shartta betiga aytar ekan. Yuqori lavozimli a'yonlardan ham hayiqmasdan, ularni bemalol kinoyali so'zlar bilan masxara qilgan ekan. Bu haqda Laffasiy shunday ma'lumot keltiradi: «Doiy Yusuf Hoji nomi bilan mashhur bo'lib, hamma vaqtlar Xiva ulamo va sipohilarini mazammat etib haqoratlar qilib yurur erdi. Feruz Doiyini yaxshi hurmatlar bilan in'omlar berib turar erdi. Muhammad Rahimxon Doiyini shu tariqa sipohi ulamolarni haqoratlar qilib mahammat qilg'onini bilib oni Xivadagi masjidi Kalonga voizlik mansabig'a ta'inlaydur».

Feruz musiqa sohasida ham barakali ijod qildi. Feruz «...musiqa ishlariga ham havaskor bo'lib doim xizmatida atoqli go'yandalar tanbur, g'ijjak bo'lomonlar chertib o'ttirur erdilar.

Feruzning o'zi Shashmaqomga o'n uchta kuy bastalagan va shunga ko'ra u o'zi yashagan davrning bastakori ham edi.

Xulosa shulki, Feruz vatanimiz tarixida faqat insonparvar, adolatparvar va ma'rifatparvar hukmdorgina emas, ayni zamonda katta ijodkor, g'azalnavis shoir va musiqa ijodkori sifatida ham munosib o'ringa egadir.

**Ahmad Tabibiy (1869–1911).** Xorazm ma'rifatparvar ijodkorlaridan, Xivada tavallud topgan. O'zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Uchta o'zbekcha va ikkita tojikcha devon tuzgan. Fuzuliyning «haft jom» asarini o'zbek tiliga tarjima etgan. Ahmad Tabibiy «Vomiq va Uzro» dostonining muallifidir. Xiva xoni Muhammad Rahim Feruzning topshirig'iga muvofiq o'ttiz

nafar xivalik yirik shoirlar haqida ma'lumotlar beradi va ularning asarlaridan namunalarni o'z ichiga olgan «Majmuat ush-shuaro'i Feruz» degan nomda tazkira tuzadi.

Ahmad Tabibiy o'z asarlarida haq, adolatni, oliyjanob insoniy fazilatlarini ulug'lash bilan birga, o'z davrining illatlarini ayovsiz fosh qiladi.

**Berdaq (1827–1900)** (taxallusi; asl ismi **Berdimurod Qarg'a-boy o'g'li**). U Mo'ynoq tumanida tug'ilgan shoir qoraqalpoq adabiyoti asoschisi<sup>1</sup>. Shoir ijodining ahamiyati Qoraqalpoq xalqining tarixida beqiyosdir. U XX asr bo'sag'alaridagi qoraqalpoq xalqi milliy ongi kamolotining eng yorqin ifodachisidir. Qoraqalpoq xalqi bu ulkan shoir asarlari misolida o'zligini yanada chuqurroq tanidi va idrok etdi, xalq sifatida o'zining buyuk va qudratli kuchga ega ekanligi haqidagi ishonchini mustahkamlay bordi.

«Izlar edim» she'rida u Navoiydan savod oshirganini, Fuzuliydan durlar terganini, ilm qonunini yaratgan Aflotun va Arastular asarlarini mutoala qilganini bayon etadi. Bedil, Attor asarlaridan hidoyatni, xaqqa eltuvchi to'g'ri yo'lni izlaganini ta'kidlaydi. Shoir ijodiga qoraqalpoq klassik shoiri Qulxo'ja, turkman shoiri Mahtumquli she'rlari sezilarli ta'sir etdi.

Xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan Berdaq tenglik, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlikni targ'ib qiladi. Xalqning ayanchli ahvolidan kuyunib she'rlar bitadi.

*Bo'lmadi qilgan niyatim  
Xor bo'ldi xalqim, himmatim,  
Yig'lay-yig'lay, o'tdik yetim.  
Yig'lamas vaqt bo'lgan emas.*

deb yozgan edi xalqni adolatli zamonda baxtiyor ko'rishni istagan shoir nadomat bilan «Bo'lgan emas» she'rida. Ana shu ohang uning «Soliq», «Bu yil», «Umrin» she'rlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Berdaq tenglik va adolatni izlar ekan, «Dunyo yaralgandan beri Podshoh odil bo'lgan emas»ligini anglab yetadi. «Yaxshiroq», «Shekillik», «Ahmoq podsho» singari dostonlarida ham

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.1-жилд. 710-бет.

shoir Berdaq jamiyatdagi muammolarga o'z munosabatini bayon qiladi.

XIX asrning 50-yillari Berdaq ijodining gullagan davri hisoblanadi. Bu yillarda shoir o'zining «Omonkeldi», «Ernarzarboy» dostonlarini yaratadi. Bu dostonlarda shoir xalq erki uchun kurashgan qahramonlarni ulug'laydi. «Avlodlar», «Aydashiy» dostonlari ham tarixiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ularda qoraqalpoq xalqi hayotidagi tarixiy voqealar qalamga olinadi. Shoir bu asarlarda qabila va elatlarning kelib chiqishi haqida o'z mulohazalarini bildirgan.

Xususan, shoirning «Shajara» nomli dostoni qoraqalpoq xalqi tarixini, uning shajaralari bosib o'tgan yo'lni, bu yo'ldagi keskin kurashlarni, ziddiyatlarni, murakkabliklarni nohaqlik jamiyatida el boshiga tushgan azob-uqubatlarni epik ko'lamlikda yoritib bergan mumtoz asarlardan. Shunisi e'tiborliki, Berdaq bu asarida qoraqalpoq xalqi bilan yonma-yon yashagan, bir daryodan suv ichib, bir tuproqda don yetkazgan o'zbek xalqi tarixining ham qator o'ziga xosliklarini yoritishga ahamiyat beradi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. 1998-yili O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170-yilligi keng nishonlandi<sup>1</sup>.

Xullas, qardosh va qondosh qoraqalpoq xalqining o'g'li Berdaqning sermahsul ijodi umumxalq boyligi sifatida avlodlarga xizmat qilaveradi.

**Anbar otin Farmonqul qizi (1870 – Qo'qon – 1906)** – o'zbek xalqparvar shoirasi. Kambag'al kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Farmonqul asli marg'ilonlik bo'lib, shoira Uvaysiyning jiyanidir. Onasi Ashurbibi qo'qonlik bir kosibning qizi bo'lgan. Anbar Otin yetti yoshidan o'z mahallasidagi Dilshod otinning maktabida ta'lim oladi. Dilshod otin o'z davrining bilimdon, shoirtabiat, dono ayollaridan bo'lib, «Barno» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. U Anbarning she'riyatga qiziqishini ko'rib, uni mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishtirgan. Dastlab kichik she'rlar yoza boshlagan Anbar ijodda ko'proq Uvaysiyga ergashadi, uning g'azallarini diqqat bilan o'rganadi, muxammaslar bog'laydi. Ayniqsa Navoiyni birinchi ustoz hisoblaydi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. 710–711-бетлар.

Anbar otinning turmush o'rtog'i Zohidxo'ja ham adabiyotga ixlosmand kishi bo'lib, Muqimiy, Furqat, Zavqiylar anjumanida qatnashgan. Anbar otin ham bu suhbat va mushoiralarda ishtirok etgan. Uning «Mushoira» nomli risola yozganligi haqida og'zaki ma'lumotlar uchraydi. Anbar otin haqgo'y va oqilligi bilan mahalla ayollari o'rtasida obro' qozonib, otin, otincha nomini olgan. U boyvachchalarga qarshi hajviy she'rlar yozgan. Bundan g'azablangan boyvachchalar shoirani bir yig'inda rahmsizlarcha kaltaklab, keyin baland zinadan itarib yuboradilar. Natijada shoiraning ikki oyog'i sinadi. Shundan so'ng uning sog'lig'yi yomonlashib, o'pka kasaliga duchor bo'ladi. Biroq u umidsizlikka tushmaydi. She'r shoiraning butun umri davomida ajralmas do'sti, hamdardi bo'ladi. 1905-yilda Anbar otin devon tuzib, unga 41 g'azal, 4 muxammas, bir qit'a, bir mustahzod va she'riy tarjimayi holini kiritgan. Anbar otin haqiqatni aytishdan cho'chimaydi. U xalqni jaholatda tutuvchilarni, riyokorlarni qattiq tanqid qiladi:

*Tariqcha ilmi yo'q «qozi» kalonman-muftiman» deydur,  
Abu Sino, Ulug'bekdin ko'z yumg'onlarga o't tushsun.*

Anbar otinning boshqa g'azallarida ham xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, yuksak insoniylik g'oyalari targ'ib etilgan. U zamonasidagi turmush lavhalarini tasvirlabgina qolmay, ularga ijtimoiy ta'na ham beradi, mash'um zamonani o'zgartirish xalqning harakatiga bog'liq degan xulosaga keladi. Anbar otinning dunyoqarashini, falsafiy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan asari – «Qoralar falsafasi»dir. Asar kirish va to'rt fasl (qism)dan iborat. Har bir qismda shoira ijtimoiy hayotdagi biror muhim masalaga o'z qarashlarini va mushohadalarini bildiradi. U kambag'al xalq hayotiga achinadi, zamonasidagi irqiy kamsitishlarga o'z noroziligini ifoda etadi. Shuningdek ayollar taqdiri haqida gapirib, ularning jamiyatdagi qonuniy o'rni va huquqlarini talab qilib chiqadi. Har bir mushohadaning oxirida bir she'r keltirilib, qissadan hissa chiqariladi. Asarda insoniy fazilatlar ulug'lanadi: «Ansar Janub va Sharq xalqlari monandi Arab, Afg'on, Selon, Hind va Kashmir xalqlari qorayuz, oqko'ngil xaloyiq erurlar. U xaloyiq ham aslzoda, oq tanlar kabi odam, a'zoyi badan,

qo‘l-oyoq, til, ko‘z va aql-hush, g‘ayrat, quvvat va tafakkurga molikdurlar

Anbar otin onaning insoniyat oldidagi xizmatlarini sanar ekan, har qanday insonning onasi har qanday donishmandning enagasidir deydi: «Ona shunday mohir donodurki, Aflotun va Arastuni, Abu Sino va Ulug‘bekni, Jomiyini, Sa‘diyini, Firdavsiyni va Hayyomni, Nodira va Uvaysiyini... olamni ko‘rishga ...davru mohir qilibdur». Anbar otin ozod va baxtli hayot kelishiga umid bildiradi, bunga qattiq ishonadi ham. U kelajakka umidvor boqadi, ayollarni o‘z haq-huquqi uchun kurashishga chaqiradi.

**Dilshod Otin**, (Barno, Dilshodi Barno taxalluslari: asl ism-sharifi Dilshod Rahimqul so‘fi qizi), (1800–1905/06). U 17 yoshida asirga tushib O‘ratepadan Qo‘qonga olib kelinadi. Bu yerda o‘zbek yigitiga turmushga chiqib, umrining oxirigacha shu yerda yangidan o‘zbek tilida ko‘plab g‘azallar yozadi.

Dilshod o‘z ijodi orqali jamoatchilik fikrini bayon etadi, hayotning turli tomonini ochib beradi. Uning tojik va o‘zbek tillarida yozilgan asarlari bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Ularni bir-biridan ustun qo‘yish qiyin, chunki shoira bu tillarni mukammal bilganligi tufayli ikkala tilda ham chuqur, mazmunli asar yozadi va yurakdagi, qalbdagi so‘zlarini mohirona bayon etadi.

Dilshod o‘zining she‘r va g‘azallarida hukmron sinfning yuqori tabaqalarini, hukmdor va ekspluatatorlarning kirdikorlarini tanqid qiladi. Ma‘naviy tushkunlikni, tekinxo‘r va bezorilarni qoralaydi.

Dilshod Umarxon bilan uchrashganini quyidagicha bayon etadi: «Meni yasantirganday yalang‘ochligimcha qandaydir xonaga olib kirishdi. U yerda amir chopon va sallalik o‘tirar edi. Oldida qora stol, uning ustida suv, pichoq va bir dona anor bor edi.

Xon baland bo‘yliq qora ko‘zliq qora soqolli va ochiq yuzli bo‘lib salobatli ko‘rinardi. Mening salomimdan keyin men bilan xushmuomalalik bilan suhbatlashdi. Uning xushmuomalaligiga qaramay, menga u johil va qonxo‘r podshoh bo‘lib tuyuldi. U menga: «Qani, g‘azal tuzadigan tojik qizi, yonimga kel...» – dedi.

Men bilan savol-javob qilib, ismimni, kelib chiqishimni so‘rab bo‘lib, anor haqida g‘azal to‘qishimni talab qiladi:

*Bu dunyoda osmon gumbazini ko'rdim men,  
Ichi to'la g'amlarni ko'rdim men.  
Yupqa parda bilan qoplangan yuzlarni ko'rdim men,  
Bag'rilari qonga, ko'zlari yoshga to'lganlarni ko'rdim men  
Umarxon farmoni ila shafqatsiz qilich bilan,  
Har bir go'zal yuraklari kesilganini ko'rdim men.*

Men bu she'rni o'qib bo'lishim bilan amir ikki marta qarsak chaldi. Mahram kirdi. Amir: «Bu sochi kesilganni zindonga olib boringlar» deydi va ko'zi bilan qandaydir ishora qiladi<sup>1</sup>.

Dilshodning hayoti haqidagi ma'lumotlar uning o'z asarlarida va qo'qonlik shoir Sulaymon Rojiyning «Muxtasar ul-ash'ori Dilshod» kitobida saqlangan. Uning otasi ham shoir bo'lib, u qatl etilgan. Dilshod unda juda yosh edi, onasidan ham erta judo bo'lib (1814) buvisi qo'lida tarbiyalangan. Uni 17 yoshida (1818) Umarxon sarbozlari Qo'qonga asir qilib olib ketgan. Biroq Dilshod tikso'zligi tufayli Umarxon saroyidan haydaladi (to'g'rirog'i qochishga muvaffaq bo'ladi – mualliflar) keyin Toshmaxdum degan imomga turmushga chiqadi. Shoiraning qaynonasi ma'rifatli, bilimdon ayol bo'lib, muallimalik qiladi. «Men, – deb yozadi. Dilshod – 88 yoshimgacha oynasiz xat ko'rib, maktabdorlik qildim. 51 yil maktab tutib, a'lo avsat hisobida 23 talaba tutib, 891 qizni basavod qildim. Alardin qariyb to'rtndan biri tab'i nazmlari bor erdi... boz avval oxir ikki yuzdan ortiq nazmxon shoiralari ta'lim olib chiqqan erdi. Kamina o'rda shoiralari qo'shilmoq orzusidan mahrum erdi. Ammo ulug' otinlar: Jahon-bibi va Nodirabegim nazmlari salihimg'a quvvat baxsh etadilar. Nazmlarimni devon qilmoq borasida orzu bor edi».

Dilshod talabalari orasida Anbar otinga alohida e'tibor bergan. Dilshod adabiyotga erta kirib kelgan. Barno va Dilshod taxalluslari bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. Shoira g'azal, muxammas, musaddas, badiiy xotiranomalar, bir necha doston yaratgan («Tarixi muxosara», «Xatmi muntaham ul-ash'or», «Zamonadin shikoyat», «Hayot madhi» va boshqalar). Uning asarlarida aksar tarixiy hodisalar, xalq hayoti va turmushi haqida fikr yuritilgan. Shoira haqqo'ylik, to'g'rilik, bilim kishi-

<sup>1</sup> Мухторов А. Дилшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX — начале XX в. «Душанбе», стр. 302–305.

ni illatlardan xoli tutadi, yuksaklikka ko'taradi, nohaqlik, egrilik esa halokatga duchor etadi, degan fikrni ilgari suradi.

Dilshod g'azallarida bosh mavzu sevgi, muhabbatdir. Shoira sof muhabbatni zo'r ehtiros bilan kuylaydi. Vafosiz, xudbin ma'shuqalarni makkor va xiylagar, deb ataydi. Shoira asarlarida zamon bilan hamnafaslik sezilib turadi. Shoiraaning «Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiran» («Inson matonati va muhojirlar tarixi»)da o'zining tavalludi, oilasi va ayanchli taqdiri bayon qilingan. Zotan, uning taqdiri ham muhojirlar taqdiridan farq qilmagan. Bu asarga shoiraaning o'zbek tilidagi 37 ta va tojik tilidagi 5 ta g'azali ham kiritilgan.

Dilshodning ijodi tarixiy materialga boyligi, ijtimoiy mazmundorligi, haqqoniyligi, xalqparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligi uchun ham o'zbek va tojik mumtoz adabiyotining qimmatli namunalaridan hisoblanadi.

Dilshod otinning «Tarixi muhojiron» asarida XIX asrda Qo'qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy voqealar aks etgan. Ayollarni ma'rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a'zolari bo'lishga chorlagan<sup>1</sup>.

Qo'qonlik shoir va shoirlar haqida Dilshod bunday deydi:

«Men anchadan beri yashab kelayotgan Qo'qon shoirlar shahridir. O'n ikki darvozalik bu katta shaharda to'rt yuz qirq mahalla bor deydilar va har birida shoirlar bor...

Qo'qon maydonining Sarimozor dahasida birorta mahalla yo'qki, u yerda biror bir shoir va donishmand bo'lmasa, Xo'ja Kalon To'ra mahallasida mendan tashqari yana Mahzani, Turobi va Bahori taxallusli shoirlar va Fidoiy ismli shoira yashardilar.

Bizning qo'shni Buzrukxo'ja mahallasida qachonlardir juda iste'dodli, shirinso'z shoir janob Bog'dor Eshon Nizomi yashar edi. Hozir bu mahallada shoira Mohinabonu va Hafiza otin va shoir Sabuhi yashaydilar. Yana bulardan tashqari, mening iste'dodli o'quvchilarimdan Bahri otincha va Anbar otinchalar ijodiyotining cho'qqisidadirlar. Yana qo'shni Qo'rxona mahallada yosh shoir va mohir san'atkor hattotlar yashaydi...

Agarda qibla tomonga qarasak panjarasoz mahallasini ko'ramiz. U yerda o'zlarining she'rlar devoniga ega bo'lgan Sadon

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 3-жилд, 299-бет.



va Qori Devona shoirlar bor. Qisqa qilib aytganda, Movaroun-nahrning poytaxti bo'lmish bu shaharda har bir avlodda minglab shoir va o'qimishli kishilar, ulamoi fozillar yashab, o'zlarining minglab rejaları bilan o'z asarlarini yaratdilar va o'zlarining she'rlarida falakning taqdiridan arz qilib va dodlab ketar edilar.

So'z va g'azal ustalaridan biri Anbar otin – Jahon otun Uvays ismli ham shu shaharda yashab vafot etgan. Juda ko'p shoir va donishmandlar o'z go'zal va jozibakor asarlarini yaratib ketdilar...»<sup>1</sup>.

Dilshodning so'ziga qaraganda, «ayniqsa shoir Mahjub hur-fikrli shoirlarning yuqori pog'onasida ekan va ularning joylari guloh yonida ekan. Lekin ular hammom gulohida yashashiga qaramay, ularning hurmatlari baland ekan. Bulardan tashqari yana Muntazir, Mahmud va Gulxaniy ismli shoirlar bo'lgan. Hozir Mahmud va Muntazirlar hayotlar, lekin na ilojkim borki, ularni ko'rsak ular guloh yonida, men esa bir uyning burchagida katakka solingan qafasdadirman. Bundan xalos bo'lish faqat xalq irodasi bilan amalga oshishi mumkin.»<sup>2</sup>.

Xullas, yuqoridagi fikr-mulohazalar shundan dalolat beradiki, chor Rossiyasining og'ir mustamlakachilik zulmi siyosati davrida ham Turkistonda siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayot to'xtab qolmadi, xalqimiz o'zining an'anaviy tarixiy taraqqiyotiga sodiq qoldi, jahon fani va madaniyati xazinasini rivojiga munosib hissa qo'shdi.

### Nazorat savollari

1. K.P.Kaufman Turkistonda maorif sohasi bo'yicha qanday ishlar olib bordi?
2. Middendorf va tarixchi olim Haydarbek Bobobekovlar Turkiston aholisini turmush tarzi, ijtimoiy hayoti haqida qanday fikrlar aytgan?
3. Mustamlakachilik davrida Turkiston o'lkasida ijod qilgan shoir va olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Mustamlaka tuzumi davrida matbuot, davriy nashrda qanday g'oyalar ilgari surilgan?

<sup>1</sup> *Мухоморов А.* O'sha asar. 305-бет.

<sup>2</sup> O'sha asar, 302-бет.

## VI B O B

### TURKISTON XX ASR BOSHLARIDAGI SIYOSIY LARZALAR VA BOʻHRONLAR DAVRIDA

XX asrning dastlabki oʻn yilliklari jahon xalqlari uchun nihoyatda ogʻir, tashvishli, inqiroz va boʻhronlarga botgan yillar boʻldi. Jahon iqtisodiy va siyosiy boʻhronlari birinchi navbatda Yevropa va Sharqning rivojlangan mamlakatlarini oʻz girdobiga tortdi. Ular bu ogʻir iqtisodiy va siyosiy boʻhronlardan chiqib ketish maqsadida tajovuzkor tashqi siyosat olib bordilar. Oqibatda fojiali va qirgʻinbarot urushlar kelib chiqdi. 1904-yilda boshlangan rus-yapon urushi va 1914–1918-yillardagi dunyoning 28 mamlakatini oʻz domiga tortgan birinchi jahon urushi bu fikrimizning yaqqol dalilidir. Urushlar tarixda hech qachon yaxshilik va xayrli ishlarga olib kelmagan. U doimo xarobalik va vayronalikni, ochlik va qashshoqlikni, yaʼni qisqa qilib aytganda siyosiy, boʻhron va larzalarni olib kelgan. Buni biz chor Rossiya-sining mustamlaka oʻlkasi boʻlgan Turkiston misolida aynan koʻramiz.

#### 1. TURKISTONDA CHOR ROSSIYASI MUSTAMLAKACHILIK ZULMINING YANADA KUCHAYISHI

Chor Rossiyasi 1864–1895-yillar mobaynida Turkistonni bosib olgach, oʻlkada qattiqqoʻllik bilan mustamlakachilik siyosatini olib bordi, endi mehnatkashlar ommasi ikki tomonlama ekspluatatsiya qilina boshlandi. Chor Rossiyasi, ayniqsa, rus-yapon va Birinchi jahon urushlari munosabati bilan oʻlkada mustamlakachilik milliy zulm va zoʻrlik siyosatini avjiga mindirdi. U oʻz oldiga bosh maqsad qilib Turkiston oʻlkasi boyliklarini talash va yerli xalqlarni qattiqqoʻllik bilan ekspluatatsiya qilib, ularning qonini zulukdek soʻrish uchun ulugʻ davlatchilik siyosatini olib bordi. Chor maʼmurlari bu boradagi oʻz jirkanch niyatlarini hech kimdan yashirgan ham emaslar va faqat oʻlkadan koʻplab boylik va foyda olib ketish niyati bilan nafas olganlar. Buni biz 1906-yilda moliya ishlari vaziri Sergey Vitte nomiga yozilgan «Zapiski o gosudarstvennix i obshestvenno-ekonomicheskix nujdax Tur-

kestanskogo kraya» deb nomlangan xatning mazmunidan bilsak ham boʻladi. Bu xatning 26–27-betlarida Turkiston oʻlkasi Rossiyaga foyda keltirish mumkingina boʻlib qolmay, balki majbur hamdir, deyiladi. Buning uchun vaqtni qoʻldan boy bermasdan qatʼiylik bilan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilindi:

1. Olinadigan boyligiga qaramasdan, foydalanishdan chetda qolgan yerlarni davlat hisobiga oʻzlashtirishni tezlashtirish;

2. Eng unumdor yerlar hisobiga qishloq xoʻjaligi sanoatini rivojlantirish;

3. Oʻlkaning togʻ boyliklaridan foydalanish;

4. Oʻlkani ruslar tomonidan ekspluatatsiya qilishni kuchaytirishga keng imkoniyat yaratib berish;

5. Xalq maorifini rus uslubi boʻyicha rivojlantirish;

6. Oʻlkani dastlab biz bosib olgan davrdagi oʻrnatilgan tashkiliy boshqaruv yoʻnalishlarini qoʻllab-quvvatlash lozim.

Ana shu belgilangan tadbirlarning barchasi Rossiya hukumati va chor maʼmurlariga Turkiston oʻlkasi boyliklarining doimiy suratda koʻproq oqib kelishini taʼminlashi lozim edi. Agar 1888–1893-yillar mobaynida Turkistondan Rossiyaga 14 257 515 pud qimmatbaho paxta xomashyosi tashib olib ketilgan boʻlsa, 1914–1916-yillarda jahon urushi bahonasida 41 million pud paxta tolasi olib ketilgan. Umuman olganda 1880–1917-yillarda Turkiston oʻlkasidan Rossiyaga jami boʻlib 225,8 million pud paxta tolasi olib ketilgan. Bunday surbetlarcha talonchilik tarixda kamdan kam boʻlgan. Ogʻir iqtisodiy vaziyatga qaramay, chor Rossiyasi Buxoro (Kogon–Qarshi–Termiz), Fargʻona (Qoʻqon–Namangan–Andijon), Yettisuv (Aris–Burnas) temiryoʻllarini qurdi. Bu yoʻllar orqali oʻlkada yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari va tabiiy boyliklarni imkoniyati boricha koʻproq Rossiyaga olib ketildi. 1914–1916-yillarda paxtadan tashqari Rossiyaga 3 million puddan ortiq paxta yogʻi, 200 ming pud soʻvun, 300 ming pud goʻsht, 474 ming pud baliq, 70 ming ot, 12.797 tuya, 270 arava, 1344 oʻtov, koʻp miqdorda quruq mevalar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari oʻlkadan olib ketilgan. Shuning singari 1914-yilda Yettisuv viloyatidan 34 million soʻmlik yirik va mayda qoramol, 1915-yilda Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan 1 million bosh qoʻy olib ketilgan.

Chor Rossiyasi Turkiston oʻlkasiga xom ashyo bazasi sifatida qaradi va shu boisdan ogʻir sanoat korxonalarini qurish masalasiga mutlaqo eʼtibor bermadi. U faqat tez foyda beradigan, kichik-kichik yengil hunarmandchilikka oid korxonalar qurishga harakat qiladi. Turkiston oʻlkasidagi sanoat korxonalarining asosiy tarmogʻi paxta tozalash zavodlaridan iborat boʻlib, 1914-yilda ularning soni 254 ta edi. Bu korxonalar Turkistondagi barcha sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining toʻrttdan uch qism mahsulotini berar edi. Umuman olganda Turkiston oʻlkasidagi sanoat ishlab chiqarishi sof mustamlakachilik xarakteriga ega boʻlib, u asosan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini birlamchi ishlab berish va yer osti qazilma boyliklarini qazib olishga moslashtirilgan edi. Oʻlka sanoat mahsulotining deyarli hammasi (paxta tolasi, neft, koʻmir, paxta yogʻi, sovun va hokazo) Rossiyaga olib ketilar edi.

1891-yilda Rossiyada sodir boʻlgan ochlikdan soʻng Turkistonga bamisoli vabodek yopirilib koʻchib kelayotgan oilalar oqimi koʻpaydi. 1906-yildayoq oʻlkaning besh viloyatida 451 ming tanob yerga ega boʻlgan 136 rus posyolkalari paydo boʻldi. Har bir xoʻjalikning tomorqasi 34,5 tanobdan iborat edi.<sup>1</sup> Chor hukumatining bunday agrar siyosati natijasi oʻlaroq qishloq aholisi oʻrtasida yersizlar soni koʻpayib ketdi. Yersiz xoʻjaliklar oʻlkaning ayrim tumanlarida 40 foizga qadar yetadi. 1910-yilda butun Turkiston oʻlkasida yersiz dehqon xoʻjaliklar soni 30 foizni tashkil etgan.

Chor maʼmurlari mahalliy xalqni qorangʻulik va zabunlikda saqlash yoʻlini tutdilar. Xalq maorifi tizimi qattiq nazorat ostiga olindi, ruscha tartib qoidalar joriy qilindi, rus tili rasmiy tilga aylantirildi, ruschani bilgan fuqarolar har tomonlama ragʻbatlantirildi. Chor maʼmuriyati Turkiston musulmon aholisining diniy eʼtiqodi, his-tuygʻusi, diyonatiga, milliy qadriyatlariga qarshi hujum eʼlon qiladi. Musulmonchilikning beshinchi farzi hisoblangan Haj ibodati, muborak Kaʼba safari Rossiya imperatori farmoni bilan 1903-yildan boshlab taqiqlab qoʻyildi. Bundan kutilgan maqsadni Muso Turkistoniy oʻzining «Ulugʻ Turkiston fojiasi» asarida shunday taʼriflagan: «...Hajja borgan bir Turkistonli u safar munosabati ila chet davlatlarni ham

<sup>1</sup> Дело концелярии Туркестанского генерал-губернатора. 1907, № 2.

koʻradur, sayohatdan foydalanadur, koʻzi ochiladur, musulmon davlatlarini, xususan, Turkiya saltanatini, Islom shavkatini, Islomni quvvatini koʻradur. Koʻzi ochiq ziyolilar boʻlsa istibdodga qarshi chiqishni oʻrganadur, maʼlumotlari ziyodalaniib, zehnlari ochiladur. Oʻrik oʻrikni koʻrib olayadur deganidek Hajga borgan Turkistonliklar mustaqil hur davlatni koʻrib havaslanadi. Xulosa – muborak safar, Haj safarini natijasi oʻlaroq turkistonliklar oʻz huquqlarini, istiqloklarini talab qiladurlar, isyon chiqaradurlar deb man qiladi. Andijondagi Dukchi Eshon voqeasi ruslarning shundoq andishaga tushadurgʻon bir namunadir».

Tohir Shokir Labik oʻzining 1934-yilda Berlinda chop ettirilgan «Turkiston paxta xoʻjaligi» kitobida «1. Ibtidoiy maktab ruschadur. Oʻquvchilar ruscha oʻqiydur. 2. Oʻrta maktab ruschadur. Bu maktabning talabalari 400 boʻlib, shundan ikki kishi musulmon edi. Biri Andijondan, yana biri Oʻshdan». ...Oʻquvchi maʼlumotini orttirish uchun gimnaziya yohud Toshkentdagi seminariya, Peterburgdagi akademiya joylanishi missionerlarning qoʻlidadir. Ilm tahsili uchun xorijga chiqishga izn yoʻq. Diniy boʻlsin, faniy boʻlsin, har qanday ilm oʻquvchilar Rossiyaning ichida ilm oʻqiydur. Buni Moskov va Peterburg taʼmin etadur. Ammo noʻgʻoylardan Misrda, Xijozda tahsil koʻrgan olimlar chiqsa esada, juda oz, barmoq bilan sanarli darajadadir. Bizning Turkistondan xorijiy tahsil koʻrgan faloniy deb zikr qilishga hech raqam yoʻqdur. Andijondagi ayni maktabda norasmiy surʼatda vaqtincha haftada ibtidoiy ikki dars musulmoncha oʻqitilur edi», – deydi.

Tohir Shokir Labik yerli tub xalq tili va islom diniga qarshi uyushtirilgan ulugʻ davlat shovinistik siyosatini fosh etib quyidagilarni yozadi:

1. Musulmonlar oʻlturgʻon shaharlarda qancha daha boʻlsa, har dahada bir rus maktabi boʻladur. Nafaqasi davlatga oyidur.

2. Ruscha maktab ochilmogʻon joylarda musulmonlarning masjid solishi, madrasa qilishi mumkin emas.

3. Musulmon muddarislarining, muallimlar va imomlarning va boshqa diniy xizmatchilarning ruschani yaxshi bilishlari shartdir.

4. Aholi tarafidan ochilgan diniy maktablarning nafaqasi

xalqqa oyiddur. Ruscha taʼlim koʻrmagan bolalar bundoq islomiy maktablarda oʻqish huquqidan mahrumdurlar.

5. Yerliklar tarafidan ruscha maktab ochilgan taqdirda, muallimning maoshi davlatga oyid boʻlib, boshqa nafaqalari, musarraflari boshqalarning gardanigadur.

Yuqoridagi shartlarning tahqiq etib-etmasligi missionerlar faoliyatiga bogʻliq edi. Missionerlar maorif nazorati, boʻlis idorasi hammalari bir kishidur. Garchi idoralari boshqa, ismlari boshqadur.

Zikr qilingʻon turluk shartlar ila ochilgʻon maktablarning davomli surʻatda kontrol qilish, surishtirish oʻzi missioner, vazifasi inspektor boʻlgʻonlarning haqqidur.

Taftishning kayfiyati; zikri kechgan ruscha maktablarda faqat ruscha oʻqilurmish yoxud boshqa ilm ham oʻqitilurmu? Muallimlar musulmon ruhoniylaridanmu? Baʼzi dahadamu? Ochilgan maktabdagi bolalar oʻqishga majburlar, ixtiyorlikmu? Talabalarning saviyasi ruslarning maorif nizomiga muvofiqmu? Darsning oʻqilishi maorif loyihasiga mutobiqmu va shunga oʻxshash bahslar, savollar davomli surʻatda boʻlib turodur».

Asosiy maqsadi tarjimonlar tayyorlashdan iborat boʻlgan «rus-tuzem» maktablari oʻqituvchilari yerlik millatning tili ni biladigan ruslardan boʻlgan. Yerlik bolalar ruscha ibtidoiy maktabga qaydsiz, shartsiz olinaverganlar. Nafaqalarini ham davlat toʻlagan. Ammo oʻrta maktab, oliy maktablarga qabul uchun rus loʻgʻatini yaxshi bilishi shart qilib qoʻyilgan. «Bularning nafaqalari, deydi Shokir Labik, ...musulmonlarning hisobidan toʻlanodur».

«...Islom diniga mansub yerlik maktab talabalaridan hech kimsani ruscha maktabga qabul qilinmaydur, qatʼiyan man qilingandur.

...Ruscha maktab ochilmogʻon bir mahallada musulmonlar tarafidan islomiy madrasa yoki maktab solishga izn yoʻqdir...»

Agar bunday madrasa va maktablar ruschani oʻqitish sharti bilan rus maʼmurlari ruxsatiga koʻra ochilgan taqdirda ham uni tamomlab Shahodatnomaga ega boʻlgan «...musulmonlar faqat diniy vazifalarga tayinlanadurlar, idora ishlaridan mahrumdurlar».

«Zamon-zamon oʻrus zamoni keldi. Ruscha oʻqish va oʻqitish

rivoj bo'ldi. Har yo'l ila rus madaniyati, rus tilini o'qishga, o'rganishga musulmonlar qiziqtirildi.

Ruscha bilg'onlarni imtiyozini bo'ldi. Rasmiy til davlat tili ruscha bo'lg'oni uchun xalqning idoraviy muomilalarning ruscha bo'lishi majburiy edi...»

Rossiya hukumati Turkiston o'lkasida maorif ehtiyojlariga umuman past nazar bilan qaragan va bu sohaga harbiy-mirshablik boshqaruvni saqlashni ta'minlashga ketadigan xarajatlarga nisbatan 35 barobar kam mablag' sarf qilgan.

Turkistondagi sanoat korxonalarida ishlayotgan ishchilarning o'rtacha ish haqi Markaziy Rossiyadagi ishchilarning ish haqlariga nisbatan 1,5 barobar kam bo'lgan. Turkistonning o'zida ham bir korxonada ishlab, bir xil vazifa va yumushni bajargan rus millatiga mansub ishchi yerli millat vakiliga qaraganda ko'p maosh bilan ta'minlangan. Shaharlarda sanoat korxonalarini va temiryo'llarda ishlaydigan ishchilar g'oyatda og'ir sharoitlarda mehnat qilganlar. Ishchilarning ish kunlari odatda 10–12 soatga, ba'zi tarmoqlarda esa 17–18 soatgacha cho'zilardi. Ishchilarning maishiy ahvoli to'g'risida hech kim g'amxo'rlik qilmasdi.

Tub yerli aholi deyarli saylov huquqlaridan mahrum bo'lgan. Buni davlat dumasiga o'tkazilgan saylovlarda ochiq-oydin ko'rish mumkin edi. To 1906-yilga qadar ham chor ma'murlari Turkistonda davlat dumasi saylovlari tartib-qoidalarini ishlab chiqishga shoshilmagan edi.

1906-yil 27-aprelda rossiya parlamenti o'z ishini boshladi. Ana shunday tarixiy voqeadan so'ng besh kundan keyin Sankt-Peterburg podsho farmonini Toshkentga yubordi. Bu farmon «Yettisuv, Kaspiyorti, Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida davlat dumasiga saylovlar haqidagi holatni va unga qo'shimcha qonun-qoidalarini qo'llash haqida qoidalar» deb ataldi. Bu farmonga ko'ra tub yerli aholi bo'lmagan rus tilida so'zlovchi kelgindi millatlar vakillari umumiy saylovchilar sonidan qat'i nazar har besh viloyatdan bittadan, Toshkentdan va Yettisuvdan kazak qo'shinidan bittadan, jami bo'lib 7 deputatni, mahalliy tub yer aholisi esa umumiy aholi sonidan qat'i nazar viloyatlar va Toshkentdan jami bo'lib 6 deputatni saylashi kerak edi. Ana shu tariqa rus deputat uchun o'rtacha 46 ming, tub yerli yoki o'zbek deputati uchun esa 896 ming saylovchi ovoz berishi kerak edi. Bu



degan soʻz mahalliy xalqning saylov va saylanish huquqi kelgindi rus millati vakillariga qaraganda 20 barobar kamsitildi va bu davlat dumasida mahalliy millatdan saylangan deputatlarning kelgindi rus millati vakillaridan saylangan deputatlarga nisbatan bosimi oshib ketmasligi uchun maxsus oʻylab topilgan yoʻl edi. Turkiston aholisi markazda I davlat dumasini tarqatib yuborilgach, 1907-yil II davlat dumasini saylovlarida qatnashdi. Bu saylov natijasida rus mustamlaka istibdodi tomirlarining tobora chirib borayotganligini koʻrsatdi, shovinist va rusparast deputatlardan birontasi gʻalabaga erisha olmadi. Rusiyazon millatlar vakillaridan saylanishi lozim boʻlgan oʻrinlarni sotsial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), sotsial-inqilobchilar (eserlar) va kadetlar uyushmasi boʻlmish – «taraqqiyparvar saylovchilar» guruhi egalladilar. Mahalliy tub yerli aholi vakillari nomidan Davlat dumasiga Toshkentdan «Jahongir domla» sifatida tanilgan taniqli olim V.P.Nalivkin, ulamo Abdurauf qori Abduvohid Qoriyev, Samarqanddan – savdogar Toshpoʻlat Abduholiqov, Fargʻonadan – savdogar Muhammadjonov, Sirdaryodan – chorvador boy T.Olloberganov, Yettisuvdan – muhandis Muhammadjon Tanishboyev, Kaspiyorti viloyatidan – podpolkovnik Maxtumqulixonlar saylangan edilar.<sup>1</sup>

Asosan tub yerli millat aholisidan iborat boʻlgan qishloq mehnatkashlarining ahvoli shahar aholisiga nisbatan ham achinarli edi. Muhammad Muso Turkistoniy «Ulugʻ Turkiston fojiasi» kitobida qayd qilishicha: «Ruslarning Turkistonga biz madaniyat keltirdik, Turkistonni obod qildik degan iddaolari boʻsh soʻzdan iborat boʻlib qoldi... Xalq faqirlashdi, sindi-sindi koʻpaydi, hamma ish bank va shirkatlarning foydasigʻa hal boʻldi. Masalan, bir kishining bankidan ming (1000) soʻm qarzi bor. Vaqtida toʻlay olmadi. Haftalik oylik oʻsgan foydasi bilan u qarzni uch ming (3000) soʻm boʻlgʻonligi, u bechora qarzdor vafot qilib vorislari toʻlayolmay, nihoyat hovli-joylari, bogʻlari, boʻstonlari sotiladur. Puli bankka toʻlanadur. Bu ishlar ayb boʻlmay elda, yurtida odatlanib, qonunlashib qolgʻoni maʼlumdur.

<sup>1</sup> Bundan keyingi yillarda Turkistonning Davlat Dumasiga saylanish uchun olib borilgan kurash tarixi T.Katyukovning «Oʻzbekiston tarixi» jurnalining 2002-yil 3-sonida eʼlon qilingan «Из истории борьбы за представительство Туркестана в Государственной думе Российской империи» nomli maqolasida yoritilgan.

Yer va suvlarni sotib bankni haqlarini topshirish uchun Rusiya-ning maxsus bir idorasi bordurki, «tanfiz idorasi», deb tarjima qilinsa boʻlur. Paxtadan alamzada boʻlgʻon, qarzdor boʻlib, toʻlay olmogʻon bechora dehqonlar, zamindorlar haqida soʻzlangʻon sheʼrlar ham bor:

*Paxtani koʻp ekishib chiqdi alarni paxtasi  
Gar Egar soldirmasa boshida veksel nuqtasi.  
Paxtaga pul chiqsa, mardum och boʻridek  
Berishin fikr aylamay pishpak-toʻqmoqgʻa qochor.*

Tohir Shokir Labikning «Turkiston paxta xoʻjaligi» kitobida yozishicha, Turkiston dehqonlarining davlat bankidan va boshqa banklardan boʻlgʻon qarzi 1912-yilda bir yuz ellik olti million yetti yuz oʻn ikki ming oltin soʻm boʻlib, shundan Fargʻona dehqonlarining hissasiga tushgani; 51 foiz, yaʼni 80.797000 soʻm oltinni tashkil etgan.

Chor hukumati aholidan olinadigan soliqlarni oshirish hisobidan ham katta daromad orttirar edi. Masalan, soliqlardan kelgan daromad miqdori 1913-yilda 23 million soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 1916-yilda 33,3 million soʻmga yetgan. Bu summa oʻsha vaqt uchun juda katta mablagʻ hisoblanardi, albatta. Masalan, «Turkestanskiy golos» gazetasida 1916-yil oxirida Andijonning eski shahar qismida bir qadaq qoʻy goʻshtining bahosi 20 tiyin boʻlgani holda yangi bozorida esa 25 tiyin boʻlgan. Yer soligʻi 1914-yildagi 6859021 soʻmdan 1916-yilda 14311771 soʻmga yetdi. Bir pud paxta tolasiga 2 soʻm 50 tiyindan qoʻshimcha soliq olish joriy etildi.

Qishloq dehqonlari oddiy mehnat qurollari: belkurak, ketmon, omoch-boʻyinturuq, oʻroq, panshaxa kabilar bilan qurollangan boʻlib, ularning mehnat unumlari nihoyatda past boʻlgan. Ularning aksariyati ot-ulovga ham ega emasdi. Ot-ulovsiz boʻlgan dehqon xoʻjaliklari Sirdaryo viloyatida 20,3 foiz, Samarqand viloyatida 29,6 foiz va Fargʻona viloyatida 41,3 foizni tashkil etgan. Chor maʼmurlari qishloq xoʻjalik texnikasini yetkazib berish, irrigatsiya, melioratsiya ishlari masalalariga mutlaqo eʼtibor bermaganlar. 1910-yilda butun hozirgi Oʻzbekiston hududida hammasi boʻlib 1071 plug boʻlgan, xolos. Mustamlakachi chor

unsurlarining butun diqqat-eʼtibori oʻlkadagi aholi qoʻlidagi boyliklarni har xil yoʻllar bilan shilib olib Rossiyaga tashib ketishga qaratildi. XIX asrning 60-yillaridan to oktabr toʻntarishiga qadar Rossiyadan turli gazlamalar va boshqa mollarning koʻp miqdorda kelib turishi mehnatkash ommaning yanada qattiqroq «shilinishiga» sabab boʻldi. Oʻlkada ming yillardan buyon davom etib kelgan ajoyib hunarmandchilik tarmoqlari, birinchi navbatda toʻqimachilik va boʻyoqchilik tanazzulga uchradi. Chunki oʻzbek paxtasi, ipagidan Rossiyaga olib ketilib ishlangan gazlamalar mahalliy hunarmandlar qoʻlda toʻqigan gazlamalarni ichki va tashqi bozordan siqib chiqargan edi.

Tohir Shokir yuqorida nomi eslatib oʻtilgan kitobida shunday hikoya qiladi: «Turkiston paxtasi uchun Moskovdan pul keladur. Bu toʻgʻri, ammo ruslar paxta uchun kelgʻon pullarni turlik-turlik yoʻllar bilan qaytarib Moskovga olib ketadur. Masalan, oʻt aroba, otash aroba, shayton aroba, ot arobasi, elektrik asboblari, telefon va olovlari, choy, shakar, gazlama, idish-tovoqlar, imorat asboblari, qishloq xoʻjalik asboblari, sanoat moshinalari, maorif ehtiyojlari va shularga oʻxshash zaruriy ashyolarni Rossiyadan keltirib, Turkistonga yogʻdirib, ham paxtaning pulini oladur, ham millatdagi mavjud boyligini shimirib oladurgʻon boʻldi. Bular yetmaganidek ichkilik, qimor, fahsh, sudxoʻrlik yoʻllari bilan xalqning bisotida bor narsalarni shilib oladurgʻon boʻldi. Rossiya insonlarning kundalik hayotida ehtiyoji tushadigʻon zaruriy asbob, ashyo va ziynatlarini boshqa davlatlardan keltirishni man qiladi. Qoʻshni davlatlardan: Eron, Afgʻoniston, Hindiston, Chin (Xitoy)dan keltirishga toʻsqinlik berdi. Faqat hamma narsani ruslar, Rossiyadan keltirib paxtani va boshqa maʼdan pullarni oʻzi qaytarib olib, ekspluatatsiya qilishda hech qusur qilmas boʻldi. Buning ustigʻa, Turkistonga kamyob yana boshqa nav mollarni Rossiyadan keltirib bizlarga sotib qoʻlimizdagi va sanduqlarimizdagi pullarimizni shupurib oladurgʻon boʻldi. Yana Turkistonga madaniyat keltirdik taraqqiysiga sabab boʻldiq deb qilgʻon iddaolari oshiqcha boʻldi».

«Turkiston xabarnomasi» gazetasi bozorlarda narx-navo oshib, xalqning ruhiyati tushganligini yozadi.

Xoʻsh, dastlabki inqilob davrida Turkiston oʻlkasida, aytaylik Kattaqoʻrgʻonda narx-navolar qanday edi? 1905-yangi yilning ilk bozori kuni Kattaqoʻrgʻonda eng zaruriy oziq-ovqat

mahsulotlari tubandagi narxlarda sotilgan ekan: bir botmon (8 kilo) sara bug'doy – 45 tanga (Kattaqo'rg'onda 15 tiyin-bir tanga hisoblangan), bahorgi bug'doy esa 52 tanga, bug'doy uni – 52–56 tanga, arpa, jo'xori, moshlarning bahosi bir xil – 32 tangadan, tariq – 28 tanga, kunjut – 115 tanga, zig'ir urug'i – 60 tanga, shu yerlik kishilarga qarashli zavodlarda ishlab chiqarilgan bir botmon paxta moyi – 22 tanga, «Birodarlashgan Turkiston» zavodidan keltirilgan moy esa 14 tanga, bir qadoq (400 gramm) mol yog'i – 20 tiyin, qo'y yog'i esa 22 tiyin. Mol go'shtining bir qadog'i 8 tiyin, qo'y go'shti – 12 tiyin. Kezi kelganda o'sha paytlari paxtaning bahosi qancha bo'lganligi to'g'risida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz: bir botmon (8 kg) birinchi nav paxtaning naxhi 90–100 tanga, agar chigiti chala pishgan bo'lsa – 50–60 tanga, II–III navlari – 30–40 tanga turarkan. Demak bir kilogramm paxtaning puliga (ya'ni, 187,5 tiyinga) to'rt (4) kg qo'y go'shti, bir yarim tiyinga birorta hammol yollab o'sha masalliqni uygacha ko'tartirib borish mumkin ekan.

«Bozorlar xiyla tushkun ruhda o'tmoqda, dehqonlarning umidlari puchga chiqqanga o'xshaydi. Eng yaxshi xom paxta deyarli ikki barobar arzon narxda sotilmoqda (yaqinda bir botmon paxtaning bahosi–180 tanga edi). Xaridorlarning avji sust, ko'pgina mahsulotlar shu yerlik aholi qo'lida qolib ketyapti».<sup>1</sup>

Ayniqsa, 1914-yilda boshlangan urushni bahona qilib, chor ma'murlari Turkiston xalqlarini behayolarcha taladi, zulmni kuchaytirdi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak gazlama, qurilish materiallarining narxi kun sayin oshib bordi. Masalan, gazlama narxi 300–400 foizga, kiyim-kechak narxi 200–300 foizga, qand narxi 250 foizga, poyabzallar narxi 300–400 foizga ko'tarildi. Farg'ona vodiysida ilgari 50 so'm turadigan otning narxi 100–200 foizga, 5–9 so'mlik qo'ylar narxi 30–35 so'mga oshdi. G'alla va non narxi ancha ko'tarildi. Chunki Rossiyadan Turkistonga g'alla keltirish kamaydi. Natijada rus g'allasiga umid bog'lab nuqul paxta ekan o'zbek dehqoni juda og'ir ahvolga tushib qoldi. Rus g'allasiga ko'z tikkan va unga ishongan Turkiston dehqonlari g'alla ekin maydonlarini keskin qisqartirib paxta ekiladigan maydonlarni haddan ziyod oshirgan edilar. 1901-yilda paxta maydonlari 268013 desyatina bo'lgan bo'lsa, 1916-yilda bu

<sup>1</sup> «Туркистон хабарномаси», 1905 йил, 4 январ.

ko'rsatkich 533671 desyatinaga yetgan edi. Urush yillarida paxtaning bozor narxi oshdi. Bu hol paxta ekuvchi dehqonlarga katta foyda keltirishi mumkin edi. Ammo bu o'rinda ham chor hukumati ustasi faranglik qilib to'qimachilik sanoati egalarining talablariga ko'ra paxta savdosi nazoratini o'z qo'liga oldi va uning bozor narxini 30–31 so'mdan, 24,05 so'mga tushirdi. Bu tadbir mahalliy paxtakorlarga katta zarar keltirgan bo'lsa, rus kapitalistlarining hamyonlarini to'ldirdi. Faqat Tver to'qimachilik sanoati 1913–1914-yillarda paxtaning eski narxidan 1.893.000 so'm foyda qilgan bo'lsa, 1915–1916-yillardagi keltirilgan foyda 9.931.000 so'mga teng bo'ldi. O'lka mehnatkashlari bundan tashqari banklar, firmalar va mahalliy sudxo'rlardan olgan qarzlari orqasidan ham katta zahmat chekib, mushkul ahvolga tushgandi.<sup>1</sup> Bular ham yetmagandek 1915-yil 1-yanvaridan boshlab tub aholidan harbiy xizmatni o'tamaganlari evaziga daromadlaridan qo'shimcha 21 foiz harbiy soliq olish tartibi ham joriy qilindi.

O'lka xalqlarining madaniy ehtiyojlarini qondirish masalasiga umuman panja orasidan qarab kelingan. Bu soha uchun bir kishiga bir yil davomida sarflanadigan mablag' atigi 6 so'm miqdorida bo'lgan, xolos.

Turkiston xalqlarining tibbiy salomatligi hech kimni tashvishga solmagan. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ayanchli va achinarli ahvolda bo'lgan. Bu holni shunday dalildan ham bilish mumkinki, 1913-yilda butun boshli Turkiston hududida 212 tibbiyot xodimi bo'lgan, xolos. Agar Farg'ona vodiysida har 50 ming aholiga bittadan tibbiyot xodimi to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston hududida har bir tibbiyot xodimiga 250 ming kishini tashkil etgan. Shu bois Turkiston aholisi eng qisqa umr ko'rgan va bu yerda turli xildagi yuqumli kasalliklar keng tarqalgan.

Yuqoridagi zikr qilingan sabablarga ko'ra XX asrning boshlarida, xususan 1917-yilgi fevral burjua-demokratik inqilobi arafasida Turkiston o'lkasida g'oyatda keskin ijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan qo'rqib qolgan chor hukumati zo'r berib tub yerli aholini Rossiya davlatiga nisbatan «sodiq» bo'lishiga da'vat etar, ularni «vatanparvarlik» g'oyalari ruhida

<sup>1</sup> Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Русия босқини даврида. Андижон, 1995, 61-бет.

tarbiyalashga intilardi. Chor ma'muriyati davlatga qarshi har qanday xatti-harakatlarni darhol ayovsizlarcha va shafqatsizlik bilan bostirish to'g'risida mahalliy hokimlarga to'g'ridan to'g'ri ko'rgazma berdi. Hatto masjid madrasalarda ham oq podsho hazratlariga hamdu sanolar, unga sog'liq va uzoq umr tilab «xutba»lar o'qishga buyruq berildi.

## **2. O'LKADA DEMOKRATIK VA MILLIY OZODLIK HARAKTLARINING AVJ OLISHI**

Turkiston xalqlari chor Rossiyasi mustamlakachilik istibdodi va zulmiga qarshi o'z erki, ozodligi va mustaqilligi uchun doimo faol kurash olib borganlar. Bu kurash 1905–1907-yillardagi rus burjua-demokratik inqilobi ta'sirida va xususan 1914-yilda boshlanib ketgan jahon urushining xalqqa keltirgan ofatlari, zulm-sitamlari tufayli yanada avj oldi. Birinchi rus inqilobining ta'sirida Turkiston o'lkasining Samarqand, Toshkent, Qizil Arvot, Chorjo'y, Ashxobod, Andijon, Qo'qon kabi shaharlarida ishchilarning chiqishlari, ommaviy ish tashlashlari va mitinglar bo'ldi. Namangan, Andijon, Farg'ona, O'sh uyezdlarining bir qator tumanlari va qishloqlarida ham dehqonlarning g'alayon va harakatlari kuzatilgan.

1911–1913-yilda Farg'ona viloyati axborotlarida berilgan ma'lumotlarga qaraganda «Idora tartibotlariga va jamoa osoyishtaligiga qarshi kurashlar» davomida 1911-yilda 833, 1913-yilda esa 1220 «jinoiy ish» ko'rilgan. Sirdaryo viloyatida esa shunday ayblar bilan 1911-yilda 3487 kishi, 1913-yilda esa 5394 kishi «jinoiy javobgarlik»ka tortilgan. Bu keltirilgan raqamlar mahalliy xalq o'rtasida mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi kurash muttasil o'sib borganligini ko'rsatadi.

Bu davrda xalq ommasining kurash jarayoni shu darajada faollashdiki, hatto chor hukumatining Turkiston o'lkasidagi ishonchli tayanch bo'lgan qo'shinlari o'rtasida ham beqarorlik va norozilik to'lqinlari kuchayib bordi. 1912-yil yozida Turkiston sapyorlarining ko'targan qo'zg'oloni bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. Qo'zg'olon qatnashchilaridan 14 kishi dorga osiladi. 18 kishi umrbod, 62 kishi

15 yildan surgun qilindi va 288 kishi turli muddatlarda qamoq jazosiga hukm etiladi.

1910–1914-yillarda Turkiston oʻlkasida milliy oʻzlikni anglash jarayoni kuchaya boshladi. Mustamlaka maʼmuriyati idoralari 1911-yilda Fargʻona viloyatida «idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurashdan guvohlik beruvchi 833 ta, 1913-yilda 1220 ta «jinoiy ish» qayd etganlar. Sirdaryo viloyatida esa shunday ayblar bilan 1911-yilda 3487 kishi 1913-yilda esa 5494 kishi javobgarlikka tortilgan. Bu raqamlar mahalliy xalq oʻrtasida mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi kurash, muttasil oʻsib borganligini koʻrsatadi.

1914–1916-yillarda chor maʼmurlarining jahon urushi bahonasida milliy mustamlakachilik zulmi va istibdodini kuchaytirganliklari munosabati bilan Turkiston xalqlari yanada faolroq kurashga tortilganlar. 1914-yilning kuzida Sulyukta koʻmir konlari ishchilari, Yettisuv temiryoʻllari xodimlari va Andijon paxta zavodi ishchilari 1916-yilda Toshkent va Qizil Arvot temiryoʻl paravoz taʼmirlash korxonalarini xizmatchilarining ish tashlash harakatlari Turkistonda kuchli ommaviy larzalar yaqinlashib kelayotganligidan darak berardi.

### 3. JADIDCHILIK HARAKATI<sup>1</sup>

*«Asrimiz boshlarida jadidlarning oʻz hisobidan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, roʻznomalar tashkil etganliklarini, darsliklar, qoʻllanmalar nashr qilganliklarini, ularni Turkiston bolalariga bepul tarqatganliklarini eslaylik».*

**Islom Karimov.**

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloq yoyib

<sup>1</sup> Jadidchilik mohiyatining yangicha talqini. B. Qosimov, O. Sharafigididinov, A. Axmedov, A. Aliyev, X. Ziye'ev, N. Karimov, D. Alimova, Sh. Turdiyev, X. Sodikov, Q. Rажapova, Sh. Rizaev, P. Shamсутдинov каби олимларнинг катор асар ва маколаларида, Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. («Шарк» Т., 2000); Ахмедов С. Ражабов Қ. Жадидчилик. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси (Т.3. Тошкент, 2002) каби тадқиқотларда ўз аксини топган.



rivojlandi. «Jadid» soʻzi arabcha yangi usul degan maʼnoni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-maʼrifiy harakatning, yaʼni eski maktablarning qiyin oʻqitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida oʻqitishga oʻtishdangina iborat emasdi, ayni chogʻda turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga oʻrgatilishi, milliy-maʼrifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham oʻz ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida Oʻrta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloq yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining taʼsiri katta boʻldi.

XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hamda demokratik harakat jarayoni asosan ikki yoʻnalishda rivojlanib borgan. Birinchi yoʻnalish chor Rossiyasiga qarshi kurashni turlicha gʻoya va yoʻnalishlarda olib borish maqsadida Rossiyaning oʻzida vujudga kelgan sotsial-demokratik kadetlar, eserlar va boshqa siyosiy partiyalarning vakillari edilar. Hali bu guruhlar vakillari hatto oktabr toʻntarilishiga qadar ham oʻlkada siyosiy partiya oʻlaroq uyushib shakllanmagan edilar. Chunki ular oz sonli va asosan kelgindi rusiy zamon millatlarning vakillaridan iborat boʻlganlar. Mahalliy xalq bu siyosiy guruhlarining birortasiga ham ommaviy surʼatda ergashmagan, ularni qoʻllab-quvvatlamagan, bu guruhlariga aʼzo boʻlib kirmaganlar. Chunki, mahalliy xalq tili boshqa, dini, urf-odati boshqa boʻlgan rusiyzamon millatlarga yotsirab, begonasirab, ularni gʻayridin-kofirlar deb, bosqinchi-mustamlakachilar deb qaraganlar. Bu siyosiy guruhlarining dastur maqsadlari, taktik kurash usullari mahalliy xalq gʻoyasi va saviyasidan yiroq boʻlgan, ular bu dastur maqsadlar mohiyatini chuqur tushunib yetmaganlar va ularni qabul qilmaganlar.

Hali oktabr toʻntarishi yuz bermagan 1917-yil yozidayoq bir guruh andijonlik jadidlar bolsheviklar, mensheviklar, eserlarga xat yoʻllab, ularning gʻoya va dasturlarini Turkiston musulmon xalqi oʻzlariga singdira olmasliklarini bayon qilgan edilar. «Sizning va bizning hayot tarzimiz bir-biriga sira toʻgʻri kelmaydi, – deyiladi oʻsha xatda. – Shuning uchun kelguvsi davlatchilik hayotini birdaniga umum bir qolipga solish kerak emas. Umum qolip andozani bu yerda qoʻllab boʻlmaydi ... Bizda sizning sof rus-

cha ma'nodagi dehqonlar yo'q. G'arbiy Yevropacha ma'nodagi fermerlar va ijarachilar yo'q. Bizda erkin dehqon yashaydi. Ular hech qachon, hech qanday sharoitda krepostnoy qarolgina emas va balki ijarachi fermer ham bo'lmagan, erkin mulkdor bo'lib kelgan. Muqaddas islom bizni hech qanday tabaqalarga va sinflarga bo'lmagan. Shuning uchun ham bizda sinfiy kurash uchun asos yo'qdir. Zotan, barcha musulmonlar, ular xoh fuqaro, xoh mulkdor bo'lishidan qat'iy nazar teng huquqlidirlar».<sup>1</sup>

Sotsial-demokratlarda birlik bo'lmagan, ular ikki guruhga bo'lingan edilar. Bir guruhi bolsheviklar, ikkinchi guruhi esa mensheviklar deb atalgan. Ular bir-birlarini inkor etganlar. O'lkada proletariat-ishchilar hali sinf sifatida shakllanmagan edi. Asr boshida Turkistonda jami bo'lib 34 ming ishchi bo'lgan, xolos. U ham bo'lsa asosan kichik-kichik korxonalar va temiryo'llarda ishlaydigan xodimlar edilar. Xorazm, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda ishchilar umuman bo'lmagan desa ham bo'ladi. Shu bois Turkiston o'lkasida marksizm-leninizmning yorqin ko'zga tashlanadigan bironta otashin vakili mahalliy xalq orasidan umuman yetishib chiqmagan. Bas shunday ekan, marksizm-leninizm bayrog'i ostida Turkiston xalqlari inqilobiy harakatlarni amalga oshirdilar, deyishning o'zi mantiqsizlikdir. Bunday harakatlarni sabablar va taqdirlar bilan o'lkaga kelgan rusiy zabon millatlar vakillari amalga oshirganlar.

Ikkinchi yo'nalish Turkiston o'lkasida islom g'oyasi birliги va jadidchilik harakati bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatdi. Bu harakat o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy faoliyatda asosiy kuch bo'lib mahalliy xalqlarning ongli qismi ularga ergashib borgan. Islom g'oyasi tarafdorlari va jadidchilar faoliyatida Rossiya ma'murlari o'zlarining asosiy raqiblarini ko'rganlar va ularga qarshi keskin kurash olib borganlar. Chor ma'murlari bu kurashni «panturkizm» («turkparastlik») va «panislomizm» («islomparastlik») deb atalmish ataylab o'ylab chiqilgan g'oyalar asosida olib borganlar. Jadidlar harakatidagi asosiy va bosh g'oya milliy istiqlol, Turkistonda davlat mustaqilligi uchun kurash, turkiy xalqlar birligidan iborat bo'lgan.

<sup>1</sup> «Ўзбекистон овози», 1996 йил, 24 феврал.

Shu boisdan ham Turkiston xalqlari birinchi jahon urushi arafasi va yillarida Rossiya davlati tarkibida bo'lsalarda qardoshlik va diniy qarashlardan yaqin bo'lgan Turkiyani qo'llab-quvvatladilar, unga har tomonlama yordamlar uyushtirdilar. Chor ma'murlari Turkiston xalqlarining Turkiya, Afg'oniston, Eron va boshqa musulmon mamlakatlari bilan aloqalaridan o'lgudek qo'rqanlar va o'z ayg'oqchilari yordamida bu munosabatlarni o'ta ziyraklik bilan kuzatib borganlar. Ular Turkistondagi har bir voqea, milliy ozodlik harakatida musulmon davlatlari qo'lini ko'rganlar va uni oldini olish choralari ishlab chiqqanlar. Masalan, Rossiya siyosiy razvedkasi va maxfiy politsiyasi bo'lgan Turkiston tuman muhofazasi bo'limi (TTMB) arxivida Turkiyaga xayrixoh ish ko'rayotgan o'zbek boylari va ziyolilari faoliyatiga oid ko'plab ayg'oqchilik ma'lumotlari saqlangan. TTMBning «O'ttizinchi», «Keldi», «Qori», «Turk», «Afandi» laqabidagi ayg'oqchilari maxsus ish bilan band bo'lgan. Shulardan ayrimlarini keltiramiz:

1912-yil 23-oktabr «O'ttizinchi» axboroti:

– Toshkentdagi sartlardan biri menga aytishicha, musulmonlarning bari turklarning urushdagi (Serbiya bilan) mag'lubiyatlaridan xafa bo'lmoqdalar. Turkiston musulmonlari o'rtasida Turkiyaga yordam berish uchun xayriya to'plash kuchaygan. Toshkent yaqinidan 40 ming so'm jo'natilgan. Buxorodan ham pullar kelgan. Ularning hammasi ziyoratchilar orqali jo'natilmoqda.

1913-yil 19-aprel. «O'ttizinchi» axboroti:

– Qo'qonda Turkiya foydasiga pul to'planmoqda. O'tgan yili sentabrda 23000 so'm jo'natilgan. Hozir esa 16 ming so'm yig'ilgan. Ular mahalliy boylardan Solixjon Muhammadjonovda saqlanadi... Qo'qonda qandaydir sartdan qurol-yarog' transporti musodara qilingan. Bu qurol-yarog' Qo'qon stansiyasiga qand shaklida jo'natilgan.

1916-yil 10 sentabr. «Afandi», «Turk» va «Keldi» axborotlaridan parcha:

– Andijon tumanidagi Asaka qishlog'ida toshkentlik boy sart Said Qosim Ahmadboyev yashaydi. Katta do'koni va ancha yeri bor. U ko'pdan beri Turkiya bilan aloqada. Har yili

unga paxta olib keluvchi aravakashlardan u Turkiyaga yordam uchun maxsus soliq oladi. Boyning yillik harakatdagi sarmoyasi 300000 soʻm. Uning 25 qishloqda yeri 14 aravakashi bor. Andijonlik sarmoyador Mirkomil Mirmoʻminboyev ham Turkiyaga yordam berganlikda, urushda Turkiyaning gʻalabaga erishuviga ishonib targʻibot olib borganlikda ayblanib chor maʼmurlari tomonidan tergov qilingani haqida arxiv hujjatlari shohidlik berib turibdi.

Turkiston harbiy okrugi shtabi kontrrazvedka boʻlimi boshligʻi, alohida jandarmlar korpusi podpolkovnigi Prigora va TTMB boshligʻi polkovnik Volkov oʻrtasida 1914–1916-yillardagi yozishmalarda asosiy mavzu «Turk josuslari» haqida borgan. Ular fors fuqarosi Abbas Ali oʻgʻlini turk josusi Ahmad afandi deb hisoblab qamashgan. Uzoq tergovdan soʻng 1917-yil 22-fevralda siyosiy idoralar uning chindan ham fors fuqarosi Abbas oʻgʻli ekanini aniqlashdi. Shu birgina odam haqidagi tergov materiallari 89 betni tashkil qilgan.

Turkistonda jadidchilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Maʼlumki, Yevropa XVIII–XIX asrlarda oʻz boshidan texnika taraqqiyotini kechirib, XX asr madaniyati va turmushi uchun mustahkam poydevor yaratilgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston esa bu sohada orqada qolib ketgandi. Uchta oʻzbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qoʻqon)ning oʻzaro birodarkushlik urush va nizolari, Rossiyaning bu davlatlarga bostirib kirishi, mintaqaning mustamlaka holatiga tushib qolishi, mustamlakachilik milliy zulmning oʻrnatilishi va uning kuchayib ketishi oʻsha qoloqlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi.

Qoloqlik va jaholatni, oʻlka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketgani, islom va shariat oyoq osti qilingani va bunday ogʻir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida oʻz zamonasining ilgʻor, ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo boʻla boshladi. Ijtimoiy uyqudan uygʻonish, milliy uygʻonish tarixiy zaruriyat boʻlib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va

ehtiyojlariga javob tariqasida obyektiv ravishda maydonga kel-di. O'lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojjali, og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllanadi.

Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi.

Ayniqsa, Turkiya sultoni Abdulhamid II davrida (1876–1909) mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan islohotlar, qabul qilingan qator qonunlar va ularning hayotga tatbiq etilishi Turkiston xalqlari uchun ham ahamiyatli edi. Turkiyadagi progressiv islohotlar, Yevropa madaniyati va turmush tarzini mamlakatda keng omillashuviga olib keladi. Bu ijobiy tendensiya Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuningdek XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va «Tarjimon» jaridasi (1883-yildan Qrimda chiqqan) tashkilotchisi Ismoil Gaspiralinining faoliyati ham Turkiston jadidlariga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan. Uning jadidchilik faoliyati butun Sharqda, jumladan, Turkistonda mashhur bo'lib ketgandi. Ismoil Gaspirali Turkistonda bo'lgan va o'zining o'tkir asarlari bilan o'lka jadidlarining dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, yangi usul maktablarining vujudga kelishida turtki, namuna bo'lgan.

Bu vaqtda Turkistondan, Xiva xonligidan, Buxoro amirligidan Turkiyaga borib tahsil ko'rayotgan ko'plab ziyolilar, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, ilg'or Yevropa turmush tarzi, texnika taraqqiyoti, madaniyati, ma'rifatidan ta'sirlanish, unga havas bilan qarash, o'z vatanlarida ham bu kabi o'zgarishlar bo'lishini qo'msash his-tuyg'ulari uyg'ona boshlaydi.

1889-yilda «Ittihod va taraqqiyot» nomli hurriyatparvar jamiyatlar butun Turkiya bo'ylab maydonga keladi.<sup>1</sup> Turkiyada

<sup>1</sup> *Qarang:* Ражабов Қ. «Иттиход ва тараккий». «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». Т., 2002, IV жилд. 292-бет.

tahsil koʻrayotgan turkistonlik ziyolilar oʻz vatanlariga qaytib ona yurtlarida ham oʻshanday «Ittihad va taraqqiyot» jamiyatlarini tashkil etganlar.

Sobiq Ittifoq tashqi ishlar ministrligi huzuridagi SSSR tashqi siyosati arxivida, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati arxivida Turkiston «Ittihad va taraqqiyot»chilari haqida koʻplab manbalar saqlanib qolgan. Jadidchilik harakati faollaridan biri, keyinchalik shoʻrolarga aldangan va rahbarlik lavozimlarida xizmat qilgan, 30-yillar boshida qatagʻon boʻlgan



**Sa'dullaxo'ja  
Tursunxo'jayev**

Akbar Boytursunovich Oʻrazaliyev 1925-yil 6-iyulda Moskvada Xitoyga diplomatik xizmatga ketish oldidan shaxsiy varaqasidagi «Oʻtmishda qanday partiyaga mansub edingiz?» degan anketa savoliga shunday javob yozgan: 1914-yildan 1917-yilgacha yosh oʻzbeklarning «Ittihad va taraqqiyot» yashirin tashkiloti aʼzosi boʻlganman»<sup>1</sup>. Mahbus Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev 1937-yil 1-avgustda tergovchining «Siz millatchi aksilinqilobiy tashkilotlar rahbari sifatida hibsga olingansiz? Shu ayb mazmuni bo'yicha ko'rsatma bering?» – degan savoliga shunday javob qilgan: «Ha, men aksilinqilobiy, millatchi tashkilotlarga rahbar boʻlganman. Millatchilik faoliyatimni 1905–1906-yillardagi «Taraqqiyparvar» nomli burjua millatchi tashkilotidan boshlaganman. 1912-yildan boshlab Andijon shahridagi bu tashkilotning rahbarlaridan biri boʻlganman...»<sup>2</sup>. Aftidan, qiynoq va azob berishlar mahbusni avvalgi faoliyatidagi voqealarni eʼtirof etishga majbur qilgan boʻlsa kerak.

<sup>1</sup> Шамсутдинов Рустамбек. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон, «Мерос», 1994, 47-бет.

<sup>2</sup> ЎзР МХХА, П-22407-иш, 14–17-варақлар.

## Mulohaza uchun axborot

«Azizim Ozodjon!

Cho'lpon akaning Andijonda inqilobga dovur ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy faoliyati haqidagi materialni iltimosingizga ko'ra, sizga yubordim. Bu tarixiy haqqoniy material mening qo'limga yaqinda tushdi va meni qattiq hayratga va hayajonga soldi.



Cho'lpon

Bu tarixiy hujjat menga Cho'lpon aka bilan mening qarindoshlarim va yaqinlarim o'rtalarida bo'lgan mustahkam, uzilmas do'stlik rishtalarining siru asrorini ochib berdi. Andijonda chorizmga qarshi yashirin siyosiy jamiyat «Gap» bo'lib, uning faol tashkilotchilaridan biri Abdulhamid Sulaymon (Cho'lpon) ekan. Tazkirada nomi shariflari zikr etilgan taraqqiyparvar zotlardan boshqa bu «gap» degan nomi bilan ish ko'rgan jamiyatga yana bir qancha ziyolilar, chunonchi: mening qarindoshlarim-pochchalarim Muhammadjon hoji, Hakimjon (Ma'ruf Hakimning otasi), Olimxon,

Yaqub Sarkarovlar va ularning birgalikda rus-tuzem maktabida o'qigan qadrdon do'stlari Salohiddin Ashuraliyev... Qalandar Devonaboyev, Rahmatillo Sultonov (Cho'lpon bu kishi vafot etganda unga bag'ishlab marsiya yozgan edi)...

Demak shoir Cho'lpon faqat zulmga qarshi she'r yozish bilan cheklanmagan, og'ir kishanlarni, baland dorlarni, sovuq va uzoq Sibir azoblarini ham pisand qilmagan mard, fidokor shoir ekan. Binobarin, Cho'lpon aka haqidagi kitobingizga uning yigitlik chog'ida Andijonda ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga 4-5 sahifa bag'ishlasangiz g'oyatda zo'r savob ish qilgan bo'larmidingiz... Yana o'zingiz bilasiz...

Fikr-mulohazangizni aytursiz, degan umiddaman.

Kamoli ehtirom bilan: Sizning Komil Yashin».<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Qarang: «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1999 йил, 25 июн.



Taniqli adabiyotshunos olim, Oʻzbekiston Qahramoni Ozod Sharafuddinov: «Mazkur maktubni oʻqib chiqqan har bir adabiyot ixlosmandi hayajonga tushmasdan qolmaydi. Chunki unda biz uchun gʻoyatda qimmatli, gʻoyatda muhim maʼlumotlar bor. Buni qarangi, Choʻlpon 1914–1915-yillardayoq yaʼni 17–18 yasharligidan boshlab mustabid chorizm zulmiga qarshi kurashga qoʻshilgan, uning tevaragida esa, oʻsha davrdagi Andijondagi yetuk ziyolilardan bir qanchasi boʻlgan ekan»<sup>1</sup>.

### **Zakiy Validiy Toʻgʻonning esdaligidan:**

«...Turkistonda tanishgan shaxslar orasida Nazir Toʻraqulov bilan Abdulhamid Sulaymon (Choʻlpon) menga alohida yaqin doʻst boʻldilar... Keyinroq oʻzbeklarning eng buyuk shoiriga aylangan Choʻlpon oʻsha vaqtda 15 yoshlarda boʻlgan boʻlsa kerak. Menga tarix kitobimni oʻqib, ilhomlanganligi va fikrdoshlik qilishimni aytib, xat yozdi. Andijonga uylariga mehmonga taklif qildi... Buyuk oʻzbek shoirining oʻzi bilan ham, uning mehmondoʻst otasi bilan ham tanishib oldik... Sulaymon aka bilan xayrlashdik, u kishining menga qilgan sovgʻalarini onamga olib bordim...»<sup>2</sup>.

Choʻlpon 1914-yildan Qoʻqonda «Sadoi Fargʻona» nomi bilan chiqayotgan jadid gazetasining Andijondagi obunachi va eʼlon qabul qiladigan vakili boʻlganligi gazeta sahifalarida qayd etilgan. Choʻlpon bilan birmuncha vaqt birga ishlagan Ahmad Zakiy Validiyning guvohlik berishicha, boʻlgʻusi shoir 1913-yildayoq Turk tarixiga doir asarlarni oʻqib chiqqan, soʻngra «Turk yurdi» va «Sayra» kabi turkchilik nashrlarini kuzatar ekan»<sup>3</sup>.

Oʻzbek maʼrifatchiligining toʻngʻich boʻgʻiniga mansub mashhur murabbiy va jurnalist Moʻminjon Muhammadjonov 1916-yilda Choʻlpon bilan ilk bor uchrashgani xususida shunday yozgan:

«Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha oʻqir edi.

<sup>1</sup> Oʻsha joyda.

<sup>2</sup> *Закій Валідій Тўгон*. Хотиралар. «Шарк юлдузи», 1993 йил, 5–6-сонлари.

<sup>3</sup> Oʻsha joyda.



**Ahmad Zakiy Validiy To'g'on**

muallimlik qilgan, «Turkestanskiy golos» gazetasida ishlagan. «Bu gazeta, – deb yozgan Usmonxon keyinchalik – butun Turkistonda o'zining inqilobiy yo'nalishi jihatidan yagona gazeta edi. Uning muharriri Turkistonda tanilgan sotsialist-revolutsioner Vadim Chaykin edi»<sup>2</sup>.

Fozilbek Otabek qozi o'g'li (1886–1938). Madrasani, rus-tuzem maktabini bitirgan, faol jadidchi. «Rossiya telegraf agentligi» (ROSTA) Turkiston bo'limi, Andijon shu'basini mudiri bo'lib xizmat qilgan. O'zbek italyan, fors tillarini bilgan, mohir publitsist, tarjimon, olim.

Akbar O'razaliyev (1890–1937) faol taraqqiyparvarchilardan. Uning 1917-yil 24-fevralda Turkiston general-gubernatori A.N.Kuropatkinga yozgan arizasida shunday satrlar bor: «... 1914-yilning 6-iyunida Andijon shahrida mahalliy havaskor sart yoshlari tomonidan ko'ngilochar kecha tashkil qilindi. Unda sart tilida Mahmudxo'ja Behbudiy yozgan «Padarkush» nomli pyesa ham qo'yilgan. Pyesa o'z mazmuniga ko'ra ibratli edi. Hozirgi zamon sartlari jamiyatning ma'naviy tushkunligini ochib bergan. Shu kechada to'plangan mablag'ning bir qis-

Tatariston, Ozarboyjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qir edi»<sup>1</sup>. Andijondagi «Taraqqiyparvarlar», «Padarkushchilar», «Gap»chilar nomi ostida faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy jamiyatga mansub yoshlar safida Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li, Fozilbek Otabek qozi o'g'li, Akbar O'razaliyevlar bo'lgan. Usmon Eshonxo'ja o'g'li (1899–1937) Andijonning yangi shahridagi rus-tuzem maktabini, oliy boshlang'ish bilim yurtini, erlar gimnaziyasini bitirgan,

<sup>1</sup> *Муҳаммадҷонов Мўминҷон*. Турмуш уринишлари. Т., 1964, 130-бет.

<sup>2</sup> *Шамсутдинов Рустамбек*. Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. Т., «Шарқ», 2001, 238–375-бетлар.

mi Andijondagi erkaklar progimnaziyasi foydasiga, qolgan qismi esa koʻngilochar boshqa muassasalar foydasiga sarflangan. Bu kechani oʻtkazish uchun mahalliy rus hukumatining roziligi olingan. Bu pyesani sevib, uni oʻynaganlardan biri men edim...»<sup>1</sup>.

Bu oʻrinda Andijondagi «Taraqqiyparvarlar»ning tahsinga sazovor tashabbuslaridan birini eslash ham joizdir, 1917-yilning 19-fevralida shahardagi mahalliy jamoat arboblari, maʼrifatparvar tashkilotlar vakillari, jadidlarning Fargʻona vodiysida zamonaviy institut ochishga bagʻishlangan yigʻilishi boʻladi. Yigʻilish kech-qurun yetti yarimda boshlanib tungi 3 gasha davom etadi. P.M.Turniyeyev, P.N.Sheremetyevskiy, V.A. Chaykin va boshqa koʻplab notiqalar oʻz soʻzlarida Fargʻona oliy texnika maktabi ochish zarurligini har jihatdan asoslab beradilar. Soat 11 ga borib jamoat tashkilotlari va ayrim shaxslardan institut ochish uchun 40 000 soʻmlik hayriya jamgʻarmasi tashkil boʻladi. Bu jamgʻarma tarkibida koʻplab taraqqiyparvarlar boʻlgan. Maʼrifat havaskorlari jamiyati 5000 soʻm, millioner boy, jadid Ahmadbek hoji Temurbekov 25000 soʻm hadya etadi. «Sahovatli boy, oʻzbek milliy sarmoyadorlarining tipik vakili Ahmadbek hoji keyin yana koʻp mablagʻ ajratishga vaʼda qiladi... Yigʻilishda institut ochishni hal etish ushun 15 nafar aʼzodan iborat tashkiliy qoʻmita saylanadi... Xuddi shunday tashkiliy qoʻmitalar, institut ochish hayriya fondlari vodiyning Qoʻqon, Namangan, Oʻsh, Skobelev shaharlarida ham tashkil etilib, ularda jamiyatlar xizmati katta boʻladi»<sup>2</sup>. Oʻzbek maʼrifatparvarlari qudratli guruhining faoliyati haqida rus mahfiy politsiyasi TTMB katta maʼlumot toʻplagan edi. U Turkiston yoshlarining Turkiya bilan aloqasidan choʻchigan va yosh turklar taʼsirini yoʻqotish choralarini izlagan. TTMB arxivida Mirza Ahmad Qushbegiyevning «Taraqqiyparvarlar jamiyati gʻoyalari ocherki» deb nomlangan maʼlumotnomasi bu jihatdan diqqatga sazovordir. «Taraqqiyparvarlar» jamiyatining bosh gʻoyasi, – deb yozgan A. Qushbegiyev, – yosh turklar taraqqiyotiga taqlid etishdir. Ularning rejasi xalqqa siyosiy va ichki erkinlik berish. Ular aholi oʻrtasida oʻz eʼtiborlarini siyosat va din zaminidagi harakatlari bilan amalga oshirishni rejalash-

<sup>1</sup> Oʻsha asar, 226–261–betlar.

<sup>2</sup> «Туркестанский голос», 1917, февраль.



### Andijonlik «taraqqiyparvarlar»

tirishgan. Ular o'zlarini xalqni rus va mahalliy ma'muriyat zulmidan xalos etishga qaratilgan siyosatni olib boruvchilar qilib ko'rsatishga intilishadi, rus tili va ma'lumotini egallagan va rus elementlari doirasida yuruvchi yoshlarning ko'pchiligi ularga xayrixoh va g'oyalarini tarqatishda yaqindan yordamlashadi»<sup>1</sup>.

TTMB turklarga xayrixoh yoshlar safidan eng xavfli deb Munavvar Qoridan so'ng uning do'sti Ubaydulla Asadulaxo'jayevni bilgan va uni tezda ro'yxatga olgan. U maxfiy ayg'oqchi ta'rificha, «rus tili va ma'lumotini egallagan yoshlardan» edi. Toshkent eski shaharining «Qoryog'di» mahallasida bog'bon Asadulla Mahsum oilasida dunyoga kelgan Ubaydullaxo'ja rus-tuzem maktabini bitirgach, kelishtiruvchi sudya idorasida til-moch sifatida faoliyatini boshlagan. Uning uquvligi, aql-idroki va bilimga chanqoqligi sudya e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Saratov shahriga jo'nashga to'g'ri kelganda Ubaydullani ham o'zi bilan olib ketib, unga ustoz bo'lishining sababi ham shu edi. Saratovda u adliya bo'yicha mutaxassislikni o'rganib, ham nazariy, ham

<sup>1</sup> ЎЗР МДА, 461-фонд, 1-рўйхат, 1968-иш, 13-варақ.

amaliy bilimlarni egallaydi. Oʻsha yillarda u rus inqilobiy gʻoyalariga qiziqib, eserlar bilan yaqinlashadi. Ubaydullaxoʻja 1909-yilda Lev Tolstoyga xat yozgani va uning taʼlimoti haqida oʻz fikr-mulohazalarini bildirgani diqqatga sazovor. Buyuk adibning yosh oʻzbek yigiti maktubiga javob yozib, Saratovga yoʻllagani ham Ubaydullaning aql-zakovati ulugʻ yozuvchi eʼtiborini jalb qilganidan dalolat beradi. U sotsial-demokrat, eserlar dasturi bilan tanishadi va oʻz dunyoqarashini shakllantirishda ularning tajribasidan foydalanadi<sup>1</sup>.

Bunday yashirin tashkilotlar Turkistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qoʻqon, Andijon kabi shaharlarida faoliyat koʻrsatib, mahalliy aholi orasida katta taʼsir kuchiga ega edi. Bu tashkilotlar «Taraqqiyparvarlar», «Padarkushchilar», «Yosh oʻzbeklar», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» nomlari bilan el-yurt orasida mashhur boʻlib ketgan edi. Bu tashkilotlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oldilar<sup>2</sup>.

Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asr boshlaridayoq milliy-ozodlik bayrogʻini baland koʻtarib, milliy kuchlar birligini taʼminlash borasida salmoqli faoliyat koʻrsata boshlagan Turkiston jadidlari jahon jamoatchiligi eʼtiborini oʻziga jalb qildi. 1906-yilning bahorida Fransiya respublikasi bosh shtabi ikkinchi byurosi (harbiy razvedka) topshirigʻi bilan mayor Lyakost ikki yil davomida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan yaqindan tanishadi. U oʻzining kuzatishlarini hisobot tarzida «Komitet Asiya Fransays» nomli jurnalda chop etadi. Maqola Yevropada katta qiziqish uygʻotadi. Bu maqolada Turkiston general-



**Ubaydullaxoʻja  
Asadullaxoʻjayev**

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. 274–275-бетлар.

<sup>2</sup> Qarang: Ражабов Қ. Ёш бухороликлар. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 3-жилд. Т., 2002, 494–496-бетлар; Ражабов Қ. Ёш хиваликлар. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 3-жилд. Т., 2002, 498–500-бетлар.

gubernatorligi hududidagi ijtimoiy-siyosiy kuchlar va partiyalar faoliyati sharhlab berilgan edi. E'tiborli tomoni shundaki, fransuz razvedkachisining o'tkir nigohi bilan Turkistonda qaysi partiya, qaysi siyosiy oqim kuchli ekani shunday aniqlab berildi-ki, bu hol rus siyosiy politsiyasini g'oyat jiddiy tashvishga soladi. Mayor Lyakost Turkiston o'lkasidagi eng e'tiborli va kelajagi porloq tashkilot sifatida sotsial-demokratlar (bolshevik va mensheviklar), yoki sotsialist-inqilobchilar (so'l va o'ng eserlar), yo kadet va liberallar emas, balki yosh sartlar (rasmiy idoralar Turkiston jadidlarini yosh turklarga qiyoslab «Yosh sartlar» deb atashgan) degan xulosaga kelgan edi.

Razvetkachi Turkistonda jadidlar ta'siri kuchli bo'lgan o'z firqasiga ega ekani va u 1906-yilning yanvarida Sankt-Peterburgga, Umumrusiya musulmonlarining qurultoyga vakil yuborganini ta'kidlab, bu firqa xuddi Qozon tatarlari kabi o'zining milliy dasturiga ega ekanligi va rus istibdodiga jiddiy zarba berishi mumkinligiga ishora qilgan edi<sup>1</sup>.

Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgan bir paytda ham «Yosh sartlar», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» partiyalari komfirqa arboblari tomonidan tilga olinib ijobiy baholangan edi. Mosqquadan kelgan vakil P.A.Kobezev 1918-yili Lenin va Sverdlovga yo'llagan xatida «1917 yil inqilobiga qadar Turkistonda «Yosh sartlar», Buxoroda «Yosh buxoroliklar», Xivada «Yosh xivaliklar» firqalari faoliyatda bo'lganligi, ularning a'zolari esa katta mablag' yevropacha ma'lumotga ega ekanliklari, hamma shaharlarda bunday to'garaklar ishlab turgani»<sup>2</sup> ni yozgan.

«Yosh Xivaliklar» partiyasini shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning faoliyatidagi faktik o'garishlar, umuman «Yosh xivaliklar» haqidagi yangicha talqinlar N.T.Polvonovning nomzodlik dissertatsiyasida o'z ifodasini topgan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. 264–265 бетлар.

<sup>2</sup> Шамсутдинов Рустамбек. Жадидчилик ҳаракати: ҳақиқат ва уйдирма. «Мулоқот», 1996 йил, 11–12 сонлар.

<sup>3</sup> Полвонов Нейматжон Тўраевич. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924 йиллар). номзод. дис. Автореферати. Т., 2005; Ўша муаллиф. «Ёш хиваликлар» партияси тарихини ўрганишда Полвоннӣз Ҳожи Юсупов хотираларининг аҳамияти. ЎЗМУ хабарлари, 2000. № 4. 49–53-бетлар ва б.



Turkiyadagi «Ittihad va taraqqiyot»chilardan Turkistondagi «Ittihad va taraqqiyot»chilarning (taraqqiyparvarlarning – *mu-all.*) afzallik tamonlari bor edi. Ularda kosmopolitik gʻoya yoʻq boʻlib, rus imperalizimiga va uning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurash gʻoyasi va mafkurasi kuchli edi. Hatto 1905-yilgi rus inqilobi va 1908-yilgi Turkiya inqilobida imperializm va mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish goʻyasi yoʻq edi.

Birinchi rus inqilobi va 1917-yilgi oktabr toʻntarishi Turkiyada jadidchilik harakatida imperalizimning ziddiyatlarini keskin kuchaytirib yubordi. Shu bois Turkistonda chor Rossiyasi va uning mustamlakachiligiga qarshi kurashda jadidlar bilan rus demokratlari oʻrtasida hamkorlik, hamjihatlik ham tarkib topgan edi<sup>1</sup>.

Jadidlar Buxoro amirligi va xiva xonligida xon va amirni oʻz gʻoya va maslaklariga topshirishga harakat qiladilar. Buxoro jadidlari 1900-yil boshida amirdan yangi uslubdagi maktablar ochishga ruxsat olishga muvaffaq boʻladilar. Ammo bunday yangi usul maktablarining ochilishi Rossiya manfaatiga zid edi, shu amir jadidlarning siquv ostiga oladi. Rossiya barcha imkoniyatlarni ishga solib jadidlar, umuman, Oʻrta Osiyo bilan musulmon mamlakatlari, xususan, Turkiya bilan boʻladigan har qanday bordi-keldi aloqalarning oldini olishga birinchi darajali eʼtibor beradi. Oʻzbekiston davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan qimmatli manbalarning guvohlik berishicha, chor maʼmuriyati mustamlaka chegaralarida har bir harakatning oʻzining iskovich aygʻoqchilari yordamida kuzatib borar edi. «Tatar oʻqituvchilari sart aholisini yangi usulda oʻqitish uchun Toshkent shahri atroflariga ham kelmoqdalar. Mʼalumki, 1912-yilda uchta erkak va bitta ayol oʻqituvchi kelgan edi. Oʻqituvchi xonim Chinozda yashar edi, hozir ham oʻsha yerda yashasa kerak. Uning ismi Bibi Maryam, qolgan ikkitasi esa Piskent viloyatida yashaydi». «Fargʻona viloyatiga 1912-yilda Orenburg va Ufadan 8 oʻqituvchi kelgan edi».

1914-yil 10-yanvarda Turkiston tuman qoʻriq boʻlimiga shunday xabar keladi: «Oʻtgan yil dekabr oyining soʻngqi kun-

<sup>1</sup> Bu haqida qarang: Хамдам Сидиков, Рустамжон Шамсутдинов, Поён Равшанов. Жади́длар ва рус демократлари. «Ўзбекистон овози», 1997, 18, 20, 23, 25, 30 декабр сонлари.



larida Eski Buxoroga Konstantinopoldan (Istanbuldan – muall.) tuzemets Shayx ali Aslan keldi, bir kecha qozi kalonning (bosh sudya) uyida tunadi va qozi kalon o‘z ukasi Maqsumjonnikiga jo‘natib yubordi... shayx ali Aslan Turkiyadan Buxoro musulmonlarini birlashish va ruslarga qarshi ko‘tarilish uchun tashviqot qilishga yuborilgan».

1914-yil 2-martda Jandarmediya alohida bo‘limning rotmistri Prigoraning bergan ma‘lumotida, «Eski Buxoroda keyingi paytlarda Konstantinopoldan juda ko‘p kitoblar olindi, ular omma o‘rtasida keng tarqatilmogda va bu kitoblar musulmonlarni xristiyanlarga, ruslarga qarshi uyg‘otishga qaratilgandir», deyiladi.

Rossiya mustamlakachilari O‘rta Osiyo bo‘ylab ochilgan yangi usul maktablariga qarshi o‘t ochadilar, bu maktablarni «Islomiyaga qarshi», «g‘ayridin maktablari» degan tashviqot yurgizadilar, josuslik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amirligiga va Xiva xoniga ham kuchli tazyiqlar o‘tkazadilar. Ahvol shu darajaga borib yetadiki bu masala bilan bog‘liq ko‘plab qurbonlar yuz beradi. Chor ma‘murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar.

1904–1905-yilgi rus-yapon urushi va bunda chorizmning mag‘lubiyati rus ziyolilari orasidagi hur fikrlikning kuchayishiga, chor hukumatini esa, ma‘lum islohotlar o‘tkazishga majbur qiladi. Birinchi rus inqilobiga qadar saylovlarda ishtirok eta olmagan g‘ayirus kishilari, jumladan, turkistonliklar inqilobdan so‘ng Rossiya davlat dumasiga saylanadilar. Turkistondan, jadidlar faollaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy davlat dumasiga saylangandi. Andijondan shahar oqsoqoli Xolbotir Ro‘zadorbiy ham dumaga saylangandi. Shu bois u Xolbotir дума laqabini olgan. Ammo bu holat uzoq davom etmaydi, birinchi galda turkistonlik vakillar dumadan chiqarib yuboriladi. Bu voqea ham Turkiston jadidlarining rus imperializmi va uning mustamlakachiligiga qarshi kurashi to‘g‘riligini isbotlaydi, jadidlar haqligini namoyish etadi. Turkiston xalqida jadidlarga bo‘lgan xayrixohlik ishonch tobora ortib boradi.

O‘lka jadidlari har qancha qarshiliklarga qaramasdan 1905-yilgi inqilobdan so‘ng Rossiya hududidagi butun turkiy qavmdagi xalqlar bilan, Turkiya mamlakati bilan yaqindan aloqa qilishga intiladilar. O‘z davrida turk dunyosi markazlari bo‘lgan Qrim,



**«Yosh Buxoroliklar»**

Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga tez kirib, keng yoyila boshlaydi. Istanbulda tashkil topgan «Jamiyati xayriya», «Nashriyot shirkatlari» kabi ijtimoiy tashkilotlar Buxoro va Xivada ham maydonga keladi. Bu jamiyatlar ichida kamol topgan jadidchilik harakati oʻsib, 1908-yilgi Turkiya inqilobi tufayli yuzaga kelgan «Yosh turklar» harakatiga taqlid qilgan. Xivada «Yosh xivaliklar», Buxoroda «Yosh buxoroliklar» jamiyatlarini yuzaga keltiradi. Bu jamiyatlar oxir-oqibatda siyosiy partiyalar maqomini oladilar. Bunday jadidchilik harakatining siyosiy tashkilotlari, jamiyatlari qisqa vaqt ichida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qoʻqon, Andijon kabi Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida nufuzli tashkilotlarga ega boʻladi.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keladi, mukammal bir shaklga kiradi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutulish, rus istilosiga qarshi kurash, maʼrifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qoʻlga kiritish gʻoyalari bilan toʻlib-toshgan yangi bir adabiyot shakllanadi. Behbudiy bunday adabiyotning ilk namunalari yaratadi. Undan soʻng Fitrat va boshqalar maydonga chiqqan edi.

1900-yili Buxoroda Jo'raboy tomonidan yangi usuldagi maktab ochiladi. 1908-yili bunday maktab Mirza Abdul Vohid tomonidan ham ochiladi. Buxoro amiri bu maktablarni tan olishga majbur bo'ladi. Mufti Domullo Ikrom bu yangi usuldagi maktablarning diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishadi. Buxoroda Ahmadjon Mahdum, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Abdulvohid Rafiy Mahdum «Tarbiyai Atfol» nomli yashirin jadidchi jamiyatini tuzadilar. Bu jamiyat imperializmga, mustamlakachilikka, jaholatga qarshi kurash boshlab yuboradi. «Tarbiyai Atfol» jamiyati Turkiyada tahsil ko'rayotgan talabalarga yordam ko'rsatish maqsadida Istanbulda shu'ba tashkil etadi. Uning rahbariyati Sodiq Ashur o'g'li Abdurahmon va Abdurauf Fitratlardan iborat edi.

Buxoro jadidlarining yana bir jamiyati «Turon nashri maorif» jamiyati edi. Uning tashkilotchilari Abdurauf Fitrat, Muqim Boyjon, Ahmadjon Mahdum, Olimjon Idrislar bo'lgan. Bu jamiyat qisqa vaqt ichida Turkiyaga talabalar jo'natadilar. Ular tez orada ilm odamlari bo'lib yetishadilar. S. Ahmedov va Q. Rajabov «Jadidchilik» maqolasida ta'kidlaganlaridek Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkentda Munavvar Qori, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdulla Avloniy, Buxoroda Fitrat, F. Xo'jayev, Usmonxo'ja, Abdvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Qo'qonda Ashurali Zohiriy, Obidjon Mahmudov, Hamza, Orenburgda Ahmad Boytursun, Miryoqub Dulat, Andijonda Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Xorazmda Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov Turkiston jadidchilik harakatining ulug' namoyandalari edilar.

O'lkada jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishida Sharq mamlakatlari, birinchi navbatda Yaqin Sharq va Turkiyaning, xususan, «Yosh turklar» partiyasining ijobiy va demokratik ta'siri bo'lgan. Turkistonning o'zidagi Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Berdaq va boshqalarning ilg'or demokratik qarashlaridagi g'oyalar bilan sug'orilgan asarlarisiz jadidchilik harakatini tasavvur etish mumkin emas.

Siyosiy hurriyat va Turkiston milliy istiqloli masalalarini ilk bor ko'tarib chiqqan shaxs buxorolik qozi Abdurashid Ibrohi-

mov (1851–1944) boʻlgan. U Turkiya, Makka va Yevropa davlatlarida boʻlib, bu mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotni oʻrgangan va oʻzi koʻrgan-bilgan gʻoyalarni Turkiston xalqlari oʻrtasida keng tashviq va targʻib qilgan. Chunki XX asr boshlarida yashagan jadidlar siyosiy hurlikka, milliy istiqloлга ega boʻlish uchun yosh avlodning siyosiy ongini oshirish, ularni Yevropa sivilizatsiyasi ruhida va darajasida tarbiyalamoq lozim deb, tushunganlar.

Turkistonda jadidchilik gʻoyalari aholi oʻrtasida keng tarqatish va targʻibot qilishda tatar ziyolilarining xizmatlari ham katta boʻladi. Ana shunday maʼrifatparvardan biri Ismoil Gaspirinskiy (1851–1914) edi<sup>1</sup>. U 1908-yilda Turkistonda boʻlib ilgʻor maʼrifatvarlardan Muftiy Mahmudxoʻja Behbudiy, A.Shakuriy va boshqalar bilan uchrashadi, oʻzbek, tojik, tatar bolalari uchun yangi maktablar ochib jadidchilik gʻoyalari keng tarqatadi. Bunday gʻoyalarni tarqatishda Ismoil Gaspirinskiyning oʻzi tashabbus koʻrsatib chiqargan «Tarjimon» gazetasining oʻrni katta boʻladi. U musulmon milliy ozodlik harakatining yoʻlboshchisi sifatida tanilgan edi. «Dor ul-rokat musulmonlari» ilmiy-fantastik asari, «Yuz yildan soʻng 2000-sana» badiiy-publitsistik roman, «Turkiston ulamosi» kabi kitoblar uning qalamiga mansub edi.

S.Ayniy bunday deb yozgan edi: «1908-yil yoz faslida tatar jamoati xodimlaridan Ismoilbek Gaspirinskiy Buxoroga keldi. Tabiiy, Ismoilbek har yerda qiladurgʻonidek Buxoroda ham maktab masalasini qoʻzgʻotdi. Bu masalani muzokaraga qoʻymoq uchun Buxoro taraqqiyparvarlaridan bir nechalarini saroyga chaqirdi... Mulla Nizom uyidagi maktab uchun podsholikdan biron munosib oʻrin soʻrab olib, maktabni tatar va buxoroliklar uchun umumiy qilmoq ham rasmiylashtirmoq muzokara



**Abduqodir Shakuriy**

<sup>1</sup> Қосимов Б. Исмоилбек Гаспиринский. Т., 1992. Ражабов Қ. Гаспиринский И. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси... 2-жилд, 576–577-бетлар.



**Mahmudxo'ja Behbudiy**

qaroriga olindi. Majlisda hozir bo'lganlar maktabning otini Ismoiliya qo'yimoqchi bo'ldilar. Lekin Ismoilbek ushbu ismni qabul qilmadi. «Muzaffariddin amirning ismiga nisbatan «Muzaffariya» ism qo'yish munosibroqdir», – dedi. Bugina emas, u Rossiyada birinchi bor keng miqyosdagi turkiy va rus tilida «Tarjimon» gazetasini nashr etib, uning sahifalarida chorizm saltanati hududlaridagi mazlum musulmon xalqlarining o'tmish tarixi, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk fan va adabiyot arboblari, ularning jahon madaniyati tarixidagi o'rni haqida ko'p yozdi».

O'rta asrlarda shunday ulug' zotlarni yetishtirgan Turkiston kabi buyuk bir tabarruk zaminning so'nggi asrlarda jaholat va xurofot azobida inqirozga yuz tutishi, bu yerda kuchli bo'lgan o'rta asrchilik va mustamlakachilik zulmlari, o'lkadagi yangi uyg'onish, yangi ma'rifat va adabiyot uchun borayotgan kurash, musulmon xotin-qizlar huquqini himoya qilish haqida Ismoil Gaspirinskiy o'tkir publitsistik maqolalari bilan faol qatnasha boshladi. «Buxoro va Bog'chasaroy», «Bog'chasaroydan Toshkentga» (1893), «Turkistonning yangi tarixi» (1905), «Buxoroda nimalarni ko'rdim? (1908), «Turkistondan xat» va boshqalar shular jumlasidandir. Uning ta'siri bilan Turkistonda ham yangi usul maktablari uchun o'quv qo'llanmalari, matbuot va adabiyot namunalari maydonga kela boshlaydi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan **Mahmudxo'ja Behbudiy (1871–1919)**dir<sup>1</sup>. U tarixda «Turkiston jadidlarining otasi» deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy is-

<sup>1</sup> *Qarang:* Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. T.: 1994; Қосимов Б. Маслакдошлар. Т., 1994; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi...2-jild, 8–9 betlar; Алимова Д., Рашидова Д. Махмудхужа Бехбудий и его историческое воззрение. Т.: Маънавият, 1998 ва бошқалар.

tiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xoʻjayev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan oʻsha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani boʻlmasa kerak».

Behbudiy Gaspirinskiy yoʻlga qoʻygan «usuli jadid» maktablari Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qoʻllanmalar bilan taʼminlashda jonbozlik koʻrsatadi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil boʻla olishi mumkinligi haqida oʻnlab maqolalar yozadi. «Muntaxabi jugʻrofiyai umumiy» («Qisqa umumiy geografiya»), «Kitobat-ul atfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti islom», «Madhali jugʻrofiyai umroniy» («Aholi geografiasiga kirish»), «Muxtasari jugʻrofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi») kabi darsliklar yaratadi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qoʻllanmalar, xaritalar bosib chiqargani maʼlum. Bular ilk oʻzbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qoʻllanmalar sifatida emas, til-yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Behbudiy 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab 2, soʻng 4 betlik boʻlib, haftada 2 marta chiqqani va moddiy tanglik tufayli 45-sonidan keyin toʻxtagani maʼlum. «Oyina» oʻlkada oʻzbek tilida chiqqan birinchi jurnal edi. U xalq orasida ancha mashhur boʻlgan. Boshida haftada bir, 1914-yildan esa har oʻn besh kunda chiqqan. Ziyoy Said «Oʻzbek vaqtlari matbuoti tarixiga doir materiallar»ida bu jurnalning 2 yil davomida 68 soni (jami 1720 bet) dunyo yuzini koʻrib, 1915-yil 15-iyunda<sup>1</sup> toʻxtaganini maʼlum qiladi.

1912-yilda yozilib 1913-yilda bosilgan «Padarkush» dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi oʻzbek dramasi («Mahramlar») xronologiyaga koʻra bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan eʼlon qilingan boʻlsada, bu sohada ham karvonboshi boʻlib Behbudiy tarixga kiradi. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qoʻyiladi. 27-fevralda esa Toshkentdagi mashhur «Kolizey»da «Turon» truppassi oʻz faoliyatini shu spektakl

<sup>1</sup> Зюë Сауд. Танланган асарлар, 1974, 45-бет.





**Munavvar Qori  
Abdurashidxonov**

bilan boshlaydi. Shundan soʻng Buxoro, Qoʻqon, Andijon, Namangan, Kattaqoʻrgʻon kabi juda koʻp shaharlarda sahnaga qoʻyiladi.

Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq taʼsir koʻrsatadi. «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pyesasi taʼsirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni oʻzim ham payqamay qoldim», – qayd etadi Abdulla Qodiriy oʻz tarjimai holida.

1916-yilda Toshkentga – navbatdagi safarga kelgan taniqli sharqshunos akademik A.N.Samoylovich «Kolizey»da Avloniyning Jalil Madadqulizoda asari asosida tayyorlangan «Oʻliklar» spektaklini koʻradi. Bosilib chiqqan barcha oʻzbek dramalarini koʻzdan kechiradi. «Sartlarning dramatik adabiyoti» nomli maqola yozadi. 7 drama – «Padarqush», «Toʻy», (Nusratulla Quadratulla), «Baxtsiz kuyov» (A. Qodiriy), «Axloq», «Juvanmarg» (Abdulla Badriy), «Koʻknori», «Eski maktab-yangi maktab» (Hoji Muin) asosida Turkistonda «Yangi adabiyot» maydonga kelganini maʼlum qiladi. U yozadi: «Turkistondagi yangi adabiyotning markazi Samarqandda boʻlsa kerak, yosh adiblarning bosh ilhomchisi sifatida esa, na tojik na turk asli «xoʻja» samarqandlik mufti Mahmud Behbudiyini eʼtirof etish kerak boʻladi»<sup>1</sup>.

Marhum sharqshunos olim Laziz Azizzoda Behbudiyning sobiq Turkiston oʻlkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidadagi oʻrni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz maʼrifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N.G.Chernishevskiy, Dobrolyubovlar, tatar va ozarbayjon maʼrifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatxali Oxundov, Naxafbek Vazirovlar bilan qiyoslagan. Oʻzbekistonda Navoiy, Ulugʻbek kabi buyuk zotlar

<sup>1</sup> «Вестник Имр об-ва Востоковедения». 1916, №5, стр. 4.



bilan birga Behbudiyga ham haykal oʻrnatish kerak»<sup>1</sup>, deb yozgan edi.

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan boʻlgan Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878–1931)<sup>2</sup> Ismoil Gaspirinskiyning oʻqish va oʻqitish, madrasa va maktab islohotiga oid fikrlarining Turkistondagi o'tashin targ'ibotchilaridan biri edi. Bunda Bog'chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Tataristonda chop etilgan «Vaqt», «Yulduz», Istanbulda bosilgan «Siroti mustaqim» («To'g'ri yo'l»), kabi matbuot nusxalarining Turkistonga turli yo'llar bilan tarqalishi katta o'rin egalladi. Munavvar Qori 1901–1904-yillarda qrimlik do'sti Rasim Kishod yordamida Toshkentda «usuli sovtiya» maktabini ochadi. 1910-yilga kelganda bunday maktablar 10 tagacha yetadi. Chor ayg'oqchisi 1912-yilda bunday yozgan edi: «Toshkent shahrida yashab turgan Munavvar Qorining hozirgi paytda 80 o'quvchisi bor.

Ularni tatar uslubida o'qitadi. Bu maktabning o'quvchilari sart tilida sahna asarlari qo'yadilar».

«Nauka i prosvesheniye» jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, Munavvar Qori Abdurashidxonovning «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi anchagina jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Ularning qo'lida ta'lim olgan yoshlar orasidan keyinroq Hamza, Qayum Ramazon, Oybek Mannon Uyg'ur kabi iste'dodli adib va san'atkorlar yetishib chiqishdi.

Ulug' pedagog olib borayotgan ishlar zolim chor hukumati vakillarini ancha bezovta qilib qo'ydi. Bu haqda jadidchi Mo'minjon Muhammadjonovning «Turmush urinishlari» asarida shunday yozilgan: «Olmaota (Verniy)da rus muallimlarining katta yig'ini bo'ldi, shul yig'inda «tatarlar qozoqlar bilan birga sart bolalari o'qitilmasun! O'qumishli tatarlarga Turkiston o'lkasida

<sup>1</sup> Лазиз Азиззода. «Бехбудий». «Маориф ва ўқитувчи», 1926, №2.

<sup>2</sup> *Qarang:* Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан.(жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи С.Холбоев. «Шарқ», Т., 2001.; Холбоев С. Мунаввар Қори. «Фан ва турмуш», Т., 1991, 4-сон; Ўша муаллиф. Ойболта остидаги сўз. «Турон тарихи». Т., 1992; Ўша муаллиф. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Ўрта Осиёдаги педогогик фикрлар тадқиқотидан лавҳалар. Т., «Фан», 1996; Сироҷиддин Аҳмад. Мунаввар Қори. «Шарқ юлдузи», 1992, 5-сон.

turish uchun yo‘l qo‘yilmaslik kerak! Chunki ular sart, qozoqlarga bilim tarqatib, ko‘zlarini va fikrlarini ochadirlar. So‘ngra bizga yemak uchun Turkistonda non qolmaydir. 2-yangi tartib bilan o‘qituvchi muallimlar, progromlari, o‘qitadurgon kitoblari kimning asarlari ekanligini «inspektor»larga yozib ko‘rsatmaguncha bola yig‘ib o‘qita olmaydurlar», deb qaror berdilar. Chor amaldorlari maktablarning dasturlari bilan muntazam tanishib borganlar va imtihonlarda ishtirok etganlar».

Sirojiddin Ahmadning «Munavvar Qori»<sup>1</sup> maqolasida qayd qilinganidek Munavvar Qori pedogogik va badiiy asarlar ham yozgan. U Turkiston o‘lkasida birinchilar qatorida «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» («Jug‘rofiya»), «Havoyiji diniya» kitoblarini (1907-yilda) nashr ettirgan. 1914-yilda Salim Ismoil Ulviyaning Qur‘on qiroati bo‘yicha saboq beruvchi «Tajvid»ini o‘zbekchaga tarjima qilib, Orenburgda nashr ettirgan. «Sadoi Turkiston» jaridasida bosilgan Kamiy, Xislat, So‘fizoda, Hamza kabi shoirlarning she‘rlarini to‘plab, «Sabzazor» nomi bilan chop ettirgani ma‘lum.

Ulug‘ mutafakkir bu ishlar bilan ham cheklanmadi. O‘ziga o‘xshash ochiq fikrli yoshlar – Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo‘lat Norbo‘tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909-yilda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Biroq, bu jamiyat iqtisodiy jihatdan bir necha ag‘niyolarning iona va yordamiga suyangani uchun erkin ish olib bora olmaydi. Lekin rais o‘rinbosari bo‘lgan Munavvar Qorining tinib-tinchimasligi natijasida jamiyat taraqqiyparvar yoshlar qo‘liga o‘tadi.

Jamiyatning yangi a‘zolari pul topmakka ham yangi yo‘llar izladi, boshlab «Gramafon obshestvo sila» suylashib, har bir plastinkadan o‘n tiyin olmoq sharti-la bir hafta hofizlarni va o‘z tarbiyasidagi maktab shogirdlarining tovushini sotdi, bundan faqat shu yil ichindagina loaqal ikki ming so‘m kirsra kerakdir».

Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asoschilaridandir. U 1906-yil sentabrda «Xurshid» («Quyosh»)

<sup>1</sup> «Шарк юлдузи», 1992 йил, 5-сон.

jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qiladi. «Najot» (1917-yil), «Kengash» (1917-yil), «Hurriyat» (1917-yil), «Osiyo», «Haqiqat», «Turon» kabi matbuot nashrlarida muharrirlik qiladi.

Munavvar Qori matbuotga elni, millatni gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi, buyuk kuch, madaniyat va maʼrifatga chorlovchi buyuk vosita, haqiqat jarchisi deb qaradi. U «Sadoiy Turkiston» (1915–1918) jaridasida maktablarni takomillashtirish, imtihonlar oʻtkazish haqida yozar ekan: «...Butun dunyodagi madaniy millatlarning qaygʻu va hasratlariga ishtirok etmagan va bu shodlik masarratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat bor esa, ul ham Turkiston turklaridirmiz», deydi.

Munavvar Qori 1913-yildan oʻz faoliyatini boshlagan «Turon truppasining tashkilotchilaridan boʻldi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida oʻzbek milliy teatrining birinchi ochilish marosimi boʻldi. Spektaklni birinchi pardasini ochish Munavvar Qori Abdurashidxonovga topshirildi. Mazkur tanatanada u bunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr oʻynalmagʻonligi barchangizga maʼlumdir. Shul sababli baʼzi kishilarimiz teatrga, ehtimolki oʻyinbozlik yoki masxarabozlik koʻzlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl maʼnosi «Ibratxona» yoki «Ulugʻlar maktabi» degan soʻzdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband bir uyga oʻxshaydurki, unga har kim kirsam oʻzining husn va qabihini, ayb va nuqsonini koʻrib ibrat olur».

Munavvar Qori Turkiston oʻlkasining qoloqligi sabablarini izlar ekan, «Mana, ket-baket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdan xabarsizliq demakdin boshqa chora yoʻqdir. Bu nodonliq va dunyodan xabarsizliq balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va oʻrganmak kerakdir», deydi u. U teatr sanʼatiga ana shu «buzuq odatlarning buzuqligini bilmak» va tuzatmak muassasasi, «tabibi hoziq» deb qaradi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov insonning maʼrifatli boʻlib, koʻzi ochilmaguncha vijdoni uygʻonmasligini, vijdoni uygʻonmasa na oʻzining, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu – imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan oʻz asarlarida koʻrsatib berdi. Bu ulugʻvor yoʻlda u mardonavor va qahramonlarcha kurashadi.



**Abdulla Avloniy**

**Abdulla Avloniy (1878–1934)**<sup>1</sup> o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan biridir. U o'z tarjimai holidan: «Turli gazeta va jurnallar o'qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to'dasiga kirdim. Mirobodda «usuli jadid» maktabi ochib o'qituvchilik qila boshladim»,<sup>2</sup> deydi.

Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi.

Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi «Jamiyati xayriya» tashkil etdi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochadi.

U 1913-yilda tashkil etilgan professional «Turon» nomli teatri to'garagining tashkilotchilaridandir. Bu to'garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo'shilib hozirgi bosh drama teatri Hamza nomidagi hozirgi Milliy davlat akademik teatriga asos bo'ldi. Avloniy to'garagidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo'lib tanilgan Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid), Mannon Uyg'ur singari ulug' shaxslar yetishib chiqdilar. Ular jadid yozuvchilar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlarini sahnalashtirar va asosiy rollarni o'zlari o'ynar edilar. 1916-yilda ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib «Turon» gruppasi bilan birga «Layli va Majnun» spektaklini sahnalashtiradi. Abdulla Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Ayni

<sup>1</sup> *Qarang:* Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979; Qosimov B. Излай-излай тоганим. Т., 1983; *Абдулла Авлоний.* Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1992.; Усон миллат Т., 1993; Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darfgalari. T., 1990. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси... 1-жилд, 73–74-бетлар.

<sup>2</sup> *Абдулла Авлоний.* Усон миллат Т., «Шарк», 1993, 8-бет.

chogʻda Avloniy oʻz teatri uchun «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?» (1916) kabi sahna asarlari yozib beradi va ularni sahnalashtiradi. Bundan tashqari u tatar va ozarbayjon jadid yozuvchilarining asarlarini oʻzbek tiliga tarjima ham qilgan.

Abdulla Avloniy millat va yurt qaygʻusi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi va u bilan nafas oldi, oʻz asarlarida uni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniyning quyidagi soʻzlari gʻoyatda ibratlidir va xuddi bugungi kunda bizni oʻylab aytilgan soʻzlarga oʻxshaydi: «Har bir millatning dunyoda borligin koʻrsatugʻon oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmoq millatning ruhini yoʻqotmakdur... Yohu bizga na boʻldi? Bobolarimiz yoʻlidan chiqib ketduk! Yaxshi qoʻshningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishgʻon va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. Oʻz uyimizni qidirsak va axtarsak yoʻqotganlarni ham topamiz. Yoʻqolsa yoʻqolsun, oʻzi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpogʻini kiyub, kulgu boʻlmak zoʻr ayb va uyotdur»<sup>1</sup>.

Abdulla Avloniy barcha jaholatliklar, qorongʻuliklar va nodonliklarning, millatning oʻzligini anglamasligining asosida maʼrifatsizlik yotishini yaxshi koʻra oldi va u avlodlarga, farzandlarga, oʻgʻil-qizlarga pand-u nasihatlar qilib maktabga borish, oʻqish, oʻrganish, ilm olishga daʼvat etadi. U bir sheʼrida:

*Maktab duru gavhar sochar,  
Maktab sizga jannat ochar.  
Maktab jaholatdan qochar,  
Gʻayrat qulub oʻqing, oʻgʻlon!  
Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayo ehson qilur,  
Gʻayrat qilib oʻqing, oʻgʻlon!  
Maktab oʻquvni koʻrsatur,  
Maktab yozuvni koʻrsatur,  
Maktab yuqudan uyqotur,  
Gʻayrat qilib oʻqing, oʻgʻlon!  
Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husni jamol.  
Maktabdadur milliy xayol,  
Gʻayrat qilib oʻqing, oʻgʻlon!*

<sup>1</sup> *Абдулла Авлоний. Усон миллат Т., «Шарк», 1993, 7-бет.*

deb yosh avlodga murojaat qilsa, yana bir 1916-yilda yozgan «Maktab» she'rida quyidagi misralarni bitadi:

*Kimki o'qumas maktab, kirmas-qaramas maktab,  
Qilg'ay bu kishilardan faryodu fig'on maktab.  
Jonim, o'qungiz maktab, boru yo'qingiz maktab,  
Sizlar uchun avlodim, bog'i guliston maktab.  
Manbaidur fan maktab, eng yaxshi chaman maktab,  
Axloq-u odobsizga olmoqligi kon maktab.  
Guldastai gul maktab, sunbulu janbul maktab,  
Bulbul kabi tolibga gulzori jahon maktab.  
Milliy uyimiz maktab, to'nu to'yimiz maktab,  
Ta'lim uyidur, Hijron, eng yaxshi makon maktab.*

Xullas, Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yirik vakili sifatida XX asr boshlaridagi milliy uyg'onishga munosib hissa qo'shdi.

Davr va zamon nafasi hozirjavob ma'rifatparvar va demokratik shoirlardan biri **Hamza (1889–1929)**dir.

Hamza madrasada o'qishni tashlab jadidchilik g'oyalari ta'sirida o'z tashabbusi bilan Marg'ilon, Qo'qon va boshqa shaharlarda mehnatkashlar bolalari uchun yangicha usulda



**Jadidlar va rus demokratlari yig'ilishi. Andijon, 1916-yil, avgust**

maktablar ochadi va bepul ularni oʻqitadi. Ammo har safar hakim va toʻralarning qarshiligiga duch kelaveradi. «1914-yilning oxirlarida... Margʻilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay Andreyev ismindagi Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi...» («Tarjimo hol»). Yana unda yozadi: «Undan yana Hoʻqand kelib,... Yoʻqsul bolalar uchun pulsiz oʻqitish maktabi ochdim... oʻzim 4 oycha davom ettirgandan keyin, uyezd nachalnigi Medinskiy tomonidan tintuv boʻlib, yopildi. Lekin hech bir qanday qogʻozlarim qoʻliga tushmagani uchun qamalmay qutuldim».

Hamza 1909-yilda Buxoroga va soʻngra Toshkentga borgan kezlarida mahalliy xalqlar orasida boshlangan ijtimoiy-siyosiy ishlarga, «Milliy anjumanlar»ga faol qatnashadi va milliy istiqloq uchun kurashga tortiladi.

Hamza buyuk ijodkor sifatida yozib qoldirgan sheʼriy, prozaik va dramatik asarlarida mehnatkash oddiy xalq ommasining intilish va qiziqishlarini, ularning haqsizlik, adolatsizlik va xoʻrlikka qarshi haqqoniyat uchun kurashlarini aks ettiradi. Hamzadan qolgan «Devon»ga shoirning 1905–1914-yillarda yozilgan 177 sheʼriy asarlari, shu jumladan, 150 gʻazal, 27 murabbaʼ, muxammas va musaddaslar kiritilgan. Bu asarlarning barchasida Hamza «Nihoniy» («Yashirin») taxallusini qoʻllagan. Devonga kiritilgan 12 asar fors-tojik tilida yozilgan. Hamza sheʼriyatida oliyjanob insoniy fazilatlar, sof sevgi-muhabbat, xalqqa, millatga sadoqat ulugʻlanadi, maʼrifat, madaniyatga daʼvat kuylanadi. Bu borada Hamzaning «Yigʻla Turkiston» sheʼridagi quyidagi satr ibratlidir:

*Yigʻla, yigʻla, Turkiston, yigʻla Turkiston,  
Ruhsiz tanlar tebransun, yigʻla, Turkiston.  
Qoʻl ushlashing, birlashing emdi, Turkiston,  
Maʼrifatni xushlashing kelmay tobuston,  
Kinalarni tashlashing, bitsun jahliston,  
Taraqqiyga boshlashing, oʻlsun sidkiston.  
Maktab oching, bayonlar, boʻling himmatli,  
Boʻlsun oʻqub sibyonlar oliy gʻayratli,  
Shoyad boʻlsun millatga sodiq xizmatli,  
Bu koʻngullar quvonsun qolmay hasratli.*



*Darig' tutmang ilm uchun ketsa molu jon,  
O'quv farzligi ming yil Qur'onda farmon,  
Ma'rifatsiz topulmas ahkomi imon,  
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.*

Hamza ijodiy dunyoqarashining shakllanishida uning 1911-yilda Afg'oniston, Hindiston, Makkai mukarrama, Madinai munavvara, Shom, Bayrut, Istanbul kabi xorijiy mamlakatlar va shaharlarga qilgan safari katta rol o'ynadi.

Maorif tarqatish, xalqni ilmi va ma'rifatli qilish Hamza dunyoqarashining markazida turardi. U bir emas uchta darslik yaratdi: «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» va «Qiroat kitobi» (1914-1915)da she'riy shaklda ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etsa, nasrda xalqning eng yaxshi aqidalarini – mehnatsevarlik, rostgo'ylik, birodarlik va zulmga nafratni yoshlar ongiga singdiradi.

Hamza ma'rifatning hayotdagi o'rnini o'zining 1916-yilda yozgan «Zaharli hayot» dramasida yanada bo'rttiribroq talqin etadi. Asar bosh qahramoni ayol kishi (Maryamxon) bo'lib, u o'z sevgilisi va sevguvchisi Mahmudxonni haqiqat va adolat yo'liga ya'ni ma'rifat va baxtiyorlik yo'liga boshlaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining 1915–1917-yillarda bostirib chiqargan oltita ashulalar to'plamini «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» deb atalgan umumiy sarlavha ostida e'lon qiladi. «Oq gul», «Qizil gul», «Yashil gul», «Sariq gul», «Pushti gul» va «Safsar gul» nomlari bilan e'lon qilingan mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan bu asarlarning barchasiga shoirning «Uxlama, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida» misrasi epigraf bo'lib xizmat qiladi.

Hamza chor Rossiyasining mustamlakachilik va saltanat-chilik siyosatini keskin qoralaydi. Ayniqsa u birinchi jahon urushi munosabati bilan Rossiyaning Turkiston xalqlariga nisbatan o'tkazgan zo'ravonlik, talonchilik siyosatini la'natlaydi.

Chor Rossiyasining front orqasi uchun yerli aholini mardikorlikka safarbar qilish haqidagi 1916-yil 25-iyundagi farmoni shoirning mustamlakachilarga nisbatan nafrat va g'azabini qo'zg'otadi. Hamzaning «Safsar gul» to'plamiga kirgan she'rlarining hammasi «mardikorlar»ning og'ir kechinmalari va qismatlarini aks ettiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy baxtli istiqbolga, ozod kelajakka ishonch, eʼtiqod umidi bilan yashadi. Buni biz shoirning «Safsar gul» toʻplamiga kirgan deyarlik har sheʼrida, «Qachon ozod boʻlur, tangrim, boshimiz» nidosi bilan bir qatorda:

*Suvlar ketar, tosh qolur,  
Kulfat ketar, bosh qolur.  
Bobolardan bir soʻz bor:  
Oʻsma ketar, qosh qolar.*

kabi satrlarda ochiq-oydin koʻrishimiz mumkin.

Hamza ham oʻz davrining farzandi edi. Shul bois u ham ogʻir va murakkab yoʻlni bosib oʻtdi.

**Abdurauf Fitrat (1886–1938)**<sup>1</sup> jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biridir. U hali 1909–1913-yillarda oʻqishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida F.Xoʻjayevning bergan maʼlumotiga koʻra hamyurtlari bilan birgalikda «Buxoro taʼlimi (umumiy) maorif jamiyati»ni tuzgan. Bu jamiyat buxoroliklarning oʻzaro moddiy-maʼnaviy uyushmasi vazifasini bajargan.

Bu davrda Turkiya «Yosh turklar» inqilobidan mast davrni oʻz boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobiy taʼsir koʻrsatdi. U siyosat maydoniga shoʻngʻib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, sanʼati, tarixini chuqur va atroflicha oʻrganadi. Igʻor taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari turk adabiyoti orqali esa Gʻarb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. Gʻarb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari oʻrtasida farqlarni oʻz koʻzi bilan koʻradi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. Koʻp oʻtmay oʻzini dramaturgiya va nasrda ham sinab koʻrdi. U

<sup>1</sup> Рашидова Д. Жадидларнинг меросида мусика (А.Фитратнинг ижодига оид маълумотлар.) Жадидчилик: ислохот, янгиланиш... 128–145-бетлар.; Файзулла Қиличев. Мустақилликнинг фожиали йўли. «Шарқ юлдузи», 1992, №7 ва Ҳамидулла Болтабоевнинг қатор асар ва мақолаларида А.Фитрат фаолияти акс эттирилган. Айниқса унинг қаламига мансуб «Фитрат ва жадидчилик. Илмий тадқиқий мақолалар» Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.) китобининг эълон қилиниши муҳим воқеа бўлди.



**Abdurauf Fitrat**

tillarga ham o'girildi. Masalan, «Munozara» 1909–1914-yillar orasida turk, ozarbayjon tillarida, «Sayyohi hindi» rus tilida chop etilgan. «Rahbari najot»ni esa do'sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqargan. Bulardan tashqari, uning «Mavludi Sharif», «Abo Muslim», «Begijon» asarlari va dastlabki she'rlari «Oyna», «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Turon», «Hurriyat», «Buxoroi Sharif» kabi gazeta va jurnallar sahifalarida e'lon qilingan.

Fitrat Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi. Lekin bu harakat sharoitga qarab turli yerda turlicha sodir bo'ldi. Jumladan, 1915–1916-yillarga qadar buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha bo'lib, ish olib borgan bo'lsalar keyinchalik ular ikkiga bo'linib ketdilar. Jadidlarning bir qismi (Abdulvohid Burhonov boshchiligida) eski tarzda faqat madaniyat tarqatish yo'lini tutgan bo'lsa, ularning yana bir boshqa bo'lagi Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi chet ellarda o'qib kelgan yoshlar omma o'rtasida ma'rifat va madaniyat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashni ham yoqlab chiqdilar. Bu guruh tarixda «Yosh buxoroliklar» degan nomini oldi. Bunday bo'linishning asosiy sabablari: **Birinchidan**, Turkiston o'lkasi, shu jumladan Buxoro

«Munozara» (dastlabki nomi «Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi») asarini Turkiyaga borishidan oldin, 1905–1907-yillarda yaratgan. «Sayha», «Sayyohi hindi», «Rahbari najot», «Tarixi Islom» asarlarini esa Turkiyada tahsil olgan paytida yozgan va «Munozara» 1908-yilda, «Sayha» 1910-yilda «Sayyohi hindi» 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. «Rahbari najot» va «Oila» 1915–1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o'sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Boshqa

amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning ogʻirligi, rus podshosi va amirlikning ikki yoqlama zulmkorlik siyosati, **ikkinchidan**, bolshevoylarning mahalliy xalq oʻrtasida yurgizgan tashviqot va targʻibotlari taʼsiriga ishonuvchanlik va nihoyat, **uchinchidan** mahalliy xalq vakillarining siyosiy qorongʻilikda saqlanganligi, ularning gʻoyaviy nazariy saviyasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Fitrat oʻz ona diyorini ozod va hur koʻrishni orzu qiladi. Oʻz niyatlari, ezgu armonlarini amalga oshirishda ojizlik qilgan Abdurauf Fitrat ulugʻ bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurlar singari millat fidoyilarini qoʻmsaydi. U «Temur sagʻanasi» dramasida oʻz qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi: «Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan koʻmak istarga keldi. Bogʻlari buzilgan, gullari soʻlgan, bulbullari uchirilgan Turonni bir qoro-vuli senga arz etarga keldi».

Bunday murojaat Fitratning boshqa asarlari mazmuniga ham singib ketgan. Ulardagi asosiy gʻoya – ona yurtni, Vatanni ulugʻlash, xalq, millatning ozodligi va erkinligidir. Zero, maʼrifatga intilgan inson uchun, ayniqsa shoir uchun bir tomondan amir istibdodi, ikkinchi tomondan chor mustamlakasi zulmi ostida ezilgan xalqni, toptalgan yurtni ozod koʻrishdan ham ulugʻ niyat boʻlishi mumkinmi? U «Sayha» toʻplamiga kirgan «Mening Vatanim» sheʼrida bunday deb yozadi:

*«Vatan, u mening jonim tanim, sajdagohimdir.  
U mening toʻlin oyim, tinch omonligim, izzatim-sharafim.  
Kaʼbam, qiblam hamda gulistonimdir.»*

Yoki boshqa bir sheʼrida:

*«Yigʻla biroz, oʻksizlangan tilagim,  
men ham senday baxtsizlikka tugʻildim»,*

deb yurt taqdiridan kuyunadi.

Fitrat ana shunday ilgʻor gʻoya va fikrlar uchun koʻpchilik jadidlar qatorida shakkoklik, isyonkorlikda ayblandi, chor maʼmurlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron boʻlgan qizil saltanat

davrida esa millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdori, «xalq dushmani» degan uydirma tamg'a bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha Fitratni 1937-yilgacha uning yaqin do'sti Fayzulla Xo'jayev o'z himoyasiga olib kelgan. Qatag'on yillarida ko'pchilik qatori Fitrat ham qamoqqa olingan.

Turkistonning milliy shoiri, Andijonda jadidchilikka asos solgan **Cho'lpon (1898–1938)**<sup>1</sup> shaharda «Turon kutubxonasi» va uning yonida katta bir qiroatxonani tashkil qilgan.

Xorijiy manbalardan birida shunday yozilgan: «Keng ma'ruza zali bo'lgan bu qiroatxonaning boshqaruv hay'atiga Turkiston Milliy birligining Andijondagi vakillari Husanxo'ja Niyoziy, Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li, Vali Maqsudiy, Zohiriy A'lam, Fozilbek Otabek o'g'li, Abdulhay Maxsumlar saylandilar. Qiroatxona maktab vazifasini bajarar edi. Har oqshom usmoniy turk zobitlari kundalik masalalar, madaniy-siyosiy va tarixiy mavzularda ma'ruzalar qiladilar».

Cho'lponning ochiq ifodalangan, go'zal turkcha, toza uslub bilan bitilgan da'vatkor, isyonkor she'rlarida Rossiya mustamlakachilarini ayovsiz qoralovchi, Turkiston istiqlolini madh etuvchi she'rlari o'lka aholisining milliy his-tuyg'usini, milliy o'zligini uyg'otgandi. Uning «Isyon» nomli mana bu she'rida shunday deyilgan:

*Ey, sen meni haqir ko'rgan, tuban ko'rgan afandi.  
Ey, ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan  
Ey, bo'ynimga kishan solib halokatga sudragan  
Ko'zlarimni zaharlatib o'ynamagil, bas endi...  
Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim uzilur;  
Tomirimda qo'zg'olishning vahshiy qoni ko'pirdi.  
Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi.  
Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur.  
Ey, sen meni qul o'rnida ishlatuvchi afandi  
Titra, qo'rqin bog'liq qo'lin bosh ko'targan kuch indi.*

Jadidchilik harakatida faol qatnashib Turkiston milliy istiqloli uchun kurashgan xalqimizning ajoyib farzandlari Saidahmad

<sup>1</sup> Каримов Наим. Истиклолни уйғотган шоир. Т., «Маънавият», 2000.

Siddiqiy Ajziy (1864–1927), Karimbek Sharifbek oʻgʻli Komiy (1865–1922), Tavallo (1883–1959), Isʼhoqxon Ibrat (1862–1937), Xislat (1880–1945) va boshqalar ham oʻzlaridan soʻng boy ijodiy meros qoldirganlar. Ana shu ulugʻ zotlar orasida oʻzining betakror va ibratomuz ijodi bilan **Tavallo** alohida oʻrin egallaydi. Uning ijodida jadidchilik harakati va adabiyotining taʼsiri kuchli boʻldi. Shoirning 1913-yilda «Bayoz», 1917-yilda «Ravnaqul islom» toʻplamlari bosmadan chiqqan. Tavallo asarlari asosan, Vatanni sevishga, ardoqlashga, xalqni, millatni hurmatlashga, ilm-maʼrifatni, sanʼatni sevishga daʼvat etadi. U yashagan oʻz davridagi xalq, millat holiga achinadi, dardli alam chekadi, sasidan oʻt chaqnaydi:



**Tavallo**  
(Toʻlagan Xoʻjamiyorov)

*Falak bizga xabar ber, ne uchun beeʼtibor etding?  
Jahonda jumla millat ichra bizni sharmisor etding.  
Halovat boshqa millat topdi irfon sunbulin esgan,  
Harorat xorini sanchib, bizni koʻp zuldor etding.  
Saodat togʻina qoʻydi qadamni oʻzga millatlar  
Safolat koʻchasida bizlarni chun xokisor etding.*

Shoir millat va xalqning jahon taraqqiyotidan orqada qolganligi, zulm ostida ezilishi markazida ilmsizlik, maʼrifatsizlik va jaholat yotganligini koʻradi, loqaydlik, eʼtiborsizlikdan nola qiladi.

Tavallo «Olamga bir nazar» sheʼrida xalq orasidagi ilm-maʼrifatga toʻsqinlik qilayotgan chirkin illat, noinsoniy urf-odatlarini ayovsiz fosh qiladi va ilgʻor taraqqiy etgan mamlakatlardan namuna – oʻrnak olishga xalqni chorlaydi.

Tavallo xalqni maʼrifatga chorlab «Soʻq taraqqiy» sheʼrida gʻafolat va loqaydlikni tark etishga daʼvat qiladi:

*Tur, ey millat, qo'y emdi, chiq buyon uyqu kanorindan,  
Ko'zing och, ibrat ol, sen o'zga millat koru borindan.  
Jaholat chodiriga burkalib yotmoqni tark ayla,  
Yur emdi, qolma shunda o'zga millatlar qatorindan.*

Shoir o'zining «Turkiston viloyatining gazetisi»da bosilgan «Ibrat olmoqni vaqtu yetmadimu?» maqolasida yana yuqoridagi muammolarni oddiy xalq tilida rivojlantiradi: «...Telegramm (telegraf), telefon, ayroplan, gramofon va g'ayri shunga o'xshash quvvati bilan ishlaydigan narsalarni inson aqli ila bunyod etib, vujudga keltiradimi yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladimi, albatta yo'q, hammasi ilm tufayli va hunardandur. Bas, shundog' bo'lgandan keyin nima uchun bizlar ilmdan bezormiz. Boshqa millatlar qancha ilmga rag'bat etsalar, bizlar hamon qochamiz». Xullas shoir Tavallo ilgari surgan ajoyib g'oya va chaqiriqlar bugungi kunda ham dolzarb muammo sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

XX asrning boshlarida Turkistondagi demokratik harakatlarning oldingi saflarida o'zbek xotin-qizlarining vakillari ham faol qatnashganlar. Bular orasida **Nozimaxonim (1869–1924)** alohida o'ringa egadir.

Nozimaxonim o'zbek ma'rifatparvar shoirasi. U arab, fors, ozarbayjon, tatar va rus tillarini yaxshi bilgan. U 1900- yillardan boshlab she'r va publitsistik maqolalari bilan matbuotda ko'rinishga boshladi. 20 yoshlarga kirganda «Beshyog'ochlik Nozimaxonim» nomi bilan el-xalq o'rtasida shuhrat topdi. Nozimaxonim «Turkiston viloyatining gazetisi», «Osiyo», «Shuhrat», «Sadoi Turkiston» kabi gazetalar va «Oyna» jurnalida o'z asarlarini chop ettirdi. Shoira she'rlarida Sharq ayollarining hayoti va qismatini keng qamrovli, bir tarzda kuylaydi. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning ishtirok eta olmayotganligidan afsuslanadi, ularning haq-huquqlarini kamsitgan va poymol qilgan tuzumni, jamiyatni, uning hokim xo'jayinlarini la'natlaydi. Shoira ayollarning ilmi, ma'rifatli bo'lishlariga katta ahamiyat berib, ularni bid'at va g'aflat uyqusidan uyg'otishga chaqiradi, o'zga millat ayollaridan namuna olishga da'vat etadi:



*Boqingkim, oʻzga millat qizlari na yerlarga yetmush,  
Oʻqub ilmu hunarlarni, ki hikmat sirini bilmush,  
Bilib, oʻz eʼtiborin ham huquqini tanib olmush,  
Asrlar eltgʻon bidʼat uyqusidan uygʻoning!*

Nozimaxonim faqat oʻz shaxsiy manfaati, quruq obroʻ-eʼtiborini oʻylagan, millat, xalq taqdiri va taraqqiyotiga eʼtiborsiz, loqayd, toʻy-tomosha, aysh-u ishrat, qimor va dabdabaga mukkasidan ketgan, maʼrifatdan bexabar boylar, toʻralarni ayovsiz tanqid qiladi.

«Ming taassuf» sheʼrida u quyidagi satrlarni bitadi:

*Ming taassuf, ajab zamon oʻldi,  
Yaxshi kim ersa, ul yomon oʻldi.  
Har mahalla ichida toʻrt samovar,  
Necha nodon chiqib qimor oʻynar.  
Baʼzisi mast eshak kabi hangrar,  
Holimizni koʻrib kular agʻyor.  
Dilki millat gʻamida qon oʻldi.  
Kori behudalar ayon oʻldi.*

Nozimaxonim oʻzbek ayollaridan yetishib chiqqan birinchi publitsist jurnalistdir. U turli tillarni bilish muhim aloqa vositasi sifatida inson hayotida katta ahamiyatga ega ekanligini alohida taʼkidlagan.

Xulosa shuki, rus mustamlakachilari Turkiston zamini uzra oʻz hukmronliklarini oʻtkazgan kezlarda yurtning jonkuyar, millatsevar, erksevar farzandlari jadidlar harakati taʼsirida milliy istiqlol uchun, mustaqil Turkiston uchun, ekspluatatsiya, zoʻrlilik va zoʻrovonlikka qarshi xalqni otlantirdilar. Faqat oʻlkada soʻnggi asrlar davomida ishlab chiqarish kuchlari va taraqqiyotning orqada qolganligi oqibatida, xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy, gʻoyaviy-nazariy saviyasi ham yetarli darajada davr talabiga monand boʻlmaganligidan bu kurash birlashgan katta kuch sifatida muvaffaqiyat qozonildi. Siyosiy-ijtimoiy tarqoqlik «Oʻzingni bil, oʻzgani qoʻy» kayfiyati milliy kayfiyatga, milliy birlikka putur yetkazadi.

Jadidlar oʻzlari tashkil etgan matbuotda oʻz gʻoya-fikrlarini eʼlon qilib xalq orasida keng maʼrifatchilik ishlarini olib borib

xalqni «har vaqt gʻaflat uyqusidan uygʻotuvchi», «millat ongining ochqichi» ekanligini namoyon etib oʻlka aholisini hur fikrlashga katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda «Erk», «Turon», «Maorif havaskorlari», «Taraqqiyparvarlar», «Oʻqituvchilar jamiyati» kabi uyushmalar paydo boʻladi. Munavvarqori aytganidek, «Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini yevropaliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlarni tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi».

Jadidlar bu davrda «ozodlik, kenglik va adolat» shiori ostida ishladilar. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati gʻoyatda eʼtiborga molikdir. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan toʻla amalga oshdi. Bu hodisa el orasida obroʻsini koʻtardi. Mazkur holat jadidlar maʼrifatparvalikdan siyosiy kurashga allaqachon oʻtganliklarini bildirar edi<sup>1</sup>.

#### 4. 1916-YILGI QOʻZGʻOLON<sup>2</sup>

1916-yil 25 iyunda rus imperatori Nikolay II ning «Imperiyadagi rus boʻlmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yoʻllari qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek davlat mudofaasi uchun zarur boʻlgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqida»gi farmoni bamosoli yara ustiga chiqqan chipqonning oʻzi boʻldi. Farmonga binoan Turkiston oʻlkasidagi rus boʻlmagan 19 yoshdan 43 yoshgacha boʻlgan jami 250 ming erkak front orqasidagi ishlarga safarbar qilish koʻzda tutilgan edi. Lekin farmonning bunday tarzda Turkiston oʻlkasiga mutlaqo tatbiq etib boʻlmasligini tajribali podsho amaldori, sobiq harbiy vazir A.N.Kuropatkin ham tushungan edi. U vazir yordamchisi general Frolovga Rossiyada ikki yildan beri davom etib, nihoyasi koʻrinmagan

<sup>1</sup> *Аҳмедов Сирожиддин, Ражабов Қаҳрамон. Жадидчилик. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. Т., 2002. 519–523-бетлар.*

<sup>2</sup> *Ushbu mavzu «Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида» (412–424-бетлар); Х.Зиёевнинг «Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш» (Т., «Шарқ», 1998, 400–431-бетлар) китобларида янгича талкин этилган.*

bu tadbirni, ya'ni urushga 19–43 yoshli aholini safarbar qilish masalasi hal boʻlmagan holda uni chekka oʻlkalarga tatbiq etish nooʻrinligini koʻrsatgan edi<sup>1</sup>.

Farmonga koʻra Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 88 ming, Fargʻonaga 50 ming mardikor yuborish vazifasi yuklatildi. Podshoning oʻsha farmoni haqidagi bu shum xabar yashin tezligida butun Turkiston oʻlkasiga tarqaldi va azob-uqubatlardan bagʻri qon, alamzada Turkiston mehnatkashlarini larzaga soldi. Chunki mardikorlikka faqat kambagʻallarning farzandlarini olish rejalashtirilgan edi. Mardikorlikka olish roʻyxatlarini tuzish volost boshqaruvchilari, oqsoqollar va ellik boshilarga yuklatilgan edi. Ular bundan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalandilar. Mahalliy maʼmurlar katta poralar evaziga boylar va amaldor toʻralarning arzandalarini safarbarlikdan qoldirar, koʻproq kambagʻal oilalarning farzandlarini roʻyxatga qoʻshib qoʻyar edilar. Bundan tashqari mustamlakachi maʼmurlar ijozati bilan boylar va amaldorlar oʻz oʻgʻillari oʻrniga mardikorlikka boshqa kishilarni yollashlari ham mumkin edi. Bunday nohaqlik, adolatsizlik va firibgarlik busiz ham biri ikki boʻlmay, nochor hayot kechirayotgan chorasiz xalq ommasining sabr-kosasini toshirib yubordi, ular bosh koʻtarishga majbur boʻldilar. Ana shu tariqa Turkistonda tarixda Jizzax qoʻzgʻoloni nomi bilan maʼlum boʻlgan umumxalq qoʻzgʻoloni sodir boʻldi. Dastlab qoʻzgʻolon Samarqand viloyatining Xoʻjand shahrida 1916-yil 4-iyulda boshlandi. Bu yerda toʻplangan 6–7 minglar chamasi olomon politsiya idorasini qurshab oldi va mardikorlikka bormasliklarini izhor qiladilar. Qoʻzgʻolonchilarning oldingi saflarida Abdumadaminov, Dadaboy Masharipov, Yahyoxon Qori Olimxonov, Eshonxon Mirza Oʻrinov kabi xalq vakillari bordilar. Qoʻzgʻolonchilar safida ayollar va bolalar ham bor edi. Politsiya qoʻzgʻolonchilarni oʻqqa tutdi. Uch kishi oʻldirildi, toʻrt kishi yarador qilindi. Bu xabar tez orada butun Samarqand viloyatiga va boshqa hududlarga ham tarqab ketdi. Jumladan 7-iyulda Xoʻjand voqeasidan xabar topgan Samarqand viloyatining Dahbed qishlogʻida qoʻzgʻolon koʻtarildi. Bir necha ming kishi qatnashgan bu qoʻzgʻolonga mulla Usmon Abdurasulov, Gadoy Abduqodirov, Xolmoʻmin Xolmurodov, Azizqul Mu-

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 416-бет.

rodov, Muxtor Hafizov singari xalq fidoyilari boshchilik qiladilar. Qo'zg'olonchilar bo'lim boshqaruvchisining mirzasi Qobulovni o'ldirdilar. Qo'zg'olon qatnashchilaridan Usmon Abdurasulov boshchiligida 30 kishi hibsga olindi va turmaga tashlandi. Qo'zg'olonning asosiy markazi Jizzax shahri va uyezdi edi. Qo'zg'olon ko'targan Jizzax xalqi chor ma'murlarining kamsitivchilikdan iborat mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashga otlandilar. Podsho farmoniga ko'ra Jizzax viloyati bo'yicha 10531 kishi mardikorlikka safarbar etilishi kerak edi. Shu jumladan Jizzax shahridan 655 kishi, Zomin volosti bo'yicha 731 kishi, Sangzor volostidan 2891 kishi, Sintob volostidan 508 kishi, Bog'dod volosti bo'yicha 2311 kishi<sup>1</sup> front orqasidagi ishlarga olinishi ko'rsatildi. Ammo podshoning safarbar bo'yisha tadbirlari mehnatkash xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi, aksincha, ommaning qahr g'azabi va nafrati kuchayib, ommaviy qo'zg'olonga aylanib ketdi. Bu qo'zg'olon davomida o'zining butun qalbi-vujudini mehnatkash xalq baxtiga baxshida etgan haqiqiy qahramonlar yetishib chiqdilar. Nazirxo'ja Abdusalomov, Mulla Mahamad Rahim, Ziyoqori Abdullayev, Mamasharif Husanov, M.O'rinxo'jayev, Musabek To'rabekov, Abdulla Ochilov va boshqalar shular jumlasidandir. Sho'rolar hokimiyati yillarida laganbardor tarixchilar Jizzax qo'zg'olonining asl mohiyatini soxtalashtirib, buzib talqin qiladilar va unga diniy tus berdilar<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Хайдаров Х. «Жиззах тарихидан лавҳалар», 34-бет.

<sup>2</sup> Masalan, 1960-yilda Moskvada A.V.Pyaskovskiy, T.A.Elionov, A.G.Zima, O.K.Kuliyev, X.T.Tursunovlar tahririda nashr qilingan «O'rta Osiyo va Qozog'istondagi 1916-yil qo'zg'oloni. Hujjatlar to'plami»da chor podshosi arxividan olingan 508 ta e'lon qilinmagan hujjatlar berilgan. Ammo bu qo'zg'olonning tub mohiyatini ochib beruvchi bir qator hujjatlar to'plamga atayin kiritilmagan. Masalan, Samarqand viloyati gubernatori, general-mayor N.S.Likoshinning 1916-yil 20-sentabrdagi Samarqand atrofidagi 50 qishloqni yer bilan yakson qilish uchun bergan hammaga ma'lum buyrug'i, Harbiy tribunalning qo'zg'olon rahbarlariga qo'yan ayblari va 1916-yil dekabrda chiqargan hukmi, qo'zg'olonga qarshi amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning rejalari, general-gubernator Kuropatkinning qo'zg'olonni majaqlab tashlash to'g'risidagi buyrug'i va qo'zg'olon avj olgan joylarning xaritasi kabi hujjatlar to'plamga kiritilmagan. Mazkur hujjatlar to'plamida Turkiston milliy burjuaziyasi podsho tarafida turganligi to'g'risidagi noto'g'ri fikr ilgari suriladi. A.V.Pyaskovskiyning bu to'plamga yozgan so'zboshisi ham deyarli ilmiy ahamiyatga ega emas. Ammo bu to'plam mazkur mavzuni o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Bu qo'zg'olonning milliy-ozodlik xarakterini xaspo'shladilar. Holbuki Jizzax qo'zg'olonini qon bilan bostirgan chor Rossiyasi zobitlarining o'zlari bu qo'zg'olonni Rossiya hukumatiga qarshi qaratilganligini o'z vaqtida ochiq-oydin tan olib aytganlar. Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.Likoshin bergan axborotda jumladan quyidagilarni o'qiymiz: «Norozilik harakati ko'tarila bordi, goh u yerda goh bu yerda ur-yiqitlar va o'ldirishlar sodir bo'ldi. Mahalliy amaldorlarning tushuntirishlari va ogohlantirishlari xalqqa ta'sir qilmadi. Ma'murlarning so'zlariga xalqning mutlaqo ishonchi qolmadi, nihoyat bu harakat Rossiya hukumatiga qarshi ochiq qo'zg'olon tusini oldi».

Chor Rossiyasining Jizzax qo'zg'olonining milliy mustamlakachilik zulmiga qarshi umumxalq qo'zg'oloni ekanligini tasdiqlaydigan adolatli qarashlari 1916-yildagi boshqa rasmiy hujjatlarda ham tan olingan. Jumladan, chor hukumat tomonidan qo'zg'olonchilarni jazolash uchun tuzilgan favqulodda sud aybnomalarining birida yJizzax volostidagi qo'zg'olon xalq harakati ekanligi e'tirof etilgan. Ana shu aybnomada bayon qilinganidek 12–13-iyul kunlari Jizzax uyezdi Yom volosti aholisi qo'zg'alib, otliq va yayov bo'lib, mustamlaka ma'murlari, volost boshqaruvchisi va oqsoqollarga qarshi shiddatli hujum boshladi. Qirq qishlog'ida Karim Orziqulov boshliq olomon ellikboshlardan Norcha va Qulbeklarni o'ldirishdi. Qo'zg'olonchilarni Turdibek Xudoynazarov boshchiligidagi 500 kishilik yana bir guruhi Chuqurtoqqishloq oqsoqoli Mulla Mahkamboy Mulla Ro'ziqulovni toshbo'ron qilib o'ldirdi. Zomin pristavi Sobolev qurolli qo'zg'olon soqchilar va tarjimoni bilan Yom volostiga kelib qo'zg'olon tashabbuschilaridan yetti kishini, shu jumladan, Karim Orziqulov bilan Turdibek Xudoynazarovni qo'lga tushirib, soqchilar hamda Yom volost boshqaruvchisi Mulla Fozilov bilan Zominga jo'nadi. Lekin ular yo'lda 800 kishilik qo'zg'olonchilarning hujumiga duch keldi. Yom volostidagi singari qo'zg'olon harakatlari Yangi qo'rg'on, Zomin va boshqa volostlarda ham bo'lgan.

Mana shunday eng og'ir va hal qiluvchi damlarda mahalliy hokimiyat vakillari mustamlakachi chor ma'murlariga yordam berganlar va o'z millatlarining manfaatlariga xiyonat qilganlar. Buni quyidagi dalil yorqin ifoda etadi. Jizzax shahri

mehnatkashlarining qo'zg'olonlaridan tashvishga tushgan Jizzax uyezdi hokimi Rukin Eski shahar aholisining bir qismini katta masjidga to'plab, agar ular hukumatga qarshilik ko'rsatsa, hammaning mol-mulki musodara qilinib, uylari yakson qilina-jagini aytgan. Mahalliy ma'muriyat vakillari Akrom to'ra, Muxtorxon to'ra, Abdusamad Maxsum va boshqalar uyezd boshlig'iga ta'zim qilib, podsho farmonini to'la ma'qullab, uni shubhasiz bajarish va xalq harakatini bostirishda chor ma'murlariga yordam ko'rsatishga va'da berishdi. Mirzaahmad tilmoch hokimning so'zini tarjima qiladi va «Imperator a'zam janoblari xalqdan mardikorlikka odam olishni buyurgan. Imperator janoblarining buyruqlari shariat qonunidan ham afzal, shuning uchun albatta bajarilishi kerak», – deb yaltoqlik qiladi.

Mustamlakachi va mahalliy ma'murlarning o'zaro til birlashtirib xalq ommasiga nisbatan ishlatgan zo'ravonlik, do'q-po'pisa siyosati mehnatkashlarning nafrat va nadomatini yanada battar oshirdi. Mehnatkash xalq milliy zulm va zo'rlikka qarshi yoppasiga qo'zg'olonga ko'tarildi.

G'azabi to'lib toshgan xalqning erk uchun kurashi o'z qahramonlarini yaratdi. O'zbek shoiri Fozil Yo'ldosh(1872–1955) ning «Jizzax qo'zg'oloni» dostonida bu qo'zg'olon manzarasini yorqin bo'yoqlarda aks ettirgan. Fozil Yo'ldosh o'z dostonini yaratishdan oldin qo'zg'olonning bevosita qatnashchilari Abdulla Ochilov, Mamasharif Husainov, Shodi Ashirmatov, Mavlon Kenjayev, Urdush Muqimov va boshqalar bilan shaxsan uchrashgan va ular bilan suhbatlar olib borgan edi. Dostondagi Toir cho'loq, Qurbon Og'ajon polvon va boshqalar timsolida xalq qo'zg'oloni qahramonlari va ularning jasoratlari ifodalangan. Shoir yuksak badiiy mahorat bilan xalq ommasining chorizmga va mahalliy ma'murlarga, boylar va amaldor-to'ralarga qahrg'azabi ortib borib, ochiq qo'zg'olonga aylanib ketganligini yorqin satrlarda ifoda etadi:

*Podshoga qarshi boraylik,  
Podsho kimdir, biz bilmaymiz,  
Podsho yordamchisin topib,  
Urta deb ot qo'yaylik  
Yo olaylik yo o'laylik  
Sira qaytmanglar xaloyiq,*

*Mehnatkashsan zulm o'ldi,  
Suyaklar o'rtanib ketdi.  
Qattiq zulm o'tgandan so'ng,  
Shuncha xalq qo'zg'olon qibdi.*

1916-yil 13-iyulga kelib Jizzax qo'zg'oloni keskin tus oldi.

Qo'zg'olon ko'targan olomon eski shahar oqsoqoli Mirzayr Xudoyorxonovni o'ldirib, yangi shahar tomon otlandi.

Voqealarning rivojlanib borishidan xabar topgan uyezd hokimi polkovnik Rukin qo'zg'olonni bostirish uchun qo'shin chaqirtirdi. Jazo otryadining kelishini kutib o'tirmasdan, Rukin pristav Zotoglov, tarjimon Mirzahamdani Zokirjonov va ikkita soqchi yigit bilan faytonga o'tirib, Eski shaharga jo'nadi va yo'lda qo'zg'olonchilarga duch keldi. Uyezd hokimi qo'shin kelishga qadar qo'zg'olonchilar bilan muzokara olib borishga qaror qiladi. Ammo olomon uning gapini tinglashni istamadi. Atrofdan: «U aldaydi, unga ishonmanglar! Ur ularni!» degan xitoblar yangradi. Qo'zg'olonchilar yopirilib kelib polkovnik Rukin va uning hamrohlarini do'pposlab o'ldirdilar. Faqat oqsoqol qochib ulgurdi.

Qo'zg'olonni bostirish uchun uyezd hokimining yordamchisi polkovnik Afanasyev o'z qo'shini bilan yetib keldi. Olomon Afanasyev otryadini qurshab olmoqchi bo'ldi. Ammo ketmon, belkurak tayoq va toshlar bilan qurollangan qo'zg'olonchilar harbiy qismning yalpi o'q uzishiga bardosh berolmadi. Qo'zg'olonchilardan 11 kishi halok bo'ladi.

Jizzax qo'zg'oloni chor ma'murlari va mahalliy hokim to'ralarni vahimaga soldi. Ular qo'zg'olonni qonga belash va bostirish maqsadida Toshkentdan yordam so'radilar. Toshkentdan to'plar va pulemyotlar bilan qurollangan otryad Jizzaxga yetib kelgach, qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. Jizzaxning eski shahar qismiga harbiylar o't qo'yib, yer bilan yakson qiladi, yosh-u qari otib, chopib tashlanadi. Shahar aholisi qishloq va ovullar tomon qochdilar. Harbiylar qishloq va ovullarga ham hujum uyushtirdilar. Ko'plab dehqonlar va batraklarni dorlarga osdilar yoki otib o'ldirdilar.

Jizzax qo'zg'olonida ishtirok etgan va qamoqqa olinganlar ustidan shoshilinch suratda harbiy dala sudlari tashkil etilib, te-



gishli choralar ko'rildi. Jumladan, Jizzax qo'zg'olonining rahbari Nazirxo'ja Abdusalomov boshchiligida 76 kishi ustidan 1916-yil 23-avgustda Zakomolskiy raisligida yopiq harbiy sud majlisi bo'ldi. Sud ishi yakuniga ko'ra 32 kishi otuvga hukm qilindi. 1916-yil 10-sentabrda hukm ijro etilib, Nazirxo'ja Abdusalomov, Jaynoq Abdurahmonov, Ziyoqori Abdullayev, Muhammadrahim Abdurahimov va boshqalar osib o'ldirildi, ko'plari sibirga surgun qilindi.

Jizzaxda boshlangan qo'zg'olon tez orada shahar atrofi-dagi Bog'don, Zomin, Sangzor, Yangiqo'rg'on, Yom, Ravot, Qoratosh, Usmat, va boshqa volostlarga ham yoyilib ketdi. Ayniqsa, Abdurahmon Jevachi boshchiligida chor ma'murlarining mustamlakachiligi zulmiga qarshi bosh ko'targan bog'donliklarning jasoratlari vatan tarixida alohida o'rin tutadi. U bosqinchi mustamlakachilarga qarshi faqat barcha kuchlarni birlashtirib kurash olib borgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin deb hisoblaydi. Shu maqsadda aholi o'rtasida tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borish uchun Yangi qishloqqa o'g'li Abdurahmon Jevachi, Qulva qishlog'iga Jevachining o'g'li Qo'ng'irboy Qosimov, Ziyod Sariyev, Baxtiboy, Ilonchi qishlog'iga Joynoq Abdurasulov, Jo'ra Abdug'aprov, Yotoq qishlog'iga Shakarboy Imomboyev, Nurak qishlog'iga Zulfiqori Yo'ldoshevlar safarbar qilindilar. Abdurahmon Jevachi Jizzax vohasida ko'tarilgan barcha qo'zg'olon kuchlarini birlashtirish maqsadini ko'zlab ukasi Bobobek Abdujabborovni Jizzax shahriga Nazirxo'ja Abdusalomov huzuriga yuboradi, shundan so'ng Abdurahmon Jevachi uyida Nazirxo'ja Abdusalomov, Muhammadrahim Abdurahimov va boshqalar to'planishib majlis o'tkazdilar. Unda qo'zg'olonni tashkiliy jihatdan tayyorlash, Jizzax qo'zg'oloniga amaliy yordam berish, rus istilochi qo'shinlariga qarshi birlashib kurashish va Turkiston o'lkasi mustaqilligini ta'minlash kabi masalalar ko'riladi.

13-iyul kunining ikkinchi yarmida Bog'donga Jizzaxda qo'zg'olon boshlanganligi haqida xabar keladi. Abdurahmon Jevachi ko'rsatmasi asosida barcha qishloqlarga vakillar jo'natiladi va ular jizzaxliklarni qo'llab-quvvatlaydilar. Birinchilar qatorida yangiqishloqliklar ketmon, bolta, panshaxa, tayoq va kaltaklar bilan qurollanib «Mardikorlikka bormaymiz!» «Mardikorlikka

boylarning farzandlari borsin!», «Mardikorlikka odam olish roʻyxati toʻxtatilmasa gʻalayon koʻtarishni davom ettiramiz!», «Oq podsho askarlariga qarshi kurashni davom ettiramiz!» dagan gʻala-gʻovurlar, baqir-chaqirlar bilan mirshablar mahkamasi tomon yurdilar. Bogʻdon mirshablar mahkamasining boshligʻi Borillaning qoʻzgʻolonni qonga botirish toʻgʻrisidagi doʻq-poʻpisasi ham qoʻzgʻolonchilarning shashtini qaytara olmadi. Bogʻdonda boshlangan qoʻzgʻolon 14-iyulda butun Forish, Sintob beklklariga tarqaladi.

Qoʻzgʻolon markazi Shotolib qishlogʻida edi. Hayitboy Haydarovning «Jizzax tarixidan lavhalar» risolasida hikoya qilinishicha, bu qoʻzgʻolonga Abdurahmon Jevachining barcha qavm-qarindoshlari faol qatnashgan! «Oʻzbekiston Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarda yozilishicha, Bogʻdonda boshlangan qoʻzgʻolonda Mulla Davil, Sorabek, Doston va boshqa farzandlari, ukasi Bobobek Abdujabborov, shuningdek Ismoil Allayev, Ibrohim Allayev, Umar Imomov, Umar Abdurasulov, Qobul Kattabekov, Quroqboy Qoʻymurodov, Ergash Abdusattorov, Umar Rizaqulov, Joʻra Rahmonqulov, Murod Soʻfiyev, Yangiqishloqda Juldirboy Davronboyev, Omon Ibrohimov, Umar Tursunqulov, Joʻra Raimov, Yusuf Ahmedov, Oqbuloqdan mulla Qulboy Soipov, Forish bekligining Uchma qishlogʻidan Mulla Chinni Yoʻldoshev, Jonodil Jobborov, Ilonchidan Qoʻngʻirboy Qosimov, Ziyod Sariyev, Haydar Nazarov, Eshmon ellikboshi, Safarotadan Avaz Iskandarov, Sintob bekligidan Xoʻjaniyoz Sherbov, Mulla Kamoliddin, Muhammad Yusupov, Qalandarxoʻja va boshqalar qoʻzgʻolonga boshchilik qiladilar. Matlab Quvnoqov, Savron Hasanov, Tulli Musaboyev, Mulla Bobomurod Chalaboyev, Mulla Qurbon Muronboyev, Tursunboy Suyundiqov, Temir Inomov, Ergash Roziqulov singari olovqalb qasoskorlar faol qatnashadilar»<sup>1</sup>.

Qoʻzgʻolonchilar Borillani qoʻlga olish rejasini tuzadi. Maqsad undan mardikorlikka olish roʻyxatini qoʻlga tushirish edi. Ammo pristavning aygʻoqchilari unga bu rejani xabar qilgan edi. Borilla endi oʻz jonini saqlab qolish payida boʻlib, 14-iyul kechasiyoq Bogʻdondan chiqib ketadi va chorvador koʻchmanchi qozoq

<sup>1</sup> Хайдаров Х. «Жиззах тарихидан лавҳалар», 55-бет.

chorvadorining uyida o'ziga panoh topadi. Bu voqeadan xabar-siz Abdurahmon Jevachi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar 14-iyul kechasi Bog'don mirshablar mahkamasiga hujum boshlaydilar. Ular yo'lda Yangiqishloq yaqinida pristav aloqachisi S.N. Simbirsevni Jizzax jazo otryadini chaqirish to'g'risidagi maxfiy xat bilan qo'lga olib uni o'ldiradilar. 15-iyul ertalab Bog'don mirshablar mahkamasini ishg'ol qilgan qo'zg'olonchilar u yerda Borillani topolmaydilar. Vatanparvarlar Bog'don mirshablar mahkamasidan mardikorlikka jo'natilishi lozim bo'lgan 1950 nafar yigitlar ro'yxati yozilgan hujjatni topib oladilar va barcha hujjatlarni yirtib yoqib yuboradilar, mirshablar xonasini ostin-ustin qilib barcha buyumlarni sindirib tashlaydilar.

Qo'zg'olonchilar son jihatdan kun sayin ko'payib bordi. Abdurahmon Jevachi Jizzaxdagi qo'zg'olonchilarga bevosita va amaliy yordam berishga qaror qiladi. U 14–17-iyul kunlari Bog'don mintaqasidagi beklklarga o'zining ishonchli vakillarini jo'natdi va birgalikda harakat qilib Jizzax tomon yurish kerakligini bildirdi. Natijada Forish, Narvon, Majrum va boshqa beklklarning vatanparvarlari ham oyoqqa turdilar. Bu yurishga Ilonchi, To'qay, Anamuna, Yomchi qishloqlarining mingboshi jaynoq Abdurasulov boshchiligida qurollangan 200 otliq dovyurak yigitlar ham kelib qo'shildilar. Jizzax tomon yurgan qo'zg'olonchilarga Abdurahmon Jevachi o'zining yetti o'g'li Norbek, Doston, Islom, Qorabek Dovil, Sorabeklar bilan birga bosh bo'lib bordi. Bog'donlik qo'zg'olonchilar yetib kelganga qadar chor qo'shinlari Jizzaxdagi qo'zg'olonni bostirib olgan edi. Shunga qaramasdan Abdurahmon Jevachi boshchiligidagi vatanparvarlar Qili arig'i yonida podpolkovnik Afanasyev boshchiligidagi rus qo'shinlarini qurshovga oldilar. Natijada bosqinchi kuchlar qattiq otishmalarga chiday olmasdan shaharga chekindilar. Ana shunday paytda rus qo'shinlariga Ivanov boshchiligida qo'shimcha yordamchi kuchlar yetib keladi. Bu vaziyatni dushmanlar foydasiga o'zgartirib yubordi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi. Dushmanning qattiq ta'qibiga bardosh bera olmagan qo'zg'olonchilar Nurota tog'lari, Samarqand, Buxoro va boshqa tomonlarga najot izlab qochdilar. Jizzaxga yashirincha qochib kelgan Bog'don pristavi Borilla jazo otryadiga boshchilik qiladi va qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch oladi.

Jazo otryadlari qishloqma-qishloq, ovulma-ovul, togʻ va qirlar osha kezib yoʻl-yoʻlakay yoshu qari, erkak, ayol demasdan duch kelgan odamni otib, chopib oʻldiradilar.

26–27-iyul kunlari Bogʻdon muzofotining oʻzida sudsiz-tergovsiz 120 dan ziyod kishini otib tashladilar. Ular orasida Koʻhnabozor qishlogʻidan aka-uka Haydar va Rahmon Qurbo-novlar, Omon Ibrohimov, Matlab Quvnoqov, Rahmon Ematov, Isroil Moʻminov, Ismoil Ollomurodov, Rahmat Rahmonov, Murodqosim Ortiqov, Joʻra Rahimov, Otaqul Sultonov kabi erkparvarlar bor edi.

Insoniylik qiyofasini yoʻqotgan «maxluq» jallodlar Yangi Qishloq, Mixin, Ilonchi, Toʻqay, Yom, Ota, Yotoq, Nurak, Qoratosh, Anamuna, Sarimsoq, Sharilloq, Safarota, Mojirin va boshqa oʻnlab qishloq va ovullarga batamom oʻt qoʻyib kulini koʻkka sovurdilar.

Ana shu tariqa Bogʻdon qoʻzgʻoloni chor maʼmurlari tomonidan ayovsizlarcha shafqatsizlik bilan bostirildi. Qoʻzgʻolon ishtirokchilarining koʻpchiligi osib oʻldirildi, qamoqqa olindi, otib tashlandi va Sibirga surgun qilindi. Qoʻzgʻolonning rahbari Abdurahim Jevachi sud qilinib Jizzaxning Qutirbuloq mavzesida osib oʻldirilgan. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha Abdurahmon Jevachi sud jarayonida: «Nega xalqni qoʻzgʻolonga chorlading?» deb berilgan savolga quyidagicha javob bergan ekan: «Rossiya saltanati Turkistonni bosib olgandan soʻng, xalq ayovsizlarcha talandi, islom dini va shariat qonunlari oyoq osti qilindi, koʻplab masjidlarimiz, tarixiy obidalarimiz buzilib, kitoblarimiz yondirildi, ilmi kishilardan oʻch olindi. Turmalarga tashlandi, bu ham yetmagandek oq podshoning farmoni bilan mahalliy millat vakillarini mardikorlikka chaqirilishi xalq sabr kosasini toshirib yubordi. Biz Jizzax, Samarqand va Toshkent aholisi bilan birlashib ozod Turkiston jumhuriyatini tuzishga bel bogʻlagan edik. Ming afsuski oʻylagan oʻylarim amalga oshmay qoldi».<sup>1</sup>

Sud hukmi oʻqilgandan soʻng Abdurahmon Jevachiga: «Agar sen xaloyiq oldida qilgan ishimdan pushaymonman, tavba qildim, meni kechiringlar deb aytsang seni oʻlimdan ozod qilamiz»

<sup>1</sup> Хайдаров Х. «Жиззах тарихидан лавҳалар», 60-бет.

deyishdi. Abdurahmon Jevachi bu taklifdan nafratlanib va g'azablanib: «Men sotqin emasman. Men xalq ozodligi uchun kurashdim, o'z yo'limdan hech qaytmayman, alvido yurtdoshlar»,<sup>1</sup> deya dor sirtmog'ini o'z qo'li bilan bo'yniga ilib mardlarcha jon bergan edi. Abdurahmon Jevachi siymosi Vatan va millat ozodligi va adolat uchun kurashda yosh avlod uchun o'rnak va namuna timsolidir.

Qo'zg'olon qatnashchilaridan Savron Hasanov, Musa To'g'ayev, Mamat Musayev, Chug'urchi Nazarov, Jonuzoq To'g'ayev, Suqon Eshmatov, Sindor Davronov kabi vatanparvarlarning har biri o'n yil muddat bilan Sibirga surgun qilindi.

Jizzax bilan bir vaqtning o'zida Kattaqo'rg'on shahar va uyezdida ham xalq qo'zg'olon ko'tarib ko'chalarga chiqqan edi.

Kattaqo'rg'on uyezdining Mingariq volosti aholisi 18–19-iyul kunlari qo'zg'olon qilib oqsoqollarning uylariga o't qo'ydilar. Qo'zg'olonning keng tus olayotganligidan tahlikaga tushgan uyezd hokimi N.M.Ross viloyat harbiy gubernatoriga 22-iyulda yuborgan xabarnomasida, Kattaqo'rg'on volostidagi O'zbekkent va Arabxona qishloqlarida qo'zg'olon ko'targan olomon qozining uyiga hujum qilib, uni o'ldirgani to'g'risida ma'lumot beradi. Tobora keng quloch yozayotgan g'alayonning oldini olish uchun N.M.Ross «jinoyatchilarni» qidirib topgandan ko'ra, ularning uylariga yalpisiga o't qo'ygan ma'qul deydi.

1916-yilgi xalq harakatlari Farg'ona viloyatining beshta uyezdiga: Andijon, Qo'qon, Namangan, Skobelev (Farg'ona) va O'sh uyezdlariga yoyildi. Rasmiy hujjatlarga ko'ra Farg'ona viloyatida kamida 107 joyda, Samarqand viloyatida 25 joyda, Sirdaryo viloyatida 20 joyda qo'zg'olon va g'alayonlar bo'lib o'tganligi qayd etilgan. 1916-yilning iyul o'rtalarida bo'lib o'tgan Marg'ilon qo'zg'olonida 25 mingdan ortiq xalq qatnashdi. Ularning aksariyati kambag'al dehqonlar, kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular tengsizlik va haqsizlikka qarshi kurashga chiqqan edilar. Biroq mahalliy hukumat ma'murlari harbiy qo'shinlar yordami bilan bu qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Qo'zg'olonchilardan 63 kishi katorgaga va surgunga jo'natildi.

<sup>1</sup> O'sha manba.



**1916-yilgi milliy-ozodlik qoʻzgʻoloni qatnashchilari**

Bular orasida Nurmuhammad Maʼzumov, Tojiboy Miraliyev, Layliboy Qosimboyev, Shermuhammad Habibullayev, Qodirjon Mamasodiqxoʻjayev, Kamoliddin Holliyev va boshqalar bor edi.

Mustamlaka maʼmuriyati bergan maʼlumotlarga koʻra Fargʻona viloyatining 17 joyida aholining harbiy qismlar bilan qonli toʻqnashuvi boʻlib oʻtgan. 9-iyul kuni Andijonda ham odamlar qoʻzgʻaldi. Mahalliy amaldorlarni doʻpposlagan ulkan olomon eski shahardan yangisiga Skobelev nomli katta koʻcha orqali yoʻl oldi. Andijonliklar 1898-yildagi voqealarni unutmagan, intiqom oʻti endi barala alanga olgan edi. Ular Gultepa maydonida tumanboshi I.Brjezitskiy bilan uchrahishadi. U kazaklar va politsiyachilar qurshovida turib, olomonning talablarini eshitib, kazaklarga ularni oʻqqa tutishni buyuradi. Natijada uch kishi halok boʻlib, 12 kishi yaralanadi. Andijon uyezdi boshligʻi vazifasini bajaruvchi 1916-yil 27-sentabrda Turkiston rayon muhofaza boʻlimi boshligʻiga yoʻllagan xatida 9-16 iyul kunlaridagi qoʻzgʻolon tafsilotini bayon qilgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 420-бет.



9-iyul kuni Andijon shahrining ikkinchi qismida Gultepa maydonidagi «tuzemetslar olomoni» amalga oshirgan tartibsizliklarni bostirish chogʻida alohida Ural kazak yuzligidan Kuntayevning boshiga tosh tegib jarohat koʻrdi. «Tuzemets»lardan uch kishi oʻldi, 8 kishi yarador boʻldi. Qoʻzgʻolon boshliqlaridan 22 kishi ushlendi, tergov organiga topshirildi. 10-iyulda Oltinkoʻl boʻlisiga qarashli Dalvarzin qishlogʻida qoʻzgʻolonchilar boʻlis boshligʻi Mulla Hakimbek Mulla Roʻzibekov va uning hamrohlari (Temirboy Paygʻambarqulov, Karimjon Abdavaxobxoʻjayevlar)ni oʻldirdilar. Qoʻzgʻolon boshliqlaridan 32 kishi ushlanib qamoqxonaga topshirildi.

11-iyulda Maygir boʻlisining Chuvama qishlogʻida koʻtarilgan qoʻzgʻolonida «tuzemetslar olomoni» Chuvama ellikboshisi Qipchoqboy Boymirzayevni oʻldirdilar. Qoʻzgʻolon rahbarlaridan 16 kishi hibsga olinib, tergovga berildi.

12-iyulda Baliqchi boʻlisidagi Xolmurod-Qoʻrgʻoncha qishlogʻida qishloq oqsoqoli Eson Ali Rahimqulov oʻldirilib, qoʻzgʻolon tashkilotchilaridan 2 kishi qamoqqa olingan. Xuddi shunday qoʻzgʻolon «tuzemetslar olomoni» tomonidan Yor-boshi boʻlisidagi Bekobod qishlogʻida, Sultonobod jabhsidagi Soʻfiqishloq, Norin boʻlisidagi Choʻja qishlogʻida boʻlib oʻtdi. Andijon tumanini Kapa, Hindimozor, Koʻtarma, Elaton, Mir-obod, Xoʻjaobod (Baliqchi boʻlisidagi), Oʻrmonbek qishloqlarida ham qoʻzgʻolonlar boʻlib oʻtdi. Qoʻzgʻolon qatnashchilaridan talaygina qismi hibsga olindi<sup>1</sup>.

Muso Turkistoniy «Ulugʻ Turkiston fojiasi» asarida Margʻilon voqeasining chuqur va atroflicha tafsilotini bergan. Margʻilondan keyin qoʻzgʻolon Skobelev uyezdining Fayziobod, Yozyovon, Yakkatut boʻlislariga yoyildi.

Margʻilon bilan bir vaqtning oʻzida Namangan shahrida ham qoʻzgʻolon koʻtarilgan. 11-iyulda Namangandagi Labbaytogʻa dahasidagi Kurashxona maydoniga 1500 odam toʻplandi. Labbaytogʻa dahasining qozisi xalq qoʻzgʻoloni haqida darhol pristavga xabar yetkazdi. Pristav V.Dombrovskiy tish-tirnogʻigacha qurollangan harbiy qism bilan yetib keldi. Erkaklar, ayollar va bolalardan iborat olomon V.Dombrovskiydan mardikorlikka safarbarlik qiluvchi roʻyxatni tuzishni toʻxtatishni

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб... 420-бет.



talab qiladi. G'alayon kengayib ketishidan xabar topgan kapitan Rumyansyev o'z rotasi bilan yetib keldi. Bu ashaddiy millatchi kapitan dab-durustdan aholini o'qqa tutishga buyruq berdi. Pristav Dombrovskiyning e'tirof etishicha, qo'zg'olonchilar qurolsiz va katta talofat berilishiga qaramay harbiy va politsiyachilar bilan qattiq olishgan. Ular politsiyaga hujum qilib, pristav Fedorovning to'pponchasini tortib olmoqchi bo'lishgan, hatto qo'zg'olonchi Jamollidin Uvaysov bir politsiyachining qilichini tortib oldi.

Namangan qo'zg'oloni qatnashchilaridan 84 kishi turli muddatlarda qamoq jazosiga hukm qilingan. Farg'ona vodiysining 17 joyida bo'lib o'tgan to'qnadshuvlarda ikki tomondan ayniqsa, mahalliy aholi juda ko'p qurbonlar bergan; 5 kishi o'ldirilgan, 109 kishi yarador qilingan. Yarador bo'lganlardan keyinchalik yana 28 kishi vafot etgan. Ammo bu raqamlarning ataylab kamaytirib ko'rsatilganligini keyinchalik mustamlaka ma'murlarning o'zlari tan olishgan. Jumladan, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori, g'alayonlarda o'lgan va yarador bo'lganlarning ko'pchiligini aholi tez fursatda jang maydonidan olib ketganligi sababli aslida qancha talofat berilganligini bilish qiyin, deb yozgan edi.

11-iyulda Toshkentning Eski shahar qismida xalq harakati to'loqini ko'tarildi. To'plangan olomon: «O'lsak o'lamiz lekin bolalarimizni bermaymiz!», «Zolim podshoning o'zi o'lsin!», «Qachongacha u bizni ezadi?» deb har tomondan baqirardi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Kolesnikov boshchiligidagi jazo otryadi yetib keldi.

Qo'zg'olon vaqtida polkovnik N.Ye. Kolesnikov bir necha marotaba olomonni tinchlantirishga harakat qiladi. Qo'zg'olonchilardan biri qo'lida qilichi bilan N.Ye.Kolesnikovga tashlanganida u bu kishini to'pponchadan otib o'ldiradi. Shundan keyin xaloyiqning qoni qaynab «Ur» degan ovozlar yangradi. Olomon orasida Mahmud Mirsoatov ismli gimnaziya o'quvchisi «Mirshablarni uringlar!» deb odamlarni hujumga chaqirgan. Qo'zg'olonchilardan Mirqosim Isamuhammedov sherigi bilan telefon simini uzgan. Olomonning boshqarma idorasiga bostirib kirishi xavfi tug'ilganidan keyin N.Ye.Kolesnikovning buyrug'iga ko'ra ularga o'q uzildi. Natijada 11 kishi o'ldirildi

va 15 kishi yarador qilindi. O'lganlar orasida Abdusamad Abdusoatxo'jayev, Shoyunus Abdukarimov va boshqalar bor edi. Ayollardan Ro'zivonbibi Ahmadxonova o'ldirildi. Zo'rbibi Musamammedova yarador qilindi. Usta Odil Alimboyev, Oxunbobo Abdulla Azizov, mulla Olim Fayziboyev, Po'lat Mirisayev, Shokir Kamolov, Ernazarxo'ja Ikromboyev, Sodiq Qoriyev va boshqa kishilar yaralangan edilar. Boshqarma hovlisida ro'y bergan fojidan keyin ko'p o'tmay Toshkent shahar boshlig'i O.O.Kochin yetib keldi. U o'zi ko'rgan voqeani shunday bayon etgan: «Men politsiya boshqarmasiga kelganimda ko'chada, boshqarma atrofida va qisman hovlida erkagu xotinlardan tashkil topgan olomonga duch keldik. Olomon bir necha ming kichidan iborat bo'lib, ular orasida o'lganlar va yaradorlar yotardi. Politsiya boshqarmasiga boradigan ko'chada ayrim kishilar menga yig'i-sig'i aralash nimalarnidir tushuntirib, kimlarningdir ustidan shikoyat qilmoqchi bo'ldilar. Bu yerdagi erkaklar va xotinlarning hammasi xo'rlangan va ezilgan ko'rinadi. Politsiya boshqarmasiga kirganimda Eski shahar mirshablarining hammasi qo'llarida to'pponcha ushlab turganlarini ko'rdim. Boshqarma binosi oldida telefon simi uzilgan holda yotibdi. Idoraning ichida g'isht va tosh parchalarini, eshik va derazalar singanini ko'rdim. Hali harbiy qismlar kelmagan edi. Olomonning tarqalishini so'rab qilingan taklif inobatga olinmay, shovqin-suron eshilib turdi. Ko'p o'tmay o'liklarni va yaradorlarni olishga va tibbiy yordam ko'rsatishga kirishildi. Shu paytgacha boshqarmaga harbiy bilim yurtining bo'linmasi va Toshkent yangi shahrining mirshablari kelishdi. Shundan keyin harbiy qismlar ham yetib kelib, olomoni ko'cha tarafdin o'rab oldi va ularni tarqatishga muvaffaq bo'lindi. Qo'zg'olonchilardan bir guruhi mirshab Mirkomil xonadoniga hujum qilish uchun Beshyog'och tomonga ketishgan ekan».

Chor hukumati qo'zg'oloni bostirgandan keyin ko'p kishilarni hibsga oldi va sud qiladi. G'alayonning faol qatnashchilaridan etikdo'z Abdurahmon Qayumso'fiyev va qora ishchi Mirqosim Shomammedov osib o'ldirishga hukm etildi. Ishchilardan Tojiboy Yunusxo'jayev, G'ulom Kamolov, Yo'lchi Ibrohimov, Nizomiddin xo'ja Zayniddin Xo'jayev, kambag'al dehqon

Murodxo'ja Mahmudali Xo'jayev, Yoqub Murodjaboyev va boshqalar uzoq muddatli surgun yoki qamoq jazosiga tortiladilar<sup>1</sup>.

Garchand Toshkent qo'zg'oloni bostirilgan bo'lsada, uning aks-sadosi butun o'lka bo'ylab taraldi. Avvalo g'alayonlar Toshkent atrofidagi joylarda avjga chiqdi. Odamlar 12–14-iyul kunlari Xitoytepa, G'ishtko'prik, Xonobod, Piskent va Kaufman stansiyasi (Zangiota)da bosh ko'tarib, mardikorlikka bormasliklarini ma'lum qiladilar. 15-16 iyulda Brevskiy stansiyasi atrofida va 84-temiryo'l razyezdida ko'p ming kishilik olomon ko'chaga chiqdi. 20-iyulda Bo'lat bo'lisida 50 ming, Qibrayda 6 ming kishilik olomon mardikorlikka qarshi isyon ko'tardi.

Chor hukumati o'lkada qo'zg'olonlarni bostirish uchun 14 batalyon, 33 kazak harbiy bo'linmasi, 42 to'p va 69 pulemyot ajratdi. Jazo bo'linmalari shafqatsizlik bilan harakat qiladilar. Bu haqda A.N.Kuropatkinning rus imperatori Nikolay II ga yozgan raportida shunday satrlar bor: «Siz imperator Oliy hazratlari va barchaga muqaddas vatan hisoblangan buyuk Rossiya oldida o'z sodiqligini unutganligi, jinoiy ishlar qilganligi uchun Turkiston aholisi qattiq jazolandi». Qo'zg'olon qatnashchilaridan 3000 dan ortiq kishi sudga berilib, ulardan 347 tasi osib o'ldirishga hukm etilgan. Biroq, vaziyatni yanada keskinlashtirmaslik uchun ulardan 51 tasi qatl qilinib, qolganlari o'lim jazosi qamoq va surgun bilan almashtirildi. Yuzlab odamlar turli muddat bilan qamoqqa hukm etildi. Ayrim shahar va qishloqlar butunlay yakson qilindi. Ko'plab uylar yondirildi va mol-mulklari talandi. Ayniqsa, Jizzax qo'zg'olonchilariga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo'lindi. Jizzax g'alayoni ishtirokchisi To'ra Norboy xotiralari bizga ko'p narsani oydinlashtirib beradi. «Jazo bo'linmalari tog'da qochib yurib, och qolib, qishloqdan ovqat olib kelish uchun tushgan Mavlon Aymatovni ushladilar. U bilan yana 7 kishini ushlab daraxtlarga bog'ladilar. O'n kungacha har bir soat kaltaklab, ustidan suv quyidilar. Askarlar qishloqdan ketadigan bo'ldilar. Shunda ular bu 7 kishini kaltaklab, o'ldirib ketdilar».

<sup>1</sup> *Каримов Ш., Шамсутдинов Р.* Туркистон Русия босқини даврида... 85–86-бетлар.

Qo'zg'olon qatnashchilaridan biri Muqim Urdushov Toshkentga qochib, so'ng Jizzaxga qaytib kelib, boshidan kechirganlarini quyidagicha bayon etgan: «Toshkentdan Jizzaxga keldim. Kechasi stansiyaga yetib, namoz vaqtida shaharga tushib keldim. Yo'lda ko'p askarlarni ko'rdim. Ularni yonida xalqdan talab qilingan qimmatli ro'zg'or ashyolari tog'tog' bo'lib yotibdi. Askarlar qimmatli ipak so'zanalarni, atlas va shohi ko'rpalarni otlariga yopib qo'yibdi. Ipak gazlamalarni, shohi ko'rpalarni to'proqqa yozib ustida ag'anab yotibdilar. Hovliga chiqsalar ham shohi va atlas ko'rpalarni yopinib chiqmoqdalar. Bunda xalqdan talab olingan minglab ot-mollar va qo'ylar turibdi. Oyoq ostida bosilib yotgan qimmatli narsalarni ko'rib, juda rahmim keldi. Eski shahar yo'lida ketayotganimda yangi shaharga qarab qator-qator borayotgan xotin-qizlarni ko'rdim. Ular mendan: «Askarlar talab ketgan narsalarni qaytarib berayotgan emish, deb eshitdik shu to'g'rimi?» deb so'rashdi. Men buni ko'rmaganligimni aytdim. Eski shaharga tushsam eng yaxshi binolar, mahallalar, shahar ko'chalaridagi timlar, do'konlar, oshxonalar va choyxonalar kuyib, yer bilan tep-tekis bo'lgan. Bunda boyo'g'li sayramoqda. Xalq och va yalang'och, juda og'ir ahvolda. Bu ahvolni ko'rib ko'p achindim».

«Bir kuni – deb yozadi qo'zg'olon ishtirokchisi Mamasharif Husainov, – shahar atrofini askarlar o'rab, har hovliga besholtitadan bo'lib kiraveradilar. Odamlarni urib-so'kib quvib chiqdilar. Beshikdagi bolalarni yechib olishga qo'ymadilar. Xalqni bozor maydoniga to'plab, yosh va jinslariga qarab to'dalarga ajratdilar. Atrofiga to'p va pulemyotlar o'rnatdilar. Askarlar ba'zi odamlarni qulog'idan burab, to'p og'ziga olib bordilar, keyin qo'yib yubordilar. Ba'zilari odamlarga qarab miltiqlarini sharaqshuruq qilib qo'rqitdilar. Odamlar orasida Oqposhsho Jizzax xalqini otib yubordi, endi hammamizni otar ekan, degan gap tarqaldi. Xalqni vahima bosdi. Xotinlar va bolalar yig'ladi. Askarlar ularni miltiq qo'ndog'i bilan urardilar. Bir vaqt Yangi shahardan bir otliq askar chopib keldi: «Siz, makkor Jizzax podshohi a'zamning oliy farmoniga itoat qilmaganliklaringiz uchun podshohi a'zam sizlarni otuvga buyurgan edi. Sizlar endi bu shahardan 25 chaqirim nariga surgun qilamiz», deydi. Askarlar, mingboshi va politsiyachilar xalqni uch tomonga bo'lib haydadilar. Kun beni-

hoyat issiq, hammayoqni chang-toʻzon qoplagan, Eski shaharga keladigan suv Yangi shaharda boʻgʻib qoʻyilgani uchun hech joyda suv yoʻq. Bizlarni askarlar yugirtirdi. Bir yerga toʻxtatib, hammaning yonini kavlab, bor pullarini qoqib oldi. Yana yugirtirdi. Chopolmay yiqilganlarni miltiq qoʻndoqlari bilan urdilar. U vaqtdagi dod-voy olamni tutar edi. Yosh bolalar suvsizlikdan yuragi kuyib, oʻlib qolaverdi. Homilador xotinlar tugʻib yotibdi, askarlar ularga qarashga yoʻl bermaydi. Askarlar yurishdan bosh tortganlarni otdilar. Yugurib ketayotgan xalqni yana toʻxtatib qoʻllaridagi uzuklarini, quloqlaridagi sirgʻalarini yulib oldilar. Shu ravishda choʻlga yetib borguncha necha joyda tekshirib to yaxshi kiyimlarigacha yechintirib oldilar. Bizlarni shunday azob-uqubatlar bilan shom paytida Qilich choʻliga olib borib tashlab qaytdilar. Odamlarda ovqat ham koʻrpa yostiqlik ham yoʻq edi. Hamma och va suvsiz qoldi. Kechasi qishloqlarga borib ovqat olib kelib, hammaga oz-oz ulashib turdik. Bir toʻp odamlar och qolib kasallikdan oʻldilar. Ular 10 kundan keyin bizga shaharga kirishga ruxsat berdi».

General Madridov Ivanovdan qolishmadi. Kichik yoshdagi bolalarni tiriklayin oʻtga tashladi. Hatto homilador ayollarga ham shafqat qilinmadi. Bunday vahshiyliklar qilgan general Madridov yetti avlodiga yetadigan katta boylikni oʻgʻirlab ketdi. Oktabr toʻntarishidan soʻng, uning uyidan 17 pud turkman xotinlar taqadigan taqinchoqlar va 60 dan ortiq qimmatbaho turkman gilamlari topilgan edi. Turkiya olimi Ibrohim Yorqinning hisobiga koʻra 1916-yil 25-iyunda Nikolay II farmoyishi bilan boshlangan «mardikorlar qoʻzgʻoloni» deb atalmish qoʻzgʻolonda<sup>1</sup> 1917-yil boshiga qadar taxminan 1,5 million kishi qatl qilindi. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda 1916-yilgi qoʻzgʻolon oqibatida Turkiston aholisidan 673 ming kishi oʻldirildi, 300 mingdan ziyod aholi xorijga chiqib ketdi. 1 million kishining mol-mulki musodara qilinib, talon-taroj etildi. Aholidagi otlarning 50 foizi, sigirlarning 39 foizi, tuyalarning 55 foizi, qoʻy-echkilarning 50 foizi oʻlgan va musodara qilingan edi. Xullas, Oqqoshsho malaylari Jizzax qoʻzgʻoloni qatnashchilaridan vahshiylarcha oʻch oladilar.

<sup>1</sup> *Иброҳим Ёрқин*. Туркистонда 1916 йил исёни ҳақида баъзи маълумотлар. Турк маданияти журнали. Анкара, Д968, 68-сон.

1916-yil 23-avgustida Turkiston general-gubernatori A.Kuropatkin mardikorlikka<sup>1</sup> safarbarlik tadbirlari to'g'risida buyruq chiqardi. Buyruqda mardikorlikka olinadigan odamlar soni aniq ko'rsatildi; Sirdaryo viloyati 60 ming, Samarqand viloyati 32407, Farg'ona viloyati 51233, Yettisuv viloyati 43 ming va Kaspiyorti viloyati 13830 kishi. Safarbarlik 1916-yil 18-sentabrdan to 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi g'alabasiga qadar davom etdi. P.Kovalyovning bergan ma'lumotlariga qaraganda turkistonlik mardikorlar Moskva, Peterburg, Ryazan, Tula, Oryol, Smolensk, Bryansk Dvinsk Nijniy Novgorod, Qozon, Samara, Perm, Yekaterinburg, Orenburg, Kiyev, Xarkov, Yekaterinoslav, Odessa, Zaporozhye, Kerch, Tbilisi, Botumi, Suxumi va boshqa joylarga jo'natilgan.

General-ad'yutant Kuropatkin 1916-yil 28-avgustda tasdiqlagan taqsimot bo'yicha Andijon uyezdining Yorboshi volostidan 871, Xakan volostidan 816, Oltinko'l volostidan 498, Baliqchi volostidan 908, Jalaquduq volostidan 340, Qo'rg'ontepa volostidan 466, Oyim volostidan 656, Qorasuv volostidan 497, Qo'qonqishloq volostidan 887, Maygir volostidan 427, Izboskan volostidan 284, Andijon shahidan 1082 kishi front ortidagi ishlariga safarbar qilinishi ko'rsatilgan.

Arxiv hujjatlarida Andijon shahridan front ortidagi ishlariga olingan mardikorlarning 1000 kishidan iborat ro'yxati, ularning ismi va familiyasi, qaysi mahalla, qaysi guzardanligi, yoshi, qanday vazifadaliigi ko'rsatilgan. Shuningdek, qaysi yuzlikda, nechanchi eshelondaliigi, eshelonlarning jo'natilish kuni, soati ham qayd etilgan<sup>2</sup>.

1000 nafar mardikorni 10 ta yuzlikka bo'lib, har biriga yuzboshi tayinlangan: 1-Uyluq yuzligiga Mirzarahim Ro'zimatxojiyev (31 yosh, Temirchi mahallasidan), 2-Uyluq yuzligiga Ahmadjon Qalandarxodiyev (30 yosh, Sarvontepa mahallasidan), 3-Uyluq

<sup>1</sup> Mazkur mavzu bo'yicha qarang: Ковалев Р.А. Революционная ситуация 1915–1917 гг. и её проявление в Туркестане. Т., 1971. Чориев З.У. XX аср бошида Туркистон ўлкасида мустамлакачилик сиёсати ва миллий зулмнинг кучайиши ҳамда унинг оқибатлари. (Мардикорликка сафарбарлик мисолида). Докт. Дис. Тошкент, 1999.

<sup>2</sup> ЎзР МДА, И.25-фонд, 1-рўйхат, 185-иш, 208–222-варақлар.

yuzligiga Qofirjon Ma'rufhojiyev (35 yosh, Durgun mahallasidan), 4-Olayliq dahasi yuzligiga Ahmadmuhammad To'xtayev (31 yosh, Ahmadbekhoji mahallasidan), 5-Olayliq yuzligiga Tohirjon Imonqulihojiyev (34 yosh, To'paboy mahallasidan), 6-Olayliq yuzligiga Mulla Ahmadali Mullamuhammad Yunusov (32 yosh, Eski ot bozori mahallasidan), 7-Soy yuzligiga Raimboqi To'lakboyev (40 yosh, Idrisqulbek mahallasidan), 8-Qirliq yuzligiga Mulla Mirzohid Haydarhojiyev (35 yosh, To'qmoq mahallasidan), 9-Soy-Qirliq yuzligiga Mulla Muhammadjon Oxunboboyev (41 yosh, Haydarali mahallasidan) va 10-Qirliq yuzligiga Turg'unxo'ja Valixo'jayev (27 yosh, Burgi mahallasidan) yuzboshi tayinlanganlar. Mazkur o'nta yuzboshiga Ahmadbekhoji mahallasidan 35 yoshli Masodiq mulla Oripov rahbar qilib belgilangan.

O'z navbatida yuzliklarning har biri o'nliklarga bo'linib, ularga o'nboshilar tayinlangan. Masalan, yuzboshi Mirzarahim Ro'zimathojiyevga quyidagi o'nboshilar qaragan: Abdurahim Madkarimov (30 yosh), Saidumar Qurbonhojiyev (24 yosh, novvoy), Xo'jamberdi Ismoilboyev (25 yosh, Madaliqozi mahallasidan), Qurbon Abdullayev (24 yosh, Qoramulla mahallasidan), Qalandar Qilichboyev (28 yosh, tilmoch), Hojimat Abdurahmonov (30 yosh, Madrabboy mahallasidan), Olimjon Yoqubboyev (28 yosh, Eski qo'za bozori mahallasidan), Meliboy Abdukarimov (29 yosh, Jurgun ko'cha mahallasidan), Xudoyberdi Egamberdiyev (29 yosh, qassob), Kamol Razzoqberdiyev (29 yosh, Qo'y bozori mahallasidan), Nazarali Abduxoliqov (29 yosh, Madqosim mahallasidan), Jumaboy Yo'ldoshboyev (30 yosh, Yoqubali Qoji mahallasidan), Yo'ldosh Diyorboyev (Eski kappon mahallasidan), Aliboy Nabirajonov (21 yosh, Ark ichi mahallasidan), Axronqulhoji (imom), Mullaboy Aliqulboyev (35 yosh, Ark ichi mahallasidan).

Mardikorlar 15-sentabrdan 15 oktabrgacha Andijondagi yig'uv punktiga (hozirgi Soydagi paxta zavodida) to'plab, soqchilik nazorati qo'yilgan. Har bir eshelonda 40 ta vagon bo'lib, har bir vagonga 30 ga yaqin kishi joylashtirilgan. Eshelonda ishchilar joylashgan 33 ta vagondan tashqari, 1 ta sanitar, 1 ta izolyatsiya va 1 ta soqchilar vagoni, shuningdek, oshxona uchun 2 ta va oziq-ovqat mahsulotlari uchun 2 ta vagon ajratilgan. Har



bir eshelonga 990–1000 ishchi joylashtirilgan. Andijon shahridan olingan ishchilar 1000 kishi bo‘lib, ularning 2-eshelon bilan Andijondan jo‘natilishi rejalashtirilgan.

18-sentabrdan 18-oktabrgacha Turkistondan 30 eshelonda ishchilar olib ketiladi. Eshelonlarning yo‘l marshrutlari aniq belgilab berilgan. Xususan, 107a–sonli poyezdning Andijon stansiyasidan 18-sentabr soat 8.17 da jilishi, Toshkentga 19-sentabr 14<sup>00</sup> da kelishi, Toshkentdan o‘sha kuni 109-sonli poyezdda jo‘nashi, 24-sentabrda 14.39 da Samara guberniyasidagi Kinel stansiyasiga yetib kelishi va joylarga taqsimlanishi belgilangan<sup>1</sup>. Bunday jara-yon Turkistonning boshqa shaharlarida ham kechgan.

Chor ma‘muriyati jo‘natilishi kerak bo‘lgan 200470 kishi o‘rniga amalda 123 mingdan ortiq mardikorni safarbar qila oldi. Ulardan 101600 kishi Rossiyaning G‘arbiy qismiga, 4000 kishi Sibirga, 7405 kishi Kavkazga yuborilgan. 10000 dan ortiq kishi Turkiston o‘lkasining o‘zida ishlatilgan. Mardikorlar harbiy va sanoat korxonalarida, konlarda, temiryo‘llar qurilishida, o‘rmonlar va ayrim kapitalistlarning xo‘jaliklarida qattiq nazorat ostida betinim ishlatilganlar. Ular ochlikdan, xo‘rlikdan, mashaqqatli mehnatdan ko‘p aziyat chekdilar. Ko‘plari sovuq urishidan, turli kasalliklardan o‘lib ketdilar yoki bir umrga nogiron bo‘lib qoldilar.

Mardikorga arzimagan ish haqi to‘langan, turar joylari juda ham xarob bo‘lgan, yemishlari ham juda nochor bo‘lgan.

400 kilometrlik Botumi–Suxumi temiryo‘li qurilishida 2000 dan ziyod mardikorlar ishlaganlar. Bu inshootning Gudaunti (Myuseri) rayonida 200, Suxumi rayonida esa 100 nafar andijonlik bo‘lib, ular mislsiz og‘ir sharoitlarda mehnat qilganlar. Birinchi bo‘lib Gudauntidagi andijonlik mardikorlar ish tashlashni boshlab berganlar. General Yanushkevich xabarida bu ishchilar ishga chiqmaslikka qat‘iyan qaror qilganliklari, «bizlarga shaharda yashab, zavod va fabrikalarda ishlashni va uch oydan keyin vatanimizga qaytib ketishni va‘da qilganlar», deb aytganlari qayd etilgan. Ular ish tashlab, ish joyidan o‘z xohishlari bilan ketib qolganlar. Ish tashlash keng tus oladi. Ish beruvchilardan biri

<sup>1</sup> ЎЗР МДА, И.25-фонд, 1-рўйхат, 185-иш, 28–30-варақлар.

oʻzbek ishchilari 30-oktabrdan 17-noabrgacha ishga chiqmaganlari oqibatida 2000 soʻm zarar koʻrganidan nolib shikoyat qilgan. Bunday shikoyatlar koʻplab boʻlgan. Kavkaz armiyasi polkovnigi Davidov ish beruvchilar va maʼmuriyatni yoqlab, mardikorlar ishdan qochib shaharlarga borishmoqda, bozor va masjidlarda yurib, narkotik va fahsh ishlar bilan shugʻullanishni xohlayaptilar, degan tuhmat xabarni yuqori tashkilotlarga yoʻllagan. Bunday tuhmatlar koʻp bor uyushtirilgan, oqibatda mardikorlar tazyiq-taʼqibga uchrab turganlar. Sabr-kosalari toʻlgan mardikorlar kurashni davom ettiraverganlar.

Maʼmuriyat bergan xabarda ishchilarning jiplashib, har qanday qiynoqlar, turmaga tiqish va hatto otib yuborganlarida ham baribir ishga chiqmasliklarini aytganlari qayd etilgan. Ishchilar oʻzlarini Suxumiga, Botumiga, hatto Rossiyaning ichki qismiga yuborishlarini talab qilganlar. Ish tashlash yoʻl qurilishining janubiy va shimoliy qismini ham qamrab oladi: norozilik namoyishlari oʻtkaziladi, ochliklar eʼlon qilinadi. Oqibatda Tiflis hukumati Toshkentga, Turkiston general-gubernatoriga telegramma yoʻllab, ish tashlovchilarni tinchlantirishni talab qilishga majbur boʻladi. Shu maqsadda Turkiston general-gubernatori buyrugʻi bilan Andijon Eski shahari oqsoqoli Rustam Toshmatov 1916-yil 29-dekabrda Botumiga keladi. Oʻn toʻrt kun davomida, 1917-yil 1 yanvardan 13-yanvargacha, oqsoqol izvoshda ish joylarini aylanib chiqib, namoyishchilarni, ish tashlaganlarni hiyla-nayrang, **«Agar Sizlar ishni davom ettirmasalaring, u holda sizlarning Andijonda qolgan ota-onangiz, qavm-qarindoshingiz hibsga olinadi, mol-mulki musodara qilinadi»** qabilidagi doʻq-poʻpisalar bilan aldashga muvaffaq boʻlgan.

Rustam Toshmatov 1917-yil 21-yanvarda Andijonga qaytib keladi. Bu xizmati uchun u general-gubernator tomonidan taqdirlangan. Andijonda chop etilgan «Turkestanskiy golos» gazetasi «Andijon shahar ariq oqsoqoli Rustam Toshmatovning front ortidagi andijonliklardan hol-ahvol soʻrab kelganligi haqidagi hisoboti» nomli materialda bu safarni yoritgan. Umuman, 1916-yil 1-iyuldan boshlab gazetada mardikor mavzusiga katta oʻrin ajratilgan. Jumladan, «Mardikorlar talabi», «Ishchi tuzemetslar yoʻlda», «Ishchilarni joʻnatishga doir», «Tuzem ishchilar mak-

tublari», «O'sh eshelonini jo'natish», «Joylardan salomlar», «Yo'ldan». Bizning muxbirimiz Abdulla Yo'ldoshqoriyevdan», «O'zbek harbiy ishchilarining yo'ldan yuborilgan maktublari», «Palovni sog'inmoqdalar», «Ishchilar uchun ketmonlar», «Orenburgdan xatlar», «Harbiy sud», «Ajralib qolganlar», «Sud xabarlari», «Sud zalida», «Ro'zi Oxun Muhammad Nazarboyevning ishi bo'yicha», «Dalvarzin ishi» kabi nomlar bilan chop etilgan qator xabar va maqolalar mardikor olish, mardikorlik hayoti bilan bog'liq ko'plab muhim ma'lumotlar beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy mardikorlarning og'ir qisimatli hayoti haqida «Sog'inib» asarida, «Ishla» deb tepasida dag'dag'a qilib turgan yuzboshiga mardikor tilidan shunday javob beradi:

*«Qattiq tegma menga muncha yuzboshim,  
Oqizma ko'p g'amim uzra ko'z yoshim.  
Yurak bag'rim o'zi hadsiz ezilgan,  
Yurtu Vatan, ellarimni sog'inib».*

Mardikorlik mavzusida yozilgan va xalqimiz orasida mashhur qo'shiq bo'lib ketgan «Do'ngalagim» she'riining muallifi ham o'sha mardikorlardan biri Andijon shahrining Oqyor guzaridan 566-raqam bilan Andijondan poyezd eshelonida Dvinskaga ketgan 31 yoshli Xudoyberdi Qoraboyev edi.

*Poyezdingni jildirgan,  
O'txonasi bilan do'ngalagi  
Dvinskaga ketdi Andijonni  
Mard yigitining bir bo'lagi.  
Dvinskaga ketmas edi  
Mard yigitning bir bo'lagi,  
Dvinskaga ketkizvorgan  
Nikolay zolim zambaragi.  
Dvinskaga yo'l bo'lsin,  
Qarag'ayzoring qul bo'lsin.  
Yigitlarni qiynagan  
Nikolaying yo'q bo'lsin.*

*Bizni to'qqiz oy ishlatdi,  
Sizran degan o'rmonda.  
Ketolmaymiz Andijon,  
Bir chaqa yo'q karmonda.  
So'k oshingni ichmayman,  
Etigimni yechmayman.  
Qorda qarag'ay kesganman.  
Hech haqqimdan kechmayman.*

Ammo keyingi vaqtlarda e'lon qilingan ayrim tarixiy asarlarda bu she'rni xalq og'zaki ijodi mahsuli deb, hatto, matni biroz o'zgartirilgan tarzda berilmoqda. Jumladan, X.Ziyoyevning asarida: «Poyezdning g'ildiragi, Ustaxonasi bilan do'ngalagi, Dvinskaga ketishdi, Mard yigitning bir bo'lagi» shaklida, «Vatan tarixi» kitobida esa: «Poyezdingni jildirgan, O'txonasi bilan do'ngalagi, Dvinskaga ketishdi, Mard yigitning bir bo'lagi» deb berilgan. Holbuki, hozirda poytaxtdagi «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi zallarida yangrab turuvchi «Do'ngalagim» ashulasining matni ham X.Qoraboyev matni bilan bir xil:

*Poyezdingni jildirgan  
O'txonasi bilan do'ngalagi  
Dvinskaga ketdi Andijonni  
Mard yigitining bir bo'lagi...*

Aslida, she'rning muallifi X.Qoraboyev deyishga asos yetarli. Chunki xalq og'zaki ijodi namunalari ham alohida kishilar, xalqning iste'dodli vakillari tomonidan yaratiladi, keyin xalq ichida og'izdan og'izga o'tib yuradi. X.Qoraboyevda shoirlik iqtidori bo'lgani shubhasiz: uning qarindoshi Odiljon Egamberdiyevning say'-harakati bilan 1980-yilda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida Xudoyberdi shoirning «**Men qushimni g'ozga solsam**» nomli she'riy to'plami chop etilgan. Bu esa X.Qoraboyevda chindan ham shoirlik iste'dodi bo'lganidan, uning she'r muallifi bo'lish ehtimoli ko'p ekanligidan dalolat beradi. Albatta, hali bu bahsli masalani uzil-kesil, hujjatli asosda hal qilish vazifasi oldinda turibdi, nasib qilsa buni uddalarmiz



**Polvonniyoz Hoji Yusupov**

ham. Shunga qaramay, she'r aynan andijonlik mardikor tilidan aytilgani haqiqatga ko'proq yaqindir. Biroq hozir maqsadimiz boshqa – shoirning keyingi taqdiri. Mardikorlikdan qaytgan Xudoyberdi Qoraboyev ijtimoiy hayotda faol bo'lgan, she'r va g'azallar yozib turgan; minglab aldanganlar qatori, sovet hokimiyatiga ishonib, uni istiqlochlilardan himoya qilishga uringan va 1919-yilda o'zi tug'ilib o'sgan Oqyor qishlog'ida bo'lgan istiqlochlilar bilan to'qnashuvda halok bo'lgan.

Sovet davrida yaratilgan tarixiy adabiyotda Turkiston ziyolilari, ayniqsa, ularning sarvari bo'lmish jadidlar 1916-yilgi qo'zg'olonda ishtirok etmaganlar. Ular chor hukumati tarafida turib, qo'zg'olonga salbiy munosabatda bo'lganlar, degan fikr chuqur o'rin olgandi. Aslida esa Turkiston yerli aholisining 1916-yilgi shonli milliy ozodlik harakatida o'lka ziyolilari, munavvarlari bo'lgan jadidlar faol rol o'ynagandilar.

Jadidlar Nikolay II ning 1916-yil 25-iyundagi farmonini bekor qilish va butun o'lka bo'ylab birdaniga isyon harakatini boshlash uchun kurash olib bordilar. Yosh buxoroliklar sardorlaridan Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Yosh xivaliklar rahbari Pahlavon Niyozhoji, Turkiston jadidlari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonovlar xalq ommasini o'lka qo'zg'oloniga da'vat etganlar, joylarda aholining yig'inlarini o'tkazdilar, o'sha mudhish farmonni bekor qilishni qat'iy talab qilib chiqdilar.

Samarqanddan Muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkentdan Munavvar Qori, Xivadan Polvonniyoz Yusupov, Buxorodan Usmonxo'ja, Jizzaxdan Qori Komil, Qo'qondan Obidjon Mahmudov, Andijondan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Haqqul Husanboyev, Akbar O'rozaliyev beklar va boshqalarning ishtirokida bo'lgan yig'inlarda mardikorlikka olish haqidagi farmonga qarshi kurash tadbirlari ishlab chiqilgandi. Turkistonda mardikor olish xususidagi

farmoyishning qonuniy shakl olishiga monelik qilish uchun tadbir koʻrdilar, bu farmon qonuniy shakl olgan taqdirda norozilik mohiyatidagi isyonlar chiqarishni koʻzda tutdilar.

Andijon shahridagi eng yirik millioner, milliy burjuaziyaning tipik vakillaridan biri, jadidchilik harakatining homiylaridan biri Mirkomil Mirmoʻminboyevning Qoʻqon va Margʻilon shaharlari mingboshilari nomiga yoʻllagan xatida shunday yozgan edi:

«Shahringizdagi aholi va boylarga mardikorlikka qarshi chiqishlarini ayting, Rossiyaning ahvoli juda tang, shuning uchun hech narsadan qoʻrqmanglar. Hammangiz bir yoqadan bosh chiqarib ish

yuritingizlar, mardikor olinishiga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarilishi oson. Hozirgi vaziyatda hukumat amaldorlariga pul boʻlsa bas, hamma ishni bitiradilar. Mening xaloyiqni qoʻzgʻolonga undash harakatim bilinib, tekshiruv oʻtkazilganda 150 ming soʻm berib oʻzimni saqlab qoldim. Shu boisdan sizlar ham xavotirlanmay harakat qilaveringlar».

Andijon taraqqiyparvarlar jamiyati sardorlaridan biri, keiyinchalik Turkiston milliy muxtoriyati tashkilotchilaridan biri, hukumat aʼzosi boʻlgan Ubaydulla Asadullaxoʻjayev oʻsha 1916-yil A.N.Kuropatkinga tutqazgan arizasida ham Andijon uyezdi boshligʻi polkovnik Brjezitskiy davrida, avvallari ham mavjud boʻlgan poraxoʻrlik, tovlamachilik, zoʻravonlik nihoyatda kuchayib ketgani va bu qoidaga aylangani, tizimga tushganini bayon etgandi. Aholidan oʻlpon olish va poraxoʻrlikka mahalliy amaldorlarni, ellikboshi, mingboshilar, shahar bosh oqsoqo-



**Mirkomilboy Mirmoʻminboyev va Qoʻqon savdo birja maklari Yoqubxoʻja Eshon Yahyoxoʻja Eshon oʻgʻli**

li Shermat Alimqulov kabi ma'muriyatni jalb qilganini, soliq, o'lpon undirish, pora olish ma'muriyat vakillari tomonidan bevosita emas, balki bilvosita, o'rtadagi odamlar orqali amalga oshirilayotgani ham aytilgandi o'sha shikoyatda. Uyezd boshlig'i tilmochi Yusufhoji Chorishev hamda pristavlar tarjimonlari pora olishda mustamlakachi ma'murlarga vositachilik qilayotganliklari, natijada aholining amaldorlarning noqonuniy ishlari yuzasidan shikoyatlari hech qachon adolatli hal qilinmayotgani ham Ubaydulla Xo'jayev arizasida ko'rsatilgandi<sup>1</sup>.

Chor ma'murlari, bosqinchilarning poraxo'rlikka mukkasidan ketganligi, bunday og'ir yukning mahalliy aholi yelkasiga tushgani Zakiy Validiy To'g'on esdaliklarida ham o'z ifodasini topgan. Chor hukumatining Peterburg va Turkistondagi amaldorlari, Buxoro va Xiva xonlaridan, Turkiston mahalliy aholisidan katta poralar olgani haqida to'xtalib, Zakiy Validiy To'g'on mana bu dalillarni keltirgan: «Amudaryo uyezdi boshlig'i polkovnik Gulasovskiy, ma'lum muddatda Turkiston general-gubernatori bo'lgan general Galkin, harbiy vazir Suxominov, Rusiya harbiy shtabining Osiyo bo'limi boshlig'i general Seel va uning muovini Abdulaziz Davlatshin juda katta pora oldilar... Turkiston general-gubernatori Kuropatkin urush ehtiyojlari uchun aholidan 2 million 400 ming rubl «sovg'a» to'plagan edi. Bu pullarning ko'p miqdori generalning cho'ntagida qolar edi»<sup>2</sup>.

1916-yil iyulida Andijon mahalliy jamoatchiligi nomidan jadid Ubaydulla Xo'jaev, millioner boy Mirkomil Mirmo'minboyev, jadidlarga xayrixoh bo'lgan sotsialist-revolyuutsioner Vadim Chaykinlar Peterburgga borib davlat dumasiga Turkistonda ro'y bergan dahshatli, fojiali voqealarni izohlab, Andijonga дума a'zolaridan kelib, mustamlakachi ma'murlarning bu yerdagi jinoyatlarini tekshirib, aybdorlarni jazolashni talab qiladilar. davlat dumasi a'zolari Rayevskiy, Vinogradov, P.B.Tevkeleyevlar andijonlik vakillar xatiga, talablariga ko'ra Oliy bosh qo'mondonlik qarorgohiga borib, bor ahvolni bayon etishib, zudlik bilan chora ko'rmaslik, kelajakda og'ir oqibatlariga olib keli-

<sup>1</sup> Шамсутдинов Рустамбек. Тарихий меросимизга бир назар. Андижон, «Мерос», 1994, 13-бет.

<sup>2</sup> Тўгон Закий Валидий. Туркистон ва унинг яқин тарихи, 337-бет.



shini bildirishdi. Bunga muvofiq podsho Nikolay II Turkistonda mardikorlikka olish muddatini 1916-yil 15-sentabrgacha kechiktirish haqida farmon berdi. Gʻarbiy front qoʻmondoni A.N.Kuropatkin Toshkentga Turkiston general-gubernatori qilib joʻnatildi. A.N. Kuropatkin bilan birga Turkistonga IV davlat dumasi aʼzolari A.F.Kerenskiy, K.B. Tevkeleyevlar keldilar, ularga Sh.Z.Muhammadyorov, Mustafo Choʻqayevlar hamroh boʻlishgandi.

Ular Toshkent, Qoʻqon, Margʻilon va boshqa shaharlarda boʻldilar. 24-avgust kuni Duma aʼzolari A.F.Kerenskiy, K.B.Tevkeleyev, Mustafo Choʻqayevlar Andijondagi «Slava Rossii» mehmonxonasida tunaydilar. Ertasiga ertalab mehmonlar qoʻzgʻolon koʻtarilgan Jomeʼ masjidiga keladilar, bu yerda toʻplangan aholi bilan uchrashadilar. Xaloyiq Andijondagi unutilmas iyul kunlarida nimaiki fojia yuz bergan boʻlsa, uni Peterburgdan kelgan дума vakillariga bayon qiladi.

Andijonda chiqayotgan «Turkestarskiy golos» gazetasining 26-avgust sonida shunday xabar chop qilgandi: «Davlat dumasi aʼzolari Andijonda ikki kun boʻlganlarida ular huzuriga rus, sart va tatar jamiyatlaridan koʻplab vakillar tashrif buyurishdi. Taxminiy hisoblarga koʻra shu qisqa vaqt ichida deputatlar Andijondagi barcha millatlar va turli xil jamoat vakillaridan yuzga yaqin kishilarni soʻroq qilganlar. Bu soʻroqlar qisman shikoyat, arznoma, talablar shaklida boʻlib, mahalliy aholining katta qismini oʻz ogʻizlaridan deputatlar va ularning kotiblari yozib olganlaridan boy materiallar toʻplandi, ularning eng dolzarb masalalari Toshkent sud palatasi prokuroriga xabar qilinadi. Ancha murakkab masalalar esa, davlat dumasi minbaridan, shuningdek дума budjet komissiyasida aytiladigan boʻldi»<sup>1</sup>.

Davlat dumasi aʼzolarining Turkistonga kelishini va ularni 1916-yilgi mudhish voqealar bilan tanishtirish ishini tashkil qilganlar ham jadidlar ekani yuqoridagilardan maʼlumdir.

TTMB boshligʻi oʻrinbosari podpolkovnik Rozalion-Soshalskiyning 1916-yil 24-noyabrda yoʻllagan maʼruzanomasida Andijondagi «Turkestarskiy golos» gazetasi binosida har kuni

<sup>1</sup> *Шамсутдинов Рустамбек. Тарихий меросимизга бир назар... 6–13-бетлар.*

oqshomda gazeta muharriri Chaykin raisligida o'zlariga «taraq-qiyparvar» nomini bergan yo'nalishdagi 20 ga yaqin o'zbek yoshlarining yig'ilishlari o'tkazilayotgani, bularda hozirgi ahvol va boshqa masalalar muhokama etilayotgani aytilgan.

Polkovnik Volkov agenturasi yo'llagan axborotda Andijon «taraqqiyparvarlar»i maslakdoshi rus jurnalisti Vadim Chaykin hokimiyatga qarshi mahalliy yoshlarni uyushtirayotgani qayd etilgan. Turk-yunon urushida millatdosh, dindosh Turkiyaning yunonlar ustidan g'alaba qozonishiga umid bildiruvchi va bu ishga ko'mak beruvchi maxfiy jamiyat bo'lib uning asosiy maqsadi mahalliy rus hokimiyatini yerga urib qoralash orqali yerli aholi o'rtasida obro' qozonishdan iboratligi ham ko'rsatilgan. TTMB maxfiy agenti Mirza Ahmad Qushbegiyev uni to'ldirib, «Agar bu jamiyat jazosiz qolaversa u holda dahshatli kuchga aylanadi. Xalq ularning qaramog'iga ilinib, jilovini ularga berib qo'yadi», deb andijonlik taraqqiyparvarlarning siyosiy kuch ekanini ta'kidlagan.

Taraqqiyparvarlar o'z oldiga siyosiy erkinlikka erishish, rus va mahalliy ma'muriyat zulmidan ozod bo'lishdek maqsadni vazifa qilib qo'yganlar. Ularga ruscha va musulmoncha ma'lumotga ega bo'lgan Andijon yoshlarining ko'pchiligi xayrixoh edi. Andijon uyezdi boshlig'i polkovnik Yu.A.Brjzitskiy Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga 1916-yil 13-sentabrdagi bildirgisida «Hozirda aholi ma'muriyat ovozigaga emas, balki janob Vadim Chaykin, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Ahmadbek Hoji Temurbekov, Poshshoxo'ja Umarxo'jaevlar va ular to'dasi ovozigaga quloq osmoqda. Odamlar arz-shikoyatlar bilan ma'muriyat oldiga emas, balki o'shalar huzuriga adolat istab bormoqda. Ma'murlar Toshkent, Andijon va Qo'qon kabi yirik ma'muriy markazlarda tobora kuchayib borayotgan «taraqqiyparvarlar» firqasidan juda hayiqib qolishdi» deb yozgan.

«Taraqqiyparvarlar» sardori Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevning «Rus imperator jug'rofiya jamiyati» majlisidagi ma'rozasida «Rus xalqi bizlarni o'g'irlik va jinoyatga o'rgatdi» degan fikrni «Turkestanskiy golos» gazetasi o'z sahifalarida yozgan edi. Buni o'qigan mustamlakachi shovinistlar nihoyatda darg'azab bo'lishgan.

Aholi tomonidan advokat Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev nomiga yozilgan arizada shunday yozilgan: «Hozirgi Andijon nohiyasi boshligʻi Brjezitskiy davrida avvallari ham mavjud boʻlgan poraxoʻrlik, tovlamachilik va zoʻravonlik nihoyatda kuchayib ketdi. Qonun-qoidaga aylangan bu sistemaning xususiyatlari, birinchidan, aholidan oʻlpon olish va poraxoʻrlikka mahalliy amaldorlar: ellikboshi, mingboshi va shahar bosh oqsoqoli Shermat Alimqulov kabi maʼmuriyat vakillari jalb etilayotganida, ikkinchidan, soliq, oʻlpon undirish va pora olish maʼmuriyat vakillari tomonidan bevosita emas, balki bilvosita vositachilar orqali amalga oshirilayotganida namoyon boʻlmoqda. Xususan, nohiya boshligʻining tilmochi Yusufjon Hoji hamda pristavlarning tarjimonlari vositachilik qilishmoqda. Bu usul shunday ustalik va izchillik bilan olib borilmoqdaki, natijada aholi amaldorlarning qonunga xilof ishlari yuzasidan qilgan jinoyatlari hech qachon adolatli hal boʻlmaganligiga koʻnikib ketishgan. Bu ahvolni Asadullaxoʻjayev general-gubernator Kuropatkinga yetkazgan. U esa Asadullaxoʻjayevning talabini qondirib Andijon tuman boshisini lavozimidan chetlatadi. Shuningdek mardikorlikka olish boʻyicha barcha ishlar jadidlar rahbarlik qiluvchi «Tuzem qoʻmitasi» ixtiyoriga topshirilib, uning raisligiga U. Asadullaxoʻjayev, muovinligiga esa Munavvarqori Abdurashidxonov tayinlanadi».

Kuropatkinning «taraqqiyparvarlar»ga koʻrsatgan bunday ishonchi tagida yotgan yashirin maqsadni fahmlamagan shovinistlar benihoya dargʻazab boʻladi. Polkovnik Brjezitskiy maslakdosh doʻsti, Fargʻona viloyati harbiy gubernatori vazifasini bajaruvchi polkovnik Ivanovga yuborgan xatida shunday degan: «Tuzemetslar soʻnggi vaqtda surbetlashib ketishdi. Janob Xoʻjayevlar va Chaykinlar «Kambagʻal tuzem aholini ezyotgan maʼmuriyat» ustida yana arzbozlik kompaniyasini boshlamoqda. Fikrimizcha, zudlik bilan ularning faoliyatiga chek qoʻyish kerak. A. Chaykin, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev ukasi Bashirullaxoʻja, Ahmadbek Temirbekov, Poshshoxoʻja Umarxoʻjayevlarni mardikorlikka joʻnatish tugaguncha oʻlkadan chiqarib yuborish zarur. Shaxsan oʻzim koʻrgan-kechirganlarim asosida mahalliy aholiga ishonchimni batamom yoʻqotdim. Bu

xalq iyul oyida rus qizlarini va ayollarini zo'rladi, ko'priklarni yondirdi, himoyasiz amaldorlarni o'ldirdi. Bunday yovvoyilarga men endi sira ishonmayman. O'lkadagi 27 yillik xizmatimdan kelib chiqib, shunday qat'iy xulosaga keldim: yovvoyi tuzemlarga bizning insonparvarligimiz mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Faqat miltiq-nayzalargina ularni mardikor berishga majbur qiladi». 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonini bostirishda faol qatnashgan Brjezitskiyning bu xulosasi polkovnik Ivanovning o'sha vaqtda xalq orasida mashhur bo'lib ketgan «bir rus soldati etigi poshnasi mingta tuzemets ablahdan afzal», degan iborasiga hamohang edi.

Shoviniist Ivanov jadidlarni, ayniqsa, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevni o'lgudek yomon ko'rardi. U bor vositalarni ishga solib taraqqiyparvarlar ustidan jinoiy ish qo'zg'adi. Shaxsan o'zi ko'zatuv ishlari olib bordi. 162 varaqni tashkil etgan ma'lumotnomasida «taraqqiyparvarlar»ning rus inqilobchilari bilan hamkorligi xunuk oqibatlariga olib kelishi haqida ma'lumot to'plab o'lka hukmdori Kuropatkinni qo'rqitmoqchi bo'ldi. «Xo'jayev o'z ta'sirini kuchaytirish uchun, – deb yozgan edi Ivanov, – Andijondagi Sulaymon Kelginboyev to'dasi bilan bitim tuzib, tayyor tashkilotga bosh bo'lib oldi. Kelginboyevning Asadullaxo'jayev bilan ittifoqiga «Turkestanskiy golos» gazetasi muharriri, faxriy fuqaro A.A.Chaykinning ukasi Vadim Chaykin va o'z xodimi yahudiy Il ya Yakovlevich Shapiro bilan jon dili bilan kirishgan va u bilan til biriktirgan».

«Bu o'zbeklar, – deyiladi TTMB boshlig'i o'rinbosari, polkovnik Rozalion-Soshalskiyning 1916-yil 24-sentabrdagi bildirgisida, – Andijon shahrining eski qismini o'zaro bo'lishib olishgan va har kuni o'z jabhalarini aylanib chiqadilar va aholidan hol-ahvol so'rash ma'nosida qandaydir shikoyatlar yo'qmi degan savollar ham berishadi. Boshqacha qilib aytganda, ularning o'zlari aholi vakillariga biron narsa bo'yicha shikoyat yozishlikka shama qiladilar. Kechqurun tahririyatda to'planishib Chaykin va uning yordamchilari, jumladan, huquqshunos Shapiro ishtirokida yig'ilish o'tkazadilar».

Chaykinning general-gubernatorga yo'llagan telegrammasi bo'yicha Andijon shahrining katta oqsoqoli ishdan olingan vaqt-

dan beri Chaykinning ahamiyati yanada koʻtarilib ketadi. Shundan beri Chaykin general-gubernator bizning tomonimizda va u, Chaykin maʼmuriyatdagi har qanday amaldorlarni xizmatidan haydashi mumkin, deb yuribdi. Deyarli har kuni «Turketskanskiy golos» gazetasi tahririyatiga kelib, yigʻilishda qatnashayotgan «taraqqiyparvar»chilardan hozircha quyidagilar maʼlum: Olimjon Hoji Mirza Yusupov Asaka volost boshqaruvchisining sobiq mirzasi, Saʼdullaxoʻja Tursunxoʻjayev savdogar, Mirkomil passajida oʻzining manfaktura (gazlama) doʻkoniga ega, Mirali Umarboyev shahar noibi, Latifjon Maxsum Qoziyev, Andijon shahri 2-qismidagi hokim tilmochi, Olimjon Hojining qarindoshi, Qoʻchqorboy Alimov, Mirali Umarboyevda prikazchik Otaxon Nazarboyev xususiy kitob doʻkoniga ega, Mirhaydar, Mirkomil Moʻminboyev uyi yonidagi gazmol magazinni egasi.

Polkovnik Ivanov shaxsan oʻzi va maslakdoshlari nomidan Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayevni va uning safdoshlarini darhol hibsga olish, butkul Turkiston oʻlkasidan chiqarib yuborishni general-gubernatordan qatʼiy ravishda talab qilgan. Kuropatkin esa usta siyosatchi sifatida Sirdaryo viloyati gubernatoridan bu haqda fikr soʻraydi. U esa 1916-yil 5-noyabrda Kuropatkinga yoʻllagan axborotida U. Asadullaxoʻjayevning «zararli faoliyati»ga oid hech qanday asoslar yoʻqligini yozadi. Ammo, oxiri general-gubernator mahkamasi, maxsus boʻlim, siyosiy razvedka-Turkiston rayon muhofaza boʻlimi koʻrsatishicha, Turkistonning harbiy-siyosiy doiralari jadidlarning «taraqqiyparvarlar» firqasining aholiga taʼsiridan xavfsirab, uning faoliyatini toʻxtatishga qaror qilishgan.

1917-yil 31-yanvarda TTMB boshligʻi oʻrinbosari polkovnik Rozalion-Soshalskiy Fargʻonaga kelib, harbiy gubernator mahkamasidagi hujjatlar bilan tanishadi. Tez orada «oʻziga «taraqqiyparvarlar» nomini qoʻygan Andijondagi uyushma faoliyati haqida»gi jinoiy ish qoʻzgʻatiladi. Xuddi shu vaqtda inqilobiy mazmundagi oʻzbek tilida tarqalgan varaqalar chor maʼmurlarini gʻoyat tashvishga solayotgan edi. Bu varaqalarni yozishda va tarqatishda 50 dan ortiq «taraqqiyparvarlar» gumon qilinadi.

«Taraqqiyparvarlar» asta-sekin inqilobiy harakatga qoʻshilib ketayotganliklari endi ravshan boʻlib qolgan edi. TTMB boshligʻi

polkovnik M.Volkov 1917-yil fevral oyida general-gubernator Kuropatkinga «Taraqqiyparvarlar» firqasi ishi bo'yicha ishga kirishganini va o'rinbosari podpolkovnik Rozalion-Soshalskiyning 7-fevralda Andijonga yuborilganini ma'lum qiladi. Shu bilan birga Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va boshqa firqa a'zolari va rahbarlarini jinoiy faoliyatda ayblab o'lkadan surgun qilish haqida Kuropatkinning buyrug'i ijro uchun qabul qilinganini ta'kidlaydi.

Nihoyat, Kuropatkin o'ta shovinist generallar va zobitlarning siquviga dosh berolmay, mardikorlikka safarbarlikni uyushtirishda adolatli ish ko'rishni talab qilgan jadidlarni sudga beradi. Ammo Turkiston o'lkasi tarixida kutilmagan voqea yuz beradi. Toshkent okrug sudi raisining o'z kasbdoshi, ishonchli vakil – advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va uning safdoshlari ustidan farmonning e'lon qilinishi Turkiston xalqini qo'zg'olon ko'tarishga majbur etadi. Jadidchi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayevning Andijonga kelgan A.F.Kerenskiy va boshqalarga qo'zg'olonni yuzaga keltirgan sabablari haqida aytgan mana bu fikrlariga e'tibor bering: «Podsho farmoni e'lon qilinmasdan oldin Andijonda mustamlakachi ma'murlar xalqni aldab sizlarning o'g'illaringizni frontga olmaymiz, shu bois armiyani qo'llab unga otlar va boshqa kerakli narsalar bilan yordam bersangiz, pul qilsanglar bo'ladi, deb aldagan va bunga ishongan aholi front uchun ko'pdan ko'p moddiy sarf-xarajatlar qilgan edi». U. Asadullaxo'jayevning bu fikrini davlat dumasi minbaridan turib 13-dekabrda noib Jafarov katta achinish bilan aytgan edi.

Farg'onada 10 yildan beri gubernatorlik qilib kelayotgan general-leytenant Aleksandr Gippius podsho farmonining bemavridligini payqab, uni nihoyatda tinch yo'l bilan bajarishga urinadi. U «Farg'ona viloyati vedomosti»da podsho farmoni bilan barobar aholiga o'zining murojaatini e'lon qiladi. Namoyish tarzida bu murojaat arab imlosida, o'zbek tilida beriladi. Unda gubernator mardikorlar davlat tomonidan to'la-to'kis ta'minlanishi, odamlar o'zlari o'rniga boshqa odam yollab yuborishlari ham mumkinligini aytgan. Gippius joylarda aholining g'alayonlari haqidagi xabarlariga asoslanib, general-gubernatorga

«xalq gʻalayonlari» nima sababdan kelib chiqishidan qatʼi nazar, u oʻz taraqqiyoti davomida diniy va siyosiy zaminga koʻchishi xavfi bor», deb uni ogohlantiradi. U 17-iyulda roʻza tugab, 18 iyuldan hayit uch kun davom etilishini eslatgan holda, bu kunlar «toʻpolon chiqish uchun juda qulay» ekanligini uqtiradi. Gippius podsho farmonini aynan Fargʻonada qoʻllab boʻlmasligini yozishga jurʼat etadi. U mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, podsho farmoniga «oʻzi bilganicha toʻzatishtirish va chekinishlar kiritajagini, bundan maqsad yirik tartibsizliklarga yoʻl qoʻymaslikdir», degan mazmundagi telegrammaning bir nusxasini Toshkentga, ikkinchi nusxasini esa Peterburgga – Bosh shtabga yuboradi.

Tajribali siyosatchi va tadbirkor general yon bosishlar, qisman chekinishlar va hatto Qurʼoni Karimni ham ishlatish bilan qoʻzgʻolon chiqarishga urinadi. Katta olomonning koʻz oʻngida gubernator boshiga salla oʻrab, yelkasiga toʻn tashlab, Qurʼondan suralar oʻqiydi. Lekin, har qanday urinishlar tugal natijaga olib kelmasligiga koʻzi yetgach, oxirgi chorani qoʻllaydi. Vaqtdan yutish maqsadida u 27-iyulda podsho farmoni ijrosini toʻxtatib turish haqida koʻrsatma beradi. Bunday dadil va qaltis ishni asoslab, gubernator zoʻravonlik ishlatilsa, «isyonga doim moyil» va «hamisha gʻazovot ruhi ufurib turadigan» Fargʻonada aholi qisman togʻlarga chiqib ketishiga, qisman qaroqchilar toʻdasiga qoʻshilib ketishiga, asosan esa diniy va siyosiy shior ostida ochiqchasiga koʻtarilib ketishiga urgʻu beradi. Gippius oliy qoʻmondonlikka Turkiston rus davlati uchun qudrat manbayi boʻlib qolishi maqsadida shunday qilingani maʼqulligini aytadi. Ammo Markaz uning dalillarini qabul qilmay, hatto farmonni buzishda va musulmonlarga yon bosishda ayblab vazifasidan boʻshatadi. Uning oʻrniga oʻtaketgan shovinist, kaltadum polkovnik P.Ivanov tayinlanadi. U tabiiy ravishda tezlik bilan farmonni bajarishga hamda ochiqdan-ochiq harbiy jazolar qoʻllashga kirishadi<sup>1</sup>.

A.F.Kerenskiy boshliq 31 nafar Davlat dumasi aʼzolari Ministrlar Kengashi raisi, harbiy, ichki ishlar va adliya vazirligiga yozgan murojaatlarida 1916-yil iyulida Turkistonda boʻlib oʻtgan

<sup>1</sup> Oʻzbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob... 418-bet.



dahshatli voqealarni tasvirlab, «ko‘p minglab «tuzumetslar» jinsi, yoshi farqlanmay jazo ekspeditsiyalari tomonidan yo‘q qilib yuborildi», «qirg‘iz aholisi minglab o‘ldirilmoqda», Samarqand viloyati, Jizzax uyezdida jazo otryadiga o‘z yo‘lida uchragan barcha aholini va butun qishloqlarni yo‘q qilishga buyruq berilgani, aholining yoppasiga qirg‘in qilingani, shahar, qishloq va ovullar yondirib yuborilgani, aholining barcha mol-mulki tortib olingani kabi dahshatli manzara ochiq-oshkora yoritib beriladi. 1916-yilgi qo‘zg‘olon masalasining Davlat dumasida ko‘rilishining asosiy tashkilotchilari, tashabbuskorlari ayni andijonlik taraqqiyparvarlar va demokratlar bo‘ldi.

Shunday qilib, Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingach o‘lka xalqlarining barcha insoniy haq-huquqlari oyoqosti qilindi, milliy zulm kuchaydi. Turkistonliklar milliy-ozodlik kurashlariga otladilar, qo‘zg‘olonlar yuz berdi. Xalq ommasi Rossiya mustamlakachilik iskanjasidan qutulishning birdan bir, eng ishonchli yo‘li qurolli qo‘zg‘olon ekanligini tobora anglab yeta boshladilar. 1916-yilgi qo‘zg‘olon mana shu yo‘ldagi ulkan ko‘tarilish bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olon o‘lka xalqlari kuch-qudratining haqiqiy namoyishiga aylandi. Eng oddiy qurollar bilan qurollangan o‘zbek qirg‘iz, turkman, tojik, qozoq, qoraqalpoq xalqlari 1916-yilda rus istilochilariga qarshi «Jihad» e‘lon qilgan va Turkistonda chor hokimiyatini parchalab tashlab, musulmon davlati barpo etishni ko‘zda tutgan edilar. Ammo xalq qo‘zg‘oloni Rossiya mustamlakachilari tomonidan qonga botirildi. Ammo u Turkiston xalqining ozodlikka bo‘lgan xohish irodasini bostira olmadi. Buni biz Turkiston general-gubernatori Kuropatkinning podshohga yo‘llagan quyidagi xabaridan ham bilsak bo‘ladi: «Yarim asrlik hukmronligi maboynida rus hukumati o‘zga xalqlarni rus podshohining ishonchli xizmatchilariga va rus imperiyasining sodiq fuqarolariga aylantira olmadi»<sup>1</sup>.

Duma majlisida dumaning musulmonlar fraksiyasi raisi Qutlug‘ Muhammad Mirza To‘qil bilan birga Turkiston qo‘zg‘oloni sabablarini aniqlash uchun hozir bo‘lgan A.F.Kerenskiy boshqa urush o‘choqlari qatori Turkistonda ham yangi front yuzaga

<sup>1</sup> История народов Узбекистана. II том, Ташкент, 1947, стр. 256.

kelganidan shikoyat qiladi. U oʻz yurtdoshlarining vahshiyliklaridan voqiv boʻlgach, vayronaga aylantirilgan shahar va qishloqlarni koʻrgach, yuzaki boʻlsada, turkistonliklarni yoqlab chiqdi. 1917-yil fevral inqilobi xabari kelganda, hali Turkistonda 1916-yil qoʻzgʻolonining izlari oʻchmagan, rus hukmronligi toʻla-toʻkis tiklanib ulgurmagan. Turkistonliklar Kerenskiyga tabrik telegrammasi yoʻllashib, uning yordamida ozodlikka chiqishga umid bogʻladilar. Chunki Kerenskiy 1916-yil noyabrda Turkistonda soʻzlagan nutqida rus hukumatini shafqatsizlikda ayblagan, Turkistonga oʻz hukmatini tuzish huquqini berishni talab qilib chiqqan, 1916-yil oxirida Peterburgga kelgan Toʻrgʻay viloyati delegatsiyasiga rus hukumatining vaʼdalariga ishonmaslikni maslahat bergan va shu sababdan nafaqat Turkistonning, balki turkiy xalqlarning ishonchini qisman oqlagan edi<sup>1</sup>.

Xullas, 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobi arafasida Turkistonda murakkab bir ijtimoiy-siyosiy vaziyat vujudga kelgan edi. Oʻlkada yashab kelayotgan xalq ommasi ogʻir ijtimoiy va milliy mustamlakachilik zulmini oʻz boʻynidan uloqtirib tashlash uchun faol kurashga otlanadi. Xususan, 1916-yilgi qoʻzgʻolon bu mintaqa katta siyosiy larzalar arafasida turganligini koʻrsatardi. Ammo xalq ommasining erk uchun, ozodlik va milliy istiqlol uchun olib borayotgan kurashiga boshchilik va rahbarlik qilishini eplay oladigan siyosiy partiya Turkiston oʻlkasida yoʻq edi.

Nihoyat, 1917-yil fevralida Rossiyada inqilob yuz berdi, podshohlik Rossiyasi quladi. Butun mamlakat boʻylab hurriyat, ozodlik keng quloch yoydi. Jadidchi shoir Abdulhamid Choʻlpon bu inqilobni Fransiyadagi XVIII asrdagi buyuk inqilobga tenglashtirdi. Ayni shu fevral inqilobidan keyin Oʻrta Osiyodagi jadidchilik harakatida, jadidlar faoliyatida tamomila yangi davr boshlandi, yangi sahifa ochildi. Jadidlarning oʻz maqsad va istaklarining roʻyobga chiqishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy vaziyat, sharoit yuzaga keldi.

Xullas, jadidchilik harakati oʻzining yangi bosqichiga qadam qoʻydi.

<sup>1</sup> *Мустафо Чўқай ўғли. Керенский ва Туркистон миллий ҳаракати. «Ёш Туркистон», Берлин–Париж. 1930, 9–10-сонлар, 22-бет.*

**Nazorat savollari**

1. Chor Rossiya o'lkani bosib olgach, bu yerda o'z siyosatini yuritishi uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqdi?
2. Tohir Shokir Labik yerli tub xalq tili va islom dini to'g'risida qanday fikrlarni bildirgan?
3. Paxta yakkahokimligi borasida chorizm siyosatini asl maqsadi nimada edi?
4. O'lkada jadidchilik harakati va uning asl mohiyati.
5. 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni nima sababdan boshlandi va uning oqibati qanday bo'ldi?

## XOTIMA

Hurmatli va aziz o'quvchi! Siz «Vatan tarixi» (XVI asrdan 1917-yil fevraligacha) kitobi bilan tanishdingiz. Qisqacha bo'lsada, u sizga mamlakatimiz tarixining mazkur davri bo'yicha tasavvur qilish imkonini berdi. «Vatan tarixi»ning g'oyatda sermazmun, ziddiyatli va qarama-qarshi voqea-hodisalar, tarixiy muammolarga boy bo'lgan XVI asrdan 1917-yil fevral inqilobigacha o'tgan davrini ko'zdan kechirib undan qanday tarixiy, ilmiy va nazariy xulosalar va saboqlar chiqarish mumkin? Bizningcha, ular quyidagilardan iborat.

**Birinchidan**, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrni o'z ichiga olgan Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligimiz tarixining eng yuksak cho'qqisiga chiqqan, rivoj topgan, gullagan davridir. XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelib temuriylar saltanati inqiroz sari yuz tutdi va yemirildi. Uning asosiy sababi temuriy shahzodalar va sultonlar o'rtasidagi toju taxt talashib olib borilgan besamar va foydasiz urushlar bo'ldi. Natijada o'z davrida taraqqiyot va rivojlanishda jahonni lol qoldirgan qudratli temuriylar saltanati taraqqiyotning ancha quyi va past bosqichida bo'lgan, Dashti Qipchoq cho'llarida markaziy davlat o'laroq, shakllangan Muhammad Shayboniyxon davlati tomonidan qilingan xuruj va zarbalarga bardosh bera olmay parchalanib ketdi.

**Ikkinchidan**, XVI–XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'tgan tarixiy davr mobaynida O'rta Osiyo hududidagi tarqoqlik, amirlar va xonlar o'rtasidagi qirg'inbarot va mantiqsiz urushlar shu darajada avj olib ketdiki, oqibat natijada mazkur o'lka xarob bo'ldi va halokat yoqasiga kelib qoldi. To'g'ri, shayboniylardan Abdullaxon II va ashtarxoniylardan Imomqulixon bu hududda markazlashgan kuchli davlat barpo qilishga intildilar, ammo ularning barcha harakatlari kutilgan samarani bermadi.

**Uchinchidan**, O'rta Osiyoda avj olgan o'zaro tarqoqlik o'lkaning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga

juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi, o'lka jahon sivilizatsiyasidan ajralib tor hududiy va biqiq doirada o'ralib qoldi.

**To'rtinchidan**, XVI–XIX asrning birinchi yarmidagi tarqoqlik va iqtisodiy rivojlanishdagi salbiy holatlarga qaramasdan O'rta Osiyo xalqlarining taraqqiyot darajasi umuman to'xtab qolgan emas. Ayniqsa mintaqa xalqlari madaniy-ma'rifiy ijod sohasida ajdodlarimizning ajoyib an'alarini davom ettirdilar, jahon fani adabiyoti va madaniyati rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Bu o'rinda Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Turdi Farog'iy, Mirza Bedil, Abulg'azi Bahodirxon, Muhammad Rizo Ogahiy, Mahtumquli, Boborahim Mashrab, Nodira kabi ijodkorlarning qoldirgan ma'naviy boyliklari nazarda tutilmoqda.

**Beshinchidan**, O'rta Osiyodagi o'zaro tarqoqlik va o'zaro hududiy urushlar ayniqsa so'nggi o'zbek xonliklari davrida halokatlil va fojiali tus oldi. Bu urushlar Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi, Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida shu darajada kuchaydiki, bunday og'ir vaziyatdan dastlab Eron bosqinchilari, so'ngra chor Rossiyasi mustamlakachilari foydalanib qoldilar.

**Oltinchidan**, jahonga hukmronlik qilish da'vosi bilan nafas olgan chor Rossiyasi qadim-qadimdan turkiy xalqlar hududini egallash havasi bilan yashagan. Volgabo'yi, Ural-Oltoy va Sharqiy Sibirdagi turkiy xalqlar istiqomat qilgan hududlarda xo'jayinlikni qo'lga kiritgan Rossiya XIX asr oxirlariga kelib Turkistonning katta hududini egalladi. Juda katta va dahshatli bosqinlar uyushtirdi, qirg'inlar qildi va oqibatda Qo'qon xonligini tugatdi, Buxoro amirligi va Xiva xonligini o'z vassaliga aylantirdi.

**Yettinchidan**, chor Rossiyasi Turkiston o'lkasida og'ir va ayanchli mustamlakachilik siyosatini olib bordi. O'lka boyliklarini taladi va Rossiyaga tashib olib ketdi. Chor Rossiyasi tomondan amalga oshirilgan qurilishlar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'lka boyliklarini ko'roq va mo'lroq tashib ketishga qaratilgan edi. Mustamlakachilar o'lkada yerli xalqlarning ma'naviy qadriyatlariga, tili, dini, milliy urf-odatlariga tajovuz qildi. Mahalliy xalqning barcha erkinliklarini bo'g'di.

**Sakkizinchidan**, Turkiston xalqlari o'zlarining tarixiy

an'analariga sodiq qolib, bosqinchilarga qarshi o'z mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun qahramonlarcha va mardonavor kurashdilar. Chimkent va Toshkent, Samarqand va Ko'ktepa, Andijon va boshqa hududlar uchun dahshatli mudofaa janglari bu fikrimizning yorqin ifodasidir.

**To'qqizinchidan**, Turkiston o'lkasi xalqlari chor Rossiyasi mustamlakachiligini tan olmadilar, ekspluatatsiya va zulmatga qarshi milliy-ozodlik va erk uchun kurashga otlandilar. 1868-yildagi Samarqand, 1873–1876-yillardagi Qo'qon, 1885-yildagi Darvishxon, 1892-yildagi Toshkent, 1898-yildagi Andijon va 1916-yildagi qo'zg'olonlar xalqimizning ozodlik kurashlari tarixiga zarhal harflar bilan yozildi. Bu ozodlik kurashlari davomida turkistonlik vatanparvarlar mardlik va qahramonlik namunalari ni ko'rsatdilar.

**O'ninchidan**, chor Rossiyasi bosqini va mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining milliy tarixiy taraqqiyotini to'xtatib qo'ya olmadi, xalqimizning bunyodkorlik, yaratuvchilik va ijodkorlik faoliyati og'ir sharoitlarda bo'lsada, ilgarilab bordi. Ayniqsa, bu o'rinda ma'naviy ijod sohiblarining o'rni alohida diqqatga loyiqdir. Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi Ho'qandiy, Berdaq, Anbar Otin, Dilshod va boshqalar o'z asarlarida xalq ommasining ezgu niyatlarini kuyladilar, mustamlakachilik zulmini la'natladilar, adolatsizlikka o't ochdilar va haqiqat uchun kurashdilar.

**O'n birinchidan**, Turkiston o'lkasi xalqlari XX asr boshlarida yaqinlashib kelayotgan ozodlik va erk uchun kurashning qudratli larzalari nafasi bilan yashadilar. Bu davrda Turkistonda demokratik harakat ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi. Birinchisi, sotsial-demokratik harakat bo'lib, bu harakatning asosiy namoyandalari Rossiyadan turli taqdirilar taqozosi bilan o'lkaga kelgan rusiyabon xalqlarning vakillari edilar. Tub yerli mahalliy xalq ularga yotsirab, begonasirab qaradi. Kelgindi sotsial-demokratlar ilgari surgan g'oyalar Turkiston mehnatkashlariga tushunarsiz bo'lganligidan ularga ergashmadilar ham.

Turkistonning tub yerli mahalliy xalqi demokratik harakatning asosan ikkinchi yo'nalishiga ergashdilar. Chunki bu

yoʻnalishda ilgari surilgan gʻoyalar tub yerli mahalliy millat vakillarining intilishlari, qiziqishlari va tub pirovard maqsadlarini ifoda etar edi. Turkistondagi demokratik harakatning ikkinchi yoʻnalishi asosan jadidchilikda oʻz aksini topdi. Bu harakatning atoqli va koʻzga koʻringan vakillari Ismoil Gaspinskiy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon, Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayev va boshqalar boʻlib, ular milliy istiqlol, erk va ozodlik gʻoyalarini ilgari surdilar, haqiqat va adolat uchun kurashdilar. Ulugʻ ajdodlarimizning bosib oʻtgan tarixiy vatanparvarlik kurash yoʻllari mustaqil Oʻzbekiston yoshlari uchun oʻrnak va namunadir.



**FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR**

1. **Каримов И.А.** Ўзбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. **Каримов И.А.** Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. **Каримов И.А.** Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. **Каримов И.А.** Бунёдкорлик йўлидан. 4-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.
5. **Каримов И.А.** Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. 5-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1996.
6. **Каримов И.А.** Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1998.
7. **Каримов И.А.** Биз келажакимизни ўзқўлимиз билан қурмоқдамиз. 7-жилд. Т.: Ўзбекистон, 1999.
8. **Каримов И.А.** Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2000.
9. **Каримов И.А.** Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2001.
10. **Каримов И.А.** Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд. Т.: Ўзбекистон, 2002.
11. **Каримов И.А.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси қошида «Ўзбекистоннинг янги тарихи Марказини ташкил этиш» тўғрисида 1996 йил 18 сентябрдаги Фармойиши.
13. «Ўзбекистоннинг янги тарихи»ни тайёрлаш ва нашр этиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 1996 йил 16 декабр. «Халқ сўзи», 1996 йил, 17 декабр.
14. «Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 24 июлдаги қарори. «Халқ сўзи», 1998 йил 25 июл.
15. **Абаза К.** Завоевание Туркестана. Рассказы о войне. «Истории, очерки о природе, быте и нравах туземцев в общедоступном изложении». – СПб. 1902.

16. **Абдулла Авлоний.** Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., 1992.
17. **Абдулла Авлоний.** Усон миллат. Т.: Шарқ, 1993.
18. **Абдуллаев Ортиқбой.** «Туркистоннинг қора қунлари». // Шарқ юлдузи, 1992. №12.
19. **Абдулла Қодирий.** Ўтган қунлар. Т., 1974.
20. **Абулғози Баҳодирхон.** Шажараи турк. Т.: Чўлпон, 1992.
21. **Адам Жулётта Ламбер.** Генерал Скобелев. СПб, 1886.
22. **Азадаев Ф.А.** Ташкент во второй половине XIX в. Очерки социально-экономической и политической истории. Т., 1959.
23. **Азамат Зиё.** Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.: Шарқ, 2000.
24. **Алиев А.** Махмудхўжа Бехбудий. Т., 1994.
25. **Алимова Д., Рашидова Д.** Махмудхўжа Бехбудий и его историческое воззрение. Т.: Маънавият, 1998.
26. **Алишер Навоий.** Мажолисун – нафоис. Т.: Фан, 1966.
27. **Амир Олимхон.** Бухоро халқининг хасрати тарихи. Т.: Фан, 1991.
28. **Апполова Н.Г.** «Присоединение Казахстана к России в 30-х годах XVIII века». Алма-Ата, 1848.
29. **Аҳмедов Б.А.** Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (Письменные памятники). Т., 1985.
30. **Аҳмедов Б.А.** Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т.: Ўқитувчи, 1991.
31. **Аҳмедов Б.А.** Ўзбек улуси. Т.: Нур, 1992.
32. **Аҳмедов Б.А.** Тарихдан сабоқлар. Т.: Ўқитувчи, 1994.
33. **Аскарлов А.** Тарих фани: кеча ва эртага. Турон тарихи. Т., 1993, 4–5-бетлар.
34. **Аскарлов А.** Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (ўқув кўлланма). Т.: Университет, 2007.
35. **Амирсаидов А., Эгамбердиев А.** История Кокандского ханства. Т., 2007.
36. **Андижон тарихидан лавҳалар.** Андижон: Andijon nashriyotmatbaa, 2007.
37. **Бартольд В.В.** «Туземец о русском завоевании» (Т., 1953, перепечатана из газеты «Туркестанские ведомости». 1898. № 13,14, 35–37 и 40).
38. **Бартольд В.** История культурной жизни Туркестана. Т., 1913.
39. **Бартольд В.** «Геок-тепе». Соч. Т.3. М., 1965, стр. 399.
40. **Бесембиев Т.К.** «Тарих-и Шахрухи» как исторический источник. Алма-Ата, 1987.
41. **Бобоев Х., Хидиров З., Шодиёв Ж., Аҳмедова М.** Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). Т., 2009.

42. **Болтабоев Х.** Фитрат ва жадидчилик. Илмий-тадқиқий мақолалар. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
43. **Бобобеков Хайдарбек.** Кўкон тарихи. Т.: Фан, 1996.
44. **Бобобеков Х., Каримов Ш., Содиқов М., Усмонов Қ., Холбоев С., Шамсутдинов Р.** Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. Т., «Шарк», 2000.
45. **Бабабеков Х.Н.** Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки. Т., «Фан», 1990.
46. **Boymirza Hayit.** Turkistanin Kisatarin. Berlin, 1944. 112 s. (турк тилида).
47. **Верещагин В.В.** Из путешествия по Средней Азии. // Голос, 1869. №94, 98. Т.сб.т.24.
48. **Верещагин В.В.** От Петербурга до Ташкента. Санкт-Петербургские ведомости. 1868, №16,20,31. Т. сб., т. 7.
49. Военные действия против кокандцев в 1875–1876 гг. (По официальным донесениям).СПб, 1888. Кн.9. – 44. Война с кокандцами. «Московские ведомости», 1876, №318.
50. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Сборник документов и материалов. М., 1960.
51. **Галузо П.** «Туркестан–колония» (очерк истории Туркестана от завоевания русскими до революции 1917 г. М., 1929).
52. **Галузо П.Г.** Вооружение русских переселенцев. М.,1926.
53. **Галузо П.Г.** Туркестан–колония. Т., 1935.
54. **Гаспринский И.** Русское мусульманство». Петербург, 1881.
55. **Гейнс К. Н.** «Очерк боевой жизни Ахал-Текинского отряда 1880–1881 гг.». СПб, 1882.
56. **Гинзбург А. И.** Русское население в Туркестане. М., 1991.
57. **Григорьев В. В.** Описание Хивинского ханства и дороги туда из Сарайчиковой крепости. (ЗИРГО.вип.ИИ,Спб, 1861).
58. **Гродеков Н.** «Война в Туркмении. Поход Скобелева в 1880–1881 гг.».Т. 1–4, СПб, 1883–1884.
59. **Гулбаданбегим.** «Хумоюннома». Т., 1959.
60. **Гулямов Я.** История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан, 1957.
61. **Дубовицкий В.** Русско-среднеазиатические отношения. «Фрунзевец», 1990, 11 июля.
62. **Дмитровский Н.А.** Двадцатипятилетие Туркестанской публичной библиотеки «Туркестанские ведомости», 1895, № 15, 18, 28, 33, 37.

63. «Жадидчилик: ислохот, янгиланиш, мустакил тараққиёт учун кураш». Тошкент, «Университет», 1999.
64. Жалилов О. XIX–XX аср бошларида қорақалпоқлар тарихига оид муҳим ҳужжатлар. Т., «Фан», 1977.
65. Желябужский Э. «Очерки о завоевании Хивы», 1875.
66. Жунаидхон ўғли Турақўрғоний Ибрат. «Тарихи Фарғона». Тошкент: Мерос, 1995.
67. Жўракулов О. Қашқадарё манғитлари. Т.: Фан, 1994.
68. Зайтсев В. Н. История 4-го Туркестанского линейного батальона. С картой за период с 1771 по 1882 г. как материал к описанию движения русских в Средней Азии. Составил поручик Зайцев В.Н. Т., 1982.
69. Закий Валидий Тўғон. Хотиралар. // Шарқ юлдузи, 1993 йил.
70. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: Шарқ, 2002.
71. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент: Шарқ, 2008.
72. Зиё Саид. Танланган асарлар. Т., 1974.
73. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Т.: Шарқ, 1998.
74. Зиёев Ҳ. Чоризм ва пахта яккахокимлиги. // Шарқ юлдузи, 1991 йил, 5-сон.
75. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
76. Иброхимов А. Бобурийлар мероси. Т.: Мехнат, 1993.
77. Иброхим Ёркин. Туркистонда 1916 йил исёни ҳақида баъзи маълумотлар. Турк маданияти журнали. Анкара, 1968, 68-сон.
78. Иванин М. «Описание зимнего похода в Хиву в 1839–1840 гг. СПб, 1874.
79. Иванов Н.А. «Памяти Туркестанского генерал-губернатора и командующего войсками Туркестанского округа Николая Александровича Иванова». Т., 1909.
80. Исмоилова Ж. Фарғона водийсида миллий озодлик курашлари. Т., 2003.
81. Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII – нач. XX вв. «O‘ZDAV MATBUOTI». Т., 2009.
82. История Узбекистана. Том III. (XVI – первая половина XIX века). Ташкент, 1993, «Источники. Историография».
83. История изучения Востока в Европе и России. СПб, 1911. Бартольд В.В. Сочинение. Т. IX. М., 1977.

**84.** История народов Узбекистана. Под.ред. член-корр. АН СССР заслуж.деятели науки УзССР С.Б.Бахрушина и кандидатов ист. наук В.Я.Непомнина и В.А. Шишкина. Ташкент, 1947.

**85.** История Ташкента. С древнейших времен до победы Февральской буржуазно-демократической революции. Т., 1984.

**86.** История и историография национально-освободительных движений второй половины XIX–начала XX вв. Средней Азии и Казахстана. Т., 1989.

**87.** История Андижана в документах и материалах (1876–1917 гг.). Сост.: Шамсутдинов Р.Т., Хошимов С., Бозоров К. Том 1. Андижан, 2009.

**88.** Юлдошев Ж., Ҳасанов С. Жадид тарбияшунослиги асослари. Т., 1994.

**89.** Казначев И. В. Генерал-адъютант М.Д. Скобелев. Петроград, 1916.

**90.** Каримов Н. Истиклолни уйғотган шоир. Т.: Маънавият, 2000.

**91.** Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Русия босқини даврида. Андижон, 1995.

**92.** Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Ватан тарихи. Биринчи китоб. Т.: Ўқитувчи, 1997.

**93.** Карим Шониёзов. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Т.: Шарк, 2001.

**94.** Кауфман А. П. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края.–СПб, 1903.

**95.** Катюкова М. «Из истории борьбы за представительство Туркестана в Государственной думе Российской Империи» // Ўзбекистон тарихи, 2002, №3.

**96.** Кауфман А. П. «Переселение и колонизация». СПб, 1905.

**97.** Кастельская З. Основные предпосылки восстания 1916 г. в Узбекистане. М., 1972.

**98.** Кастельская З. Из истории Туркестанского края (1865–1917). М., 1980.

**99.** Кенесариев Т. Кўргўздар жана Кокон хандўғў. Ош, 1997.

**100.** Ковалёв П.А. Тыловые рабочие Туркестана в годы первой мировой войны. Т.: Госиздат, 1957.

**101.** Ковалев П.А. Революционная ситуация 1915–1917 гг. и её проявление в Туркестане. Т., 1971.

**102.** «Константин Петрович фон Кауфман – ускоритель Туркестанского края». Личные воспоминания Н. П. Остроумова (1877–1881гг.). Т., 1899.

- 103. Костин Б.** «Скобелев М.», «Патриот», 1990.
- 104. Ким П.Г.** Уйдирма ва хақиқат. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1989, 20 октябр.
- 105. Куропаткин А.** Завоевание Туркмении. (Поход в Ахал-Теке в 1880–1881 гг. С очерком военные действия в Средней Азии с 1839 по 1876). СПб, изд. В.Березовский, 1989.
- 106. Лазиз Азиззода.** «Бехбудий». «Маориф ва ўқитувчи», 1926, №2.
- 107. Ликошин Н.С.** Полжизни в Туркестане. Л., 1930.
- 108. Лобсевич Ф.** «Поступательное движение в Среднюю Азию в торговом и дипломатическо-военном отношениях». – (Дополнительный материал для истории хивинского похода 1873 г. Из официальных источников.) СПб, 1900.
- 109. Логофет Д. Н.** «На границах Средней Азии». Путешествие. Очерки в 3 книгах, СПб, 1903.
- 110. Лаврентьев В.** «Капитализм в Туркестане» (Буржуазная колонизация в Средней Азии). Л., 1930.
- 111. Лунин Б.В.** Средняя Азия в научном наследии отечественного востоковедения. Исторический очерк. Ташкент, 1979.
- 112. Мавлонов Ў.М.** Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. — Т.: Академия, 2008.
- 113. Мак Гехен.** Туркларга қарши рус даҳшати. Истанбул, «Мухит» нашриёти, 1970.
- 114. Мажид Ҳасаний.** Юрт бўйнидаги қилич ёки истило. Т.: Адолат, 1997.
- 115. Мажид Ҳасаний.** Туркистон босқини. Т.: Нур, 1992.
- 116.** Материалы научной сессии, посвященной истории Средней Азии и Казахстана в дооктябрьский период. Ташкент, 1955.
- 117. Масальский В.И.** Хлопковое дело в Средней Азии. СПб, 1892.
- 118. Масальский В.** Россия. Полное географическое описание нашего отечества. СПб., 1913.
- 119. Макшеев А. И.** «Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских». СПб, 1890.
- 120.** Марказий Осиё XX аср бошида: ислохотлар, янгиланиш, тараққиёт ва мустақиллик учун кураш (жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик). Т.: Маънавият, 2001.
- 121. Маҳмудова Г.** Жадидизм ва Туркистонда ахлокий-эстетик фикр тараққиёти. Т.: DAVR PRESS, 2009.
- 122. Мерт. Ў.** Бухоро амирлиги элчиси Мухаммад Порсо Афандининг Истанбулдаги дипломатик фаолиятлари (1867–1869). Турк культуры Аралаштирмалари, XV. 1–2 (1976).

123. **Мирмухаммад Амин Бухорий.** Убайдуллонома. Пер. с персидского, прим. А. Сенеева. Т.: Фан, 1957.
124. **Мирза Мухаммад Хайдар.** Тарихи-и Рашиди. Введение. Перевод с персидского А.Урунбоева, Р.П.Жалиловой, Л.М.Эпифановой. Примечания и указатели Р.П.Жалиловой, Л.М.Эпифановой. Т.: Фан, 1996.
125. **Мулло Олим Махмуд Хожи.** Тарихи Туркистон. Қарши, «Насаф», 1992.
126. **Мулло Олим Махдум Хўжа.** Тарихи Туркистон. Тошкент, 1915.
127. **Мулло Юнусхон.** Амири лашкар Алимкул тарихи. Алимкул жангномаси. Нашрга тайёрлаганлар Р.Шамсутдинов, П.Равшанов. Т., 1998.
128. **Муhammadжонов А.Р., Нейматов Т.** Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Т.: Фан, 1957.
129. **Муhammadжонов А.Р.** История орошения низовьев Зарафшана (с древнейших времен до начала XX в.). Ташкент, 1972.
130. **Муhammadжонов А.** Ўзбекистон тарихи (V асрдан XVI аср бошларигача). Т.: Ўқитувчи, 1994.
131. **Мухторов А.** Дильшод и его место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX – начале XX вв.
132. **Мунаввар Қори Абдурашидхонов.** Хотираларимдан (жадидчилик тарихидан лавҳалар). Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи С.Холбоев. Т., «Шарк», 2001.
133. **Мустафо Чўқай ўғли.** Керенский ва Туркистон миллий ҳаракати. «Ёш Туркистон», Берлин – Париж. 1930, 9–10-сонлар.
134. **Муhammad Солих Тошкандий.** Тарихи жадидаи Тошкент. ЎзР ФА Шарқшунослик институти, қўлёзма № 5732.
135. **Муhammad Азиз ибн Муhammad Ризо Марғилоний.** «Тарихи Азизий». Т., 2000.
136. **Мукминова Р.Г.** К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам «вакф-наме». Ташкент, 1965.
137. **Мукминова Р.Г., Бобобеков Х.** ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Т., 1994.
138. **Мўминов И.** Мирзо Бедил. Т., 1974.
139. **Набиев Р.Н.** «Из истории Кокандского ханства». Т.: Фан, 1973.
140. **Наливкин В.П.** Краткая история Кокандского ханства. Казань, 1886.
141. **Неру Джавахарлал.** Открытие Индии. М., Политиздат, 1989.



**142. Никольский М.** «Героические кровавые страницы Ахалтекинской экспедиции и осад крепости Голубых гор (Геоктепа)». СПб, «Самокат», 1903.

**143. Ниёзмухаммад Ашур Мухаммад ўгли Қўқондий.** «Тарихи Шоҳруҳи». Қозон, 1875.

**144. Норқулов Н., Сирожиддинов С.** Намоз ким эди? «Ленин йўли», 1972, 16–18 май сонлари.

**145. Норқулов Н., Жўраев У.** Ўзбекистон тарихи. XVI–XIX асрнинг биринчи ярми. Учинчи нашр. Т.: Шарқ, 2007.

**146. Олим Шарофиддинов.** Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Тошкент, II жилд, 1945.

**147. Остроумов Н.П.** К истории народного образования в Туркестанском крае. Константин Петрович фон Кауфман – строитель Туркестанского края. Личные воспоминания Н.Л.Остроумова (1877–1881 гг.). Т., 1899.

**148. Орлов А.С., Георгиев В.А., Георгиева Н.Г., Сиховина Т.А.** История России. Учебник. Издание второе, переработанное и дополненное. «Проспект», Москва, 2001.

**149. Полвонов Н.** Ёш хиваликлар партиясининг ташкил топиш санаси хусусида. // ЎЗМУ хабарлари, 2002. № 2.

**150. Попов А. Л.** «Из истории завоевания Средней Азии» (Исторические записки). Т., 1940.

**151. Попов М.** «Ак пашша – белый генерал». // Звезда Востока, 1990. № 3.

**152. Покровский М.Н.** К вопросу об историческом развитии России. Ленинград, 1925.

**153. Пиримкул Қодиров.** Рухнинг жасорати. // Халқ сўзи, 1991 йил. I феврал.

**154. Ражабов Қ.** Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар. Т.: Ўзбекистан, 2000.

**155. Ражабов Қ., Ҳайдаров М.** Туркистон тарихи. Т.: Университет, 2002.

**156. Савитский А.П.** «К истории правобережного района Амударьи после присоединения к России». Т., 1957.

**157. Садиков А.С.** Россия и Хива в конце XIX – начале XX века. Т., 1972.

**158. Сагдуллаев А.С., Аминов Б, Мавлонов Ў., Норқулов Н.** «Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти». Т.: Шарқ, 2000.

**159. Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў.** Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Т.: Академия, 2006.

160. Саидкулов Т. Ўрта Осиё халклари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. (1-қисм). Тошкент, 1993.
161. Санг-Заде. К 30-летию Андижанского восстания 1898 г. «Революция в Средней Азии». Сборник 1. Ташкент, 1928.
162. Сайфиддин Ҳожи Жалилов. Салтанатни титратган кунлар (Андижон кўзғолонининг 100 йиллигига бағишланади). Т.: Фан, 1998.
163. Серебренников А. Г. «Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания», 10 т. Собрал полковник А. К. Серебренников. Т., Штаб Туркестанского военного округа. 1914–1915.
164. Серебренников А. Военные действия против кокандцев (на основе официальных данных). «Военный сборник», 1876, № 2.
165. Сирождин Аҳмад. Мунаввар Қори. // Шарқ юлдузи, 1992 йил. 5-сон.
166. Содиков Х., Бобобеков Х. Курбонжон – халқ мададқори. // Гулистон, 1974 йил, 7-сон.
167. Содиков Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. Жадиқлар ва рус демократлари. // Ўзбекистон овози, 1997. 18,20,23,25, 30 декабр сонлари.
168. Тагеев Б. Л. «Памирские походы» 1892–1895 гг. «Десятилетие присоединения Памира к России». Варшава, 1902.
169. Тарих шаҳидлиги ва сабоқлари. Д.Алимова таҳрири остида. Т.: Шарқ, 2001.
170. Тарих-и Алимқули амир-и Лашқар. Шодмон Воҳид Ҳусайнзода сўз боши ёзиб, нашрга тайёрлаган. // Шарқ юлдузи, 1996 йил, 1–2-сонлар.
171. Терентьев И.А. «История завоевания Средней Азии». Т.2, СПб, 1906.
172. Тиллабоев С. Мустамлақачиларга қарши Дарвишхон бошчилигидаги кўзғолон. // Ўзбекистон тарихи, 2002, 1-сон.
173. Тихомиров М.Н. «Присоединение Мерва к России». М., Изд. Вос-лит. 1960.
174. Тўраев А.Х. XIX аср охири – XX аср бошида Қорақалпоғистондаги дехқонлар ҳаракати. Нукус: Қорақалпоғистон, 1991.
175. Туркистон матбуоти тарихи (1870–1917) Т.: Академия, 2000.
176. Турсунов Х., Бекназаров Н. «Ўзбекистон ССР тарихи». Т.: Ўқитувчи, 1982.
177. Файзулла Қиличев. Мустақилликнинг фожиали йўли. // Шарқ юлдузи, 1992 йил, 7-сон.
178. Федоров Е. Очерки национально-освободительного движения в Средней Азии. Т., 1925.

**179. Фозилбек Отабек ўғли.** «Дукчи Эшон вокеаси». Фарғонада истибдод жаллодлари. Нашрга тайёрловчилар Сирожиддин Ахмад, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев. Т.: Чўлпон, 1991.

**180. Ўзбекистоннинг янги тарихи.** Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарк, 2000.

**181. Ўзбекистон ССР тарихи.** 1-том, 1-китоб. С.П.Толстов, А.Н.Набиев, Я.Ф. Фуломов ва В.А.Шишкиннинг тахрири остида. Т.: Фан, 1956.

**182. Ўзбекистон ССР тарихи.** И.Мўминов тахрири остида. I–II жилд. Т.: Фан, 1970.

**183. Ўзбекистон ССР тарихи.** Муаллифлар жамоаси. Қадимги даврдан ҳозирги кунларгача. Т.: Фан, 1974.

**184. Ўзбекистон тарихи ва маданияти.** Маърузалар тўплами. Ш.Каримов тахрири остида. Т.: Ўқитувчи, 1992.

**185. Ўзбекистон халқлари тарихи.** 1–2 том. Академик А.Асқаров тахрири остида, 1992.

**186. Ўзбекистон тарихи.** Т.: Университет, 1997.

**187. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг номутахассис факултетлари учун дарслик).** Т.: Янги аср авлоди, 2003.

**188. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.** Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001, I–IV жилд.

**189. Марказий Осиё тарихига доир материаллар.** X–XIX асрлар. Т.: Фан, 1998.

**190. Ҳабибулло, Рустамбек Шамсутдинов.** «Ёлқин». Тарихий роман. Т.: Шарк, 2001.

**191. Халфин Н.А.** Политика России в Средней Азии (1857–1868). М., 1960.

**192. Хасанов А.Х.** Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. М., 1977.

**193. Хидоятлов Г.А.** Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60–70 гг.). Т., 1969.

**194. Ҳолбоев С.** Мунаввар Қори. // Фан ва турмуш, 1991, 4-сон.

**195. Ҳолбоев С.** Ойболта остидаги сўз. «Турон тарихи». Т., 1992.

**196. Ҳолбоев С.** Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Ўрта Осиёдаги педагогик фикрлар тадқиқотидан лавҳалар. Т.: Фан, 1996.

**197. Хорошин М.** «Геройский подвиг уральцев под Иконом; 5 и 6 декабря 1864 г. Уральск, 1895.

**198. Хорошин А. П.** Туркистон ўлкасига оид мақолалар тўплами. Санкт-Петербург. П.Равшанов ўзбек тилига ўғирган қўлёзма.

**199. Ҳожа Самандар Термизий.** Дастур ул-мулук. Форс тилидан Жаббор Есонов таржимаси. Т., 2007.

- 200. Чориев Зоир.** Туркистон мардикорлари: сафарбарлик ва унинг оқибатлари (1916–1917 йиллар). Т.: Шарқ, 1999.
- 201. Шамсутдинов Р., Абдуллаев Ф., Абдуллаев М.** Буюк Бобурийлар салтанати. Андижон: Мерос, 1995.
- 202. Шамсутдинов Рустам.** «Дукчи Эшон вокеасидан сўнг». // Шарқ юлдузи, 1991, 6-сон.
- 203. Шамсутдинов Рустамбек.** Жасоратларга тўла ҳаёт соҳиби. Андижон, 1991.
- 204. Шамсутдинов Рустамбек.** Тарихий меросимизга бир назар. Андижон: Мерос, 1994.
- 205. Шамсутдинов Рустамбек.** Жади́дчилик: ҳақиқат ва уйдирма. // Мулоқот, 1991, № 11, 12.
- 206. Шамсутдинов Рустамбек.** Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. Т.: Шарқ, 2001.
- 207. Шамсутдинов Р.Т., Расулов Б.М.** Истиклол учун кураш фидойилари. Андижон: Мерос, 1993.
- 208. Шамсутдинов Р.Т., Расулов Б.М.** Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири–XX аср бошлари). Андижон: Мерос, 1995.
- 209. Шамсутдинов Р.Т.** Русские демократы и туркестанские джадиды: их совместная борьба. История: проблемы объективности и нравственности. Ташкент, 2003.
- 210. Шамсутдинов Р.Т., Бойқобилов Б.** Истиклол ва миллий тарих. // Қишлоқ ҳаёти, 2002 йил, 4, 8, 11, 15 октябр.
- 211. Шариф Юсуфов.** Буни умр дерлар... // Жамият ва бошқарув, 2002 йил, 1-сон.
- 212. Шухрат Ризаев.** Жади́д драмаси. Т.: Шарқ, 1997.
- 213. Шкапский О.** «Прошлое и настоящее Туркестана» (К 50-летию штурма г. Ташкента). 1915, «Кауфманский сборник изданий в памяти 25 лет, истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края ген.-адъютанта К.П. Фон Кауфмана 1-го». М., 1910.
- 214. Эгамназаров Алиназар.** Сиз билган Дукчи Эшон. Ҳужжатли қисса. «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти. Тошкент, 1994.
- 215. Эгамбердиев А., Амирсайдов А.** История Кокандского ханства... Т.: 2007.
- 216. Юдин М.** Взятие Ак-мечети в 1853 г. как начало завоевания Кокандского ханства. М., 1912.
- 217. Юлдашев А.М.** Аграрные отношения в Туркестане. Конец XIX – начала XX вв. Т., 1969.

- 218. Юлдашев М.** К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI–XV вв. Т.: Фан, 1964.
- 219. Юсупов Ш.** Худоёрхон ва Фурқат. Т.: Шарқ, 1995.
- 220.** Янги Туркистон. Истанбул, 1927, 1-сон.
- 221. Юсупов Шариф.** Тарих ва адаб бўстои. Т.: Маънавият, 2003.
- 222. Хайдаров Х.** Жиззах тарихидан лавҳалар. Т.: Мехнат, 1992.
- 223. Ҳамза.** Тўла асарлар тўплами. 2-жилд. Тошкент, 1998.
- 224. Ҳофиз Таниш ибн Мир Муҳаммад Бухорий.** Абдуллонома. 1-жилд. Т.: Фан, 1999.
- 225. Қосимова О.** Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1992.
- 226. Қосимов Б.** Исмоилбек Гаспринский. Т., 1992.
- 227. Қосимов Б.** Абдулла Авлоний. Т., 1979.
- 228. Қосимов Б.** Долимов У. Маърифат дарғалари. Т., 1990.

### Диссертациялар

- 1. Зиёева Д.Х.** Туркистонда миллий-озодлик ҳаракати XX аср тарихнавислигида (1916 йил кўзғолони ва 1918–1924 йиллардаги истиклолчилик ҳаракатини ўрганиш муаммолари). Докт. дисс. Тошкент, 1999.
- 2. Кененсариев Ташманбет.** XIX килимдин 50–76-хил-дариндаги Киргизстандаги соясий ОНУГУУ. Адистити: 07,00,02 – Киргизстандиди тарихи. Тарих илимдеринин доктору онумуштулик даражасинин алууга талантанин жазилган дисертациянин автореферати. Бишкек, 1998.
- 3. Содиқов Х. Ж.** XX аср бошларида чоризминг Туркистондаги мустамлакачилик сиёсати ва истиклол учун кураш. Докт. дисс. Тошкент, 1994.
- 4. Расулов Б.М.** Ўзбекистондаги мусулмон мактаб ва мадрасалари тарихидан (XIX аср охири ва XX асрнинг 20-йиллари). Номзодлик диссертацияси. Андижон, 1996.
- 5. Хаиров А.** Ташкентская городская дума в период трех революций. Дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. Ташкент, 1948.
- 6. Чориев З.У.** XX аср бошида Туркистон ўлкасида мустамлакачилик сиёсати ва миллий зулмининг кучайиши ҳамда унинг оқибатлари. (Мардикорликка сафарбарлик мисолида). Докт. дисс. Тошкент, 1999.
- 7. Полвонов Н.Т.** Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900–1924 йиллар). Ном.дисс.автореферати. Тошкент, 2005.

## MUNDARIJA

<b>Muqaddima</b> .....	4
------------------------	---

### **I bob. XVI asr va XIX asrning birinchi yarmida Oʻrta Osiyo xalqlari**

1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi .....	11
2. Shayboniyxon va Bobur Mirzoning oʻzaro munosabatlari .....	13
3. Shayboniyxon va Shoh Ismoil .....	16
4. Buxoro xonligining tashkil topishi .....	23
5. Ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi .....	29
6. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatida siyosiy tuzum, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar .....	36
7. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida madaniyat va adabiyot .....	46
8. Jahon sivilizatsiyasida Boburiylar merosi .....	61

### **II bob. Oʻzbek xonliklari**

1. Xonliklarning tashkil topishidagi tarixiy sharoit .....	71
2. Buxoro amirligi – mangʻitlar sulolasi .....	76
3. Xiva xonligi .....	90
4. Qoʻqon xonligi .....	98
5. XVI asr va XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar .....	113
6. Xonliklarning davrida taʼlim, fan va madaniyat .....	119
7. Meʼmorchilik va sanʼat .....	143

### **III bob. Turkistonning chor Rossiya tomonidan bosib olinishi**

1. Turkistonni zabt etishning boshlanishi .....	149
2. Toshkentning mudofaa qilinishi .....	158
3. Buxoro amirligiga qarshi olib borilgan janglar .....	161
4. Xiva xonligining zabt etilishi .....	169
5. Qoʻqon xonligiga qarshi yurishlar va uning tugatilishi .....	175
6. Turkistonni bosib olishning tugallanishi .....	184

### **IV bob. Turkistonda chorizmning mustamlaka hukmronligi**

1. Oʻlkada mustamlakachilik siyosati .....	189
2. Mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash .....	209

3. Darvishxon boshchiligidagi qo'zg'olon .....	210
4. Toshkent qo'zg'oloni .....	212
5. 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni .....	215

### **V bob. Mustamlaka Turkistonida madaniy hayot**

1. Maorif .....	230
2. Adabiy-ma'rifiy jarayon. Tarix va badiiy ijod .....	234

### **VI bob. Turkiston XX asr boshlaridagi siyosiy larzalar va bo'hronlar davrida**

1. Turkistonda chor Rossiyasi mustamlakachilik zulmining yanada kuchayishi .....	259
2. O'lkada demokratik va milliy ozodlik harakatlarining avj olishi .....	270
3. Jadidchilik harakati .....	271
4. 1916-yilgi qo'zg'olon .....	308

<b>Xotima</b> .....	345
<b>Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar</b> .....	349



## СОДЕРЖАНИЕ

Введение .....	4
----------------	---

**I глава. Народы Средней Азии в XVI в. и в первой половине XIX в.**

1. Образование государства Шейбанидов .....	11
2. Взаимоотношения Шейбанихана и Бабура .....	13
3. Шейбанихан и царь Исмаил .....	16
4. Образование Бухарского ханства .....	23
5. Династия Аштарханидов .....	29
6. Политический строй, социально-экономические отношения государств Шейбанидов и Аштарханидов .....	36
7. Культура и литература периода Шейбанидов и Аштарханидов ....	46
8. Наследие Бабуридов .....	61

**II глава. Узбекские ханства**

1. Исторические условия образования ханств .....	71
2. Бухарский Эмират Мангитов .....	76
3. Хивинское ханство .....	90
4. Кокандское ханство .....	98
5. Каракалпаки в XV – первая половина XIX века .....	113
6. Просвещение, наука и культура периода ханства .....	119
7. Архитектура и искусство .....	143

**III глава. Завоевание Туркестана царской Россией**

1. Начало завоевания Туркестана .....	149
2. Организации обороны Ташкента .....	158
3. Восстание против Бухарского Эмирата .....	161
4. Завоевание Хивинского ханства .....	169
5. Вонные походы против Кокандского ханства и его ликвидации ....	175
6. Завершение завоевания Туркестана .....	184

**IV глава. Колониальное господство царизма в Туркестане**

1. Колониальная политика в крае .....	189
2. Борьба против колониального гнета .....	209

3. Восстание Дервишхана .....	210
4. Ташкентское восстание .....	212
5. Андижанское восстание 1898 года .....	215

#### **V глава. Культурная жизнь колониального Туркестана**

1. Просвещение .....	230
2. Художественно-просветительный процесс. История и литературное творчество .....	234

#### **VI глава. Туркестан в эпоху политических потрясений и кризисов (начало XX в.)**

1. Обострение колониального ига царской России в Туркестане ...	259
2. Развертывание демократических и национально- освободительных движений в крае .....	270
3. Движения джадидов .....	271
4. Восстание 1916 года .....	308

<b>Заключение</b> .....	345
<b>Использованные источники и литература</b> .....	349

## THE CONTENT

<b>Introduction</b> .....	4
---------------------------	---

### Chapter I. The people of Central Asia in the XVI century and in the first half of XIX century

1. The formation of Shaybanid's state .....	11
2. Mutual relations between Shaybanikhan and Babur .....	13
3. Shaybanikhan and king Ismail .....	16
4. The formation Bukhara khans .....	23
5. Dynasties of Ashtarhanid's .....	29
6. Political, social economic relations of the states of Shaybanid's and Ashtarhanid's .....	36
7. Culture and literature of the period of Shaybanid's and Ashtarhanid's .....	46
8. Baburid's heritage .....	61

### Chapter II. Uzbek khans

1. Historical conditions of formation khans states .....	71
2. Bukhara emirate – Mangits .....	76
3. The khans of Khiva .....	90
4. The khans of Kakand .....	98
5. Kara kalpak's in the XV th and in the first half of XIX th centuries .....	113
6. Education, science and culture at the period of khans .....	119
7. Architecture and art .....	143

### Chapter III. The occupation of Turkistan by the tsarist Russia

1. Beginning of the occupation of Turkistan .....	149
2. Organization of the defense of Tashkent .....	158
3. Revolts against Bukhara emirate .....	161
4. The occupation of Khiva khans state .....	169
5. The military campaigns against of Kakand's khans and it's liquidation .....	175
6. End of occupation of Turkistan .....	184

## **Chapter IV. Colonial domination of the tsarist in Turkistan**

1. Colonial politics in Turkistan .....	189
2. Struggles against colonial anger .....	209
3. Dervish Hans's revolt .....	210
4. Tashkent revolts .....	212
5. Andijan revolts in 1898 .....	215

## **Chapter V. Cultural life in colonial Turkistan**

1. Education .....	230
2. The Enlighten process. Historical and literarily creativity .....	234

## **Chapter VI. Turkistan the epoch of political shock and crises (beginning XX century)**

1. Aggravation of colonial yoke of Russian tsarist .....	259
2. Expansion of democratic and national-liberation movements in Turkistan .....	270
3. Jadids movement .....	271
4. Revolt in 1916 .....	308

<b>Conclusion</b> .....	345
<b>Used sources and literature</b> .....	349

SHAMSUTDINOV RUSTAMBEK, KARIMOV SHODI,

UBAYDULLAYEV O'KTAMJON

## **VATAN TARIXI**

(XVI–XX asr boshlari)

*Ikkinchi kitob*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2010

Muharrir *Sh. Ergasheva*  
Badiiy muharrir *M. A'lamov*  
Texnik muharrir *D. Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *T. Ogay*  
Musahhihlar: *A. Zokirov, Sh. Xurramova*

2010-yil 06.04 sahifalashga berildi. 2010-yil 17.05 bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>. «Tayms» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tobog‘i 33.0. Nashriyot-hisob tobog‘i 35.0. Adadi 3000 nusxa. 1010-sonli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**